

S.M.QODIROV

# ICHKI YONUV DVIGATELLARI

(nazariya, konstruksiya)

*Sh.Shomansurov tahriri ostida*

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi texnika oliy o‘quv yurtlarining (bakalavriat) yo‘nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etgan

Тошкент  
“Янги яср авлоди”  
2006

Darslikning birinchi qismida avtomobil, traktor, qishloq xo‘jalik va yo‘l qurish mashinalarining ichki yonuv dvigatellarida sodir bo‘ladigan jarayonlarning nazariyasi hamda ularning ish sikli, quvvati va yonilg‘i sarfiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilingan; yonilg‘ilar va ularning yonishida sodir bo‘ladigan kimyoviy reaktsiyalar bayon etilgan. Karbyuratorli dvigatellarda yonilg‘i berish va havo aralashtirish apparatlarining ishlash prinsipi, dizellarda yonilg‘i berish apparatining ishlashi hamda yonuvchi aralashma hosil qilish jarayonlari ko‘rib chiqilgan. Dvigatellarni sinash usullari va bu maqsadda qo‘llaniladigan asboblar, sinash natijasida olinadigan xarakteristikalar, shuningdek, dvigatel konstruksiyalarining rivojlanish istiqbollari bayon etilgan.

Darslikning ikkinchi qismida krivoship-shatunli mexanizmning kinematikasi va dinamikasi, dvigatellarni muvozanatlash va ravon ishlashini ta’minlash masalalari, dvigatelning barcha tizimlari (havo va yonilg‘i kiritish, moylash, sovitish tizimlari) va detal-larining tuzilishi ko‘rib chiqilgan.

Darslik texnika oliy o‘quv yurtlarining:

5521200 Transport vositalaridan foydalanish va ta’mirlash;

5521100 Yer usti transporti tizimlari;

5140900 Kasbga o‘qitish (EUTT, TVFT);

5521300 Elektrotexnika, elektromexanika va elektro-  
texnologiya;

5850100 Atrof muxit muxofazasi;

5520100 Energetika mashinosozligi (Ichki yonuv dvigatellari);

5520700 Qishloq xo‘jaligi mashinalari va jihozlari yo‘nalishlari  
(bakalavriat) talabalariga mo‘ljallangan.

*Taqrizchilar: professor M.Toshpo ‘latov  
dotsent M.Orifjonov*

## S O‘Z B O SH I

O‘rtta Osiyo hududi uchun avtomobil transportining ahamiyati beqiyos, chunki barcha transport vositalari yordamida tashilayotgan yuklarning 80-85 foizi ularga to‘g‘ri keladi. Keyingi davrda respublikamizda avtomobilda yuk tashish transporti shoxob-chalarining xususiy sektor hisobiga yanada taraqqiy etishi o‘z navbatida bo‘lajak mutaxassislarga qo‘yiladigan talablarni oshirishni taqozo etmoqda.

Ushbu darslik "Transport vositalaridan foydalanish va ta‘mirlash" va "Yer usti transporti tizimlari" yo‘nalishlarining tala-balari uchun "Ichki yonuv dvigatellari" fani bo‘yicha tasdiqlangan dastur asosida yozildi.

O‘zbekiston avtomobilsozligiga Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so‘ng asos solindi va u jadal sur’atlar bilan rivojiana boshladi. "O‘zDEUavto" qo‘shma korxonasi O‘zbekistonni jahondagi 27 ta rivojlangan avtomobil ishlab chiqaradigan mamlakatlar safiga kiritdi va iqtisodiyotimizning rivojiga munosib hissa qo‘shmoqda. Birinchi avtomobil 1996 yilning mart oyida konveyerdan tushdi. Zavod yiliga 200 ming nuxsada Tiko, Damas, Neksiya avtomobillarini ishlab chiqarish quvvatiga ega. "Sam-KochAvto" qo‘shma korxonasi esa Otoyo‘l avtobuslari va yuk tashiydigan avtomobillar ishlab chiqarmoqda.

O‘rtta Osiyoning tabiatи va iqlim sharoiti (issiq va changlangan havo) avtomobil va traktor dvigatellarining ishlash muddatiga juda katta ta’sir qiladi. Shuning uchun ham ularga texnik xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlashni davr talabi darajasiga ko‘tarish, ularning ishlash muddatini oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib, ko‘p jihatdan fan-texnika taraqqiyotiga hamda shu soha mutaxassislarining bilimi darajasiga bog‘liq.

*Muallif*

## K I R I S H

Hozirgi zamon transport vositalariga (avtomobil, traktor, yo'l qurish mashinalari) kuch agregati sifatida asosan porshenli ichki yonuv dvigatellari o'rnatiladi. Bunday dvigatellarda ish aralashmasi yonganda hosil bo'lgan issiqlik mexanik ishga aylanadi. Ichki yonuv dvigatellarida suyuq va gaz holatidagi yonilg'i larni ishlatish mumkin. Ichki yonuv dvigatellari (IYoD) ixchamligi, ishonchliliqi va yonilg'i ni kam sarflashi bilan boshqa dvigatellardan ustun turadi.

Birinchi ichki yonuv dvigatellari Lenuar (1860 y. Fransiya) va N.Otto (1877 y. Germaniya) tomonidan ishlab chiqilgan. Bu dvigatellarda yonilg'i si fatida gaz ishlatilgan.

XIX asrning oxiriga kelib, neftni qayta ishlash sanoati rivojlanganligi sababli ichki yonuv dvigatellarida gaz o'rniga suyuq yonilg'ilar ishlatila boshlandi.

Rossiyada 1889 yilda injener I.S.Kostovich uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatelning birinchi namunasini ishlab chiqdi. 1899 yilga kelib hozirgi zamon dizelining dastlabki sanoat namunasi ishlab chiqildi. Shuni ta'kidlash lozimki, bu dvigatel nemis muhandisi R.Dizel (1897y.) tomonidan yaratilgan bo'lib, kerosinda ishlaydigan dvigateldan ancha tejamli ishlar edi. Dizel deb atalgan bu dvigatelda yonish jarayoni siqilgan havo muhitida purkalgan yonilg'i ning o'z-o'zidan alanganishi natijasida sodir bo'ladi. Karbyuratorli dvigatellarga nisbatan dizellar yonilg'i ning sarfi jihatidan tejamli bo'lgani uchun, hozirgi kunda ular barcha transport vositalariga o'rnatilmoqda.

Karbyuratorli (uchqun bilan o't oldiriladigan) dvigatellar yengil avtomobillarga yengil va o'rta yuk avtomobillariga o'rnatiladi.

Ichki yonuv dvigatellari quyidagi turlarga bo'linadi.

**I. Vazifasi bo'yicha:** statsionar dvigatellar; avtomobil, traktor va yo'l qurish mashinalariga o'rnatiladigan dvigatellar.

**1. Ishlatiladigan yonilg‘ining turi bo‘yicha:** yengil suyuq yonilg‘i (benzin, benzol, kerosin, ligroin va spirit) bilan ishlaydigan dvigatellar; og‘ir suyuq yonilg‘i (mazut, solyar moy, dizel yonilg‘isi va gazoyl) bilan ishlaydigan dvigatellar; gaz holatidagi yonilg‘i (tabiiy va generator gazlari) bilan va aralash yonilg‘i (gaz va benzin) bilan ishlaydigan dvigatellar.

**2. Issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantirish usuli bo‘yicha:** porshenli, gaz turbinali va rotor-porshenli dvigatellar.

**3. Ish aralashmasini hosil qilish usuli bo‘yicha:** silindr dan tashqarida; silindr ichida ish aralashmasi hosil qilinadigan dvigatellar.

**4. Ish aralashmasini yondirish usuli bo‘yicha:** uchqun bilan o‘t oldiriladigan; siqish natijasida o‘z-o‘zidan o‘t oldiriladigan; oldkamerali (alanga bilan o‘t oldiriladigan) dvigatellar.

**5. Ish siklini amalgga oshirish usuli bo‘yicha:** to‘rt va ikki taktsi dvigatellar.

**6. Yuklama o‘zgarganda dvigatelni rostlash usuli bo‘yicha:** ish aralashmasining sifati, miqdori, sifat hamda miqdori sozlanadigan dvigatellar.

**8. Silindrarning joylashishi bo‘yicha:** vertikal qatorli, gorizontal qatorli, V-simon, yulduz shaklli va silindrлari qarama-qarshi joylashgan dvigatellar.

**9. Sovitish usuli bo‘yicha:** suyuqlik yoki havo bilan sovitiladigan dvigatellar.

# BIRINCHI QISM

## ICHKI YONUV DVIGATELLARI NAZARIYASI

### I B0B. TEXNIK TERMODINAMIKA DAN QISQACHA MA'LUMOTLAR

#### 1.1. ISH JISMINING HOLATINI BELGILOVCHI KO'RSATKICHLAR

Texnik termodinamika fani issiqlik energiyasining mexanik ishgaga aylanishida sodir bo'ladigan jarayonlarni, bu aylanishlar qanchalik samarali ekanligini tekshiradi va o'z navbatida, ma'lum fizika qonunlariga asoslanadi.

Issiqlik dvigatellari nazariyasini tadqiq etishda ish jismi sifatida shartli ravishda ideal gazlar qo'llaniladi. Ideal gaz, deganda geometrik o'lchami va molekulalari orasida tortishish kuchi bo'lмаган xayoliy gaz tushuniladi.

Ish jismining holati harorat, bosim va solishtirma hajm yoki zichlik orqali belgilanadi.

Barcha termodinamik hisoblashlarda absolyut haroratdan foydalilaniladi va u quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$T = t + 273, K.$$

Jismining massa birligiga to'g'ri keladigan hajmi, «solishtirma hajm» deb ataladi va  $v$  harfi bilan belgilanadi  $v = 1/\rho$ ,  $m^3/kg$ .

Hajm birligiga to'g'ri kelgan massa «zichlik» deyiladi va u  $\rho$  harfi bilan belgilanadi, ya'ni

$$\rho = \frac{1}{v}, \frac{kg}{m^3}$$

Gazning p bosimi  $S$  yuza birligiga ta'sir qiluvchi  $F$  kuch bilan o'lchanadi:

$$p = \frac{F}{S}, \frac{kG}{sm^2}$$

Gazning bosimi  $\frac{kG}{sm^2}$  yoki paskallarda darajalangan manometrlar yordamida o'lchanadi. Manometrlar atmosfera bosimidan yuqori bosim  $p_{man}$  ni o'lchaydi. Shuning uchun absolyut bosim

$$p_{abs} = p_0 + p_{man}.$$

SI sistemasida bosimning o'lchov birligi qilib 1 N kuchning 1 m<sup>2</sup> yuzaga to'g'ri kelgan bosimi (N/m<sup>2</sup>) qabul qilingan. Bu o'lchov kichik bo'lganligi uchun amalda 1 bar (1 bar=1×10<sup>5</sup> N/m<sup>2</sup>=10 N/sm<sup>2</sup>) qabul qilingan.

Havoning siyrakligi vakuummetr bilan o'lchanadi, bu holda absolyut bosim

$$p_{abs} = p_0 - p_{sijr}.$$

Ko'pincha  $p_0 = 1 \text{ kG}/\text{sm}^2$  deb olinadi.

Ideal gazlarning holat tenglamasi yoki Mendeleyev tenglamasi yoki 1 kg gaz uchun  $pV = RT$  bilan aniqlanadi, bu yerda  $R$ -universal gaz doimiysi, N·m/(kG·grad) yoki J/(kG·grad)da o'lchanadi.  $R$  har qanday gaz uchun o'zgarmas miqdordir.

$G$  kg gaz uchun *Klapeyron-Mendeleyev* tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$PV = GRT, \text{ bu yerda } V = G \cdot v \quad (G \text{ kg gazning hajmi}).$$

Avogadro qonuniga binoan bir xil hajmdagi turli gazlarning bir xil bosim va haroratdagi molekulalari soni teng bo'ladi, ya'ni

$$\frac{G_1}{G_2} = \frac{\mu_1}{\mu_2}.$$

bu yerda:  $\mu_1, \mu_2$  - gazlarning molekulyar massalari, kilogramm·mol (kmol).

Berilgan gazning hajmini aniqlash uchun uning molekulyar massasi  $\mu$  ni solishtirma hajmi  $v$ ga ko'paytirish lozim, ya'ni

$$V_\mu = \mu \cdot v, \text{ m}^3/\text{kmol}.$$

1 kmol gazning zichligi, molekulyar massasi va hajmi orasidagi bog'lanish quyidagicha aniqlanadi:

$$\rho = \frac{\mu}{V_\mu} \text{ yoki } v = \frac{V_\mu}{\mu}.$$

Masalan, bosimi  $p_0 = 0,1 \text{ MPa}$  va harorati  $t_0 = 0^\circ\text{S}$  bo'lgan 1 kmol gaz (kislород  $O_2$ ) ning hajmi  $V_\mu$  aniqlansin.

Ma'lumki, kislородning molekulyar massasi  $\mu_{O_2} = 32$  kmol; solishtirma hajmi esa  $v = 0,7 \text{ m}^3/\text{kg}$ . Demak,  $V_\mu = \mu_{O_2} \times v = 32 \times 0,7 = 22,4 \text{ m}^3/\text{kmol}$  bo'ladi.

Avogadro qonuniga binoan harorati  $0^\circ\text{S}$  va bosim  $p = 0,1 \text{ MPa}$  bo'lgan 1 kmol ideal gazning hajmi  $22,4 \text{ m}^3/\text{kmol}$  ga teng. Ideal gazning bosimi  $p = 0,1 \text{ MPa}$  va harorati  $15^\circ\text{S}$  bo'lsa,  $V_\mu = 24,4 \text{ m}^3/\text{kmol}$  bo'ladi. Texnik hisoblashlarda bosim  $p = 1,0 \text{ kG/sm}^2$  va  $t_0 = 15^\circ\text{C}$  bo'lgani uchun  $V_\mu = 24,4 \text{ m}^3/\text{kmol}$  qiymat ko'proq ishlataladi. Gaz doimiysi har qanday 1 kmol gaz uchun o'zgarmas miqdor bo'lib, universal gaz doimiysi deyiladi. Uning qiymati esa  $R_\mu = 8314 \text{ J}/(\text{kmol}\cdot\text{grad})$  ga teng. Gaz haroratini  $1^\circ\text{S}$  oshirish uchun kerak bo'lgan issiqlik miqdori gazning issiqlik sig'imi, deb ataladi va  $C$  harfi bilan belgilanadi.  $kJ$  da o'chanadi.

Texnik termodinamikada mol issiqlik sig'imi  $\mu C$ ,  $\text{kJ}/(\text{mol}\cdot\text{grad})$ , massa issiqlik sig'imi  $C$ ,  $\text{kJ}/(\text{kg}\cdot\text{grad})$ ; hajm issiqlik sig'imi  $C'$ ,  $\text{kJ}/(\text{m}^3\cdot\text{grad})$  birlıklari ishlataladi ya ular orasidagi o'zaro bog'lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$C = \frac{\mu C}{\mu}, \text{ kJ}/(\text{kg}\cdot\text{grad});$$

$$C' = \frac{\mu C}{V_\mu}, \text{ kJ}/(\text{m}^3\cdot\text{grad});^1$$

yoki

$$C = C \times \rho, \text{ kJ}/(\text{m}^3\cdot\text{grad});$$

<sup>1</sup>- Formulalardagi harflar o'zgartirilmadi

bu yerda  $\nu_\mu$  va  $\rho - 1$  kmol gazning hajmi va zichligi.

Ideal gazlarning issiqlik sig‘imi faqat haroratga bog‘liq bo‘ladi. Gazning o‘zgarimas bosimdagи issiqlik sig‘imini aniqlash uchun uning massa  $C_v$ , yoki mol  $\mu C_v$  issiqlik sig‘imlari ma’lum bo‘lishi kerak.

$$C_p = C_v + \frac{8,314}{\mu}, \text{ kJ/(kg · grad);}$$

$$\mu C_p = \mu C_v + 8,314, \text{ kJ/(kmol · grad).}$$

Hisoblash kaloriyalarda olib borilganda 8,314 o‘rniga 1,986 olinadi.

Bu formulalardagi ikkinchi hadlar  $p = const$  da harorat  $1^{\circ}\text{S}$  o‘zgarganda gazning ish bajarishiga sarflanadigan issiqlik miqdorini ifodalaydi.

## 1.2. TERMODINAMIKANING BIRINCHI QONUNI

Fizika kursidan ma’lumki, gaz atomlari va molekulalarining kinetik hamda potensial energiyalarining yig‘indisi gazning ichki energiyasi deb ataladi:

$$U = E_k + E_p.$$

Ichki energiyaning o‘zgarishi gazning boshlang‘ich va oxirgi ko‘rsatkichlariga bog‘liq, ya’ni  $\Delta U = C_v(t_2 - t_1)$ . Termodinamika kursida asosan qaytar jarayonlar ko‘rib chiqiladi. Bunday jarayon mavjud bo‘lishi uchun issiqlik manbaidan va harakatlanuvchi porshenli silindrdaqи ish jismidan iborat tizimi termik izolyatsiyalangan bo‘lishi, ya’ni issiqlik atrof-muhitga sarflanmasligi lozim. Qaytar jarayonlarni o‘rganish issiqlikdan eng unumli foydalanish sharoitlarini aniqlashga imkon beradi. Aslida, issiqlik mashinalarida (ichki yonuv dvigatellarida) ro‘y beradigan real jarayonlarda tashqi muhit bilan issiqlik almashish mavjud bo‘lganligi sababli qaytar jarayonlar olish imkonini bo‘lmaydi. Bunga sabab real gazlarda molekulalararo

ishqalanishning mavjudligi, shuningdek, gaz molekulalarining silindr devorlariga ishqalanishi natijasida (ham siqilish, ham kengayish jarayonlarida) issiqlik ajralib chiqishidir. Ichki yonuv dvigatellariga xos bunday jarayonlar qaytmas bo‘ladi.

Qaytmas jarayonlarni qaytar jarayonlarga taqqoslash yo‘li bilan real jarayonlarda isrof bo‘ladigan issiqlik miqdori topiladi. Shuni aytish kerakki, isrof bo‘ladigan issiqlik qanchalik kam bo‘lsa, ichki yonuv dvigatelidagi jarayonlar shuncha mukammal tashkil qilingan bo‘ladi.

Termodinamikaning birinchi qonunini quyidagicha ta’riflash mumkin. Ma’lum miqdorda mexanik ish bajarish uchun bu ishga ekvivalent miqdordagi issiqlik energiyasi sarflanishi zarur, ya’ni:

$$Q = L, \text{ J};$$

bu yerda  $Q$ -sarflangan issiqlik energiyasi, J yoki kkal;  $L$ -bajarilgan ish, J yoki kG·m.

Tajribalarga asoslanib kkal bilan kG·m orasidagi bog‘lanish quyidagicha hisoblanadi: 1 kkal=427 kG·m, ya’ni 1 kkal issiqlik sarflab 427 kG·m ish bajarish mumkin:

$$A = \frac{1}{427} \text{ kkal/(kG·m)}.$$

Ichki yonuv dvigatellarda hosil bo‘ladigan energiya bir soat davomida bajarilgan ish qiymati bilan o‘lchanadi. Shuning uchun energiyaning o‘lchov birligi qilib ot kuchi - soat (ok-soat) yoki kilovatt-soat (kVt-soat) qabul qilingan.

### 1.2.1. TERMODINAMIKANING BIRINCHI QONUNINING TENGLAMASI

Silindrning yuqori qismidagi  $a$  hajmli gazga  $q$  miqdorda issiqlik berilganda gaz bajaradigan jarayonni ko‘rib chiqamiz (1.1-rasm). Bu holda porshen o‘ng tomonga erkin siljiydi va tashqi kuchlarga qarshi ish bajaradi, ya’ni kengayish jarayoni sodir bo‘ladi.  $l$  ish bajarish uchun issiqlikning bir qismi, ya’ni  $q_1=l$  sarflanadi. Bu jarayon


uchun termodinamikaning birinchi qonunining tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$q = q_1 + q_2 = I + \Delta U;$$

bu yerda  $\Delta U = C_V(T_2 - T_1)$  - gaz ichki energiyasining o'zgarishi. Ish jismining holati cheksiz oz o'zgarganda termodinamikaning birinchi qonunining differensial tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$dq = dl + dU.$$

Yuqorida keltirilgan tenglamalar har qanday siqish va kengayish jarayonlarini ifodalaydi. Tenglamaning barcha hadlari qanday jarayon bo'layotganligiga qarab, musbat yoki manfiy qiymatlarni olishi mumkin. Ichki yonuv dvigatellarida turli xil jarayonlar sodir bo'lib, bular davomida issiqlik beriladi ( $+q$ ) yoki olinadi ( $-q$ ), bunda ichki energiya ortadi ( $+\Delta U$ ) yoki kamayadi ( $-\Delta U$ ). Ish faqat ichki energiya hisobiga ( $q=0$ ) yoki aksincha, faqat berilayotgan issiqlik hisobiga ( $\Delta U = 0$ ) bajariladi va nihoyat,  $I=0$  bo'lsa ham jarayon bo'lishi mumkin. Bular quyidagilardir:



1. I-rasm. Gazning bajargan ishini grafik usulda aniqlash

a) izoxorik jarayon - gaz holatinining o'zgarmas hajm ( $V=\text{const}$ ) da o'zgarishi;

b) izobarik jarayon - gaz holatinining o'zgarmas bosim ( $p = \text{const}$ ) da o'zgarishi;


v) izotermik jarayon - gaz holatinining o'zgarmas harorat ( $T = \text{const}$ ) da o'zgarishi;

g) adiabatik jarayon - gaz holatinining issiqlik berilmaydigan va issiqlik olinmaydigan ( $q = 0$ ) vaqt dagi o'zgarishi;

d) gaz holatinining politropik o'zgarish jarayoni.

Gaz holatining politropik o'zgarish jarayonidan boshqa jarayonlarda gaz holatini ifodalovchi ko'rsatkichlardan biri o'zgarmas deb olinadi. Issiqlik dvigatellarida esa gazning hamma ko'rsatkichlari ( $p$ ,  $V$ ,  $T$  va  $U$ ) o'zgaruvchan bo'ladi va shu bilan birga ishchi jism bilan tashqi muhit orasida issiqlik almashuvi sodir bo'ladi. Real dvigatellardagi siqish va kengayish jarayonlari politropik bo'lib, ularning tenglamasi quyidagicha ifodalanadi:

$$pV^n = \text{const.}$$



1.2-rasm. Politropik jarayonlarning  $p$ - $V$  koordinatalar sistemasida tasviri


Politropa ko'rsatkichi  $n$  jarayonning bajarilish xarakteriga bog'liq bo'lib, jarayonning boshlang'ich ( $p_1$ ,  $V_1$ ) va oxirgi ( $p_2$ ,  $V_2$ ) ko'rsatkichlari ma'lum bo'lsa, u quyidagicha topiladi:

$$n = \frac{\lg \frac{P_1}{P_2}}{\lg \frac{V_2}{V_1}}.$$

Yuqorida keltirilgan jarayonlar politropik jarayonning xususiy hollaridir.  $n$  ning qiymati ma'lum bo'lsa, barcha jarayonlami olish mumkin (1.2-rasm). Ichki yonuv dvigatellarida  $44'$  va  $33'$  oraliqlarda siqish hamda kengayish jarayonlari sodir bo'ladi.

### 1.3. TERMODINAMIKANING IKKINCHI QONUNI

Termodinamikaning birinchi qonuni bir turdag'i energiyaning boshqa turdag'i energiyaga ekvivalent ekanligini ko'rsatadi, lekin issiqlik energiyasining mexanik ishga qariday sharoitlarda aylanishi mumkinligini belgilamaydi.



1.3-rasm. Issiqlik dvigateli siklining  $p$ - $V$  koordinatalar sistemasida tasviri

Barcha turdag'i energiyalar issiqlik energiyasiga o'z-o'zidan aylanadi, lekin teskari jarayon, ya'ni issiqlik

energiyasining mexanik ishga aylanishi uchun (ichki yonuv dvigatellaridagi kabi) issiqlik sarflab, ish bajarish talab qilinadi. Shu sababdan termodinamikaning ikkinchi qonuni issiqlik energiyasini mexanik ishga aylantirish uchun zarur bo'lgan shartlarni o'rgatadi. Bu qonunni ta'riflash uchun misol tariqasida porshenli issiqlik dvigatelining ishslash sxemasini ko'rib chiqamiz (1.3-rasm). Silindr ichida almashtirilmaydigan doimiy 1 kg ish jismi bor deb faraz qilaylik. Uning boshlang'ich ko'rsatkichlari yuqorigi chekka nuqta (yu.ch.n.)da  $p_1$ ,  $T_1$ ,  $V_1$  va  $U_1$  qiymatlar bilan belgilanadi. Porshen yu.ch.n.dan pastki chekka nuqta (p.ch.n.)ga harakatlanganda gaz  $V_2$  hajmgacha kengayadi va tashqi kuchlarga qarshi ish bajaradi. Bu paytda porshen  $S = 2R$  yo'lni bosib o'tadi, tirsakli val esa yarim aylanaga buriladi. 2 nuqtada gaz quyidagi ko'rsatkichlarga ega bo'ladi:  $V_2 > V_1$ ;  $p_2 < p_1$ ;  $T_2 < T_1$  va  $U_2 < U_1$ . 1 - 2 kengayish jarayoni issiqlik almashinmay sodir bo'ladi. Kengayish ishi  $l_{keng}$  ichki energiyaning kamayishi hisobiga sodir bo'lib,  $12 ba 1$  yuza bilan aniqlanadi hamda kinetik energiya tarzida dvigatelning maxovigida to'planadi. 1-2 kengayish jarayonini takrorlash uchun ish jismi boshlang'ich holatga qaytarilishi, ya'ni  $l_{siq} = l_{keng}$  ish bajarilishi lozim.

Bu holda siqish ishi  $l_{siq}$  21 ab 2 yuza bilan aniqlanadi. Bu maqsadda dvigatel maxovigida to'plangan kinetik energiyadan foydalilanildi. Shu holdagina gaz siqilishi davomida kengayish jarayonidagi kabi oraliq holatlardan o'tadi.

Demak, bunday ideal dvigatelda har qancha sikl sodir bo'lmasin,  $l_{siq} = l_{keng}$  bo'lgani uchun bu dvigatel foydali ish bajara olmaydi (avtomobilni harakatga keltirolmaydi). Amalda energiyani isrofsiz dastlabki qiymatga qaytarish mumkin bo'limganligi sababli ish jismi boshlang'ich holatga qayta olmaydi va dvigatel to'xtaydi.

Issiqlik dvigatellarida foydali ish bajarish uchun U issiqlikning bir qismi  $q_2$  p.ch.n.da  $V = const$  jarayonida

«sovuz» manbaga uzatilishi kerak. Bunda 3 nuqtadagi gaz ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ladi:

$$P_3 < P_2; V_2 = V_3; T_3 < T_2; U_3 < U_2.$$

Siqish jarayoni «3-4»ni bajarish uchun maxovikda to'plangan kinetik energiyadan foydalanamiz. Bu holda siqish jarayonida bajarilgan ish ( $34ab$ ) yuza kengayish jarayonida bajarilgan ish ( $12ba$ ) yuzadan kichik bo'ladi. Kengayish jarayonini takrorlash uchun gazning ko'rsatkichlarini 1 nuqtadagi holatga qaytarish zarur. Buning uchun porshen yu.ch.n.da qo'zg'almas holatda bo'lganda  $V=\text{const}$  jarayonida gazga issiqlik manbaidan  $q_1$  miqdorda issiqlik uzatiladi. Yuqorida ko'rsatilgan shartlar bajarilgan holdagina jarayonlarning to'xtovsiz takrorlanishini ta'minlash mumkin. Bu jarayonlar 12341 berk sikl tashkil qiladi va uning ishi  $I_s = I_{\text{keng}} - I_{\text{siq}}$  ishga aylangan issiqlik miqdori esa  $q_s = q_1 - q_2$  bo'ladi.

Demak, siklda berilgan barcha issiqlik energiyasini mexanik ishga aylantirib bo'lmaydi. Mexanik energiya olish uchun ish jismiga  $q_1$  miqdorda issiqlik beradigan «kissiq» manba va aksincha, issiqlikning foydali ishga aylanmaydigan qismi  $q_2$  beriladigan «sovuz» manba bo'lishi lozim.

Siklning samaradorligi foydali ish bajarishga sarf bo'lgan issiqlik miqdorining berilgan issiqlik miqdoriga nisbati bilan ifodalanadi va u termik foydali ish koeffitsiyenti (F.I.K.) bilan belgilanadi:

$$\eta_i = \frac{q_s}{q_1} = \frac{q_1 - q_2}{q_1} = 1 - \frac{q_2}{q_1} < 1 \quad (\text{chunki har doim } q_2 > 0).$$

Bundan ish jismiga berilgan barcha issiqliknii ishga aylantiradigan dvigatel qurib bo'lmaydi, degan xulosa kelib chiqadi. Demak, termik F.I.K. qancha katta bo'lsa, issiqlikning foydali ishga aylangan qismi shunchalik ko'p bo'ladi. Berilgan haroratlар oraliq idа qanday ideal sikl eng katta F.I.K. ga ega bo'lishini birinchi bo'lib Sadi Carno (1824 y.) ko'rsatdi.

Bunday siklning termik F.I.K. «issiq» va «sovuq» manbalarning haroratlariga bog'liq bo'lib, ish jismiga bog'liq emas, ya'ni

$$\eta_r = 1 - \frac{T_2}{T_1};$$

bu yerda  $T_1$  - «issiq» manba harorati,  $T_2$  - «sovuq» manba harorati.

Mazkur haroratlar oralig'ida Karko sikli eng katta F.I.K. ga ega.

Masalan, ichki yonuv dvigatellari uchun xarakterli bo'lgan  $T_1=2700$  K va  $T_2=300$  K haroratlar oralig'ida Karko siklning termik F.I.K.  $\eta_r = 0,90$  bo'ladi. Ammo bunday siklning maksimal bosimi taxminan 1000 MPa, siqish darajasi esa  $\varepsilon = 1500$  bo'ladi. Demak, bunday dvigateli ni qurish maqsadga muvofiq emas.

Shu bilan biz termodinamika asoslarini qisqacha ko'rib chiqdik. Umid qilamizki, bu tushunchalar ichki yonuv dvigatellari nazariyasini o'r ganish uchun yetarli bo'ladi.

## **II BOB. ICHKI YONUV DVIGATELLARINING NAZARIY SIKLLARI**

### **2.1. UMUMIY MA'LUMOT**

Texnik termodynamika kursida nazariy sikllar ko'rilgan edi. Ularda ish jismi o'zgarmas bo'lib, issiqlik harorati  $T_1$  bo'lgan tashqi «kissiq» manbadan beriladi va ish sodir bo'lgach, u boshqa, harorati  $T_2 < T_1$  bo'lgan tashqi «sovuq» manbaga qaytariladi. Real ichki yonuv dvigatellarida esa issiqlik yonish kamerasida (yonilg'i va havo aralashmasining yonishi natijasida) hosil bo'ladi.

Dvigatel silindri ichida har gal yangidan yonish jarayoni davom etishi uchun yangi aralashma kirishi, yonishi va issiqlik ajralib ish bajarishi hamda silindr dan chiqarib yuborilishi zarur.

Havo bilan yonilg'i aralashmasining silindr ichida yonishi natijasida hosil bo'lgan issiqlik energiyasini mexanik energiyaga aylantiruvchi jarayonlarning to'plami haqiqiy sikl deyiladi.

Ichki yonuv dvigatellarida haqiqiy sikl jarayonida energiyaning bir qator qo'shimcha sarflanishi yuz beradi, ya'ni issiqlikdan foydalanish darajasi nazariy siklga qaraganda kamroq bo'ladi.

Haqiqiy siklda issiqlikdan foydalanish darajasini bilish uchun porshenli dvigatellarning nazariy sikllarini tahlil qilish kerak. Nazariy va haqiqiy sikllarning foydali ish koeffitsiyentlari (F.I.K.) qiymatlarini solishtirish real dvigatelda issiqlikdan foydalanish darajasini bilib olishga imkon beradi.

Nazariy sikllarni taxlil qilishda quyidagi chekinishlar qabul qilinadi:

a) silindr ichida o'zgarmas miqdorda ish jismi (masalan, havo) bo'lib, unda kiritish va chiqarish jarayonlari sodir bo'lmaydi, ya'ni ish jismi berk siklda harakat qiladi;

- b) ish jismining issiqlik sig‘imi haroratga bog‘liq emas;  
 s) ish jismiga issiqlik tashqaridan, ya’ni «issiq» manbadan siklning ma’lumi bir davrida beriladi;  
 d) siqish va kengayish jarayonlarida tashqi muhit bilan issiqlik almashinishi sodir bo‘lmaydi (adiabatik jarayonlar).

Quyida hozirgi zamon ichki yonuv dvigatellarining sikllariga mos keladigan uch xil nazariy siklni ko‘rib chiqamiz:

- a) issiqlik o‘zgarmas hajmda beriladigan sikl (karbyuratorli dvigatellarga mos keladi);  
 b) issiqlik o‘zgarmas bosimda beriladigan sikl (kompressorli dizellarga mos keladi);  
 s) issiqliknинг bir qismi o‘zgarmas hajmda, qolgan qismi esa o‘zgarmas bosimda (issiqlik aralash usulda) beriladigan sikl (tezyurar dizellarga mos keladi).

Bu uch siklda issiqlik «sovuq» manbara o‘zgarmas hajmda beriladi, deb faraz qilinadi.

## 2.2. ISSIQLIK O‘ZGARMAS HAJMDA ( $V=\text{const}$ ) BERILADIGAN SIKL


Issilik o‘zgarmas hajmda beriladigan sikl  $p$ - $V$  koordinatalar sistemasida (2.1-rasm) tasvirlangan. Bu yerda  $ac$  - siqish,  $cz$  - issiqlik berish,  $zb$  - kengayish va  $ba$  - issiqlik qaytarish.  $ac$  va  $zb$  jarayonlar adiabatik bo‘lib, tashqi muhit bilan issiqlik almashmay sodir bo‘ladi.  $cz$  jarayonda hajm o‘zgarmagani holda ish jismiga «issiq» manbadan issiqlik berilganda ish jismining harorati va bosimi ko‘tariladi. Natijada ish jismi porshenni p.ch.n. tomon siljitib, kengayadi. Porshen p.ch.n.ga kelganda  $q_2$  issiqlik «sovuq» manbara beriladi. Bu siklni tahlil qilish uchun quyidagi belgilarni kiritamiz:

$D$  - silindr diametri;  $R$  - krivoship radiusi;  $S$  - porshen yo‘li,  $S=2R$ ;  $V_h$  - ish hajmi;  $V_s$  - yonish kamerasining hajmi;  $\epsilon$  -

---

\* - c harfi lotin imlosida bo‘lmaganligi uchun rasm va formulalarda o‘zgartirilmaydi

siqish darajasi, va silindr hajmi;  $\varepsilon = \frac{V_a}{V_c}$ ;  $k$ -adiabata ko'rsatkichi;  $k = \frac{C_p}{C_v}$ ;  $\lambda$  - bosimning ortish darajasi,  $\lambda = \frac{P_i}{P_c}$ ;  $V_a$ =silindr hajmi.



**2.1-rasm. Issiqlik o'zgarmas hajmda beriladigan sikl**  
 $\phi$ -tirsakli valning burilish burchagi.

Silindr ichida 1 kg ish jismi bor, deb faraz qilsak ish jismiga «issiq» manbadan berilgan issiqlik miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$q_1 = C_v \cdot (T_c - T_a), \text{ J/kg}.$$

«Sovuq» manbagaga berilgan issiqlik miqdori esa  $q_2 = C_v \cdot (T_b - T_a)$ , J/kg ga teng.  $q_1$  va  $q_2$  issiqlik miqdorlarining qiymatlari ma'lum bo'lsa, termodinamika qonuniga binoan siklniig termik F.I.K. quyidagicha ifodalanadi:

$$\eta_t = 1 - \frac{q_2}{q_1} = 1 - \frac{C_v}{C_v} \cdot \frac{(T_b - T_a)}{(T_z - T_c)} = 1 - \frac{T_b - T_a}{T_z - T_c}.$$

Siklning xarakterli nuqtalaridagi haroratlar boshlang'ich harorat  $T_a$  orqali quyidagicha ifodalanadi:

c - nuqtada:

$$T_c = T_a \left( \frac{V_a}{V_c} \right)^{k-1} = T_a \cdot \varepsilon^{k-1}.$$

z - nuqtada:

$$T_z = T_c \frac{P_z}{P_c} = T_c \cdot \lambda = T_a \cdot \varepsilon^{k-1} \cdot \lambda,$$

b - nuqtada:

$$T_b = T_z \left( \frac{V_z}{V_b} \right)^{k-1} = T_z \cdot \left( \frac{V_c}{V_a} \right)^{k-1} = T_z \cdot \frac{1}{\varepsilon^{k-1}} = \lambda \cdot T_a,$$

bu yerda

$$\frac{V_z}{V_b} = \frac{V_c}{V_a}.$$

Haroratlarning bu qiyamatlarini termik F.I.K. formulasiga qo'ysak, qisqartirishlardan so'ng siklning termik F.I.K. quyidagi ko'rinishga keladi:


$$\eta_t = 1 - \frac{1}{\varepsilon^{k-1}}.$$

$p - V$  - koordinatalar sistemasida sikl davomida bajarilgan  $l_s$  ish shtrixlangan aczba yuza bilan aniqlanadi.

Dvigatellar o'zaro sikl davomida bajarilgan  $l_s$  ishning silindr ish hajmi  $V_h$  ga nisbati bilan taqqoslanadi. Buning uchun bajarilgan ish shartli ravishda yuzasi  $l_s$  ga teng bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shaklida tasvirlanadi (2.2-rasm). To'rtburchakning asosi silindrning ish hajmi  $V_h$  ga teng ordinatasi (bosim) esa quyidagicha topiladi:

$$p_s = \frac{l_s}{V_h}.$$

Siklning o'rtacha bosimi  $p_s$  ning son qiymati ma'lum shartli o'zgarmas bosimga teng bo'lib, u porshenga yu.ch.n.dan p.ch.n.ga kelguncha ta'sir qiladi va shu vaqt ichida  $l_s$  ish bajaradi.




2.2-rasm. Siklning o'rtacha bosimini aniqlash

Tahlil qilinayotgan  $V = \text{const}$  siki uchun (2.2-rasm) o'rtacha bosim quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$p_s = p_a \cdot \frac{\varepsilon^k (\lambda - 1)}{(\varepsilon - 1)(\lambda - 1)} \cdot \eta.$$

Demak, siklning F.I.K. asosan siqish darajasi  $\varepsilon$  va adiabata ko'rsatkichi  $k$  ga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.  $\varepsilon$  va  $k$  ortishi bilan  $\eta$  ortadi, lekin termik F.I.K. bosimning ortish darajasi  $\lambda$  ga bog'liq emas.


2.3-rasmda issiqlik o'zgarmas hajmda beriladigan siki uchun  $\eta_t$  ning  $\varepsilon$  ga bog'liqlik grafigi adiabata ko'rsatkichining ikki qiymati uchun keltirilgan; 1-



2.3-rasm. Issiqlik  $V = \text{const}$  da beriladigan siki uchun  $\eta_t$  ning  $\varepsilon$  ga bog'liqlik grafigi ( $k$  ning ikki qiymati uchun)

dvigatelning silindriga ish gazi o'rnida havo ( $k=1,41$ ) kiritilgan; 2-adiabata ko'rsatkichi  $k=1,3$  bo'lgan gaz kiritilgan.

$P, MPa$



2.4-rasm.  $\epsilon$  ning har xil qiyatlari uchun  $p_s$  bosimning  $\lambda$  ga bog'liqligi

bosimning ortish darajasi  $\lambda$  ga to'g'ri proporsionaldir (2.4-rasm). Demak, siklning o'rtacha bosimini oshirish uchun  $\epsilon_2$ , jarayonida berilgan issiqlik miqdorini hamda boshlang'ich bosim  $p_a$  ni oshirish kerak.

Termik F.I.K.ning o'sishi issiqlikdan unumli foydalanirganini ko'rsatadi.

### 2.3. ISSIQLIK O'ZGARMAS BOSIMDA ( $p = const$ ) BERILADIGAN SIKL

Issiqlik o'zgarmas bosimda beriladigan sikl  $p-V$  koordinatalar sistemasida (2.5-rasm) ko'rsatilgan. Bu siklda  $\epsilon_2$  jarayonida  $q_1$  issiqlik «issiq» manbadan o'zgarmas bosim ostida beriladi va 1 kg ish jismi uchun quyidagicha aniqlanadi

$$q_1 = C_p(T_z - T_c).$$

*ba jarayonida «sovuj» manbara berilgan issiqlik miqdori  $q_2$  quyidagicha bo'ladi:  $q_2 = C_v(T_b - T_a)$ .*  
*Bu siklning termik F.I.K.*

$$\eta_t = 1 - \frac{C_v(T_b - T_a)}{C_p(T_z - T_c)}.$$

Lekin  $V_g/V_c = \varepsilon$ ;  $C_v/C_p = \frac{1}{k}$  va dastlabki kengayish

darajasi  $\rho = \frac{V_z}{V_c} = \frac{T_z}{T_c}$  ekanligini nazarga olib,  $c$ ,  $z$ ,  $b$  nuqtalardagi haroratlarni boshlang'ich harorat  $T_a$  orqali ifodalarak, siklning termik F.I.K. quyidagi ko'rinishga keladi:


$$\eta_t = 1 - \frac{1}{\varepsilon^{k-1}} \cdot \frac{1}{k(\rho-1)}.$$

Siklning o'rtacha bosimi esa:

$$p_s = p_a \frac{\varepsilon^k \cdot k(\rho-1)}{(\varepsilon-1)(k-1)} \cdot \eta_t.$$

Demak, siklning termik F.I.K. siqish darajasi  $\varepsilon$ , adiabata ko'rsatkichi  $k$  va dastlabki kengayish darajasi  $\rho$  ga bog'liq. Siqish darajasi  $\varepsilon$  va adiabata ko'rsatkichi  $k$  ortishi bilan termik F.I.K. ham ortadi, lekin  $\rho$  ning ortishi  $\eta_t$  ning kamayishiga olib keladi (2.6-rasm). Ko'rileyotgan siklga yaqin siklda ishlaydigan dvigatelda yuklamani oshirish uchun "issiq" manbadan beriladigan issiqlik miqdorini oshirish kerak bo'ladi, lekin bu  $\rho$  ning ortishiga sabab bo'ladi. Demak, siklda beriladigan issiqlik miqdori oshishi bilan, termik F.I.K. kamayadi. Buni shunday tushuntirish mumkin: berilgan issiqlik miqdori oshganda "sovuj" manbara qaytarilgan issiqlik miqdori ko'proq bo'ladi va


natijada  $\frac{q_2}{q_1}$  nisbat ortadi, bu esa o'z navbatida  $\eta_i$  ning kamayishiga olib keladi.



2.5-rasm. Issiqlik o'zgarmas bosimda beriladigan sikl

Avtomobil va traktor dizellari kichik yuklamalarda ishlaganda ularning termik F.I.K. ortadi, ya'ni issiqlikdan unumli foydalaniлади.

Siklning o'rtacha bosimi  $p_s$  ni orttirish uchun  $c_z$  jarayonida issiqlik ko'proq beriladi. Natijada, yuqorida aytib o'tganimizdek,  $\rho$  ortadi, lekin  $\eta$ , bir oz kamayadi. Ko'rib o'tilgan sikl sekin yurar kompressorli dizellar uchun taxminan to'g'ri keladi.



**2.6-rasm. Issiqlik o'zgarmas bosimda beriladigan sikel uchun  
η, ning ρ ga bog'liqligi grafigi**

#### **2.4. ISSIQLIK ARALASH USULDA BERILADIGAN SIKL**

Issiqlik aralash usulda beriladigan sikel  $p-V$  koordinatalar sistemasida ko'rsatilgan (2.7-rasm). Bu siklda  $q_1 = C_v(T_e - T_c)$  miqdor issiqlik  $cz$  jarayonida o'zgarmas hajmda;  $q'_1 = C_p(T_e - T_c)$  miqdor issiqlik esa  $zz'$  jarayonida o'zgarmas bosimda beriladi va 1kg ish jismi uchun «issiq» manbadan berilgan issiqliknинг umumiy miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$q_1 = q'_1 + q''_1 = C_v(T_{e'} - T_c) + C_p(T_e - T_{e'}) =$$

$$= C_v \cdot T_c \left[ \left( \frac{T_{e'}}{T_c} - 1 \right) + \frac{C_p}{C_v} \cdot \frac{T_e}{T_c} \cdot \left( \frac{T_e}{T_{e'}} - 1 \right) \right] = C_v T_c [\lambda - 1 + k\lambda(\rho - 1)] .$$


ba jarayonida «sovuv» manbaga berilgan issiqlik miqdori

$$q_2 = C_v (T_b - T_a)$$

bo'ladi. Bunday siklning termik F.I.K.  $\eta$ , va o'rtacha bosimi  $p_s$  soddalashtirishlardan so'ng quyidagicha topiladi:

$$\eta_s = 1 - \frac{1}{\varepsilon^{k-1}} \cdot \frac{\lambda \cdot \rho^k - 1}{\lambda - 1 + k\lambda(\rho - 1)} ;$$

$$p_s = p_a \frac{\varepsilon^k [\lambda - 1 + k\lambda(\rho - 1)]}{(\varepsilon - 1)(k - 1)} \cdot \eta_r.$$



**2.7-rasm. Issiqlik aralash usulda beriladigan sikl**

issiqlik berilsa, aralash usulda issiqlik beriladigan siklning termik F.I.K. shuncha yuqori bo'ladi (2.8-rasm).


$\eta$  ning qiymati issiqlik aralash usulda va  $V = const$  da beriladigan sikllar hamda  $\varepsilon$  ning uch xil qiymati uchun 2.1-jadvälde keltirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bir xil siqish darajasiga ega bo'lgan sikllarni solishtirsak, eng yuqori termik F.I.K. ga issiqlik o'zgarmas hajmda berilganda erishilar ekan. Amalda bunday siqish darajasiga ega bo'lgan karbyuratorli dvigateli detonatsiyali yonishning kelib chiqishi sababli ishlatisib bo'lmaydi. Natijada karbyuratorli dvigatellar normal ishlashi uchun ularda siqish darjasini pasaytiriladi ( $\varepsilon = 9\dots 10$ ).

Demak, issiqlik aralash usulda beriladigan siklning termik F.I.K. ham siqish darjasasi  $\varepsilon$  ga, bosimning ko'tarilish darjasasi  $\lambda$  ga (o'zgarmas hajmda berilgan issiqlik miqdoriga) va dastlabki kengayish darjasasi  $\rho$  ga (o'zgarmas bosim ostida berilgan issiqlik miqdoriga) bog'liq ekan.

Izlanishlar shuni ko'rsatadi, o'zgarmas hajmda, ya'ni cz jarayonida qanchalik ko'p

26



2.8-rasm Issiqlik aralash usulda beriladigan siki uchun  $\eta$ , ning  $\lambda$  ga bog'liqligi

beradi. 2.8-rasmida issiqlik aralash usulda beriladigan siki uchun  $\eta$ , ning  $\lambda$  ga bog'liqligi ko'rsatilgan. Bunda  $\lambda$  ortishi bilan  $\eta$ , ham ortadi. Hozirgi zamon tezyurar dizellarida qo'llaniladigan  $\lambda$  ning qiymati 1,2...2,0;  $\rho$  ning qiymati esa 1,4...2,2 ga teng.

Issiqlik aralash usulda beriladigan siklning o'rtacha bosimi boshlansich bosim  $p_a$ ,  $\varepsilon$  va  $\eta$ , ga bog'liq bo'lib, ular qancha katta bo'lsa  $p_s$  ham shuncha katta bo'ladi.

Tezyurar dizellar issiqlik aralash usulda beriladigan sikllarga yaqin siklda ishlaydi. Bunday dvigatellarda siqish darajasi yuqori bo'ladi ( $\varepsilon=16..23$ ). Bu esa dizellarda karbyuratorli dvigatellarga qaraganda yuqori termik F.I.K. olish imkonini

### 2.1-jadval

Sikl	$\varepsilon$	$\eta$	Dvigatel turi
$V = const$	17	0,686	Karbyuratorli dvigatel
$\begin{cases} q_i (V = const) \\ q_i (p = const) \end{cases}$	17	0,684	Tezyurar dizel
$V = const$	10	0,610	Karbyuratorli dvigatel
$V = const$	9	0,596	Karbyuratorli dvigatel

### III BOB. YONILG'I VA UNING YONISH KIMYOVİY REAKSIYALARİ

#### 3.1. YONILG'I

Ichki yonuv dvigatellarida suyuq va gaz holatidagilar yonilg'ilar ishlatiladi. Suyuq yonilg'ilar har xil uglevodorodlardan tashkil topgan bo'lib, ular parafin uglevodorodlar (alkanlar)  $C_nH_{2n+2}$ ; naften uglevodorodlar (siklanlar)  $C_nH_{2n}$ ;  $C_nH_{2n-2}$ ; aromatik uglevodorodlar  $C_nH_{2n-6}$ ;  $C_nH_{2n-12}$  va boshqalardan iborat.

Ichki yonuv dvigatellarida ishlatiladigan suyuq yonilg'ilarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, uning elementar tarkibi uglerod C, vodorod N<sub>2</sub> va oz miqdordagi kislorod O<sub>2</sub> dan tashkil topgan. Yonilg'ilarning ba'zi turlarida juda oz miqdorda oltingugurt S uchraydi.

Gaz bilan ishlaydigan dvigatellarda yonilg'i sifatida tabiiy gaz, sanoat gazlari va qattiq holdagi yonilg'ini gazga aylantirib olingan gazlar qo'llaniladi. Massa yoki hajm birligidagi yonilg'ining to'la yonishidan hosil bo'lgan issiqlik miqdoriga yonilg'ining yonish issiqligi deb ataladi va u yonilg'ining eng asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi.

Yonilg'ining yuqori  $H_0$  va quy'i  $H_u$  yonish issiqligi bo'ladi.

Massa yoki hajm birligidagi yonilg'ining to'la yonishi natijasida hosil bo'lgan va yonish mahsulotlarini boshlang'ich haroratgacha sovitganda sovituvchi muhitga beriladigan issiqlik miqdori yuqori yonish issiqligi, deb ataladi.

Ichki yonuv dvigatellarida ishlatilgan gazlar yuqori haroratda tashqariga chiqarib tashlanadi, ularning harorati tashqi muhit haroratidan ancha yuqori va tarkibida suv bug'i bo'ladi.

Shuning uchun hisoblashlarda suv bug'iining kondensatlanishida ajralib chiqadigan issiqlik miqdori

hisobga olinmaydi. Massa yoki hajm birligidagi yonilg'i yonganda hosil bo'ladigan issiqlik miqdoridan suv bug'ining kondensatlanishida ajralib chiquvchi issiqlik miqdorining ayirmasi yonilg'ining quyi yonish issiqligi  $H_u$  deyiladi. Dvigatellarni hisoblashda  $H_u$  ning qiymatidan foydalaniadi.

Buning uchun yonilg'ining elementar tarkibi va yuqori yonish issiqligi  $H_0$  ma'lum bo'lishi kerak:

$$H_u = H_0 - 2512(9H + W), \text{ kJ/kg.}$$

Odatda, 1 kg suv bug'ini hosil qilish uchun 2512 kJ/kg issiqlik miqdori sarflanadi.

1 kg yonilg'i yonganda 9 H suv bug'i hosil bo'ladi, 1 kg yonilg'ida H massa vodorod bo'ladi;  $W$  - 1 kg yonilg'idagi namlik miqdori.

Yonilg'ining faqat elementar tarkibi (C, H<sub>2</sub>, O<sub>v0</sub> va S) ma'lum bo'lgan hollarda ham uning quyi yonish issiqligini aniqlash mumkin. Buning uchun D.I.Mendeleev formulasidan foydalaniadi:

$$H_u = (34.013C + 125.6H) - 10.9(0 - S) - 2.512(9H + W)10^6, \text{ J/kg.}$$


Bug'lanuvchanlik yonilg'ining asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi va u yonilg'ining fraksion tarkibiga qarab belgilanadi. Yonilg'ining bug'lanuvchanligi maxsus asbobda aniqlanadi. Buning uchun yonilg'i asbobga solinadi va asta-sekin qizdiriladi. Yonilg'i qizigan sari bug'lana boshlaydi. Yonilg'ining 10, 50, 90 va 100% miqdori qaynab bug'ga aylangan harorati xarakterli nuqtalar deb qabul qilingan. Bu ma'lumotlarga binoan yonilg'i fraksion tarkibining haroratga bog'liqligini aniqlaymiz. Yonilg'i bilan havo aralashmasining sifati, tez yonishi va dvigatelning ishga tez tushish xususiyatlari yonilg'ining fraksion tarkibiga bog'liq. Ichki yonuv dvigatellarida ishlataladigan suyuq yonilg'ilarning fraksiyalar bo'yicha haydalish egi chiziqlari 3.1-rasmda ko'rsatilgan, asosiy ko'rsatkichlari esa 3.1-jadvalda keltirilgan.

### 3.1-jadval

#### *Avtomobil va traktor dvigatellarida ishlataladigan suyuq yonilg'ilarining asosiy ko'rsatkichlari*

Ko'rsatkichlar	Avtomobil benzini	Dizel yonilg'isi
Yonilg'ining elementar massa tarkibi:		
C	0,855	0,870
H <sub>2</sub>	0,145	0,126
O <sub>yo</sub>	—	0,004
O'rtacha molekulyar massasi, kg	110—120	180—200
Quyi yonish issiqligi:		
mj/kg da	44	42,5
kkal/kg da	10500	10150
Harorat, °S:		
haydashning boshlanishi	35	185—200
10% yonilg'ini haydash	55—70	200—225
50% -->	100—195	240—280
90% -->	160-195	290—350
haydashning tugallanishi (ko'pi bilan)	185—205	330—360

Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellarda yonilg'i sifatida benzin ishlataladi. Benzinning asosiy ko'rsatkichlaridan biri uning detonatsiyaga chidamliligidir. Har bir dvigatel uchun uning siqish darajasiga qarab, benzin navi tanlanadi. Agar shu dvigatelda boshqa nav benzin ishlatsa, uning silindrda yonish jarayoni noto'g'ri (nonnormal) kechadi, ya'ni yonish sharoitlari buziladi, detonatsiya paydo bo'ladi. Dvigateli bunday sharoitda ishlashiga yo'l qo'yilmaydi.



3.1-rasm. Suyuq yonilg'ilarini fraksiyalar bo'yicha naydash egri chiziqlari

Benzinlarning detonatsion chidamliligi oktan soni bilan xarakterlanadi va u shu maqsad uchun mo'ljallangan maxsus dvigatelda, aniq belgilangan sharoitlarda, sinash yo'li bilan aniqlanadi. Bu dvigatelning muhim xususiyati shundaki, unda siqish darajasini o'zgartirish mumkin. Benzinning oktan soni etalon yonilg'ilar yordamida aniqlanadi. Etalon yonilg'ilar sifatida detonatsion chidamliligi juda katta bo'lgan izooktan, ( $i$  C<sub>8</sub>H<sub>18</sub>) va detonatsion chidamliligi juda kichik bo'lgan geptan ( $n$  C<sub>7</sub>H<sub>16</sub>) ishlataladi. Bu dvigatelda sinash vaqtida yonilg'i sifatida izooktan va geptan aralashmasi ishlataladi. Yonish jarayonida detonatsiya hodisasi har xil siqish darajasida, ya'ni aralashmadagi yonilg'ilarning foiz miqdoriga qarab sodir bo'ladi. Izooktan qancha ko'p bo'lsa, detonatsiya hodisasi shuncha katta siqish darajasida sodir bo'ladi. Demak, yonilg'i sifatida toza izooktan ishlatalgandagina yuqori siqish darajasiga ega bo'lamiz.

Geptanning aralashmadagi foiz miqdori oshib borishi bilan, dvigatelning normal ishlashi uchun kerak bo‘ladigan siqish darajasi kamayib boradi. Misol uchun bizda noma'lum oktan sonli benzin bor, deb faraz qilamiz. Uning oktan soni quyidagicha aniqlanadi. Buning uchun maxsus dvigatelda shunday siqish darajasi o‘rnatish kerakki, bu holda tekshirilayotgan yonilg‘i bilinar-bilinmas detonatsiya bilan yonsin. Demak, bu benzin qanday siqish darajasida ( $\varepsilon$ ) detonatsiyaga moyilligini bilib oldik. So‘ngra dvigateli izooktan va geptan aralashmasidan iborat bo‘lgan yonilg‘i ishlatib sinaymiz. Bu aralashmaning shunday tarkibini topishimiz kerakki, uning detonatsiyaga moyilligi yuqoridaqidek siqish darajasida sodir bo‘lsin. Demak, bu aralashmadagi izooktanning foiz miqdori benzinning oktan sonini beradi.

Tekshirilayotgan yonilg‘i (benzin) bilan izooktan va normal geptan aralashmasining (bir xil siqish darajasida  $\varepsilon = const$ ) detonatsiyaga moyilligi teng bo‘lsa, aralashmadagi izooktanning foiz miqdori oktan soni deyiladi.

Agar sinalayotgan yonilg‘i va aralashma (Masalan, 93% izooktan va 7% geptan) bir xil sharoitda detonatsiya bilan yonsa, yonilg‘ining oktan soni 93 ga teng bo‘ladi.

Har bir karbyuratorli dvigatel uchun ishlatilishi lozim bo‘lgan benzinning oktan soni qo‘llanmalarda ko‘rsatiladi.

Uchqun bilan o‘t oldiriladigan dvigatellarda qo‘lla-niladigan benznlarning oktan soni 80 dan 93 gacha bo‘ladi.

Sinashlar ko‘rsatishicha, gaz holidagi yonilg‘ilarning oktan soni 90...110 ga teng. Demak, avtomobil dvigatellari oktan soni katta bo‘lgan gaz holidagi yonilg‘i bilan ishlaganda ularning siqish darajasini oshirish kerak, aks holda ularning quvvati bir oz pasayadi, chunki gazlarning quyi yonish issiqligi  $H_u$  benzinnikidan kam.

**Dizel yonilg‘ilariga qo‘yiladigan talablarni ko‘rib chiqamiz.** Yuqorida aytib o‘tganimizdek, dizelning yonish

kamerasiga purkalgan yonilg'i havoning yuqori harorati ( $500\text{-}600^{\circ}\text{S}$ ) ta'sirida oson alanganishi lozim. Bu, dizel yonilg'isiga qo'yiladigan asosiy talablardan biridir. Dizelda yonuvchi aralashma silindr ichida siqish takti oxirida hosil qilinadi. Lekin yonish jarayoni yonilg'i purkalgan zahoti boshlanmasdan, bir oz kechroq boshlanadi. Shuning uchun alanganishning kechikish davri yonilg'i berilgan paytdan boshlab yonish boshlanguncha bo'lган vaqt oralig'i bilan o'chanadi. Alanganishning kechikish davri purkash boshlangan paydag'i havoning termodynamik ko'rsatkichlariga, yonilg'inining fizik xossalari va yonilg'i beradigan asboblarda hosil qilinadigan bosimga bog'liq. Dizel yonilg'isining alanganuvchanligi setan soni bilan xarakterlanadi. Setan soni qancha yuqori bo'lsa, alanganishning kechikish davri shuncha qisqa bo'ladi. Yonilg'iniig setan soni maxsus dvigatellarda aniqlanadi.

Buning uchun tekshirilayotgan yonilg'ini oson alanganuvchan setan ( $C_{16}H_{34}$  uning setan soni 100 ga teng) va qiyin alanganuvchan  $\alpha$  - metilnaftalin (uning setan soni 0 ga teng) dan iborat bo'lган etalon aralashma bilan o'zar solishtiriladi. Bunda yonilg'ilari alanganishining kechikish davri aniqlanadi. Masalan, setan soni noma'lum bo'lган dizel yonilg'isining alanganish davri etalon aralashma (45% setan + 55%  $\alpha$  - metilnaftalin) ning alanganish davriga teng bo'lsa, u holda yonilg'inining setan soni etalon aralashmasidagi setanning foiz miqdori bilan aniqlanadi. Yuqoridagi misolda dizel yonilg'isining setan soni 45 ga teng. Umuman, dizel yonilg'i-larning setan soni 40...50 bo'ladi (GOST 305-82). Yonilg'inining muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri uning harorati va fraksion tarkibiga bog'liq bo'lган qovushoqligidir. Yonilg'inining fraksion tarkibi qancha og'ir bo'lsa, uning qovushoqligi shuncha yuqori bo'ladi. Bunday yonilg'ilarda harorat pasayishi bilan qovushoqlik tez oshadi. Masalan, benzinning harorati  $+20^{\circ}\text{S}$  dan -  $20^{\circ}\text{S}$  gacha o'zgarsa, uning qovushoqligi 2 marta, dizel

qovushoqligi purkalish sifatiga va yonilg‘ining havo bilan aralashishiga ta’sir ko‘rsatadi. Kun sovuq bo‘lganda dizellarni ishga tushirishning qiyinlashishini yonilg‘ining shu xususiyati bilan tushuntiriladi.

### 3.2. YONILG‘INING YONISH REAKSIYALARI

Dvigatel silindri ichida yonilg‘i bilan havo aralashmasining yonishi juda muhim va murakkab jarayon bo‘lib, shu davrgacha to‘liq tekshirilmagan.

Yonilg‘i yonishi natijasida ajralib chiqadigan issiqlik miqdorini yonilg‘i tarkibiga kiruvchi uglerod C va vodorod H<sub>2</sub> ning kislorod O<sub>2</sub> bilan kimyoviy reaksiyalari orqali aniqlash mumkin.

1 kg suyuq yonilg‘i, C kg uglerod (C), H kg vodorod (H<sub>2</sub>) va O<sub>v0</sub> kg kislorod (O<sub>2</sub>) dan iborat.

Bularning yig‘indisi: C+H+O<sub>v0</sub>=1 kg.

#### Yonilg‘ining to‘la yonishi

Yonilg‘ining to‘la yonishi uchun kislorod yetarli bo‘lishi zarur. Bu holda uglerodning oksidlanishidan karbonat angidrid, vodorodning oksidlanishidan esa suv bug‘i hosil bo‘ladi.



Uglerod, vodorod va kislorodning molekulyar massalarini hisobga olib, yuqoridaq tenglamalarni quyidagicha yozish mumkin:

$$12 \text{ kg (C)} + 32 \text{ kg (O}_2\text{)} = 44 \text{ kg (CO}_2\text{)},$$

$$4 \text{ kg (H}_2\text{)} + 32 \text{ kg (O}_2\text{)} = 36 \text{ kg (H}_2\text{O)}.$$

1 kg uglerod uchun:

$$1 \text{ kg (C)} + \frac{8}{3} \text{ kg (O}_2\text{)} = \frac{11}{3} \text{ kg (CO}_2\text{)}; \quad (\text{a})$$

1 kg vodorod uchun:

$$1 \text{ kg (H}_2\text{)} + 8 \text{ kg (O}_2\text{)} = 9 \text{ kg (H}_2\text{O)} \text{ bo‘ladi. (b)}$$

(a) tenglama shuni ko'rsatadiki, 1 kg uglerod to'la yonishi uchun  $\frac{8}{3}$  kg kislород kerak va buning natijasida -  $\frac{11}{3}$  kg

karbonat angidrid gazi hosil bo'ladi; (b) tenglamaga binoan 1 kg vodorod to'la yonishi uchun 8 kg kislород kerak, bunda 9 kg suv bug'i hosil bo'ladi.

1 kg yonilg'ining to'la yonishi uchun kerak bo'ladi gan kislород miqdorini aniqlash uchun (a) va (b) tenglamalarning o'ng va chap qismlarini mos ravishda C va H ga, ya'ni 1 kg yonilg'idagi uglerod va vodorodning ulushlariga ko'paytirish kerak:

$$C \text{ kg (C)} + \frac{8}{3} C \text{ kg (O}_2\text{)} = \frac{11}{3} C \text{ kg (CO}_2\text{)}, \quad (v)$$

$$H \text{ kg (H}_2\text{)} + 8H \text{ kg (O}_2\text{)} = 9H \text{ kg (H}_2\text{O)}. \quad (g)$$

### **1 kg yonilg'ining to'la yonishi uchun zarur bo'lgan havoning nazariy miqdori**

(v) va (g) tenglamalarga binoan C kg uglerod va H kg vodorodning to'la yonishi uchun  $\left(\frac{8}{3}C + 8H\right)$  kg kislород talab etilar ekan.

Agar yonilg'i tarkibidagi kislород O<sub>vo</sub> ni hisobga olsak, 1 kg yonilg'ining to'la yonishi uchun kerakli minimal kislород miqdori

$$O_{2\min} = \frac{8}{3}C + 8H - O_{vo}, \text{ kg bo'ladi.}$$

Ichki yonuv dvigatellarida silindr ichiga tashqi muhitdan havo kiritilib, uning tarkibidagi kislород ishlataladi. Havo tarkibidagi kislородning massasi 23%. Demak, 1 kg yonilg'ining to'la yonishi uchun zarur bo'lgan havoning nazariy miqdori:


$$l_o = \frac{1}{0,23} \left( \frac{8}{3}C + 9H - O_{vo} \right), \text{ kg bo'ladi.}$$

Havoning qolgan qismi azot (77%) bo'lib, yonishda qatnashimaydi va ishlataligan gazlar bilan dvigatel silindridan chiqarish jarayonida chiqib ketadi.


### Yonilg'ining chala yonishi

Karbyuratorli dvigatellarni ekspluatatsiya qilish shuni ko'rsatadiki, ular umumiy vaqtning 70 - 80 foizi davomida asesan kichik yuklamalarda ishlaydi. Bu hollarda yonish jarayonida kislorodni me'yordan kamroq berish kerak, chunki bunday ish aralashmasi tez yonish xususiyatiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, dvigateli yurgizishda va undan katta quvvat talab qilinganda ham kamroq kislorod, ya'ni havo berish lozim bo'ladi.

Tajribalar ko'rsatishicha, kislorodning miqdori keragidan bir oz kam bo'lsa, yonish jarayoni tez kechadi. Biroq bunda kislorod yetishmaganligidan uglerod to'la yonmaydi va uning bir qismi is gazi (CO) ni hosil qiladi, vodorodning ozroq qismi esa butunlay yonmay qoladi, ya'ni



yoki



Uglerodning CO ga aylangan qismini  $\varphi$  bilan belgilaymiz. U holda C kg uglerodning CO ga aylangan qismi  $\varphi$  C kg, CO<sub>2</sub> ga aylangan qismi esa (1 -  $\varphi$ ) C kg bo'ladi. Ko'p hollarda vodorod to'la yonadi, deb faraz qilinadi. Karbyuratorli dvigatellarning silindrida 1 kg yonilg'ining chala yonishi uchun kerak bo'ladigan havo miqdori quyidagi tenglamada aniqlanadi:

$$I_o = \frac{1}{0,23} \left[ \frac{4}{3} (2 - \varphi) C + 8H - O_{yo} \right], \text{ kg.}$$

### Havoning ortiqlik koeffitsiyenti

Avtotraktor ichki yonuv dvigatellarida ularning ish rejimlariga mos ravishda yonish reaksiyalarida qatnashayotgan havoning miqdori ham o'zgaradi, ya'ni havo


miqdori yonilg'ining to'la yonishi uchun kerakli bo'lgan nazariy miqdordan ko'p yoki kam bo'ladi va havoning ortiqlik koeffitsiyenti –  $\alpha$  orqali ifodalanadi. Havoning ortiqlik koeffitsiyenti deb, 1 kg yonilg'ini yondirish uchun sili ndr ichiga kiritilgan havoning haqiqiy miqdori  $l$  ni nazariy (zarur) miqdori  $l_0$  ga nisbatiga aytildi, ya'ni

$$\alpha = \frac{l}{l_0}.$$

Havoning ortiqlik koeffitsiyenti karbyuratorli dvigatellarda 0,8...1,2; dizellarda esa 1,3...6,0 ga teng. Havoning ortiqlik koeffitsiyenti birdan katta bo'lsa, suyuq aralashma va birdan kichik bo'lsa, quyuq aralashma deyiladi.

Dizellarda har doim  $\alpha > 1$  bo'ladi. Shu sababli ular karbyuratorli dvigatelga nisbatan tejamli ishlaydi.

3.2-rasmda  $\alpha$  ning yuklamaga qarab o'zgarishi tasv irlangan. Havoning ortiqlik koeffitsiyenti  $\alpha$  ma'lum bo'lsa, uglerodning CO ga aylangan qismi quyidagi ifodadan topiladi:



$$\varphi = 2(1 - \alpha) \left( 1 + \frac{3H}{C} \right).$$

Misol.  $\alpha = 0,9$  bo'lsa,

$$\varphi = 2(1 - 0,9) \left( 1 + \frac{3 \cdot 0,145}{0,855} \right) = 0,302$$

bo'ladi, ya'ni uglerodning 30,2% is gaziga aylanadi.

*3.2-rasm. Havo ortiqlik koeffitsiyenti  $\alpha$  ning yuklamaga bog'liq holda o'zgarishi:*

*1-karbyuratorli dvigatel; 2-dizel*

## Yonuvchi aralashma va yonish mahsulotlarini miqdorini aniqlash

Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatel silindriga kiritilayotgan yonuvchi aralashma havo va mayda zarralarga parchalangan yonilg'iidan iborat bo'ldi.

1 kg yonilg'i yonishida qatnashadigan yonuvchi aralashmaning umumiy massasi quyidagicha topiladi:

$$G_1 = 1 + \alpha l_0, \text{ kg.}$$

Yonish mahsulotlarining massasi uning tarkibiga kiruvchi gazlarning massalarini qo'shish yo'li bilan aniqlanadi.

**To'la yonish** ( $\alpha \geq 1$ ). Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, to'la yonish jarayonida karbonat angidrid  $\text{CO}_2$ , suv bug'i  $\text{H}_2\text{O}$ , yonish jarayonida qatnashmagan ortiqcha kislorod  $\text{O}_2$  va azot  $\text{N}_2$  ajralib chiqadi.

Ma'lumki, 1 kg yonilg'i to'la yonganda  $\frac{11}{3} C \text{ kg CO}_2$  va

$9H \text{ kg H}_2\text{O}$  ajralib chiqadi.

Silindr ichiga  $0,23 \alpha l_0$  kg kislorod kiradi, yonishda esa uning  $0,23 l_0$  kg qismi ishtirok etadi. Demak, kislorodning bir qismi yonishda ishtirok etmaydi va uning miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$G_{\alpha} = 0,23 \alpha l_0 - 0,23 l_0 = 0,23(\alpha - 1) l_0, \text{ kg.}$$

Ko'rinib turibdiki, agar  $\alpha = 1$  bo'lsa,  $G_{\alpha} = 0$  bo'ldi.

Yonish jarayonida qatnashmaydigan va ishlataligan gazlar bilan chiqib ketadigan azot miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$G_{N_2} = 0,77 \alpha l_0, \text{ kg.}$$

$\alpha > 1$  bo'lganda yonish mahsulotlarining umumiy miqdori quyidagicha topiladi:

$$G_2 = \frac{11}{3} C + 9H + 0,23(\alpha - 1).$$

Yonish mahsulotlarining umumiy miqdori  $G_2$  yonuvchi aralashma  $G_1$  ning umumiy miqdoriga teng, ya'ni

$$G_2 = C + H + O_{y_0} + \alpha l_0 = 1 + \alpha l_0 = G_1.$$

**Chala yonish ( $\alpha < 1$ ).** Bunda yonish jarayoni kislorod yetishmagan holda sodir bo'ladi. Shuning uchun yonish mahsulotlarida kislorod oz miqdorda bo'ladi.  $\alpha < 1$  bo'lgan hol uchun 1 kg yonilg'i yongandagi yonish mahsulotlarining massalari quyidagi ifodalar yordamida aniqlanadi:

$$G_{co_2} = \frac{11}{3}(1 - \varphi)C, \text{ kg}; \quad G_{co} = \frac{7}{3}\varphi C, \text{ kg};$$

$$G_{H_2O} = 9H, \text{ kg}; \quad G_{N_2} = 0,77\alpha l_0, \text{ kg};$$

Demak, yonilg'i chala yonganda yonish mahsulotlarining umumiy miqdori

$$G_2 = \frac{11}{3}C + 9H + 0,77\alpha l_0 - \frac{4}{3}\varphi C = G_1$$

bo'ladi.

### **Yonuvchi aralashmaning va yonish mahsulotlarining miqdorini mol hisobida aniqlash**

Dvigatelning asosiy o'lchamlarini topish uchun unissiqlikka hisoblash zarur. Bunday hisoblashlarda yonuvchi aralashmaning va yonish mahsulotlarining miqdorini «kmol» hisobida ifodalash kerak. Buning uchun yonish mahsulotlarining tarkibiga kiruvchi ayrim gazlarni va yonuvchi aralashma massalarini ularning molekulyar massalariga bo'lish kerak. Karbyuratorli dvigatellarda yonuvchi aralashma havo ( $\alpha l_0$ ) va 1 kg yonilg'idan iborat bo'ladi, ya'ni  $G_1 = \alpha l_0 + 1$ . Shuning uchun 1kg yonilg'i yonganda yonuvchi aralashmaning haqiqiy miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$M_1 = \frac{\alpha l_0}{\mu_h} + \frac{1}{\mu_{y_0}} = \alpha L_0 + \frac{1}{\mu_{y_0}}, \text{ kmol};$$

bu yerda  $\mu_h$ -havoning molekulyar massasi,  $\mu_h = 28,97$ .  $\mu_{y_0}$ -benzinning molekulyar massasi,  $\mu_{y_0} = 110 \dots 120$ .  $L_0$ -1kg yonilg'i yonishi uchun zarur bo'lgan havoning nazariy

miqdori, kmol.  $\frac{1}{\mu_{yo}}$  nisbat kichik bo'lganligi sababli, ko'pincha uning qiymati e'tiborga olinmaydi.

Dizellarda yonuvchi aralashma sifatida uning silindriga kiritish taktida faqat havo kiradi va shu sababli yonuvchi aralashmaning kg da o'lchangan miqdori  $G_1 = \alpha l_0$  bo'ldi. Yonuvchi aralashmaning haqiqiy miqdori esa quyidagicha aniqlanadi:

$$M_1 = \frac{\alpha l_0}{\mu_h} = \alpha L_0, \text{ kmol.}$$

1 kg yonilg'ining to'la yonishi uchun zarur bo'lgan havoning nazariy mikdori

$$L_0 = \frac{l_0}{\mu_h} + \frac{1}{0,23 \cdot 28,97} \left( \frac{8}{3} C + 8H - O_{yo} \right) = 0,15 \left( \frac{8}{3} C + 8H - O_{yo} \right), \text{ kmol}$$

yoki

$$L_0 = \frac{1}{0,21} \left( \frac{C}{12} + \frac{H}{4} - \frac{O_{yo}}{32} \right), \text{ kmol.}$$

Yonish jarayoni  $\alpha \geq 1$  da olib borilganda barcha dvigatellar uchun yonish mahsulotlarining umumiyligi miqdori va tashkil etuvchilari quyidagicha hisoblanadi. Bu holda yonish mahsulotlari  $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{N}_2$  va  $\text{O}_2$  gazlardan iborat bo'ldi, ya'ni:

$$M_2 = M_{\text{CO}_2} + M_{\text{H}_2\text{O}} + M_{\text{N}_2} + M_{\text{O}_2}.$$

Karbonat angidrid gazi

$$M_{\text{CO}_2} = \frac{11}{3} \cdot \frac{C}{44} = \frac{C}{12}, \text{ kmol;}$$

suv bug'i

$$M_{\text{H}_2\text{O}} = \frac{9H}{18} = \frac{H}{2}, \text{ kmol;}$$

azot

$$M_{N_2} = \frac{0,77\alpha l_0}{28} = \frac{0,77\alpha l_0 \mu_h}{28} = 0,79\alpha L_0, \text{ kmol};$$

ortiqcha kislorod

$$M_{O_2} = \frac{0,23(\alpha - 1)l_0}{32} = 0,21(\alpha - 1)L_0, \text{ kmol};$$

$\alpha = 1$  bo'lsa  $M_{O_2} = 0$  bo'ladi.

$\alpha > 1$  bo'lganda yonish mahsulotlarining umumiy miqdori:

$$M_2 = \alpha L_0 + \frac{H}{4} + \frac{O_m}{32}, \text{ kmol};$$

$$\alpha = 1 \text{ bo'lganda } M_2 = \frac{C}{12} + \frac{H}{2}, \text{ kmol}.$$

Yonish jarayonida  $\alpha < 1$  bo'lsa, yonish mahsulotlarining umumiy miqdori quyidagicha bo'ladi:  
 $M_2 = M_{CO_2} + M_{CO} + M_{H_2O} + M_{N_2}$ , kmol.

$$\alpha < 1 \text{ bo'lganda, } M_{CO_2} = 0; M_{CO} = \frac{C}{12}(1 - \varphi),$$

$$M_{CO} = \frac{C}{12}\varphi; M_{H_2O} = \frac{H}{2};$$

$$M_{N_2} = 0,79\alpha L_0, \text{ kmol}.$$

Demak, yonish mahsulotlarining umumiy miqdori:

$$M_2 = \frac{C}{12} + \frac{H}{2} + 0,79\alpha L_0, \text{ kmol}.$$

Yonish mahsulotlari  $M_2$  bilan yonuvchi aralashmaning miqdori  $M_1$  bir-biriga teng emas. Bu esa yonish natijasida gaz molekulalarining soni o'zgarganligini bildiradi. Bu quyidagicha aniqlanadi:

$$\Delta M = M_2 - M_1, \text{ kmol}.$$

Karbyuratorli dvigatellarda yonuvchi aralashma to'la yonganda ( $\alpha \geq 1$ ):

$$\Delta M = \frac{H}{4} + \frac{O_m}{32} - \frac{1}{\mu_{yo}}, \text{ kmol};$$

yonuvchi aralashma chala yonganda ( $\alpha < 1$ ) esa:

$$\Delta M = \frac{C}{12} + \frac{H}{2} - 0,2 \ln L_0 - \frac{1}{\mu_{y_0}}, \text{ kmol.}$$

Dizellar uchun ( $\alpha > 1$ ) «kmol»lar miqdorining ortishi quyidagicha hisoblanadi:


$$\Delta M = \frac{H}{4} + \frac{O_{y_0}}{32}, \text{ kmol.}$$

Yonilg'i yonganda hosil bo'lgan gazlar hajmi yonuvchi aralashmaning hajmidan katta bo'ladi va bu gazlar foydali ish bajaradi. Hajmning o'zgarishi yonuvchi aralashma molekulyar o'zgarishining nazariy koefitsiyenti  $\mu_0$ , ya'ni

$\frac{M_2}{M_1}$  nisbat orqali aniqlanadi:

$$\mu_0 = \frac{M_2}{M_1} = 1 + \frac{\Delta M}{M_1}.$$

Dizel va karbyuratorli dvigatellar uchun kimyoviy molekulyar o'zgarish koefitsiyentining  $\alpha$  ga bog'liqligi 3.3-rasm, a, b da tasvirlangan.



3.3-rasm. Kimyoviy molekulyar o'zgarish koefitsiyenti  $\mu_0$  ning  $\alpha$  ga bog'liqligi:

1 - dizel; 2 - karbyuratorli dvigatel

### **3.3. YONISH MAHSULOTLARINI ZARARSIZLANTIRISH**

Ichki yonuv dvigatellari silindirda yonilg'i bilan havo aralashmasining yonishi natijasida to'la yonish mahsulotlari bilan bir qatorda, kam miqdorda bo'lsa ham, chala yonish mahsulotlari CO, NOx hamda yonilg'ining parchalanish mahsulotlari ( $C_xH_x$ , C,  $SO_2$ ,  $H_2S$ , alqdegidlar va 3,4-benzpiren) hosil bo'ladi. Bu gazlar kishi sog'lig'i uchun (umuman, tirik organizm uchun) zararlidir. Ishlatilgan gazlar tarkibidagi zaharli gaz komponentlarining miqdori kimyoviy usul bilan tekshirib aniqlanadi.

Yonish mahsulotlarining zaharli komponentlariga is gazi - CO; azot oksidi -  $NO_x$ ; yakka uglevodorodlar -  $C_xH_x$  (benzpiren) va boshqalar kiradi.

Is gazi CO - yonilg'ining chala yonishi natijasida hosil bo'ladi, ya'ni dvigatel asosan kichik yuklamalar'da ishlaganda ajralib chiqadi va miqdori bo'yicha yonish mahsulotlarining 10-12% ini tashkil qilishi mumkin. Ayniqsa, avtomobil joyidan qo'zg'alayotganda is gazi ko'p ajralib chiqadi. Dizellarda is gazining miqdori nisbatan kam (0,5%) bo'ladi. Bu jihatdan dizel dvigatellari karbyuratorli dvigatellarga qaraganda katta afzalliliklarga ega.

Azot oksidlari kam miqdorda bo'lib (0,8 mg/l), asosan  $\alpha$  ning katta qiymatlarida paydo bo'ladi.

Yonish mahsulotlari tarkibidà  $SO_2$  ning miqdori 250 mg/l gacha bo'lishi mumkin.  $H_2S$  esa juda oz miqdorda bo'ladi.

Yakka uglevodorodlarning miqdori 10 - 20  $mkgm^3$  ni tashkil etadi. Ularning asosiysi 3,4 - benzpiren bo'lib, u juda faol moddadir. Uning juda oz konsentratsiyasi ham kishi organizmini zaharlashi mumkin.

Etilangan benzin ishlatilganda qo'rg'oshin birikmalar, ya'ni zaharli moddalar hosil bo'ladi.

Ichki yonuv dvigatellarida ishlatilib atmosferaga chiqarib tashlanadigan gazlar tarkibidagi xilma-xil zaharli moddalar kishi organizmini doimo zaharlab keladi va turli kasalliklar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Avtomobil transporti va sanoati rivojlangan sharoitda katta shaharlar, yirik korxonalarda ishlatilgan gazlarning ko'plab yig'ilib qolishiga yo'l qo'yish mumkin emas. Shuning uchun butun dunyoda bu masalaga jiddiy e'tibor berilmoqda va bunday zaharli moddalar ajralib chiqishini kamaytirish maqsadida katta ilmiy izlanishlar hamda tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, karbyuratorlarni to'g'ri sozlash, karbyuratorli dvigatellarni kichik va o'rtacha yuklamalarda suyuq aralashmada ishlatish, alanga bilan o't oldirish usullariga katta ahamiyat berilmoqda. Chiqarish tizimida ishlatilgan gazlarni qaytdan yoqish usullari ham qo'llanilayapti. Karbyuratorli dvigatellar va dizellarning tovush pasaytirgichlariga (glushitel) gazlarni neytrallashtiruvchi moddalar (neytralizatorlar) qo'yilib, ishlatilgan gazlar zaharli moddalardan tozalanmoqda.

Karbyuratorli dvigatellarning asosiy kamchiliklaridan biri - ular yuklamasiz (salt) ishlaganida, ayniqsa, ko'p miqdorda zaharli moddalar ajralib chiqishidir. Bu kamchilikni kamaytirish maqsadida maxsus, siyraklikni cheklagichilar ornatilmoqda. Karbyuratorli dvigatellar kichik va o'rtacha yuklama bilan ishlaganida ularning tejamliligi keskin kamayadi. Bu kamchiliklarni yo'qotish uchun yonilg'ini alanga (mash'al) bilan yondirish usuli qo'llaniladi. Dizellardagi ishlatilgan gazlar tarkibida zaharli moddalarning va tutunning ko'p yoki kam bo'lishida yonilg'i uzatuvchi asboblarning to'g'ri va soz ishlashi katta ahamiyatga ega. Agar yonilg'i purkash asboblari (yuqori bosimli nasos va forsunka) to'g'ri va aniq rostlangan bo'lsa, zaharli moddalar juda kam ajralib chiqadi. Ayrim hollarda tutunni kamaytirish maqsadida dizel yonilg'isiga tutunga qarshi qo'shimcha moddalar qo'shiladi.

## **IV BOB. ICHKI YONUV DVIGATELLARINING HAQIQIY SIKLLARI**

### **4.1. UMUMIY MA'LUMOT**


Nazariy sikllarni tahlil qilganimizda issiqlik siklning ma'lum bir davrida «issiq» manbadan beriladi deb faraz qilgan edik. Ichki yonuv dvigateellarining haqiqiy sikllarida issiqlik olish uchun uning silindriga kiritilgan yonuvchi aralashmani yondirish zarur. Tabiiyki, issiqlik bu yo'l bilan olinganda termodynamikaning ikkinchi qonunida e'tiborga olinmagan qo'shimcha issiqlik sarfi sodir bo'ladi. Real dvigatelda issiqlikning ma'lum qismi silindr devorlari orqali sovituvchi muhitga beriladi va ishlataligan gazlar bilan birga chiqib ketadi, boshqa qismi esa o'ziga ekvivalent miqdorda ish bajaradi. Qaytadan ish bajarish uchun yonish jarayoni sodir bo'lgan silindrni yonish mahsulotlaridan tozalash va uni yangi yonuvchi aralashma bilan to'ldirish lozim. Buning uchun qo'shimcha ish sarflanadi. Siqish va kengayish jarayonlari tashqi muhit bilan issiqlik almashib sodir bo'ladi. yonilg'ining yonishi esa ma'lum vaqt davom etib kengayish jarayonida uzil-kesil tugaydi. Siqish va kengayish jarayonlarining bu xarakterda kechishi natijasida qo'shimcha issiqlik yo'qoladi.

Haqiqiy siklda nazariy siklga nisbatan issiqlik qo'shimcha isrof bo'lganidan haqiqiy siklning F.I.K.i nazariy siklning F.I.K.idan doim kichik bo'ladi.

Issiqlikdan foydalanishning mukammalligini haqiqiy va nazariy sikllarda bajarilgan foydali ishlarni o'zaro solishtirib baholash mumkin.

Haqiqiy sikl davomida bajarilgan ish maxsus asbob - bosim indikatori yordamida aniqlanadi. Bu asbob silindrda bosimni sikl davomida tirsakli valning burilish burchagiga mos ravishda o'zgarishini ossillograf qog'oziga  $\rho-\varphi$  koordinatalar sistemasida yozadi (4.1-rasm). Olingan indikator diagrammadan siklning ishini aniqlash uchun uni  $p - V$

koordinatalar sistemasida qayta qurish kerak (4.2-rasm). Buning uchun porshenning yurish yo'li bilan tirsakli valning burilish burchagi orasidagi bog'lanish ma'lum bo'lishi kerak. Bu holda indikator diagrammaning yuzasi siklning haqiqiy indikator ishi  $L_i$  ni beradi.



**4.1-rasm. Bosim indikatori yordamida olingan indikator diagramma**


Real dvigatellarda issiqlikdan foydalanish samarasi indikator F.I.K.i orqali baholanadi va u  $\eta_i$  bilan belgilanadi:

$$\eta_i = \frac{L_i}{Q_1},$$

bu yerda  $L_i$  - indikator ish;  $Q_1$  - silindrga kiritilgan issiqlik miqdori.

Agar foydali ish 1 kg yonilg'i yonishi natijasida olingan bo'ssa,

$$\eta_i = \frac{l_i}{H_u} \quad \text{bo'ladi.}$$



**4.2-rasm. To'rt taktli karbyuratorli dvigatelning  
p – V koordinatalar sistemasidagi indikator diagrammasi**

Haqiqiy siklning indikator F.I.K.i nazariy siklning termik F.I.K.iga qanchalik yaqin bo'lsa, haqiqiy sikl shunchalik mukammal tashkil qilingan bo'ladi. Sikllar o'zaro nisbiy F.I.K.  $\eta_0 = \frac{\eta}{\eta_t}$  bilan solishtiriladi. Hozirgi dvigatellarda  $\eta_0 = 0,65..0,80$  ga teng. Demak, haqiqiy sikllarda issiqlikdan foydalanish darajasi nazariy sikllarnikiga qaraganda nisbatan past bo'lib, 65-80% ni tashkil qiladi.

## **4.2. TO'RT TAKTLI DVIGATELNING ISH SIKLI**

Zamonaviy ichki yonuv dvigatellari to'rt taktli siklda hamda yuklama va tezlik rejimlarining keng ko'lamda o'zgarishlari bilan ishlaydi. Quyida avtomobil dvigatellariga xos bo'lgan sikllarning ishini ko'rib chiqamiz.

### **Karbyuratorli dvigatel**

Karbyuratorli dvigatellarda tirsakli valning aylanishlar chastotasi 6000-8000 min<sup>-1</sup> ga teng bo'lib, ularning siklda ish bajarishi uchun juda qisqa vaqt (0,15-0,02 s) ajratilgan. Shu qisqa vaqt ichida silindrغا yonuvchi aralashma kirishi, siqish jarayoni sodir bo'lishi, yonilg'i bug'lanishi va havo bilan aralashishi, uchqun berilishi, aralashma yonishi, ish bajarishi va ishlatilgan gazlar atmosferaga chiqarib yuborilishi kerak. Siklning samaradorligini oshirishda yonish jarayoniga katta ahamiyat berish kerak, chunki bu jarayon qanchalik to'g'ri tashkil qilinsa, siklda shuncha katta ish bajariladi.

4.1-rasmda to'rt taktsi karbyuratorli dvigatelning indikator diagrammasi  $\rho - \varphi$  koordinatalar sistemasida ko'rsatilgan. Shu diagrammaning  $\rho - V$  koordinatalar sistemasida qayta qurilgani 4.2-rasmda ko'rsatilgan.

Bu dvigatelda kiritish klapani ochila boshlashi (1 nuqta) bilan karbyuratororda hosil bo'lgan yonuvchi aralashma silindr ichiga kiradi va bu jarayon kiritish klapani yopilganda tugaydi (2 nuqta). Bu jarayon kiritish jarayoni deb ataladi. Kiritish jarayoni davomida havo va yonuvchi aralashma dvigatelning kirish yo'lida (havotozalagich, karbyurator, drossel-to'smaqopqoq, kiritish klapani) qarshiliklarga duch keladi, natijada uning bosimi kamayadi. Dvigatel silindriga tushgan yonuvchi aralashma ilgarigi sikldan qolgan yonish mahsulotlari bilan aralashib, ish aralashmasini hosil qiladi.

Shuni aytib o'tish kerakki, kiritish klapani 1 nuqtada yu.ch.n.ga 5-20° yetmasdan ochilib, 2 nuqtada p.ch.n.dan 40-70° o'tgandan so'ng yopiladi.


Siqish jarayoni 2 nuqtadan, ya'ni kiritish klapani yopilishi bilan boshlanadi. Ish aralashmasining harorati issiqlik beriladigan yuzalar (silindr, kallak, porshen) ning o'rtacha haroratidan farq qilganligi uchun siqish jarayonida o'zaro issiqlik almashinishi sodir bo'ladi. Siqish jarayonining birinchi davrida issiqlik silindr devorlaridan ish aralashmasiga beriladi, so'ngra siqish natijasida ish aralashmasining harorati o'sadi va issiqlik aksincha, aralashmadan silindr devorlariga beriladi.

Karbyuratorli dvigatellarda ish aralashmasi elektr uchquni bilan yondiriladi. Yonish boshlangandan so'ng ish aralashmasining chaqnoq (iskra) atrofidagi qismi alangalanadi va yonish kamerasi bo'ylab yuqori tezlik ( $30\ldots50$  m/s) bilan tarqaladi. Aralashmaning asosiy massasi porshen yu.ch.n.ga yaqin (kengayish boshlanishida) bo'lganda yonib tugasa, ya'ni yonish jarayoni o'zgarmas hajmda ketsa, issiqlikdan juda yaxshi foydalanilgan bo'ladi va siklning indikator F.I.K.i or'tadi. Buning uchun aralashmani ilgariroq, ya'ni porshen yu.ch.n.ga kelmasdan yondirish kerak (3 nuqta). Bunday sharoitda yonish jarayoni juda qisqa vaqt oralig'ida, ya'ni tirsakli valning burilish burchagi yu.ch.n.ga  $10\ldots15^\circ$  yetmasdan va yu.ch.n.dan  $15\ldots20^\circ$  o'tib ketgan uchastka oralig'ida sodir bo'ladi, bu holda harorat va bosimning tez ortishi kuzatiladi.

Kengayish jarayoni (ish yo'li)da yonish davom etadi. silindr devorlari bilan issiqlik almashinadi, issiqlikning bir qismi atmosferaga chiqarib yuboriladi. Natijada F.I.K. kamayadi.

Ishlatilgan gazlar chiqarish klapani ochilishi bilan (4 nuqta) tashqariga chiqarila boshlanadi. Bu vaqtida silindr ichidagi bosim atmosfera bosimiga nisbatan ancha yuqori bo'lganligi uchun, ishlatilgan gazlar juda katta tezlik bilan tashqariga chiqsa boshlaydi. Chiqarish jarayoni porshen yu.ch.n.ga yetguncha davom etadi va chiqarish klapani yopilishi bilan tugaydi (5 nuqta). Chiqarish jarayoni uzoq vaqt davom etishiga qaramasdan ( $\sim260^\circ$ ) silindrning ichida

ishlatilgan gazlarning ozroq qisasi qoladi va ular, qoldiq gazlar koefitsiyenti bilan xarakterlanadi.



**4.3-rasm. To'rt takli «nadduv»siz dizelning p–V koordinatalar sistemasidagi indikator diagrammasi**

Dizel

Tezyurar dizellarning tirsakli vali  $1800\ldots3000 \text{ min}^{-1}$  (yuk avtomobilari) va  $4500\ldots5000 \text{ min}^{-1}$  (yengil avtomobillar) chastota bilan aylanadi. Bunday sharoitlarda dizel siklining kechishi juda qisqa muddat ( $0,15\ldots0,05 \text{ s}$ ) larda sodir bo'lishi kerak. Ayniqsa, ish aralashmasini hosil qilish va yonish jarayonlariga katta ahamiyat berish zarur.

Toʻrt taktli «nadduv»siz dizelning  $p-V$  koordinatalar sistemasidagi indikator diagrammasi 4.3-rasmida keltirilgan.

Dizelda kiritish klapani ochilganda (1-nuqta) silindr ichiga faqat havo kiradi, kiritish jarayoni porshen yu.ch.n.dan p.ch.n.ga yetib kelguncha davom etadi va 2-nuqtada, ya'ni klapan yopilishi bilan tugaydi. Karbyuratorli dvigateldagi kabi dizelda ham kiritish klapani yopilishi bilan (2-nuqta) porshen p.ch.n.dan yu.ch.n.ga harakat qilganda silindr ichida siqish jarayoni sodir bo'ladi. Bu vaqtida kiritilgan havo bilan silindr devorlari o'rtasida o'zaro issiqlik almashinishi ketadi. Yonish kamerasiga yonilg'ini purkash porshen yu.ch.n.ga yaqinlashganida (3-nuqta) boshlanadi.

Dizel silindriga yonilg'ini purkash porshen yu.ch.n.ga 10...20° yetmasdan boshlanadi. Bu paytda siqilgan havoning harorati yuqori bo'lib (800...1000 K), purkalgan yonilg'ining zarralari havoga qo'shilishi bilan o'z-o'zidan yona boshlaydi. Purkash ko'pgina hollarda yonish vaqtida tugaydi. Demak, dizelda ish aralashmasini hosil qilish uchun ajratilgan vaqt juda qisqa bo'lib, uni to'g'ri tashkil qila bilish katta ahamiyatga ega. Bunday sharoitda yonilg'i purkash asboblariga va havoning uyurma harakatiga bo'lgan talab oshadi.

Yuqori bosimli yonilg'i nasosida siqilgan yonilg'i kichik teshiklari bo'lgan forsunka orqali dizelning yonish kamerasiga mayda zarrachalar holida to'zitib purkaladi. Siqilgan havoning uyurma harakati ta'sirida ish aralashmasi hosil bo'ladi. Kameraning qaysi qismida aralashmaning tarkibi yonishga tayyor bo'lsa, o'sha yerdan yona boshlaydi va tezlikda butun kamera bo'ylab tarqaladi. Silindrga purkalgan yonilg'i ma'lum vaqt o'tishi bilan yona boshlaydi. Bu davr alanganishning kechikish davri deyiladi. Bu davr ichida havo bilan yonilg'i aralashadi va alanganishga tayyorlanadi. Demak, dizelda yonish jarayoni karbyuratorli dvigateldagidek sodir bo'lmaydi. Yonish jarayonida bosim avval juda tez ko'tariladi (c'z' uchastka), so'ngra qisqa vaqt davomida (zz' uchastka) deyarli o'zgarmaydi. Yonish kengayish jarayonida ham davom etadi va bu paytda

karbyuratorli dvigatelda bo'lgani singari yonish mahsulotlari bilan silindr devorlari o'rtasida issiqlik almashinushi sodir bo'ladi. Demak, bu almashinuvda issiqlikning bir qismi isrof bo'ladi, bir qismi esa atmosferaga chiqib ketadi. Ishlatilgan gazlarning chiqishi chiqarish klapani ochilg anda (4 nuqtada) boshlanib, porshen p.ch.n.dan yu.ch.n.ga kelguncha davom etadi va klapan yopilganda (5 nuqtada) tugaydi.

## V BOB. ICHKI YONUV DVIGATELLARIDA SODIR BO'LADIGAN JARAYONLAR

Dvigatellarning eng katta quvvati, burovchi momenti, uning tejamliligi, yejilishga chidamliligi va boshqa ish ko'rsatkichlari ayrim sikl davomida sodir bo'ladijan jarayonlarning borish xususiyatiga bog'iq. Dvigatellarning yangi konstruksiyalarini yaratishda tajribalar orqali aniqlangan va dvigatelning ayrim parametrlariga hamda ularda sodir bo'ladijan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni hisobga olish zarur.

Quyida dvigatellarda sodir bo'ladijan jarayonlar va ularga ta'sir etuvchi omillarning tahlilini ko'rib chiqamiz.

### 5.1. GAZ ALMASHINISH JARAYONI

#### Kiritish va chiqarish jarayonlarining tavsiflari


Kiritish jarayonida silindr ichiga yonuvchi aralashma (karbyuratorli dvigatellarda) yoki havo (dizelda) kiritiladi.

Silindr ichiga yonuvchi aralashmani yoki havoni ko'p miqdorda kiritish uchun porshen sekin harakat qilishi, silindrda qoldiq gazlar bo'lmasligi, kiritish klapanlarining kesim yuzalari katta bo'lishi, issiqlik tarqaladigan yuzalarning harorati tashqi muhitning haroratiga teng bo'lishi lozim. Bunday sharoitda silindrga kirgan havo yoki yonuvchi aralashma porshen yu.ch.n.ga yetganida silindr hajmini to'liq egallaydi va uning bosimi hamda harorati atmosferanikiga tenglashadi.

Silindr ichiga kiradigan havo vaznining eng ko'p nazariy miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$G_0 = V_a \cdot \rho_0,$$

bu yerda  $V_a$  - silindrning to'la hajmi,  $m^3$ ;  $\rho_0$  - havoning normal bosimi va haroratdag'i zichligi,  $kg/m^3$ .



5.1-rasm. Karbyuratorli dvigatelning kiritish sistemasi bo'ylab zaryad harakatining sxemasi

harorat bilan kiradi. Havo tarkibida hamma vaqt chang zarrachalari bo'ladi va bunday havoni silindrغا kiritishdan oldin tozalash zarur. Silindr devorlari, porshen halqalari va boshqa detallarning tez yeyilishiga chang sabab bo'ladi. Havoni changdan tozalash uchun havo tozalagichlar (havo filqlari) ishlataladi. Havo tozalagichlarda tozalangan havo karbyurator diffuzoridan katta tezlikda o'tib, to'zitgichdan chiqayotgan yonilg'i bilan aralashadi va yonuvchi aralashma hosil qiladi.


Havo yoki yonuvchi aralashma dvigatelning kiritish sistemasida gidravlik qarshiliklarga duch kelib, girdoblanadi, natijada havoning devorlar bilan ishqalanishi va o'zaro ichki ishqalanishi kuchayadi. Gidravlik qarshiliklar ta'sirida kiritish sistemasidagi havoning bosimi atmosfera bosimidan past ( $p_a < p_n$ ) bo'ladi.

Havo va yonuvchi aralashmaning kiritish sistemasidan o'tayotgan vaqtidagi bosimining o'zgarish xususiyati 5.1-rasm,  $b$  da tasvirlangan.

Amalda kiritish jarayonida yuqorida ko'rsatilgan sharoitlarni yaratib bo'lmaydi, chunki real dvigatellarda porshen ma'lum tezlikda harakatlanadi va silindrda albatta qoldiq gazlar bo'ladi.

5.1-rasm,  $a$  da to'rt taktli karbyuratorli dvigateling kiritish sistemasida avval havo, so'ngra yonuvchi aralashmaning harakat sxemasi ko'rsatilgan. Kiritish sistemasiga havo tashqi muhitdan  $p_0$  bosim va  $T_0$

To'rt takili karbyuratorli dvigatelda va «nadduv»siz dizelda ishlatalgan gazlarni tashqariga chiqarish va yangi zaryadni kiritish (gaz almashinish) jarayonining sxemasi hamda indikator diagrammalari 5.2-rasmida tasvirlangan.




5.2-rasm. Karbyuratorli dvigatel va «nadduv»siz dizelda gaz almashish jarayonining tavsiflari:

a-gaz almashish sistemasining sxemasi; b-gaz almashish jarayonining diagrammasi

«Nadduv»li dizelda havo avval kompressorda  $p_k$  bosimgacha siqladi, natijada uning harorati  $T_k$  gacha oshadi. Kompressor esa turbina bilan harakatga keltiriladi. Ishlatilgan gazlar silindrlardan chiqib ressiverga kiradi, so'ng ressiverdan bir tekisda chiqib turbinani aylantiradi.

$\frac{R^2}{2L}$  = shatun uzunligini hisobga oladigan tuzatma

Ressiverdag'i bosim  $p_t$  atmosfera bosimi  $P_0$  dan katta, lekin  $p_k$  dan kichik bo'ladi, shuning uchun gaz almashinish diagrammasining ko'p qismida chiqarish jarayonini xarakterlovchi 12 g chiziq kiritish chizig'i ra4 dan pastda joylashadi. Demak «nadduv»li dizelda gaz almashinish jarayonida foydali ish bajariladi.



**5.3-rasm. To'rt taktili «nadduv»li dizelda gaz almashish jarayonining tavsiflari:**

*a-gaz turbinali «nadduv»li dvigatelinig sxemasi;*

*b-gaz almashish jarayonining diagrammasi.*

*I-kompressor; II-gaz turbina*

«Nadduv»siz dizelda kiritish jarayonida havo atmosferadan kiradi va gaz almashinish jarayoni 5.2-rasmida ko'rsatilgandek bo'ladi. Faqat hidravlik qarshiliklar va shunga mos holda  $\Delta p_a$  ning miqdori kichik, ya'ni  $p_a$  katta

bo'ladi, chunki dizelda karbyurator va drossel-to'smaqopqoq bo'lmaydi. Shu sababli dizelning to'ldirish koefitsiyenti karbyuratorli dvigatelnikidan katta bo'ladi.

5.3-rasmda bu jarayon «nadduv»li dizel uchun tasvirlangan.

5.2-rasm, b va 5.3-rasm, b da gaz taqsimlash fazalari, ya'ni yangi zaryad kiritish va ishlatalgan gazlarni chiqarish jarayonlari tasvirlangan. Kiritish va chiqarish klapanlarining ochilish hamda yopilish paytlari gaz taqsimlash fazalari va indikator diagrammalarida bir xil nomli nuqtalar bilan belgilangan.

Zo'riqishlarni kamaytirish uchun klapanlar ochilish va yopilish paytida sekin harakat qilishi kerak. Aks holda gaz taqsimlash mexanizmlari sinishi mumkin. Silindrni yangi zaryad bilan ko'proq to'ldirish uchun kiritish klapanlarining havo o'tish yuzalari katta bo'lishi kerak. Bu talablarni gaz taqsimlash fazalarini kengaytirish yo'li bilan ham ta'minlash mumkin. Buning uchun klapanlarning ochilish va yopilish paytlarini to'g'ri tanlash lozim.

Avtomobil va traktor dvigatellarida chiqarish klapani porshen p.ch.n.ga 45...70° yetmasdan ochiladi (1 nuqta, 5.2-rasm) va silindr ichidagi yonish mahsulotlari katta tezlik bilan tashqariga chiqqa boshlaydi. Bu jarayon erkin chiqarish deb atalib, porshen p.ch.n ga kelguncha davom etadi. Yonish mahsulotlarining qolgan qismi porshen yu.ch.n.ga tomon harakat qilganda haydab chiqariladi va tirsakli val yu.ch.n.dan 2...25° o'tganida chiqarish klapani yopiladi (2 nuqta). Bu nuqtada chiqarish jarayoni tugaydi. Kiritish klapani chiqarish jarayonining oxirida porshen yu.ch.n.ga 5...20° yetmasdan ochiladi (3 nuqta). Shunday qilib, ma'lum vaqt davomida (3r2 nuqtalar oraliq 'ida) ikkala klapan ochiq holatda bo'ladi. Klapanlarning bunday ishlashi to'ldirish jarayoniga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Kiritish klapani barvaqt ochilgani uchun silindr ichidagi ishlatalgan gazlar yangi zaryad yordamida

haydaladi. Bundan tashqari, ishlatilgan gazlar haydalganda tezlik bilan tashqariga chiqqani uchun porshen p.ch.n. tomon harakatlansa ham gazlar o‘z inersiyasi bilan tashqariga chiqishda davom etadi. Bu payt kiritish klapanlarining ostida siyraklanish hosil bo‘lib, silindrga ko‘proq zaryad kirdi.

«Nadduv»li dvigatellarda (5.3-rasm, b) kiritish va chiqarish klapanlarining bir vaqtida ochiq bo‘lishi yonish kamerasini tozalash uchun yaxshi sharoit yaratadi. Kiritish klapani tirsakli val p.ch.n.dan  $30\dots70^\circ$  o‘tganida yopiladi (4 nuqta, 5.3-rasm) va so‘ngra siqish jarayoni boshlanadi. Kiritish klapanining bunday kech yopilishi kiritish trubalarida hosil bo‘ladigan inersiya kuchlaridan foydalaniib, silindrga ko‘proq havo yoki aralashma kiritishga imkon beradi.

### Gaz almashinish jarayonlarini tavsiflovchi parametrlarni aniqlash

**Bosim  $P_a$  va  $P_\kappa$ .** Kiritish jarayonini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, gidravlik qarshiliklar ta’sirida silindr ichidagi bosim ma’lum vaqtidan so‘ng atmosfera bosimi  $p_0$  dan («nadduv»siz dvigatelda) yoki kompressordagi bosim  $p_k$  dan («nadduv»li dvigatelda)  $\Delta P_a$  miqdorga kamayadi, ya’ni  $p_a$  ga teng bo‘ladi. Tajribalar ko‘rsatishicha, bosimning farqi  $\Delta P_a$  zaryad harakati tezligiga, kiritish sistemasi yuzalarining ishlanish sifatiga, burilishlar mavjudligiga, drossel-to‘smaqopqoqning holatiga, aylanishlar chastotasiga bog‘liq bo‘lib, har xil dvigatellar uchun quyidagicha hisoblanadi:

$$\Delta P_a = (0,01\dots0,02)p_0, \text{ MPa.}$$

«Nadduv»siz dvigatelda  $p_\kappa = p_0$  va  $\rho_\kappa = \rho_0$  bo‘ladi. Hisoblashlarni soddalashtirish maqsadida kiritish va chiqarish jarayonlari p.ch.n. va yu.ch.n.da tugaydi deb faraz qilinadi. Bu holda silindr ichidagi ( $a$  nuqtadagi) bosim «nadduv»li dvigatellar uchun  $p_a = p_k - \Delta P_a$  bo‘ladi, «nadduv»siz dvigatellar uchun esa  $p_a = p_0 - \Delta P_a$  bo‘ladi.

Tajribalar ko'rsatishicha, «nadduv»siz to'rt taktli dvigatellarda  $p_a = (0,8..0,9) p_0$ ; «nadduv»li dvigatellarda  $p_a = (0,90..0,96) p_0$ . Chiqarish jarayoni oxiridagi bosim «nadduv»siz dvigatellar uchun  $p_r = 0,11..0,125 \text{ MPa}$  bo'ladi.

Demak, kiritish jarayonida silindr ichidagi bosim tashqaridagi bosimdan kichik bo'ladi, shuning uchun silindrga kirgan zaryadning zichligi va, binobarin, massa miqdori ham kam bo'ladi. Silindr ichidagi havoning yoki yonuvchi aralashmaning zichligi xarakteristik tenglamalar orqali quyidagicha topiladi:

$$\rho_a = \frac{P_a}{RT_a} \quad \text{va} \quad \rho_0 = \frac{P_0}{RT_0};$$

bu yerda

$$P - \text{N/m}^2; R - \text{J/(kg·grad)}.$$

Zichliklarning o'zaro bog'lanishi quyidagicha ifodalanadi:

$$\rho_a = \rho_0 \frac{P_a}{P_0}.$$

Demak,  $p_0$  bosimda va  $T_a$  haroratda zaryadning vazni

$$G = \rho_a \cdot V_a = \rho_0 \cdot V_a \cdot \frac{P_a}{P_0}$$

bo'ladi.

Zaryad vaznining gidravlik qarshiliklar ta'sirida karnayishi

$$\Delta G = G_0 - G = \rho_0 V_a - \rho_0 V_a \frac{P_a}{P_0} = \rho_0 \cdot V_a \left( 1 - \frac{P_a}{P_0} \right).$$

**Kiritish jarayoni davomida zaryadning qizishi.** Dvigateli ishga tushirishni osonlashtirish uchun silindrga kirayotgan zaryadni ozroq qizdirish talab etiladi. Shu maqsadda chiqarish quvurlari kiritish quvurlariga yaqin joylashtiriladi. Natijada kiritish sistemasida harakatlanayotgan yangi zaryad ma'lum haroratgacha qiziydi,

shu sababli uning vazn miqdori kamayadi. Bundan tashqari, tashqari, yangi zaryadning silindr devorlariga tegib qizishi va yuqori haroratli qoldiq gazlar bilan aralashishi natijasida ham vazn miqdori kamayadi. Dvigatelning ish rejimlarida silindr va kallak  $150\ldots200^{\circ}\text{S}$  gacha qiziydi. Tashqi muhitdan kirayotgan havoning harorati kallak va silindr haroratidan ancha kam bo'lgani uchun kiritish jarayonida havo  $\Delta T$  ga qiziydi, zichligi esa kamayadi. Demak, to'ldirish boshida zaryad qizib, uning harorati

$$T' = T_0 + \Delta T$$

bo'ladi.

To'ldirish jarayoni oxirida zaryadning zichligi (gidravlik qarshiliklar va qizishni hisobga olsak) quyidagicha aniqlanadi:

$$\rho_a' = \frac{p_a}{RT_0};$$

yoki atmosfera sharoitlariga taalluqli parametrlar orqali ifodalasak:

$$\rho_a' = \rho_0 \frac{p_a}{p_0} \cdot \frac{T_0}{T_0}$$

bo'ladi.

Silindrga kirgan yangi zaryadning miqdori:

$$G' = \rho_0 V_a \frac{p_a T_0}{p_0 T_0}.$$

Yuqorida keltirilgan sabablarga binoan zaryad vaznining kamayishi:

$$\Delta G = V_a \rho_0 \left( 1 - \frac{p_a T_0}{p_0 T_0} \right).$$

Zaryadning qizish miqdori  $\Delta T$  dvigatelning yuklamasiga, kiritish jarayonining davomiyligiga, chiqarish quvurlarining joylashishiga va atmosfera havosining haroratiga bog'liq.

Karbyuratorli dvigatellarda yonilg'ini tezroq bug'lantirish maqsadida kiritish quvurlari qizdiriladi. bu yonish jarayonining effektiv o'tishini yaxshilaydi. Ammo dvigatel silindrini yangi zaryad bilan ko'proq to'ldirish uchun kiritish davrida zaryadni kamroq qizdirishga harakat qilish kerak. Agar zaryad ko'proq qizdirib yuborilsa, silindrni yangi zaryad bilan to'ldirish yomonlashadi, shuning uchun zaryadga faqat yonilg'ini bug'latishga yetarli darajada issiqlik miqdori berish kerak.

Tajribalarning ko'rsatishicha, karbyuratorli dvigatellarda  $\Delta T = 0 \dots 20^\circ S$ , dizellarda esa  $\Delta T = 0 \dots 40^\circ S$  bo'ladi.

**Silindrda chiqib ketmagan qoldiq gazlar.** Ma'lumki, chiqarish jarayoni davomida ishlatilgan gazlarni haydar chiqarib, yangi zaryad kiritish kerak. Lekin haqiqiy sikllarda gaz taqsimlash fazalarining to'g'ri tanlanganligiga qaramasdan ishlatilgan gazlarning bir qismi, ya'ni qoldiq gazlar silindr ichida qoladi. Bu kamchilik asosan «nadduv»siz dvigateliarga taalluqlidir.

Silindrni yangi zaryad bilan to'ldirish darajasiga ishlatilgan gazlarning ta'siri qoldiq gazlar koeffitsiyenti  $\gamma_{qol}$  bilan tavsiflanadi. Qoldiq gazlar miqdori  $M_r$  ning yangi zaryad miqdori  $M_1$  ga bo'lgan nisbati qoldiq gazlar koeffitsiyenti deb ataladi;

$$\gamma_{qol} = \frac{M_r}{M_1} \quad \text{yoki} \quad \gamma_{qol} = \frac{G_r}{G_1};$$

bu yerda  $M_r, G_r$  - qoldiq gazlar miqdori, kmol va kg;  $M_1, G_1$  - yangi zaryad miqdori, kmol va kg.

Qoldiq gazlar koeffitsiyentining qiymati dvigatel turiga va asosan, uning siqish darajasiga bog'liq.  $\underline{\varepsilon}$  qancha katta bo'lsa, qoldiq gazlar shuncha kam bo'ladi.

To'rt taktli karbyuratorli dvigatellarda siqish darjasasi kichik bo'lgani uchun  $\gamma_{qol} = 0,06 \dots 0,10$ ; «nadduv»siz dizellarda esa  $\gamma_{qol} = 0,03 \dots 0,06$  bo'ladi. Karbyuratorli

dvigatellarning kamchiliklaridan biri shundaki, yuklama kamayishi bilan qoldiq gazlar miqdori oshib to'ldirish va yonish jarayonlari yomonlashadi.

$\gamma_{qol}$  ning qiymatiga dvigatellarning tezlik rejimi ham ta'sir qiladi. Karbyuratorli dvigatellarda drossel-to'smaqopqoq to'la ochilganda  $\gamma_{qol}$  minimal qiymatga ega bo'ladi. Dvigatelning aylanishlar chastotasi oshishi bilan yangi zaryad miqdori  $G_1$  kamayadi va  $\gamma_{qol}$  ko'payadi.

**Gaz almashinish jarayoni oxiridagi harorat.** Gaz almashinish jarayonining borishiga yuqorida ko'rib o'tilgan omillar alohida-alohida emas, balki kompleks ta'sir qiladi. To'rt taktili dvigatellarda ishlatilgan gazlarni chiqarish kiritish jarayoni boshlangandan keyin tugallansa ham, yangi zaryad qoldiq gazlarning kengayishi natijasida ular bilan aralashib, silindr devorlariga tegib qiziydi. Bu haroratni issiqlik balansiga asoslanib aniqlash mumkin. Issiqlik balansi yangi zaryad va qoldiq gazlar uchun ularning bir-biri bilan aralashgandan keyingi va aralashmasdan oldingi holatlari uchun tuziladi. Issiqlik balansi shartlariga binoan:

$$Q_{ar} = Q_{yaz} + Q_r = C_p \cdot G_1 \cdot T_0 + C_p^+ \cdot G_r \cdot T_r = C_{p(ar)} (G_1 + G_r) T_a$$

bu yerda  $Q_{yaz}$  - yangi zaryadning issiqlik miqdori;  $Q_r$  - qoldiq gazlarning issiqlik miqdori;  $C_{p(ar)}$ ,  $C_p$ ,  $C_p^+$  - ish aralashmasi yangi zaryad va qoldiq gazlarning o'zgarmas bosimdagи solishtirma issiqlik sig'imi  $C_p = C_p^+ = C_{p(ar)}$  deb qabul qilinadi.  $T_a$  - ish aralashmasining kiritish jarayoni oxiridagi harorati.

Tenglamaning o'ng va chap qismalarini  $G_1$  ga bo'lib, quyidagi ifodani olamiz:

$$T_0 + \frac{G_r}{G_1} \cdot T_r = \left( 1 + \frac{G_r}{G_1} \right) \cdot T_a;$$

bu yerda  $\frac{G_r}{G_0} = \gamma_{\text{qol}}$  ekanini hisobga olsak, u holda kiritish jarayoni oxiridagi harorat quyidagicha aniqlanadi:

$$T_a = \frac{T_0 + \Delta T + \gamma_{\text{qol}} \cdot T_r}{1 + \gamma_{\text{qol}}}.$$

To'rt taktli karbyuratorli dvigatellarda va «nadduv»siz dizellarda  $T_a = 310..350$  K; «nadduv»li dvigatellarda  $T_a = 320..400$  K.

Tajribalar ko'rsatishicha  $\gamma_{\text{qol}}$  va  $\Delta T$  larning qiymati qancha katta bo'lsa, kiritish jarayoni oxirida zaryadning harorati ham shuncha ortadi. Bu esa silindrga kirayotgan yangi zaryadning zichligini kamaytiradi, natijada to'ldirish koeffitsiyenti va silindrga kirayotgan zaryadning miqdori kamayadi. Chiqarish jarayoni oxiridagi ishlatilgan gazlarning harorati  $T_r$  tajriba yo'li bilan aniqlanadi. Karbyuratorli dvigatellar uchun  $T_r = 900..1000$  K, dizellar uchun esa  $T_r = 700..900$  K.

**To'ldirish koeffitsiyenti.** Dvigatel silindrini yangi zaryad bilan to'ldirish sifati to'ldirish koeffitsiyenti  $\eta_r$ , bilan belgilanadi. Dvigatel silindriga kirgan yangi zaryadning haqiqiy miqdori  $G_r$  ning atmosfera sharoitlarida ( $p_o$ ,  $T_o$ ) dvigatelning ish hajmi  $Y_r$  ga joylanishi mumkin bo'lgan zaryad miqdori  $G_0$  ga nisbati to'ldirish koeffitsiyenti  $\eta_r$  deb ataladi.

$$\eta_r = \frac{G_r}{G_0}.$$

Hisoblarni soddalashtirish maqsadida bundan keyin suyuq yonilg'ida ishlovchi hamma turdag'i dvigatellar uchun yangi zaryadni havodan iborat deb hisoblaymiz.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, «nadduv»siz to'rt taktli dvigatellarda kiritish jarayonida havo atmosferadan  $p_0$  bosim va  $T_o$  haroratda so'rildi. «Nadduv»li avtomobil

dvigateliarida havo silindrga kompressor orqali kirgani uchun uning bosimi  $p_k$  va harorati  $T_k$  bo‘ladi.

Normal atmosfera sharoitlari uchun  $G_o = \frac{p_o V_h}{R_o T_o}$  bo‘ladi,

bu yerda  $R_o$  - havoning gaz doimiysi.

Silindrga kirgan havo va qoldiq gazlarning umumiy miqdorini aniqlash uchun xarakteristik tenglamadan foydalananamiz:

$$G_l + G_r = \frac{p_o V_a}{R_{ar} T_a}$$

yoki

$$G_l (1 + \gamma_{qol}) = \frac{p_o V_a}{R_{ar} T_o};$$

bu yerda  $R_{ar}$  - ish aralashmasining gaz doimiysi. Odatda  $R_{ar} = R_0$  deb qabul qilinadi.

Bu holda to‘ldirish koefitsiyentini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\eta_v = \frac{G_l}{G_0} = \frac{p_a \cdot V_a}{R_{ar} \cdot T_a} \cdot \frac{1}{1 + \gamma_{qol}} \cdot \frac{R_0 \cdot T_o}{p_0 \cdot V_h}.$$

$\frac{V_a}{V_h} = \frac{\varepsilon}{\varepsilon - 1}$  ekanini hisobga olib,  $\eta_v$  ni quyidagicha ifodalaymiz:

$$\eta_v = \frac{\varepsilon}{\varepsilon - 1} \cdot \frac{p_a}{p_0} \cdot \frac{T_o}{T_a (1 + \gamma_{qol})}.$$

«Nadduv»li dvigatellar uchun  $T_o = T_k$  va  $p_0 = p_k$ . Lekin  $T_a (1 + \gamma_{qol}) = T_0 + \Delta T + \gamma_{qol} T_r$  ekanligini hisobga olsak, yuqoridagi tenglama quyidagi ko‘rinishga keladi:

$$\eta_v = \frac{\varepsilon}{\varepsilon - 1} \cdot \frac{p_a}{p_0} \cdot \frac{T_o}{T_o + \Delta T + \gamma_{qol} \cdot T_r}.$$

To‘ldirish koefitsiyentini aniqroq hisoblash uchun qo‘sishmcha zaryad kiritish koefitsiyenti  $\varphi_1$  ni hisobga olish

zarur, chunki  $\eta_r$  ning ifodasi gaz taqsimlash fazalarini hisobga olmasdan hisoblangan edi. Bu holda to'ldirish koeffitsiyenti quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\eta_r = \varphi_1 \frac{\varepsilon}{\varepsilon - 1} \cdot \frac{p_o}{p_a} \cdot \frac{T_o}{T_o + \Delta T + \gamma_{qsl} \cdot T_r};$$

bu yerda  $\varphi_1 = 1,05 \dots 1,1$ . Dvigatelga qo'shimcha zaryad kiritish, ya'ni kiritish klapanining kechroq yopilish davri qancha katta bo'lsa,  $\varphi_1$  ham shuncha katta bo'ladi.

### To'ldirish koeffitsiyentiga ta'sir qiluvchi o'millar

Yuqorida keltirilgan tenglamalardan ko'rinish turibdiki, to'ldirish koeffitsiyentiga asosan, kiritish jarayoni boshidagi va oxiridagi bosim  $p_k$  va  $p_a$  lar ta'sir ko'rsatadi. Lekin harorat  $T_a$ , zaryadning qizishi  $\Delta T$ , qoldiq gazlar koeffitsiyenti  $\gamma_{qsl}$ , harorat  $T_r$  va siqish darajasi  $\varepsilon$  larning ta'sirini ham hisobga olish zarur.  $p_a$  katta bo'lsa, to'ldirish koeffitsiyenti ham katta bo'ladi. Tog'li tumanlarda to'ldirish koeffitsiyenti kichik bo'lishiga asosiy sabab  $p_0$  ning kichikligidir. Bundan tashqari to'ldirish koeffitsiyentiga quyidagilar ta'sir ko'rsatadi: kiritish quvuri ichki yuzasining holati; tirsaklar (burilishlar); havo tozalagichning konstruksiyasi va joylashishi (kapotning ichida yoki tashqarisida); gaz taqsimlash fazalari; atmosferaning harorati va bosimi; qoldiq gazlar miqdori; kiritish quvurining joylashishi.


**Yuklama.** Karbyuratorli dvigatellarda tirsakli valning aylanishlar chastotasi yuklamaga mos holda o'zgaradi. Lekin yuklamaning to'ldirish koeffitsiyentiga ta'sirini tekshirish uchun aylanishlar chastotasi o'zgarmas bo'lishi shart. Sinash stendlarida dvigatelning aylanishlar chastotasini reostat yordamida o'zgarmas holda ushlab turiladi. Bu holda yuklama drossel-to'smaqopqoqning holatini o'zgartirish bilan, ya'ni silindrga kiruvchi yonuvchi aralashmaning miqdori bilan o'zgartiriladi.

Dvigatelning o'zgarmas aylanishlar chastotasida eng ko'p quvvat hosil qilish uchun drossel-to'smaqopqoqni to'la ochish kerak. Bunday sharoitda dvigatel silindriga eng ko'p miqdorda yonuvchi aralashma kiradi va to'ldirish koeffitsiyenti maksimal,  $\gamma_{qol}$  esa minimal qiymatta ega bo'ladi.

Dvigatel kichik yuklamada ishlashi uchun drossel-to'smaqopqoq kam ochiladi. Bunda kiritish sistemasidagi gidravlik qarshiliklar ko'payib,  $p_a$  bosim pasayadi, natijada to'ldirish koeffitsiyenti ham kamayadi.

Karbyuratorli dvigatelning yuklamasiga bosim  $p_a$ , qoldiq gazlar koeffitsiyenti  $\gamma_{qol}$  va to'ldirish koeffitsiyenti  $\eta_t$  ning bog'liqligi 5.4-rasm, a da ko'rsatilgan.

Dizelning yuklamasini o'zgartirish uchun silindriga ma'lum miqdorda yonilg'i purkash kerak. Dizellarning kiritish sistemasida silindriga kelayotgan havo miqdorini o'zgartiruvchi hech qanday moslama yo'q. Shuning uchun dizellarda tirsakli valning aylanishlar chastotasi o'zgarmas bo'lsa, kiritish sistemasidagi gidravlik qarshiliklar ham o'zgarmay qoladi. 5.4-rasm, b da turli dvigatellar uchun yuklamaning to'ldirish koeffitsiyentiga ta'siri ko'rsatilgan.




5.4-rasm. To'ldirish koeffitsiyentining yuklamaga bog'liqligi:

a)  $p_a$ ,  $\gamma_{qol}$  va  $\eta_t$  larning grafigi; b) 1- to'rt takli  $D=108$  dizeli ( $n=1050 \text{ min}^{-1}$ ); 2 - karbyuratorli ZIL-130 dvigateli ( $n=1000 \text{ min}^{-1}$ )

Dizellarda yuklama ortishi bilan to'ldirish koeffitsiyentining qiymatiga (I chiziq) faqat havoning

qizishi  $\Delta T$  ta'sir qiladi. Bunda to'ldirish koefitsiyentining qiymati biroz kamayadi. Dizellarda  $\eta_v$  ning bunday o'zgarishi quyidagicha tushuntiriladi: yuklama ortishi bilan silindr devori, porshen tubi, silindrlar kallagini harorati ham ortadi. Bu esa o'z navbatida silindrga kirayotgan havoni ko'proq qizishiga olib keladi va natijada to'ldirish koefitsiyenti bir oz pasayadi.

Karbyuratorli dvigatellarda esa (2 chiziq) aksincha, yuklama ortishi bilan to'ldirish koefitsiyenti ortadi.



5.5-rasm. Dvigatel tirsakli vali aylanishlar  
chastotasining  $\eta_v$  ga ta'siri

**Aylanishlar chastotasi.** Dvigatelinning kiritish sistemi asidagi zaryadning harakat tezligi aylanishlar chastotasi ( $n$ ) ga bog'liq bo'lib.  $n$  qancha katta bo'lsa,

zaryadning tezligi ham shuncha katta bo'ladi. Lekin bu holda gidravlik qarshiliklar ko'payib,  $p_a$  bosim pasayadi. Zaryadning harakat tezligi qancha katta bo'lsa,  $\Delta p_a$  ham shuncha katta bo'ladi, bu esa  $p_a$  bosimning pasayishiga olib keladi. Xuddi shunday hol chiqarish sistemasida ham kuzatiladi. Aylanishlar chastotasi ortishi bilan qoldiq gazlar bosimi  $p_r$  va uning miqdori  $M_r$  ortadi.

Tezlik rejimi ortganda  $\Delta T$  (zaryadni qizdirish) kamayadi, chunki zaryadning issiq devorga tegib harakat qilish vaqtini qisqaradi. Shu sababdan  $\Delta T$  ning  $\eta_r$  ga ta'siri nisbatan kamdir.

Har bir dvigatel ekspluatatsiya sharoitlariga qarab, ma'lum tezlik rejimida eng katta burovchi moment hosil qiladi. Bunday tezlik rejimi uchun mos gaz taqsimlash fazalari tanlanadi. Tezlik rejimi to'ldirish koeffitsiyentiga ta'sir ko'rsatadi. 5.5-rasmda karbyuratorli dvigatel va dizel uchun to'ldirish koeffitsiyenti bilan aylanishlar chastotasi orasidagi bog'lanish ko'rsatilgan. Har ikkala dvigatel uchun ham to'ldirish koeffitsiyentining eng katta qiymati ma'lum bir aylanishlar chastotasiga mos keladi. Dvigateling aylanishlar chastotasi kamayishi bilan to'ldirish koeffitsiyenti ham kamayadi. Buni quyidagicha tushuntirish mumkin: zaryad silindr devorlariga uzoq vaqt tegib harakat qiladi va natijada ortiqcha qizib ketadi; gaz taqsimlash fazalari aylanishlar chastotasiga mos kelmay qoladi. Bundan tashqari, aylanishlar chastotasi kamayganda zaryadning porshen halqlari orqali o'tib yo'qolishi ko'payadi.

5.5-rasmdan ko'rinish turibdiki, dizellarda to'ldirish koeffitsiyenti (1 va 2 egri chiziqlar) karbyuratorli dvigatellarnikiga (3, 4, 5 egri chiziqlar) qaraganda birmuncha yuqori bo'lib, tezlik va yuklamaga qarab kam o'zgaradi.

Karbyuratorli dvigatellarning asosiy kamchiliklарidan biri shuki, drossel-to'smaqopqoq berkitila borishi bilan (yuklama kamayganda) qarshiliklar oshib, to'ldirish koeffitsiyenti tez

kamayib ketadi ( $4$  va  $5$  egri chiziqlar). Karbyuratorli dvigatellarda to'ldirish koeffitsiyentining aylanishlar chastotasiga bunday bog'liqligi natijasida yuklama pasayishi bilan tirsakli valning maksimal aylanishlar chastotasi qiymati cheklandi, ya'ni dvigatel haddan tashqari katta tezlikda ishlashdan saqlanadi va eng kam aylanishlar chastotasida dvigatearning salt ishlashi ta'minlanadi.


Dizellarda yuklama pasayishi bilan to'ldirish koeffitsiyenti oshib ketib, dizel haddan tashqari katta tezlikda ishlashi mumkin. Bu esa dizelning asosiy kamchiligidir.

Siqish darajasining ortishi yoki kamayishi natijasida dvigatel silindridagi zaryadni qizdirish sharoiti  $\Delta T$  hamda qoldiq gazlar miqdori  $M_r$  va harorati  $T_r$  o'zgaradi. Masalan, siqish darajasi ortganda  $\Delta T$  ortadi, lekin  $M_r$  va  $T_r$  kamayadi. Natijada bu omillarning alohida ta'siri bir-birini yo'qotadi. Tajribalar to'ldirish koeffitsiyenti siqish darajasiga umuman bog'liq emasligini ko'rsatadi.

**Silindr diametri.** Agar dvigatel katta diametrli silindrga ega bo'lsa, unga katta diametrli kiritish va chiqarish quvurlari hamda klapanlar o'rnatish mumkin. Bu esa kiritish jarayonida zaryadning kichik tezlikda harakatlanishini ta'minlaydi. Natijada gidravlik qarshiliklari kamayib, to'ldirish koeffitsiyenti oshadi. Porshenning o'rtacha tezligi kichik bo'lsa, silindrga zaryad ko'proq tushadi. Shu sababdan porshen yo'li silindr diametridan kichik bo'lgan ( $S/D < 1$ ) dvigatellar ko'proq ishlatiladi. Bunday dvigatellarning afzalliklaridan biri shuki, nisbatan katta silindrler kallagiga katta diametrli klapanlarni joylashtirib, to'ldirish koeffitsiyentini oshirish mumkin.

5.6-rasmda karbyuratorli dvigatellar va dizellarning kiritish klapanlari, kanallarining tuzilish sxemalari hamda aylanma harakat hosil qilish usullari ko'rsatilgan. Klapanlar yuqorida joylashtiirliganda va ularga mos kiritish kanallari tanlanganda yangi zaryad bir tekisda kirishi ta'minlanadi. Klapanlar yuqorida

joylashganda gidravlik qarshiliklar kamayib, to'ldirish koefitsiyenti ko'payadi. Bundan tashqari maxsus shaklli kiritish



*5.6-rasm. Zaryadning aylanma harakatini hosil qiluvchi moslamalar:*

*a-klapanda to'siq bo'lgan kanal; b-tangensial kanal;*  
*v-«chig'anoq» shaklli kanal; g-tangensial teshikli gilza*

kanallari ish aralashmasining silindr ichida yo'naltirilgan harakatda bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Bu esa aralashtirish jarayonlarini yaxshi tashkil qilishga olib keladi. Gaz taqsimlash fazalarining to'ldirish koefitsiyentiga ta'siri  $\varphi_1$  va  $\varphi_2$  koefitsiyentlar orqali belgilanadi. Bu holda  $\eta_v$  quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi:

$$\eta_v = \varphi_1 \frac{\varepsilon}{\varepsilon - 1} \cdot \frac{p_a}{p_o} \cdot \frac{T_o}{T_o + \Delta T + \gamma_{qot} \cdot T_r}$$

yoki

$$\eta_v = \frac{T_o}{T_o + \Delta T} \cdot \frac{\varphi_1 \varepsilon p_d - \varphi_2 p_r}{(\varepsilon - 1) p_o}$$

bo‘ladi, bu yerda  $\varphi_1$  - qo‘srimcha zaryad kiritish koefitsiyenti, porshenning p.ch.n.dan yu.ch.n.ga tomon harakati davomida kiritish klapani yopilguncha silindr ichiga tushgan qo‘srimcha zaryadning miqdorini hisobga oladi (5.2-rasm, a; 4 chiziq).  $\varphi_2$  - silindrni havo yordamida qoldiq gazlardan tozalash koefitsiyenti. Bu koefitsiyent porshen yu.ch.n. atrofida bo‘lganida (ikkala klapanning baravariga ochiq holatida) silindr qo‘srimcha tozalanishini hisobga oladi.

### 5.1-jadval

#### Avtomobil dvigatellarining gaz taqsimlash fazalari

Dvigatellar	Kiritish klapani		Chiqarish klapani		Ochiq holatning davomivligi, grad		Klapalarining baravariga ochiq holati, grad
	Ochitishning boshlanishi yu.ch.n.gacha	To‘liq yopilishi, p.ch.n.dan	Ochitishning boshlanishi yu.ch.n.gacha	To‘liq yopilishi, p.ch.n.dan so‘ng	Kiritish klapani	Chiqarish klapani	
<b>Karburoatorli dvigatellar</b>							
GAZ-53	24°	64°	50°	12°	268°	252°	46°
ZIL-111	16°	64° 50°	52°	29°	260° 50°	271°	45°
ZIL-130	31°	83°	67°	47°	294°	294°	78°
ZIL-375	16°	71°	52°	35°	267°	267°	51°
GAZ-24	12°	60°	54°	18°	252°	252°	30°
GAZ-21	24°	64°	58°	30°	268°	268°	54°
MZ.MA-408	21°	55°	57°	19°	256°	256°	40°
MZ.MA-412	30°	70°	70°	30°	280°	280°	60°
MeMZ-966	10°	46°	46°	10°	236°	236°	20°
VAZ-2101 va VAZ-2103	12°	40°	42°	10°	232°	232°	22°
TIKO	12°	38°	46°	10°	230°	236°	22°
<b>Dizeller</b>							
YAMZ-236 va YAMZ-238	20°	56°	56°	20°	256°	256°	40°
YAMZ-240 A-01, A-41 va A-01 M	20°	40°	66°	20°	246°	266°	40°
D-37 YE	16°	40°	40°	10°	236°	236°	32°
SMD-14	17°	56°	56°	17°	253°	253°	54°

To‘rt taktli dvigatellar uchun qoldiq gazlar koeffitsiyentini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$\gamma_{qol} = \frac{T_o + \Delta T}{T_r} \cdot \frac{p_r}{\varepsilon p_a - p_r}.$$

Aylanishlar chastotasi keng chegarada o‘zgaruvchi avtomobil dvigatellarining turli tezlik rejimlarida tajriba yo‘li bilan tanlangan gaz taqsimlash fazalari to‘ldirish koeffitsiyentining maqbul qiymatlarini olishga imkon bermaydi. Shu sababdan gaz taqsimlash fazalari tanlanadigan aylanishlar chastotasi dvigatelni ekspluatatsiya qilishga qo‘yiladigan talablarga bog‘liq bo‘ladi.

5.1-jadvalda ayrim avtomobil va traktor dvigatellari uchun gaz taqsimlash fazalari keltirilgan.

**Gazlarning tebranma harakati.** Kiritish va chiqarish jarayoni davomida quvurlarda gazlarning tebranma harakati vujudga kelib, bosim to‘lqinlari hosil bo‘ladi. Gazlarning tebranma harakatidan silindrga kirayotgan yangi zaryad massasini ko‘paytirish uchun foydalaniлади. Masalan, chiqarish quvurining uzunligini shunday tanlash mumkinki, bunda chiqarish jarayoni oxirida chiqarish sistemasida siyraklik hosil bo‘ladi, silindrda ishlatalgan gazlarning ko‘p qismi chiqib ketadi va natijada u kamayadi. Shunda dvigatel silindriga yangi zaryad ko‘proq kiradi. Kiritish quvurining uzunligini ham shunday tanlash mumkinki, bunda kiritish klapani oldidagi bosim kiritish jarayonida atmosfera bosimidan yuqori bo‘lib qoladi, silindrga esa ko‘proq yangi zaryad kiradi.

Silindrga kirayotgan yangi zaryad vaznini bunday ko‘paytirish usuli «inersion nadduv» deyiladi. Bunday dvigatellarda to‘ldirish koeffitsiyenti  $\eta_r > 1$  bo‘ladi.


## 5.2. SIQISH JARAYONI

«Nadduv»li va «nadduv»siz to‘rt taktli dvigatellarda kiritish klapanlari berkitilgandan keyin, ikki taktli

dvigatellarda esa gaz almashuv jarayoni tugagandan so'ng porshen silindrda yu.ch.n.ga tomon harakat qilganda siqish jarayoni sodir bo'ladi. Silindrga kirgan yangi zaryadning harorati va bosimi siqish natijasida ortadi. Siqish darajasi karbyuratorli dvigatellarda detonatsiyali yonishning paydo bo'lishi bilan, dizellarda esa dizel yonilg'isining o'z-o'zidan alangalanish harorati bilan cheklangan bo'ladi. Shu sababli siqish jarayoni oxirida zaryadning harorati va bosimi ma'lum chegarada bo'ladi. Dizellarda siqish jarayoni oxirida harorat va bosimning oshishi bilan siklning unumdorligi oshadi hamda issiqlikdan foydalananish yaxshilanadi.

Siqish jarayoni oxirida silindrda zaryadning uyurma harakatini tezlashtirish uchun yonish kamerasi, kiritish kanallari va klapanlari maxsus shaklda tayyorlanadi. Haqiqiy siklda siqish jarayonining sodir bo'lish xususiyati 5.7-rasmida ko'rsatilgan.

Siqish jarayonining birinchi davrida zaryadning harorati silindr devorlari, kallagi va porshen tubining haroratidan past bo'lgani uchun zaryad qiziydi. Porshenning yu.ch.n.ga tomon harakati davomida zaryad tobora ko'proq siqiladi va uning harorati  $T_z$  hamda silindr devorlarining o'rtacha harorati  $T_d$  orasidagi farq kamayib boradi. Siqish jarayonining ma'lum bir nuqtasida zaryad va silindr devorlarining harorati tenglashadi.



5.7-rasm. Haqiqiy siklda siqish jarayonining xarakteristikasi


Porshenning keyingi yu.ch.n ga tomon harakatida  $T_z > T_d$  bo'lib qoladi, natijada issiqlik oqimi o'z yo'nalishini o'zgartiradi va siqilgan zaryaddan silindr devorlariga issiqlik o'ta boshlaydi. Zaryad haroratinig o'zgarishiga mos ravishda politropa

ko'rsatkichi ham o'zgaradi. Siqishning birinchi davrida  $n_1 > k$ , ikkinchi davrida  $n_1 = k$ , uchinchi davrida esa  $n_1 < k$  bo'ladi. Lekin hisoblashlarda o'zgaruvchian politropa ko'rsatkichi ishlatalmasdan, uning o'rtacha qiymati qo'llaniladi. Bu holda siqish jarayoni oxiridagi ( $S$  nuqtada) harorat va bosimni politropa tenglamasi  $pV^{n_1} = \text{const}$  orqali aniqlash mumkin:

$$p_c = P_a \left( \frac{V_a}{V_c} \right)^{n_1} \text{ va } T_c = T_a \cdot \left( \frac{V_a}{V_c} \right)^{\frac{n_1-1}{n_1}},$$

ammo  $\frac{V_a}{V_c} = \varepsilon$  bo'lgani uchun  $p_c = p_a \cdot \varepsilon^{n_1}$  va  $T_c = T_a \cdot \varepsilon^{\frac{n_1-1}{n_1}}$  bo'ladi.

5.8-rasmda siqish jarayoni oxiridagi bosim  $p_c$  va harorat  $T_c$  ning  $\varepsilon$  va  $n_1$  ga bog'liqligi tasvirlangan. Ichki yonuv dvigatellarida o'llaniladigan siqish darajalari  $\varepsilon$ , siqish jarayoni oxiridagi bosim, harorat hamda politropa ko'rsatkichi  $n_1$  5.2-jadvalda keltirilgan.



5.8-rasm. Siqish jarayoni oxiridagi bosim  $p_c$  va harorat  $T_c$  ning  $\varepsilon$  ga bog'liqlik grafigi ( $n_1$  ning hap xil qiymatlarida)

## 5.2-jadval

Dvigatel turi	$\varepsilon$	$n_1$	$P_c, \text{ MPa}$	$T_c, \text{ K}$
Karbyuratorli	6–9	1,3–1,37	0,57–1,6	600–750
Dizellar:				
ajratilmagan kamerali	16–17	1,34–1,38	3,88–5,88	800–1050
ajratilgan kamerali	18–21	1,34–1,40	2,81–4,20	700–900
Gazda ishlaydigan	5–10	1,3–1,37	0,55–1,4	480–650

### 5.3. UCHQUN BILAN O'T OLDIRILADIGAN DVIGATELLARDA YONISH JARAYONI. UMUMIY MA'LUMOTLAR


Ichki yonuv dvigatellarining yonish kamerasida ish aralashmasi yonganida yonilg'ining kimyoviy energiyasi issiqlik energiyasiga aylanadi va natijada mexanik ish bajariladi. Bunday o'zgarishlar porshen yu.ch.n. atrofida bo'lganida, ya'ni ma'lum vaqt oralig'ida yuz beradi.

Yonish jarayonining samaradorligiga bir qancha omillar, jumladan, aralashmaning tarkibi, uni hosil qilish usuli va yonilg'i yondirishni ilgarilatish burchagi, dvigatelning yuklamasi va aylanishlar chastotasi, yonish kamerasining shakli, siqish darajasi va boshqalar ta'sir etadi. Shuning uchun yonish jarayonini karbyuratorli dvigatellar va dizellar uchun alohida ko'rib chiqish kerak.

Yonish jarayoni murakkab reaksiya bo'lib, uni qisqa vaqt ichida amalga oshirish lozim. Karbyuratorli dvigatelda uchqun, ish aralashma ma'lum haroratga yetganda, siqish jarayoni oxirida berilishi kerak. Chunki yuqori haroratlarda yonish reaksiyalarining tezligi ortadi va yonish jarayoni qisqa vaqt ichida tugaydi.

Alanganing tarqalish tezligi yonuvchi aralashmaning tarkibiga, ya'ni havoning ortiqlik koeffitsiyentiga bog'liq. Benzin va gazda ishlaydigan dvigatellarda yonish jarayoni mo'tadil kechishi uchun havoning ortiqlik koeffitsiyenti  $a=0,7\dots1,2$  bo'lishi kerak. Havoning ortiqlik koeffitsiyenti bu miqdordan oshib yoki kamayib ketsa, ish aralashmasi

yonmaydi, chunki yonish uchun sharoit yaratilmaydi. *Alanga tarqalishining yuqori konsentratsion chegarasi* deb, aralashmani yondirishga imkon beruvchi havo ortiqlik koeffitsiyentining eng kichik qiymati  $\alpha_{\min}$  ga aytildi. Aralashmani yondirishga imkon beruvchi havo ortiqlik koeffitsientining eng katta qiymati  $\alpha_{\max}$  alanga tarqalishining quyi konsentratsion chegarasi deb ataladi. Uglevodorodli yonilg'ilarda  $\alpha = 0,85 \dots 0,9$  bo'lganda alanganing tarqalish tezligi eng yuqori qiymatga erishadi. 5.9-rasmida misol tariqasida propan alangasining tarqalish tezligi  $\alpha$  ga bog'liq holda ko'rsatilgan. GraF.I.K.dan ko'rindaniki,  $\alpha$  ning miqdori maqbul (optimal) qiymatdan oshsa yoki kamaysa, alanga-ning tarqalish tezligi bir oz pasayadi. Ish aralashmasi juda suyuqlashsa yoki quyuqlashsa, yonish tezligi keskin kamayib ketadi.



5.9-rasm. Alanga frontining tarqalish tezligi (propan-havo)


Yonish tezligi harorating kvadratiga proportional ravishda oshadi, bosim ko'tarilganda esa bir oz pasayadi.

Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellarda yonuvchi aralashma, gaz yoki benzin bug'laridan va havodan tashkil topgan bo'lib, uni alanganuvchanlik chegarasidan tashqarida

yondirib bo'lmaydi. Ish aralashmasida qoldiq gazlar ko'p bo'lsa, alanganuvchanlik chegaralari qisqaradi. Shuning uchun, karbyuratorli dvigatellarning yuklamasi o'zgarganda yonilg'i va havoning miqdorini shunday o'zgartirish kerakki, natijada har qanday yuklamada ham yonuvchi aralashma alanganuvchanlik chegarasida bo'lsin. Karbyuratorli dvigatellarda silindrga berilayotgan yonuvchi aralashmaning tarkibi va miqdori drossel-

to'smaqopqoqning holati bilan belgilanadi. Dvigatel kam yuklama bilan ishlasa (avtomobilni yurgizib yuborishda, kichik tezlikda harakat qilishda), drossel-to'smaqopqoq berkitiladi, natijada aralashma quyuqlashadi. Bu esa dvigatelnинг tejamliligini pasaytiradi va issiqlikdan foydalanishni yomonlashtiradi.


5.10-rasmda  $p$ - $V$  koordinatalar tizimida karbyuratorli dvigatel uchun yonish jarayonining indikator diagrammasi tasvirlangan, ushbu siklga mos bo'lgan nazariy sikldagi issiqlik uzatish esa shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan. Haqiqiy siklda yonish jarayoni ma'lum vaqt (0,001 s) oraliq'ida sodir bo'ladi, bu davrda porshen tirsakli valning  $\varphi_{c_1} = 10..20^\circ$  burchakka burilishiga mos yo'lni bosadi. Diagrammadan ko'rinish turidiki, yonish davrida (tirsakli val  $20^\circ$  ga burilganda) yonish jarayonini xarakterlovchi  $c_{t_1} z_1$



5.10-rasm. Karbyuratorli dvigatelinindikator diagrammasi

chiziq  $V=const$  chizig'idan ko'p chetlashmaydi. Yonish jarayonini  $p$ - $V$  koordinatalar tizimida ko'rib chiqish qiyin, shuning uchun bu jarayonni  $p$ - $\varphi$  koordinatalar tizimida ko'rib chiqish ancha qulaydir. Yonish jarayonining bunday diagrammalari bosim indikatori yordamida dvigatellarni sinash paytida yozib olinadi. 5.11-rasmda karbyuratorli dvigatelinindikator diagrammasi siklning xarakterli nuqtalari bilan ko'rsatilgan. Yonish kamerasiga elektr uchquni berilmagan holdagi kengayish jarayoni shtrix chiziq

bilan ko'rsatilgan. Yonish natijasida ajralib chiqqan issiqlikdan unumli foydalanish uchun ish aralashmasini porshen yu.ch.n. yaqinida bo'lganida tez yonishini ta'min-lash zarur. Buning uchun yonish kamerasiga elektr uchquni porshen yu.ch.n.ga bir necha gradus yetmasdan berilishi kerak. Tirsakli valning uchqun berilgan paytdan yu.ch.n.gacha burilish burchagiga o't oldirishni ilgarilatish burchagi,



**5.11-rasm. Karbyuratorli dvigatelda yonish jarayonining  $p$ - $\varphi$**

**koordinatalar tizimidagi diagrammasi** yonish jarayonining boshlanishiga kimyoviy tayyorgarlik uchun sekundning mingdan bir ulushicha vaqt kerak.

Elektr uchquni yonish kamerasiga 1 nuqtada berilgan bo'lsa ham, alanga paydo bo'lмаганилиги учун бо simning 1 nuqtadan 2 nuqtagacha ko'tarilishi uchqun berilmagan holdagidek yuz beradi. 2 nuqtada ko'zga ko'rindigan alanga paydo bo'ladi, bosim esa sezilarli darajada tez ko'tarila boshlaydi. Bu paytda alanga yonish kamerasi bo'ylab tez tarqalishi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlik miqdori juda tez ko'payadi, bu esa bosim va haroratning bir necha marta ko'tarilishiga olib keladi. Siklning harorati o'zining eng katta qiymatiga eng katta bosimda emas, balki bir oz keyinroq erishadi. Bunga asosiy sabab shuki, shiddatli yonish jarayoni bosim eng katta qiymatiga erishgandan keyin ham davom etadi. Lekin porshenning p.ch.n.ga tomon

deyiladi va  $\varphi_{w_0}$  bilan belgilanadi. Uchqun chiqqan joyda juda yuqori harorat ( $10000^{\circ}\text{S}$ ) hosil bo'ladi. Agar ish aralashmasi yorish darajasiga yetgan bo'lса, u holda aralashma alangalana boshlaydi. Uchqun berilgandan keyin yonish jarayonining

boshlaydi. Uchqun berilgandan keyin yonish jarayonining

harakatlanishi va gazlarning kengayishi natijasida bosim kamayadi.

Yonish jarayonining turli davrlarida olingan fotosuratlar kamerada yongan va yonmagan aralashmani ajratib turuvchi - nurlanuvchi kontur borligini ko'rsatadi. Alanga fronti, deb nomlangan bu kontur yonish reaksiyalari rivojlanayotgan aralashmaning yupqa qatlamidan iborat.

Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellarning yonish jarayonini shartli ravishda uchta fazaga bo'lish mumkin:

Birinchi faza - elektr uchquni berilgan paytdan boshlab, bosimning birdan ko'tarilishigacha o'tgan davr. Bu faza yonishning boshlang'ich fazasi deb ataladi. Birinchi faza vaqtida yonuvchi aralashmaning taxminan 6-8 foizi yonadi.

Ikkinci - asosiy faza - bosimning birdan ko'tarilish paytidan boshlab maksimal  $p_{\max}$  qiymatiga erishguncha o'tgan davr. Ikkinci faza davomida yonuvchi aralashmaning taxminan 80 foizi yonadi. Bu davrda bosimning tez ko'tarilishi kuzatiladi. Yonish jarayonining shiddatliligi deb ataluvchi kattalik  $K$  tirsakli valning har bir gradus burilishiga to'g'ri keladigan bosimning ko'tarilish tezligi bilan tavsiflanadi.

$$K = \frac{\Delta p}{\Delta \varphi}; \text{ MPa/grad};$$

bu yerda  $\Delta p$  - bosimlar ayirmasi.

Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellarda yonish jarayoni shiddatliligining o'rtacha qiymati  $K=1\dots2$  bar/grad = 0,1...0,2 MPa/grad ga teng.


Uchinchi faza - bosim maksimumga erishgan paytdan yonilg'ining yonib tugashigacha bo'lган davr. Yonish jarayoni to'g'ri uyushtirilgan karbyuratorli dvigatellarda uchinchi fazaning davom etish davri katta emas va kengayish jarayonining o'rtalarida tugaydi.

### **5.3.1. YONISH JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

O't oldirishni ilgarilatish burchagi. Issiqlikdan foydalanishning samaradorligini oshirish uchun ish aralashmasining asosiy qismi kengayish vaqtida yu.ch.n.ga yaqin yerda yonishi kerak. Bu holda elektr uchquni ilgariroq, ya'ni porshen yu.ch.n.ga bir necha gradus yetmasdan berilishi kerak.

5.12-rasm, *a*, *b* va *v* da karbyuratorli dvigatellar uchun o't oldirishni ilgarilatish burchaklarining turli qiymatlaridagi indikator diagrammalar ko'rsatilgan. / Bu diagrammalarni olishda dvigatelning aylanishlar chastotasi va drossel-to'smaqopqoqning holati o'zgarmas bo'lgan. Yuqorida aytib o'tilganidek, dvigatelning har bir ish rejimi uchun yondirishni ilgarilatish burchaklari to'g'ri aniqlangan bo'lishi lozim. 5.12-rasm, *a* da tasvirlangan - diagrammadan ko'rinish turibdiki, yondirishni ilgarilatish burchagi to'g'ri tanlangan. Uchqun o'z vaqtida berilishi natijasida yonish jarayonining yu.ch.n. yaqinida (kengayishning boshlanish davrida) tugallanishi ta'minlanadi. Natijada dvigatel eng yuqori quvvatga erishadi va tejamli ishlaydi.

Agar yondirishning ilgarilatish burchagi qandaydir sababga ko'ra kattalashib ketsa (5.12-rasm, *b*), yonish jarayoni porshen yu.ch.n.ga yetib kelmasdan sodir bo'ladi, natijada bosim birdan ko'tariladi va o'zining eng yuqori qiymatiga siqish jarayonida, porshen yu.ch.n.ga yetmasdan erishadi. Porshening bundan keyingi harakati natijasida bosim kamayib yu.ch.n. yaqinida kengayish jarayonida «halqa» hosil bo'ladi va uning shtrixlangan yuzasi unumsiz sarflangan ishni ko'rsatadi. Natijada dvigatelning quvvati kamayib ketadi va tejamsiz ishlaydi. Ilgarilatish burchagi ortiqcha kattalashib ketsa, tartibsiz, detonatsiyali yonish sodir bo'lib, dvigatel «taqillab» ishlaydi.



*5.12-rasm. O't oldirishni ilgarilatish burchaginiн karbyutatorli dvigatelning indikator diagrammasiga ta'siri*


Yondirishning ilgarilatish burchagi kichrayib ketsa (5.12-rasm, v) yonish jarayoni ken-gayish vaqtida, ya'ni porshen yu.ch.n.dan ancha uzoqlashgan paytda sodir bo'ladi. Natijada dvigatelning quvvati, tejamlligi yomonlashadi, ishtatilgan gazlarning harorati ko'tariladi va dvigatel qizib ketadi. Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellar uchun yondirishni ilgarilatish burchagining eng qulay qiymati tormozlash stendida dvigateli sinab tanlanadi. Yondirishni ilgarilatish burchagi ish aralashmasining haroratiga, uyurma harakatiga, tarkibiغا, dvigatelning ish rejimlariga bog'liq.

**Ish aralashmasining tarkibi.** Ish aralashmasining tarkibi havoning ortiqlik koeffitsiyenti bilan belgilanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek, havoning ortiqlik koeffitsiyenti  $a = 0,8\dots0,9$  bo'lganda yonish jarayoni juda qisqa vaqt davom etadi, alanganing tarqalish tezligi esa eng katta qiymatga erishadi. Shuningdek, yonish jarayonining birinchi fazasi qisqaradi, asosiy fazasi esa tez yuksaladi va yondirishning ilgarilatish burchagi to'g'ri tanlangan bo'lsa yonish yu.ch.n.

atrofida tugaydi,  $P_z$  bosimning eng katta qiymati va siklida siklida eng katta ish bajarilishi ta'minlanadi. Havoning ortiqlik koefitsiyenti oshishi bilan ( $\alpha > 1$ ) yonishning cho'zilib ketishi kuzatiladi, bu esa asosan, birinchi fazaning kattalashishi hisobiga bo'ladi.

5.13-rasmda karbyuratorli dvigatelning indikator diagrammasi havo ortiqlik koefitsiyentining uch xil qiymati uchun keltirilgan.

$\alpha = 1,14$  bo'lganda ketma-ket keluvchi sikllarda yonish jarayoni tekis rivojlanmaydi, ayrim sikllarda u juda sekin rivojlanadi, chunki silindrga tushayotgan aralashma miqdori har xil bo'ladi. Aralashma yana ham suyuqlashtirilsa ( $\alpha > 1,14$  dan kattalashsa), yonish jarayoni juda sekin rivojlanadi, natijada dvigatel beqaror va samarasiz ishlaydi. Demak,  $\alpha$  ning qiymati, har bir dvigatel uchun yonish kamerasining shakli, siqish darajasi va yuklamasiga qarab tanlanadi.



5.13-rasm. Havo ortiqlik koefitsiyentining yonish jarayoniga ta'siri:

a -  $\alpha = 0,8 \dots 0,9$ ; b -  $\alpha = 1,0 \dots 1,03$ ; v -  $\alpha = 1,14 - 1,15$

Dvigateldan katta quvvat olish zarur bo'lgan hollarda silindrga quyuq aralashma ( $\alpha = 0,8 \dots 0,9$ ) kiritish zarur. Buning uchun drossel-to'smaqopqoq to'liq ochiladi va ekonomayzer ishga tushiriladi. Ammo bunday sharoitda dvigatelning tejamliligi past bo'lib, yonilg'i chala yonishi sababli, ko'p sarflanadi. Karbyuratorli avtomobil dvigatellari havoning ortiqlik koefitsiyenti  $\alpha = 1,05 \dots 1,15$  bo'lganda tejamlili ishlaydi, chunki bunda yonilg'i to'la yonadi.

Natijada issiqlikdan to'la foydalaniladi va indikator foydali ish koeffitsiyenti  $\eta$ , eng katta qiymatga erishadi. Lekin bu holda dvigatelning quvvati bir oz pasayadi.

Yonish tezligi ish aralashmasining tarkibiga mos ravishda o'zgarganligi sababli yondirishning ilgarilatish burchagini ham o'zgartirish kerak. Havoning ortqlik koeffitsiyenti kamayishi bilan yondirishni ilgarilatish burchagini kattalashtirish kerak. Bu vazifani karbyuratororda siyraklanishni cheklagich bajaradi.

**Ish aralashmasi uyurma harakati tezligining yonish jarayoniga ta'siri.** Ish aralashmasining uyurma harakati tezligi alanga frontining tarqalish tezligiga va yonishning ikkinchi fazasi qisqarishiga ijobiy ta'sir qilib, yonishning umumiyligi vaqtini kamaytiradi. Karbyuratorli dvigatellarda ish aralashmasi uyurmali harakatlanganda alanganing tarqalish tezligi 15...60 m/s ni tashkil etadi, ya'ni uyurma harakat bo'lmagan paytdagiga qaraganda 8...12 marta katta bo'ladi.

Kiritish kanallaridagi uyurma harakat yangi zaryadni kiritish paytida hosil bo'ladi. Yonish paytida ish aralashmasining uyurma harakati tezligini oshirish uchun siqib chiqargichli yonish kameralarini qo'llaniladi. Bunday yonish kamerasida porshen va silindr kallagi orasida ozgina oraliq (1 mm ga yaqin) bo'ladi. Siqish jarayoni oxirida bu oraliqdan zaryad yondirish chaqmog'iga qarab haydaladi va bunda uyurma harakatning kuchayishi yuz beradi. Bunday kameralarda eng chekkadagi yonilg'ining ulushi ham to'la yonadi, bu esa detonatsiyaning paydo bo'lishini kamaytiradi.


**Aylanishlar chastotasining yonish jarayoniga ta'siri.** Dvigatelning aylanishlar chastotasi qancha katta bo'lsa, yonish jarayoni uchun ajratilgan vaqt shuncha kam bo'ladi. Natijada yonish jarayonining tirsakli valning burilish burchagi orqali ifodalangan qiymati kattalashadi. Demak, karbyuratorli dvigatellarda yonish jarayonini yu.ch.n. yaqinida ta'minlash uchun aylanishlar chastotasining ortishi bilan yondirishning ilgarilatish burchagini ham oshirish,

ya'ni ilgariroq uchqun berish kerak (5.14-rasm). Bu holda yonish yu.ch.n. atrofida tugallanadi. Bu vazifani markazdan qochirma regulyator (sozlagich) bajaradi. Bu moslana dvigatelning aylanishlar chastotasi ortishi bilan avtomatik ravishda yondirishni ilgarilatish burchagini o'zgartiradi.

**Yukla maning yonish jarayoniga ta'siri.** Dvigatel ish vaqtining 70-80% davrida kichik yuklamalarda ishlaydi, ya'ni drossel-to'smaqopqoq oraliq holatlarda bo'ladi. Bunda silindrga kelayotgan yangi aralashma miqdori kamayadi. Bu esa, kiritish jarayonidagi bosim  $p_a$  va harorat  $T_a$  ning kamayishiga olib keladi, qoldiq gazlar koefitsiyenti ko'payadi, yangi aralashma esa inert gazlar bilan qo'shilib, silindrni to'ldirish yomonlashadi. Natijada ish aralashmasining yonish sharoiti yomonlashadi, alanganing tarqalish tezligi kamayadi va yonish jarayonining birinchi hamda asosiy fazalarining davom etishi ortadi.

Drossel-to'smaqopqoqning oraliq holatlarida yonish jarayonini qisman yaxshilash uchun yonuvchi aralashma tarkibini maxsus sozlash yoki yondirishni ilgarilatish kerak. Bu vazifa vakuum-korrektor yordamida bajariladi. Drossel-to'smaqopqoq tejamlı rejim ( $\alpha = 1,05 \dots 1,15$ ) holatidan boshlab yopilganda aralashma quyuqlasha borishi kerak. Bu esa yonish jarayonining tez rivojlanishiga olib keladi. Bunda tashqari, vakuum-korrektor yordamida yondirishning ilgarilatish burchagini avtomatik ravishda oshirish natijasida yonishning ikkinchi fazasi yu.ch.n. yaqinida sodir bo'ladi. Ammo bunday sharoitlarda ( $\alpha < 1$ ) yonilg'i chala yonishi natijasida issiqlikning ma'lum qismi ajralmaydi, yonilg'i ortiqcha sarflanadi. Bunda ishlataligan gazlar bilan birga ko'p miqdorda to'la yonib ulgurmagan, tarkibida zaharlovchi moddalar bo'lgan mahsulotlar ham chiqarib yuboriladi.

**Siqish darajasining ta'siri.** Siqish darajasini oshirish natijasida siqish jarayoni oxiridagi bosim va tempe-




**5.14-rasm. Karbyuratorli dvigatelning har xil aylanishlar chastotasida olingan indikator diagrammasi:**

$a - \theta_{yo} = \text{const}$ ;  $b - \theta_{yo} = \text{optimal}$ . 1-  
 $n = 1000 \text{ min}^{-1}$ ; 2- $n = 2000 \text{ min}^{-1}$ ;  
 3- $n = 3000 \text{ min}^{-1}$

Yonish kamerasi shaklining va yondirish chaqmoqlari joylashishining yonish jarayoniga ta'siri. Hozirgi zamon karbyuratorli dvigatellarida turli xildagi yonish kameralari qo'llaniladi. Yonish kameralarining turiga qarab chaqmoqlar ham turlicha joylashtiriladi. Yonish kamerasiniig shakli va undagi yondirish chaqmoqlarining joylanishi yonish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Yonish kamerasiniig eng uzoq joylashgan nuqtasi bilan yondirish chaq mog'i orasidagi masofa qancha kichik bo'lsa, yonish

ratura ortadi. Harorat va bosimning ortishi bilan yonilg'ini yonishga tayyorlash hamda alanganing tarqalish tezligi kattalashadi. Buning natijasida yonish jarayonining umumiy davom etish vaqtqi qisqaradi, dvigatearning quvvati va tejamliligi yaxshilanadi. Dvigatellarda siqish darajasi o'zgartirilganda yondirishni ilgarilatish burchagini ham o'zgartirish lozim. Siqish darajasi oshganda detonatsiyali yonish, barvaqt yonish yoki o'z-o'zidan yonish hodisalari bo'lmasligi lozim. Buning uchun siqish darajasiga mos benzin turi ishlatalishi kerak.

kamerasi shuncha qulay hisoblanadi, chunki bunda alanga frontining yo‘li qisqa bo‘ladi.



**5.15-rasm. Karbyuratorli dvigatellar yonish kameralarining sxemalari:**  
**a-yarim sferik; b-tekis ovalsimon; v-ponasimon;**  
**g-yarim ponasimon**

5.15-rasmida yonish kameralarining eng ko‘p tarqalgan shakllari ko‘rsatilgan. Yondirish chaqmog‘i kameraning o‘rta qismiga joylashtirilganda (5.15-rasm, b) ish aralashmasining yonishi uchun eng yaxshi sharoit yaratiladi, chunki bunday chaqmoqdan alanga fronti hamma tomonga bir xil tezlikda tarqaladi. Yarim sferik; ponasimon va yarim ponasimon shakldagi yonish kameralarida yondirish chaqmoqlari markazga nisbatan siljigan bo‘ladi (5.15-rasm, a, v va g). Bunday kameralarda siqib chiqargich hisobiga zaryadning uyurma xarakati hosil bo‘ladi, natijada yonish jarayoni tez rivojlanadi. Yonish kamerasining bunday tuzilishi zaryadning uyurma harakatini tezlashtiradi va ish aralashmasi ulushining detonatsiyasiz yonishini ta’minlaydi.

Yarim ponasimon yondirish kameralari avtomobil dvigatellarida (ZIL-130, GAZ-24, MZMA-412 dvigatellarda) keng qo'llaniladi.

Silindrlari nisbatan katta diametrli dvigatellarda hamda gaz bilan ishlaydigan dvigatellarda yonish jarayonini tezlashtirish maqsadida ikkita yondirish chaqmog'i o'rnatilishi mumkin.

### **5.3.2. DETONATSIYALI YONISH**

#### **Detonatsiyaning paydo bo'lishiga**

#### **ta'sir etuvchi omillar**

Karbyuratorli dvigatellarda ba'zan taqillagan tovushlar eshitiladi. Bu hodisa dvigatellarning siqish darajasiga mos bo'limgan benzin ishlatilganda, dvigatelni o'chirganda. katta yuklamada ishlaganda sodir bo'ladi. Bu tovushlar detonatsiyali yonishning belgisidir. Detonatsiya nisbatan kuchsiz bo'lganda bu tovushlar vaqtı-vaqtı bilan eshitiladi, bu tovush xuddi porshen barmog'i va shatunning yuqori vtulkasi orasidagi tirkish qiymati normadan kattalashganda paydo bo'ladigan tovushga o'xshaydi. Agar detonatsiya kuchaysa, bu tovushlar uzliksiz eshitilib turadi. Dvigatel notekis ishlaydi va tirsakli valning aylanishlar chastotasi kamayib ketadi, silindr va silindrlar kallagi qiziydi, ishlatilgan gazzarda esa qora tutun paydo bo'ladi.


Agar dvigatel bunday holatda uzoq muddat ishlasa. porshenning chetlari, silindrlar bilan kallak orasidagi qistirma, shuningdek, yondirish chaqmog'ining elektrodlari va izolyatorlari kuyib ketishi mumkin. Detonatsiya natijasida hosil bo'lgan yuqori bosim krivoship-shatunli mexanizmda zarbiy yuklamalar hosil qilib, shatun podshipnigidagi antifriksion (ishqalanishni kamaytiradigan) qatlamni ishdan chiqaradi. Zarbiy yuklamalar ta'sirida moy pardalari yirtiladi, bu esa silindrlar gilzalari yuqori qismining tez yeyilishiga olib keladi. Shu sabablarga ko'ra detonatsiya bilan ishlashga yo'l qo'yilmaydi.

Detonatsiyali yonish jarayonida alanga fronti oldida yonmay qolgan ish aralashmalari siqilib, uning harorati ko'tariladi. Natijada yonilg'i molekulalarida kimyoviy oksidlanish reaksiyasi sodir bo'lib «peroksid» birikmalar hosil bo'ladi. Yetarli darajada yuqori harorat va bosimga ega bo'lган bu birikmalar o'z-o'zidan yonib ketadi. Bunday xususiyatda boshlangan yonish jarayoni juda katta tezlik bilan ish aralashmasining qo'shni qatlamlariga tarqaladi va bu qatlamlarda ham betartib yonish jarayoni boshlanadi. Bu holda yonish jarayonini boshqarib bo'lmaydi. Bunday yonishda hosil bo'lган zarbiy to'lqinlar juda katta tezlik bilan butun yonish kamerasi bo'ylab tarqaladi va devorlardan qaytib, metall tovushlar paydo qiladi. Zart to'lqinlari kimyoviy reaksiya endigina tugayotgan zonalarga ta'sir qilib, detonatsiyali portlashlar hosil qiladi. Bunday detonatsiyali to'lqinlarning tarqash tezligi 2000...2300 m/s gacha yetadi.

Karbyuratorli dvigatellarda detonatsiyali yonishning indikator diagrammasi 5.16-rasmda ko'rsatilgan. Bu holda yonish va kengayish jarayonlarida bosimning o'zgarishi arrasimon shaklga ega.

Quyida detonatsiyali yonishning paydo bo'lishiga ta'sir qiluvchi har xil omillar tahlil qilingan.

**Siqish darajasi.** Siqish darajasining ortishi detonatsiyali yonish uchun qulay sharoit yaratadi, chunki bu holda detonatsiyaga moyil zaryad ko'proq qiziydi. Shuning uchun siqish darajasining eng yuqori qiymati detonatsiyali yonish bilan chegaralanadi. Dvigatelning ko'rsatkichlariga siqish darajasi ijobiy ta'sir qilganligi uchun uni yonilg'inинг oktan sonini oshirish va yonish kamerasining shaklini o'zgartirish hisobiga oshiriladi. Shuning uchun har bir dvigatelning siqish darajasiga mos oktan sonli yonilg'i va yonish kamerasi tanlanadi (5.17-rasm). Tajribalar shuni ko'rsatadiki, oktan soniga siqish darajasidan tashqari silindrning o'lchamlari ham ta'sir qiladi.




5.16-rasm. Detonatsiyali yonish diagrammasi

Yonish kamerasining shakli va yondirish chaqmoqlarining joylashuvi. Yonish jarayonining detonatsiyasiz borishi va alanganing hamma tomonga tekis tarqalishi uchun yondirish chaqmog'i yonish kamerasining markaziga o'matilishi lozim (5.15-rasm, a). Bunday kamera da siqish darajasining qiymatini oshirish mumkin. Siqib chiqargichli yonish kamerasida esa (5.15-rasm, v va g) dvigatelning detonatsiya ga moyilligi kamayadi,

chunki bu holda ish aralashmasi uyurmali harakatga kelib, alanga fronti ta'sirida uzoq vaqt qolib ketmaydi.

**Porshen va silindrlar kallagining materiali.** Dvigatelning detonatsiyaga moyilligini kamaytirishda porshen va silindrlar kallagining materiali hamda sovitish tizimining ahamiyati katta. Shuning uchun porshen va silindrlar kallagini tayyorlashda issiqlikni yaxshi o'tkaza oladigan materiallardan foydalilanildi. Cho'yanga nisbatan issiqlikni o'tkazish qobiliyati yaxshi bo'lgan alyuminiy qotishmasidan foydalanish dvigatellarda siqish darajasini bir qadar oshirishga imkon beradi.

**Ish aralashmasining tarkibi.** Karbyuratorli dvigatellarda yonuvchi aralashma quyuq ( $\alpha = 0.8 \dots 0.9$ ) bo'lsa, detonatsiyali yonishga moyillik kuchayadi. chunki bunda yonish tezligi, harorat va bosim katta bo'lib, detonatsiya ro'y berishiga imkon tug'iladi.



5.17-rasm. Har xil diametrli dvigatellar uchun oktan sonining siqish darajasiga bog'liqlik grafigi:  
1 - 120 mm; 2 - 90 mm;  
3 - 60 mm

aralashma notejis taqsimlanadi. Natijada quyuq ( $\alpha = 0,8 \dots 0,9$ ) aralashma tushgan silindrda detonatsiyaga moyillik paydo bo'lishi mumkin.

**Aylanishlar chastotasi.** Tirsakli valning aylanishlar chastotasi oshganda, detonatsiyali yonish bo'lmaydi, chunki yonuvchi aralashmaning molekulalaridagi oksidlanish reaksiyalariga ketadigan vaqt kamayadi; kiritish tizimidagi qarshiliklar  $\Delta p_a$  va qoldiq gazlar oshadi. Bu omillarning birligida ta'siri natijasida aylanishlar chastotasi ortishi bilan siqish va yonish jarayonlari oxiridagi harorat va bosim pasayadi. dvigatelning detonatsiyaga moyilliği kamayadi.

**Dvigatel yuklamasi.** Yuklama kamayganda ham dvigatelnинг detonatsiyaga moyilliği kamayadi.

**Yondirishni ilgarilatish burchagi.** Yondirishni ilgarilatish burchagi kattalashganda yonish jarayoni yu.ch.n. yaqinida, siqish jarayoni oxirida sodir bo'ladi. Natijada

**Silindrler soni va o'Ichami.** Silindrning diametri katta bo'lsa, yonish kamerasining chekka nuqtasigacha bo'lgan alanganing yo'li olislashadi, bu esa detonatsiyaning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun katta diametrli dvigatellarda aralashma detonatsiyasiz yonishi uchun ikkita yondirish chaq-mog'i, diametr bo'yicha qarama-qarshi tomonga o'rnatiladi. Ko'p silindrli karbyuratorli dvigatellarda

yonish jarayonining ikkinchi fazasidagi bosim va harorat kattalashadi, bu esa detonatsiyaning paydo bo'lishiga yordam beradi.

**Qurum hosil bo'lishi.** Porshen tubini va silindrler kallagini qurum qoplashi natijasida ulardan issiqlikning tarqalishi qiyinlashadi va yonish kamerasi detallarining harorati ortib boradi. Bundan tashqari siqish darajasi ham birmuncha oshadi. Natijada, yonuvchi aralashmaning harorati va bosimi ortadi, detonatsiyali yonish ro'y beradi. Bunday dvigatellarda detonatsiyaning oldini olish uchun yondirishni ilgarilatish burchagini bir oz kamaytirish kerak.

**Dvigatelni sovitish.** Biron sababga ko'ra silindr devorlari orqali sovitish muhitiga uzatiladigan issiqlik miqdori kamaysa, silindr, porshen va silindrler kallagi qizib, detonatsiyali yonishning sodir bo'lishiga qulay sharoit yaratiladi.


### 5.3.3. BARVAQT O'Z-O'ZIDAN ALANGALANISH

Karbyuratorli dvigatellar katta yuklama bilan va iqlimi issiq sharoitlarda ishlaganda silindrler kallagining ayrim zonalari, chiqarish klapanlari va chaqmoqlarining elektrodlari qattiq qizib ketadi hamda ularning harorati 700...800°С ni tashkil qiladi. Shuningdek, cho'g'langan qurum mavjud bo'lsa, uchqun berilmasdan ham ish aralashmasi o'z-o'zidan alanganishi mumkin.

5.18-rasmida o'z-o'zidan alanganish sharoitida olingan dvigatelning indikator diagrammasi ko'rsatilgan. Yonuvchi aralashma barvaqt o'z-o'zidan alanganlanganda yonish jarayonida bo'g'iq taqillash ovozlari eshitiladi, dvigatelning quvvati kamayadi, issiqlik ko'p yo'qoladi. Bundan tashqari, siqish jarayonida bosimning ortishi natijasida krivoship-shatunli mexanizmda qo'shimcha dinamik kuchlanishlar hosil bo'ladi.


### 5.3.4. YONISH DAVRIDA O'Z-O'ZIDAN ALANGALANISH

Hozirgi zamon karbyuratorli dvigatellarida yuqori oktan sonli yonilg'ilar ishlataladi. Bunday dvigatellarda yonish jarayoni boshlangandan so'ng cho'g'langan qurum zarralari ta'sirida o'z-o'zidan alanganish hodisasi ro'y berib turadi. Alanganish yonish kamerasining istalgan qismida sodir bo'lishi mumkin. Natijada yonishning asosiy fazasida maksimal bosim va yonish jadalligi kattalashadi. Bu kabi sodir bo'ladigan yonish jarayonida keskin taqillash, guldurash kuzatiladi. O'z-o'zidan alanganish hodisasi sodir bo'ladigan siklning indikator diagrammasi 5.19-rasmida idek ko'rinishiga ega bo'ladi. Bunday yonish jarayoni karbyuratorli dvigatellarda, ko'pincha kichik yuklamadan to'la yuklamaga o'tish vaqtida ro'y beradi.



5.18-rasm. O'z-o'zidan barvaqt alanganishning diagrammasi:

- 1- uchqun berish payti;
- 2- alanganishning boshlanishi



5.19-rasm. Yonish vaqtida o'z-o'zidan alanganishning diagrammasi:

- 1-mo 'tadil yonish;
- 2-o'z-o'zidan yonish

## **5.4. DIZELLARDA YONISH JARAYONI**

### **5.4.1. UMUMIY MA'LUMOT**


Dizellar silindrida yonuvchi aralashma siqish jarayonining oxirida hosil bo'ladi. Shuning uchun siqish jarayonida faqat havo siqiladi. Yonish kamerasiga yonilg'ini purkash porshen yu.ch.n.ga kelmasdan bir oz vaqtliroq, ya'ni siqish jarayoni oxirida amalga oshiriladi. Natijada siqilgan havo bilan mayda zarrachalarga parchalangan yonilg'i o'zaro qo'shilib yonuvchi aralashmani hosil qiladi. Dizellarda ishlatiladigan yonilg'i (dizel yonilg'i)dan bir jinsl i aralashma hosil qilish mumkin emas, shuning uchun u yuqori va pastki alangalanish chegarasiga ega bo'lmaydi. Yon ilg'i zarralari yonish kamerasining hajmi bo'ylab notejis taqsimlanadi. Natijada kameraning ayrim joylarida bug'langan yonilg'i bilan havo aralashib alangalanish chegarasida turgan zonalar hosil bo'ladi va yonish kamerasining ushbu zonalarida bug'langan yonilg'inинг alangalanishi ro'y beradi. So'ngra alanga yonish kamerasining barcha hajmini egallaydi. Demak, dizellarda yonish jarayoni karbyuratorli dvigatellarga nisbatan murakkabroq kechadi va uni boshqarish masalasi hozirgacha muammo bo'lib turibdi.

Yonish kamerasining hajmi bo'ylab aralashmaning notejis taqsimlanishi dizellarda yonuvchi aralashma tarkibini sifatli rostlashga imkon beradi.

Aralashma tarkibini sifatli rostlashda dizelning yukla masi kamaysa, silindrga kirayotgan havoning miqdori o'zgarmay qoladi. Bu holda silindrga purkalayotgan yonilg'inинг miqdori kamaytiriladi, natijada havo ortiqlik koeffitsiyentining o'rtacha qiymati ortadi va dizel salt i shlaganda  $\alpha = 5\dots6$  bo'ladi.

Dizellarda ko'llaniladigan siqish darajasi purkalgan yonilg'inинг o'z-o'zidan alangalanishini ta'minlashi lozim. Shu sababli siqish jarayoni oxirida havoning harorati dizel

yonilg'isining alangalanish haroratidan taxminan 150...250° yuqori bo'lib, 700...900 K ni tashkil qiladi.



5.20-rasm. Dizelda yonilg'i berish va yonish jarayonlari

Dizellarda yonish jarayonini tavsiflovchi ko'rsatkichlarning o'zgarish sxemasi 5.20-rasmda ko'rsatilgan. Rasmida silindrda bosim  $p$  va harorat  $T$  ning, tirsakli valning burilish burchagi  $\varphi$  bo'yicha o'zgarish chiziqlari keltirilgan, shtrix chiziqlar bilan yonish jarayoni sodir bo'lмаган siklning diagrammalari ko'rsatilgan. Pastki sxemada yonish kamerasiga purkalgan  $q_s$  yonilg'i miqdori va issiqlikdan foydalanish koeffitsiyentining miqdorlari keltirilgan.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, karbyuratorli dvigatellarda uchqun porshen yu.ch.n.ga bir necha gradus yetmasdan beriladi. Dizelda ham karbyuratorli dvigateldagi kabi uchqun o'rniغا yonilg'i purkash, porshen yu.ch.n.ga ( $1$  nuqta) yetmasdan boshlanadi. Bu burchak yonilg'i purkay boshlashni ilgarilash burchagi, deb ataladi va  $\varphi_{pur}$  bilan belgilanadi.

Dizelda yonish jarayonini quyidagi fazalarga ajratish mumkin:

**Birinchi faza.**  $\theta$ , burchak bilan belgilanib, alanganishning kechikish davri deb ataladi. Bu davr  $1$  nuqtadan  $2$  nuqtagacha, ya'ni yonilg'i purkalgandan ko'zga ko'rinarli alanga hosil bo'lguncha davom etadi. Bu paytda silindr ichidagi bosimning o'sishi havoning yanada siqilishi bilan tushuntiriladi. Bu davrda yongan yonilg'i alanganmaydi, yonilg'i tomchilar qisman bug'lanib, kimyoviy oksidlanish reaksiyalari sodir bo'ladi. Bu jarayonlarning kechishi uchun birmuncha vaqt talab qilinadi. Shu vaqt ichida silindrda  $q_1$  ing yonilg'i tushadi va u siqilgan havo bilan aralashib alanganishga tayyorlanadi. Natijada  $2$  nuqtada ko'zga ko'rinarli yonish boshlanadi, bosim va haroratni ifodalovchi egri chiziq  $2$  nuqtada shtrixlangan egri chiziqdan chetlashadi. Shu paytdan boshlab yonish jarayoni jadallahib, bosim tez ko'tariladi va qisqa vaqt oralig'ida  $p_2$  qiymatga erishadi. Asosiy yoki tez yonish fazasi, deb

ataluvchi bu davrda tirsakli val  $\theta_1'$  burchakka buriladi (2 va 3 nuqtalar oralig‘i). Lekin sikl haroratining maksimal maksimal qiymati bosimning eng katta qiymatiga mos kelmaydi, u 4 nuqtada o‘zining eng katta qiymatiga erishadi. Bu davr sekin yonish fazasi, deb ataladi va  $\theta_{11}'$  bilan belgilanadi. Bu paytda yonilg‘ining asosiy qismi yonib bo‘ladi. Dizellarda asosiy yonish fazasida bosimning oshish tezligi kameraning turiga bog‘liq bo‘lib, u 0,4...1,0 MPa/grad, atrofida bo‘ladi.

Yuqorida aytganimizdek,  $\xi$  egri chiziq faol yongan yonilg‘i miqdorini ifodalaydi. Bundan ko‘rinib turibdiki, eng katta bosim  $p_z$  ga erishish paytida kiritilgan yonilg‘ining faqat bir qismi yonadi. Dizelda yonish jarayoni eng katta bosimga erishilgandan keyin ham diagrammaning 3-4 qismida katta issiqlik chiqarib davom etadi. Bu paytda bosimning bir oz pasayishi kuzatiladi, chunki porshen p.ch.n.ga tomon harakat qiladi. Lekin yonilg‘ining yonishi davom etganligi tufayli harorat ortadi (4 nuqta).

4 nuqtadan keyingi kengayish jarayonida yonish tugaydi va u «yonib bo‘lish» fazasi deb ataladi,  $\theta_{11}'$  bilan belgilanadi. Yonishning tugash vaqtini aniqlash juda qiyin. Dizellarda yonib bo‘lish fazasi karbyuratorli dvigatellarga nisbatan ko‘proq davom etadi. Dizelning samarali ishlashi yaxshi bo‘lishi uchun yonish jarayoni mumkin qadar qisqa vaqt davom etishi va sikl bosimi bir tekis oshishi kerak. Aks holda dizel shiddatli va taqillab ishlaydi.

#### **5.4.2. DIZELLARDA YONISH JARAYONIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR**

Dizellarda alanganishning kechikish davri yonish jarayonining xususiyatiga va davom etish vaqtiga ta’sir etadi. Alanganishning kechikish davri qancha katta bo‘lsa, yonish kamerasiga purkalgan yonilg‘ining shuncha ko‘p qismi bug‘lanib ketadi, natijada yonish jarayonining shiddati

ortadi. Shuning uchun alanganishning kechikish davrini iloji boricha kamaytirish kerak. Hozirgi zamon dizellarida alanganishning kechikish davri 0,0005...0,02 sekundni tashkil etadi.

Dizellarda alanganishning kechikish davriga, yonish jarayonining sifatiga va davom etish vaqtiga quyidagi omillar ta'sir qiladi: yonilg'ining kimyoviy va fizik xossalari, siqish darajasi, ya'ni yonilg'ini purkash vaqtida havoning harorati va bosimi, yonilg'i purkay boshlashni ilgarilash burchagi. yonish kamerasining konstruksiyasi, undagi havoning uyumma harakati va tezligi, yonilg'i uzatish apparatining ish tavsifi, tirsakli valning aylanishlar chastotasi va dvigatel yuklamasi.

**Yonilg'ining fizik va kimyoviy xossalari.** Alanganishning kechikish davriga yonilg'ining kimyoviy tarkibi katta ta'sir ko'rsatadi. Yonilg'i tarkibida parafin uglevodorodlari qancha ko'p bo'lsa, alanganishning kechikish davri shunchalik kichik bo'ladi, natijada yonish jarayonining ravon kechishi uchun qulay sharoit hosil bo'ladi.

Yonilg'ining fizik xossalardan uning qovushqoqligi, sirt tarangligi va bug'lanuvchanligi yonish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Alanganishning kechikish davrini yonilg'ining setan soniga bog'liq bo'lgan o'z-o'zidan alanganish haroratini pasaytirish bilan kamaytirish mungkin.

Yonilg'ining setan soni qancha katta bo'lsa, alanganish harorati shuncha kichik bo'ladi va demak, alanganishning kechikish davri ham kichik bo'ladi.

**Siqilgan havoning bosimi va harorati.** Siqilgan havo haroratining oshishi yonish jarayoniga ijobiy ta'sir qiladi, chunki yonilg'ini purkash paytida havoning harorati katta bo'lsa, alanganishning kechikish davri qisqaradi. Dizellarning siqish darajasi oshganda, dvigatel to'la

yuklamalarda ishlaganda silindrga kirayotgan havo harorati yuqori bo‘ladi. Natijada yonish shiddati kamayadi.

**Yonish kamerasida havoning uyurma harakati.** Siqish jarayoni oxirida yonish kamerasidagi havoning harakati yonish jarayoniga katta ta’sir ko’rsatadi. Agar havoga ma’lum yo’nalishda harakat berilmasa, yonish jarayonini boshqarish mumkin emas. Yonilg’i samarali yonishi uchun havoning uyurma harakatini vujudga keltirish va yonish kamerasining butun hajmi bo‘ylab bir tekis yonuvchi aralashma hosil qilish kerak. Havoning uyurma harakati yonilg’i bug‘larini kislород ko‘p bo‘lgan zonalarga ko‘chirishga va yonish mahsulotlarini reaksiya tugagan, zonalardan chiqarib yuborishga yordam beradi. Shuning uchun dizellarda kiritish va siqish jarayonida havoning uyurma harakatini hosil qiladigan yonish kamerasining har xil turlari va maxsus qurilmalar qo’llaniladi.

**Yonilg’i berish apparatlari.** Hozirgi zamon tezyurar dizellarda turli konstruksiyali yonilg’i berish apparatlari ishlatilmoqda. Yonilg’ining uzoqqa otilishi, to‘zish sifati va yonish kamerasining butun hajmiga tekis taqsimlanishi bu apparatlar konstruksiyasiga bog‘liq. Yonish jarayoniga yonilg’i purkashning davom etish vaqtini ham ta’sir qiladi va u o‘z navbatida yonilg’i berish apparatining tuzilishiga bog‘liq.

**Yonish kamerasi.** Yonish kamerasining tuzilishi turli dizellarda yonuvchi aralashma tayyorlash hamda yonish jarayonlariga ta’sir ko’rsatadigan asosiy omillardan biridir. Dizellarda ikki xil: ajratilmagan (bir bo‘shliqli) va ajratilgan yonish kameralari qo’llaniladi.

Ajratilmagan kameralarda bir jinsli yonuvchi aralashma hosil qilish juda murakkab, shu sababi bunday kameralarda yonish jarayoni shiddatli kechadi. Aksincha, ajratilgan kameralarda bir jinsli aralashma hosil qilish ancha oson, chunki bu kameralarda havoning harakat tezligi 150...280 m/s ga teng. Natijada yonish jarayonining shiddati

ancha pasayadi. Bu esa ajratilgan kameralarning asosiy afzalligidir.

**Yonilg'i purkay boshlashni ilgarilash burchagi.** Har bir dvigatel uchun yonilg'i purkay boshlashning maqbul ilgarilash burchagi bo'lib, u tajribalar asosida tanlanadi. Bu burchak katta bo'lsa, alanganishning kechikish davri ortadi, chunki u davrda silindrda yonuvchi aralashmaning harorati va bosimi past bo'ladi. Natijada yonishning asosiy-tez yonish fazasi boshlanguncha silindr ichida ko'p miqdorda yonilg'i bug'lanadi va birdaniga alanganadi, bu esa yonish jarayonining shiddatli o'tishiga olib keladi. Bundan tashqari, eng yuqori bosimga porshen yu.ch.n.ga kelganda erishiladi. Bunday sharoitda yonish jarayoni samarali bo'lmaydi.

Ilgarilash burchagi kichik bo'lsa, yonish jarayonining asosiy qismi kengayish davrida sodir bo'ladi, natijada yonishning umumiyligi davri uzayib ketadi. Oqibatda kengayish jarayonida ko'p issiqlik yo'qotilganligi sababli dizelning quvvati, tejamliligi keskin yomonlashadi, porshen, silindr kallagi va silindrning o'zi qizib ketadi, ishlatilgan gazlarning harorati esa keskin ortadi. Shu sababdan eng qulay ilgarilash burchagi har bir dvigatel uchun tajriba yo'li bilan tanlanadi. U yonish kamerasining turiga, siqish darajasiga, yonilg'inining naviga, yonilg'i uzatuvchi apparatlarning ishlashiga va tirsakli valning aylanishlar chastotasiga bog'liq. Dvigatel maqbui ilgarilash burchaklarda ishlaganda eng katta bosimga porshen yu.ch.n.dan  $8\ldots 12^{\circ}$  o'tgandan keyin erishadi va eng katta quvvat hamda tejamkorlik ta'minlanadi.

**Yuklama va ish aralashmasining tarkibi.** Dizellarning karbyuratorli dvigatellarga nisbatan afzalliklaridan biri shuki, unda ish aralashmasi yonish kamerasining hajmi bo'ylab notejis taqsimlanishi tufayli, yonish jarayoni havo ortqlik koeffitsiyentining katta qiymatlarida ( $\alpha = 5\ldots 6$ ) ham sodir bo'ladi. Ammo dizellarda

havoning ortiqlik koeffitsiyentining o'rtacha qiymati birga yaqin bo'lgan ( $\alpha = 1$ )da yonilg'i to'la yonmaydi. Bu holda yonish jarayoni keskin yomonlashadi, ishlatalgan gazlardagi tutun miqdori ko'payadi, dvigatearning tejamliligi keskin pasayadi va qizib ketadi. Dizel eng katta quvvatga  $\alpha$  ning eng kichik qiymatlarda erishadi.  $\alpha$  ning eng kichik qiymati bir qator omillarga bog'liq bo'lib, to'rt taktli avtomobil dizellarida 1,25...1,4 ga teng va u tutun chiqarib ishlash chegarasi bilan belgilanadi.

Purkalayotgan yonilg'i miqdorini o'zgartirish bilan dizeillarning yuklamasi o'zgartiriladi. Yuklama kamayganda havoning ortiqlik koeffitsiyenti ortadi, chunki yonish kamerasiga kam yonilg'i purkaladi. Dizellarda issiqlikdan foydalanishni yaxshilash va indikator foydali ish koeffitsiyentini oshirish uchun yuklama kamayganda ( $n=const$ ) ilgarilash burchagini ozroq kamaytirish kerak. Bu vazifani nasos plunjeri orqali amalga oshiriladi. Bunda yonilg'i yuqori haroratli zaryadga purkaladi va alangalanishning kechikish davri qisqaradi. Natijada yonish jarayoni yu.ch.n. atrofida tugaydi.

**Aylanishlar chastotasi.** Dizellarda aylanishlar chastotasi o'zgarishi bilan yonish jarayonining davom etish vaqtiga o'zgarmay qolishi katta ahamiyatga ega. Bu masala hal qilinganligi sababli hozirgi vaqtida to'rt taktli avtomobil dizellarining aylanishlar chastotasi 4500...5000 min<sup>-1</sup> ga yetkazildi. Demak, yonish jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, aylanishlar chastotasi ortganda yonishning ikkala fazasi ( $\theta_1$  va  $\theta_{11}$ ) imkonli boricha kamayishi kerak. Dizellarda aylanishlar chastotasi ortsiga, yonish va yonilg'i aralashmasini tayyorlash jarayonlari birmuncha tezlashadi. Masalan, alangalanishning kechikish davri  $\theta_2$  kamayadi, bunga yonish kamerasidagi havo uyurma harakatining kuchayishi va yonilg'i purkash bosimining ortishi sabab bo'ladi. Aksincha, aylanishlar chastotasi ortishi bilan kiritish bosimi  $p_a$  kamayadi va siqish jarayonida

issiqlik almashinish sharoiti o'zgarganligi tufayli siqish oxiridagi bosim va harorat ham bir oz pasayadi. Yuqoridagi barcha omillarning birgalikda ta'siri natijasida yonish jarayonining umumiy davom etish vaqtি qisqaradi. Shu sababli aylanishlar chastotasi ortsa, yonish jarayonining yu.ch.n. yaqinida o'tishi hamda issiqlikdan unumli foydalanih uchun yonilg'i purkay boshlashni ilgarilash burchagini kattalashtirish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun yonilg'i nasosining valiga purkash burchagini ilgarilash mustasi o'rnatiladi.

## **5.5. SIKLNING MAKSIMAL HARORATI VA BOSIMINI ANIQLASH**

**Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatelda  
siklning maksimal haroratini aniqlash**

Karbyuratorli dvigatellarda hisoblashni osonlashtirish maqsadida siklning yonish jarayoni eng katta bosimgacha. ya'ni S-Z nuqtalari orasida o'zgarmas hajmda boradi (5.9-rasm), deb qabul qilinadi. Lekin bu davrda yonilg'i to'la yonib tugamaydi va issiqliknинг bir qismi yonish kamerasining devorlari orqali sovituvchi muhitga uzatiladi hamda yonish mahsulotlarining parchalanishiga sarf bo'ladi. Yonish kamerasining devorlari orqali yo'qotiladigan issiqlik miqdoriga yonish kamerasining shakli katta ta'sir ko'rsatadi. Yuzaning hajmga nisbati kichik bo'lgan yonish kamerasida issiqlik kam yo'qoladi. Shu sababdan yarim sfera. gumbazsimon kameralar qulay bo'lib, bunda klapanlar yuqorida joylashganligi tufayli ular yuzasining hajmiga nisbati kichik bo'ladi.

Karbyuratorli dvigatellarda siklning maksimal harorati  $2400^{\circ}\text{S}$  gacha yetib, yonish mahsulotlarining ma'lum bir qismi molekulalarning ajralib qolishi natijasida elementlarga parchalanadi. Dissotsiyalanish vaqtida molekulalarning parchalanishi uchun issiqlik sarf bo'ladi. Masalan, suv bug'i ( $\text{H}_2\text{O}$ ) vodorod va kislorodga parchalanganda issiqlik

yutiladi. Ammo kengayishda harorat pasayadi issiqlik ajralib chiqadigan teskari jarayon kuzatiladi. Lekin bu, yutilgan issiqliknini qoplay olmaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda 1 kg yonilg'ining yonishi uchun quyidagi ifodani yozish mumkin:

$$H_u' = H_u - (Q_{a.g.} + Q_{s.m.})$$

bu yerda  $Q_{a.g.}$  - yonilg'ining CZ uchastkada yonib tugallanmaganligi sababli ajralmay qolgan issiqlik miqdori;  $Q_{s.m.}$  - yonish jarayonida sovitish muhitiga uzatilgan va parchalanishga ketgan umumiy issiqlik miqdori. Demak, yonilg'i bergen issiqlik miqdori  $H_u$  dan to'la foydalanimaydi va uning bir qismi isrof bo'ladi. Shu sababdan yonish issiqliklarining nisbatini  $\frac{H_u'}{H_u} = \xi$  deb belgilaymiz va bu nisbatni siklda issiqlikdan foydalanish koeffitsiyenti deb ataymiz.

Gazlarning Z nuqtadagi haroratini aniqlash uchun CZ uchastkada ajralib chiqqan issiqlikning hammasi yonish mahsulotlarining ichki energiyasini oshirish uchun sarf bo'ladi, deb faraz qilinadi.

Termodynamikaning birinchi qonuniga muvofiq, quyidagi ifodani yozish mumknn:

$$H_u' = \xi H_u = U_z - U_c.$$

Agar yonish jarayonida kislrorod yetishmasa, ya'ni  $\alpha < 1$  bolsa, yonilg'ining chala yonishi tufayli issiqlikning bir qismi ajralib chiqmaydi. Ajralib chiqmagan issiqlik miqdori quyidagi ifoda orqali topiladi.

$$\Delta H_u = 119852(1-\alpha) L_0 \xi, \text{ kJ/kg.}$$

Natijada tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\xi(H_u - \Delta H_u) = U_z - U_c.$$

Yonish jarayoni oxirida Z nuqtadagi gazlarning ichki energiyasi:

$$U_z = \mu C_v (M_2 + M_r) \cdot T_z;$$

siqish jarayoni oxirida  $S$  nuqtadagi ish aralashmasining ichki energiyasi:

$$U_c = \mu C_v (M_1 + M_r) \cdot T_c \text{ bo'ldi,}$$

bu yerda  $\mu C_v$ ,  $\mu C_r$ - yonish mahsulotlarining va ish aralashmasining o'zgarmas hajmdagi issiqlik sig'imi, mol.

Qoldiq gatlarning miqdori havoning miqdoriga nisbatan kam bo'lgani uchun  $\mu C_v = \mu C_r$  deb qabul qilinadi. bu holda yuqoridagi tenglama quyidagi ko'rinishni oladi:

$$\xi(H_u - \Delta H_u) = \mu C_v (M_2 + M_r) \cdot T_z - \mu C_v (M_1 + M_r) \cdot T_c.$$

Tenglamaning ikkala qismini  $M_1 + M_r = M_1(1 + \gamma_{qot})$  ga bo'lamiz,  $\mu C_v T_c$ , esa  $\mu C_v T_z$  larni ichki energiya orqali ifodalab, karbyuratorli dvigatel uchun yonish jarayonining tenglamasini hosil qilamiz:

$$\frac{\xi(H_u - \Delta H_u)}{M_1(1 + \gamma_{qot})} + \frac{U_c + \gamma_{qot} \cdot U_c}{1 + \gamma_{qot}} = \frac{(M_2 + M_r)}{(M_1 + M_r)} U_z = \mu U_z$$

$$\frac{M_2 + M_r}{M_1 + M_r} = \mu \quad \text{deb belgilaymiz va u molekulyar}$$

o'zgarishning haqiqiy koeffitsiyenti deb ataladi. Bu koeffitsiyent yonish natijasida gazlar molekulalari sonining oshishini, ya'ni hajm o'zgarishini xarakterlaydi.

Karbyuratorli dvigatellar uchun  $\mu = 1,03 \dots 1,08$ ; dizellar uchun esa  $\mu = 1,03 \dots 1,06$ .  $\alpha = 1$  bo'lganda  $\Delta H = 0$  bo'ldi.

Siklining maksimal harorati  $T=2500 \dots 2800$  K, shuning uchun hisoblashlarda issiqlik sig'iming haroratga bog'liqligi e'tiborga olinadi. Lekin hisoblarni soddallashtirish maqsadida yonish mahsulotlarining va turli gazlar, havoning ichki energiyasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### Dizel siklining maksimal haroratini aniqlash

Dizel siklining  $Z$  nuqtadagi  $T_z$  haroratini hisoblashda yonish avval ( $cz'$  uchastkada) o'zgarmas hajmda, keyin esa

(zz' uchastkada) o'zgarmas bosimda ro'y beradi deb faraz qilinadi (5.19-rasm). Dizellarda havoning ortiqlik koeffitsiyenti  $\alpha > 1$  bo'lgani uchun yonish jarayonida hamma vaqt havo ortiq bo'ladi. Dizel sikli uchun termodinamikaning birinchi qonuni quyidagi ko'rinishga ega:

$$\xi H_u = U_z - U_c + L_{zz'}.$$

Dizelda yonish jarayonining tenglamasi:

$$\xi H_u = (M_2 + M_r)U_z - (M_1 + M_r)U_c + 8314[(M_2 + M_r)T_z - \lambda(M_1 + M_r)]$$

Tenglamaning hamma hadlarini  $M_1 + M_r = M_1(1 + \gamma_{qol})$  ga bo'lib  $\frac{M_2 + M_r}{M_1 + M_r} = \mu$  ekanligini hisobga olib va ma'lum qiymatlarni chap tomonga o'tkazib quyidagini olamiz:

$$\frac{\xi H_u}{M_1(1 + \gamma_{qol})} + \frac{U_c + \gamma_{qol} \cdot U_c}{1 + \gamma_{qol}} + 8314\lambda T_z = \mu[U_z + 8314T_z].$$

Dizel uchun bosimning yonishdagi ko'tarilish darajasi:  $\lambda = \frac{P_z}{P_c} = 1,4 - 2,2$  bo'ladi.  $\lambda$  ning katta qiymati ajratilmagan, kichik qiymati esa ajratilgan yonish kamerali dizellar uchun olinadi.

### **Yonish jarayonining eng katta bosimini aniqlash**

Karbyuratorli dvigatel uchun siklning maksimal bosimi quyidagicha aniqlanadi  $P_z = \mu P_c \cdot T_z / T_c$ .

Siklning haqiqiy maksimal bosimi tajriba natijalariga ko'ra quyidagicha topiladi:

$$P_z \approx 0,85 P_c.$$

Dizel uchun siklning eng katta bosimi quyidagicha topiladi:  $P_z = \lambda P_c$ . Dastlabki kengayish darajasi  $\rho = \frac{\mu}{\lambda} \cdot \frac{T_z}{T_c}$  bo'ladi. Quyidagi jadvalda har xil dvigatellar uchun yonish jarayonining ko'rsatkichlari keltirilgan.

### 5.3-jadval

Parametrlar	Dizel		Karbyuratorli dvigatel	Gaz apparatli dvigatel
	Ajratilmagan kamerali	Ajratilgan kamerali		
$T_z, K$	1800 - 2200	1700 - 2000	2500 - 2850	2200 - 2500
$p_z, MPa$	7,5 - 12,5	5,5 - 7,5	3,0 - 5,0	2,5 - 4,5
$\lambda$	1,7 - 2,1	1,4 - 1,7	3,8 - 4,2	3,5 - 4,0
$\rho$	1,4 - 1,8	1,3 - 1,7	1	
$\xi_z$	0,7 - 0,82	0,6 - 0,75	0,8 - 0,9	0,80 - 0,85
$\alpha$	1,2 - 1,5	1,2 - 1,3	0,8 - 0,9	0,95 - 1,1
$(dp/d\varphi)_{max}$ , MPa/grad	1,2 gacha	0,25 - 0,4	0,15 - 0,25	0,2 - 0,3

### 5.6. KENGAYISH JARAYONI

Ichki yonuv dvigatellarida yongan ish aralashmasining kengayishi natijasida issiqlik energiyasi mexanik energiyaga aylanib, foydali ish bajariladi. Haqiqiy siklda yonish mahsulotlari yuqori haroratda kengaygani uchun issiqliknинг bir qismi tashqi muhitga silindrning kallagi, devorlari va porshenning tubi orqali uzatiladi. Natijada yonish mahsulotlarining harorati pasayadi. Yonish jarayonini z nuqtada tugallashning iloji bo'limgani uchun kengayish jarayonida ham issiqlik ajralishi davom etadi. Demak, kengayish jarayonida issiqlik almashinuvi murakkab xususiyatga ega bo'lib, bu jarayonning o'zgaruvchan politropa ko'rsatkichini aniqlash qiyin. Lekin hisoblarни soddalashtirish maqsadida kengayish jarayoni politropaning o'rtacha  $n_2$  ko'rsatkichi bo'yicha sodir bo'ladi deb qabul qilinadi. U holda kengayish jarayoni z nuqtadan (5.21-rasm) boshlanadi deb faraz qilib, politropa tenglamasi bo'yicha kengayish oxiridagi ( $b$  nuqta) bosim va haroratni quyidagicha aniqlaymiz:

$$P_b = P_z \left( \frac{V_z}{V_b} \right)^{n_2}.$$


Dizel uchun  $Z$  nuqta yu.ch.n.ga nisbatan zo'z masofaga surilgan bo'ladi. Shu sababli  $V_z/V_b = \delta$  ni so'nggi kengayish

darajasi deyiladi. Bu holda dizellar uchun kengayish oxiridagi bosim quyidagicha aniqlanadi:

$$p_b = p_z \frac{1}{\delta^{n_2}}.$$

Karbyuratorli dvigatellarda  $\frac{V_a}{V_z} = \frac{V_a}{V_c} = \varepsilon = \delta$  bo'lgani


uchun  $p_b = \frac{p_z}{\varepsilon^{n_2}}$ .



5.21-rasm. Kengayish jarayonining diagrammasi

Dizellar uchun kengayish jarayoni oxiridagi harorat:

$$T_b = \frac{T_z}{\delta^{n_2-1}}.$$



5.22-rasm. n<sub>2</sub> ning aylanishlar chastotasiga bog'liqligi (YAMZ - 238 dizeli)

Karbyuratorli dvigatellar uchun esa

$$T_b = \frac{T_z}{\varepsilon^{n_2-1}};$$

bu yerda n<sub>2</sub>-politropaning o'rtacha ko'rsatkichi va u tajriba asosida tanlanadi. 5.22-rasmda n<sub>2</sub> ning qiymati YAMZ-238 dizeli uchun ko'rsatilgan. Dvigatellar uchun kengayish oxiridagi bosim va haroratning hamda n<sub>2</sub> qiymatlari 5.4-jadvalda keltirilgan.

*5.4-jadval*

Dvigatel turlari	$n_2$	$T_b, K$	$p_b, MPa$
Dizel	1,18...1,23	800...1300	0,25...0,6
Karbyuratorli dvigatel	1,23...1,30	1400...1700	0,4...0,6


Kengayish jarayonidan so'ng chiqarish jarayoni sodir bo'ladi. Chiqarish klapani ochilishi bilan ishlatilgan gazlar dvigatel silindridan katta tezlikda chiqa boshlaydi va natijada, qattiq shovqin hosil bo'ladi. Shovqinni kamaytirish uchun chiqarish quvurlariga shovqin so'ndirgich o'rnatiladi. Ishlatilgan gazlar so'ndirgichdan o'tayotganda kengayib, o'z tezligini ancha yo'qotadi va tashqi muhitga shovqinsiz chiqadi. Chiqarish tizimiga shovqin so'ndirgich o'rnatilganda, uning qarshiligi bir oz ortib, chiqarish davrida silindr ichidagi bosim ( $p_r$ ) ko'tariladi. Natijada silindrda koldiq gazlarning miqdori ortib, to'ldirish koeffitsiyenti kamayadi. Bu esa dvigatel quvvatining bir oz pasayishiga olib keladi. Chiqarish quvurlariga shovqin so'ndirgich o'rnatilganda dvigatel ortiqcha quvvat sarflamaydi.

## VI BOB. SIKLNING O'RTACHA BOSIMI, DVIGATELNING QUVVATI VA TEJAMLILIGI

### 6.1. SIKLNING O'RTACHA INDIKATOR BOSIMI

#### Karbyuratorli dvigatel

To'rt taktli karbyuratorli dvigatelning bajargan ishi haqiqiy siklning indikator diagrammasidagi  $a_1fkz_1b_1a_1$  yuza bilan aniqlanadi (6.1-rasm, a).



6.1-rasm. Karbyuratorli  
dvigatelning haqiqiy va  
hisoblangan indikator  
diagrammalari

Dvigatelning haqiqiy indikator diagrammasi yozib olinmagan bo'lsa, u siklning indikator ishi  $L_{ik}$  ni hisoblash yo'lli bilan qurilgan qirrali diagrammadagi  $aczba$  yuza orqali aniqlanadi. Bu holda siklning  $L_i$  indikator ishi kengayishda bajarilgan  $L_{zb}$  ish bilan siqishda bajarilgan  $L_{ac}$  ishning ayirmasiga teng bo'ladi, ya'ni:

$$L_{ik} = L_{zb} \cdot L_{ac}.$$

Kengayish jarayonida bajarilgan ish quyi dagicha aniqlanadi:

$$L_{zb} = \frac{\lambda p_c V_c}{n_2 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\varepsilon^{n_2-1}} \right);$$

bu yerda  $\lambda p_c = p_z$  va

$$\frac{V_z}{V_h} = \frac{1}{\varepsilon}.$$

Siqish jarayonida bajarilgan ish esa:

$$L_{ac} = \frac{p_c V_c}{n_1 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\varepsilon^{n_1-1}} \right) \text{ bo'ladi,}$$


bu yerda  $\frac{V_c}{V_a} = \frac{1}{\varepsilon}$ .

U holda siklning hisoblangan indikator ishi:

$$L_{ih} = p_c V_c \left[ \frac{\lambda}{n_2 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\varepsilon^{n_2-1}} \right) - \frac{1}{n_1 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\varepsilon^{n_1-1}} \right) \right] \text{ bo'ladi.}$$

Silindrning  $V_h$  ish hajmi birligiga to'g'ri keladigan qirrali diagrammaning solishtirma ishi o'rtacha indikator bosim deb ataladi va quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$p_{ih} = \frac{L_{ih}}{V_h}, \text{ Nm/m}^3 \text{ yoki } p_{ih} = \frac{L_{ih}}{V_h} \cdot 10^{-6}, \text{ MPa.}$$



6.2-rasm. Haqiqiy siklning indikator bosimini aniqlash

Agar karbyuratorli dvigatearning indikator diagrammasi yozib olingan bo'lsa, siklning o'rtacha indikator bosimi  $p_i$  quyidagicha topiladi (6.2-rasm):

$$p_i = \frac{L_i}{V_h}.$$

Siklning o'rtacha indikator bosimi shartli doimiy ta'sir ko'rsatuvchi ortiqcha bosimni ifodalaydi. Bunday bosimda porshen bir marta o'z yo'lini bosib o'tganda, gazlarning bajargan ishi siklning indikator ishiga teng.

O‘rtacha indikator bosimni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$p_{ih} = p_a \frac{\varepsilon^n}{\varepsilon - 1} \left[ \frac{\lambda}{n_2 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\varepsilon^{n_2-1}} \right) - \frac{1}{n_1 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\varepsilon^{n_1-1}} \right) \right].$$

### Dizel

Dizel uchun haqiqiy ( $a_1c_1c_2z_2lb_1a_1$ ) va hisoblash yo‘li bilan qurilgan indikator diagrammalar ( $a c z' z b a$ ) 6.3-rasmda ko‘rsatilgan. Siklning hisoblangan indikator ishi quyidagicha aniqlanadi:

$$L_{ih} = L_{z'z} + L_{zb} - L_{ac}.$$

Bu yerda birlamchi kengayishda bajarilgan ish:

$$L_{z'z} = p_c V_z - p_r V_z = \lambda p_c V_c (\rho - 1) \text{ bo‘ladi}$$

So‘nggi kengayishda bajarilgan ish esa:

$$L_{zb} = p_c V_c \frac{\lambda \rho}{n_2 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\delta^{n_2-1}} \right).$$

Dizel va karbyuratorli dvigatellarning sikllaridagi siqish jarayoni o‘zaro farq qilmagani uchun siqish jarayonida bajarilgan ish ham karbyuratorli dvigateldagidek aniqlanadi. ya‘ni:

$$L_{ac} = \frac{p_c V_c}{n_1 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\varepsilon^{n_1-1}} \right).$$

Bu holda dizel uchun hisoblangan o‘rtacha indikator bosim quyidagicha bo‘ladi:


$$p_{ih} = p_a \frac{\varepsilon^n}{\varepsilon - 1} \left[ \lambda(\rho - 1) + \frac{\lambda \rho}{n_2 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\delta^{n_2-1}} \right) - \frac{1}{n_1 - 1} \left( 1 - \frac{1}{\varepsilon^{n_1-1}} \right) \right].$$

### Yozib olin gan diagramma bo‘yicha o‘rtacha indikator bosimni aniqlash

Haqiqiy siklning indikator diagrammasi bosim indikatori yordamida fotoqog‘ozga yozib olinadi. Bu diagramma bo‘yicha planimetrik orqali aniqlangan indikator ish  $L_i$  hisoblab topilgan  $L_{ih}$  ishdan bir oz kichik bo‘ladi,


ya'ni  $X$  shaklida shtrixlangan yuzaga mos keladigan ish miqdoriga kichikdir (6.1, 6.3-rasmlar). Demak  $L_i = \varphi_T L_{ih}$  bo'ladi, bu yerda  $\varphi_T$  diagrammaning to'lalik koefitsiyenti. To'rt taktli dvigatellar uchun  $\varphi_T = 0,92...0,97$ , kichik qiymati dizellar uchun, katta qiymati esa karbyuratorli dvigatellar uchun olinadi. To'rt taktli dvigatelning haqiqiy sikli uchun o'rtacha indikator bosimni indikator ish kabi aniqlash mumkin:

$$P_i = \varphi_T \cdot P_{ih}.$$



**6.3-rasm. Dizelning haqiqiy va hisoblangan indikator diagrammalari**

Nadduv siz to'rt taktli dvigatellarda gaz almashuviga  $b_1, r_{ab_1}$  yuzaga teng  $L_{gas}$  ish sarflanadi (6.4-rasm). Gaz almashuv jarayonining o'rtacha bosimi quyidagicha hisoblanadi:



**6.4-rasm. To'rt takili dvigatelda gaz almashishga sarf bo'ladigan ish**

**6. I-jadval**

Dvigatel turлari	p <sub>i</sub> MPa
Karbyuratorli dvigatellar	0,8...1,2
Gaz apparaturali dvigatellar	0,5...0,7
Dizellar (nadduvsiz)	0,75...1,05
Nadduvli dizellar	1,2 va yuqori

Nadduv bo'limganda  $p_{\text{gaz}}$  ning qiymatini quyidagi ifodadan taxminiy hisoblash mumkin:

$$p_{\text{gaz}} = p_r - p_a$$

Turli dvigatellarning o'rтacha indikator bosimi 6.1-jadvalda keltirilgan.

Bu qiymatlar dvigatel to'la yuklama bilan ishlaganda olingan.

Dvigatellarda yuklama kamayishi bilan o'rтacha indikator bosim  $p_i$  ham kamayadi va uning eng kichik qiymati dvigatelning salt ishlashiga to'g'ri keladi. Bu holda yonishdan hosil bo'lgan indikator bosim ishqalanishga, gaz almashuviga va yordamchi mexanizmlarni harakatga keltirishga sarf bo'ladi, ya'ni  $p_i = p_m$  bo'ladi.

## 6.2. DVIGATELNING INDIKATOR QUVVATI

Indikator quvvat deb, vaqt birligida bajarilgan indikator ishga aytildi. Yuqoridagi ifodalarga binoan, dvigatelning bir silindrida, bir sikl davomida bajarilgan indikator ish quyidagicha aniqlanadi:

$$L_i = p_i V_h.$$

Dvigatelda bir sekund davomida bajariladigan ish sikllarining soni  $\frac{2n}{\tau}$  ga teng.

Bir silindrda olinadigan indikator quvvat quyidagiga teng:

$$N_{is} = \frac{2n}{\tau} p_i V_h, \text{ Vt.}$$

*i* ta silindrga ega bo'lgan dvigatelning indikator quvvati

$$N_i = \frac{2n}{\tau} p_i V_h i, \text{ Vt,}$$

bu yerda  $2n$  - porshenning bir sekunddag'i yurish soni;  $\tau$  - dvigatel taktlari soni;  $p_i$  - o'rtacha indikator bosim,  $\text{N/m}^2$ ;  $V_h$  - silindrning ish hajmi,  $\text{m}^3$ ;  $\frac{2n}{\tau}$  - tirsakli valning bir sekunddag'i aylanishlar chastotasi.

Indikator quvvat  $|kVt|$  larda quyidagicha ifodalanadi:

$$N_i = \frac{p_i V_h n i}{30 \tau},$$

bu yerda  $p_i$  - bar,  $V_h$  - litr;  $n$  -  $\text{min}^{-1}$  hisobida berilgan.

## 6.3. DVIGATELDA MEXANIK YO'QOTISHLAR

Silindrda hosil bo'ladigan indikator ishning hammasi foydali ishga aylanmaydi, uning bir qismi dvigatelning juft detallaridagi ishqalanishga, gaz almashtuv jarayonini bajarishga va yordamchi mexanizmlarni harakatga

keltirishga sarflanadi. Ishqalanish «silindr - porshen halqlari», «tirsakli val - podshipniklar», «taqsimlash vali - podshipniklar» va boshqa justlar orasida hosil bo'ldi.

Mexanik yo'qotishlar quvvati isrof bo'lgan barcha quvvatlar yig'indisiga teng, ya'ni:

$$N_m = N_{ishq} + N_{yo.m} + N_{gaz},$$

bu yerda:  $N_{ishq}$  - ishqalanishga sarflanadigan quvvat;  $N_{yo.m}$  - yordamchi mexanizmlar (suv va moy nasoslari, havohaydagich, generator) ni harakatlantirishga sarflanadigan quvvat;  $N_{gaz}$  - yangi zaryadni kiritishga va ishlataligan gazlarni chiqarishga sarflanadigan quvvat.

Ikki va to'rt taktli nadduvli dvigatellarda kompressorni harakatga keltirish uchun qo'shimcha quvvat sarflanadi.

Bu holda:  $N_m = M_{ishq} + N_{yo.m} + N_{gaz} + N_k$  bo'ldi, bu yerda  $N_k$  - kompressorni harakatga keltirish uchun sarflanadigan quvvat, bu quvvat dvigatelning tirsakli vali kompressor bilan mexanik tarzda bog'liq bo'lsa, hisobga olinadi.

Mexanik yo'qotishlar quvvati  $N_m$  ni quyidagi ifoda yordamida aniqlash mumkin:

$$N_m = \frac{P_m V_h m}{30 \tau},$$

bu yerda  $p_m$  - mexanik yo'qotishlarning o'rtacha bosimi, bar.


Mexanik yo'qotishlarning o'rtacha bosimini mexanik yo'qotishlar quvvati kabi quyidagicha ifodalash mumkin:

$$P_m = P_{ishq} + P_{yo.m} + P_{gaz} + P_k.$$

$P_{ishq}$ ,  $P_{yo.m}$ ,  $P_{gaz}$ ,  $P_k$  - ishqalanishga, yordamchi mexanizmlarni harakatga keltirishga, gazlar almashuviga va kompressorni harakatga keltirishga sarflanadigan o'rtacha indikator bosimning ulushlari.

To'rt taktli nadduvsiz dvigatellarda mexanik yo'qotishlarning 70% asosan, juftlar orasidagi ishqalanish larga sarf bo'ldi. Mexanik yo'qotishlar quvvati dvigatelning turi, silindr diametri, porshen yo'li, tezlik, yuklama va ish sharoitlariga bog'liq. Bir qator dvigatellar

mexanik yo‘qotishlar o‘rtacha bosimining aylanishlar chastotasiga bog‘liqlik grafiklari 6.5-rasmda keltirilgan. Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, bir xil aylanishlar chastotasi  $n$  da, dizellarda  $p_m$  karbyuratorli dvigatellarga nisbatan katta. Bundan tashqari, yuk avtomobilari dvigatellaridagi  $p_m$  yengil avtomobillar dvigatellaridagiga nisbatan katta bo‘ladi.



6.5-rasm. Mexanik yo‘qotishlar o‘rtacha bosimi  $p_m$  ning aylanishlar chastotasiga bog‘liqligi:

1-YAMZ-238 dizeli; 2-YAMZ-740 dizeli; 3-ZIL-130 dvigateli; 4-Moskvich-412 dvigateli

To‘rt taktili kompressorsiz dvigatellar uchun mexanik yo‘qotishlarning o‘rtacha bosimini quyidagi empirik formula orqali aniqlash mumkin:

$$p_m = a + b v_p,$$

bu yerda  $a$  va  $b$  dvigatelning turiga bog‘liq bo‘lgan o‘zgarmas koeffitsiyentlar bo‘lib, ularning qiymatlari 6.2-jadvalda keltirilgan.  $v_p$  - porshenning o‘rtacha harakatlanish tezligi, m/s.

Dizellarda  $p_m$  yonish kamerasining turiga ham bog‘liq. Ajratilgan yonish kamerali dizellarda qarshiliklar katta bo‘lgani uchun  $p_m$  ham katta bo‘ladi. Dizellarda yonilg‘i uzatish apparati ishqalanish juftlarining soni, dvigatelning texnik holati (silindrler blokida va kallagida qurum borligi, silindr qobirg‘alarida changning bo‘lishi), sovituvchi suv va moyning harorati ham mexanik yo‘qotishlarning o‘rtacha bosimiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli dvigatelning normal

ishlashi uchun talab qilinadigan sovituvchi suv va moy harorati texnik shartlarda ko'rsatiladi.

**6.2-jadval**

Dvigatel turi	a	b
Karbyuratorli dvigatel		
S/D>1	0,50	0,155
S/D<1	0,40	0,135
Dizel		
a) ajratilmagan yonish kamerali	1,05	0,12
b) ajratilgan yonish kamerali	1,05	0,138

#### **6.4. EFFEKTIV QUVVAT VA MEXANIK F.I.K.**

Dvigatelning effektiv quvvati  $N_e$  deb, tirsakli valdan olinadigan va ish mashinasiga (avtomobil, traktor) ni harakatga keltirish uchun sarflanadigan quvvatga aytildi.

Agar indikator quvvat va mexanik yo'qotishlarga sarflanadigan quvvat ma'lum bo'lsa, effektiv quvvat quyidagicha hisoblanadi:

$$N_e = N_i - N_m,$$

yoki o'rtacha effektiv bosim:  $p_e = p_i - p_m$ .


Agar  $p_e$  ma'lum bo'lsa, effektiv quvvat quyidagi formula yordamida topiladi:

$$N_e = \frac{p_e \cdot V_h \cdot n \cdot i}{30\tau}, \text{ kVt}.$$

$p_e$  - effektiv bosim, silindrning hajm birligiga to'g'ri keladigan siklning ishini ifodalaydi, u o'zgarmas bo'lib, bunda porshenning bir yo'lida gazlar bajargan ish siklda bajarilgan effektiv ishga teng bo'ladi. Agar indikator quvvat va bosim hamda effektiv quvvat va bosim ma'lum bo'lsa, mexanik F.I.K. quyidagicha aniqlanadi;

$$\eta_m = \frac{N_e}{N_i} \text{ eku } \eta_m = \frac{p_e}{p_i}.$$

Mexonik F.I.K. dvigatel yuklamasiga bog'liq bo'lib, yuklama oshgan sari  $\eta_m$  ning qiymati kattalashadi, chunki issiqlikning ko'p qismi effektiv ishga aylanadi. Ushbu bog'lanish 6.6-rasmida ko'rsatilgan.  $p_e$  bosim dvigatela berilgan yuklamani ko'rsatadi. Yuqorida aytganimizdek, dvigatel salt ishlaganda  $P = P_m$  va  $N_e = p_e \cdot \eta_e = 0$  bo'ladi. Yuklama oshgan sari mexonik F.I.K. kattalashib, dvigateling to'liq yuklamasida o'zining eng katta qiymatiga erishadi.



6.6-rasm. Mexonik F.I.K. ( $\eta_m$ ) ning yuklamaga bog'liqligi

Effektiv quvvat va mexonik yo'qotishlar dvigateli tormozlash stendida sinash yo'li bilan aniqlanadi, so'ngra mexonik F.I.K. topiladi.

6.3-jadvalda nominal rejimda ishlayotgan turli dvigatellar uchun o'rtacha effektiv bosim va mexonik F.I.K.ning qiymatlari keltirilgan.

6.3-jadval

Dvigatel turi	$\eta_m$	$p_e$ , MPa
Karbüratorli dvigatellar	0,7 ... 0,85	0,75 ... 0,95
Dizellar (nadduvlsiz)	0,7 ... 0,82	0,6 ... 0,85
Nadduvli dizellar	0,8 ... 0,9	1,0 va yuqori

## 6.5. YONILG'I SARFI VA F.I.K.

Barcha turdag'i dvigatellarning afzalliklari yonilg'inining solishtirma sarfi bilan taqqoslanadi. Shu sababli dvigatel sifatini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri quvvat yoki tezlik birliklariga to'g'ri keladigan yonilg'i sarfi yoxud uning

tejamliligidir. Yonilg'ining sarfi yoki tejamliligi dvigatelni stendda sinash vaqtida ma'lum vaqt oralig'ida sarf bo'lgan yonilg'i miqdori bilan o'chanadi.

Dvigatelni sinash ma'lum tezlik yoki yuklama rejimlarida olib boriladi (ya'ni  $p_e = const$  yoki  $n = const$ ). O'chanishlar natijasida bir soat mobaynida sarf bo'lgan yonilg'i miqdori  $G_{yo}$  topiladi.

$$G_{yo} = \frac{\Delta q}{\tau} \cdot 3,6, \text{ kg/soat};$$

bu yerda  $\Delta q$  - o'chanayotgan yonilg'i miqdori, g;  $\tau$  - sarf vaqtisi, s.

Dvigatelning tejamliligi yonilg'ining solishtirma sarfi bilan tavsiflanadi va u 1 kVt yoki 1 o.k. quvvatga bir soatda sarf bo'lgan yonilg'ining grammlardagi miqdori bilan belgilanadi. Yonilg'iniig solishtirma sarfini aniqlash uchun dvigatelning quvvati ma'lum bo'lishi shart. U holda yonilg'ining solishtirma indikator sarfi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$q_i = \frac{G_{yo}}{N_i} \cdot 10^3, \text{ g/(kVt·soat)}.$$

Yonilg'ining solishtirma effektiv sarfi:

$$q_e = \frac{G_{yo}}{N_e} \cdot 10^3, \text{ g/(kVt·soat)}.$$

Mexanik F.I.K. ma'lum bo'lsa,  $q_e$  ni quyidagi ifoda orqali ham topish mumkin:

$$q_e = \frac{q_i}{\eta_m}, \text{ g/(kVt·soat)}.$$

Haqiqiy sikllarda yonilg'ining yonishi natijasida ajralib chiqqan issiqlikdan foydalanish darajasi indikator F.I.K. orqali baholanadi va u yonilg'ining solishtirma indikator sarfi ma'lum bo'lsa, quyidagi ifoda orqali aniqlanadi;

$$\eta_i = \frac{3600}{H_u \cdot q_i},$$

bu yerda: 3600 kJ/kVt - ko'chirish koeffitsiyenti;  $H_u$  MJ/kg da  $q_i$  g/(kVt·soat) da ifodalangan.

Indikator F.I.K.  $\eta_i$ ning qiymati termik F.I.K.ning qiymatidan doimo kichik bo'ladi, chunki siklning nomukammalligi natijasida qo'shimcha yo'qotishlar hosil bo'ladi. Bu farq nisbiy F.I.K.  $\eta_n$  orqali ifodalanadi.

$$\eta_n = \frac{\eta_i}{\eta_e} < 1.$$

Bu ifodadan ko'rinish turibdiki, siklda issiqlikdan foydalanish qanchalik mukammal tashkil qilingan bo'lsa,  $\eta_n$  birga shunchalik yaqinlashadi, ya'ni haqiqiy sikl nazariy siklga yaqinlashadi. Bu jihatdan dizellar karbyuratorli dvigatellarga nisbatan birmuncha afzalliliklarga ega.

Effektiv ishga aylangan issiqlikning ulushi effektiv F.I.K. orqali belgilanadi. U ham yuqoridagi ifodalar kabi aniqlanadi:

$$\eta_e = \frac{3600}{H_u \cdot g_e}.$$

Agar  $\eta_i$  va  $\eta_n$  ma'lum bo'lsa,  $\eta_e$  quyidagicha hisoblanadi:

$$\eta_e = \eta_i \cdot \eta_n.$$

Nominal rejimda ishlayotganda avtomobil dvigatellari uchun yonilg'ining solishtirma sarfi, indikator va effektiv F.I.K. larning qiymati 6:4-jadvalda keltirilgan.

#### 6.4-jadval

Dvigatel turi	Yonilg'ining solishtirma sarfi			
	$g_i$ g/(kVt·soat)	$g_e$ g/(kVt·soat)	$\eta_i$	$\eta_e$
Karbyuratorli	245 - 300	330 - 325	0,28 - 0,35	0,25 - 0,29
Tezyurlar dizellar	175 - 205	220 - 240	0,42 - 0,48	0,35 - 0,40
Gaz bilan ishlaydigan	-	-	0,28 - 0,33	0,23 - 0,26

Siklda issiqlikdan samarali foydalanish uchun unga ta'sir qiluvchi omillarni bilib olish kerak. Faqat bu omillarga ta'sir qilibgina indikator F.I.K. ning qiymatini oshirish mumkin. Bu jihatdan, indikator F.I.K. ni topish uchun indikator diagrammadan foydalanish qulay, chunki bu holda diagramma orqali indikator ish  $L_i$  oson aniqlanadi. Demak, indikator ish ma'lum bo'lsa,  $\eta_i$  ni quyidagi ifoda orqali aniqlash mumkin:

$$\eta_i = \frac{L_i}{H_u}.$$

Indikator ishni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$L_i = P_i \cdot V_h.$$

Ish hajmi  $V_h$  ni xarakteristik tenglama orqali  $M_1$  mol yangi zaryad va atmosfera sharoiti  $p_0$  va  $T_0$  uchun quyidagicha aniqlaymiz:

$$V_h = 8314 \frac{M_1 T_0}{p_0 \eta_v}.$$

Bu holda  $L_i$  quyidagicha ko'rinishga keladi:

$$L_i = 8314 \frac{p_i}{p_0} \cdot \frac{M_1 T_0}{\eta_v}.$$

Demak, indikator F.I.K.

$$\eta_i = 8314 \frac{p_i}{p_0} \cdot \frac{M_1}{H_u} \cdot \frac{T_0}{\eta_v} \text{ bo'ladi.}$$

Dizel uchun  $M_1 = \alpha L_0 = \frac{\alpha l_0}{\mu_h}$  va  $\mu_h R = 8314$  ekanligini hisobga olsak, yuqoridagi ifoda quyidagicha yoziladi:

$$\eta_i = 8314 \frac{p_i \alpha \cdot l_0}{R \mu_h p_0 H_u \eta_v} = \frac{p_i \alpha \cdot l_0}{H_u \cdot \eta_v \cdot \rho_0}.$$

Agar  $p_i$  bar va  $H_u$  MJ/kg deb olinsa, tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\eta_i = \frac{\alpha l_0 p_i}{10 H_u \cdot \eta_v \cdot \rho_0}.$$

Indikator F.I.K. ma'lum bo'lsa, yonilg'ining solishtirma indikator sarfi quyidagicha aniqlanadi:

$$g_i = \frac{3600}{H_n \cdot \eta_i} \text{ yoki } g_i = \frac{3600 \rho_0 \eta_i}{\alpha l_0 \cdot p_i}, \text{ g/(kVt·soat)}.$$

Nadduvli dvigatel uchun  $p_0 = p_m$  bo'ladi. Yonilg'ining solishtirma effektiv sarfi  $g_e = \frac{g_i}{\eta_m}$  va o'rtacha effektiv bosimi  $p_e = p_i \eta_m$  ekanligini hisobga olib, yonilg'ining effektiv sarfi quyidagicha hisoblanadi:

$$g_e = 3600 \frac{\rho_0 \eta_i}{\alpha l_0 p_e}, \text{ g/(kVt·soat)}.$$

## 6.6. YONILG'INING SOLISHTIRMA SARFI VA DVIGATEL QUVVATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR


### Yonilg'ining solishtirma sarfiga ta'sir qiluvchi omillar

Yonilg'ining solishtirma sarfini aniqlash formulalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, u yangi zaryad zichligi  $\rho_0$  ga, uning miqdori  $\alpha l_0$  ga, to'ldirish koefitsiyenti  $\eta_i$  ga va o'rtacha effektiv  $p_e$  yoki indikator  $p_i$  bosimga bog'liqdir. Bu omillarning dvigatel tejamliliga ta'sirini alohida-alohida tekshirish ancha murakkab, chunki bir omil o'zgarishi bilan boshqalari ham o'zgaradi. Bu o'zgarishlar turli dvigatellarda har xil kechadi. Shu sababli bu omillar ta'sirini yuklamalar orqali tahlil qilish qulay.

6.7-rasmda karbyuratorli va uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellar asosiy ko'rsatkichlarining  $n = const$  bo'lgandagi yuklamaga qarab o'zgarish xususiyati ko'rsatilgan.

Dvigatel salt ishlaganda o'rtacha effektiv bosim  $p_e$  va F.I.K.  $\eta_e=0$  bo'ladi, chunki  $p_i = p_m$  ya'ni indikator ish ishqalanishga, gaz almashuviga va qo'shimcha mexanizmlami


harakatga keltirishga sarflanadi. Bundan tashqari, to'ldirish koefitsiyenti  $\eta_v$  eng kichik qiymatga ega bo'ladi. Drossel-to'smaqopqoq ochila boshlashi bilan to'ldirish koefitsiyenti ham o'sa boshlaydi va to'smaqopqoq to'la ochilganda o'zining eng katta qiymatiga erishadi. Bu vaqtida dvigatel eng katta yuklama bilan ishlaydi. demak, dvigateldan eng katta quvvatni olish uchun drossel-to'smaqopqoq to'la ochiq bo'lishi kerak. Yuklama kamayishi bilan qoldiq gazlar koefitsiyenti  $\gamma_{qol}$  ortadi hamda yonilg'ining yonish sharoiti yomonlashadi.



6.7-rasm. Karbyuratorli va uchqun hamda ulanga bilan o't oldiriladigan dvigatellar asosiy ko'rsatkichlarining yuklamaga qarab o'zarishi ( $n = \text{const}$ )

Drossel-to'smaqopqoq qiya yopilgan sharoitda yonuvchi aralashma yonishi uchun aralashmani quyuqlashtirish, ya'ni yonilg'ini ko'proq berish kerak, bu esa karbyuratorni maxsus usulda sozlash orqali amalga oshiriladi. 6.7-rasmdan ko'rinish turibdiki, dvigatel kichik yuklamalarda ishlaganda havoning ortiqlik koeffitsiyenti birdan kichik bo'ladi. Bu esa karbyuratorli dvigatellarning asosiy kamchiliklaridan biridir, chunki bunday sharoitda  $\eta_e$  kamayadi va  $g_e$  ortib ketadi. O'rta yuklamalarda havoning ortiqlik koeffitsiyenti birdan katta ( $\alpha > 1$ ) bo'ladi va dvigatel tejarnli ishlaydi. Agar yuklamani yana ham ko'paytirish kerak bo'lsa, drossel-to'smaqopqoqni kattaroq ochish kerak. Shu vaqtida ekonomayzer ishga tushadi, yonuvchi aralashma quyuqlashadi va dvigateldan eng katta qvvat olinadi, lekin tejamlilik bir oz yomonlashadi,  $\alpha$  esa pasayadi. Yuklama  $p_e$  oshishi bilan mexanik F.I.K. noldan maksimumgacha o'sadi. Effektiv F.I.K.  $\eta_e = \eta_{\text{e}} \cdot \eta_m$  esa dvigatel salt ishlaganda nolga teng bo'ladi, yuklama ortishi bilan u ham ortadi.  $\eta_e$  maksimal qiymatga  $p_{e1}$  da erishadi. Yuklamaning bundan keyingi oshirilishi yonilg'i issiqligidan chala foydalanishga olib keladi, bunda  $\eta_e$  pasayadi va natijada effektiv F.I.K.  $\eta_e$  ham pasayadi. Yonilg'inining solishtirma effektiv sarfi  $g_e$  effektiv F.I.K.  $\eta_e$  ga mos ravishda o'zgaradi.  $\eta_{e\max}$  bo'lganda  $g_{e\min}$  bo'ladi. Karbyuratorli dvigatellarda yuklama kamayishi bilan  $\eta_e$  ham kamayadi, buning natijasida yonilg'inining solishtirma sarfi  $g_e$  va  $g_e$  keskin oshib ketadi. Bu esa dvigatellarning asosiy kamchiligidir, chunki ish sharoitlarida (ish vaqtining 70%) drossel-to'smaqopqoq chala yopiq holda bo'ladi. Bunda yuklama  $p_{e1}$  dan kichik bo'ladi va natijada yonilg'inining solishtirma sarfi oshadi. Bu kamchilikni yo'qotish maqsadida karbyuratorli dvigatellarda ham dizeldagi kabi suyuq aralashmani ( $\alpha > 1$ ) yondirish usuli ishlab chiqilgan. Buni alanga bilan o't oldirish usuli, deb ataladi. Bunday usulda o't

oldiriladigan dvigatelning tavsifi shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan (6.7-rasm). Ko'riniib turibdiki, bu turdag'i karbyuratorli dvigatelning ko'rsatkichlari  $\eta_v$ ,  $g_i$ ,  $g_e$  juda ham mukammal va dizelnikiga yaqindir, chunki bunday sharoitda yonilg'i to'la yonadi.



6.8-rasm. Dizel ko'rsatkichlarining yuklamaga qarab o'zgarishi

Dizel asosiy ko'rsatkichlarining  $n = \text{const}$  bo'lgandagi yuklamaga qarab o'zgarish xususiyati 6.8-rasmida ko'rsatilgan. 6.7-va 6.8-rasmiarni tahlil qilib, dizelda to'ldirish koeffitsiyenti  $\eta_v$ ning, havoning ortiqlik koeffitsiyenti

$\alpha$  ning indikator F.I.K.  $\eta_c$  ning va yonilg'ining indikator solishtirma sarfi  $g_c$  ning yuklamaga bog'liqlik xususiyati karbyuratorli dvigatellarnikiga qaraganda butunlay boshqacha ekanligini ko'ramiz. Dizelda yuklama oshganda quyidagilar sodir bo'ladi: to'ldirish koeffitsiyenti  $\eta_c$  bir oz kamayadi, chunki yuklama oshganda zaryadning qizishi kuzatiladi; havoning ortiqlik koeffitsiyenti  $\alpha = 1,4...1,2$  oralig'ida o'zgaradi; indikator F.I.K.  $\eta_c$ ning qiymati 0,5 dan 0,4 gacha pasayadi; yonilg'ining indikator solishtirma sarfi  $g_c$  bir oz kattalashadi. Dizelda yuklamani kamaytirish uchun purkalayotgan yonilg'i miqdori kamaytiriladi, natijada  $\alpha$  ning miqdori kattalashadi. Bu esa yonish jarayonini yu.ch.n. yaqinida tugallashga olib keladi, yonilg'ining ko'pgina qismi o'zgarmas hajmda yonadi, natijada issiqlikdan foydalanish yaxshilanadi ( $\eta_c$  kattalashadi,  $g_c$  pasayadi). Dizel boshqa ko'rsatkichlari ( $N_c$ ,  $\eta_m$ ,  $\eta_e$  va  $g_e$ )ning o'zgarish xususiyati xuddi karbyuratorli dvigateldagidek bo'ladi.

Dizelning effektiv F.I.K.  $\eta_e$  va solishtirma sarfi  $g_e$  o'zinig maqbul qiymatiga  $g_e$  yuklamada (80 - 85%) erishadi. Dizeldan katta yuklama olish talab qilinganda purkalayotgan yonilg'ining miqdori yana ham oshiriladi. Bunda  $\alpha$  ning qiymati kichiklashadi ( $\alpha = 1,4...1,2$ ), natijada aralashma hosil qilish va yonish jarayonlari yomonlashadi. Bunday sharoitda indikator F.I.K. keskin kamayadi, bu kamayish mexanik FI.K.ning oitishi bilan kompensatsiyaланmaydi, natijada yonilg'ining solishtirma sarfi ( $g_c$ ,  $g_e$ ) ortadi. Shu sababli dizel larda yuklamaning oshish chegarasi qilib ishlatilgan gazlarda tutun paydo bo'lish vaqtini olingan. Dizelning bundan ortiq yuklamada ishlashiga yo'l qo'yish maqsadga muvofiq emas.

Dizellarning karbyuratorli dvigate llarga nisbatan eng asosiy afzalligi ularning o'rta va kichik yuklamalarda kam yonilg'i

sarflashidir (30-35%), chunki  $\alpha$  ning katta qiyatlarida ham yonish to'la ta'minlanadi.

### Dvigatelning quvvatiga ta'sir qiluvchi omillar

Dvigatelning quvvatiga asosan quyidagi omillar ta'sir qiladi; o'rtacha indikator bosim  $p_i$ ; silindr diametri  $D$ ; porshen yo'li  $S$ ; aylanishlar chastotasi  $n$  va taktlar soni  $\tau$ . Agar  $\eta_i = \frac{\alpha d_0 p_i}{10 H_u \rho_0 \eta_v}$  va  $p_i = \eta_m \cdot p_e$  ekanligini e'tiborga olsak, u holda indikator va effektiv quvvatlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$N_i = \frac{1}{30} \cdot \frac{H_u}{l_0} \cdot \frac{\eta_i}{\alpha} \cdot \eta_v \cdot \rho_0 \cdot i \cdot V_h \cdot \frac{n}{\tau}, \text{ kVt}$$

va  $N_e = N_i \cdot \eta_m$  bo'lgani uchun:

$$N_e = \frac{1}{30} \cdot \frac{H_u}{l_0} \cdot \frac{\eta_i}{\alpha} \eta_v \cdot \eta_m \cdot \rho_0 \cdot i \cdot V_h \cdot \frac{n}{\tau}, \text{ kVt bo'ladi.}$$

bu yerda  $H_u$  - MJ/kg da,  $V_h$  - 1 da va  $n$  -  $\text{min}^{-1}$  da berilgan.

Yuqoridagi tenglamani tahlil qilish dvigatelning quvvati silindrlar soni  $i$  va ish hajmi  $V_h$  ga to'g'ri proporsional ekanligini ko'rsatadi. Lekin quvvatni bu usul bilan oshirish maqsadga muvofiq emas, chunki u dvigatelning massasi va gabarit o'lchamlarining o'sishiga olib keladi. Shuning uchun quvvatni oshirishning shunday usullarini topish kerakki, ular ish hajmi birligiga to'g'ri keladigan quvvatni oshirsin.

Turli xildagi dvigatellar loyihalarining mukammalligini bir litr ish hajmidan olinadigan quvvat bilan baholash qabul qilingan. Litqli quvvatni quyidagicha aniqlash mumkin:

$$N_i = \frac{N_e}{iV_h} = \frac{1}{30} \cdot \frac{H_u}{l_0} \cdot \frac{\eta_i}{\alpha} \eta_m \cdot \eta_v \cdot \rho_0 \cdot \frac{n}{\tau}, \text{ kVt/l.}$$

Bu tenglama dvigatelning litqli quvvatiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tahlil qilishga yordam beradi.

Izlanishlar litrli quvvatga asosan quyidagi omillar ta'sir qilishini ko'rsatadi:  $n$  - aylanishlar chastotasi;  $\tau$  - taktlar soni;  $\eta/\alpha$  - nisbat;  $\rho_0$  - havoning zichligi va boshqalar.  $\frac{H_u}{l_0}$  qiymat amalda  $N_1$  ga ta'sir ko'rsatmaydi, chunki  $H_u$  va  $l_0$  kattaliklar - suyuq yonilg'ilar uchun o'zgarmas.

Dvigatelning litrli quvvatini oshirish usullaridan asosiysi uning aylanishlar chastotasini oshirishdir.

Aylanishlar chastotasining eng katta qiymati yonish jarayonining qoniqarli kechishi, dvigatel asosiy detallarining yeyilishi va porshenning o'rtacha tezligi bilan chegaralanadi. Yuk avtomobil dvigatellari uchun porshenning o'rtacha tezligi  $v_p = 9 \dots 11$  m/s, yengil avtomobil dvigatellari uchun esa  $v_p = 11 \dots 15$  m/s ni tashkil etadi.

Yonish jarayonini dvigatelning juda katta aylanishlar chastotasida ( $n = 12000 \dots 14000 \text{ min}^{-1}$ ) ham qoniqarli tashkil qilish mumkin. Porshenning o'rtacha tezligini esa qisqa yo'lli porshen konstruksiyasini qo'llab, ma'lum chegarada saqlash mumkin. qisqa yo'lli  $S/D < 1$  dvigatel konstruksiyasini qo'llash qator afzallikkarni beradi. Bunda aylanishlar chastotasini oshirish; sovituvchi muhitga issiqlik berishni kamaytirish; dvigatel kallagiga katta klapanlar o'rnatish va havo o'tkazuvchi yuzalarni kattalashtirish; tirsakli valni mustahkamlash; dvigatel konstruksiyasini ixchamlash; dvigatel vaznnini kamaytirish mumkin.

Dvigatelning litrli quvvatini oshirishning yana bir usuli silindrga kirayotgan havoning zichligini oshirishdan iborat. Bunga esa nadduv qo'llab erishiladi. Bu usul bilan dvigateldan olinayotgan quvvatni 70% gacha oshirish mumkin. Dvigatel tog'li rayonlarda ishlaganda havo zichligi  $r_0$  ning pasayishini ham hisobga olish kerak. Agar  $r_0$  ning pasayishi nadduv bilan kompensatsiyalanmasa, dvigatelning quvvati balandlikka ko'tarilishi bilan keskin pasayadi. Bu holda dvigatelning quvvatini oshirish uchun ko'proq yonilg'i berishga to'g'ri keladi, natijada  $\alpha$  ning

miq dori kichik lashadi, yonilg'i chala yonadi va dvigatel qizib ketadi, suv esa qaynay boshlaydi va dvigateli ni to'xtatib sovitish kerak bo'ladi. Bu hodisa, ayniqsa, eski konstruksiyali dvigatellarda ko'proq sodir bo'ladi.


Taktlar soni  $\tau$  dvigatelning quvvatiga katta ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir. To'rt taktli sikl o'tmiga ikki taktli sikl qo'llab, dvigatelning maksimal quvvatini nazariy jihatdan ikki baravar oshirish mumkin. Lekin amalda bunday bo'lmaydi, chunki ikki taktli dvigatela gaz almashish jarayoni porshenning p.ch.n. atrofidagi harakatida amalgalashiriladi va ish hajmining bir qismi bu jarayonda yo'qotiladi. Bundan tashqari, kompressorni harakatga keltirish uchun indikator quvvat sarflanadi. Sikllar soni ikki marta ko'p bo'lgani uchun dvigatel qiziydi, shu sababli purkalayotgan yonilg'i miqdori chegaralangan bo'ladi. Natijada litrli quvvat faqat 40...60% ga ortadi. Ikki taktli dizellarning ishlash muddati qisqa bo'ladi, shu sababli ishlab chiqarilmaydi.

Mexanik F.I.K. qancha katta bo'lsa, litrli quvvat shuncha katta bo'ladi. Buning uchun ishqalanishga va qo'shimcha mexanizmlarni harakatlantirishga sarflanadigan quvvatni kamaytirish kerak. Shu sababli detallarning tayyorlanish va dvigateli yig'ish sifati katta ahamiyatga ega. Ekspluatatsiya sharoitlarida moyning naviga va haroratiga hamda texnik talablarga rioya qilish zarur.

$\frac{\eta}{\alpha}$  qiymat dvigatelda ish jarayonining yaxshi yoki yomon tashkil etilganligini tavsiflaydi. Dvigatel quvvatini oshirish uchun  $\frac{\eta}{\alpha}$  nisbat mumkin qadar katta bo'lishi kerak.

Bu qiymatning yonuvchi aralashma tarkibi  $\alpha$  ga bog'liq ravishda o'zgarish xususiyati karby uratorli dvigatel uchun 6.9-rasm, a da berilgan.

Karbyuratorli dvigatellarda  $\alpha = 1,05 \dots 1,15$  bo'lganda indikator F.I.K. eng katta qiymatga erishadi.  $\frac{\eta_i}{\alpha}$  nisbat esa  $\alpha = 0,85 \dots 0,90$  bo'lganda o'zining eng katta qiymatiga erishadi. Dvigatel  $\alpha = 0,85 \dots 1,15$  oraliqda ishlaganda uning ko'rsatkichlari maqbul qiymatlarga ega bo'ladi va u karbyuratori sozlash diapazonini belgilaydi (shtrixlangan yuza),  $\alpha$  ning bundan boshqa qiymatlarida dvigatelning ko'rsatkichlari keskin yomonlashadi.



6.9-rasm. Yonuvchi aralashma tarkibining dvigatel quvvatiga va tejamtiligiga ta'siri:  
a - karbyuratorli dvigatel; b - dizel

6.9-rasm, b da dizellar uchun  $\eta_i$  va  $\frac{\eta_i}{\alpha}$  larning  $\alpha$  ga bog'liqligi ko'rsatilgan. Dizellarda  $\frac{\eta_i}{\alpha}$  nisbat o'zining eng katta qiymatiga  $\alpha = 1,2 \dots 1,4$  bo'lganda erishadi.  $\alpha$  ning bundan keyingi kamayishi yoki ortishida bu nisbat pasaya boshlaydi. Agar yonuvchi aralashmalarda  $\alpha < 1,2$  bo'lsa, yonish jarayoni keskin yomonlashadi, ishlatilgan gazlarda tutun paydo bo'ladi va dvigatelning o'ta qizishi kuzatiladi. Demak,  $\alpha$  ning eng kichik qiymati  $\alpha$  nuqta bilan chegaralanishi lozim.  $\alpha$  ning 1,4 dan katta qiymatlarida

indikator F.I.K. kattalashadi, lekin  $\eta_L$  qiymat sekin-asta kichiklashadi. Shu sababli  $\alpha$  ning  $\overset{\alpha}{yuqori}$  qiymati  $b$  nuqta bilan chegaralanib, bunda dizel maqbul ko'rsatkichlarga erishadi.

Barcha dvigatellarda to'ldirish koeffitsiyentini mumkin qadar oshirishga harakat qilish kerak, chunki u litri quvvatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Karbyuratorli dvigatellarning litri quvvati dizellarnikiga qaraganda ancha yuqori, chunki dizellarda aylanishlar chastotasi kichik bo'ladi. Karbyuratorli dvigatellarda  $N_f=20\dots35$  kVt/l, nadduv siz dizellarda esa  $N_f=13\dots23$  kVt/l. Bundan kelajakda dizellarning aylanishlar chastotasini yana ham oshirish zarur degan xulosa kelib chiqadi.

## 6.7. DVIGATELNING ISSIQLIK BALANSI

Dvigatelning issiqlik balansi silindrarda yongan yonilg'i issiqligining nimalarga sarflanishini ko'rsatadi. Dvigatel konstruksiyasini o'zgartirib va ba'zi omillarga ta'sir qilib issiqlikdan foydalanishni yaxshilash mumkin.

Dvigatelning issiqlik balansi uni stendda har xil sharoitlarda sinash natijasida olinadi. Buning uchun dvigatelning effektiv quvvati, yonilg'i va suvning soatlari sarfi, dvigatelga kirayotgan va undan chiqayotgan suvning harorati, ishlatilgan gazlarning va yangi zaryadning harorati o'lchanishi shart. Bu holda issiqlik balansi formulasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$Q_u = Q_e + Q_{sov} + Q_{ig} + Q_{ch,yo} + Q_{qol}$$

bu yerda  $Q_u$  - dvigatelga berilgan issiqlikning umumiy miqdori;  $Q_e$  - dvigatelning effektiv ishiga sarflangan issiqlik;  $Q_{sov}$  - sovituvchi muhitga berilgan issiqlik;  $Q_{ig}$  - ishlatilgan gazlar bilan chiqib ketgan issiqlik;  $Q_{ch,yo}$  - chala yonish natijasida ajralib chiqmagan issiqlik;  $Q_{qol}$  - issiqlik

balansining qoldiq qismi, u hisobga olinmagan issiqlik sarfini (moyga beriladigan issiqlik va h.k.ni) bildiradi.

Issiqlik balansining har bir tashkil etuvchisini dvigatelga kiritilgan umumiy issiqlik miqdori  $Q_u$  ga bo'lsak. issiqlik balansining tashkil etuvchilarini foiz hisobida ifodalanadi:

$$q_e = \frac{Q_e}{Q_u} \cdot 100\%, \quad q_{sov} = \frac{Q_{sov}}{Q_u} \cdot 100\% \text{ va hokazo.}$$

$$\text{Bu holda } q_u = q_e + q_{sov} + q_{i.g} + q_{ch.yo} + q_{qol} = 100\%$$

Bir soat davomida dvigatelga berilgan issiqliknинг umumiy miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_u = H_u G_{yo}, \text{ kJ/soat;}$$

bu yerda  $G_{yo}$  - yonilg'ining bir soatlik sarfi.

Effektiv ishga sarflangan issiqlik miqdori:

$$Q_e = 3600 N_e, \text{ kJ/soat;}$$

bu yerda  $N_e$  - effektiv quvvat, kVt.

Sikl davomida sovituvchi muhitga berilayotgan issiqlik miqdorini aniqlash uchun bir soat davomida dvigatel orqali o'tgan suvning miqdori  $G_{sov}$ , dvigatelga kirayotgan va chiqayotgan suvning haroratlari  $t_{kir}$  va  $t_{chiq}$  ma'lum bo'lishi kerak. Bu holda:

$$Q_{sov} = 4.186 G_{sov} (t_{chiq} + t_{kir}), \text{ kJ/soat,}$$

bu yerda: 4,186-suvning issiqlik sig'imi, kJ/kg·grad. Ishlatilgan gazlar bilan chiqib ketgan issiqlik miqdori  $Q_r$  ni aniqlash uchun quyidagilar topiladi:

a)  $G_{yo} \cdot M_2 \cdot \mu \cdot C_p \cdot t_g - 1$  soat davomida silindrda ishlatilgan gazlar bilan chiqib ketgan issiqlik miqdori, kJ/soat;

b)  $G_{yo} \cdot M_1 \cdot \mu \cdot C_p \cdot t_0 - 1$  soat davomida silindrga yangi zaryad bilan kiritilgan issiqlik miqdori, kJ/soat;

v)  $t_g$  - ishlatilgan gazlarning chiqarish quvuridan keyin o'lchanigan harorati, °S;

g) б - dvigatel silindriga kirgan yangi zaryadning harorati, °S.

Yonilg'ining chala yonishi natijasida ajralib chiqmagan issiqlik miqdori  $Q_{ch,yo}$  odatda,  $\alpha > 1$  bo'lsa, alohida hisoblanmaydi va  $Q_{qol}$  ga qo'shiladi, ya'ni:

$$Q_{qol} = Q_u - (Q_e + Q_{sv} + Q_{ig}).$$


Dvigatelni sinashda  $\alpha < 1$  bo'lsa, yonilg'ining chala yonishi natijasida ajralib chiqmagan issiqlik miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$Q_{ch,yo} = \Delta H_u \cdot G_{yo}.$$

Bu holda:

$$Q_{qol} = Q_u - (Q_e + Q_{sv} + Q_{ig} + Q_{ch,yo}).$$

Karbyuratorli dvigatelning drossel to'smaqopqog'i to'liq ochib ishlatilganda issiqlik balansining aylanishlar chastotasiga qarab o'zgarish xususiyati 6.10-rasm, a da ko'rsatilgan. Aylanishlar chastotasi 1000 min<sup>-1</sup> dan 4200 min<sup>-1</sup> gacha oshganda foydalilaniladigan effektiv issiqlik ge 24% dan 27,5% gacha ortadi; sovituvchi suvga beriladigan issiqlik miqdori esa 36% dan 27% gacha kamayadi; ishlatilgan gazlar olib ketgan issiqlik miqdori sezilarli darajada ortadi.



6.10-rasm. Dvigatelning issiqlik balansi:  
a, b-karbyuratorli dvigatel: v-dizel

Aralashma tarkibi  $\alpha$  ning issiqlik balansiga ta'siri 6.10-rasm,  $b$  da ko'rsatilgan. Grafiklardan ko'rinish turibdiki,  $\alpha = 1,1 \dots 1,15$  bo'lganda issiqlikdan samarali foydalaniadi,  $\alpha = 0,85$  bo'lganda esa chala yonish natijasida issiqliknинг 20% i yo'qotiladi.

Dizel issiqlik balansining yuklama bo'yicha o'zgarishi 6.10-rasm,  $v$  da tasvirlangan. Dizellarda yuklama ortishi bilan  $q_e$ ,  $q_{i,g}$  ning qiymatlari ortadi,  $q_{sov}$  esa sezilarli darajada kamayadi.

Dvigatellar nominal rejimda ishlaganda ularning issiqlik balansi (% hisobida) 6.5-jadvalda berilgan.

*6.5-jadval*

Dvigatel turi	$q_e = \eta_e$	$q_{sov}$	$q_{i,g}$	$q_{ch,vo.}$	$q_{qot}$
Karbyuratorli dvigatel Dizel:	21...28	12...27	30...55	0...45	3...10
nadduvsız	29...42	15...35	25...45	0...5	2...5
nadduvli	35...45	10...25	25...40	25...40	2...5

## **VII BOB. UCHQUN BILAN O'T OLDIRILADIGAN DVIGATELLARDA ARALASHMA HOSIL QILISH**

### **7.1. GIDRODINAMIKADAN QISQACHA MA'LUMOT**

Karbyurator uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellarning asosiy agregatlaridan biri bo'lib, unda dvigatelning ish rejimlariga mos holda yonuvchi aralashma tayyoranadi va silindrلarga beriladi. Dvigatel hosil qiladigan quvvat va uning tejamliligi karbyuratorning to'g'ri rostlanganligiga, ya'ni ishlash sifatiga bog'liq.


Havo tozalagichdan o'tgan havo katta tezlik bilan karbyuratorning diffuzori (tor qismi) dan o'tayotganida purkagichdan chiqayotgan yonilg'ini to'zitadi va u bilan aralashib, ish aralashmasini hosil qiladi. Karbyurator quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak:

- bir jinsli yonuvchi aralashma hosil qilishi;
- barcha yuklama va tezlik rejimlarida zarur tarkibli yonuvchi aralashma hosil qilishi;
- qisqa vaqt ichida dvigatelning kerakli ish rejimini ta'minlashi;
- tuzilishi oddiy va ekspluatatsiya qilish qulay bo'lishi kerak.

Karbyuratsiya jarayonini o'rganish havoning diffuzor orqali, yonilg'iring esa jiklyordan o'tish sharoitlarini ko'rib chiqishni talab qiladi. Shu sababli, quyida gidrodinamika kursidan ma'lum bo'lgan suyuqliklarning oqish xossalariiga tegishli ma'lumotlarni keltiramiz.

**Suyuqlikning idishdan oqib chiqishi.** 7.1-rasmda karbyurator qalqovuchli kamerasidan suyuqlikning oqib chiqish jarayoni tasvirlangan. Bunday kameralarda sath  $N$  o'zgarmas bo'lganidan suyuqlikning oqib chiqish tezligi ham o'zgarmaydi va bu harakat turg'un harakat deyiladi.

### *Yonilg'i*



*7.1-rasm. Suyuqlikni idishdan oqib chiqish sxemasi*

bu yerda  $p$  - suyuqlikning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ . O'zgaruvchan kesimli naycha orqali oqib o'tayotgan suyuqlikning istalgan kesimidagi tezlik quyidagicha aniqlanadi:

$$W_2 = \frac{F_1 \cdot W_1}{F_2}.$$

Suyuqlikning energiyasi  $E_s$  umumiyl holda holat energiyasi  $E_{\text{hol}}$ , bosim energiyasi  $E_{\text{bos}}$  va kinetik energiya  $E_{\text{kin}}$  yig'indisidan iborat, ya'ni  $E_s = E_{\text{hol}} + E_{\text{bos}} + E_{\text{kin}}$ .

Harakatlanayotgan suyuqlik energiyasining balansini tuzish uchun solishtirma energiya  $e = \frac{F}{G}$  tushunchasidan foydalanamiz. Suyuqlikning to'la energiyasini quyidagi sxema (7.2-rasm)dan aniqlash mumkin. Buning uchun idish ostidan gorizontal  $xx$  tekisligini o'tkazamiz va hisobni shu tekislikka nisbatan olib boramiz.

$A$  zonadagi suyuqlik zarralarining  $x$  tekislikka nisbatan to'la holat energiyasi  $E_{\text{hol}} = GZ$ ; bu yerda  $G$  - og'irlik kuchi birligi;  $Z$  -  $A$  nuqtaning geometrik balandligi, m. Demak, holatning solishtirma energiyasi  $A$  nuqtaning geometrik balandligiga teng.


Kuzatilayotgan  $A$  zonadagi zarrachalar atrof-dagi suyuqlik ustunining bosimi ostida bo'ladi va bu bosim quyidagicha hisoblanadi:

Uchlik 3 dagi oqimning ixtiyoriy joyidan tik tekislik o'tkazamiz, agar kuzatilayotgan oqimning tezligi  $W$  bo'lsa, shu kesim yuzasidan oqib o'tayotgan suyuqlikning miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$Q = FW, \text{ m}^3/\text{s}$$

yoki

$$Q = FW \cdot \rho, \text{ kg/s};$$



*7.2-rasm. Suyuqlikning to'la energiyasini aniqlash*

$$H_{bos} = \frac{p}{\rho g}.$$

Bosimning to'la energiyasi:  $E_{bos} = G \frac{p}{\rho g}$ ;  
bosimning solishtirma energiyasi:

$$e_{bos} = \frac{E_{bos}}{G} = \frac{p}{\rho g} = H_{bos}.$$

Holat va bosim solishtirma energiyalarining yig'indisi solishtirma potensial energiya yoki pyezometrik bosim deyiladi va  $N$  harfi bilan belgilanadi, ya'ni  $H = e_{hol} + e_{bos}$ . Pyezometrik bosim  $xx$  tekisligidan pyezometrdagi suyuqlik sathigacha bo'lgan suyuqlik ustunining balandligiga teng, ya'ni

$$H = Z + \frac{p}{\rho g}, \text{ m.}$$

Idishdan oqib chiqayotgan suyuqlik zarrachalarining kinetik energiyasini quyidagi tenglamadan aniqlash mumkin:

$$E_{kin} = \frac{mW^2}{2},$$

bu yerda:  $m$  - suyuqlik zarrachalarining massasi;  $W$  - suyuqlik zarrachalarining tezligi.

Solishtirma kinetik energiya deb ataluvchi tezlik bosimi quyidagicha hisoblanadi:

$$e_{kn} = \frac{mW^2}{2G};$$

bu yerda  $G = mg$  bo'lgani uchun  $e_{kn} = \frac{W^2}{2g}$  bo'ladi.

Demak, harakatda bo'lgan suyuqlikning umumiy solishtirma energiyasi quyidagicha topiladi:

$$E_s = E_{hal} + E_{bas} + E_{kin} = Z + \frac{p}{\rho g} + \frac{W^2}{2g}.$$

Endi suyuqlik zarrachalarining I-II kesimidagi 4 nuqtasidan II-II kesimidagi 2 nuqtasigacha bo'lgan harakatini kuzatamiz (7.3-rasm). 1 nuqtada suyuqlik zarrachalarining holati  $W_1$ ,  $p_1$  va  $Z_1$  parametrler bilan, 2 nuqtada esa  $W_2$ ,  $p_2$  va  $Z_2$  bilan belgilanadi. Energiya balansi tenglamasiga asosan quyidagini yozish mumkin:

$$Z_1 + \frac{p_1}{\rho g} + \frac{W_1^2}{2g} = Z_2 + \frac{p_2}{\rho g} + \frac{W_2^2}{2g} = const.$$

Lekin aslida, suyuqlik oqqanda energiyaning ma'lum bir qismi qarshiliklarni yengish uchun sarf bo'ladi. Yo'qotilgan energiya miqdorini  $h_{1-2}$  bilan belgilaymiz. U holda yuqoridagi tenglama quyidagicha yoziladi:

$$Z_1 + \frac{p_1}{\rho g} + \frac{W_1^2}{2g} = Z_2 + \frac{p_2}{\rho g} + \frac{W_2^2}{2g} + h_{1-2}.$$


Bu tenglamalar Bernulli tenglamasi deyiladi va undagi parametrler uzunlik birligida o'lchanadi. 7.3-rasmdagi 1-2 chiziq suyuqlik zarrachalarining harakat trayektoriyasini, 3-4 chiziq  $Z + \frac{p}{\rho g}$  ga teng bo'lgan pyezometrik bosimni, 5-6 chiziq esa  $Z + \frac{p}{\rho g} + \frac{W^2}{2g}$  ga teng to'la bosimni xarakterlaydi.

7-6 chiziq kuzatilayotgan uchastkada bosimning kamayishini ko'rsatadi.

Pyezometrik bosimning qiymati pyezometr yordamida tezlik bosimining qiymati esa Pito naychasi bilan o'lchanadi. Buning uchun Pito naychasining ochiq uchi suyuqlik oqimiga qarshi o'rnatiladi.

Pyezometrdagi suyuqlik ustunining balandligi  $\frac{p}{\rho g}$  qiymatga, Pito naychasidagi balandlik esa to'la bosimga,

ya'ni  $\frac{p}{\rho g} + \frac{W^2}{2g}$  ga to'g'ri keladi. Bu qiymatlarning ayirmasi tezlik bosimi  $\frac{W^2}{2g}$  ga teng.



7.3-rasm. Suyuqlikning naychada harakatlanish sxemasi

Suyuqlik o'tkir qirrali teshik orqali oqib chiqayotganida siqiladi va chiqish oldidan uning ko'ndalang kesimi teshikning ko'ndalang kesimi yuzasi  $F$  dan kichik bo'ladi (7.4-rasm) hamda kesim yuzalarining nisbati siqish ko'effitsiyenti orqali ifodalananadi. Suyuqlik teshik orqali oqib chiqayotganida yo'qotilgan bosim quyidagicha hisoblanadi:

$$h_{w,qt} = \xi \frac{W^2}{2g},$$

$\xi = \frac{F_{siq}}{F}$  - teshikning o'tkazish kesimiga nisbatan olingan qarshilik koefitsiyenti.

Suyuqlikning oqib chiqish tezligi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$W = 1 - \frac{1}{\sqrt{1 + \xi}} \cdot \sqrt{2gH};$$

bu yerda  $\frac{1}{\sqrt{1 + \xi}} = \varphi$  bo'lib, tezlik koefitsiyenti deb ataladi. U holda  $W = \varphi \sqrt{2gH}$  bo'ladi,  $\varphi \approx 0,97$ . Teshikdan oqib chiquvchi suyuqlik miqdori:


$$Q = F_{siq} \cdot W, \text{ m}^3/\text{s}$$

yoki

$$Q = \xi \varphi F \sqrt{2gH} = \mu F \sqrt{2gH};$$

bu yerda:  $\mu = \xi \cdot \varphi$  sarflanish koefitsiyenti.

Demak, teshikning kesim yuzasi ma'lum bo'lsa, bu teshik orqali oqib chiquvchi suyuqlik miqdori sarflanish koefitsiyenti  $\mu$  bilan aniqlanadi. Oqib chiquvchi suyuqlik miqdorini oshirish uchun teshik og'ziga turli shakldagi uchliklar o'rnatiladi.



7.4-rasm. Suyuqlikning teshik orqali oqib chiqish sxemasi

Uchlik ishlataliganda suyuqlik oqimi uchlikning butun kesim yuzasini to'ldiradi va  $\xi = 1$  bo'ladi, bu kesimda suyuqlik tezligining ortishi natijasida oqib chiquvchi suyuqlik miqdori ham ortadi. Demak,

uchlikdan oqib chiqayotgan suyuqlikning miqdorini aniqlash uchun sarflanish koeffitsiyenti  $\mu$ , teshikning kesim yuzasi  $F$  va pyezometrik bosim  $H$  ma'lum bo'lishi kerak.

## 7.2. YONILG'INING KARBYURATSIYALASH XOSSALARI

Karbyuratorda yonuvchi aralashma tayyorlash jarayonining sifati yonilg'ining karbyuratsiyalash xossalari deb ataluvchi xususiyatlar bilan aniqlanadi. Yonilg'ining karbyuratsiyalash xossalariiga bug'lanuvchanlik, zichlik, bug'lanish issiqligi, sirt tarangligi kiradi. Bundan tashqari, karbyuratsiyalash jarayoniga havoning harorati, shu jarayonga ajratilgan vaqt, dvigatelning ish rejimi va boshqalar ta'sir qiladi.

### Bug'lanuvchanlik

Bug'lanuvchanlik yonilg'ining suyuq holatdan gaz holatiga o'tish jarayonini tavsiflaydi. Bu jarayon yonilg'ining fraksion tarkibiga, bug'larning elastikligiga, sirt tarangligiga va bug' hosil qilish issiqligiga bog'liq.

Yonilg'ining fraksion tarkibi GOSTda benzinning bug'lanish xossalari, dvigatelning yuklama o'zgarishiga tez moslashuvini hisobga olgan holda belgilangan.

Bug'larning elastikligi yonilg'idagi yengil fraksiyalarining miqdoriga bog'liq. Yengil fraksiyalar qancha ko'p bo'lsa, bug'larning elastikligi shuncha katta bo'ladi. Bug'larning bosimi ma'lum qiymatga ega bo'lishi lozim. Ayrim sabablarga ko'ra bu bosim atmosfera bosimiga teng yoki undan katta bo'lsa, yonilg'i naychalarida bug' tinqinlari hosil bo'lishi mumkin va natijada, dvigateli yurgizib yuborish qiyinlashadi.

### Zichlik

Benzinning zichligi ham yonilg'ining karbyuratsiyalanish xossalariiga ta'sir qiladi. Benzinning zichligi qancha katta bo'lsa, uning sirt tarangligi shuncha

katta bo'ladi. Demak, bunday yonilg'ining havo oqimi ta'sirida parchalanishi (tomchilar katta bo'ladi) va bug'lanishi yomon bo'ladi. Natijada kerakli tarkibdagi yonuvchi aralashma olib bo'lmaydi.

### Bug'lanish issiqligi

Yonilg'ining bug'lanish jarayoni bug'lanish issiqligi bilan belgilanadi. Masalan 1 kg benzinni bug'latish uchun 315 kJ/kg yoki 75 kkal/kg miqdorda issiqlik kerak. Bug'lanish issiqligi qancha katta bo'lsa, bug'lanish jarayoni shuncha qiyin boradi. Bu holda kiritish trubalarini qattiq qizitish talab etiladi. Karbyuratorli dvigatellarda silindrga kirayotgan yonuvchi aralashma yonish jarayoni boshlanguncha to'la bug'langan bo'lishi shart.

Yonilg'i purkagichdan chiqishi bilan bug'lanish jarayoni boshlanadi. Bug'lanish jarayoni kiritish trubaida, kiritish va siqish jarayoni davomida dvigatel silindrida ham davom etadi. Yonilg'i kiritish trubaining devorlarida qisman o'tirib qolgani uchun dvigatelning silindrlariga har xil tarkibli yonuvchi aralashma tushadi. Bu esa dvigatelning quvvat va tejamlilik ko'rsatkichlarini pasaytiradi. Shuning uchun, yonilg'ining ko'proq qismi kiritish trubalarida, yonuvchi aralashma kiritish klapanlariga yetib kelmasdan bug'lanishi kerak.

Kiritish trubaida yonilg'i havodan olingan issiqlik hisobiga bug'lanadi. Shu maqsadda ko'pgina karbyuratorli dvigatellarda chiqarish trubalari kiritish trubalarining orasiga o'rnatiladi. Bu esa yonilg'ining bug'lanishini kuchaytirib, yonuvchi aralashmaning kerakli tarkibini hosil qiladi.

## 7.3. ODDIY KARBYURATOR.

### ODDIY KARBYURATORNING SXEMASI

Murakkab karbyuratorlarning ish prinsipini o'rganish uchun oddiy karbyuratorning sxemasi bilan tanishish maqsadga muvosfiq. Havo oqimi yuqoridan pastga yo'nalgan


oddiy karbyuratorning sxemasi 7.5-rasm, *a* da ko'rsatilgan. U quyidagi elementlardan tashkil topgan:

*I-I* - havo-emulsiya trakti (yo'li), bu yo'ldan toza havo va uning yonilg'i bilan aralashmasi (yonilg'i emulsiyası) oqadi. Havo-emulsiya trakti havo filtri bilan tutashtirilgan havo kirituvchi kalta truba 4, diffuzor 6 va drossel-to'smaqopqoq 8 li aralashtirish kamerasi 7 dan iborat. *II-II* - yonilg'i-emulsiya yo'li, bu yo'ldan sof yonilg'i va yonilg'i emulsiyası oqadi. Bu trakt konussimon berkitish klapani bo'lgan kamera 1, jiklyor 9, naycha (kanal) 2 va diffuzorning toraygan qismida joylashgan to'zitgich 5 dan iborat.

7.5-rasm, *b* da karbyuratorli dvigatel ikki xil yuklamada ishlaganda karbyuratorдан o'tayotgan havoning tezligi va bosimning o'zgarish xususiyati tasvirlangan. Grafiklardan ko'rinish turibdiki, diffuzor toraygan sari undan o'tayotgan havoning bosimi kamayib boradi. Bosim o'zining eng kichik qiymati  $p_d$  ga diffuzorning eng tor qismida erishadi, Shundan so'ng, diffuzor kengayib borishi bilan havo bosimi ham ortib boradi, lekin qarshiliklar hisobiga  $p_{d2}$  har doim  $p_d$ , dan kichik bo'ladi. Havoning tezligi uning bosimiga teskari proporsional ravishda o'zgaradi. Havoning eng katta siyrakligi diffuzorning eng tor qismida sodir bo'lgani uchun u yerda havo oqimining tezligi maksimal qiymatga erishadi.

Qalqovuchli kameradagi yonilg'inинг sathi qalqovuch va ignasimon klapan yordamida o'zgarmas holda tutib turiladi. Purkagichning yonilg'i chiqadigan teshigi qalqovuchli kameradagi yonilg'i sathidan  $\Delta h = 5\dots8$  mm balandroqda bo'lishi shart. Purkagich bunday joylashsa, dvigatel ishlamay turganda yoki avtomobil ortiqcha qiyalanganda kameradan benzin oqib ketmaydi.

Qalqovuchli kamera havo kiritish trubaiga, ya'ni diffuzor oldi bo'shilig'iga naycha orqali tutashgan. Shuning uchun ham qalqovuchli kameradagi havo bosimi diffuzor oldidagi havo bosimi  $p_{d1}$  ga teng. Bunday qalqovuchli



### 7.5-rasm. Elementar karbyuratorning sxemasi

kamera muvozanatlangan kamera deyiladi. Ushbu karbyuratorning afzalligi shuki, havo filtri ifloslanib ishdan chiqqanda ham yonuvchi aralashma quyuqlashib ketmaydi.

Agar qalqovuchli kamera atmosfera bilan tutashgan bo'lsa, u muvozanatlanmagan kamera deyiladi. Bunday kameralar asosan dizellarni ishga tushirish dvigatellarida qo'llaniladi.

Odatda, to'zitgich diffuzorning eng tor qismiga o'matiladi, chunki bu joyda havo eng katta siyraklik va tezlikka ega bo'ladi. Yonilg'i qalqovuchli kameradagi va diffuzordagi bosimlar farqi natijasida qalqovuchli kameradan jiklyor 9 va purkagich 5 orqali diffuzorga purkaladi. Yuqorida pastga yo'nalgan havo oqimi esa yonilg'inining mayda tomchilarini to'zitadi, tomchilar qisman bug'ga aylanadi va havo bilan aralashib, kiritish trubalari orqali dvigatel silindrlariga taqsimlanadi. 7.5-rasm, b da shtrix chiziqlar bilan dvigatel kichik yuklamalarda ishlaganda havo oqimining tezligi hamda bosimi keltirilgan. Grafikdan ko'rinish turibdiki, katta siyraklik drossel-to'smaqopqoqning ketida xosil bo'ladi. Bu usuldan yuqorida keltirilgan rejimlarda ishlaydigan karbyuratorlarda foydalaniлади.

### Oddiy karbyuratorning tavsifi

Diffuzorga purkagichdan oqib tushadigan yonilg'ining miqdori jiklyor oldi va ketidagi bosimlar farqi, jiklyorning o'tkazuvchi kesim yuzi va uning qarshiligi bilan aniqlanadi. Diffuzor  $6$  dan o'tayotgan havoning miqdori diffuzor oldi va ketidagi bosimlar farqi, diffuzor eng tor qismining kesim yuzi va uning qarshiligi bilan aniqlanadi.

Odatda, har bir karbyuratorli dvigatel uchun mos karbyurator tanlanadi, chunki diffuzor bo'g'zini va jiklyorning o'tkazish kesimlarini tanlab, yonuvchi aralashmaning kerakli tarkibini olish mumkin. Aralashma tarkibi havoning ortiqlik koeffitsiyenti bilan tavsiflanadi. Bu koeffitsiyent dvigateli sinash paytida quyidagicha hisoblanadi:

$$\alpha = \frac{G_h}{G_{yo} l_0},$$

bu yerda  $G_h$  - 1soat davomida diffuzor orqali o'tgan havo miqdori, kg;  $G_{yo}$  - 1soat davomida jiklyor orqali o'tgan yonilg'i miqdori, kg;  $l_0$  - 1kg yonilg'ining to'la yonishi uchun kerak bo'lgan havoning nazariy miqdori, benzin uchun  $l_0=14,9$  kg.

Diffuzordan o'tayotgan havoning miqdori oqimning siqilish koeffitsiyentini hisobga olganda quyidagicha aniqlanadi:

$$G_h = \xi_d F_d \omega_d \rho_0;$$

bu yerda  $\xi_d$  - oqimning siqish koeffitsiyenti,  $\xi_d = 0.95$ ;  $F_d$  - diffuzor bo'g'zining o'tkazish kesim yuzi,  $m^2$ ;  $\omega_d$  - diffuzor bo'g'zidagi havoning tezligi,  $m/s$ ;  $\rho_0$  - havoning zichligi,  $kg/m^3$ .

Havoning diffuzordagi tezligi quyidagicha hisoblanadi:

$$\omega_d = \varphi_d \sqrt{2 \frac{\Delta p_d}{p_0}};$$

bu yerda  $\varphi_d$  - tezlik koeffitsiyenti;  $\varphi_d = 0,75 \dots 0,9$ ;

$\Delta p_d = P_{d1} - P_{d2}$  - bosimlar farqi.  $\xi_d \cdot \varphi_d = \mu_d$  ekanligini e'tiborga olib, diffuzordan o'tayotgan havo miqdorini hisoblash uchun quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$G_h = \mu_d F_d \cdot \sqrt{2 \Delta p_d p_0}, \text{ kg/s.}$$

Odatda,  $G_h$  dvigatelni stendda sinash vaqtida havo sarfini o'lchaydigan asbob yordamida o'lchanadi. U holda  $G_h$  quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$G_h = \frac{\Delta V}{\tau} \cdot 3600 \rho_0, \text{ kg/soat;}$$

bu yerda:  $\rho_0$  - havoning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ ;  $\Delta V$  - o'lchangان havo dozasi,  $\text{m}^3$ ;  $\tau$  - havoning sarf vaqtি, s.

Dvigatellarni sinash vaqtida  $G_{yo}$  quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$G_{yo} = \frac{\Delta g}{\tau} \cdot 3,6; \text{ kg/soat;}$$

bu yerda  $\Delta g$  - o'lchangان yonilg'i dozasi, g;  $\tau$  - yonilg'inining sarf vaqtি, s.

Silindrga berilayotgan yonilg'inining miqdorini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$G_{yo} = \mu_j F_j \cdot \sqrt{2 \cdot \Delta p_d \rho_{yo}}, \text{ kg/soat}$$


bu yerda  $\mu_j$  - jiklyorning sarflash koeffitsiyenti,  $\mu_j = 0,70 \dots 0,85$ ;  $F_j$  - jiklyorning o'tkazish kesim yuzi;  $\rho_{yo}$  - yonilg'inining zichligi,  $\text{kg/sm}^3$ .

Agar yonilg'inining elementar tarkibi ma'lum bo'lsa, havoning zarur nazariy miqdori  $l_0$  ni hisoblab chiqib, havoning ortiqlik koeffitsiyentini aniqlash mumkin:

$$\alpha = \frac{1}{l_0} \cdot \frac{F_d}{F_j} \cdot \frac{\mu_d}{\mu_j} \cdot \sqrt{\frac{\rho_0}{\rho_{yo}}}.$$

Karbyuratorning tanlangan konstruksiyasi uchun  $\alpha = C \cdot \frac{\mu_d}{\mu_i}$  bo'ldi, chunki ifodaning qolgan hadlari o'zgarmas.

Havoning ortiqlik koeffitsiyentining diffuzordagi siyraklikka mos holda o'zgarishi 7.6-rasmda ko'rsatilgan. Grafiklarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, karbyuratorda siyraklik ortishi bilan havoning ortiqlik koeffitsiyenti  $\alpha$  va  $\frac{\mu_d}{\mu_i}$  nisbat kamayadi. Natijada  $n = \text{const}$  bo'lib, dvigatelning yuklamasi ortganda yoki drossel-to'smaqopqoqning o'zgarmasi



7.6-rasm Elementar karbyuratorning tavsiyi


holatida ayylanishlar chastotasi oshganda,  $\Delta p_d$  ortgani sababli  $\alpha$  kamayadi va yonuvchi aralashma uzlusiz quyuqlashib boradi. Vaholanki, bunday yonuvchi aralashma real dvigatelning talabiga javob bera olmaydi.

#### 7.4. IDEAL KARBYURATOR

Dvigatel barcha yuklamalarda yonuvchi aralashmaning qanday tarkibida eng katta quvvatga va tejamlilikka erishi-shini tekshirib, yonuvchi aralashmaning maqbul o'zgarish xususiyatini tanlash mumkin. Buning uchun dvigatelning bir nechta tezlik rejimlarida va turli yuklamalarida quvvatning hamda yonilg'i solishtirma sarfining  $\alpha$  ga bog'liqligini tekshirish kifoya.

Drossel-to'smaqopqoqning bir nechta o'zgarmas holatlarida quvvatning va yonilg'i solishtirma sarfining egri

chiziqlari havoning ortiqlik koeffitsiyentiga bog'liq holda 7.7-rasmda ko'rsatilgan. Grafiklardan ko'rinish turibdiki, katta quvvat olish uchun zarur bo'lgan havoning ortiqlik koeffitsiyenti eng yaxshi tejamlilik olinadigan qiymatiga qaraganda bir oz kichik bo'lishi kerak. Grafiklarda  $\alpha$  ning bu qiymatlari ( $\alpha_{\text{Nmax}}$  va  $\alpha_{\text{gemin}}$ ) shtrix chiziqlar bilan ko'rsatilgan. Ular karbyuratorning ratsional rostlanish chegarasini belgilaydi.



7.7-rasm. Dvigatel quvvati va tejamliligining  $\alpha$  ga qarab o'zgarishi ( $n = \text{const}$ )

Ma'lumki, dvigatel-dan eng katta quvvat olish uchun drossel-to'smaqopqoq to'la ochiladi. Bunda yonuvchi aralashma quyuqlashib tejamlilik bir oz yomonlashadi ( $\alpha$  nuqta).  $\alpha$  ning ma'lum qiymatlaridagina ( $\alpha = 1,05 \dots 1,15$ ) dvigatel tejamlili ishlaydi, chunki bunday qiymatlarda yonilg'ining to'la yonishi ta'minlanadi ( $b$  nuqta). Shuni aytish kerakki, yuklama kamayishibilan  $\alpha$  ning maqbul qiymatlari ham kichiklashadi. Yuqoridaqilar ma'lum bo'lsa,


dvigatelnинг талабларига жавоб берадиган идеал карбюраторнинг тасвисини орнайтиш мүмкун (7.8-рассм, I ва 2-егри чизиqlar). Бу егри чизиқда  $a$ ,  $b$ ,  $s$  нуқталардаги  $\alpha$ ning qiymatlari katta quvvat hosil qilish va tejamlili ishlash rejimlari uchun keltirilgan.

Oddiy karbyuratorning tavsifini dvigatelning har xil rejimlari uchun kerakli tarkibda yonuvchi aralashma tayyorlab bera oladigan qilish uchun qo'shimcha moslamalar o'rnatish kerak. Shunda oddiy karbyurator tavsifi ideal karbyuratomikiga yaqin bo'ladi.

Karbyuratorga quyidagi moslamalar o'rnatiladi: oddiy karbyuratorning tavsifini to'g'rilaydigan kompensatsiyali asosiy dozalash tizimi; salt (yuklamasiz) ishlash tizimi; quyuqlashtirgich (ekonomayzer); tezlashtirish nasosi; yurgizib yuborish jihizi.

## 7.5. KARBYURATORNING ASOSIY DOZALASH TIZIMI

Dvigatel  $s$  va  $b$  nuqtalar chegarasida (7.8-rasm) normal ishlashi uchun yetarli bo'lgan yonilg'i miqdori uning silindrlariga asosiy dozalash tizimi orqali tushadi, chunki bu



7.8-rasm. Karbyuratorning eng qulay tavsifi:

1-tejamkorlik rejimida; 2-quvvat rejimida

yuklamalar diapazonida oddiy karbyurator kerakli tarkibdagi yonilg'i aralashmasini tayyorlab bera olmaydi. Shu sababli oddiy karbyuratorning tavsifini to'g'rilash uchun quyidagi kompensatsiyalash tizimlari ishlatiladi: yonilg'ini pnevmatik tormozlash; kompensatsiya jiklyori; diffuzordagi siyraklanishni rostlash va jiklyorning o'tkazish kesimini rostlash tizimlari.


## Yonilg‘ini pnevmatik tormozlash tizimi

Yonilg‘i pnevmatik usulda tormozlanadigan (emulsion) karbyurator hozirgi paytda eng ko‘p tarqalgan. Bunday karbyuratorning prinsipial sxemasi 7.9-rasmida ko‘rsatilgan. Bu tizimda to‘zitgich kanaliga yonilg‘i jiklyori 5 dan tashqari havo jiklyori 7 ham o‘rnataladi. Bu jiklyor orqali kanalga havo kirib yonilg‘i emulsiyasini hosil qiladi. Bunday karbyuratorlar emulsion karbyurator, deb atalaadi.

Yonilg‘i havo emulsiyasi diffuzorda katta siyraklanish paydo bo‘lgandagina (ya’ni  $h > h_1$ ) hosil bo‘ladi. Bunda esa katta yuklamalarda ishlashga to‘g‘ri keladi. Kichik yuklamalarda to‘zitgichdan faqat yonilg‘i chiqadi. Siyraklanish ortganda (drossel-to‘smaqopqoq kattaroq ochilganda) naycha / ga jiklyor 7 orqali havo kira boshlaydi, bunda emulsiya hosil bo‘ladi va uning vazni toza yonilg‘i vaznidan bir necha baravar kam bo‘ladi. Yonilg‘i faqat qalqovuchli kamera va diffuzordagi bosimlar farqi  $\Delta h$  hisobiga emas, balki  $h_i - \Delta h$  balandligi bilan aniqlanadigan musbat bosim ta’sirida ham, xuddi tutash idishlardagi kabi oqib keladi va to‘zitgichdan diffuzorga tushadi, bunda yonilg‘i to‘ziydi xamda havo bilan aralashib silindrga tushadi. Yonuvchi aralashmaning quyuqlashish yoki suyuqlashish darajasi diffuzor orqali o‘tayotgan havoning umumiy sarfiga bog‘liq. Havoning sarfi kam bo‘lsa, diffuzorda siyraklanish uncha katta bo‘lmaydi va bosimning ta’siri sezilarli bo‘ladi. Diffuzorda havo sarfi va siyraklanish ortishi bilan yonilg‘ining oqib chiqishiga bosimning ta’siri nisbatan kamayadi. Natijada yonuvchi aralashma asta-sekin suyuqlashadi. Demak,  $\alpha$  ning qiymati kattalashib boradi (7.9-rasm, b).

Karbyuratorlarda to‘zitgich nayi / ning ichiga emulsion naycha o‘rnataladi. Unda bir necha teshiklar bo‘lib, ular har xil balandlikda joylashgan bo‘ladi. Diffuzordagi siyraklanish ortishi bilan teshiklar ko‘proq ochila boshlaydi, natijada yonuvchi aralashma ko‘proq suyuqlashadi va aksincha. Shu

sababi, emulsion karbyuratorning tavsisi ideal karbyuratorning tavsifiga mos keladi.



**7.9-rasm. Yonilg'iini pnevmatik tormozlash sxemasi:**

*a-karbyuratorning sxemasi;*


*b-yonuvchi aralashma tarkibining o'zgarishi*

### Kompensatsion jiklyorli tizim

Kompensatsion jiklyorli karbyuratorning sxemasi 7.10-rasm. *a* da ko'rsatilgan. Bu karbyurator bosh jiklyor 1, to'zitgich naychasi 5 va kompensatsion jiklyor 2 dan iborat bo'lib, u qalqovuchli kamera va kompensatsiyalash quduqchasi 3 orasidagi kanalga o'matilgan. Kompensatsion jiklyor o'zining to'zitgichi 4 va nayiga ega.

Rasmdagi sathlar va bosim dvigatel ishlamay turgan paytdagi qalqovuchli kamera uchun keltirilgan. Yuklama oshishi, ya'ni drossel-to'smaqopqoq ochilishi va diffuzordagi siyraklanish ortishi bilan bosh jiklyor orqali o'tayotgan yonilg'i miqdori, oddiy karbyuratordagi kabi ortadi. Shu paytning o'zida kompensatsion quduqdan ham to'zitgich orqali diffuzorga yonilg'i tusha boshlaydi. Kompensatsion quduqdan tushayotgan yonilg'i miqdorining ortishi yonilg'i sathi  $\Delta h_k$  qiymatga pasaymaguncha davom etadi, so'ngra

### *Yonuvchi aralashma*



**7.10-rasm. Kompensatsion jiklyorli tizim**

purkagich 4 orqali diffuzorga tushayotgan yonilg'ining miqdori o'zgarmay qoladi. Kompensatsion jiklyorli karbyuratorning diffuzordagi siyraklanish  $\Delta p_d$ ga bog'liq holda ishlashi 7.10-rasm, b da ko'rsatilgan. Drossel-to'smaqopqoq ochi la boshlashi bilan ikkala to'zitgichdan chiqayotgan yonilg'ining miqdori oshgani sababli, yonuvchi aralashma avval keskin quyuqlashadi, so'ngra  $\Delta p_d$  ning ortishi bilan suyuqlashadi. Bunga sabab, kompensatsion jiklyor orqali o'tayotgan yonilg'i sarfining o'zgarmay qolishidir. Jiklyorlarning kesimini to'g'ri tanlab, kerakli yonuvchi aralashma tarkibini olish mumkin.

### **Diffuzordagi siyraklanish rostlanadigan tizim**


Yuqorida keltirilgan usullar kabi, kerakli tarkibdagi yonuvchi aralashmani diffuzordagi siyraklanishni o'zgartirib ham olish mumkin. Bu maqsadda diffuzor orqali o'tayotgan havo miqdorini o'zgartira oladigan karbyurator ishlataladi (7.11-rasm, a). Buning uchun karbyurator devorlari va diffuzor 3 oraliqiga elastik plastinalar 4 o'rnatiladi va ular dvigatel ishlamaganda diffuzoring tashqi devorlariga siqilib turadi. Bunday karbyuratorda yonilg'i oddiy karbyuratordagi kabi

diffuzorga to'zitgich orqali tushadi va ma'lum siyraklanishgacha  $\alpha$  punktir chiziq bo'yicha o'zgaradi (7.11-rasm, v). Diffuzordagi siyraklanish  $\Delta p_s$  qiymatga erishganda tezlik bosimi ta'sirida elastik plastinalar ochiladi va natijada havoning bir qismi diffuzorni chetlab o'tadi. Bunda diffuzor orqali o'tayotgan havoning nisbiy miqdori ortadi va yonuvchi aralashma suyuqlashib,  $\alpha$  ning o'zgarishi 7.11-rasm, v dagi kabi bo'ladi.

Plastinalarning elastikligi yonish jarayoni shartlariga binoan tanlanadi, ya'ni qanday rejimda yonuvchi aralashma suyuqlanishi kerak bo'lsa, shu paytdan boshlab plastinalar ochiladi. Bunday samaraga dvigatelning ish sharoitlariga mos ravishda o'zgaradigan o'tkazuvchi kesimli diffuzorni qo'llab ham erishish mumkin (7.11-rasm, b). Drossel-to'smaqopqoq ozgina ochilganda bu plastinalar o'zaro yaqinlashib, bo'g'izning havo o'tadigan kesimi kichrayadi, shu sababli bo'g'izda havoning tezligi va siyraklanishi katta bo'ladi. Bunday sharoitlarda diffuzorga nisbatan ko'proq yonilg'i tushadi va yonuvchi aralashma quyuqlashadi. Drossel-to'smaqopqoq ochila borishi bilan plastinalar ham ochilib, bo'g'izning o'tkazish kesimi kattalashadi, havoning sarfi esa ortadi; diffuzordagi siyraklanish va unga tushayotgan yonilg'i miqdori ham ortadi, natijada yonuvchi aralashma suyuqlashadi. Bunday karbyuratorning tavsifi ideal karbyurator tavsifiga mos keladi.

### **Jiklyorning o'tkazuvchi kesimi rostlana digan tizim**

Yonuvchi aralashmaning kerakli tarkibini ji klyoming o'tkazish kesimini rostlash bilan ham olish mumkin. Buni harakatlanuvchi ninalar yordamida amalgalashadi. Yonuvchi aralashmani bu usulda kompensatsiyalashni o'rganishda salt ishlash tizimining ish sharoitlarini ham e'tiborga olish kerak. Agar salt ishlash tizimi asosiy jiklyordan keyin o'rnatilgan bo'lsa, drossel-to'smaqopqoq yopilganda real tavsiflar ideal tavsiflarga katta aniqlik bilan yaqinlashadi. Salt



7.11-rasm. Diffuzordagi siyraklik rostlanadigan karbyuratorning sxemasi:


a-diffuzor orqali o'tadigan havo miqdorini rostlash tizimi;  
 b-diffuzorniig kesim yuzasini o'zgartiradigan tizim;  
 v-yonuvchi aralashma tarkibining tavsifi

ishlash tizimida yonilg'ini dozalash diffuzordagi va drossel-to'smaqpinqoq orqasidagi siyraklanishga bog'liq bo'ladi. Bu siyraklanish asosiy taqsimlash tizimining ishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Karbyuratordag'i dozalash ninasi mexanik (7.12-rasm, a), vakuum yoki vakuum-mexanik (7.12-rasm, b) usullarda harakatga keltiriladi. Bunday karbyuratorning dozalash tizimi asosi y jiklyor 11, uning ichida harakat qiladigan dozalash ninasi 10, havo jiklyori 2 va diffuzor 3 ichiga chiquvchi to'zitgich 4 dan iborat.

Salt ishlash tizimi asosiy dozalash tizimidan keyin ulangan bo'lib, u yonilg'i 5 va havo jiklyorlari 1 ga ega. Bu tizim aralashtirish kamerasi bilan teshiklar 7, 8 orqali birlashgan, pastki teshik esa vint 9 bilan rostlanadi.

Drossel-to'smaqopqoqning to'la ochiq holatida dozalash ninasi 10 harakat qilmaydi va yonuvchi aralashma emulsion karbyuratordag'i kabi kompensatsiyalanadi. To'smaqopqoq to'la ochilganda diffuzor va aralashtirish kamerasi orasida bosimlar farqi paydo bo'ladi. Natijada salt ishlash tizimidan yonilg'i asosiy dozalash tizimiga o'tadi va bu holda yonilg'i jiklyori 5 asosiy dozalash tizimining qo'shimcha havo jiklyori kabi ishlaydi. To'smaqopqoqning holati o'zgarganda, konussimon dozalash ninasi ham unga bog'liq holda harakatlanadi. Ninaning konusi u katta yuklamalarda kerakli tarkibdagi yonuvchi aralashma olishni ta'minlaydigan qilib tanlanadi, chunki bu paytda salt ishlash tizimidan faqt havo keladi. To'smaqopqoq to'la ochilganda nina yuqoriga harakatlanadi, bunda asosiy jiklyorning o'tkazish kesimi kattalashib, natijada yonuvchi aralashma quyuqlashadi.



**7.12-rasm. Karbyuratordag'i dozalovchi ninani  
harakatga keltirish sxemalari:**

a-mexanik; b-vakuum-mexanik usullar


Dozalash ninasi vakuum yoki vakuum-mexanik usulda harakatga keltiriladigan karbyuratorlarda prujina 13 ning (7.12- rasm, b) tavsifi to'smaqopqoqdan pastdag'i siyraklanish 100...120 mm. sim. ustuniga teng, prujina esa ninani ko'tarib, yonuvchi aralashmaning quyuqlashishini ta'minlaydigan qilib tanlanadi. Bu o'z

navbatida dvigatelning katta yuklamalarda ishlashiga mos keladi.

## 7.6. KARBYURATORNING YORDAMCHI TUZILMALARI

Hozirgi zamон tezyurar dvigatellariga o'rnataladigan karbyuratorlarda quyidagi yordamchi tuzilmalar: ekonomayzer, ekonostat, salt ishlash tizimi, tezlatish nasosi va yurgizib yuborish tizimi mavjud.

**Ekonomayzer.** Dvigateldan eng katta quvvat olish uchun yonuvchi aralashma quyuqlashtirilishi kerak. Buning uchun drossel-to'smaqopqoq tez va to'la ochiladi, bu holda ekonomayzer diffuzorga qo'shimcha yonilg'i berishni ta'minlaydi. Ekonomayzer mexanik va pnevmatik usulda




7.13-rasm. Ekonomayzerli karbyuratorning sxemalari:

a-mexanik harakatga keltiriladigan; b-pnevmatik harakatga keltiriladigan

harakatga keltirilishi mumkin (7.13-rasm, a, b). Ekonomayzerning jiklyori 3 asosiy jiklyor 2 ga paralel va ketma-ket ulanadi; kichik yuklamalarda ekonomayzer jiklyoridan yonilg'i o'tmaydi. Drossel-to'smaqopqoq katitaroq ochilganda richag 5 yordamida klapan 1 ochiladi va ekonomayzer jiklyori 3 hamda to'zitgich 4 orqali diffuzorga qo'shimcha yonilg'i tushadi. Bu jiklyorda sarflangan yonilg'i miqdori asosiy jiklyorda sarflangan yonilg'i miqdorining 15...20% ini tashkil qiladi. Natijada yonuvchi aralashma quyuqlashadi va uning talab qilingan tarkibi hosil qilinadi.

**Ekonostat.** Ko'pchilik karbyuratorlarda ekonostat deb ataluvchi maxsus quyuqlashtiruvchi tizim ishlataladi. Ekonomayzer kabi, ekonostat ham dvigatel to'la yuklamalarda ishlaganda yonuvchi aralashmani quyuqlashtirish uchun xizmat qiladi, lekin ekonostat havo sarfi katta bo'lgan hollardagina yonuvchi aralashmani quyuqlashtiradi.

Ekonostat (7.14-rasm) alohida dozalovchi tizimni tashkil etadi. U jiklyorlar 2, 4 va naycha 3 dan iborat. Naychaning bir uchi havo kiritish trubaiga chiqadi, ikkinchi uchi esa qalqovuchli kameraga ulangan.




*Yonuvchi aralashma*  
**7.14-rasm. Ekonostatli karbyuratorning sxemasi**

bartaraf qilib, yonilg'ining kerakli tarkibini hosil qilib beradi.

**Salt ishlash tizimi.** Bu tizim dvigatel salt va kichik yuklamalarda ishlayotgan vaqtida yonuvchi aralashmaning kerakli tarkibini tayyorlab beradi. Bunday sharoitlarda diffuzordagi havoning siyraklanishi kam bo'ladi va havo kichik tezlikda harakatlanadi. Natijada o'ta suyuqlashgan yonuvchi aralashma hosil bo'ladi. Yonilg'ini quyuqlashtirish (kerakli tarkibini olish) maqsadida va dvigatelning turg'un rejimda ishlashini ta'minlash uchun drossel-to'smaqopqoqning ketida hosil bo'ladiyan siyraklanishdan

foydalanimi. Salt ishlash tizimi asosiy jiklyordan so'ng langan emulsion karbyuratorning sxemasi 7.15-rasmda ko'rsatilgan.


Salt ishlash vaqtida drossel-to'smaqopqoq 13 ostida kuchli siyraklanish hosil bo'ladi. Bu holda yonilg'ining harakati strelka bilan ko'rsatilgandek bo'ladi. Yonilg'i havo jiklyori 3 dan o'tayotgan havo bilan aralashib, emulsiya hosil qiladi va u chiqish teshigi 10 ga keladi. Chiqish teshigida konussimon rostlash vinti 9 o'rnatilgan bo'lib, bu vint yordamida kichik aylanishlar chastotasida yonuvchi aralashmaning kerakli tarkibi hosil qilinadi. Teshik 8 ning vazifasi drossel-to'smaqopqoq ochila borishi bilan dvigatelning turg'un ishlashini ta'minlashdan iborat. Drossel-to'smaqopqoq ozroq ochilganda teshik 8 kuchli siyraklanish zonasida bo'ladi va yonilg'i emulsiyasi 8, 10 teshiklar orqali tusha boshlaydi, bu bilan yonuvchi aralashmaning kerakli tarkibi hosil qilinadi. Vint 11 to'smaqopqoqning eng kichik ochilish burchagini rostlash uchun mo'ljallangan.



7.15-rasm. Salt ishlash tizimi bilan jihozlangan emulsion karbyuratorning sxemasi

**Tezlatish nasosi.** Karbyuratorli dvigatellarni ekspluatatsiya qilish sharoitlarida ko'pincha aylanishlar

chastotasini yoki yuklamani tez oshirishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda yonuvchi aralashma suyuqlashib, dvigatel kerakli qvvat hosil qila olmaydi yoki boshqacha qilib aytganda, avtomobilning shig'ov tavsifi yomonlashadi. Bu kamchilik tezlatish nasosi deb ataluvchi moslama yordamida bartaraf qilinadi. Tezlatish nasosi drossel-to'smaqopqoq tez ochilganda yonuvchi aralashma o'ta suyuqlashmasligi uchun yonilg'inining qo'shimcha ulushini tezlik bilan yetkazib berish uchun xizmat qiladi. Tezlatish nasosli karbyuratorning sxemasi 7.16-rasmda ko'rsatilgan. Tezlatish nasosi mexanik yoki pnevmatik usulda harakatga ketiriladi. Drossel-to'smaqopqoqning yopiq yoki qisman ochiq holatlarida porshen ostida albatta yonilg'i bo'ladi.




*7.16-rasm. Tezlatish nasosi  
karbyuratorning sxemasi*

Drossel - to'smaqopqoq tez ochilganda pastga tezlik bilan harakatlanayotgan porshen 2, so'rish klapani 7 va to'zitgich 1 orqali yonilg'inining bir qismini havo oqimiga purkab, yonuvchi aralashmani quyuqlashtiradi va dvigateling ish rejimiga mos aralashma hosil qilinadi.

Drossel-to'smaqopqoq avvalgi holatiga qaytishida porshen ostida siyraklanish hosil bo'ladi va kiritish klapani 6 orqali yonilg'i tezlatish nasosining silindriga kiradi.

Yurgizib yuborish moslamasi bo'lmagan karbyuratorli dvigateli sovuq sharoitda ishga tushirish juda qiyin. Bunda yonuvchi aralashmani tayyorlash jarayoni qoniqarsiz bo'ladi, chunki yonilg'inining bir qismi suyuq holda, ya'ni tomchilar shaklida kiritish trubai devorlarida o'tirib qoladi va yonish kamerasida o'ta suyuq yonuvchi aralashma hosil bo'ladi, natijada dvigateli ishga tushirish qiyinlashadi. Bu kamchilikni yo'qotish maqsadida

karbyuratorlarga dvigatelni yurgizib yuborish moslamasi o'rnatiladi. Bu moslama silindrga berilayotgan yonilg'i miqdorini oshirib, yonuvchi aralashmaning kerakli tarkibini hosil qildi, natijada dvigatelni ishga tushirish osonlashadi. Bu moslamaning sxemasi 7.17-rasmda ko'rsatilgan. U havo kiradigan truba 1 ga o'rnatilgan havo to'smaqopqog'i 2 dan iborat. Dvigatelni ishga tushirishda to'smaqopqoq qiya yopiladi. Natijada karbyuratorning diffuzorida siyraklanish oshib ketadi va asosiy dozalash tizimidan ko'p miqdorda yonilg'i keladi, yonuvchi aralashma esa quyuqlashadi. Yonilg'inining bug'langan qismi yonish jarayonining



*7.17-rasm. Ishga tushirish moslamasining sxemasi*

turg'unligini ta'minlaydi. Havo to'smaqopqog'ida plastinasimon klapan 3 o'rnatilgan bo'lib, u prujina 4 orqali yopiq holda ushlab turiladi. Bu klapan dvigatel ishga tushirilgandan so'ng aylanishlar chastotasi va havo sarfi orta boshlashi bilan ochiladi.

## 7.7. K-88 A KARBYURATORINING TUZILISHI VA ISHLASHI

Zamonaviy avtomobil dvigatellarida asosan havo oqimi yuqorida pastga yo'nalgan karbyuratorlar o'rnatiladi, chunki ular qisqa, qarshiligi kam bo'lgan kiritish trubalarini qo'llashga imkon beradi, bu esa dvigatelni yangi zaryad bilan to'ldirishni yaxshilaydi va uning litrli quvvatini oshiradi. Bunday karbyuratorlar silindrga tushayotgan yonuvchi aralashmaning tarkibi bir xil bo'lishini ta'minlaydi. Ekspluatatsiya sharoitlarida esa karbyuratorlarga texnik xizmat ko'rsatish osonlashadi.


ZIL-130 avtomobilining dvigateliga o'matiladigan ikki kamerali K-88A karbyuratorining sxemasi 7.18-rasmida ko'rsatilgan. Karbyuratororda ikkala kamera uchun umumiyoq bo'lgan kirish trubai 10 bor. Trubadagi havo zaslondagi 11 ga prujinali klapan 12 o'matilgan; yonilg'i qalqovuchli kameraga kirish teshigi 2 va filtr 3 orqali tushadi. Ikkala kamera uchun tezlatish nasosi va mexanik harakatlanuvchi ekonomayzer umumiyidir. Muvozanatlash kanali 9 havo tozalagich ifloslanib qolganda yonuvchi aralashma tarkibining o'zgarmasligini ta'minlaydi. Ikkala kamerada bir xil kichik diffuzorlar 8, katta diffuzorlar 30 va drossel-to'smaqopqoq 31 joylashgan. Ushbu karbyuratorlarda yuqorida ko'rib o'tilgan tizimlarning barchasi mavjud.

**Asosiy dozalash tizimi** jiklyorlar 33, to'la quvvat jiklyorlari 4 va havo jiklyorlari 5 dan iborat.

**Salt ishlash tizimi** havo jiklyori 16 va yonilg'i jiklyori 15, kanallar 26, rostlash vintlari 29 bilan jihozlangan chiqish teshiklari 27 va 28 dan iborat.

**Tezlatish nasosi** drossel-to'smaqopqoq orqali mexanik harakatga keltiriladi. Drossel-to'smaqopqoq 31 ochilganda porshen 19 manjet 20 bilan birga richag 25 va tortqi 23 yordamida siljiydi. Bunda porshen ostida yonilg'inining bosimi ortadi. Sharli kiritish klapani 21 yonilg'inining qalqovuchli kameraga o'tishiga to'sqinlik qiladi, ninali chiqarish klapani 14 esa yonilg'ini tezlatish nasosining to'zitish teshiklari 13 ga o'tkazib yuboradi. Bu aralashmaning suyuqlashib va quvvatning kamayib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun zarur bo'lgan miqdorda yonilg'i berishni ta'minlaydi. Mexanik harakatga keltiriladigan ekonomayzer ham turkich 17 orqali boshqariladi. Buning uchun drossel to'smaqopqoq katta ochilishi kerak, bunda turkich 17 klapan 23 ni ochadi. Natijada, yonilg'inining qo'shimcha miqdori qalqovuchli kameradan asosiy jiklyorlarga o'tmasdan to'la quvvat jiklyorlariga o'tadi, qiya

7.18-rasm. K-88 A karbyuratorning sxemasi




kanallar orqali esa yonilg'i kichik diffuzorlarning halqasimon chiqish teshiklariga keladi va dvigatelning kerakli rejimi ta'minlanadi. Karbyuratorli dvigatellarning eng katta va eng kichik rejimlarida turg'un ishlashini

ta'minlashi uchun karbyuratorga pnevmatik markazdan qochirma turdag'i mexanizm o'matiladi. Bu mexanizmning ishlashi esa quyida keltirilgan.

### 7.8. KARBYURATORLI DVIGATELNING ENG KATTA TEZLIK REJIMINI ROSTLASH


Karbyuratorli dvigatelning eng katta tezlik rejimini rostlash uchun aylanishlar chastotasi regulyatori yoki cheklagich qo'llaniladi. Masalan, ZIL-130 va GAZ-53 avtomobil dvigatellarining karbyuratoriga pnevmatik markazdan qochirma turdag'i aylanishlar chastotasi regulyatori o'matilgan (7.19-rasm). Bu regulyator (cheklagich) o'rindiq 4 va prujina 2 li klapan 3 o'matilgan rotor 5 dan hamda rostlovchi zaslонка 8 ni harakatga keltiruvchi diafragmali mexanizm 6 dan iborat. Diafragma ustida jiklyorlar 9 va 10 yordamida hosil qilinadigan siyraklanish klapan 3 orqali havoning kelishi hisobiga pasayadi.

Har bir dvigatel malum aylanishlar chastotasiga erishgach, klapan 3 ning havo o'tish kesimi kichrayadi va diafragma tepasida siyraklanish ortadi. Natijada, bundan keyin aylanishlar chastotasi bir oz oshsa ham diafragma yuqoriga egiladi va drossel-to'smaqopqoq 8 yopila boshlaydi, bu esa dvigateli yangi zaryad bilan to'ldirishni pasaytiradi, dvigatelning aylanishlar chastotasi bir oz pasayadi va nominal qiymatga tushib qoladi. Shunday qilib, dvigatelin nominal yoki maksimal aylanishlar chastotasi ushbu usulda bir me'yorda ushlab turiladi.



7.19-rasm. Pnevmatik markazdan qochirma turdag'i aylanishlar chastotasini chekligich sxemasi

chastotasi bir oz pasayadi va nominal qiymatga tushib qoladi. Shunday qilib, dvigatelin nominal yoki maksimal aylanishlar chastotasi ushbu usulda bir me'yorda ushlab turiladi.



### 7.18.1-rasm. Tiko dvigatelining karbyuratori:


1-qalqovuchli bo'linma; 2-asosiy tizimning havo jiklyori; 3-salt ishlash tiziminining havo jiklyori; 4-elektromagnit klapani; 5-birlamchi bo'linmaning kichik diffuzori; 6-birlamchi bo'linma diffuzori; 7-havo to'siqchasi; 8-tezlatuvchi nasos to'zitgichi; 9-havo kanali; 10-ikkilamchi bo'linmaning kichik diffuzori; 11-ikkilamchi bo'linma bosh me'yorlash tiziminining havo jiklyori; 12-ternoklapani; 13-termoklapan korpusi; 14-aratashmani suytirish klapani; 15-diafragma; 16-prujina; 17-to'zitgich korpusi; 18-ikkilamchi bo'linma drossel to'siqchasini boshqarish pnevmoklapani; 19-qaytarish-qisish prujinasi; 20-diafragma; 21-shtok; 22-ikkilamchi bo'linmaning yonilsh jiklyori; 23-ikkilamchi bo'linmaning emulsiya quvurchasi; 24-ikkilamchi bo'linmaning drossel to'siqchasi; 25-ikkilamchi bo'linma drossel to'siqchasini boshqarish pnevmoklapan uzatma tizimi havo jikbyorlari; 26-birlamchi bo'linma drossel to'siqchasi; 27-birlamchi bo'linma drossel to'siqchasing pishangi; 28-birlamchi bo'linma emulsiya quvurchasi; 29-salt ishlash tizimi yonilg'i miqdorini rostlash vinti; 30-birlamchi bo'linma bosh me'yorlash tizimi yonilg'i jiklyori; 31-qakqovuch; 32-quflaydig'an zo'ldirli kiritish klapani; 33-tezlatuvchi nasos uzatmasining pishangi; 34-tezlatuvchi nasos qaytaruvchi prujinasi; 35-shtok; 36-tezlatuvchi nasos diafragmasi; 37-quflaydig'an zo'ldirli chiqarish klapani; 38-salt ishlash tiziminining o'chirish elektr-klapani; 39-ninasimon klapani; 40-yonilg'i uzatish quvuri; 41-yonilg'in yonilg'i bakiga qaytarish quvuri; 42-salt ishlash yonilg'i jiklyori; 43-salt ishlash havo jiklyori; 44-salt ishlash o'tkazib yuborish teshigi; 45-o'tish tiziminining yonilg'i jiklyori; 46-ikkinchchi bo'linnia o'tish tiziminining chiqish teshigi; 47-inersiya kuchi bilan (nakat) harakatlanish klapani; 48-inersiya kuchi bilan harakatlanish yonilg'i jiklyori; 49-inersiya kuchi bilan harakatlanish havo jiklyori.

## Salt ishlash rejimida siyraklanishni cheklash

Majburiy salt ishlash rejimi va dvigatel bilan tormozlash avtomobil harakati umumiyligi vaqtining 20% ini tashkil qiladi. Bu rejimlarda karbyuratorli dvigatelin kiritish trubalarida katta siyraklanish hosil bo'ladi. Yonish jarayoni yomonlashadi, natijada sikllarning 90% ida umuman yonish bo'lmaydi va dvigatel noturg'un ishlaydi, ishlatilgan gazlarning zaharliligi bir necha marta ortib ketadi. Bundan tashqari, katta siyraklanish natijasida karter moyining yonish kamerasiga ko'plab o'tishi kuzatiladi. Bu esa o'z navbatida qurum hosil bo'lishiga va dvigatelin tutun chiqarib ishlashiga olib keladi.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni yo'qotishning eng qulay usuli dvigatelin kiritish trubaini atmosfera bilan maxsus siyraklanishni cheklagich, deb ataluvchi klapan orqali bog'lash va ekonomayzer orqali yonilg'i berishni to'xtatishdir. Bunday cheklagich siyraklanishning kamayishiga qaramasdan klapanning keskin ochilishini va ochiq holatda bo'lishini ta'minlashi kerak. Bu asosiy talablardan biridir. Dvigatelin ish rejimlariga mos holda klapanning yopilish vaqtidagi siyraklanishi ham har xil bo'ladi, shuning uchun klapanning

ochilish va yopilish paytlarini mustaqil rostlash talab qilinadi. Bu vazifa avtomatik tarzda bajarilishi shart. Avtomatik klapanli siyraklanishni cheklagich sxemasi 7.20-rasmida ko'rsatilgan.



**7.20-rasm. Salt ishlash rejimida siyraklashishni cheklagich sxemasi**

Siyraklanishni cheklagich 11 karbyurator 12 da dvigatelning kiritish trubai 10 oralig‘iga o‘matiladi. Klapan 6 cheklagichning bo‘g‘zi 5 ni kiritish trubaining bo‘shlig‘idan ajratib turadi, prujina 7 esa klapanni o‘rindiqqa siqib turadi. Diafragma 3 klapan korpusi bilan birga o‘tish kamerasi 8 ni hosil qiladi, undagi bosim esa rostlash vinti 9 va teshik yordamida rostlanadi. Kamera 8 dagi bosim atmosfera bosimidan kichik, lekin kiritish trubaidagi bosim dan katta bo‘ladi. Kameradagi va kiritish trubaidagi bosimlarning o‘zaro ta’siri natijasida yuqoriga yo‘nalgan kuch yuzaga keladi. Bu kuch prujina kuchi bilan birga klapanning ochilishiga to‘sinqinlik qiladi. Kameradagi bosim klapanning holatini boshqaradi, shuning uchun kamera 8 boshqarish kamerasidagi deb ataladi.

Salt ishslash paytida kiritish trubasidagi siyraklanish  $\Delta p$ , ma‘lum qiymatdan oshishi bilan klapan 6 o‘rindiqdan chetlashadi. Klapan siljishi bilan teshiklar 4 berkiladi va kamerada siyraklanish ortib, kiritish trubaidagi siyraklanishga tenglashib qoladi. Klapan kiritish trubai va boshqarish kamerasidagi siyraklanish pasayguncha ochiq qoladi.

Dvigatelga yuklama berilganda klapan avtomatik tarzda berkiladi, chunki bu holda boshqarish kamerasidagi bosim oshadi. Bunda rostlash vintining kanali 1 ochilayotgan drossel-to’smaqopqoqning yuqorisida bo‘ladi.

Majburiy salt ishslash rejimida yonilg‘i berishni to‘xtatish uchun karbyuratorga ta’sir etish, salt ishslash yonilg‘i jiklyorining oldidagi siyraklanishni kamaytirish kerak. Bunga salt ishslash tizimi kanalini atmosfera bilan tutashtirish orqali erishiladi.


## 7.9 YONILG‘I PURKAB ARALASHMA HOSIL QILISH

Karbyuratorning tuzilishi murakkab bo‘lib, u ko‘pgina tizim va tuzilmalardan tashkil topgan. Shu sababli uchqun bilan o‘t oldiriladigan dvigatellarda yonilg‘ini


kiritish trubaiga bevosita purkab aralashma hosil qilish usuli ham qo'llanilmoqda.

Bu usul quyidagi afzalliklarga ega: har xil silindrлardagi yonuvchi aralashma bir jinsli va bir tarkibli bo'lishiga erishiladi; bir xil ish hajmida dvigatel katta nominal quvvatga ega bo'ladi, chunki karbyurator bo'limgani sababli, to'ldirish koeffitsiyenti katta bo'ladi; bir xil siqish darajasida oktan soni 2...3 birlik kam bo'lgan yonilg'iłarni hamda og'irroq fraksiyali yonilg'iłarni ishlatish mumkin.

Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellarda benzin purkashning ikki usuli qo'llaniladi: a) silindrga purkash; b) kiritish trubaiga uzuksiz yoki vaqtı-vaqtı bilan purkash. Silindrga purkash, kiritish yoki siqish jarayonining boshida yoxud oxirida bo'lishi mumkin.



7.21-rasm. Markaziy purkash tizimi



7.22-rasm. Ko'p nuqtali purkash tizimi


### Yonilg'i uzatish tizimlari

Yonilg'i bakdan elektr nasos yordamida filtr orqali bosim trubaiga uzatiladi. Bosim trubaining boshqa uchida rostlagich o'rmatilgan bo'lib, u tizimdagи bosimni belgilangan o'zgarmas qiymatda ushlab turilishini ta'minlaydi.


Ishlatilmagan yonilg‘ini bakka qaytaruvchi trubali yonilg‘i uzatish tizimi («Neksiya» avtomobilining dvigateli) (7.23-rasm).

Bu tizimda hamma forsunkalar bosim rostlagichi joylashtirilgan yuqori bosim trubai bilan ulangan. Ishlatilmagan yonilg‘i bosim rostlagichi va qaytarish trubai orqali bakka qaytariladi. Bosim rostlagichi kirish trubaidagi siyraklanishga bog‘liq ravishda uzatish trubaidagi bosimni o‘zgarmas holda ushlab turadi.

Ishlatilmagan yonilg‘ini bakka qaytarmaydigan yonilg‘i uzatish tizimi («Matiz» avtomobilining dvigateli) (7.24-rasm). Bu tizimda bosim rostlagichi yonilg‘i bakiga joylashtirilgan yoki unga bevosita biriktirilgan bo‘lib, unda qaytarish trubai yo‘q. Forsunkalar joylashtirilgan taqsimlash trubaiga elektr nasosi yordamida uzatilgan yonilg‘i to‘la ishlatiladi.



7.23-rasm. Ishlatilmagan yonilg‘ini bakka qaytaruvchi trubali uzatish tizimi («Neksiya» avtomobilining dvigateli)



7.24-rasm. Yonilg‘i bakka qaytarilmaydigan uzatish tizimi («Matiz» avtomobilining dvigateli)

Birinchi usul bo‘yicha yonilg‘i uzatish tizimida bakdag‘i yonilg‘i harorati nisbatan yuqoriroq bo‘ladi, chunki qaytarilgan yonilg‘i ancha qizib ulguradi. Yonilg‘ining katta harorati uning ko‘proq bug‘lanishiga va bakda yonilg‘i bug‘ining to‘planishiga olib keladi. Yonilg‘i bug‘i bakning


shamollatish tizimi orqali aktivlashtirilgan pista ko'mirli adsorberga uzatiladi. Dvigatelning ish jarayonida bu bug'lar kiritish trubaiga uzatiladi va natijada yonilg'i uzatish tizimida bakdagi harorat  $10\ldots12^{\circ}\text{S}$  gacha past, yonilg'inining bug'lanishi esa taxminan 30%gacha kam bo'ladi.

### Purkash tizimining datchiklari.

#### Havo bosimi datchigi

Havo bosimi datchigi (7.25-rasm) kiritish trubaidagi siyraklanishni o'lchash uchun xizmat qiladi. Datchik bevosita kiritish trubaiga joy lashtirilgan bo'lib, undan olingan ma'lumot elektron boshqarish bloki (EBB)ga uzatiladi va dvigatearning yuklamasi aniqlanadi. Datchikning asosiy elementi pyezoelementli mikrosxemadir (silikonli chip).

Kiritish trubaidagi bosim datchigining membranasi 2 ga ta'sir qiladi. Membrananing harakati ta'sirida pyezoelementda elektr yurituvchi kuch (EYuK) hosil bo'ladi. Datchikning A va B qisqichlariga qiymati 5V bo'lgan etalon kuchlanish uzatiladi.



**7.25-rasm. Havo bosimi datchigi:**

1-mikrosxemali pyezoelement; 2-membrana;  
3-issiqbardosh shishadan plastinka; 4-vakuum kamera

Datchikning vakuum kamerasi 3 da qiymati 0,01 MPa ( $0,1 \text{ kgs/sm}^2$ ) bo'lgan bosim ushlab turiladi. Kiritish trubaidagi havo bosimi vakuum kameradagi bosimdan ortiqroq, shuning uchun datchik membranasini 2 ga kiritish trubai va vakuum kameradagi bosimlar farqiga teng yuklama ta'sir qiladi. Kiritish trubaidagi bosim qanchalik katta bo'lsa, membrana datchik pyezoelementini shunchalik ko'proq siqadi va pyezoelementda hosil bo'layotgan tok ham shunchalik katta bo'ladi. Tok qanchalik katta bo'lsa, datchikning A va V qisqichlaridagi etalon kuchlanishning pasayishi shunchalik kam bo'ladi.

Dvigatel salt yurish rejimida ishlaganda (drossel to'siqcha yopiq) kiritish trubaidagi bosim minimal qiymatgacha kamayadi va  $0,02\ldots0,03 \text{ MPa}$  ( $0,2\ldots0,3 \text{ kgs/sm}^2$ )ni tashkil qiladi, datchikning chiqish qisqichlaridagi kuchlanish esa  $1,5\pm0,2V$  gacha pasayadi. Bu ma'lumotni qabul qilgan EBB purkalayotgan yonilg'i miqdorini kamaytiradi.

Dvigatel maksimal yuklama bilan ishlaganida (drossel to'siqchasi to'la ochiq) kiritish trubaidagi bosim deyarli atmosfera bosimi qiymatiga yetadi va  $0,085\ldots0,095 \text{ MPa}$  ni tashkil qiladi. Bosimga mos ravishda datchik membranasiga ta'sir qilayotgan kuch ham ortadi va datchikning chiqish qisqichlaridagi kuchlanish  $4,6\pm0,2V$  ga yaqinlashadi. EBB esa bu kuchlanishga mos ravishda purkalayotgan yonilg'i miqdorini oshiradi.

Elektr yonilg'i nasosi bakdagi yonilg'ini  $0,25 \text{ MPa}$  bosim ostida mayin tozalash filtri orqali taqsimlash trubaiga uzatadi. Taqsimlash trubaiga silindr soniga teng bo'lgan forsunkalar joylashtiriladi. Taqsimlash trubaining oxirida yonilg'i bosimi rostlagichi o'rnatilgan bo'lib, u purkash tizimidagi bosim qiymatini o'zgarmas holda ushlab turish va ortiqcha yonilg'ini bakka qaytarish uchun xizmat qiladi. Bu yonilg'ining tizimda aylanishini ta'minlaydi va bug' tinqinlari hosil bo'lishi oldini oladi.

Purkalayotgan yonilg'i miqdorini EBB belgilaydi.

**Havo harorati datchigi** asosini termosezuvchan qarshilik tashkil qilib, haroratning joriy qiymatlari haqidagi ma'lumotni EBBga kuchlanish ko'rinishida uzatish uchun xizmat qiladi. Datchikning termosezuvchan qarshiligi o'z qiymatini haroratga mos ravishda o'zgartirish xususiyatiga ega. Harorat past bo'lganda datchikning qarshiligi eng katta qiymatga ega bo'ladi, ortishi bilan qarshilik kamayib boradi (ba'zi datchiklarda 400 Om dan 50 Om gacha).

**Havo sarfi datchigi** dvigatelda ishlatalayotgan havo miqdorini o'lhash uchun xizmat qiladi. Ko'p hollarda u maxsus kanaldagi o'qqa o'matilgan o'lhash to'siqchasi ko'rinishida bo'ladi. O'tayotgan havo ta'sirida to'siqchani o'z o'qida buralishi potensiometr vositasi bilan unga mos kuchlanishga o'zgartiriladi. Havo sarfi datchigi tarkibiga havo harorati datchigi ham kiradi.


Aylanish chastotasi va burchak holatini aniqlovchi fotoelektr (magnit-elektr) datchik tirsakli valning aylanish chastotasi va porshenning yuqori chyekka nuqtadan o'tish holatini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Datchik uzgich-taqsimlagichga yoki ilashish mexanizmining karteriga, maxovikka o'rnatilgan maxsus tishli gardish ro'parasiga joylashtiriladi.


Fotoelektr datchikning prinsipial sxemasi 7.26-rasmda keltirilgan. Uzgich-taqsimlagich valiga mahkamlangan teshikli diskning har ikkala tomoniga ikkita fotodiod 2 joylashtirilgan. Yorug'lik nuri navbatdag'i teshikdan o'tganda datchik elektr impulsi ishlab chiqaradi. Taqsimlash vali bir marta aylanganda diskda nechta teshik bo'lsa, EBBga shuncha elektr impulsi uzatiladi («Matiz» avtomobili datchigida 54 ta teshik).

Diskning har ikkala tomonida o'rnatilgan boshqa ikkita fotodiod 3 porshenni yuqori chyekka nuqtadan o'tish daqiqasini aniqlash uchun xizmat qiladi. Buning uchun diskda uchta teshik «V» ochilgan.

**Detonatsiya datchigi** inersion massaga ega bo'lib, uning tebranishi pyezoelektrik sezuvchi elementga uzatiladi. U silindrлar blokining datchik o'rnatilgan joyidagi tebranish chastotasiga teng chastotali tok ishlab chiqadi.



7.26-rasm. Ayanish chastotasi fotoelektrik datchigining principial sxemasi:  
1-teshikli disk; 2-fotodiodlar;  
A,B-diskdagi teshiklar




7.27-rasm. Burchak impulsi va tirsaklı val ayanishlar chastotasi datchigi:  
1-doimiy magnit, 2-datchik korpusi, 3-ilashish muftasi karteri, 4-magnito-yumshoq temirli o'zak, 5-g'altak,  
6-tishli gardish

**Kislород datchiklari** (l-zond). (7.28-rasm) Yonilg'i purkash tizimlarida ikki turdagи kislород datchiklari ishlataladi. Ularning birida sezuvchi element sifatida sirkoniy dioksidi  $ZrO_2$ , ikkinchisida esa titan dioksidi  $TiO_2$  ishlataladi.

Bu datchiklar chiqindi gazlar tarkibidagi kislорodning parsial bosimini o'zgarishidan ta'sirlanadi. Datchiklar chiqarish kollektoriga o'rnatiladi.

Sirkoniyli datchik (7.28-rasm) tashqi 8 va ichki 9 elektrodlarga ega. Har ikkala elektrod ham g'ovak yoki uning qotishmalaridan tayyorlanib bir-biridan qattiq elektrolit qatlami bilan ajratilgan. Elektrolit sifatida sirkoniy dioksidi  $ZrO_2$  ishlatalib, o'tkazuvchanlik xususiyatini oshirish uchun unga ittriy dioksidi  $Y_2O_3$  qo'shiladi. Ichki

elektrodga qiymati o'zgarmas bo'lgan kislородning parsial bosimi ta'sir qilib turadi. Tashqi elektrod chiqindi gazlar oqimi bilan yuvilib turadi va uning tarkibidagi kislородning parsial bosimi o'zgarib turadi.



**7.28-rasm. Kislорod datchigi (l-zond):**  
1-rezbali metall korpus; 2-keramik korpus; 3-bog'lovchi kabel;  
4-tashqi g'ilof; 5-kontakt uchlik; 6-aktiv keramik qalpoqcha;  
7-tirqishli himoyalovchi korpus

Datchikning tashqi va ichki elektrodlariga kislородning parsial bosimi farqi ta'sirida qattiq elektrolitda ion o'tkazuvchanlik yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida tashqi va ichki elektrodlar orasida potensiallar ayirmasi yoki EYuK hosil bo'lishiga olib keladi.

Dvigatel boyitilgan aralashmada ishlaganda ( $\alpha < 1$ ) chiqindi gazlardagi kislородning parsial bosimi past bo'ladi va datchik galvanik element sifatida nisbatan yuqori kuchlanish ishlab chiqaradi (700...1000 mV).


Dvigatel suyultirilgan aralashmada ishlashga o'tganda ( $\alpha > 1$ ) chiqindi gazlardagi kislородning parsial bosimi sezilarli darajada ortadi va bu datchik ishlab chiqayotgan kuchlanish keskin kamayishiga (50...100 mV gacha) olib keladi. Datchik kuchlanishining o'zgarish doirasi juda katta bo'lganligi sababli samarali yonuvchi aralashma tarkibini 0,5% dan katta bo'lmagan xatolik bilan aniqlash mumkin.

### **Dvigateli detonatsiyadan himoya qilish tizimi**

Dvigatel to'la yuklama bilan ishlaganda silindrлar-dagi maksimal bosim juda katta qiymatga erishishi tufayli

detonatsiya yuzaga kelish xavfi bor (yonish jarayonining tezligi tovush tezligiga yaqinlashadi). Bu silindr-porshen guruhiga tegishli qismlar, blok kallagi va qistirmalarning ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Detonatsiya bo'lmasligi uchun yonilg'iga, detonatsiyaga qarshi maxsus qo'shimchalar qo'shiladi yoki yonuvchi aralashmani boyitish chorralari ko'rildi (yonish kamerasini qo'shimcha sovitish hisobiga). Detonatsiya oldini olishning yana bir yo'li - o't oldirish daqiqasini kechroq qilish.

Detonatsiyadan saqlash tizimlari dvigatelning barcha ish rejimlarida ishchi aralashmani detonatsiyali yonishi oldini oladi. Bu tizimning asosiy elementi detonatsiya datchigi bo'lib, (7.29-rasm) u detonatsiya vaqtida silindrlar blokining yuqori chastotali tebranishlaridan ta'sirlanadi.



**7.29-rasm. Detonatsiya datchigi:**

- 1-inersion massa;
- 2-kompaund to'ldirgich;
- 3-pyezoelektrik element;
- 4-kontaktlar; 5-datchik xulosasi

Detonatsiya datchigi silindrlar blokining titrashini (vibratsiyasini) elektr signallarga aylantiradi va EBBga uzatadi. EBB bu signalni dvigatel detonatsiyasiz ishlayotganida olingan etalon signal bilan solishtiradi. Detonatsiya yuzaga kelganda, EBBning boshqarish zanjiridagi bajaruvchi qurilmalar o't oldirish daqiqasini kechroq bo'lish tomonga suradi. Detonatsiya tugagandan keyin o't oldirish daqiqasi yana dastlabki holatiga qaytariladi.


### «Nexia» dvigatelinining yonilg'i purkash tizimi

«Nexia» avtomobilining dvigateli yaxshi darajadagi dinamik va tejamli, chiqindi gazlardagi zaharli moddalar

miqdorini ancha kamaytiruvchi purkash tizimi bilan jihozlangan.

Yonilg'i purkash va o't oldirish tizimlari bitta elektron blok tomonidan boshqariladi. Bu ishlatilayotgan datchiklar sonini kamaytirish bilan birga yonuvchi aralashma tayyorlash va o't oldirish jarayonlarini bir-biriga moslash hisobiga dvigate�ning tejamkorligini oshirish, chiqindi gazlarning zaharliligini kamaytirish, ishga tushirishni yengillatish imkonlarini beradi.

Yonilg'i purkash tizimini ishlashini ko'rib chiqaylik (7.30-rasm).




7.30-rasm. «Neksiya» avtomobilining yonilg'i ta'minlash tizimi sxemasi:

1-relelar bloki; 2-havo filtri; 3-kiritish trubasidagi absolyut bosim datchigi; 4-salt aylanishda yonilg'i aralashma me'yorini rostlash vinti; 5-drossel-to'smaqopqoq korpusi; 6-salt aylanish klapani; 7-o't oldirish qulfi; 8-silindrlar bloki; 9-yonilg'i filtri; 10-forsunka; 11-o't oldirish chaqmoqlari; 12-yonilg'i nasosi; 13-yonilg'i baki; 14-bosim regulyuatori; 15-kiritish klapani; 16-sovitish suyuqligining harorati datchigi; 17-o't oldirishning datchik-taqsimlagichi; 18-elektron boshqarish bloki (EBB)

Yonilg'i baki - 2 ga o'rnatilgan elektr yonilg'i nasosi - 1, tozalagich - 15 orqali 0,25 MPa bosim bilan yonilg'ini taqsimlash trubai - 18 ga uzatadi. Kiritish trubaiga tutashtirilgan taqsimlash trubaiga elektromagnit boshqaruvli to'rtta forsunka joylashtirilgan. Taqsimlash trubaining oxirida bosim rostlagichi - 3 o'rnatilgan bo'lib, u purkash tizimidagi yonilg'i bosimini kiritish trubaidagi siyraklanishga bog'liq ravishda o'zgarmas holda ushlab turadi va ortiqcha yonilg'ini bakka qaytaradi.

Bosim datchigida (7.32-rasm) hosil bo'lgan elektr signal EBBga uzatiladi. EBB dvigatelning aynan shu daqiqa dagi ish rejimi uchun zarur bo'lgan yonilg'i miqdorini aniqlaydi va forsunkalarning (7.31-rasm) elektromagnit klapanlariga boshqaruvchi signal yuboradi (forsunkalar ishining davomiyligi va chastotasini belgilovchi elektr impulslar).



### **7.31-rasm. Forsunka tuzilishi:**

- 1-to 'zituvchi plastina;
- 2-to 'zituvchi korpusi;
- 3-klapan prujinasi;
- 4-elektromagnit korpusi;
- 5-elektromagnit;
- 6-kiritish shdagi yonilg'i filtri;
- 7-forsunka korpusi;
- 8-yo'naltiruvchi distansion vtulka;
- 9-klapan e gari bilan vtulka;
- 10-klapan;
- 11-forsunka uchligi

Kiritish klapanlarining holatidan qat'i nazar forsunkalar yonilg'ini tirsakli valning har bir aylanishida bir marta purkaydi.

Agar purkash daqiqasida hamma kiritish klapanlari yopiq holda bo'lsa, yonilg'i klapanlar oldidagi bo'shliqda


to‘planadi va kiritish klapanlaridan biri ochilganidayoq havo bilan birga silindrlarga so‘riladi.

Qo‘sishimcha havo uzatish klapani drossel to‘sinqchasiga paralell qilib o‘rnatalgan. U dvigatelning ishga tushirish va qizitish rejimlarida tirsakli valning aylanish chastotasini oshirish uchun qo‘sishimcha havo uzatadi. Bu dvigatel tez qizishini ta’minlaydi.

### Dvigatelning turli rejimlarida yonilg‘i miqdorini me’yorlash

Datchiklardan kelayotgan signallar asosida EBBda dvigatelning quyidagi ish rejimlari shakllanadi:

### Dvigateliň ishga tushirish, «salt ishlash», «qisman yuklamalar», «to‘la yuklama», «majburiy salt ishlash».



7.32- rasm. Bosim regulyatori:  
1-diafragma; 2-regulyator korpusi; 3-klapan; 4-klapan egari

Tirsakli valning aylanish chastotasi haqidagi ma’lumot EBBga uzbek-taqsimlagichga o‘rnatalgan datchikdan uzatiladi. Havoning hajmi kiritish trubaiga o‘rnatalgan bosim datchigi vositasи bilan nisbiy usulda o‘lchansa, dvigatelning yuklamasi drossel to‘sinqchasingin holatiga ko‘ra aniqlanadi. Dvigatelning issiqlik rejimi haqidagi ma’lumot sovitish tizimiga o‘rnatalgan harorat datchigidan olinadi.

**Sovuq dvigateliň ishga tushirish** (tirsakli valning aylanish chastotasi haqidagi ma’lumot EBBga kelmayapti; sovitish suyuqligi harorati datchigining qarshiligi maksimal qiymatga ega, drossel to‘sinqchasi yopiq). O’t oldirish kaliti ulanganda EBB rele orqali yonilg‘i nasosini 2 sekundga

ishga tushiradi va tizimda 0,25 MPa bosim hosil qilinadi. Shu bilan birga EBBga tirsakli valning aylanish chastotasi, drossel to'siqchasing holati va sovituvchi suyuqlik harorati datchiklaridan signallar keladi.

EBB dvigatelni ishga tushirish va qizitish uchun zarur bo'ladigan yonilg'i miqdorini hisoblaydi (forsunkalarini ishlash tezligi va davomiyligi aniqlanadi).

### **Silindrlarni shamollatish rejimi**

Yonuvchi aralashma me'yordan ortiq boy itilib, dvigatelning ishga tushishi qiyinlashgan hollarda EBB silindrlarni shamollatish hisobiga ortiqcha yonilg'i chiqarib yuborilishini va o't oldirish chaqmoqlari quritilishini ta'minlaydi. Drossel to'siqchasi to'la ochiq bo'lganda va tirsakli valning aylanishlari chastotasi taxminan 400min<sup>-1</sup> bo'lganda EBB silindrlarga yonilg'i uzatilishini to'xtatadi. Agar drossel to'siqchasi bir oz yopilsa (drossel to'siqchasing ochilishi darajasi 80% dan oshmasligi kerak) EBB ko'p nuqtali yonilg'i purkash tizimini (KNYoPT) dvigatelni ishga tushirish rejimiga qaytaradi.

### **Akkumulyatorlar batareyasining razryadlanganligini qoplash rejimi**

Akkumulyatorlar batareyasining razryadlanishi natijasida kuchlanish pasaysa, EBB o't oldirish chaqmoqlarining elektrodlari orasidagi razryad energiyasini kamayishini quyidagicha qoplaydi:

- forsunkalarning ochiq turishi davomiyligini oshirish;
- salt aylanishlar chastotasini oshirish;
- uchqunli razryad energiyasini oshirish maqsadida o't oldirish blokining ishiga o'zgarish kiritish.

### **Yonilg'i uzatilishini to'xtatish rejimi**

O't oldirish kaliti o'chirilganda EBB yonilg'i uzatilishini to'la to'xtatadi. Bu o't oldirish kaliti

o'chirilgandan keyin dvigatel cho'g'dan o't olib ketishini oldini oлади. Tirsakli val aylanmayotganda, ya'ni EBBga o't oldirish blokidan signal kelmagan hollarda ham yonilg'i uzatilishi to'xtatiladi. Bu, silindrlarga ortiqcha yonilg'i yuborilishini va o't oldirish chaqmoqlarining ish rejimi buzilishini oldini oladi.

### Salt ishlash rejimi

EBB dvigatelning salt ishlash rejimi drossel to'siqchasi korpusiga o'matilgan salt yurish klapani (SYuK) vositasida boshqariladi. SYuK tirsakli valning aylanish chastotasi drossel to'siqchasiga paralell bo'lgan qo'shimcha truba orqali yuborilgan havo miqdorini me'yorlash hisobiga rostlaydi.

SYuK yordamida EBB salt ishlash aylanishlar chastotasini belgilangan qiymatlarda ushlab turadi. Bu qiymatlar sovitish suyuqligining harorati, avtomobil tezligi, akkumulyatorlar batareyasining kuchlanishi va havoni sovitish tizimidagi bosimiga (agar avtomobilga kondisioner o'rnatilgan bo'lsa) bog'liq bo'lgan funksiya ko'rinishida EBBning doimiy xotirasida saqlanadi.

EBB, qizitilgan dvigatelning turli rejimlardagi ishlash sharoitlari uchun (masalan, avtomat uzatma qutisining selektori «to'xtab turish» va «harakat» holatlari, kondisioner ulangan yoki ularmagan va hokazo) zarur bo'lgan salt ishlash chastotasiga ko'ra SYuKning berkituvchi elementi holatini belgilaydi. Dvigatelning salt ishlash chastotasi qiymatlari doimiy xotira qurilmasida saqlanib, bu ma'lumot o't oldirish kaliti o'chirilgandan keyin ham o'chmaydi. Bu ko'rsatkichlar SYuKning joriy holatini hisoblashda EBB uchun dastlabki ta'sir nuqtalar vazifasini bajaradi.

Bu salt yurish chastotasini drossel to'siqchasing holati tasodifan yoki sistematik ravishda chetlashish

hollariga bog'liqligini istisno qiladi (akselerator tepkisi qo'yib yuborilgan hollarda).

EBB salt yurish chastotasini belgilangan qiymat doirasida avtomatik tarzda ushlab turadi. EBBning elektr ta'minoti o'chirilganda dvigatelning salt ishlash rejimi buzilishi mumkin. Shuning uchun dvigatel ishga tushirilayotgan vaqtida EBB salt ishlash rejimini avtomatik ravishda boshqarish jarayoni boshlanguncha, akselerator tepkisini qisman bosib turishga to'g'ri keladi.

Dvigatelning salt yurish chastotasi kiritish trubaiga uzatilayotgan havo miqdoriga bog'liq. Havoning umumiylarfi SYuK, qisman yopilgan drossel to'siqchasi orqali o'tgan havo miqdori hamda kiritish trubaini turli xil vakuum qurilmalar bilan bog'lovchi vakuum shlanglaridagi havo sar flarining yig'indisi bilan belgilanadi.

### **Yonilg'i purkash tizimining boshqa rejimlardagi ishi**

Ishlash vaqtining ko'p qismida dvigatel qisman yuklama rejimlarida ishlaydi. EBBga kiritilgan dastur bu rejimlarda ham yonilg'ini imkon boricha kam sarflanishini hamda chiqindi gazlardagi zaharli moddalarni miqdoriga bo'lgan talablarni bajaradi.

Yonilg'i tarkibini chiqindi gazlardagi erkin kislorod miqdoriga ko'ra rostlash tashqariga chiqarilayotgan zaharli moddalarni kamaytirish imkonini beradi. «O'zDEU avto» zavodining «Nexia» va «Matiz» avtomobillariga o'rnatilayotgan dvigatellarda kislorod datchigini o'rnatish ko'nda tutilmagan.

Dvigatel to'la yuklama bilan ishlaganda (drossel to'siqchasi to'la ochiq), EBB boyitilgan yonuvchi aralashma tayyorlashga yo'naltirilgan boshqaruvchi signal beradi.

Majburiy salt ishlash rejimida EBB silindrلarga yonilg'i uzatilishini to'xtatadi. EBBni bunday boshqaruvchi signal berilishi uchun 3 ta shart bajarilishi lozim: akselerator

tepkisi butunlay qo'yib yuborilgan bo'lishi kerak; tirsakli valning aylanishlar chastotasi ma'lum chyegaradan yuqorida bo'lishi kerak (odatda 1200...1400.min<sup>-1</sup>); sovitish tizimidagi suyuqlik harorati 60°S dan yuqori bo'lishi shart.

Agar yuqorida keltirilgan shartlardan birontasi bajarilmasa, silindrlarga yonilg'i uzatilishi yana tiklanadi.

Majburiy salt ishlash rejimini elektron boshqarish yonilg'i sarfini taxminan 2...3% ga, tashqariga chiqarilayotgan zaharli moddalar miqdorini esa 25...30% gacha kamaytiradi.

### **«Matiz» avtomobili dvigatelining yonilg'i purkash tizimi**

«Matiz» dvigatelining yonilg'i uzatish tizimida «Nexia» dvigateli dagi purkash jarayonini boshqarish tamoyili ishlatalgan. Har ikkala avtomobil dvigatellaridagi yonilg'i purkash tizimlarida yonilg'i va havo miqdorini EBB uchta datchikdan kelgan signal asosida: drossel to'siqchasing holati, tirsakli valning aylanish chastotasi va kiritish trubaidagi bosimning qiymatini bir-biriga moslashtiradi.

Har ikkala avtomobilda ham yonilg'i purkash va o't oldirish tizimlari bitta elektron blok yordamida boshqariladi.

Shu bilan birga «Matiz» dvigatelining yonilg'i purkash tizimi ancha takomillashtirilgan.

«Nexia» va «Matiz» avtomobillari dvigatellaridagi yonilg'i purkash tizimidagi farqlar quyidagilardan iborat:

- «Matiz» avtomobilining yonilg'i uzatish tizimida ortiqcha yonilg'ini bakka qaytarish trubai yo'q (bosim rostlagichi bakning o'zida, benzonasos yoniga joylashtirilgan va tizimdagи bosimni kirish trubaidagi siyraklanishga bog'liq bo'limgan holda rostlaydi);
- dvigateli detonatsiyadan saqlash tizimi o'rnatilgan. Dvigatel detonatsiya bilan ishlay boshlasa, detonatsiya datchigidan kelgan signal asosida EBB o't oldirish onini yoki yonuvchi aralashma tarkibini o'zgartirishga


yo‘naltirilgan boshqarish signal ishlab chiqara boshlaydi. Bu jarayon detonatsiya bartaraf etilmagunicha davom etadi;

- qo‘shimcha o‘matilgan, so‘rilayotgan havoning harorati datchigi silindrga kirayotgan havo zichligini hisobga olish imkoniyatini beradi. Bu, ayniqsa, avtomobil tog‘li hududlarda harakatlanganda katta ahamiyatga ega.

Bundan tashqari «Matiz» dvigateli ishlatilgan datchiklarning konstruksiyasi bilan ham farqlanadi. Masalan, tirsakli val aylanishining burchak tezligi va burilish burchagi datchiklari sifatida taqsimlagich o‘qiga joylashtirilgan fotoelektrik datchik o‘rnatilgan («Nexia» avtomobilida magnitoelektrik datchik ishlatilgan).

Tizimning ishlashi. «Matiz» dvigateli yonilg‘i purkash tizimi (7.33-rasm)ning ishi barcha asosiy rejimlarda «Nexia» dvigatelidagi purkash tizimi bilan bir xil. Yonilg‘i elektronasos - 8 yordamida filtr - 7 orqali taqsimlagich trubaiga o‘rnatilgan (sxemada ko‘rsatilmagan) forsunkalar - 14 ga uzatiladi. Taqsimlash trubai kiritish kollektoriga o‘rnatilgan forsunkalar esa yonilg‘ini bevosita kiritish klapanlari atrofiga purkaydi. Yonilg‘i bosimi rostagichi - 6 purkash tizimidagi bosimni belgilangan qiymatda ushlab turadi. U bevosita nasos korpusiga o‘matilgan va filtr - 7 dan keyin yonilg‘i trubaiga tutashtirilgan. Ortiqcha yonilg‘i qisqa yo‘l bilan bakka qaytariladi. Avval qayd qilinganidek, bu - yonilg‘i isib ketishi va bug‘lanishini kamaytiradi.

Purkalayotgan yonilg‘i miqdori datchiklardan kelayotgan quyidagi ma‘lumotlar asosida EBB tomonidan belgilanadi: havo filtriga kirish joyidagi havo harorati ( $D_1$ ), sovitish suyuqligi harorati ( $D_2$ ), tirsakli valning aylanish chastotasi va holati ( $D_5$ ), detonatsiya datchigi ( $D_6$ ), chiqarish gazlaridagi kislород miqdori ( $D_7$ ). Bu ko‘rsatkichlarning ba‘zilari purkash tizimida hisobga olinmasligi mumkin («Matiz» dvigatelia qilinganidek gazlardagi kislород miqdorini o‘lchovchi kislород datchigi o‘rnatilmagan).



7.33-rasm. «Matiz» avtomobilining yonilg'i ta'minlash tizimi:  
 1-radiator; 2-havo filtri; 3-drossel to'sig'i korpusi; 4-kiritish  
 trubasi; 5-adsorber; 6-bosim rostlagichi; 7-filtr; 8-nasos;  
 9-yonilg'i filtr; 10-chiqarish trubasi; 11-yondirish  
 taqsimlagichi; 12-elektron boshqarish bloki; 13-so'ndirgich

### Yonilg'i purkash tizimidagi datchiklarni tekshirish

Drossel-to'smaqopqoqning holat datchigi. Drossel-to'smaqopqoq ochiq bo'lganda datchikning qarshiligi 5,5...7,5 k, potensiometrga kirish joyida kuchlanish 4,5...5,0 V, yopiq holatda esa qarshilik 1,0...3,0 k, kuchlanish 0,4...0,8 V chyegarasida bo'lishi kerak.

Sovitish suyuqligining harorati datchigi. Dvigatel harorati me'yorida bo'lganda ( $80^{\circ}\dots100^{\circ}\text{S}$ ) datchik qisqichlaridagi kuchlanish 1,5..2,0 V ni, harorat  $10^{\circ}\text{S}$  bo'lganda datchik qisqichlari orasidagi qarshilik 16180 Om, harorat  $20^{\circ}\text{S}$  da 3520 Om, harorat  $80^{\circ}\text{S}$  da - 332 Om ni tashkil qilishi kerak.

### **Kiritish trubasidagi havoning harorati datchigi.**

Dvigatel harorati me'yorida bo'lganida ( $80^{\circ}\dots100^{\circ}$ S) datchik qisqichlaridagi kuchlanish  $0,8\dots1,5$  V, qarshiligi esa  $10^{\circ}$ S da  $9200$  Om, harorat  $20^{\circ}$ S da -  $2500$  Om ni tashkil qilishi kerak.

**Kiritish trubasidagi havoning absolyut bosimi datchigi.** Dvigatel salt ishlaganda datchik qisqichlaridagi kuchlanish  $1,0\dots1,5$  V, drossel to'siqchasi to'la ochiq holatida  $4,5\dots5,0$  V ni tashkil qilishi kerak.

**Kislород datchigi (-zond).** Dvigatel salt ishlaganda datchik qisqichlaridagi kuchlanish  $0,01\dots0,45$  V, drossel to'siqchasi to'la ochiq holda -  $0,45\dots0,90$  V bo'lishi kerak.

**Dvigatel tirsakli valining aylanish chastotasi datchigi.** O't oldirish kaliti ulangan holatda datchik qisqichlaridagi kuchlanish 0 yoki 5V bo'lishi mumkin, dvigatel ishlayotganda -  $2,0$  V.

**Elektromagnit forsunka.** Forsunka qisqichlari orasidagi qarshilik  $13,75\dots15,25$  Om bo'lishi kerak. Bir marta ulangandagi yonilg'i sarfi  $1,35$  gs.

**Salt yurish klapani.** Elektrodvigatel o'ramining A-V va S-D qisqichlari orasidagi qarshilik  $40\dots80$  Om atrofida bo'lishi kerak. A, V, S, D qisqichlari va «massa» orasidagi kuchlanish  $0,5\dots1,2$ V chyegarasida bo'lishi kerak.

**Adsorberning elektromagnit klapani.** Qisqichlar orasidagi qarshilik  $40\dots44$  Om. Dvigatelning sovitish suyuqligining harorati  $35\dots40^{\circ}$ S bo'lganda, klapan yopiq,  $40^{\circ}$ S dan yuqori bo'lganda - ochiq.

**Yonilg'i bosimining rostlagichi.** Rostlagich yonilg'i bosi mini  $372\dots380$  kPa atrofida ushlab turishi kerak.

## VIII BOB. DIZELLARNING YONILG‘I BERISH APPARATURASI

### 8.1. UMUMIY MA’LUMOTLAR

Avtomobil va traktor dizellarida yonilg‘i berish apparatursining asosan ikki turi qo‘llaniladi.

1. Ajratilgan yonilg‘i berish apparaturasi. Bunda yonilg‘i alohida yuqori bosimli nasosdan quvurlar orqali forsunkaga beriladi.

2. Ajratilmagan yonilg‘i berish apparaturasi. Bunda yuqori bosimli yonilg‘i nasosi va forsunka yagona moslama tarzida yasalgan bo‘lib, u nasos-forsunka deyiladi.

Yonilg‘ini dozalash usuli bo‘yicha zolotnikli dozalash va kiritishda drossellash sxemasi ishlataladi. Yonilg‘i berish apparatursiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1) yonilg‘ini silindrغا yuqori bosim ostida purkash, yonish kamerasining shakliga bog‘liq bo‘lgan yonilg‘i to‘zonini hosil qilish va yonish jarayonining samarali kechishini ta‘minlaydigan purkash tavsifini hosil qilishi lozim;

2) yonilg‘ini mayda zarrachalarga to‘zitishi va havo bilan aralashib, optimal yonuvchi aralashma hosil qilishi kerak;


3) avtomobilning barcha rejimlarida kerakli quvvat bilan ishlay olishini ta‘minlaydigan miqdorda yonilg‘i berishi, dizelning yuklamasi o‘zgarganda, qisqa vaqt ichida silindrلarga purkalayotgan yonilg‘ining miqdorini yuklamaga qarab o‘zgartira olishi zarur;

4) hamma silindrлarga bir xil purkash tavsifida va bir xil miqdorda yonilg‘i uzatishi lozim. Bundan tashqari, yonilg‘i berish apparatursining tayyorlanishi va ekspluatatsiya qilinishi oson bo‘lishi va uzoq muddat ishlashi ta‘minlanishi lozim.

Yonilg‘i berish apparaturasi quyidagi asosiy qismlardan tashkil topgan: 1) yonilg‘i baki, dag‘al tozalash filtri, past bosimli yonilg‘i haydash nasosi va quvurlar; 2)

mayin tozalash filtri; 3) purkash onini va yonilg'i miqdorini rostlash tuzilmalari bilan jihozlangan yuqori bosimli yonilg'i nasosi; 4) yuqori bosimli quvurlar; 5) forsunkalar; 6) regulyator (tirsakli valning aylanishlar chastotasiga mos ravishda yonilg'i purkashning ilgarilatish burchagini rostlagich).

To'rt taktili dizelning ajratilgan turdag'i tizimi 8.1-rasmda ko'rsatilgan. Yonilg'inining silindrga tushguncha bo'lган harakat yo'li strelkalar bilan ko'rsatilgan. Yonilg'i yordamchi nasos 5 orqali 0,15...0,17 MPa bosim ostida yuqori bosimli nasos 6 ga beriladi. Purkalmay qolgan ortiqcha yonilg'i naychalar 11 orqali bakka qayta quyiladi.




*8.1-rasm. Dizelni yonilg'i bilan ta'minlash tizimi*

Silindrga purkalishi lozim bo'lган yonilg'i mayda mexanik abraziv zarralardan tozalangan bo'lishi shart. Shu maqsadda dag'al va mayin filtrlar o'matiladi.

## 8.2. YUQORI BOSIMLI YONILG'I NASOSI

**Nasosning tuzilishi.** Yuqori bosimli yonilg'i nasosi juda murakkab tuzilgan bo'lib, u dvigatelning yuklamasiga mos holda hamma silindrarga forsunkalar orqali bir xil miqdorda yonilg'i berish uchun xizmat qiladi.



**8.2-rasm. YAMZ-236  
dizelining yuqori  
bosimli yonilg'i nasosi  
seksiyasi**


jusfdan iborat. Nasos seksiyasi quyidagicha ishlaydi.

Yonilg'i nasosining vali tirsakli val yordamida harakatga keltiriladi, u ikki marta sekin aylanadi. Yonilg'i nasosining kulachok 9 li vali aylanganda turtkich 8 ko'tariladi. Turtkich o'z navbatida plunger 2 ni ko'taradi. Turtkichning roligi kulachokning o'zgarmas radiusli qismiga kelganda plunger prujina 5 ta'sirida boshlang'ich holatiga qaytadi. Burish vtulkasi 10 gilza 1 ga erkin o'rnatilgan.

Yuqori bosimli yonilg'i nasoslarining ko'p seksiyali va taqsimlovchi turlari ishlatiladi. Ko'p seksiyali nasoslarda har bir ish seksiyasi yonilg'ini faqat bir silindrga yetkazib beradi. Taqsimlovchi nasoslarda esa bitta ish seksiyasi bir nechta silindrga yonilg'i yetkazib beradi. Bunday nasoslar bir yoki ikki plunjерli bo'lishi mumkin.

Ko'p seksiyali yonilg'i nasoslarida dvigateл silindriga berilayotgan yonilg'i miqdori plunjerning holatiga bog'liq. Plunjerning holati esa dvigatelning yuklamasiga mos ravishda reyka orqali markazdan qochirma regulator yordamida o'zgartiriladi. YAMZ-236 dizelidagi yuqori bosimli yonilg'i nasosining bitta seksiyasi 8.2-rasmida ko'rsatilgan. Har bir seksiyaning ish elementi plunger 2 va gilza 1 dan tuzilgan plunjерli .

Yonilg'i nasosi korpusining yuqori qismiga-o'rindiq 14 ga haydash klapani 15 o'rnataligan.



8.3-rasm. Nasos sekiyasining detallari

Nasos sekiyasining detallari 8.3-rasmida alohida-alohida ko'rsatilgan. Plunjeringning yuqori qismida ikkita vintsimon ariqcha 3 bor. Ular plunjer toretsi (ko'ndalang yuzasi) bilan markaziy (2) va ko'ndalang kanallar orqali birlashgan. Ariqchalardan birining qirrasi 2 juda aniq ishlangan. Silindrga beriladigan yonilg'i miqdori qirra 1 ning holatini o'zgartirib

rostlanadi. Plunjeringning pastki qismidagi ikkita chiqiq 4 uni burish vtulkasi bilan biriktirish uchun, aylana chiqiq 5 esa, qaytarish prujinasining pastki tarelkasini o'rnatish uchun mo'ljallangan. Jusflar juda aniq tayyorlangan bo'lib, gilza-plunjer orasidagi tirqish 0.8-1,5 mkm, nina-to'zitkich orasidagi tirqish esa 2,5...5 mkm oralig'ida bo'ladi. Gilzada qarama-qarshi joylashgan ikkita teshik 6 bor. Bu teshiklarning biri yonilg'ini plunjer tepasiga haydash uchun, ikkinchisi esa ortiqcha yonilg'ini qayta haydash uchun xizmat qiladi. Burish vtulkasining tishli gardishi reyka bilan birlashgan, chuqurlar 7 ga esa plunjeringning chiqiqlari 4 kirgiziladi.

**Nasos sekiyasining ishlashi.** Nasos sekiyasning ishini uchta jarayonga bo'lish mumkin: to'ldirish, siqish va qayta chiqarish. Plunjer pastga harakat qilganda (8.4-rasm, a) kiritish teshigi ochiladi va plunjeringning ustki bo'shlig'i yonilg'i bilan to'ladi. Plunjer yuqoriga harakat qilganda yonilg'inining bir qismi avval gilzadagi kiritish teshigi orqali yonilg'i keladigan kanalga qaytib chiqadi. Yonilg'inining qaytib chiqishi plunjeringning toretsi gilzadagi kiritish teshigini

berkitganda tugaydi (3-sxema). Plunjer yuqoriga harakat qilishda davom etganda yonilg‘ining bosimi tez ko‘tariladi. Natijada haydash klapani 15 (8.2-rasm) ochilib, yonilg‘i katta bosimli naychalar orqali forsunkalarga keladi va silindrlarga purkaladi. Plunjerning vintsimon qirrasi gilzadagi qayta chiqarish teshigini ochganda (4-sxema) nasosdan forsunkaga yonilg‘i yuborish to‘xtaydi va plunjer yuqoriga harakat qilishni yana davom ettirsa, yonilg‘i qaytarish kanaliga chiqarib yuboriladi. Natijada plunjer ustidagi bosim tez pasayadi, haydash klapani esa prujina va nasos shtutseridagi bosim ta’sirida o‘rindiqqa o‘tiradi. Ayni vaqtida nasos bilan forsunkaga yonilg‘i haydash va purkash to‘xtaydi.

Kiritish teshigi yopilgan paytdan boshlab gilzadagi qayta chiqarish teshigi ochilguncha bo‘lgan davr ichida plunjerning o‘tgan yo‘li faol yo‘l  $S_a$  deb ataladi. Bu yo‘lni plunjer yuzasi  $f_{pl}$  ga ko‘paytirsak, plunjer bilan siqib chiqarilgan yonilg‘ining nazariy miqdorini topamiz:

$$V_{yo} = S_a \cdot f_{pl},$$

Sikl davomida yonish kamerasiga purkaladigan haqiqiy yonilg‘ining miqdori quyidagicha hisoblanadi:


$$V_{haq} = V_{yo} \cdot \eta_b = S_a \cdot f_{pl} \cdot \eta_b;$$

bu yerda  $\eta_b$  - yonilg‘i berish koeffitsiyenti,  $\eta_b = 0,75...0,9$ . Bu koeffitsiyent plunjerli juftdagি va to‘zitgichdagi tirkishlar orqali yonilg‘ining sizishini, uning siqiluvchanligini hamda yonilg‘i berish tizimining deformatsiyasini hisobga oladi.

Dvigatelning yuklamasi o‘zgarishi bilan silindrga uzatilayotgan yonilg‘ining miqdori ham o‘zgarishi kerak. Buning uchun plunjer reyka va markazdan qochirma reguluator yordamida buriladi, natijada uning faol yo‘li (8.4-rasm, b) va yonilg‘i miqdori o‘zgaradi.

Tezyurar dizellarda qo‘llaniladigan plunjерlarda yonilg‘i bera boshlash vaqtı juda kam o‘zgaradi. Dvigatelga

siklda ko‘proq yonilg‘i berish uchun plunjerning faol yo‘li kattalashtiriladi. Bunda chiqarish teshigi kech ochiladi (5-sxema).




8.4-rasm. Plunjер juftining ishlashi (a) va purkalayotgan yonilg‘i miqdorini rostlash sxemasi (b)

Yonilg‘i miqdorini kamaytirish uchun plunjер teskari tomonga buraladi, natijada uning faol yo‘li qisqaradi. Bu holda chiqarish teshigi barvaqt ochiladi (6-sxema). Yonilg‘i berishni to‘xtatish uchun reyka to‘la tortilib chiqarilishi kerak. Bu holda plunjerning vintsimon qirrasi chiqarish teshigini kiritish teshigi berkitilishidan oldinroq ochadi (7-sxema). Natijada forsunka orqali purkash to‘xtaydi, chunki plunjerning ustki hajmi bir vaqtning o‘zida ham chiqarish, ham kiritish teshiklari bilan bog‘langan bo‘ladi.

Dizellarda beriladigan yonilg‘ining maksimal miqdori chegaralangan bo‘lib, regulyator ordagi boshqarish richagini siljishini cheklash bilan amalga oshiriladi.

Nasos-forsunkalarda zolotnik tipidagi yuqori bosimli nasos va klapan-soplo to'zitgichli forsunka bir agregatga birlashtirilgan bo'ladi. Nasos-forsunkaning plunjeri yuqorida ko'rib o'tilgan YAMZ nasosining plunjeridan ikkita ishchi vintsimon qirrasi borligi bilan farq qiladi. Yuqoridagi qirra yonilg'i purkashning boshlanish vaqtini, ikkinchisi (pastkisi) esa yonilg'i purkashning tugash vaqtini reykaning holatiga qarab boshqaradi. Purkalayotgan yonilg'i miqdori qirralar yordamida o'zgartiriladi. Nasos-forsunkaning plunjeri ham reyka yordamida buraladi. AR-20A<sub>3</sub> nasos-forsunkadan purkalayotgan yonilg'ining miqdori kamayishi natijasida yonilg'i berish kechroq, ya'ni yu.ch.n. yaqinida boshlanadi. Yonilg'i purkash esa ilgariroq tugaydi. Bu holda yonish samarasи yaxshi bo'ladi, natijada dvigatearning tejamliligi ham yomonlashmaydi.

YAMZ-236 dizelining yonilg'i nasosidan har sikda beriladigan yonilg'i  $Q_s$  ning kulachokli val aylanishlar chastotasi  $n_k$  ga bog'liqligi reykaning uch holati uchun 8.5-rasmda keltirilgan.




8.5-rasm. YAMZ-236 dizeli yonilg'i nasosining tavsifi

Grafiklarning ko'r-satishicha, kam yuk-lamalarda aylanishlar chastotasining oshishi bilan sikda beriladigan yonilg'i miqdori to'la yuklamadagiga qaragan-da ko'proq oshadi (2 va 3 egri chiziqlar). Bu kam-chilikni yo'qotish maq-sadida nasosga kor-rektorlar o'rnatiladi.

Yonish jarayonining optimal kechishi uchun yonilg'ini purkash to'xtaganda yuqori bosimli yonilg'i naychasida bosim tez kamayishi kerak. Aks holda qayta purkash

jarayoni sodir bo'lib, u kichik bosimlarda davom etadi. Natijada yonilg'ining tomchilari yaxshi parchalanmasdan, chala yonadi va koks hosil qiladi.

Yonilg'i berishni keskin tugallash hamda yuqori bosimli naychalarda bosimni tez pasaytirish uchun yonilg'i nasosiga haydash klapani o'matiladi. Chiqarish teshigi ochilishi bilan bu klapan o'z o'rindig'iga o'tirib, plunjер usti hajmini yuqori bosimli naychalardan ajratib qo'yadi. Natijada purkash keskin tugaydi. qo'ziqorinsimon haydash klapani (8.6-rasm, a) zichlovchi konusli qalpoq 1, bo'shatuvchi belbog' 2 va yonilg'i o'tkazuvchi to'rtta ariqchali «dumcha» (sterjen) 3 dan iborat. Klapan maqbul holatda o'z o'rindig'i 4 da o'tiradi. Uning ish jarayoni yuqorida ko'rib o'tilgan. Klapan va o'rindiq birgalikda aniq geometrik o'lchamlarda tayyorlanadi va ulardan bittasi ishdan chiqsa, ikkalasi yangilanadi.



*8.6-rasm. Yonilg'i haydash klapani:*  
*a-qo'ziqorinsimon; b-zolotnikli*

Zolotnikli haydash klapani (8.6-rasm, b) qo'ziqorinsimon klapanga o'xhash ishlaydi.

### **YAMZ-236**

dizelining yonilg'i nasosi. YAMZ-236 dizeliga o'rnatiladigan yuqori bosimli olti seksiyali zolotnikli yonilg'i nasosi (8.7-rasm) quyidagicha tuzilgan.


Oltita seksiya - nasos korpusi 14 ning yuqori qismidagi uyalarda joylashgan. Gilzalar stoporlash vintlari 11 yordamida bir xil holatda o'matiladi. Gilzalardagi kiritish va chiqarish teshiklari joylashgan sathda korpusning uzunligi bo'ylab ikkita gorizontal kanal o'tgan; kanal 3 orqali yonilg'i plunjер seksiyalariga yuboriladi. kanal 15 orqali

esa yonilg'i purkash tugaganidan so'ng plunjер seksiyalaridan qayta olib ketiladi.

Korpusning yon tarafidagi kanalda vtulkalar vositasida reyka 12 o'rnatilgan. Nasosning reykasi har bir seksiyaning tishli gardishi bilan ilashgan.

Gilzalar o'rnatiladigan uyalar ostida chuqurchalar bo'lib, bu chuqurchalarga burish vtulkalarinipg tishli gardishi 13 kiritiladi. Chuqurchalarning pastki qismiga o'tkazish belbog'lari yasalgan bo'lib, ularga prujinalarning yuqori tarelkalari tayanadi.

Nasos seksiyalari bo'shlig'ini kulachokli val bo'shlig'idan ajratadigan to'siqda turkichlar 8 ni o'rnatish uchun maxsus uyalar yasalgan. Nasosning kulachokli vali 23 da oltita tangensial profilli kulachok va ekssentrik bor. Kulachoklar turkichlarni harakatga keltiradi, ekssentrik esa yonilg'i haydaydigan yordamchi porshenli nasosni ishga soladi.



**8.7-rasm. YAMZ-236 dizelning yuqori bosimli yonilg'i nasosi:**

*a-nasosning kesimlari; b-regulyator*

Nasosning kulachokli valiga purkashni ilgarilatish muftasi 20 o'rnatilgan, uning qarama-qarshi tomoniga regulyatorni harakatlantiruvchi yetakchi shesternya 25 ning gupchagi mahkamlangan. Regulyator esa nasos korpusiga birkirtililgan.

V-simon to'rt taktli, olti silindrli dizelda yonilg'i nasosi seksiyalarining ish tartibi 1-4-2-5-3-6 tartibida bo'ladi va yonilg'i berish kulachokli val har  $45^\circ$  va  $75^\circ$  burchakka burliganda takrorlanadi, bu esa dvigatelda ish jarayonlarining takrorlanishiga mos keladi.


Ko'rib chiqilgan yuqori bosimli yonilg'i nasoslarida haydash seksiylarining soni dvigatei silindrining soniga teng.

### Taqsimlovchi yuqori bosimli yonilg'i nasosi

Keyingi vaqtarda tezyurar kam quvvatli dizellarda taqsimlovchi nasoslar ishlatala boshlandi. Bunday nasoslarda bitta seksiya yonilg'ini dvigatelning ish tartibiga mos holda 2...4 silindrga yetkazib beradi. Bu nasoslar ko'p plunjeleri nasoslardan arzonligi va ixchamligi bilan farq qiladi. Nasosning kulachokli vali bir marta aylanganda plunjer faol yo'lni silindrler soniga teng (2...4) marta takror o'tadi.

Taqsimlovchi ND-22 nasosining yuqori bosimli seksiyasi va yonilg'i miqdorini o'zgartirish sxemasi 8.8-rasm,  $a$  va  $b$  da ko'rsatilgan. Bu nasosda plunjer / kulachok ta'sirida o'z vtulkasi 2 da borib-kelib harakat qiladi. Undan tashqari, plunjer o'z o'qi atrofida ichki tishli gardish 3 yordamida aylanib, yonilg'ini forsunkalarga taqsimlab beradi. Forsunkalarga yonilg'ini berish plunjerning yuqoriga harakatida, uning qirrasi to'ldirish darchalari 4 ni berkitgandan so'ng boshlanadi. Taqsimlash ariqchasi 5 plunjerdagi ko'ndalang teshik 6 ga mos kelganda plunjerning tepa hajmida siqilgan yonilg'i bosim ostida forsunkaning shtutseri 7 ga haydaladi. Yonilg'i yuqori bosimli trubkalar orqali forsunkaga boradi va purkalladi. Yonilg'ini purkash plunjerdagi teshik 8 dozator 9 dan chiqishi bilan tugaydi. Bu holda plunjerning yuqori qismidagi bosim keskin pasayadi va yonilg'i berish

to'xtaydi. Silindrga berilayotgan yonilg'inining miqdori dozator yordamida rostlanadi. Buning uchun dozator plunjerning o'qi bo'ylab barcha rejimli regulyator yordamida suriladi. Siklda beriladigan yonilg'inining maksimal miqdoriga dozator yuqorida joylashganda erishiladi.



*&8-razm. Taqsimlovchi tipdagi ND-22 nasosining yuqori bosimli seksiyasi (a) va yonilg'i miqdorini o'zgartirish sxemasi (b)*

### 8.3. FORSUNKALAR

Dizellarda asosan ochiq va yopiq forsunkalar ishlataladi.


Ajratilmagan kamerali to'rt taktli dizellarda yopiq to'zitgichli forsunkalar ishlataladi. Forsunka ninasi prujinasining siqlishi 15...22 MPa ga mo'ljallangan. Ikki

taktli YAAZ dizellarida klapan-soploli forsunka ishlataladi. Klapan 4...5 MPa bosimda ochiladi va bunda purkash boshlanadi.

Ajratilgan kamerali dizellarda ochiq forsunkalar ishlataladi. Ularda ochiq shtiftli to'zitgich o'rnatiladi. Shtift ninasi prujinasining siqilishi 10...15 MPa ga mo'ljallangan.

To'zitgichlarning konstruksiyasi 8.9-rasmda ko'rsatilgan. Ochiq to'zitgichli forsunkadan (8.9-rasm, a) yonilg'i purkash, to'zitgich ichidagi va silindrdaqи bosimlar farqi soplo teshiklarining qarshiligini yenga olganda boshlanadi.

Nasos-forsunkada qo'llaniladigan yopiq klapan-soploli to'zitgich 8.9-rasm, b da ko'rsatilgan. Bu to'zitgich plastinasimon klapan 6, nazorat klapan 5, cheklagich 3, prujina 4 va oraliq vtulkadan iborat.




*8.9-rasm. Forsunka to'zitgichlurining konstruksiyasi*

Plastinasimon klapan forsunkadagi bosim silindrdaqи bosimdan kam bo'lganda gazlarni o'tkazmaydi. Nazorat klapani esa ochiq forsunkaga xos kamchilikni (purkash oxirida yonilg'inining tomchilashini) yo'qotadi va u bosim 4,5...6,5 MPa bo'lgandagina ochiladi.

Klapanning ochilish bosimi maksimal purkash bosimididan ancha kam bo'lganligi uchun ko'pincha bunday forsunka ochiq forsunka deyiladi.

Yopiq to'zitgichlarning sxemasi 8.9-rasm, v va g da ko'rsatilgan. Nina yopiq to'zitgichning asosiy elementi bo'lib, har gal silindrga yonilg'i purkalgandan so'ng yuqori bosimli yonilg'i berish yo'lini yonish kamerasidan ajratib qo'yadi.



**8.10-rasm. Yopiq forsunkanining ishlash sxemasi**

2 ga ta'sir qiluvchi bu bosim prujina kuchidan oshganda  $R_{pr}=15,0\ldots20,0$  MPa nina ko'tariladi va yonish kamerasiga katta bosim hamda tezlikda soplo teshiklari 9 orqali yonilg'i purkaladi (8.10-rasm, b). Yonilg'i berish tugashi bilan yuqori bosimli naychalarda hamda to'zitgich korpusining ichki qismida bosim keskin pasayadi va prujinaning bosimidan kam bo'lib qoladi. Natijada ninaning konussimon sirti to'zitgichning konus sirtiga zikh o'tiradi va silindrga yonilg'i purkash keskin tugallanadi. Nina o'z uyasiga tez o'tirgandagina purkash oxirida silindrga yonilg'i oqib ketishini va soplo teshiklarining kokslanib qolishini yo'qotish mumkin. Bu vazifani esa haydash klapani bajaradi.


Ajratilgan kamerali dizellarda qo'llaniladigan forsunkanining shtiftli to'zitgichi 8.9-rasm, d da ko'rsatilgan.

Purkashning boshlanish bosimini nina prujinasining tarangligini rostlash yo'li bilan o'zgartirish mumkin.

Maqbul holatda nina 7 ning konusi 1 prujina 5 ta'sirida to'zitgich korpusidagi o'rindiqqa siqilgan bo'ladi (8.10-rasm, a). Nasosdan yonilg'i kelishi bilan yuqori bosimli naychada, shuningdek, to'zitgichning ichida bosim juda tez ko'tariladi. Ninaning konussimon sirti

Ninaning ishlash sharoitini yaxshilash va muddatini oshirish maqsadida nina hamda to'zitgichning korpusi uzunroq qilib yasaladi, chunki bu holda detallarni sovitish sharoiti ancha durust bo'ladi.

Ajratilmagan kamerali dizellarda 2...11 ta teshikli to'zitgichlar ishlataladi. Teshiklar diametri 0,15...0,45 mm bo'ladi. Ajratilgan kamerali dizellarda bir teshikli yoki shtiftli to'zitgichlar ishlataladi. Teshikning diametri nisbatan katta 1...2 mm bo'ladi.



**8.11-rasm. YAMZ dizellariga  
o'rnatiladigan yopiq  
forsunkalar:**

- a - YAMZ-236 dizeli uchun;*
- b - YAMZ-740 dizeli uchun*

Yopiq to'zitgichlarda ninaning yurish yo'li 0,3...0,45 mm, nina bilan to'zitgich korpusining orasidagi tirqish 2,5 mkm, o'rindiq konusining burchagi  $59^{\circ}...60^{\circ}$ , nina konusining burchagi esa mos holda  $1^{\circ}$  katta qilib tayyoranadi.

Misol tariqasida to'rt taktli YAMZ-236 va YAMZ-740 dizellarda ishlataladigan forsunkalarning konstruksiyasi 8.11-rasm, *a*, *b* da ko'rsatilgan.

Nina *a* li to'zitgich 3 gayka 2 yordamida forsunka korpusi 1 ga mahkamlanadi, nina esa prujina 8 va turtkich 6 vositasida o'rindiqqa siqiladi.

Prujinaning pastki qismi tarelka 7 ga, yuqori qismi esa rostlash vinti 9 ga tayanadi. Rostlash vinti 11 stakan 10 ga buralib, kontrgayka 11 bilan mahkamlanadi. Stakanga buraladigan qalpoq 12 bilan korpus orasida qistirma 13 bor. Prujinaning tarangligini rostlash vinti yordamida o'zgartirish mumkin.

Yonilg'i yuqori bosim ostida forsunkaga shtutser 15 va sim to'rlardan tuzilgan filtr 14 orqali keladi. So'ngra u to'zitgichga tushadi va nina ko'tarilganda silindrga purkaladi.

Forsunka silindrler kallagiga skoba yordamida mahkamlangan, skoba esa qalpoq 12 ning aylana chiqig'iga tiraladi.


Nina va purkagich korpusi oralig'idan sizgan yonilg'i shtutser orqali yig'ish kanaliga o'tadi.

YAMZ dizellariga o'matiladigan forsunkalarning to'zitgichida diametri 0,34 mm li to'rtta teshik har xil burchak ostida joylashgan bo'lib, yonish kamerasidagi havodan to'la foydalanishni ta'minlaydi. To'zitgich forsunkanining korpusida yonish kamerasiga nisbatan aniq holatda ikkita shtift 5 bilan o'matiladi. Ninaning ko'tarilishi 0,28...0,38 mm, prujinaning tarangligi  $15,0 \pm 0,5$  MPa.

#### **8.4. YUQORI BOSIMLI YONILG'I NASOSI VA FORSUNKANING BIRGA ISHLASHI**

Plunjerning faol yo'li ko'ndalang yuzasi kiritish teshiklarini berkitgan paytidan boshlanib vintsimon qirrasi qaytarish teshigini ochgan paytgacha davom etadi. Haqiqatda esa yonilg'i tizimida shunday jarayonlar sodir bo'ladiki, bunda yonilg'ini silindrga purkashning boshlanishi va tugashi plunjер faol yo'lining boshlanishi va tugashiga to'g'ri kelmaydi.

Yonilg'i nasosidagi plunjер va haydash klapanining birga ishlashi 8.12-rasmida ko'rsatilgan.



**8.12-rasm. Plunjer va haydash klapanining birga ishlashi: I va II plunjerning yuqori hamda pastki chekka holatlari**


Grafikda abssissalar o‘qiga yonilg‘i nasosi valining burilish burchagi  $\varphi_k$ , ordinatalar o‘qiga esa plunjer yo‘li  $h_{pl}$  va tezligi  $V_{pl}$  qo‘yilgan. Plunjering koordinata boshidan nuqta I gacha bosib o‘tgan yo‘lida ish bajarilmaydi va u salt yo‘li deyiladi. Bu davr ichida kulachokli val  $\Delta\varphi_1$  burchakka buriladi. Plunjer  $\Delta h_1$  yo‘lni bosib o‘tadi va uning tezligi 0 dan  $V_1$  gacha o‘zgaradi. Kiritish teshiklari berkilgan vaqtidan boshlab haydash klapani ko‘tarila boshlaydi. Lekin bu davrda bo‘shatuvchi belbog‘ yo‘naltiruvchi kanaldan chiqmagani uchun yonilg‘i plunjerning ustidagi bo‘shliqdan haydash klapanining shtutseriga o‘tmaydi. Bu davr ichida (2 nuqttagacha) kulachokli val  $\Delta\varphi_2$  burchakka buriladi, plunjer  $\Delta h_2$  yo‘lni bosib o‘tadi, uning tezligi esa  $V_2$  ga yetadi.

Plunjer 2-2 holatga kelganda haydash klapanining bo‘shatuvchi belbog‘i yo‘naltiruvchi kanaldan to‘la chiqadi,

natijada yonilg'i yuqori bosimli naychalarga o'ta boshlaydi. Plunjer yordamida yonilg'i haydash chiqarish teshigi vintsimon qirra bilan ochilguncha davom etadi. Bu davr esa plunjerning 3-3 holatiga to'g'ri keladi. Bunda kulachokli val  $\Delta\varphi$ , burchakka buriladi, plunjer  $\Delta h_3$  yo'lni bosib o'tadi va uning tezligi  $V_2$  dan  $V_3$  gacha o'zgaradi. 3 nuqtaning holati berilayotgan yonilg'i miqdoriga bog'liq.  $\Delta h_3$  plunjerning faol yo'li bo'ladi. Nazariy jihatdan olinganda silindrga yonilg'ini purkash nuqta 2 da boshilanib, nuqta 3 da tugaydi. Real sharoitlarda esa klapanning belbog'i o'z yo'naltiruvchisidan sal ilgariroq (plunjerning ustidagi yonilg'inining bosimi ta'sirida) chiqadi. Natijada shtutserga yonilg'i nuqta 2 da emas, balki ilgariroq o'ta boshlaydi. Yonilg'i uzatishning tugashi nuqta 3 da emas, balki bir oz keyin sodir bo'ladi (gilzadagi chiqarish teshiklarida yonilg'i oqimining drossellanishi natijasida). Plunjer ustidagi yonilg'i bosimi plunjerning o'lchamlariga ( $d_{pl}$ ,  $h_{pl}$ ) va tezligiga, ya'ni ish rejimiga bog'liq.

Yonilg'inining purkash tavsifi  $P_{pur} = f(\varphi_s)$  to'zitgichining teshigi oldidagi bosim  $p_c$  va purkash davrida silindrdbagi bosim  $p_s$  ning ayirmasi bilan aniqlanadi, ya'ni  $P_{pur} = P_c - P_s$ . Buning uchun  $P_c = f(\varphi_s)$  va  $P_s = f(\varphi_{v.b})$  yozib olingen bo'lishi kerak.

YAMZ dizellarida qo'llaniladigan forsunkalar uchun purkash tavsifi 8.13-rasmda keltirilgan. Gorizontal shtrixlangan chiziq yuqori bosimli naychadagi oldingi sikldan qolgan yonilg'inining bosimini tavsiflaydi, nuqta 1 haydash klapani ochilishi natijasida yuqori bosimli naychadagi yonilg'i bosimining ko'tarilish paytini tavsiflaydi; nuqta 2 bosimning oshishi natijasida forsunka ninasining ko'tarilish paytiga mos keladi.




8.13-rasm. Purkash bosimining o'zgarishi:  
A-yopiq forsunka uchun; B-ochiq forsunka uchun;  
 $\Delta\phi$ -purkashning davom etishi

Shu paytdan boshlab to'zitgich teshiklari orqali yonilg'i purkash boshlanadi, lekin bosimning bir oz pasayishi kuzatiladi (nuqta 3). Silindrga yonilg'ini purkash asosan 3-4 egri chiziq bilan tavsiflanadi. Bu uchastkada purkash jarayonining rivojlanishi plunjerning tezligiga bog'liq. Plunjerning tezligi qancha katta bulsa,  $p_f$  ning qiymati shuncha katta bo'ladi.

Nuqta 4 da yonilg'i berish uziladi, ya'ni gilzadagi chiqarish teshigi ochiladi. Natijada bosim tez pasayadi, haydash klapani o'rindiq tomonga harakat qiladi. Nuqta 5 da bo'shatuvchi belbog' yo'naltiruvchi kanalga kiradi va yuqori bosimli naycha plunjer usti bo'shilig'idan ajratiladi. Lekin ma'lum vaqt davomida yonilg'i berish to'xtatib qo'yilganiga qaramay, yuqori bosimli naychada qolgan yonilg'i forsunka orqali silindrga purkaladi. Nuqta 6 da forsunkaning ninasi

o‘z o‘rniga o‘tiradi va  $P_f$  bosimning bundan keyingi pasayishiga haydash klapanining ishlashi sabab bo‘ladi. Nasos-forsunkada esa yuqori bosimli naychalar bo‘lmaganligi uchun yonilg‘ini purkay boshlash payti plunjerdan yonilg‘i bera boshlash paytiga to‘g‘ri keladi.



**8.14-rasm. Yonilg‘i purkash tavsifi:**  
1-berilgan yonilg‘i miqdori mg/grad. 2-berilgan yonilg‘ining umumiy miqdori, mg

Ajratilgan yonilg‘i tizimlarida yonilg‘i nasosi va forsunka sopllosida bosimning o‘zgarishi bir vaqtda sodir bo‘lmaydi, chunki yonilg‘i yuqori bosimli naychalarda yo‘lni ma’lum vaqt ichida bosib o‘tishi lozim.

Ajratilgan yonilg‘i tizimi uchun nazariy va real purkash tavsiflar 8.14-rasmda ko‘rsatilgan.

Grafiklardan ko‘rinib turibdiki, purkashning boshlanishi va tugallanishi nasos orqali yonilg‘i berish fazalaridan keyin sodir bo‘ladi.

Purkash jarayonining davom etish vaqtin natosi valining aylanishlar chastotasiga, nina prujinasining siqish kuchiga, yuqori bosimli naychalarning uzunligiga, to'zitgich teshiklarining kattaligiga va dvigatelning yuklamasiga, ya'ni berilayotgan yonilg'i miqdoriga bog'liq.

## 8.5. A YLANISHLAR CHASTOTASI REGULYATORLARI

Avtotraktor dizellarining eng katta quvvati tirsakli valning nominal aylanishlar chastotasiga to'g'ri keladi. Biror sabab bilan aylanishlar chastotasi nominal qiymatidan oshib ketsa, mexanik va termik yuklamalar oshib, dvigatelda avariya sodir bo'lishi mumkin.


Dizel tezlik tavsiflarining tahlilidan ma'lumki, reykaning barcha holatlarida dvigatel eng katta quvvatga nominal tezlikda erishadi. Dizellarda yuklama tez pasaytirilganda, tirsakli valning aylanishlar chastotasi keskin oshib ketadi, bunda agar regulyator bo'lmasa, yonilg'i ko'p kelib dizel haddan tashqari tez ishlaydi, shu sababli dizellarga maksimal aylanishlar chastotasini cheklaydigan regulyator o'rnatiladi.

Transport dvigatelinining salt rejimida turg'un ishlashi katta ahamiyatga ega. Dvigatel salt ishlaganda uning indikator ishi mexanik isroflar ishiga teng ( $p_i - p_m$ ) bo'lsa, u ravon ishlaydi.

Karbyuratorli dvigatel va dizel uchun minimal aylanishlar chastotasi turg'un ishlash shartlari 8.15-rasmda keltirilgan.

Karbyuratorli dvigatel uchun  $\eta_m$ ,  $p_i$  va  $p_m$  larning  $n$  ga bog'liqlik grafigi, dizel uchun esa  $q_s$ ,  $p_i$  va  $p_m$  larning  $n$  ga bog'liqlik grafiklari ko'rsatilgan.

Dvigatelinning yuklamasiz ravon ishlagandagi aylanishlar chastotasi uning issiqlik holatiga bog'liq. Karbyuratorli dvigatel uchun  $p_m=p_i$ , holat nuqta 1 da, ya'ni  $n_1$  da hosil bo'ladi. Agar dvigatelinning issiqlik rejimi o'zgarsa, mexanik bosim  $p_m$  kattalashadi (nuqta 2) yoki kamayadi (nuqta 3).




**8.15-rasm. Minimal aylanishlar chastotasida turg'un salt ishlash shartlari:**  
*a-karbyuratorli dvigatel; b-dizel*

$p_i = p_m$  tenglik holat hosil bo'lishi uchun dvigatelinng aylanishlar chastotasi  $\Delta n_2$  yoki  $\Delta n_1$  qadar o'zgarishi kerak. Demak, karbyuratorli dvigatelda tenglik holat aylanishlar chastotasining kichik o'zgarishlarida hosil bo'ladi. Bu esa  $\eta_m$ ,  $p_i$  ning o'zgarishiga bog'liq.

Ma'lumki, dizelda havo miqdori rostlanmaydi. Shuning uchun salt ishlash rejimidagi o'rtacha indikator bosim silindrga berilgan yonilg'i miqdori  $q_s$  ning tavsifi bilan aniqlanadi. 8.15-rasm, *b* da dizelning regulyatorsiz va regulyator bilan ishlagandagi tavsiflari ko'rsatilgan. Yuklamasiz ishlashdagi aylanishlar chastotasi nuqta 4 ga to'g'ri keladi. Dizel regulyatorsiz ishlaganda mexanik isroflar o'zgarsa (masalan, dvigatel sovitilganda yoki qiziganda), muvozanat 5 va 6 nuqtada bo'ladi. Bu vaqtda tirsakli valning aylanishlar chastotasi ko'p, ya'ni  $\Delta n_5$  yoki  $\Delta n_6$  qadar o'zgaradi va dizel juda notekis ishlaydi. Demak, dizel turg'un ishlashi uchun yuklamasiz ishlashdagi minimal aylanishlar chastotasini cheklaydigan regulyator kerak. Regulyatorning reykaga ta'sir qilishi 7.15-rasm, *b* da (5.' va 6' nuqtalar) ko'rsatilgandek, yonilg'i berish tavsifini ta'minlab beradi. Bu holda dvigatelinng aylanishlar chastotasi kam, ya'ni  $\Delta n_5$  yoki  $\Delta n_6$  miqdorga o'zgaradi. Avtomobil

dizellarida ikkala regulyator bir agregatga birlashtirilib, yaxlit yasalgan bo'ladi va ikki rejimli regulyator deb ataladi. Bunday markazdan qochirma regulyatorning sxemasi 8.16-rasmda ko'rsatilgan.



*8.16-rasm. Ikki rejimli regulyatorning sxemasi*

Yonilg'i nasosining kulachokli vali 6 oxiriga regulyatorning vtulkasi 5 o'rnatilgan. Vtulkaga esa yukchalar 3 bilan jihozlangan ikkita sterjen 4 burab kirgizilgan. Yukchalar vtulka bilan birga aylanib sterjenlar bo'ylab siljishi mumkin. Sterjenlarga prujinalar 7 va 9 o'rnatilgan, ular tarelkalar 2 yordamida gaykalar 1 bilan siqilgan. Prujinalar 7 pastki ko'ndalang yuzasi bilan yukchalarning chiqiqlariga tegib turadi, prujinalar 9 esa tarelkalar 8 ga tayanadi. Regulyatorning yukchalari tortqilar vositasida yonilg'i nasosining reykasini siljitadi. Kulachokli val aylanganda regulyatorning yukchalari markazdan qochirma kuch ta'sirida siljishga harakat qiladi.

Prujina 7 ning tarangligi shunday tanlab olinadiki, u yukchalar ta'sirida salt ishlash rejimining minimal

aylanishlar chastotasida siljiy boshlasin. Aylanishlar chastotasi  $n_1$  dan  $n_2$  ga qadar oshganda yukchalar siljib tarelka 8 gacha bo'lgan masofa  $h_1$  ni bosib o'tadi. Yukchalar siljishi natijasida reykaning holati o'zgaradi va salt ishlash rejimi rostlanadi. Aylanishlar chastotasi  $n_2$  dan  $n_3=n_{\text{nom}}$  gacha o'zgarganda reguluator ishlamaydi. Bu rejimlarda dvigatelning ishlashi haydovchi tomonidan o'zgartiriladi.  $n_3$  dan boshlab yuklama kamayishi va aylanishlar chastotasining  $n_4$  gacha oshishi bilan yukchalar siljiydi va prujina 9 siqiladi. O'z navbatida yukchalar  $h_2$  masofaga siljib yonilg'i nasosining reykasini suradi, bunda yonilg'inining miqdori kamayadi va eng katta aylanishlar chastotasi  $n_3-n_4$  oralig'ida rostlanadi.


Ikki va undan ortiq rejimli reguluator bilan jihozlangan dizellarning tezlik tavsiflari 8.17-rasmida ko'rsatilgan.

Aylanishlar chastotasi  $800\dots1000 \text{ min}^{-1}$  bo'lganda minimal aylanishlar chastotasi reguluatori ishlaydi. Maksimal aylanishlar chastotasi reguluatori  $n_{\text{nom}}=1700 \text{ min}^{-1}$  dan boshlab ta'sir qiladi.


Dizellarning barcha rejimli mexanik reguluatori (8.18-rasm) ularning barcha rejimlarda turg'un ishlashini ta'minlaydi. Bu jarayon prujina 5 ning tarangligini haydovchi tomonidan o'zgartirib amalga oshiriladi. Demak, rejimda berilayotgan yonilg'inining miqdori prujina yordamida boshqariladi.

Dizelning barcha rejimli reguluator bilan ishlagandagi tashqi tezlik tavsifi va uning reguluator tarmoqlari 8.17-rasm, b da ko'rsatilgan. Nuqta 1 dizelning nominal aylanishlar chastotasidagi eng katta quvvatiga to'g'ri keladi. Agar dizel bu rejimda ishlaganida biror sabab bilan uning yuklamasi kamaysa, tirsakli valning aylanishlar chastotasi ortib, reguluator yukchalari ochila boshlaydi. Natijada prujinaning tarangligi o'zgarib, reyka tortiladi va yonilg'inining miqdori kamayadi. Bu holda effektiv quvvat 1-6 chiziq bo'ylab o'zgaradi va dizelning

to'la yuklamada turg'un ishlashi ta'minlanadi. Dizel oraliq yuklamalarda (2, 3 nuqtalar) ishlaganda yuklama kamaysa, dizelning quvvat tavsiflari 2-5; 3-4 chiziqlar bilan ifodalananadi. Demak, dizelning barcha rejimlarda turg'un ishlashi ta'minlanadi.



8.17-rasm. Ikki (a) va barcha rejimli (b) regulator bilan jihozlangan dizellarning texnik tavsiflari




**8.18-rasm. Barcha rejimli regulatoryorning sxemasi**

### 8.6. KORREKTORLAR

Dizellarda aylanishlar chastotasi ortishi bilan siklda nasos orqali beriladigan yonilg'i miqdori ortadi. Agar uzatilayotgan yonilg'i miqdori nominal rejim uchun o'rnatilgan bo'lsa, aylanishlar chastotasi kamaya borishi bilan burovchi moment kamroq o'sadi. Bu holatni dizellar uchun burovchi momentning o'zgarish xususiyatini ko'rganimizda uchratgan edik va u dizelning kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Bu kamchilikni yo'qotish maqsadida yonilg'i berish korrektori ishlataladi. Korrektor yordamida burovchi moment zaxirasini oshirish mumkin. Buning uchun aylanishlar chastotasi kamayishi bilan silindрга berilayotgan yonilg'ining miqdori oshirilishi kerak.

D-12A dizeliga o'matilgan yonilg'i berishni rostlovchi prujinali korrekторning ishlash prinsipi 8.19-rasmda ko'rsatilgan.


Korrektor quyidagi elementlardan tashkil topgan: 1-yukchalar; 2-qalpoqcha; 3-prujina; 4-tirak; 5-tiqin; 6-shplint; 7-stakan; 8-reyka. Korrektor qalpog'i stakanda harakat qilishi mumkin. Qolgan detallar esa (reykadan tashqari) harakat qilmaydi.



**8.19-rasm. Yonilg'i berishni rostlovchi prujinali korrektor:**  
**a-sxemasi; b-kichik yuklamalarda reykaning holati; v-nominal**  
**rejimdagi reykaning holati; g-eng ko'p yonilg'i uzatilganda**  
**reykaning holati**

Dizel kichik va nominal yuklamada ishlaganda yonilg'i nasosi reykasining holati 8.19-rasm, *b* va *v* larda tasvirlangan. Bu rejimda korrektor hali ishga tushmaydi. Masalan, avtomobilning harakatiga qarshilik oshdi, deb faraz qilaylik, agar korrektor bo'lmasa, qarshilik oshgan sari dvigatearning aylanishlar chastotasi va berilayotgan yonilg'inining miqdori kamayadi. Natijada avtomobil qarshilikni yenga olmay to'xtab qolishi mumkin. Korrektor bo'lgan holda esa, aylanishlar chastotasi kamayishi bilan yukchalar o'zaro yaqinlashadi. Uning kuchi  $P_{yu}$  prujina kuchi  $P_{pr}$  dan kichik bo'lib qoladi. Natijada bu kuchlar farqi ta'sirida reyka harakatga kelib, korrektorning prujinasi 3 ni siqadi (8.19-rasm, *g*). Bunda silindрга yonilg'i berish ko'payadi va dvigatearning quvvati hamda burovchi momenti ortib, qarshilikni yengish uchun imkon tug'iladi. Reyka

tirakka tekkuncha yonilg'i berish ko'payaveradi. Prujina 3 ning bikrligi yonuvchi aralashmaning ortiqcha quyuqlashmasligini, ya'ni to'la yonishini e'tiborga oladigan qilib tanlanadi.



8.20-rasm. Yonilg'i miqdorining tezlik rejimiga qarab o'zgarishi:

1-oddiy haydash klapani bilan;  
2-klapan-korrektor va prujinali korrektor bilan

Ba'zi yuqori bosimli yonilg'i nasoslarida haydash klapani ikkita vazifani, ya'ni ham klapan, ham korrektor vazifasini bajaradi. Bu holda klapanning yonilg'i o'tishi uchun mo'ljallangan o'zgaruvchan kesimli ariqcha'lari bo'ladi. Bunday

klapanli nasosning tezlik tavsifi 8.20-rasmida egri chiziq bilan ko'rsatilgan. Prujinali korrektor ishlatalganda ham yonilg'i miqdorining o'zgarishi shu kabi bo'ladi.

## **IX BOB. DIZELLARDA YONUVCHI ARALASHMA HOSIL QILISH**


Dizellarda yonilg'i tez va to'la yonishi kerak. Bu esa yonilg'i aralashmasining tayyorlanish sifatiga bog'liq. Katta yuklamalarda, ya'ni  $\alpha$  ning kichik qiymatlarida, katta tezlik rejimlarida aralashma sifatiga yuqori talab qo'yiladi.

Dizelda yonuvchi aralashma siqish jarayonining oxirida, silindr ichida hosil qilinadi. Karbyuratorli dvigatellardan farqli dizelda aralashma hosil qilish uchun ajratilgan vaqt juda cheklangan bo'lib, 0,01...0,02 sekundni tashkil qiladi. Dizelda yonilg'i purkash porshen yu.ch.n.ga bir necha gradus yetmasidan boshlanadi. Alangalanishning kechikish davriga teng vaqt ichida silindrga yonilg'inинг saqat bir qismi tushadi. Katta yuklamalarda esa yonilg'ini purkash yonish jarayoni boshlangandan keyin ham davom etadi. Bu holda aralashma hosil qilish qiyinlashadi. Shu sababli dizellarda purkashga ajratilgan vaqt juda cheklangan bo'lib, tirsakli valning 15...30° burilishiga to'g'ri keladi. Yonish jarayoni yaxshi rivojlanishi uchun kameradagi havoning harakat tezligi nisbatan katta bo'lishi va purkalayotgan yonilg'i zarralari kameraning hamma hajmi bo'ylab tekis taqsimlanishi lozim. Yonilg'ini purkash, ya'ni mayda zarrachalarga to'zitish va yonuvchi aralashma hosil qilish usuli yonilg'i berish apparatusiga hamda yonish kamerasiga ko'p jihatdan bog'liq.

### **9.1. YONISH KAMERALARI**

Avtomobil va traktor dizellarida ikki xil yonish kameralari qo'llaniladi: ajratilmagan (bir bo'shliqli) va ajratilgan (ikki bo'shliqli). Ajratilmagan kameralar asosan porshenda, ajratilgan kameralarning bir qismi porshenda, qolgan qismi silindr kallagida joylashgan bo'ladi.

**Ajratilmagan yonish kameralari sifatida porshen tubida joylashgan kamera va silindr kallagi hamda porshen tubi tekisligi orasiga joylashgan hajm xizmat qiladi.** Bunday kameralarda yonuvchi aralashma hosil qilishning hajmiy, hajmiy-pardali va pardali usullari mavjud.




**9.1-rasm. Hajmiy yonuvchi aralashma hosil qiluvchi kamerasi bor dizelning yonish kameralari:**

a-YAAZ-204, 206; b-D-12A; v-DB-67; g-Kammins V-6-140

**Yonuvchi aralashmani hajmiy usulda tayyorlash** (9.1-rasm). Yonuvchi aralashma kameraning butun hajmida hosil qilinadi. Bunday kameralarda siqilgan havoning harorati kamera devorlari haroratidan ancha yuqori bo'ladi. Yonilg'i nisbatan «sovuq» kamera devorlariga urilganda yonish jarayoni yomonlashadi, qurum hosil bo'ladi va dizel tutun chiqarib ishlaydi. Bunday kameralarning shakli va o'chami forsunkaning purkagichidan chiqayotgan yonilg'i to'zonining uzunligi va konusiga mos bo'lishi shart. Forsunka silindr o'qi bo'ylab o'matilgan dizellarda, yonilg'i uning soplosidagi kichik ( $d_s=0,15$  mm) teshiklardan purkaladi, soplo teshiklari 5...11 ta bo'lishi mumkin va ular aylana bo'ylab tekis joylashadi.

O'z-o'zidan alanganish yonilg'i to'zonlarining chekkalaridan bosilanadi, chunki u yerda mayda

zarrachalar ko'p bo'ladi va alangalanish uchun kerakli konsentratsiyada yonuvchi aralashma hosil bo'ladi. Bu aralashma issiqlik ta'sirida yona boshlaydi. So'ngra alanga butun to'zonnii qamrab oladi va kameraning chekka qismlariga ham tez tarqaladi. Yonuvchi aralashma hosil qilishda, asosan, yonilg'i to'zonining kinetik energiyasidan va qisman siqilgan havoning energiyasidan foydalaniadi. Bunday kameralarning diametri katta bo'lganligi sababli havoning harakat tezligi kichik bo'ladi. Shuning uchun yonilg'ini purkash bosimi katta ( $100,0 \dots 140,0$  MPa) bo'lishi kerak. Bunday katta bosim nasos-forsunkada hosil bo'ladi.




*9.2-rasi. Hajmiy-pardali yonuvchi aralashma hosil qiluvchi dizelning yonish kameralari:*

a-YAMZ-236, 238 dizellarida; b-YAMZ-740, 741 dizellarida; c-D37M dizelida; g-YAMZ-810 dizelida; d-SNIDI kamerasida; ye-Zaurer dizelida


**Hajmiy-pardali yonuvchi aralashma hosil qilish.** Bunda ham yonilg'i kameraning barcha hajmiga purkaladi. Kamera devorlariga parda shaklida qoplanadigan yonilg'ining miqdori kamera bo'g'zining diametriga, yonilg'i uzatish apparurasining ko'rsatkichlariga (purkash bosimi, soplo teshiklarining diametri), kameradagi havoning zichligi va tezligiga, purkagichning kameraga nisbatan joylashishiga qarab turlicha bo'ladi. Bundan tashqari,

dvigatelning turli yuklama va tezlik rejimlariga qarab ham kamera devorlariga qoplanayotgan yonilg'ining miqdori o'zgaradi. Avtotraktor dizellarida shunday rejimlar (kichik yuklamalar va kichik aylanishlar chastotasi) ham bo'ladiki, bunda purkalgan yonilg'i kamera devorlariga yetib bormaydi va kamera hajmida to'planadi (bu holda yonilg'i pardasi hosil bo'lmaydi). Bunday sharoitlarda yonish jarayoni yuqorida keltirilgan hajmiy aralashma hosil qilish usulidagidek bo'ladi. Bu guruh dizellarga katta yuklamalarda yonilg'ining ma'lum qismi kamera devorlariga tushadigan kameralar turkumi kiradi. Lekin bunday kameralarda pardali aralashma hosil qilish usulidagi kabi parda hosil qilish uchun maxsus sharoitlar yaratilmaydi. Bu tipdagi kameralar 9.2-rasm, a, ye da ko'rsatilgan. Purkagich teshiklarining soni 3...5 ta bo'ladi. Purkalayotgan yonilg'ining porshen bilan kallak orasidagi tirqishga tushishi maqsadga muvofiq emas, chunki bu holda yonish jarayoni hamda siklda issiqlikdan foydalanish yomonlashadi. Yonuvchi aralashma hosil qilish uchun yonilg'i va havo zaryadining o'zaro ta'siridan foydalaniladi. Bu guruh dizellarida silindr o'qi bo'ylab hosil bo'ladigan havoning aylanima harakatidan foydalaniladi. Bunday harakat kiritish taktida tashkil qilinadi hamda siqish va yonish jarayonlarida saqlanib qoladi. Kamera bo'g'zining diametri silindr diametridan kichik bo'lgani uchun porshen siqish jarayonida yu.ch.n.ga harakat qilganda zaryad silindr va porshen oralig'idan yonish kamerasiga oqib o'tadi. Porshen yu.ch.n.ga yaqinlashishi bilan oqib o'tish tezligi osha boshlaydi va yu.ch.n.ga 10...15° qolganda yuqori (25...35 m/s) tezlikka erishadi. Ba'zi dizellar uchun havo zaryadining tezligi 9.3-rasmida ko'rsatilgan. Purkalgan yonilg'ining ko'p qismi yonish kamerasining o'zida, qolgan qismi esa kamera devorlaridan bug'lani b havo bilan keskin aralashadi va yonadi.



**9.3-rasm.** Yonish kamerasida zaryad aylanish tezligining tirsakli val aylanishlar chastotasiga bog'liqlik grafigi:  
1-D-37 M dizeli; 2-YAMZ-236 dizeli; 3-tez yuror dizel S/D= 96/115 (Gesselman tipidagi kamerali)

Ba'zi to'rt taktli dizellarda havoning uyurma harakatini hosil qilish uchun kiritish klapaniga ekran (9.4-rasm) qo'shiladi yoki kiritish kanallarining ayrim qismlari toraytiriladi yoxud vint shaklida yasaladi. Bunday kameralarda havo zaryadining energiyasi katta bo'lganligi sababli yonilg'i berish apparaturasiga bo'lgan talab nisbatan kam. Shuning uchun yonilg'i berish apparatusini tanlash oson bo'ladi. Bunday kameralarda purkash bosimi 30,0...50,0 MPa ga teng. Demak,



**9.4-rasm.** Havoning uyurma harakatini tashkil qilish usullari:  
a-klapanga ekran o'rnatish;  
b-teshiklar orqali urinma holda kiritish

papkash bosimi, yonilg'i to'zonining uzunligi, purkagich teshiklari ning diametri katta ahamiyatga ega emas va ular dvigatelning

ko'rsatkichlariga katta ta'sir ko'rsatmaydi. Ayni vaqtida havo zaryadining tezligi bilan bog'liq bo'lgan omillar dvigatel ko'rsatkichlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday kamerali dizellar nisbatan ko'p tarqalgan bo'lib, ularning tejamliligi ancha yaxshi  $g_e=200...220$  g/(kVt·soat), effektiv bosimi esa  $P_e=0,78...0,82$  MPa. Bunday dizellarni ishga tushirish nisbatan oson va ularning aylanish chastotasi 2200 min<sup>-1</sup> gacha bo'ladi.

**Pardali yonuvchi aralashma hosil qilish.** Yuqorida qayd qilganimizdek, hajmiy va hajmiy-pardali aralashma hosil qilish usullarida yonish jarayoni shiddatli bo'ladi. Bu kamchilikni bartaraf qilish hamda tutun chiqarib ishlashni kamaytirish maqsadida pardali aralashma hosil qilish usuli qo'llaniladi. Bu usulda aralashma hosil qilish uchun quyidagilar bo'lishi shart: a) birlamchi alanganishda qatnashadigan yonilg'i miqdorini qisqartirish (5% dan oshmasligi kerak); b) yonilg'ining asta-sekin oksidlanishini va qizishini ta'minlash; v) yonilg'ini issiq havo bilan jadal aralashtirish; bu esa alanganish paytigacha bir xil tartibli aralashma olishni va aralashmaning shiddatsiz yonishini ta'minlaydi. Asosiy maqsad quyidagidan iborat: Yonish jarayonini boshqarib (birlamchi alanganishning jadalligini pasaytirib, yonilg'ining havo bilan aralashib, tez va to'la oksidlanishini ta'minlash) siklda issiqlikdan foydalananishning samaradorligini oshirish. Bu usulda aralashma hosil qilish va yonish jarayonini tashkil qilish M-jarayoni nomi bilan mashhur. M-jarayoni ishlatalgan MAN (GFR) dizelining yonish kamerasi 9.5-rasmda ko'rsatilgan. Sfera shaklidagi kamera porshenda joylashgan bo'lib, nisbatan keng bo'g'izga ega ( $d_s / D_s = 0,34...0,38$ ). Kameradagi havo harakatining tezligi 50..60 m/s ni tashkil qiladi. Porshen yu.ch.n.ga kelganda havoning eng ko'p (70% atrofida) qismi yonish kamerasida bo'ladi. Purkagichda soplo teshiklari ikkita bo'lib, ulardan biri yonilg'ini kamera devorlariga o'tkir burchak ostida, havo oqimiga mos


holda purkab beradi, natijada 15 mkm qalinlikda suyuq yonilg'i pardasi hosil bo'ladi. Ikkinchchi teshik orqali

kamera hajmiga faqat 5% yonilg'i purkaladi. Alangalanish jarayoni kamera hajmida boshlanadi. Kamera yuzidagi yonilg'i pardasi purkash tugallanishi bilan bug'lana boshlaydi. Bug'langan yonilg'i havo bilan aralashib yonish zonasiga tushadi va yona boshlaydi. Kamerada havoning aylanma harakati mavjud bo'lgani uchun issiq gazlar yonish kamerasining markaziga intiladi, nisbatan sovuq havo esa kamera devorlari bo'ylab harakat qiladi va yonish zonasini kislorod bilan ta'minlaydi. Bu esa yonish jarayonining shov-qinsiz ravon borishini ta'minlaydi.

#### 9.5-rasm Pardali aralashma hosil qilinadigan kamera:

- 1-yonilg'i fakeli:
- 2-havoning yo'naliishi

Bu kameralarda ham purkash tavsiflari va ko'rsatkichlari siklda issiqlikdan foydalanishga kam ta'sir ko'rsatganligi uchun yonilg'i berish apparaturasiga qo'yilgan talab katta emas. Purkashning davomiyligi  $30\ldots40^\circ$  ni tashkil qiladi. Bunday dizellar tejamli ( $g_{\text{min}}=210\ldots215 \text{ g}/(\text{kVt}\cdot\text{soat})$ ) ishlaydi, effektiv bosimi esa  $0,85 \text{ MPa}$  ( $\alpha_{\text{min}}=1,15\ldots1,20$ ). Ishlatilgan gazlarning tutuni kam bo'ladi, chunki yonish vaqtida bir xil tarkibli aralashma hosil qilinadi va yonish to'la bo'ladi. Bunday yonish kameralarida turli nav dizel yonilg'ilarini, shuningdek, benzin va kerosinni ham ishlatish mumkin. Bu tipdag'i dizellarda kichik oktan sonli benzinlar ishlatganda ham yonish jarayonining shiddati  $0,5 \text{ Mpa}$  gradusdan oshmaydi. Yonish kamerasining devorlari nisbatan sovuq bo'lganda effektiv aralashma hosil qilish qiyin bo'ladi. Bu esa dvigatelni tutun chiqarib ishlashga olib keladi va uni




yurgizib yuborish qiyinlashadi. Bunday kamerali dizellar «Ikarus» avtobuslariga o'rnatilgan.

**Ajratilgan yonish kameralari.** Ma'lumki, ajratilmagan yonish kameralarida dvigateining ko'rsatkichlari yonilg'i berish apparatursining tavsiflariga va holatiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Bu esa yonilg'i berish apparatursining konstruksiyasini murakkablashtiradi va tannarxini oshiradi. Yonuvchi aralashma hosil qilish energiyasi yonilg'i va havoning kinetik energiyalarining yig'indisidan iborat, ya'ni  $E_{ar}=E_y+E_h$ . Demak, yonuvchi aralashma hosil qilishda havo zaryadining energiyasidan to'laroq foydalanilsa, yonilg'i apparatursiga bo'lgan talab pasayadi. Bunga havo zaryadining tezligini oshirib va ajratilgan yonish kameralarini qo'llab erishish mumkin. Bu holda yonish kamerasi ikkita o'zaro birlashtirilgan asosiy va yordamchi kameralardan iborat bo'ladi. Yordamchi kamera asosan silindr kallagida yoki blokda joylashgan bo'lib, o'zgarmas hajinga ega. Siqish jarayoni oxirida havo zaryadining asosiy kameradan yordamchi kameraga kanal orqali o'tishida uning tezligi va energiyasi ortadi. Bu energiya siklning foydali indikator ishidan olinadi, natijada siklda issiqlikdan foydalanish bir oz yomonlashadi. Bunda zaryadning uyurma harakatini tashkil qilish uchun kiritish tizimiga hech qanday moslamalar o'matilmaydi. Zaryadning tezligi va xususiyati kamera hajmlarining nisbatiga, birlashtiruvchi kanalning o'chamiga va dvigateining ish rejimiga bog'liq.

Avtomobil va traktorlarda uyurmali yonish kameralari (uyurma kamerali dizellar) va old kameralar (old kamerali dizellar) ishlataladi. Bu kameralarda aralashma hosil qilish turlicha bo'lgani uchun ularni alohida-alohida ko'rib chiqamiz.

**Uyurma kamerali dizellar.** Bu turdag'i kameralar 9.6-rasm, a, b, v, g va d larda tasvirlangan.

Porshen yu.ch.n.ga tomon harakat qilganda zaryadning bir qismi porshenning ustidagi bo'shliqdan birlashtiruvchi kanal orqali uyurma kamera 2 ga o'tadi.



*9.6-rasm. Uyurma kameralarining turlari*

Kanalning yo'nalishi, shuningdek, uyurma kameraning shakli uning ichida havo zaryadining aylanma harakatga keli shini ta'minlaydi. Oqib o'tayotgan zaryadning tezligi siqish paytida ortadi va porshen yu.ch.n.ga  $10\ldots15^{\circ}$  yetrnasdan tezlik eng katta ( $100\ldots200$  m/s) qiymatga erishadi. Bu esa oddiy shtift-soploli bir teshikli to'zitgich qo'llash imkonini beradi. Siqish oxirida uyurma kameraga purkalgan yonilg'i uyurimali harakatga kelgan havo bilan aralashadi, bug'lanadi va qisman yonadi, natijada uyurma kamerasidagi bosim oshadi. Bu bosim porshenning yuqori qismidagi bosimdan ancha ( $0,4\ldots0,6$  MPa) katta bo'ladi va yonib ulgurmagan yonilg'i hamda yonish mahsulotlari katta tezlikda asosiy kamera 1 ga o'tadi. Natijada yonilg'i bilan havoning aralashishiga, ish aralashmasining yaxshi yonishiga qulay sharoit yaratiladi. Asosiy kamera 1 birlashtiruvchi kanal tagida maxsus chuqurcha shaklida yasaladi. Uyurma kameradan oqib tushayotgan yonilg'i va


havo aralashmasi shu chuqurchaga tushadi, bu joyda havoning ko'p qismi to'plangani uchun yonilg'i - havo aralashmasining tez yonib ketishi ta'minlanadi. Bu kameraning xususiyati shundaki, pastki ajraladigan yarim sfera 3 silindrlar kallagiga tirqish bilan o'rnatilgan. Uyurma kameraning faqat pastki ko'ndalang sirti zichlangan. Dvigatel ishlaganda bu yarim sfera kuchli qiziydi, to'la yuklamada uning harorati 700°С gacha yetadi. Bu esa alangananishning kechikish davrini qisqartiradi va yonish jarayonining ravon ketishini ta'minlaydi.

Cho'g'lanish chaqmog'i 4 dizelni past haroratlarda yurgizib yuborishni osonlashtirish uchun qo'llaniladi. Chaqmoqning metall spirali akkumulyatorlar batareyasidan tok olib, kuchli qiziydi va uyurma kameradagi havoni qizdiradi. Natijada yonilg'i bug'lanadi va dizelni ishga tushirish tezlashadi.

Dizellarning ma'lum konstruksiyalaridagi uyurma kameraning hajmi yonish kamerasi umumiylajmining 0,4...0,55 qismini tashkil etadi. Bu kameralarda aralashma tayyorlash jarayoni mukammal bo'lganligi sababli  $\alpha_{min} = 1,15 \dots 1,25$  oralig'ida bo'ladi va dizel bu holda tutun chiqarmay ishlaydi, effektiv bosimning qiymati katta bo'lishi ta'minlanadi.

Old kamerali dizellarda (9.7-rasm) old kameraning hajmi yonish kamerasining 25...40% ini tashkil qiladi. Old kamera u asosiy yonish kamerasi bilan bitta yoki bir nechta kanal orqali birlashadi. Siqish jarayonida havoning bir qismi porshenning ustki qismidan old kameraga oqib o'tadi hamda uning tezligi 200 м/с va undan yuqori bo'ladi. Zaryad bu tezlikka porshen yu.ch.n.ga yaqinlashganda erishadi. Taxminan shu paytda old kameraga bir soploli ( $d_s = 1$  mm) yoki shtiftli to'zitgich orqali havo oqimiiga qarshi yonilg'i purkaladi. Alangananish jarayoni old kameraning issiq zonasida boshlanadi. Old kameraning hajmi nisbatan kichik bo'lgani uchun unda vonilg'ining bir qismi yonadi,

natijada bu kamerada bosim tez ko'tariladi va kameralardagi bosimlar farqi 1,2-1,5 MPa ga yetadi, yonib tugamagan yonilg'i va yonish mahsulotlari katta tezlikda asosiy kameraga otlib chiqadi, bu yerda u havo bilan aralashib to'la yonadi. Asosiy kamerada yonishning shiddati kichik bo'ladi va dvigatel «yumshoq» (tovushsiz) ishlaydi. Bunday kameralarda yonuvchi aralashmaning sifati dvigatelning tezlik rejimiga bog'liq emas, shu sababli bu dvigatellarning aylanishlar chastotasi katta bo'ladi. Uyurma va old kamerali dizellarda aralashma hosil qilish turlicha bo'lsa ham ularning ajratilmagan kameraga nisbatan afzalliklari umumiyyidir.



*9.7-rasm. Old kameralar*

1. Ajratilgan yonish kameralari ishlatilganda, ularda havoning tezligi juda katta bo'lganligi uchun yonilg'i bilan havo yaxshi aralashadi. Bu esa ajratilmagan yonish kameralaridagiga nisbatan yonilg'ini past bosimda purkashga, shuningdek, bitta katta teshikka ega bo'lgan to'zitgichli forsunka ishlatishga imkon beradi.

2. Ajratilgan yonish kamerali dizellarning yordamchi kameralarida issiq zonalar borligi sababli alangalanishning kechikish davri ajratilmagan kamerali dizellarga nisbatan ancha kam bo'ladi. Bu esa hech qanday qiyinchiliksz bunday dizellarda har xil yonilg'ilar ishlatishga imkon beradi.

3. Bu dizellarning asosiy kamerasidagi siklning eng yuqori bosimi nisbatan kichik bo'lib, old kameralar uchun 5,0...6,0 MPa, uyurma kameralar uchun 6,0...7,0 MPa bo'ladi. Yonish jarayonining shiddati  $dP / d\varphi = 0,2...0,4$  MPa/grad atrofida o'zgaradi. Bu esa krivoship shatunli mexanizmga tushayotgan kuchni kamaytiradi.

4. Aralashma hosil qilish mukammal bo'lganligi uchun ishlatilgan gazlarning zaharliligi va tutuni kam bo'ladi.

5. Ajratilgan yonish kamerali dizellarning tejamliligi havo zaryadining bir kameralidan ikkinchisiga oqib o'tish paytida issiqlikning yo'qotilishi tufayli, ajratilmagan kamerali dizellarnikiga qaraganda yomonroq bo'ladi ( $\epsilon=258...288$  g/(kVt·soat)).


6. Dvigatelni yurgizib yuborish nisbatan qiyin. Buni osonlashtirish uchun  $\epsilon=18...21$  oralig'ida tanlanadi va qizdirish chaqmog'i o'rnatiladi.

Uyurma va old kamerali aralashma hosil qilish usuli yuqori aylanishlar chastotasiga ( $n=4000...4500$  min<sup>-1</sup>) ega bo'lgan yengil avtomobillarda, shuningdek, traktor dizellarida qo'llaniladi.

## 9.2. YONILG'INI PURKASH

Yonilg'i yonish kamerasiga forsunkadagi to'zitgich (purkagich) soplosining teshigi orqali yuqori bosim ostida purkaladi. Natijada yonilg'i mayda zarralarga parchalanib, yonilg'i to'zonini hosil qiladi. Purkalgan yonilg'ining to'zishi va to'zonning yonish kamerasiga kirishi yonilg'ining qovushoqligiga, sirt taranglik kuchiga,

purkash bosimiga, soplo teshigining o'lchamlariga, shakliga va tayyorlanish sifatiga hamda siqilgan havoning purkash paytidagi harakat tezligiga bog'liq.



9.8-rasm. Purkalgan yonilg'i faket (to'zon)ining sxemasi

Soplo teshigidan otilib chiqayotgan yonilg'i harakatlanuvchi juda ko'p ( $5 \cdot 10^5 \dots 20 \cdot 10^6$ ) mayda zarralarga parchalanib, yonilg'i to'zonini hosil qiladi. Bu jarayonni fotosuratga olish, to'zonda zarralarning son va o'lchami jihatidan juda notekis taqsimlanganligini ko'rsatadi. Bunday to'zonning tuzilishini purkash jarayonini juda qisqa vaqtlar oralig'ida rasmga olib chizish mumkin. Yonilg'i to'zoni (9.8-rasm) uch qismdan iborat: 1-qism o'zak deb ataladi va u yirik tomchilar hamda parchalanib ulgurmagan yonilg'i oqimlaridan tashkil topadi; 2-qism yirik zarralardan iborat; 3-qism mayda zarralardan iborat. To'zon kengligi - B, uzunligi  $L_t$  va konus burchagi  $\gamma$  yonish kamerasining shakli hamda turiga qarab tanlanadi. Yonilg'i purkash teshiklarining soni kameralardagi havo zaryadining energiyasiga, kamera turiga bog'liq. Zaryadning energiyasi qancha yuqori bo'lsa, soplo teshiklarining soni shuncha kam bo'ladi. 9.9-rasm, a da ko'rsatilgan yonilg'i to'zonining tuzilishi havo zaryadi harakatsiz bo'lganda olingan. Agar yonilg'i harakatdagi zaryadga purkalssa, uning shakli va trayektoriyasi o'zgaradi (9.9-rasm, v va b).

9.9-rasmda yuqorida ko'rib o'tilgan yonish kameralariga purkalgan yonilg'i to'zonining fotosuratlari ko'rsatilgan. Fotosuratlarning ko'rsatishicha, yonilg'i harakatsiz muhitga purkalsa, to'zon forsunka to'zitgichining o'qi bo'ylab yo'naladi (9.9-rasm, a); havo to'zonga nisbatan tik harakat qilganda esa (9.9-rasm, b), to'zonning tashqi qatlamlari havoning harakati bo'ylab yo'naladi; uyurma kamera uchun shu narsa xoski (9.9-rasm, v), havoning aylanma harakati ta'sirida to'zon buraladi va yonilg'i zaryadlarining bir qismi devorga tushadi. To'zonning tashqi qatlamlaridagi mayda zarralar havoga ergashib qisman bug'lanadi va alanganish zonasiga tushadi. Natijada alanganish boshlanadi.



*9.9-rasm. Har xil muhitga purkalgan yonilg'i to'zonining tuzilishi:*

*a-harakatsiz havoli muhitga; b-15 m/s tezlikdagi havoli muhitga;  
v-35 m/s tezlikdagi havoli muhitga*

Yonilg'i berish apparaturasi yonilg'inинг yaxshi purkalishini, ya'ni bir xil o'lchamdagи mayda zarralarga parchalanishini ta'minlashi kerak. Zarralarning kattaligi havoning uyurma harakat tezligiga va yonish kamerasining konstruksiyasiga mos bo'lishi lozim. Agar purkash bosimi katta (140 MPa) bo'lsa, yonilg'i juda mayda zarralarga parchalanadi, lekin to'zonning uzunligi qisqaradi. Mayda

zarralar tezda bug'lanib, to'zitgich atrofida to'planib qoladi va aralashma hosil qilish yomonlashadi, natijada dvigatelning ko'rsatkichlari pasayadi, purkash oxirida hosil bo'ladigan tomchilar yonish jarayonining yomonlashishiga va dvigatelning tutun chiqarib ishlashiga sabab bo'ladi.

Ajratilmagan yonish kameralariga yonilg'i nisbatan katta bosimda (40...140 MPa) purkaladi. Shu sababli yonilg'i forsunkadan chiga boshlashi bilan mayda zarralarga parchalanadi. Purkash bosimining ma'lum qiymatgacha o'sishi yonilg'inining mayda zarralarga parchalanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, dvigatelning ko'rsatkichlarini yaxshilaydi. Purkash bosimi yonilg'i apparaturasining tuzilishiga, yonish kamerasining turiga, dvigatel valining aylanishlar chastotasiga va bir sikel davomida beriladigan yonilg'i miqdoriga bog'liq. Aylanishlar chastotasi va sikel davomida beriladigan yonilg'i miqdori qancha katta bo'lsa, purkash bosimi ham shuncha katta bo'ladi. Bu esa yonilg'inining bir xil va mayda zarralarga parchalanishiga olib keladi. Dizel salt ishlaganda purkash bosimi nisbatan past bo'lgani uchun, yonilg'inining purkalish sifati ancha yomonlashadi. Yuqorida aytganimizdek, nasos-forsunka ishlatiladigan dizellarda (YAAZ) purkashning maksimal bosimi 125...150 MPa ga yetadi. Ajratilgan tipdag'i yonilg'i apparaturasi ishlatiladigan dizellarda esa (YAMZ, AMZ, SMD, D37E, D-12) purkashning maksimal bosimi 40...50 MPa dan oshmaydi.

Yonilg'i purkash ma'lum vaqt davomida sodir bo'lgani uchun uning bosimi o'zgaruvchan bo'ladi.

Purkash bosimiga mos ravishda yonilg'inining parchalanish sifati ham purkash paytida o'zgarib turadi. Maksimal bosim purkash davrining o'rtalariga to'g'ri keladi. Demak, mayda yonilg'i zarralari yonish kamerasiga purkash davrining o'rtalarida tushadi. Purkash boshlanishi va tugashida bosimning pasayishi natijasida yonilg'inining to'zish sifati keskin yomonlashadi. Purkash bosimining


bunday o'zgarishi yonilg'i tomchilarining har xil diametrda (0,01...0,03 mm) parchalanishiga sabab bo'ladi.

Yonilg'inинг to'zish sifati purkashning boshlanishi va oxiridagi bosimlarga bog'liq. Bu bosimlar qancha yuqori bo'lsa, yonilg'inинг parchalanish sifati shuncha yaxshi bo'ladi, ya'ni yonilg'i mayda tomchilardan iborat bo'ladi. Natijada dizel tejamlı va tutun chiqarmasdan ishlaydi. Bu maqsadda yonilg'i nasosida tangensial profilli kulachoklar ishlatiladi.

### 9.3 PURKASH TAVSIFI


Purkash tavsifi yonilg'i berish apparaturasining ish sifatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biridir, u yonish kamerasiga berilayotgan yonilg'i miqdorining vaqtga yoki kulachokli valning burilish burchagiga bog'liqlik grafigi bilan belgilanadi (9.10-rasm, a va b). Bunday grafiklar tajriba yo'li bilan olinadi. Buning uchun maxsus moslamada forsunkadan purkalayotgan yonilg'ini kulachokli valning 1° burchakka burilishiga mos miqdori aniqlanadi. So'ngra har bir darajaga mos holda yonilg'i miqdorini qo'yib, purkash tavsifini qurish mumkin. Bu tavsifdan alanganishning kechikish davrini va purkash davrida berilgan yonilg'inинг umumiyligi miqdorini, purkashning davom etish vaqtini, boshlanish va tugash paytlarini aniqlash mumkin. Bu tavsif yonilg'ini to'zitish sifatini, to'zonning rivojlanishi va yonish jarayonining borishini belgilaydi.

Yonish jarayoni shiddatsiz kechishi uchun alanganishning kechikish davrida yonish kamerasiga yonilg'ini kam berish kerak. Shu sababli purkash boshlanishida yonilg'i berishning tezligi kichikroq bo'lishi kerak. Yonilg'i berish tezligi kichik bo'lsa, purkash bosimi ham past bo'ladi. Natijada yonilg'inинг to'zish sifati juda yomonlashadi, to'zonning uzunligi qisqaradi va alanganishning kechikish davri uzayib ketadi.



*9.10-rasm. Yonilg'i purkash tavsifi:  
a-YAMZ-236 dvigateli uchun; b-YAAZ-204 dvigateli uchun;*

*1-sikl davomida purkalgan yonilg'i miqdori  $Q_s=115,5 \text{ mm}^3$ ;  
2- $Q_s=39,6 \text{ mm}^3$ ; 3- $Q_s=83,6 \text{ mm}^3$ , 4- $Q_s=34,3 \text{ mm}^3$*



Yonilg'i miqdorining asosiy qismi katta tezlikda va katta bosimda berilishi kerak, chunki bu holda yonilg'i zarralari yonish kamerasining chekka qismlariga ham borib yetadi va bu zonadagi havodan to'la foydalaniladi. Barcha tezyurar dizellarda purkash keskin tugatiladi. Purkashni kichik tezlikda tugallash maqsadga muvofiq emas, chunki bu holda yonilg'i to'zitgich atrofida to'planib qolib, yonish jarayonini yomonlashtiradi va dvigatel tutun chiqarib ishlaydi.

Nadduv siz dizellarda yonilg'i berishning davom etish vaqtiga to'la yuklamalarda tirsakli valning  $26\ldots 30^\circ$ , nadduvli dizellarda esa  $35\ldots 45^\circ$  burchakka burilishidan oshib

ketmasligi kerak. Yonilg'i berish cho'zilib ketsa, yonish jarayoni uzayib, kengayish vaqtida ham davom etadi va ish siklining samarasi pasayadi. Dizellarda purkash bosimi, uning davom etish vaqtini va yonilg'inining miqdori yuklamaga bog'liq holda o'zgaradi.

Purkash tavsifi yonilg'i berish apparaturasi elementlarining konstruksiyasiga (kulachokli valning kulachogiga; plunjerning konstruksiyasiga, klapanlariga va h. k.) bog'liq.

Grafiklarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, siklda berilayotgan yonilg'inining miqdori kamaysa, purkash erta tugaydi, purkashning boshlanishi esa, ayniqsa nasosforsunka uchun, kechikish tomonga siljiydi, bu plunjerning konstruksiyasiga bog'liq.

## X BOB. DVIGATELLARNI SINASH

### 10.1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Dvigatelning quvvati, burovchi momenti va tejamliligi uning qanday transport vositasiga o'rnatalishi bilan belgilanadi. Dvigatelning issiqlik hisobi, konstruksiyasi yuqoridagilarni hisobga olib tanlanadi. Avval dvigatelning eksperimental nusxasi ishlab chiqariladi. Sinov va rostlashlardan so'ng, ya'ni dvigatel yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lgan holdagina uni ko'plab ishlab chiqarishga davlat komissiyasi ruxsat etadi.

Dvigatelning asosiy ko'rsatkichlari - tashqi tezlik va yuklama tavsiflari maxsus sinash stendida olinadi. Bu stend zarur uskunalar va o'lchov asboblari bilan jihozlangan.

Dvigatellarni avtomobilni ekspluatatsiya qilish sharoitlariga mos turg'unlanmagan rejimlarda sinash juda qiyin. Buning uchun maxsus jihozlar, asbob-uskunalar tayyorlanishi lozim. Bu asboblar yordamida dvigatelning vaqt bo'yicha o'zgaruvchi tezlik va yuklama rejimlarining parametrlari yozib olinadi. Bundan tashqari, dvigatel maxsus ekspluatatsiya sharoitlarini imitatsiya qiluvchi tormoz bilan ulangan bo'lishi shart.

Dvigatellarning barcha tavsiflarini sinash stendida olish vaqtida berilgan turg'un rejim uchun quyidagi qiymatlar o'lchanadi va maxsus bayonnomalarga yoziladi:

- burovchi moment -  $M_c$  yoki tormozlash kuchi -  $P_t$ ;
- tirsakli valning  $\tau$  (sek) vaqt ichidagi aylanishlar chastotasi  $\Delta n$  yoki minutiga aylanishlar chastotasi -  $n$ ;
- $\tau$  (sek) vaqt ichida sarflangan yonilg'i va havoning miqdori  $\Delta G_{\text{y}}$ ,  $V_h$  va  $\Delta V_h$ ;
- tashqi havoning, dvigatelga kirayotgan va undan chiqayotgan suyuqlikning, dvigatel moyining, chiqarish

quvuridagi ishlatalgan gazlarning haroratlari  
 $S(t_b, t_k, t_{ch}, t_m \text{ va } t_r)$ ;

- tashqi muhitning, moy magistralidagi moyning bosimi, kiritish quvuridagi siyraklanish ( $p_0, p_m$  va  $\Delta p_a$ );
- yonishni yoki yonilg‘ini purkay boshlashni ilgarilash burchaklari ( $\theta_p, \varphi_{yo}$ ) va boshqalar.

Ko‘pgina hollarda yonish jarayonining xususiyatini o‘rganishga to‘g‘ri keladi, bu holda dvigatelning indikator diagrammasi maxsus asbob yordamida yozib olinadi.

Bayonnomaga yozilgan yuqoridagi parametrlar asosida dvigatelning ko‘rsatkichlari formulalar orqali hisoblab aniqlanadi, so‘ngra mos tavsiflarni grafik tarzda tasvirlash mumkin. Grafiklarda o‘lchangan parametrlarning qiymati diametri 2 mm li nuqtalar qo‘yib belgilab chiqiladi, hisoblangan parametrlar esa nuqtalar bilan belgilanmaydi.

## 10.2 DVIGATELNING QUVVATINI ANIQLASH

Dvigatelning effektiv quvvati (agar tormoz burovchi momentni o‘lhashga mos bo‘lsa) quyidagicha aniqlanadi:

$$N_e = \frac{M_c \cdot n}{716,2}, \text{ o.k}$$

bu yerda  $n$  - tirsaklı valning aylanishlar chastotasi,  $\text{min}^{-1}$ . Tormozning yelkasi  $l=716,2 \text{ mm}$  qilib olinadi.

Dvigatelning effektiv quvvati (tormoz kuchni o‘lhashga mos bo‘lsa) esa quyidagicha aniqlanadi:


$$N_e = \frac{P_{nr} \cdot n}{1000}, \text{ kVt.}$$

Dvigatelni sinash vaqtida unga yuklama berish har xil konstruksiyadagi gidravlik va elektr tormozlar orqali amalga oshiriladi.

Gidravlik tormozlarning tuzilishi oddiy bo‘lib, ular chidamli va turg‘un ishlaydi. Elektr tormozlar esa o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tokli bo‘ladi. Ular tuzilishi

jihatdan gidravlik tormozlarga nisbatan murakkab, ammo bir qancha afzalliklarga ega. Elektr tormozlar ikki vazifani bajarish imkoniyatiga ega: 1) elektr dvigatel sifatida dvigatelning tirsakli valini aylantirib berish; 2) dvigatel ishlaganida hosil bo'ladigan mexanik energiyani elektr energiyasiga aylantirib elektr tarmog'iga uzatish.

Gidravlik tormozlarda dvigatelning mexanik energiyasi suvni isitishga sarflanadi. Tormozning ish rejimlari shunday tanlanishi kerakki, sinash vaqtida suvning harorati  $50-60^{\circ}\text{S}$  dan oshib ketmasligi kerak, aks holda, tormoz tez ishdan chiqadi.



*10.1-rasm. Balansirli dinamomashina*

Elektr tormoz (balansirli dinamomashina) oddiy elektr dvigateldan statorni stanina ustunidagi podshipniklarga o'matilganligi va o'z o'qi atrofida erkin burila olishi bilan farq qiladi (10.1-rasm). Elektr tormoz ikki

rejimda, ya'ni elektr dvigatel va generator rejimlarida ishlaydi. Tormoz sifatida o'zgaruvchan tok generatori ishlatilganda, bunday tormoz generator rejimida  $1460 \text{ min}^{-1}$  dan yuqori aylanishlar chastotasida ishlaydi. Shu sababli bu tormozlar yordamida dvigatelning tashqi tezlik tavsifini olib bo'lmaydi.

Dvigatel odatda elastik mufta yordamida tormoz yakorining valiga ulanadi. Dvigateli tormozlash yakor va stator magnit maydonlarining o'zaro ta'siri natijasida amalga oshiriladi. Elektr tormozlarda aylanishlar chastotasi va yuklama tormozning uyg'otish cho'lg'amlaridagi tok kuchini o'zgartirish hisobiga rostlanadi. Reaktiv burovchi moment tormoz statoriga mahkamlangan mayatnikli mexanizm yordamida o'lchanadi. Dvigatel yuklama bilan ishlaganida mexanik energiya hosil bo'ladi. Bu energiya odatda maxsus uskuna

yordamida (generatorda) elektr energiyasiga aylantirilib, elektr tarmog'iga uzatiladi. Bu holda ma'lum iqtisodiy tejamkorlikka erishiladi.

**Aylanishlar chastotasini o'lhash.** Aylanishlar chastotasi, asosan, elektr taxometrlar yordamida o'lchanadi. Ayrim hollardagina markazdan qochirma yoki magnitli taxometrlar ishlatiladi. Odatda, elektr taxometr datchik va qabul qilgichdan iborat bo'lib, datchik (taxogenerator) dvigatel yoki tormozning valiga ulanadi, qabul qilgich esa boshqarish pultiga o'rnatiladi. Bu mexanizm sekundomer bilan bir vaqtida ishlashi lozim.

Keyingi vaqlarda aylanishlar chastotasini optik usulda o'lhash keng tarqalmoqda. Bu holda datchik sifatida optik element ishlatiladi, qabul qilgich esa raqamli voltmetrdan iborat. Bu usulda aylanish chastotasi juda aniq hisoblanadi.

**Indikator va effektiv quvvatni hamda mexanik isroflar quvvatini aniqlash.** Yuqorida aytganimizdek, elektr tormoz ikki rejimda, ya'ni ham elektr dvigatel, ham generator rejimida ishlaydi. Tormoz elektr dvigatel rejimida ishlagan holda dvigateining mexanik isroflar quvvatini aniqlash mumkin. Buning uchun dvigatel yuklama bilan ishlagandan so'ng, undan yuklamani olib, moy va sovituvchi suvning harorati pasaymasdan, darhol tirsakli valni tormoz yordamida aylantirishning o'zi kifoya. Bu holda tirsakli valning tormoz bilan aylantirishga sarflanadigan quvvatini mexanik isroflar quvvati  $N_m$  ga teng deb olish mumkin, ya'ni

$$N_m = \frac{P_{tor} \cdot n}{1000}.$$

Dvigatelning effektiv quvvatini o'lhash yuqorida ko'rib chiqilgan edi, indikator quvvati esa quyidagicha aniqlanadi:

$$N_i = N_e + N_m = 10^{-3}(P_{tor} + P'_{tor}) \cdot n.$$

Agar dvigateining indikator quvvati ma'lum bo'lsa, uning o'rtacha indikator bosimi quyidagicha aniqlanadi:

$$p_i = C(P_{tor} + P_{nor}); \quad C = \frac{30 \cdot \tau}{i \cdot V_h \cdot n};$$

bu yerda  $i \cdot V_h$  - dvigatelning ish hajmi, l. Effektiv bosim:  
 $p_e = Cp_{tor}$  bo'ladi.

O'rtacha mexanik yo'qotishlar bosimi esa  $p_m = Cp_{tor}$ .

Bu holda mexanik F.I.K. quyidagicha hisoblanadi:

$$\eta_m = \frac{N_c}{N_i} \text{ yoki } \eta_m = \frac{p_c}{p_i}.$$

### 10.3. YONILG'I VA HAVO SARFINI O'LCHASH


Dvigatel ishlaganda sarflanayotgan yonilg'inинг soatli sarfi quyidagicha hisoblanadi:

$$G_{yo} = \frac{\Delta G_{yo}}{\tau} \cdot 3,6, \text{ kg/soat};$$

bu yerda:  $\Delta G_{yo}$  - yonilg'i dozasi, g;  $\tau - \Delta G_{yo}$  gramm yonilg'inинг sarflanish vaqtি, s; 3,6-g/s ni kg/s ga aylantirish koefitsiyenti.

Yonilg'i sarfini massa yoki hajm usulda hisoblash mumkin. Hozir asosan massa orqali o'lchash usuli qo'llaniladi (10.2-rasm). Bu sxemada tarozining bir pallasiga idish 2 o'rnatilib, u bak 7 dan keladigan yonilg'i bilan to'ldiriladi. Yonilg'i nasos 5 bilan trubka 4 bo'ylab dvigatelga beriladi. Dvigatel ishlab turgan vaqtida yonilg'i sarfi o'lchanmasa, ma'lum miqdordagi yonilg'i sarflangandan so'ng elektr magnitli klapan 1 uzbek 3 yordamida ishga tushadi va idishga bakdan yonilg'i oqib tushadi, natijada uning sathi bir xilda saqlanadi. Yonilg'i sarfini o'lchash uchun bakdan yonilg'i berish to'xtatiladi va boshqarish pulidagi o'lchash tugmasi bosiladi. Tarozining strelkasi hisobni boshlash kerak bo'lgan shkalaga kelganda sekundomer avto-matik ravishda, masalan, fotoelement yordamida ishga tushadi. Ma'lum miqdordagi (50, 100, 150 gramm) yonilg'i sarf bo'lgandan so'ng sekundomer yana

avtomatik ravishda to'xtaydi, u  $\Delta G$  gramm yonilg'ining sarf bo'lishi uchun



**10.2-rasm. Yonilg'i sarfini o'lchanash moslamasining sxemasi**

Yonilg'i sarfi hajm usulda hisoblanganda dvigatelning bir soatda sarflangan yonilg'isi quyidagiga teng bo'ladi:

$$G_{yo} = 3,6 \cdot \frac{\Delta V_{yo} \cdot \rho_{yo}}{\tau_{yo}}, \text{ kg/soat};$$

bu yerda:  $\Delta V_{yo}$  -  $\tau$  (sek) vaqt ichida sarflangan yonilg'i hajmi,  $\text{sm}^3$ ;  $\rho_{yo}$  - yonilg'ining zichligi,  $\text{g/sm}^3$ .

Yonilg'ining soatli sarfini, effektiv va indikator quvvatlarini hamda yonilg'ining quyi yonish issiqligi  $H_u$  ni bilgan holda yonilg'ining solishtirma sarfini, indikator va effektiv F.I.K. larni aniqlash mumkin:

$$g_i = \frac{G_{yo} \cdot 10^3}{N_i}, \text{ g/(kVt·soat)}; \quad g_e = \frac{G_{yo} \cdot 10^3}{N_e};$$

$$\eta_i = \frac{3,6 \cdot 10^3}{H_u \cdot g_i} \text{ va } \eta_e = \frac{3,6 \cdot 10^3}{H_u \cdot g_e}$$

bu yerda:  $H_u$  - mJ da;  $g_i$  -  $\text{g}/(\text{kVt} \cdot \text{soat})$  da.

ketgan vaqt  $\tau$  ni ko'rsatadi. Dizellar uchun qo'shimcha trubka 6 o'matilishi lozim, chunki forsunkadan purkalmay qolgan yonilg'i idishga qaytib tushirilishi shart. Bu holda dizel sarflagan yonilg'ining sof miqdori o'lchanadi. Ayrim hollarda esa yonilg'ining sarfi qo'l sekundomeri yordamida o'lchanadi.

Havoning soatli massa sarfi quyidagi formuladan aniqlanadi:


$$G_h = \frac{V_h \cdot \rho_h}{\tau} \cdot 3600, \text{ kg/soat},$$

bu yerda:  $V_h$  - o'lchash asbobi orqali  $\tau$  (sek) vaqt ichida o'tgan havoning hajmi,  $\text{m}^3$ ;  $\rho_h$  - havoning zichligi,  $\text{kg/m}^3$ .

$$\rho_h = 0,465 \frac{B_0}{273 + t_o^\circ},$$

bu yerda:  $B_0$  - barometrik bosim, mm simob ustuni;  $t_o$  - atrof-muhitning harorati,  $^\circ\text{S}$ .

Havoning sarfi drossel asboblar (maqbul diafragmalar, soplo va Venturi nayi) yoki hajmiy sarfni o'lchagichlar bilan hisoblanadi. Dvigatellarni sinashda, asosan, aylanadigan rotorli hajm o'lchagichlar ishlataladi (10.3-rasm). Uning korpusi cho'yandan yasalgan bo'lib, ichida alyuminiydan yasalgan ikkita ichi bo'sh rotor joylashgan.



10.3-rasm. Havoning hajmiy sarfini o'lchovchi asbob sxemasi

Rotorga kirish va chiqishdagi bosimning farqi (15...30 mm suv ustuni) ta'sirida rotorlar aylanadi. Natijada korpus ichki yuzasi bilan rotoring yuzasi oralig'i hajmidagi havo siqib chiqariladi.

Havo hajmini hisoblash mexanizmi rotor o'qining biriga o'rnatiladi. Bu asbob juda puxta bo'lib, uzoq muddat aniq ishlaydi. Rotor o'qiga fotodatchik

o'rnatib, havoning sarfini masofada turib o'lchash mumkin.

Bu holda ko'rsatish asboblari (voltmetrlar) pultga o'rnatiladi.

Mamlakatimiz sanoatida 40...2000  $\text{m}^3/\text{soat}$  gacha havo sarfini o'lchaydigan asboblar chiqariladi. Bunday asboblar

havo sarfini statsionar rejimlarda o'lhash uchun mo'ljallangan.

Ichki yonuv dvigatellari uchun xos bo'lgan, tebranishli harakatdagi havo sarfini o'lhash uchun dvigatev va o'lhash asbobi orasiga resciver qo'yiladi. Recsiver hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$V_{res} = \frac{200 \cdot V_h}{i}, \text{ l};$$

bu yerda:  $V_h$  - dvigatel silindrining ish hajmi,  $i$  - silindrler soni.

Agar havoning soatlari sarfi ma'lum bo'lsa, unda to'rt taktili dvigatel uchun to'ldirish koefitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_r = \frac{G_h}{G_0} = \frac{G_h}{i \frac{V_h}{2} \cdot n \cdot 60 \cdot \rho_h};$$

$G_0$  - dvigatela bir soat davomida berilishi mumkin bo'lgan havoning nazariy miqdori.

Havoning ortiqlik koefitsiyentini aniqlash uchun yonilg'ining soatlari sarfi bilan uning elementar tarkibini bilish kerak:

$$\alpha = \frac{G_h}{G_{yo} \cdot l_0};$$


bu yerda:  $l_0$ -1 kg yonilg'ining to'la yonishi uchun kerak bo'lgan havoning nazariy miqdori, kg; benzin uchun  $l_0=14,9$  kg; dizel yonilg'ici uchun esa  $l_0=14,3$  kg.

**Haroratni o'lhash.** Dvigatellarni sinash vaqtida suv, moy, ishlatilgan gazlar va detallarning harorati o'lchanadi. Bu maqsadda, asosan qarshilik termometrlari ishlatiladi, ekspluatatsiyaga jo'natiladigan dvigatellarga manometrik termometrlar o'matiladi. Detallar va ishlatilgan gazlarning harorati termoparalar (temirkonstantan, mis-konstantan, xromel-kopel va boshqalar) yordamida o'lchanadi. Termoparalar °S ga darajalangan millivoltmetrga ulanadi. Bu holda termoparaning kavsharlangan qisimi keramik qobiqqa joylashtirilib,

chiqarish quvurining ichiga yoki detallarning devoriga o'rnatiladi.

#### 10.4 DVIGATELNING INDIKATOR DIAGRAMMASINI OLİSH

Dvigatelning yonish va ish jarayonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilish uchun uning indikator diagrammasi yozib olingan bo'lishi kerak. Bu maqsadda bosim indikatori deb ataluvchi maxsus asbob ishlataladi. Indikator silindrlar bosimini tirsakli valning burilish burchagi bo'yicha o'zgarishini  $p$ - $\varphi$  koordinatalar tizimida yozadi va bu diagramma  $p$ - $V$  koordinatalar tizimida qayta quriladi. Indikator ikki guruhg'a bo'linadi: dvigatelning bir sikli davomida sodir bo'ladigan jarayonlarni indikator diagramma holatida qayd qiladigan indikatorlar; ketma-ket keladigan sikllarning ustma-ust yoki o'rtacha qiymatini yozib oladigan indikatorlar. Ustma-ust yozilgan diagrammalarning o'rtacha qiymati juda ko'p sikllar uchun dvigatel parametrlerining o'rtacha miqdorini tahlil qilish imkonini beradi.




*10.4-rasm. MAI-2 tipidagi pnevmoelektrik indikatorning sxemasi*

Indikator sifatida kichik vaznli, shuningdek, harakatlanuvchan detallari kam inersiyaga ega bo'lgan mexanik indikatorlar yoki amaliy jihatdan inersiyasiz bo'lgan pezokvarsli datchiklar ishlatiladi. Pezokvarsli datchiklar katodli yoki shleyfli ossillograflar bilan birga ishlatiladi va ular yordamida bir sikli diagrammalar olinadi.

Pnevmoelektrik indikatorlar ko'p siklli diagrammani olish uchun ishlatiladi. Bunday indikatorning ishlash prinsipi va tuzilishini tushuntiruvchi sxema 10.4-rasmda ko'rsatilgan.

Silindrlar kallagi 1 ga sezgir elementli bosim qabul qilgich (pnevmoelektrik datchik) 2 o'matiladi. Sezgir element yupqa po'lat membrana 4 dan iborat bo'lib, ballon 9 ga havo magistrali 5 vositasida ulangan datchikning yuqori qismini silindrga qo'shilgan pastki qismidan ajratib turadi. Havo magistraliga manometr 6, to'ldirish jo'mragi 7 va bosimni pasaytiruvchi jo'mrak 8 o'rnatilgan. Magistral 5 da hosil bo'lgan bosim shohobcha 17 orqali suyuqlik bilan to'ldirilgan kengaytirish bachogi 16 ga uzatiladi. Indikator diagramma baraban 11 ga o'ralgan maxsus termik qog'ozga yoziladi. Baraban maxsus musta 14 bilan dvigatelning tirsaklı vali 15 ga ulanadi. Indikator diagrammani yozish mexanizmi sifatida prujina-porshenli manometr ishlatiladi. Bu manometr gilza 20 shaklida bo'lib, uning ichida harakatlanmaydigan kovak plunjер 18 va harakatlanadigan plunjер 21 joylashgan. Plunjер 21 o'qiga izolyatsiya qilingan razryadli shtift 23 o'matilgan. Prujina 22 bilan yuklangan shtift 23 ning siljishi plunjер 21 ga ta'sir qilayotgan bosim  $r_m$  ga to'g'ri proporsionaldir. O'lchash aniqligini oshirish maqsadida gilza barabanning vali 13 dan shesternyalar 12 va chervyakli uzatma 19 yordamida aylanma harakatga keltiriladi. Indikatorning elektrik tizimi qo'zg'almas kontakt 3 dan iborat bo'lib, u elektr simlar orqali tiratron o'zgartgich 10 va razryadli shtift 23 ga ulangan. Dvigatelning indikator

diagrammasini yozib olish uchun mufta 14 ulanadi va jo'mrak 8 yopiq bo'lgani holda ballon 9 dan asta-sekin ochilayotgan jo'mrak 7 orqali magistral 5 ga havo beriladi, shunda manometr 6 orqali bosim  $p_m$  ning o'zgarishi kuzatiladi. Bunday bosim datchik membranasi ustidagi bo'shliqda ham bo'ladi. Agar bosim  $p_m$  silindrdagi maksimal bosim  $p_s$  dan katta bo'lsa, membrana pastki o'rindiq 12 ga siqiladi (10.5-rasm). Jo'mrak 8 ni ohib (10.4-rasm) magistraldagi bosim kamaytirilsa (jo'mrak 7 berk), shunday holat hosil bo'ladiki, bunda bosim  $p_m$  birmuncha vaqt bosim  $p_s$  ga teng yoki undan bir oz kichik bo'ladi. Bu holda membrana avval pastki o'rindiqdan ko'chadi va neytral holatni ola di, so'ngra yuqoridagi o'rindiq 12 ga qisiladi (10.5-rasm).



10.5-rasm.

#### Pnevmoelektrik qabul qilgichning tuzilishi


Membrananing bunday siljishi, amalda, oniy vaqt ichida sodir bo'ladi, chunki porshen yu.ch.n.ga tomon harakatlanganda bosim  $p_s$  keskin oshadi, ammo bosim  $p_m$  sikl davomida juda kam o'zgaradi. Kengayish jarayonida bosim  $p_s$  kamayadi va membrana yuqori o'rindiqqa qisilishi hamda bosim  $p_m$  silindrdagi bosim  $p_s$  dan katta bo'lishi bilanoq membrana teskari tomonga harakat qilib, yana pastki o'rindikqa siqiladi.

Membrananing yuqori o'rindiqqa siqilish paytini qo'zg'almas kontakt

4 bildiradi. Membrana bosimlar  $p_s$  va  $p_m$  farqiga qarab kontaktga urinadi yoki undan uzoqlashadi. Bu paytda elektr zanjir ulanadi yoki uzeladi, natijada kontaktda elektr impuls hosil bo'ladi. Impuls tiratronli rele-o'zgartigich orqali 12...18 kv gacha kuchaytirilib, razryadli shtiftga uzati ladi, natijada uchqunli razryad hosil bo'ladi. Bu

uchqun aylanayotgan baraban mahkamlangan qog'ozda nuqta qoldiradi. Nuqtaning holati ham bosimni, ham burlish burchagini bildiradi.

Shunday qilib, bu indikator yordanida bir ish sikli davomida (magistraldagi bosim  $p_m$  o'zgarmas bo'lganda) indikator diagrammaning faqat ikki nuqtasini olish mumkin: biri siqish chizig'ida, ikkinchisi esa kengayish chizig'ida. Indikator diagrammaning boshqa nuqtalarini olish uchun bosim  $p_m$  jo'mrak 8 orqali sekin-asta o'zgartiriladi. Natijada 10.6-rasmda ko'rsatilgan diagramma hosil bo'ladi.



10.6-rasm. Pnevmoelektrik indikator yordanida yozilgan dvigatelning indikator diagrammasi

$p\text{-}\varphi$  koordinatalar tizimida olingan indikator diagrammadan siklning maksimal bosimi  $p_z$ , bosimning o'sish tezligi  $\Delta p/\Delta\varphi$ , siqish bosimi  $p_c$ , o't oldirishning ilgarilash burchagi  $\varphi_{yu}$  larni va ish siklining ketishini tavsiflaydigan boshqa parametrlarni aniqlash mumkin.  $p\text{-}V$  koordinatalar tizimida qayta qurilgan diagrammalardan esa o'rtacha indikator bosim, indikator quvvat va F.I.K. larni aniqlash mumkin.

## 10.5. DVIGATELNING TAVSIFLARI

Avtomobil va traktorlarni ekspluatatsiya qilish shuni ko'rsatadiki, ular ish vaqtining 80 foizi davomida tezlik va yuklama keng diapazonda o'zgarib turadigan rejimda ishlaydi. Tirsakli valning har qanday aylanishlar chastotasida ham dvigatel barcha yuklamalarda turg'un ishlashi bilan birga, turli ekspluatatsiya sharoitlarida tejamli ishlashi kerak.

Odatda dvigatelning konstruksiyasi, turi, quvvati va aylanishlar chastotasi avtomobil va traktor uchun qo'yiladigan talablarga javob bera oladigan qilib tanlanadi. Dvigatelning tavsifi traktor va avtomobilning har xil sharoitda ishlashiga mos kelishi kerak, aks holda avtomobil yoki traktor ma'lum qarshiliklarni yenga olmasligi mumkin. Dvigatel tavsiflari har xil turdag'i dvigatellarni o'zaro solishtirishga ham imkon beradi.

Avtomobil va traktor dvigatellari ekspluatatsiya sharoitlarida, asosan uzlusiz o'zgarib turuvchi turg'unlashmagan rejimda ishlaydi. Lekin dvigatelning bunday rejimlarda ishlashini tavsiflovchi to'liq ma'lumotlarni olish ancha murakkab bo'lib, buning uchun maxsus asboblar yasash talab qilinadi. Amalda dvigatelning tavsiflarini GOST 14846-81 ga binoan, sinash stendida turg'un rejimda ishlatib, sinash paytida olinadi.

Dvigateli sinash paytida tezlik, yuklama, rostlash va maxsus tavsiflari olinadi.

### Tezlik tavsiflari

Tezlik tavsiflari ikki turga: tashqi va qismiy tezlik tavsiflariga bo'linadi.

**Tashqi tezlik tavsifi.** Dvigatelning tashqi tezlik tavsifi deb, aylanishlar chastotasi  $n$  ga bog'liq bo'lgan effektiv quvvat  $N_e$  effektiv burovchi moment  $M_e$ , yonilg'ining soatli sarfi  $G_{vo}$  va effektiv solishtirma sarfi  $g_{vo}$  ning egri


chiziqlariga aytildi. Bunday tavsif karbyuratorli dvigatellarda drossel zaslonda to'la ochiq yoki dizelda yonilg'i nasosining reykasi eng ko'p yonilg'i berish holatida bo'lganda olinadi. Tavsif olinayotgan paytda dvigatelning boshqa ko'rsatkichlarini ham yozib borish maqsadga muvofiqdir, chunki bu ko'rsatkichlar orqali yuqoridagi parametrlarning kechish xususiyatini tushuntirish mumkin.

Tashqi tezlik tavsiflarini olish shartlari: har bir dvigatel uchun tirsakli val aylanishlar chastotasining quyi chegarasi  $n_{min}$  bo'ladi. Bunday aylanishlar chastotasida dvigatel barcha yuklamalarda turg'un ishlaydi. Lekin biror sababga ko'ra aylanish chastotasi  $n_{min}$  dan kichik bo'lib qolsa, dvigatel noturg'un ishlaydi (yuklamani qabul qila olmaydi) va to'xtab qoladi. Bunga asosiy sabab to'ldirish koeffitsiyentining keskin pasayib ketishi va natijada, yonish jarayonini turg'un hosil qilib bo'lmasligidir. Tashqi tezlik tavsifida:  $n_{Me}$  - maksimal effektiv burovchi momentga mos keluvchi aylanishlar chastotasi;  $n_{yo}$  - yonilg'ining effektiv solishtirma sarfi minimal bo'lgan aylanishlar chastotasi;  $n_{nom}$  - dvigatelning nominal effektiv quvvatiga mos aylanishlar chastotasi;  $n_{si,max}$  - dvigatelning regulyator bilan salt ishlash aylanishlar chastotasi va  $n_{raz}$  - haddan tashqari katta aylanishlar (raznos) chastotasi bo'ladi.

Yuk avtomobillari dvigatellarida  $n_e = n_{nom}$ , yengil avtomobillar dvigatellarida esa  $n_{nom} > n_e$  bo'ladi.

Dvigatelni sinashdan oldin qizdiriladi, ya'ni suv va moy harorati 80...85°C ga yetkaziladi. So'ngra dvigatelga minimal aylanishlar chastotasida eng katta yuklama beriladi (drossel-to'smaqopqoq to'la ochiladi). Bu holda quyidagi parametrlar: yonilg'i sarfi; dvigatelning effektiv burovchi momenti; aylanishlar chastotasi; havo sarfi va ishqalanishlarga sarf bo'lgan burovchi moment o'lchanadi. Bundan tashqari, tashqi muhit bosimi va harorati ham o'lchanadi. Shundan so'ng dvigatelning aylanishlar


chastotasi o‘zgartirilib, bu rejimlarda ham yuqoridagi parametrlar o‘lchanadi va jadval shaklida yozib boriladi.



10.7-rasm. Dvigatelning tashqi tezlik tavsifi

10.7-rasmda dvigatelning tashqi tezlik tavsifi keltirilgan. Yengil avtomobillar dvigatellarida  $n_{nom} > n_t$  bo‘lganidan, dvigatel maksimal tezlik rejimida turg‘un ishlaydi. Aylanishlar chastotasi  $n_{nom}$  qiymatdan ortishi bilan havoning gidravlik qarshiliklari ham ortib ketadi natijada to‘ldirish koefitsiyenti  $\eta_r$  va o‘rtacha effektiv bosim  $p_e$  keskin kamayib,  $n_{razn}$  chastotada  $p_e=0$  va demak,  $N_e=0$  bo‘ladi. Dvigatellarni bu rejimda ishlashiga yo‘l qo‘ymaslik kera k, chunki asosiy detallarga ta’sir qiluvchi dinamik yuklamalar keskin oshib ketadi va dvigatel ishdan chiqishi mumkin. Shu sababli dvigatellarga maksimal aylanishlar chas totasi regulyatori o‘rnatalidi. Regulyator rejimida ishlagan dvigatelning tavsifi  $A V$  uchastka bilan tavsiflanadi. Bu diapazonda drossel to‘smaqopqoq yopilib, α ning o‘sishi natijasida yonilg‘ining solishtirma sarfi dastlab bir oz

kamayadi, lekin keyinchalik mexanik va indikator F.I.K larning pasayishi natijasida u ko'payadi.



10.8-rasm. ZIL-130 dvigatelining tashqi tezlik tavsifi

Effektiv burovchi moment  $M_e$  ning o'zgarish xususiyatini to'ldirish koeffitsiyentining o'zgarishi bilan tushuntirish mumkin.

10.8-rasmida ZIL-130 dvigatelining tashqi tezlik tavsifi ko'rsatilgan. Quvvat va burovchi momentning nol indeksli qiymatlari quyidagi tenglamalar bo'yicha maqbul sharoitlarga keltirilgan ( $p_0=760$  mm sim.ust. va  $\tau=15^\circ\text{S}$ ):

$$N_{e0} = AN_e,$$

$$M_{e0} = AM_e.$$

Koeffitsiyent  $A$  quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$A = \frac{530 + t_h}{545} \cdot \frac{P_0}{P_h};$$

bu yerda  $t_h$  va  $p_h$  muhitning harorati va bosimi.

10.9-rasmida YAMZ-740 dizelining tashqi tezlik tavsifi ko'rsatilgan.

*10.1-jadval*

Dvigatel turlari	Tezlik rejimi				
	$n_{nom}$	$n_{min}$	$n_{M_f}$	$n_{s.t.}$	$n_{razn.}$
Dizel	2000...3300	350...700	(0,4...0,6) $n_a$	(1,05...1,07) $n_h$	(1,4...1,6) $n_h$
Karbyuratorli dvigatel	3600...4500** 3000...4200*** 4000...6300	300...600	(0,4...0,6) $n_m$	(1,05...1,1) $n_h$	(1,7...2,0) $n_h$


Dvigatel tashqi tezlik tavsifi bo'yicha ishlaganda aylanishlar chastotasining chekka qiymatlari 10.1-jadvalda keltirilgan.

- + yengil avtomobilarga o'matiladigan dizellar;
- + + yuk avtomillari;
- + + + yengil avtomobillar.

### **Qismiy tezlik tavsiflari**

Drossel-to'smaqopqoqning yoki yonilg'i berishni boshqarish reykasining turli o'zgarmas holatlarda dvigatel ko'rsatkichlari  $N_e$ ,  $G_{yo}$ ,  $M_e$  va  $g_e$  ning aylanishlar chastotasiga bog'liqlik grafiklari qismiy tezlik tavsiflari deb ataladi.


Shu sababli qismiy tezlik tavsiflarini istalgan miqdorda olish mumkin.



10.9-rasm. YAMZ-740 dizelinining tashqi tezlik tavsifi

Karbyuratorli dvigatel va dizel uchun tashqi tezlik tavsiflari o'zaro o'xshash bo'lsa ham, ularning qismiy tezlik tavsiflari bir-biridan katta farq qiladi. Shu sababli ularda qismiy tavsiflarni olish sharoitlari turlicha bo'ladi.

Karbyuratorli dvigatelda qismiy tavsiflar (10.10-rasm) drossel-to'smaqopqoqning har xil holatlarida olinganligi sababli uning to'ldirish koefitsiyenti keskin o'zgaradi. Natijada effektiv quvvat ham o'zgaradi. Shunisi xususiyatligi, effektiv quvvatning maksimumi drossel-to'smaqopqoq yopila borishi bilan kichik aylanishlar chastotasi tomonga siljiydi. Shu sababli karbyuratorli dvigatellarda yuklama kamayganda raznos (tirsakli valning haddan tashqari katta tezlik bilan aylanish hodisasi) bo'lmaydi.



10.10-rasm. Karbyuratorli

#### *dvigatelning qismiy tezlik tavsiflari*

dizellar salt ishlaganda ularga maksimal aylanishlar chastotasini cheklaydigan regulyator o'rnataladi. Bunday regulyator dizelni nominal aylanishlar chastotasida ekspluatatsiya qilishni yengillashtiradi.

Dizellarning regulyator tavsifini olish uchun regulyatorning boshqarish organini o'zgarmas holatda ushlab turib, yuklamani salt ishlashdan maksimal qiymatgacha oshiriladi va ma'lum yuylama oralig'ida dvigatel ko'rsatkichlarining ( $n$ ,  $N_e$ ,  $G_{yo}$  va  $g_{yo}$ ) o'zgarishi yozib boriladi.

#### **Yuklama tavsiflari**

Dvigatelning yuklama tavsifi deb o'zgarmas aylanishlar chastotasida ( $n = const$ ) yonilg'ining soatli va ef-

Dizellarda yuklamani o'zgartirish uchun yonilg'i nasosining reykasini boshqa holatga qo'yiladi. Yuklama kamayishi bilan to'ldirish koeffitsiyenti  $\eta_v$  ning qiymati bir oz ortadi. Buning natijasida effektiv quvvatning maksimal qiymati kichik aylanishlar chastotasi tomonga siljimaydi. Dizellarda yuklamaning kamayishiga qaramasdan yonish jarayonining davom etishi uning haddan tashqari tez ishlashiga cabab bo'ladi. Shuning uchun


effektiv solishtirma sarflarining yuklamaga bog'liqlik  $G_{yo}$ ,  $g_e=f(N_e)$  grafigiga aytildi.

Yuqorida aytganimizdek, yuklamani o'zgartirish uchun drossel-to'smaqopqoq yoki reyka boshqa holatga qo'yiladi.

Yuklama tavsifini olish dvigatel maqbul qizdirilgandan so'ng, ya'ni suv va moyning harorati 80...85°C ga yetganda boshlanadi. Buning uchun dvigatelnинг aylanishlar chastotasini  $n=0,5 \cdot n_{nom}$  qilib tanlanadi va shu chastotada dvigatelga to'la yuklama beriladi hamda shu rejimda yondirishni ilgarilatish burchagining optimal qiymati tanlanadi. Shundan so'ng dvigatelnинг ko'rsatkichlari bayonnomaga yoziladi ( $P_r, G_{yo}, n$  va h.k.). Drossel-to'smaqopqoqning 4...5 holatida dvigatelnинг ko'rsatkichlari qaytadan yoziladi va yuqorida keltirilgan formulalar orqali yonilg'inining soatli va effektiv solishtirma sarfi hisoblab topiladi. Agar dvigatelnинг tashqi va qismiy tezlik tavsiflari ma'lum bo'lsa, ular orqali ham yuklama tavsifini qurish mumkin. Buning uchun ma'lum aylanishlar chastotasida tezlik tavsiflarini biror tik chiziq bilan kesiladi (masalan, 10.10-rasmagi shtrixli ordinata chizig'iga qarang) va kesishish nuqtasidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Dvigatelning yuklama tavsifini olishdan asosiy maqsad dvigatel to'la, qismiy yuklamalarda va salt ishlaganda yonilg'inining soatli va solishtirma sarfi qanday bo'lishini o'rganishdir, chunki avtomobil transporti ko'pincha (75% vaqt davomida) qismiy yuklamalarda ishlaydi.

10.11-rasmida sakkiz silindrli ZIL-130 karbyuratorli dvigatelinining yuklama tavsifi ko'rsatilgan. Bunda havo ortiqlik koefitsiyentining o'zgarishi ham tasvirlangan. Grafikning ko'rsatishicha, eng yaxshi tejamlikka havo ortiqlik koefitsiyentining eng katta ( $\alpha>1$ ) qiymatida erishiladi, chunki bunday aralashma to'la yonadi. dvigateldan katta quvvat olish uchun  $\alpha=0,8...0,9$  bo'lishi kerak, chunki bunday aralashma tez yonadi. Buning uchun silindrga ko'proq yonilg'i uzatish kerak. Bu vazifani

karbyuratorning tezlatish nasosi bajaradi. Shu sababli yonilg'ining effektiv solishtirma sarfi ortadi. Kichik yuklamalarda esa drossel-to'smaqopqoq berkila borgan sari  $\eta_r$  kamayadi, qoldiq gazlar ortadi va mexanik F.I.K kamayadi. Natijada yonish jarayoni keskin yomonlashadi va yonilg'ining solishtirma sarfi ortib ketadi.




10.11-rasm. ZIL-130 dvigatelinining yuklama tavsiflari

### Rostlash tavsiflari

Rostlash tavsiflari orqali yonish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar (yondirishni ilgarilash burchagi, yonuvchi aralashma tarkibi, dizellarda esa yonilg'i purkay boshlashni ilgarilash burchagi va aralashmaning tutunsiz yonishini ta'minlaydigan reykaning holati) tahlil qilinadi. Dvigatelinning optimal ko'rsatkichlarini shu parametrga

bog'liq ravishda tanlash uchun olinadigan tavsiflar rostlash tavsiflari deyiladi. Bunday tavsiflar drossel-to'smaqopqoqning yoki reykaning o'zgarmas holatlarida olinadi. Bu sharoitlarda dvigatelning quvvati va tejamliligi yondirishni ilgarilash burchagiga yoki yonilg'i purkay boshlashni ilgarilash burchagiga bog'liq ravishda o'zgaradi. Bunday tavsiflar turli yuklamalarda va tirsakli valning har




*10.12-rasm. Karbyuratorli dvigateling yondirishni ilgarilatish burchagi bo'yicha rostlash tavsifi*

xil aylanishlar chastotasida olinadi. Natijada yuklama va tezlik rejimlariga bog'liq bo'lgan yondirishni ilgarilash burchagini optimal qiymati tanlanadi. Bu qiymat turli dvigatel uchun turlichadir, chunki u yonish kamerasining turiga, siqish darajasiga va boshqa omillarga bog'liqdir.

Tirsakli valning bir xil aylanishlar chastotasida va drossel-to'smaqopqoqning to'la ochiq holatida yondirishni ilgarilash burchagi  $\theta_{y.o.i}$  bo'yicha olingan rostlash tavsifi 10.12-rasmida ko'rsatilgan. Grafikda yondirishni ilgarilash burchagini optimal qiymati  $\theta_{y.o.i \text{ opt}}$  shtrix chiziq bilan ko'rsatilgan. Grafikning ko'rsatishicha, aylanishlar chastotasi ortishi va yuklama kamayishi bilan yondirishni ilgarilash burchagini optimal qiymatlari kattalashadi. Bu vazifani mar-kazdan qochirma vakuum regulyatorlar bajaradi. Ish aralashmasi tarkibining dvigatel quvvati va yonilg'inining solishtirma sarfiga ta'sirini ifodalovchi rostlash tavsifi 10.13-rasmida keltilrilgan. Grafiklarni tahlil qilish eng katta quvvat  $\alpha=0,8...0,9$  bo'lgandagi qiymatga, yonilg'i solishtirma sarfining

minimal qiymati esa  $\alpha=1,05\dots1,15$  qiymatga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatadi.  $\alpha$  ning boshqa qiymatlarida  $N_e$  kamayadi,  $g_e$  esa oshib ketadi.



**10.13-rasm. Karbyuratorli dvigatelning yonuvchi aralashma tarkibi bo‘yicha rostlash tavsifi**  
(drossel zaslona to‘la ochiq  $n=1500 \text{ min}^{-1}$ )

## 10.6. DVIGATEL ISH REJIMINING TURGUNLIGI

Dvigatel tirsakli valida hosil bo‘ladigan effektiv burovchi moment traktor va avtomobilning yurishiga qarshilik qiluvchi momentlar yig‘ indisiga teng yoki undan bir oz ortiq bo‘lishi kerak. Avtomobilga ta’sir qiluvchi qarshiliklar momenti qator omillarga bog‘liq (yo‘l profili va uning holati, havo qarshiligining o‘zgarishi va hokazolar) bo‘lib, ular keng ko‘lamda o‘zgarishi mumkin. Shu sababli dvigatelga qo‘yiladigan taablardan biri uning burovchi


momenti, avtomobilga ta'sir qiluvchi qarshiliklarning qanday o'zgarishidan qat'i nazar, turg'un ishlash rejimi ta'minlanishi lozim. Bu holda dvigatelning tezlik rejimi juda kichik miqdorda o'zgarishi kerak.

Quyida (10.14-rasn) uchta dvigatelning effektiv burovchi momentlarining egri chiziqlari keltirilgan. Shunisi xususiyatliki, barcha dvigatellar nominal rejimda bir xil burovchi moment  $M_{\text{nom}}$  hosil qiladi.

Faraz qilaylik, avtomobilning harakatiga har xil qarshilik momentlari  $M_{\sum_1} < M_{\sum_2} < M_{\sum_3}$ , ta'sir qilsin. Barcha dvigatellar tirsakli valning nominal aylanishlar chastotasiga qarshilik momenti  $M_{\sum_1}$  ni yenga oladi. Agar qarshiliklar momenti  $M_{\sum_2}$  bo'lsa, unda birinchi dvigatel uchun tenglik holat  $n_2$  aylanishlar chastotasida, ikkinchi dvigatel uchun  $n_3$  da, uchinchi dvigatel uchun esa  $n_4$  da hosil bo'ladi. Bu holda birinchi dvigatelning aylanishlar chastotasi  $\Delta n_1$  ga, ikkinchisiniki  $\Delta n_2$  ga va uchinchisiniki esa  $\Delta n_3$  ga kamayadi.

Agar qarshilik momenti  $M_{\sum_3}$  bo'lsa, unda birinchi dvigatel uchun tenglik holat  $n_5$  aylanishlar chastotasida, ikkinchisi uchun  $n_6$  da hosil bo'ladi, uchinchi dvigatel esa bu qarshilikni yenga olmaydi. Demak, birinchi dvigatel uchun aylanishlar chastotasi  $\Delta n_1$  miqdorga, ikkinchi dvigatel uchun esa  $\Delta n_2$  miqdorga kamayadi. Agar burovchi moment tikroq ko'tarilgan egri chiziq bo'ylab o'zgarsa (birinchi dvigatel uchun), u holda avtomobil harakatiga qarshilik o'zgarganda dvigatelning aylanishlar chastotasi qisqa chegarada o'zgaradi. Birinchi dvigatelning quvvati qarshilik keskin ortganda ham uni yengish uchun yetarli bo'ladi va dvigatel ish rejimining turg'unligini ta'minlaydi. Burovchi momentning bunday o'zgarishi karbyuratorli dvigatellarga xosdir. Ikkinci dvigatel burovchi momentining o'zgarish

xususiyati esa dizellarga xosdir. Karbyuratorli dvigatellarning afzalliklaridan biri shuki, u qismiy yuklamalarda ishlaganida, egri chizig'i to'la yuklamadagiga qaraganda tikroq bo'ladi. Bu holda qarshiliklar o'zgarganda aylanishlar chastotasi qisqa chegarada o'zgaradi.



10.14-rasm. Burovchi momentning aylanishlar chastotasiga qarab o'zgarishining dvigatel turg'un ishlashiga ta'siri

Avtomobilning harakat qarshiligidagi qarab dizelda  $M_e$  ning o'zgarish xususiyati yuklamaga bog'liq emas, chunki uning tashqi va qismiy tavsiflari deyarli bir xil.

Avtomobil dvigateli ish rejimining turg'unligi maksimal burovchi momentning dvigatel nominal rejimda

$$\text{hosil qiladigan burovchi momentiga nisbati } K = \frac{M_{e\max}}{M_{e\text{nom}}}$$

bilan aniqlanadi. Bu nisbat moslashish koeffitsiyenti yoki burovchi moment zaxirasi deb ataladi.

$$\text{Bu koeffitsiyentni effektiv bosimlar nisbati } K = \frac{P_{e \max}}{P_{e \text{ max}}}$$

orqali ham aniqlash mumkin, chunki dvigatelning burovchi momenti o‘rtacha effektiv bosimga to‘g‘ri proporsionaldir.

Yuqorida aytganimizdek, karbyuratorli dvigatellar dizellarga nisbatan turg‘un rejimga ega. Ularda  $K = 1,25\dots 1,35$  oralig‘ida, dizellarda esa  $K < 1,25\dots 1,35$  bo‘ladi. Dizellarda ushbu kamchilikni yo‘qotish maqsadida aylanishlar chastotasi kamayishi bilan yonilg‘i berishni ko‘paytiradigan maxsus moslama (barcha rejimli markazdan qochirma regulyator)dan foydalaniladi.

## XI BOB. DVIGATELLARNING KO'RSATKICHLARINI OSHIRISH USULLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

### 11.1. UMUMIY MA'LUMOT

Avtomobil, traktor va transport vositalarida kuch manbai sifatida porshenli ichki yonuv dvigatellari ishlatalmoqda. Avtomobil transporti taraqqiyotining asosiy yo'nalishlaridan biri ularga o'matiladigan dvigateilar quvvati diapazonini keskin oshirishdir.

Og'ir yuk avtomobillari, avtopoyezdlar va traktorlar uchun quvvati 450 kW bo'lgan dvigatellar kerak, kelajakda esa ularning quvvatini 750 kW ga yetkazish va undan ham oshirish mo'ljalangan.

Yengil avtomobil dvigatellarining quvvati ham kundan-kunga oshirilmogda. Bu esa ularning harakat tezligini oshirishga va dinamik ko'rsatkichlarini yaxshilashga olib keldi. Dvigatel quvvatini oshirish bilan bir vaqtida uning ishga chidamliligi va puxtaligini ham yaxshilash lozim.

Avtomobil, traktor va boshqa transport vositalarining ko'payishi hamda ularga o'matiladigan dvigatellar quvvatining oshishi suyuq yonilg'i istemolini yanada oshirdi. Shuning uchun dvigatellar yonilg'isining sarfuni kamaytirish masalalariga katta e'tibor berish kerak. Dvigatelning yangi konstruksiyalarini yaratishda ularning vazni va gabaritlarini kamaytirishga ham e'tiborni kuchaytirish lozim.

Yirik shaharlarda transport vositalarining ko'payishi natijasida tashqi muhitning zaharlanishi va unumiy shovqin kuchayadi. Shu sababli dvigatel shovqinini kamaytirish va havoning zaharli, ishlatilgan gazlar bilan ifloslanishining oldini olish (kamaytirish) muammolarini hal qilish talab etiladi.

## 11.2. DVIGATELNING QUVVATINI OSHIRISH USULLARI

### Aylanishlar chastotasini oshirish

Dvigatelning litrli quvvati formulasidan uning qanday omillarga bog'liq ekanligini ko'rish mumkin. Litrli quvvat asosan  $n$ ,  $\eta_r$ ,  $\rho_0$  va  $\tau$  larga bog'liq.

Litrli quvvatni aylanishlar chastotasi hisobiga oshirish eng qulay bo'lib, bunda dvigatelning solishtirma massasi va o'lchamlari kamayadi. Aylanishlar chastotasi oshishi bilan sikl davomidagi issiqlik yo'qotishlar kamayadi, chunki ish jismining silindr devorlariga tegish vaqtida kam bo'ladi. Natijada ishlatalgan gazlarning issiqligi katta bo'ladi va bunday dvigatellarda nadduvni qo'llashga katta imkon tug'iladi. Bundan tashqari, sovitish tizimiga berilayotgan issiqlik kamayadi va dvigatel yaxshi ishlaydi.

Aylanishlar chastotasining oshishi politropa ko'rsatkichi  $n_1$  hamda siqish jarayoni oxiridagi harorat va bosimning oshishiga olib keladi. Natijada yonuvchi aralashma yonish jarayoniga yaxshi tayyorlanadi va alanganishning kechikish davri kamayadi. Dizellarda esa bundan tashqari, purkash bosimi oshishi natijasida yonuvchi aralashma mayda zarralarga parchalanib, yonish jarayoni to'la ketadi. Lekin dvigatelda mexanik yo'qotishlar ortadi va silindrnii ishlatalgan gazlardan tozalash qiyinlashadi. Dizellarda yonilg'ini purkash davri uzayib ketadi va yonish jarayoni kengayish yo'lida amalgalashadi, uning effektivligi pasayadi.


Mexanik isroflarni kamaytirish maqsadida porshen yo'li kichik bo'lgan ( $S/D < 1$ ) dvigatellar ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Karbyuratorli dvigatellarda asosan  $S/D \leq 1$  qo'llaniladi.

Aylanishlar chastotasi oshirilgan dvigatellarning afzalliklari quyidagilardan iborat: katta kesim yuzali klapan

o‘rnatib to‘ldirish koeffitsiyenti kattalashtiriladi; sovitish tizimiga issiqlik kam o‘tadi; mexanik isroflar kam bo‘ladi. Demak, aylanishlar chastotasining oshishi yonish jarayonining borishi bilan chegaralanmaydi. Kelajakda esa aylanishlar chastotasi yana ham oshiriladi.

### Nadduv

Dvigatel quvvatini oshirishning ikkinchi usuli nadduvdir. Nadduv - dvigatel silindrlariga havo yoki yonuvchi aralashmani bosim ostida kiritish degani. Buning uchun havo yoki yonuvchi aralashma dastlab kompressorda siqiladi, so‘ng silindrغا haydaladi. Silindrلarga havo yoki yonuvchi aralashma uch xil usulda: a) yuritmali kompressor bilan; b) turbokompressor bilan; v) aralash usulda haydaladi (11.1-rasm).



11.1-rasm. Nadduv sxemalari:


a-yuritmali kompressor bilan; b-turbinaldi kompressor bilan;  
v-aralash usulda havo beradigan

Bu holda havo kompressorga tashqi muhitdan kiradi va  $P_k$  bosimgacha siqiladi, harorat esa  $T_k$  ga yetadi. Shundan so‘ng havo dvigatel silindriga  $P_k$  bosim bilan kiradi. Bu davr ichida havoning zichligi  $\rho_v$  oshib  $P_k$  ga yetadi. Natijada, dvigatel silindriga kirayotgan zaryadning massa miqdori atmosferadan kirgandagiga qaraganda ko‘p bo‘ladi.

Demak, silindrga kirgan zaryadning miqdori oshgan sari, unga berilayotgan yonilg'ining miqdorini oshirish talab etiladi. Siklda esa ko'p miqdorda yonilg'i va havo massasi yonadi, natijada dvigatelning quvvati ortadi. Nadduv usuli bilan dvigatel quvvatini 50...70% gacha oshirish mumkin. Agar kompressor harakatni tirsaklı valdan olsa (11.1-rasm, a) dvigatel quvvatining ma'lum qismi havoni siqishga sarflanadi. Bu usul ikki takhti YaAZ dizellarida qo'llanilgan. Hozirgi vaqtida esa avtomobil va traktor dvigatellarida kompressorni harakatga keltirish uchun ishlatalgan gazlar energiyasidan foydalaniadi. Kompressor gaz turbinalar yordamida harakatlanadi (11.1-rasm, b). Bu holda chiqarish quvuridan chiqayotgan gazlar soploli apparat orqali turbinaning kurakchalariga uriladi, turbina katta tezlikda aylana boshlaydi va kompressorni harakatga keltirib, foydali ish bajaradi. Havo tashqi muhitdan kompressorga keladi va  $p_k$  bosimgacha siqilib, dvigatelning silindrlariga haydaladi. Bu usul YAMZ-238N dvigatelida qo'llaniladi.

11.2-rasmida nadduvli YAMZ-238N va nadduvsiz YAMZ-238 dizellarining tashqi tezlik tavsiflari keltirilgan. Lokomotivlarga o'rnatiladigan dizellarda kombinatsiyalash-tirilgan haydash usuli qo'llaniladi. Bu holda havoni siqish uchun tirsaklı val yordamida ishlaydigan kompressordan hamda ishlatalgan gazlarning energiyasidan foydalaniadi. Bunda silindrga tushayotgan havoning bosimi katta bo'ladi, chunki havoni siqish ham birinchi, ham ikkinchi kompressorda amalga oshiriladi. Nadduv qo'llanilganda siqish jarayonining oxirida bosim va haroratning oshishi natijasida yonish jarayonining xususiyati bir oz o'zgaradi.


Bundan tashqari, yonuvchi aralashmaning boshlang'ich yuqori parametrlarga ega bo'lishi va yonishi natijasida gazlarning maksimal bosimi ancha oshadi va dvigatelning umumiy termik zo'riqishi ko'payadi. Demak, dvigatelning konstruksiyasi nadduvni hisobga olgan holda hisoblanishi kerak.



11.2-rasm. Nadduvli va nadduvsiz dvigatelning tashqi tezlik tavsiflari

Karbyuratorli dvigatellarda detonatsiyali yonishning paydo bo'lishi sababli ularda nadduv qo'llash cheklangan. Dvigatellarda nadduv qo'llanilganda yonilg'i nasosining pretsizion juftlari va gaz taqsimlash fazalari mos tanlanishi kerak.

Nadduv, asosan, dizellarda qo'llaniladi, bunda havoni haydash bosimi 0,2 MPa ga yetadi. Bu holda dvigatelning quvvati 30..40% ga oshadi, effektiv bosimi esa 0,95...1,05 MPa ni tashkil qiladi. Nadduvli dvigatellar og'ir yuk ko'taradigan avtomobilarga va kuchli traktorlarga o'rnatilmoqda, ular tog'li rayonlarda ishlatalganda maqsadga muvofiq bo'ladi.



**11.3-rasm. a-alanga bilan o't oldirish sxemasi; b-alanga bilan o't oldiriladigan dvigatelning asosiy kamerasida alanganing tarqalishi:**

1 - «yumshoq» ishlaydigan kamerada ( $d_s=8\text{ mm}$ ); 2 - «qattiq» ishlaydigan kamerada ( $d_s=4\text{ mm}$ )  $\alpha =0,9$

Dvigatel quvvatini oshirishning yana quyidagi usullari bor:

– to'rt taktli dvigatel o'mniga ikki taktligini qo'llash (bu usul nisbatan kam qo'llaniladi, chunki bunday dvigatelning termik zo'riqishi kuchli va ishlash muddati kam bo'ladi);

– siqish darajasini oshirish. Bu usul karbyuratorli dvigatellarda qo'llanilib,  $\varepsilon$  ning ma'lum qiymatlarigacha  $\varepsilon = 8\dots 9$  dvigatelga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, lekin  $\varepsilon$  ning qiymati juda oshirib yuborilsa, detonatsiyali yoki o'z-o'zidan yonish jarayonlari sodir bo'ladi;

– to'ldirish koeffitsiyentini oshirish. Buning uchun kiritish va chiqarish quvurlarining uzunligi to'g'ri tanlanib, ulardagi havoning to'lqinlanish bosimidan foydalilanildi va silindr hajmi o'zgarmagan holda uning diametri kattalashtiriladi. Bu holda silindr kallagiga to'rtta klapan o'rnatishga imkon tug'iladi, natijada to'ldirish koeffitsiyenti ortadi;

–  $\eta / \alpha$  nisbatni oshirish. Bu nisbat ichki yonuv dvigatellarida nisbatan kam o'zgaradi.

### 11.3. ISHLATILGAN GAZLARNING ZAHARLILIGINI KAMAYTIRISH

Ichki yonuv dvigatellari tashqi muhitga va tirik organizmga zarar yetkazadigan ko'p miqdorda zaharli moddalar chiqaradi. Karbyuratorli dvigatel va dizeldan chiqadigan zaharli moddalarning o'rtacha foiz miqdori 11.1-jadvalda keltirilgan.

*11.1-jadval*

Zaharli moddalar	Dizel	Karbyuratorli dvigatel
Is gazi	0,2	6,0
Karbonat angidrid	12	10
Uglevodorod	0,01	0,05
Aldegidlar	0,002	0,03
Azot oksidlari	0,25	0,5
Oltingurgurt ikki oksidi	0,03	0,008
Qurum ( $g/m^3$ )	0,25	0,5

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, dizellarda zaharli moddalar nisbatan kam. Shu sababli 3 t li va undan yuqori yuk avtomobillariga dizellar o'matish amalga oshirilmoqda.

## **11.4. YONILG'INI TEJASH USULLARI**

### **Alanga bilan o't oldirish**

Yuqorida aytib o'tganimizdek, karbyuratorli dvigatellar kichik yuklamalarda tejamsiz va zaharli gazlarni ko'p chiqarib ishlaydi. Ushbu kamchilikni yo'qotish uchun karbyuratorli dvigatellarda alanga bilan o't oldirish usulini qo'llash maqsadga muvofiq. Bunday dvigatel kichik yuklamalarda tejamli ishlaydi, ishlatilgan gazlarning zaharliligi esa kam bo'ladi. Alanga bilan o't oldiriladigan karbyuratorli dvigatel yonish kamerasingning sxemasi 11.3-rasmda ko'rsatilgan. Yonuvchi aralashmani bunday usulda yondirish professor A.N.Voinov tomonidan ishlab chiqilgan. Bu dvigatelning yonish kamerasi ikki qismga bo'lingan. Yonish kamerasingning 5 foizini tashkil etuvchi yondosh kamera 1 ga alohida karbyurator 6 dan maxsus trubka bo'yab klapan 3 orqali oson alanganadigan quyuq  $\alpha = (0,7\dots 0,8)$  yonuvchi aralashma keladi. Asosiy kameraga esa karbyurator 7 dan suyuq  $\alpha = (1,4\dots 1,8)$  yonuvchi aralashma kiritish klapani 4 orqali keladi. Bunda yondirish chaqmog'i 2 yondosh kamerada joylashgan bo'lib, chaqmoqdan uchqun chiqishi bilan quyuq yonuvchi aralashma yonadi. Buning natijasida yondosh kameradagi bosim asosiy kameradagi bosimdan ancha oshib ketadi. Bosimlar farqi vujudga kelganligi sababli yongan aralashma yuqori tezlikda birlashdiruvchi kanal orqali asosiy kameraga alanga shaklida otilib chiqadi. Bunday alanga asosiy kameradagi suyuq yonuvchi aralashmaning ham to'la yonishini ta'minlaydi. Natijada ishlatilgan gazlarda is gazi (CO) deyarli bo'lmaydi.

### **Dizellarning ishlatilishi**

Rivojlangan davlatlarda yuk mashinalari uchun asosan dizellar qo'llanilmoqda. Birgina KamAZ majmui 1986 yilda 250000 ga yaqin dizel ishlab chiqardi. Bundan

tashqari, ZIL va GAZ zavodlari ham dizellar ishlab chiqarishga qisman o'tdi. Bunga asosiy sabab dizellarning karbyuratorli dvigatellarga nisbatan bir necha afzalliklari mavjudligidir:

1) dizelda 1 kVt quvvat olish uchun sarf bo'ladigan yonilg'ining solishtirma sarfi karbyuratorli dvigatelnikiga nisbatan 35...40% ga kam, bundan tashqari, yonilg'ining tannarxi ikki baravar arzon;

2) ish muddati nisbatan katta, masalan, YAMZ dvigatellarining motoresursi 10...12 ming motosoat, ya'ni 350...400 ming km ni tashkil qiladi;

3) ishlatilgan gazlardagi zaharli komponentlarning miqdori nisbatan kam;

4) dizellarda turli xil (benzin, kerosin, gaz kondensati va h.k.) yonilg'ilarni ishlatish mumkin.

Kelajakda dizellar faqat og'ir yuk avtomobillaridagina emas, balki o'rtacha og'irlilikdagi (3...4.t.) yuk ko'taradigan avtomobillarda va avtobuslarda ham ishlatiladi. Barcha traktor va yo'l qurish mashinalarining kuch agregati sifatida dizel ishlatiladi.

Dizellar chet ellarda, ayniqsa Angliya, GFR, Italiya, Fransiya, AQSh va Yaponiyada keng ko'lamda ishlatiladi. Bu manlakatlarda dizellar hatto yengil mashinalarga (asosan taksilarga) ham o'matiladi. Bunga asosiy sabab benzin yonilg'sining kamligi va qimmatligidir.


## **11.5 BOSHQA TURDAGI DVIGATELLARNI RIVQJLANTIRISH ISTIQBOLLARI**

### **Rotor-porshenli dvigatellar**

Porshenli ichki yonuv dvigatellarining kamchiliklaridan biri ularda qaytma-ilgarilanma harakatning mavjudligi va buning natijasida hosil bo'ladigan inersiya kuchlarini muvozanatlashning qiyinligidir. Rotor-porshenli dvigatelda bunday kamchilik yo'q. Shu sababli

avtomobil dvigatellarning yangi tipi, jumladan, rotor-porshenli dvigatellar (RPD)ni ishlab chiqarish kengaymoqda (GFR va Yaponiyada).

Rotor-porshenli karbyuratorli dvigatelning sxemasi 11.4-rasmda ko'rsatilgan. Dvigatelning sikloida shaklli bo'shlig'i bo'lgan korpusi 1 bor. Korpusning bo'shlig'i ikki yon korpuslarning tekis yuzalariga qo'shilib, ish bo'shlig'ini hosil qiladi. Ish bo'shlig'ida qavariq rotor 3 (porshen) harakat qiladi. Rotor 3 bilan bir o'qqa silindrik shesternya 10 o'matilgan. Bu shesternyaning ichki tishlari korpusning qopqog'i 9 ga mahkamlangan qo'zg'almas shesternya bilan tishlangan. Qo'zg'almas shesternya esa rotorga o'matilgan ekssentrik val 2 bilan bir o'qda joylashgan. Ekssentrik valning o'qi ish bo'shlig'ining markazidan o'tadi. Rotor shesternyasi tishlari sonining qo'zg'almas shesternya tishlari soniga nisbati 3:2 ga teng. Shuning uchun rotor quvvat olinadigan ekssentrik valdan 3 marta sekin aylanadi.




Dvigateli ishga tushirish uchun ekssentrik valni startyor orqali harakatga keltiriladi va rotor ekssentrik val bilan birga aylana boshlaydi. Natijada rotor sikloida bo'ylab harakat qiladi. chunki rotoring shesternyasi qo'zgalmas shesternyaga ilashadi. Rotor harakat qilganda, uning uchala cho'qqisi korpusning sikloidasimon yuzasiga tegadi va bir-biridan ajralgan uchta ko'chuvchan o'roqsimon kamera hosil qi ladi.

*11.4-rasm. Rotor-porshenli dvigatel*

Rotor-porshenli to'rt taktli dvigatelning ish sikli 11.5-rasmda ko'rsatilgan. Bu yerda I kiritish jarayoni; II siqish jarayoni; III ish aralashmasini chaqmoq yordamida yondirish; IV kengayish jarayoni; V ishlatilgan gazlarni chiqarish jarayoni.

Rotor aylanishda davom etganda, I holat takrorlanadi, chiqarish tamom bo'lib, yangi sikl boshlanadi. Rotoring cho'qqilari orasida joylashgan boshqa kameralarda ham har  $120^\circ$  dan so'ng shunga o'xshash taktlar bo'lib o'tadi. Bunday dvigatelda rotoring aylanishi natijasida faqat markazdan qochirma inersiya kuchi hosil bo'ladi. Bu kuch osongina, valdag'i ikkita posangi bilan muvozanatlanadi.



11.5-rasm. Rotor-porshenli dvigatelning ish sikli

Rotor-porshenli dvigatel o'rtacha effektiv bosim, yonilg'inining tejamliligi, litrli quvvat kabi parametrlar bilan hozirgi zamон karbyuratorli dvigatellariga yaqin turadi. Bu dvigatellar porshenli dvigatellarga qaraganda ancha oddiy tuzilgan bo'lib, unda faqat ikkita detal, ya'ni rotor hamda val tekis aylanma harakat qiladi. Uning massasi va gabarit o'chamlari porshenli dvigatenikidan kichik va undan to'la muvozanatlashganligi hamda tebranishlarning yo'qligi bilan farqlanadi. RPD ning asosiy kamchiligi rotoring


cho‘qqilariga o‘matilgan halqalarning tez ishdan chiqishidir. RPD ning dizel turi ham ishlab chiqarilgan.

### Gaz turbinali dvigatellar

Kelajakda og‘ir (100...120 t) yuk avtomobilarga dizellar o‘rnatish mo‘ljallangan. Bunday ichki yonuv dvigatellarning gabarit o‘lchamlari juda ham katta bo‘ladi. Shu sababli keyingi yillarda nisbatan ixcham turbinali dvigatellar yaratish ustida ishlar olib borilmoqda.

Avtomobillar va avtopoyezdlar uchun mo‘ljallangan turbinali dvigatellarning quvvati 750 kVt bo‘lishi mumkin.

Gaz turbinali dvigatellarda aylanishlar chastotasi katta bo‘lgani uchun undan katta quvvat olinadi hamda uning massa va gabarit o‘lchamlari kichik bo‘ladi. Avtomobilga o‘matish uchun mo‘ljallangan ikki valli, gaz turbinali dvigatelning sxemasi 11.6-rasmda ko‘rsatilgan. U quyidagi agregatlardan tashkil topgan: 1-markazdan qochirma kompressor; 2-yonish kamerasi; 3-kompressor-turbina; 4-kuch turbinasi; 5-forsunka; 6-birinchi val; 7-ikkinchi val; 8-reduktor. Bundan tashqari, u aylanishlar chastotasi regulyatori, moy nasosi, startyor va boshqa yordamchi uskunalar bilan jihozlangan. Val 7 reduktor orqali avtomobilning transmissiyasi bilan bog‘langan. 7 va 6 vallar o‘zaro kinematik bog‘lanmaganligi sababli ular ikki valli dvigatel deyiladi.



11.6-rasm. Avtomobilga o‘rnatiladigan gaz turbinasining sxemasi

Markazdan qochirma kompressor havo bosimini 3,5...4 marta oshirib beradi.

Yonish mahsulotlari kompressordan kelayotgan sovuq havo bilan sovitilib ( $900^{\circ}$  gacha) turbinaga uzatiladi. Yonish kamerasida yonish jarayoni  $\alpha = 1,0 \dots 1,5$  qiymatlarda sodir bo'lsa ham, havoning umumiy sarfi nisbatan ko'p bo'lganligi sababli  $\alpha = 4 \dots 6$  ga yetadi. Bu esa porshenli dvigatellardagiga qaraganda ancha ko'p.

Turbinalar tayyorlash uchun volfram, molibden, nikel qotishmalari ishlataladi.

Gaz turbinali dvigatel quyidagicha ishlaydi. Kompressorming vali starter yordamida harakatga keltiriladi. Valning aylanishlar chastotasi kami bilan nominal aylanishlar chastotasining 25...30% ini tashkil qilgandagina kompressor siqilgan havoni yonish kamerasiga uzata boshlaydi. Bu paytda forsunka orqali yonish kamerasiga yonilg'i purkaladi. Siqilgan yonuvchi aralashma elektr cho'g'anish chaqmoq'i yordamida yondiriladi. Bir tekis yonish zonasi hosil bo'lidan so'ng chaqmoq o'chirib qo'yiladi, yonilg'inинг keyingi ulushlari esa hosil bo'lgan alangadan yonadi. Yonish mahsulotlari yonish kamerasidan kompressorli turbinaga o'tib kengayadi. Yonish mahsulotlari turbinaning kurakchalarida kengayadi va uni harakatga keltiradi. Bunda hosil bo'ladiqan mexanik energiya avtomobilni harakatga keltirish uchun sarf bo'ladi. Energiyasini yo'qtgan gazlar chiqarish quvuri orqali havoga chiqarib yuboriladi.

Gaz turbinali dvigatellarning afzalligi shuki, unda qaytma-ilgarilanma harakat qiladigan detallar yo'q. Shu sababli bunday dvigatellar valining aylanishlar chastotasi katta bo'lib,  $20 \dots 25$  ming min<sup>-1</sup> gacha yetadi, dvigatelning massa va gabarit o'lchamlari kichik bo'ladi. Masalan, bunday dvigateling solishtirma massasi  $0,35 \dots 0,5$  kg/kVt dan oshmaydi.

Gaz turbinali dvigatelning mexanik F.I.K. yuqori bo'ladi, chunki unda val podshipniklaridagi ishqalanishdan boshqa ishqalanishlar yo'q, shuning uchun moylash tizimi oddiydir. Bu dvigatellarda yonilg'i uzluksiz uzatilganidan yonilg'i berish apparaturasi sodda tuzilgan.

Gaz turbinali dvigatel o'matilgan avtomobil uchun ilashish muftasi kerak bo'lmaydi, chunki dvigatelni ishga tushirishda faqat kompressoring vali aylantiriladi, tortish turbinasi esa harakat qilmaydi. Shu sababli turbinaning tortish tavsifi juda qulay. Avtomobilning joyidan qo'zg'alishidagi burovchi momenti nominal rejimdagidan 2 baravar katta bo'ladi. Natijada uzatmalar qutisining konstruksiyasi soddalashadi va haydovchingin ishi yengillashadi. Haydovchi uzatmalarni juda kam ulaydi, dvigatelni esa faqat yonilg'i uzatish pedaliga ta'sir qilib boshqaradi.

Gaz turbinali dvigatellar bir qancha kamchiliklarga ega:

- nominal rejimda porshenli dvigatelga nisbatan tejamsiz ishlaydi;
- bir xil quvvatda havoning sarfi katta;
- so'rileyotgan havo juda toza bo'lishi kerak;
- kichik yuklamalarda dvigatelning tejamliligi keskin yomonlashadi;
- avtomobilni dvigatel bilan tormozlash mumkin emas.

Dvigatelning bu kamchiliklari hozirda uning konstruksiyasini murakkablashtirish hisobiga yo'qotilmoqda.

### Keramik detalli dizellar

Dvigatellarda yonilg'i sarfini kamaytirishning eng istiqbolli usullaridan biri uning kerakli detallarini (issiqlik tarqatadigan) keramik materialdan tayyorlashdir. Lekin bu keramikani o'zimizning oddiy sopol ma'nosida tushunish

kerak emas. Bu sohada eng rivojlangan kapitalistik davlatlarda (AQSh, Yaponiya, Angliya) va MDHda maxsus tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu keramikani olish uchun o'ta toza holdagi mayda zarralar shaklidagi kremniy (Si) va azot (N) maxsus sharoitlarda o'zaro to'yintiriladi. Natijada kremniy nitridi hosil bo'ladi. Uning ekspluatatsion xususiyatlari mukammal bo'lib, o'ta qattiq, issiqbardosh, mexanik mustahkamligi yaxshi va yejilishga chidamli bo'ladi. Lekin nisbatan mo'rt bo'ladi. Bunday materiallarni olishda Yaponiya, Angliya va AQSh sanoatsozlari birmuncha muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Yaponiya sanoati sinov dvigateli uchun porshen tubi, silindr-gilzasi, kiritish va chiqarish klapanlarini kremniy nitrididan, silindr kallagini esa sirkoniydan tayyorlaydi.

Angliya mutaxassislari sialon nomli keramik material ishlab chiqarmoqdalar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatayaptiki, bu materialning kelajagi porloq. U juda ham yengil, lekin qimmat va ishlab chiqarish nisbatan murakkab. Buning uchun kremniy nitridiga maxsus sharoitlarda alyuminiy va kislorod qo'shish kerak. Sialon olmos kabi qattiq, po'lat kabi mustahkam va alyuminiy kabi yengil deb ta'riflanadi. Lekin hozircha tajriba uchun porshenli dvigatel ishlab chiqarilgani yo'q.

AQShning «Kammins» firmasi 1988 yilda keramik detallarga ega bo'lgan dizellarni ko'plab chiqarishga va'da bergen. Bu dizellarda sovitish tizimi mutlaqo bo'lmaydi. Porshen tubi nitrid kremniydan, gilzaning yuqori qismi keramikadan, pastki qismi metalldan, chiqarish kanali esa sirkoni bilan qoplangandir. Bunday dvigatellar asosan harbiy buyurtmalar uchun mo'ljallanmoqda va ular (oddiy dizellarga nisbatan) quyidagi afzalliklarga ega bo'ladi:

- massasi 14% ga kam;
- ishga chidamliligi 50% ortadi;
- yonilg'i sarfi 29% kamayadi va juda past sifatli yonilg'ilarda ham ishlay oladi;

- zaharli moddalar keskin kamayadi;
- avtomobilning yuk ko‘tarish qobiliyati ortadi.

Yaponiyaning «Izutsu motors» kompaniyasi barcha detallari keramikadan tayyorlangan dvigatel yasadi va quyidagi natijalarga erishdi, ya’ni uning effektiv foydali ish koeffitsiyenti 48% ni tashkil qildi (oddiy dizelniki esa 32%).

Shunday qilib, fanimiz ayrim yutuqlarga ega. Bu yutuqlarni amalga oshirish uchun juda katta ilmiy va amaliy izlanishlar olib borish va quyidagi muammolami yechish kerak:

- keramik materialni olish texnologiyasi va undan dvigatel detallarini tayyorlash;
- bu dvigatel uchun mos yuqori haroratga (900-1000°S) chidamli moy ishlab chiqish.


Afsuski shu paytgacha real avtomobilga o‘rnatilgan keramik dvigatel mavjud emas.

# IKKINCHI QISM ICHKI YONUV DVIGATELLARI KINEMATIKASI, DINAMIKASI VA KONSTRUKSIYASI

## XII BOB. KRIVOSHIP-SHATUNLI MEXANIZM KINEMATIKASI

### 12.1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Krivoship-shatunli mexanizm dvigatelning asosiy qismi bo'lib, qolgan barcha tizimlar harakatni undan oladi. Bu tizim dastavval starter yordamida harakatga keltiriladi. Natijada silindrga yonilg'i-havo aralashmasi tushadi, u siqiladi va uchqun yordamida yondiriladi, gazlar bosimi esa bir necha marta ortib ketadi ( $\sim 4$  MPa). Gazlar bosimi porshenga ta'sir qilib, uning borib-keladigan harakatini tirsaklı valning aylanma harakatiga aylantirib beradi. Bu esa, o'z navbatida, dvigatelning barcha tizimlarini ishga tushirib yuboradi. Dvigatel ishga tushgani zahotî starter uzib qo'yiladi. Krivoship-shatun mexanizmi (12.1-rasm, a) krivoship 1, shatun 2 va porshen kompleksi 3 dan tuzilgan.



12.1-rasm. Krivoship-shatunli mexanizmning turlari:  
a-markaziy, b-dezaksial, v-tirkama shatunli

Krivoship tirsaklı valning bir tirsagidan iborat bo'lib, u podshipniklarda aylanuvchi tub bo'yinlar 4, shatun bo'yni 5 va ikkita jag' 6 dan tuzilgan. Odatda, jag'larga posangilar 7 o'rnatiladi. Shatunning yuqori kallagi barmoqcha vositasida porshen bilan, pastki kallagi esa krivoshipning shatun bo'yni

bilan sharnirli bog'langan. Dvigatellarda, asosan ikki turdag'i krivoship-shatunli mexanizm qo'llaniladi:

1. Silindrning o'qi tirsakli valning o'qi bilan kesishadigan markaziy yoki aksial krivoship-shatunli mexanizm (12.1-rasm, a).

2. Silindrning o'qi tirsakli valning o'qiga nisbatan *e* masofaga siljigan dezaksial krivoship-shatunli mexanizm (12.1-rasm, b). Avtomobil dvigatellarida nisbiy dezaksaj

$$K = \frac{e}{R} = 0,04 \div 0,1 \quad (R - \text{krivoship radiusi}) \text{ chegarada}$$

o'zgaradi va bu holda quyidagi afzalliklarga erishiladi: 1) dvigatelning bir tekis yeyilishi ta'minlanadi; 2) porshenning tezligi yuqori chekka nuqta yaqinida kamayadi; buning natijasida o'zgarmas hajm hosil bo'lib, unda yonish jarayoni yaxshilanadi; 3) porshenning yo'li hamda tirsakli val bilan taqsimlash vali orasidagi masofa qisman kattalashadi, buning natijasida dvigatelning ish hajmi ortadi, quvvati ko'payadi. Hozirgi paytda dvigatellarda dezaksajning boshqa turi ko'proq ishlatalmoqda, ya'ni porshen o'qiga nisbatan uning barmog'i *e* masofaga siljigan bo'ladi. Bu holda ham yuqorida sanab o'tilgan afzalliklarga erishiladi. Bunday dvigatellarda dezaksaj taxminan *e* = 0,02 R ni tashkil etadi. Muhandislik hisoblarda, odatda, dezaksaj e'tiborga olinmaydi.

3. Ikki shatuni tirsakli valning bir bo'yning o'matilgan mexanizmlar tirkama shatunli krivoship mexanizmi deyiladi (12.1-rasm, v). Bunday mexanizm tank dvigatellarida qo'llaniladi (*D-12A* dvigateli). Avtomobilgarga o'matiladigan *V*-simon dvigatellarda esa 2 ta shatun bitta bo'yinda yonmayon joylashadi. *V*-simon dvigatellarda ikki shatun bir krivoshipda joylashgani uchun, uning uzunligi bir qatorli dvigatelnikidan qisqa bo'ladi.

Avtomobil dvigatellarida markaziy krivoship-shatunli mexanizm ko'p tarqalganligi uchun asosan uni ko'rib chiqamiz va kinematikasini o'rganamiz. Uning geometrik

o'lchanlari: krivoship radiusi  $R$  va shatun uzunligi  $L_{sh}$  dan iborat. V-simon dvigatellarda esa silindrlar o'qilarining orasidagi burchak  $\gamma$  beriladi. Odatta, dvigatei loyiha-lanayotganda, uning geometrik parametrlari (silindrining diametri  $D_s$ , porshen yo'li S) berilgan quvvat va aylanishlar soniga mos qilib tanlanadi. Buning uchun dvigatei silindrlarining soni  $i$ , porshen yo'li S ning silindr diametri D ga nisbati, ya'ni  $S|D$ ; dvigateining litrli quvvati  $N_l$  ma'lum bo'lishi kerak.

$S$  ma'lum bo'lsa,  $R=S/2$  bo'ladi. Shatunning uzunligi esa  $\lambda = \frac{R}{L_{sh}} = \frac{1}{2} \dots \frac{1}{3,8}$  nisbat orqali aniqlanadi.

$\varphi$  va  $\beta$  - silindr o'qi bilan krivoship handa shatun oralig'idagi burchak.

Krivoship-shatunli mexanizmning kinematikasi tekshiri-layotganda, tirsakli valning burchak tezligi  $\omega$  o'zgarmas deb qabul qilinadi.

## 12.2. KRIVOSHIP-SHATUNLI MEXANIZMDAGI KINEMATIK BOGLANISHLARI

Krivoshipning burchak tezligi  $\omega$  uning burchak ko'chishi  $\varphi$  dan vaqt  $t$  bo'yicha birinchi darajali hosila olish yo'li bilan topiladi, ya'ni  $\omega = \frac{d\varphi}{dt}$ .

Agar aylanishlar chastotasi  $n = \text{const}$  bo'lsa  $\omega = \frac{\pi \cdot n}{30}$  ga teng bo'ladi.

Krivoship-shatunli mexanizm kinematikasini hisoblashdan maqsad porshennenin yo'li, tezligi va tezlanishini aniqlashdir.

Krivoship  $\varphi$  burchakka burilganda porshen yuqori chekka nuqtadan (12.1-rasm, a)  $S_p$  masofaga siljiydi va u quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$S_p = R \left[ (1 - \cos \varphi) + \frac{\lambda}{4} (1 - \cos 2\varphi) \right].$$

Bu ifoda shuni ko'rsatadiki,  $\varphi = 0^\circ$  bo'lganda  $S_p = 0$ ;  $\varphi = 90^\circ$  bo'lganda esa  $S_p = R \left( 1 + \frac{\lambda}{2} \right)$  hamda  $\varphi = 180^\circ$

bo'lganda  $S_p = 2R$  bo'lar ekan. Undan tashqari  $S_p$  ning qiymati  $\lambda/R$  ga ham bog'liq. Demak, porshen bir tekis harakat qilmas ekan, ya'ni krivoship yu.ch.n.dan dastlabki  $90^\circ$  ( $\varphi = 90^\circ$ ) ga burilganida, porshen o'ttan yo'l uning keyingi  $90^\circ$ ga burilgandagi yo'lidan katta bo'ladi.

Porshennenning yo'lil birinchi va ikkinchi tartibli garmonik siljishlar orqali ifodalanishi mumkin:

$$S_p = S_p^I + S_p^{II};$$

$$S_p^I = R(1 - \cos \varphi);$$

$$S_p^{II} = R \cdot \frac{\lambda}{4} (1 - \cos 2\varphi).$$

12.2-rasmda porshen yo'lining  $\varphi$  burchakka bog'liqlik grafigi va uning tashkil etuvchilarini keltirilgan.

Porshennenning tezligi  $v_p$  uning yo'l tenglamasi dan birinchi darajali hosila olish orqali aniqlanadi:

$$v_p = \frac{dS_p}{dt} = \frac{d\varphi}{dt} \cdot \frac{dS_p}{d\varphi} = R \cdot \omega \left( \sin \varphi + \frac{\lambda}{4} \sin 2\varphi \right).$$

12.3-rasmda porshen tezligi va uni tashkil etuvchilarning  $\varphi$  burchakkaga bog'liqlik egrini chiziqlari keltirilgan.

Porshennenning o'rtacha tezligi, agar porshen yo'l va tirsakli valning aylanishlari soni  $n$  ma'lum va o'zgarmas bo'lsa, quyidagicha hisoblanadi:

$$v_{p.o.t} = \frac{2S \cdot n}{60} = \frac{S \cdot n}{30} = \frac{2}{\pi} R \omega.$$

Hozirgi zamondagi avtomobil dvigatellari uchun  $v_{p.o.t} = 10 \dots 16$  m/s ga teng.

Porshenning tezlanishini aniqlash uchun uning tezligi ifodasidan vaqt bo'yicha birinchi darajali hosila olish kerak:

$$j_p = \frac{dv_p}{dt} = R \cdot \omega^2 (\cos\varphi + \lambda \cos 2\varphi).$$




Yuqorida aytib o'tganimizdek, porshenning tezlanishi ham birinchi va ikkinchi darajali garmonika (davriy tebranish)lardan iborat.

12.4-rasmda porshen tezlanishining  $\varphi$  burchakka bog'liqlik grafigi keltirilgan.  $\cos\varphi + \lambda \cos 2\varphi$  ning  $\varphi$  burchak bo'yicha o'zgarish qiymatlari  $\lambda/R$  ning turli qiymatlari uchun 12.1-jadvalda keltirilgan. Xulosa qilib aytganda, krovoship-shatunli mexanizm kinematikasini o'rganishdan asosiy maqsad porshen komplektining tezlanishini aniqlashdir. Chunki kelajakda bu ifodadan foydalanib, borib-keladigan massalarning inersiya kuchini aniqlaymiz.

### 12.1-jadval

*Ichki yonuv dvigatellarida  $\lambda$  va  $\varphi$  ning o'zgarishiga mos  $\cos\varphi + \lambda \cos 2\varphi$  qiymatning o'zgarishi*

$\varphi_{r.v.b} / \lambda$	Isho rasi	1	1	1	1	1	1	Isho rasi	$\lambda / \varphi_{r.v.b}$
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
0	+	1,312	1,294	1,278	1,263	1,250	1,233	+	360
10	+	1,278	1,261	1,246	1,232	1,220	1,208	+	350
30	+	1,022	1,103	1,005	0,998	0,991	0,985	+	330
60	+	0,344	0,353	0,361	0,368	0,375	0,381	+	300
80	+	0,120	0,103	0,087	0,074	0,061	0,050	-	280
90	-	0,312	0,294	0,278	0,263	0,250	0,283	-	270
100	-	0,467	0,450	0,435	0,421	0,409	0,397	-	260
120	-	0,656	0,647	0,639	0,632	0,625	0,619	-	240
150	-	0,710	0,719	0,727	0,734	0,741	0,747	-	210
170	-	0,691	0,708	0,724	0,737	0,750	0,761	-	190
180	-	0,687	0,706	0,722	0,737	0,750	0,762	-	180



12.2-rasm. Porshen yo'lini ifodalovchi egri chiziqlar

12.3-rasm. Porshen tezligini ifodalovchi egri chiziqlar

12.4-rasm. Porshen tezlanishini ifodalovchi egri chiziqlar

## XIII BOB. KRIVOSHIP-SHATUNLI MEXANIZM DINAMIKASI

Dvigatel detallarining chidamliligini va podshipniklarning yuklanishlarini hisoblash uchun krivoship-shatunli mexanizmga ta'sir qiluvchi barcha kuchlarni bilish talab qilinadi. Bu kuchlar quyidagilardan iborat:

- gazlarning bosim kuchi;

- harakatlanuvchi mexanizmlar massalarining inersiya kuchi;

- ishqalanish kuchi.

Inersiya kuchlari krivoship-shatunli mexanizmning harakatlanuvchi massalariga qarab ikki turga bo'linadi;

Ilgarilama-qaytma harakatlanuvchi massalarning inersiya kuchlari ( $j$  indeksli).

Aylanma harakatlanuvchi massalarning inersiya kuchlari ( $R$  indeksli).

### 13.1. KRIVOSHIP-SHATUNLI MEXANIZMNING MASSALARINI KELTIRISH

1. Shatun massasini keltirish. Porshenli dvigatelning shatuni murakkab harakat qiladi. Hisoblashlarni soddalashtirish maqsadida shatunning massasi ikki shartli massa bilan almashtiriladi.


Ulardan biri  $m_1$  (13.1-rasm, a) shatunning yuqori kallagi (porshen barmog'i) o'qida, ikkinchi  $m_2$  massa esa shatunning pastki kallagi (krivoship) o'qida joylashtiriladi. Buning uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

a) ikki massaning yig'indisi shatun massasiga teng bo'lishi, ya'ni  $m_{sh} = m_1 + m_2$ ;

b) massalarning shatun o'qi bo'yicha olingan inersiya momentlarining yig'indisi shatunning inersiya momenti  $I_{sh}$  ga teng bo'lishi, ya'ni  $I_{sh} = m_1 l_1^2 + m_2 (l - l_1)^2$ . Odatda shatun sterjenining massasi uning og'irlilik markazida joylashadi va nisbatan kichik bo'lganligi uchun hisobga olinmaydi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi zamон tezyurar avtomobil dvigatellari uchun shatun massalarini quyidagicha aniqlash mumkin:

$$m_1 = (0,2 - 0,3)m_{sh}; m_2 = (0,7 - 0,8)m_{sh}; l_1 = (0,7 - 0,8)l.$$



**13.1-rasm. Krivoship-shatun massalarini keltirish:**  
a-shatun massasini keltirish; b-krivoship massasini keltirish

Buning uchun, odatda  $m_{sh}$  ma'lum bo'lishi kerak.

Bu qiyamatlar 13.1-jadval yordamida topiladi.

### 13.1-jadval

#### Karbyuratorli dvigatellar

N <sup>o</sup> p/p	Dvigatellar- ning markasi	Silindr diametri, mm da, D	Porshenlar guruhining og'irligi, kg da $G_p$	Shatun bosh kallagining og'irligi, kg da $G_{sh}$
1.	MZMA-400	67,5	0,331	0,17
2.	MZMA-407	76	0,441	0,23
3.	MZMA-408	76	0,441	0,23

4.	MZMA-412	76	0,441	0,23
5.	MeMZ-965	66	0,287	0,125
6.	M-20	82	0,627	0,273
7.	M-21	92	0,722	0,277
8.	M-24	92	0,722	0,230
9.	GAZ-12	82	0,627	0,273
10.	GA-13	100	0,908	0,341
11.	ZIL-110	90	0,786	0,452
12.	ZIL-111	100	1,034	0,285
13.	ZIL-120	101,6	1,160	0,410
14.	ZIL-130	100	1,187	0,353
15.	ZIL-375	108	1,307	0,353
16.	GAZ-51	82	0,627	0,273
17.	GAZ-66	92	0,822	0,270
18.	GAZ-53	92	0,675	0,255
19.	GAZ-41	100	0,908	0,341
20.	URAL-5M	101,6	0,216	0,415

#### Dizel dviga tellar

Nº p/p	Dvigatellar-ning markasi	Silindr diametri, mm da, D	Porshenlar guruhining og'irligi, kg da $G_p$	Shatun bosh kallagining og'irligi, kg da $G_{sh}$
1.	D-16	95	1,338	0,447
2.	D-20	125	3,732	1,632
3.	D-30	95	1,335	0,447
4.	D-37 M(Ye)	105	1,407	0,598
5.	D-35	100	1,956	0,987
6.	D-48	105	2,700	-
7.	D-54	125	5,362	1,630
8.	D-75	125	5,362	1,630
9.	SMD-7	115	3,20	0,92
10.	SMD-14	120	3,83	1,00
11.	KMD-46	145	5,931	2,600
12.	6KMD-50	145	5,931	2,600
13.	A-01M	130	4,047	1,18
14.	A-41	130	4,047	1,07
15.	YAMZ-238	130	4,120	1,00
16.	YAMZ-236	130	4,120	1,00
17.	KamAZ-740	120	3,35	0,945

**2. Aylanma harakat qiluvchi massalarni keltirish.**  
Aylanma harakat qiluvchi massalarga shatunning pastki

kallagiga joylashgan massa  $m_2$  va krivoship massasi  $m_k$  kiradi. Massalami keltirishning asosiy shartlaridan biri muvozanatlashmagan haqiqiy massalarning markazdan qochma inersiya kuchlari keltirilgan massalarning inersiya kuchlariga teng bo'lishidir.

Krivoshipning muvozanatlashmagan qismlarining massasi shatun bo'ynining o'qiga keltiriladi. Shatun bo'yni va uning atrofidagi jag'larning massasi bir o'qda joylashgan deb qabul qilinadi va ularning og'irlik markazi tirsakli val o'qidan  $R$  massofada joylashganligi uchun ularni keltirish talab qilinmaydi. Jag'ning o'rta qismi (*avsb* kontur) ning og'irlik markazi  $\rho$  radiusga ega va u  $R$  radiusga keltiriladi. ya'ni

$$m_j = \rho \omega^2 = m_{j_r} \cdot R \omega^2,$$

$$\text{bu yerda } m_{j_r} = m_j \cdot \frac{\rho}{R}.$$

Krivoshipning barcha massalarini keltirish:

$$m_k = m_{sh_b} + 2m_{jr} = m_{sh_b} + 2m_j \cdot \frac{\rho}{R}.$$

bu yerda  $m_{sh_b}$  - shatun bo'ynining massasi. Demak, aylanma harakat qiluvchi massalar quyidagicha aniqlanadi:

$$m_r = m_k + m_2.$$

V-simon dvigatellarda  $m_r = m_k + 2m_2$  bo'лади.

Tirsakli valda posangilar mavjudligi uchun ularning massasini ham shatun bo'ynining o'qiga keltirish lozim. Odatda, posangilar massasi krivoship massasiga mos tanlanadi va uni muvozanatlaydi.

**3. Borib-kelib harakatlanuvchi qismlar massasi**  
 Krivoship-shatunli mexanizmnинг ilgarilama-qaytna harakatlanuvchi qismlarining massasi porshen barmog'ining markaziga qo'yilgan bo'lib, u porshen komplektining massasi va shatun massasining porshen barmog'i o'qiga keltirilgan qismi yig'indisidan iborat, ya'ni:

$$m_j = m_{p_k} + m_1.$$

Porshen komplekti massasi porshenning, porshen halqalarining, porshen barmog'i va stopor halqalarning massasini o'z ichiga oladi. Dvigatelni dinamik hisoblash vaqtida  $m_{pk}$ ,  $m_{sh}$  va  $m_k$  massalar loyihalanayotgan dvigatelga mos keladigan mavjud hozirgi zamon dvigatelining massalariga o'zaro teng deb qabul qilinadi. Odatda, porshen komplekti, shatun va krivoshiplarning og'irligi beriladi. Ushbu ma'lumotlar 13.1-jadvalda keltirilgan.

### **13.2. KRIVOSHIP-SHATUNLI MEXANIZMDA TA'SIR ETUVCHI KUCHLAR**

**1. Borib-kelib harakatlanuvchi massalarning inersiya kuchlari**  $\omega = \text{const}$  hol uchun quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$P_r = -m_r \cdot j_p = -mR \cdot \omega^2 (\cos\varphi + \lambda \cos 2\varphi)$$

Bu kuch ikki (birinchi va ikkinchi darajali) kuchning yig'indisi sifatida aks ettirilishi mumkin:

$$P_r = P'_r + P''_r;$$

$$P'_r = C \cdot \cos\varphi; ;$$

$$P''_r = \lambda \cdot C \cdot \cos\varphi.$$

bu yerda  $C = -m_r R \cdot \omega^2$ . Bu inersiya kuchlari silindring o'qi bo'y lab ta'sir qiladi va uning grafigi porshenning tezlanish grafigining aksi (faqat boshqa mashtabda) sifatida tasvirlanadi. Yo'nali shiga qarab musbat va manfiy bo'lishi mumkin. 13.2-rasm, b da bu inersiya kuchlarining tirsakli valning burilish burchagiga bog'liqlik grafigi keltirilgan.

**2. Aylanma harakatlanuvchi massalarning inersiya kuchlari** har doim krivoshipning radiusi bo'y lab ta'sir etib, qiymati o'zgarmas bo'ladi. Ular shatun bo'yni markaziga qo'yilgan bo'lib, quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$P_\kappa = -m_r \cdot R \cdot \omega^2 = \text{const}.$$

Inersiya kuchi  $R$ , krivoship bilan birga aylanadi va munozananatlanmaganligi uchun val podshipliklari va karter orqali dvigatel o'rindiqlariga ta'sir etadi.

**3. Gazlarning bosim kuchi** dvigatelning indikator diagrammasidan olinadi. Buning uchun dvigatelning issiqlik hisobi bajariqlgan bo'lishi va  $p - \varphi$  va  $p - V$  koordinatalar tizimiga mos ravishda indikator diagrammasi, ya'ni uning yoyilmasi qurilgan (chizilgan) bo'lishi kerak (13.2-rasm, b). Porshenga ta'sir qiluvchi gazlarning bosimi  $P_g$  va porshen yuzi  $F_p$  ma'lum bo'lsa, gazlarning bosim kuchi quyidagicha hisoblanadi:

$$P_g = (p_g - p_a) \cdot F_p,$$

bu yerda  $p_a$  - atmosfera bosimi.

**4. Yig'indi kuchlar.** Yuqorida keltirilgan kuchlar  $P_g$ ,  $R_j$  shuni ko'rsatadiki, ular silindr o'qi bo'ylab yo'nalgan bo'ladi, lekin ishoralari har xil bo'lishi mumkin. Shu sababdan porshenga ta'sir qiluvchi yig'indi kuchlar hosil bo'ladi, ya'ni  $\overline{P}_\Sigma = \overline{P}_g + \overline{P}_j$ . 13.2-rasm, b da  $P_\Sigma$  kuchning tirsakli valning burilish burchagi  $\varphi$  ga qarab o'zgarish grafigi tasvirlangan. Bu kuch porshen barmog'iga ( $A$  nuqta) ta'sir qiladi deb qabul qilingan. U shatun o'qi ( $S_\Sigma$  kuchi) va barmoq bo'ylab gilzaga ta'sir qiladi ( $N_\Sigma$  kuchi) gan kuchlarga ajratiladi (13.3-rasm).


$$N_\Sigma = P_\Sigma \cdot tg;$$

$$S_\Sigma = P_\Sigma \cdot \frac{1}{\cos \beta}.$$

$S_\Sigma$  kuchni shatun bo'yini markaziga ko'chirib ( $S'_\Sigma = S_\Sigma$ ) uni tashkil qiluvchilarga ajratamiz:

krivoshipning radiusi bo'ylab yo'nalgan normal kuch:

$$K_\Sigma = S_\Sigma \cos(\varphi + \beta) = P_\Sigma \cdot \frac{\cos(\varphi + \beta)}{\cos \beta};$$



13.2-13.3 va 13.4-jadvallarda  $\operatorname{tg}\beta \cdot \frac{\sin(\varphi + \beta)}{\cos\beta}$  va  $\frac{\cos(\varphi + \beta)}{\cos\beta}$  trigonometrik funksiyalarning qiymati har xil  $\lambda$  lar uchun  $\varphi$  burchakning barcha qiymatlarida keltirilgan.  $N_\Sigma, T_\Sigma$  va  $K_\Sigma$  kuchlarning tirsakli valning burilish burchagi  $\varphi$  ga bog'liqlik grafigi 13.2-rasm,  $g$ ,  $d$ ,  $ye$  larda keltirilgan.

Normal kuch  $K_\Sigma$  ni uning ta'sir chizig'i buylab val o'qiga ( $O$  nuqta) ko'chiramiz va  $K_\Sigma$  deb belgilaymiz ( $K'_\Sigma = K_\Sigma$ ). Tangensial kuch  $T_\Sigma$  ni ham val o'qiga ko'chiramiz ( $T_\Sigma = T'_\Sigma = T''_\Sigma$ ). Natijada krivoshipga ta'sir qiluvchi bir-biriga qarama-qarshi yo'nalgan kuchlar jufti ( $T_\Sigma$  va  $T'_\Sigma$ ) hosil bo'ladi va ular  $R$  yelkada moment hosil qiladi. Bu moment tirsakli valni harakatga keltiradi va quyidagicha hisoblanadi:

$$M_{hor} = T_\Sigma \cdot R = P_\Sigma \cdot R \frac{\sin(\varphi + \beta)}{\cos\beta}.$$

$K'_\Sigma$  va  $T''_\Sigma$  kuchlar qo'shibil  $S''_\Sigma$  kuchini hosil qiladi. Bu kuch shatun o'qi bo'ylab ta'sir qilayotgan kuchga tengdir. ( $S'_\Sigma = S_\Sigma$ ) va u valning o'zak podshipniklariga ta'sir qiladi (13.3-rasm, a).

O'z navbatida  $S'_\Sigma$  kuchi tashkil qiluvchilar  $N'_\Sigma$  (silindr o'qiga tik) va  $P'_\Sigma$  (silindr o'qi bo'ylab) larga ajratiladi.

$N_\Sigma$  va  $N'_\Sigma$  kuchlar  $h$  yelkada moment hosil qiladi. Bu moment to'ntaruvchi moment deb ataladi va qiymati jihatidan burovchi momentga teng bo'lib, unga qarama-qarshi tomonga yo'nalgandir.

### 13.2-jadval

*Ichki yonuv dvigatellarida  $\lambda$  va  $\varphi$  ning  
o'zgarishiga mos  $\operatorname{tg}\beta$  qiymatning o'zgarishi*

$\lambda/\varphi^\circ$ t.v.b.	Isho rasi	1 3,2	1 3,4	1 3,6	1 3,8	1 4,0	1 4,2	Isho rasi	$\lambda/\varphi^\circ$ t.v.b.
0	+	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	+	360
10	+	0,0545	0,511	0,0483	0,04570	0,0435	0,413	-	350
30	+	0,1581	0,1487	0,1327	0,1260	0,1198	0,1198	-	330
60	+	0,2811	0,2634	0,2473	0,2341	0,2218	0,2107	-	300
80	+	0,3233	0,3025	0,2844	0,2683	0,2540	0,2413	-	280
90	+	0,3291	0,3077	0,2891	0,2728	0,2582	0,2453	-	270
100	+	0,3233	0,3026	0,2844	0,2683	0,2540	0,2413	-	260
120	+	0,2811	0,2634	0,2478	0,2341	0,2218	0,2107	-	240
150	+	0,1581	0,1483	0,1403	0,1327	0,1260	0,1198	-	210
170	+	0,1545	0,0511	0,0483	0,0450	0,0435	0,0413	-	190
180	+	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	0,0000	-	180

### 13.3-jadval

*Ichki yonuv dvigatellarida  $\lambda$  va  $\varphi$  ning o'zgarishiga mos  
 $\frac{\sin(\varphi + \beta)}{\cos \beta}$  qiymatning o'zgarishi*

$\lambda/\varphi^\circ$ t.v.b.	Isho rasi	1 3,2	1 3,4	1 3,6	1 3,8	1 4,0	1 4,2	Isho rasi	$\lambda/\varphi^\circ$ t.v.b.
0	+	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	-	36°
10	+	0,227	0,224	0,221	0,219	0,216	0,214	-	35°
30	+	0,637	0,629	0,622	0,615	0,609	0,604	-	33°
60	+	0,007	0,998	0,990	0,983	0,977	0,971	-	30°
80	+	1,041	1,037	1,034	1,031	0,029	1,027	-	28°
90	+	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	-	27°
100	+	0,929	0,932	0,935	0,938	0,941	0,943	-	26°
120	+	0,725	0,734	0,742	0,749	0,755	0,761	-	24°
150	+	0,363	0,371	0,379	0,385	0,391	0,391	-	21°
170	+	0,120	0,123	0,126	0,129	0,131	0,133	-	19°
180	+	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	0,000	-	18°

### 13.4-jadval

*Ichki yonuv dvigatellarida  $\lambda$  va  $\varphi$  ning o'zgarishiga mos  
 $\frac{\cos(\varphi + \beta)}{\cos \beta}$  qiymatning o'zgarishi*

$\lambda/\varphi^\circ$ t.v.b.	Isho rasi	1 3,2	1 3,4	1 3,6	1 3,8	1 4,0	1 4,2	Isho rasi	$\lambda/\varphi^\circ$ t.v.b.
0	+	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	+	360
10	+	0,975	0,976	0,976	0,977	0,977	0,978	-	350


30	+	0,787	0,792	0,796	0,8000	0,803	0,806	-	330
60	+	0,257	0,272	0,285	0,297	0,307	0,317	-	300
80	+	0,145	0,124	0,106	0,091	0,091	0,076	-	280
90	-	0,329	0,308	0,289	0,273	0,258	0,245	-	270
100	-	0,492	0,472	0,454	0,438	0,424	0,411	-	260
120	-	0,743	0,728	0,715	0,703	0,692	0,682	-	240
150	-	0,945	0,940	0,936	0,932	0,929	0,926	-	210
170	-	0,994	0,994	0,993	0,993	0,991	0,992	-	190
180	-	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	1,000	-	180

$M_{\omega \cdot n} = -M_{hur}$  ekanligi quyidagicha isbotlanadi.

13.3-rasmga binoan:

$$M_{\omega \cdot n} = -N_{\Sigma} h = -P_{\Sigma} \operatorname{tg} \beta h = -P_{\Sigma} \operatorname{tg} \beta \frac{\sin(\varphi + \beta)}{\sin \beta} =$$

$$-P_{\Sigma} \frac{\sin(\varphi + \beta)}{\cos \beta} \cdot R = -T_{\Sigma} \cdot R = -M_{hur} .$$



13.3-rasm. a-Krivoship-shatunli mexanizmga ta'sir etuvchi kuch va momentlarning umumiy sxemasi; b-reaktiv momentni aniqlash uchun sxema

Burovchi moment avtomobil transmissiyasi orqali g'ildiraklarga, to'ntaruvchi moment esa krivoship mexanizmining harakatlanmaydigan qismlari orqali dvigatel o'rindiqlariga ta'sir etadi va reaktiv moment  $R_o$  orqali muvozanatlanadi. Bu moment dvigatelning o'rindiqlari orasidagi masofa  $L_o$  ga bog'liqdir, ya'ni (13.3-rasm, b).

$$R_o = \frac{M_{m,n}}{L_o} = -\frac{M_{bur}}{L_o}.$$

13.3-rasmda k o'rsatilgan barcha kuchlar va momentlarning yo'nalishi musbat deb qabul qilinadi.  $N_\Sigma$ ,  $K_\Sigma$  va  $T_\Sigma$  kuchlarining qiymati  $\varphi$  ning ma'lum qiymatlari uchun aniqlanadi va egri chiziq orqali birlashtirib chiqiladi, natijada bu kuchlarning tirsakli valning burilish burchagi orqali ifodalangan grafigi hosil bo'ladi.

Tangensial kuchlarning grafigi bir vaqtning o'zida bir silindrli dvigatelning yoki bir silindrning burovchi momentini, faqat boshqa masshtabda ko'rsatadi, chunki  $M_{bur} = T_\Sigma \cdot R$ .


Bundan keyin tirsakli valning shatun va tub podshipniklariga ta'sir qiluvchi kuchlar aniqlanadi.

**5. Shatun va tub podshipniklarga ta'sir etuvchi kuchlar.** Shatun bo'yning ta'sir qiluvchi umumiy  $R_{sh,b}$  kuchi grafik usulda  $S_\Sigma$  kuchi va shatun pastki kallagining aylanishidan hosil bo'ladigan markazdan qochma  $R_{Rsh} = -m_{sh,b} R \cdot \omega^2$  kuchlarning vektor yig'indisiga tengdir,

$$R_{sh,b} = S_\Sigma + P_{Rsh} = T_\Sigma + K_\Sigma + P_{Rsh}.$$

Uni aniqlash uchun shatun bo'yning ta'sir qiluvchi kuchlarning ( $R_{sh,b}$ ) vektor diagrammasi quriladi va u qo'zg'almas deb qabul qilingan tirsakli valning krivoshipiiga nisbatan olinadi. Avval  $O$  qutbli to'g'ri burchakli koordinatalar  $P_{Rsh}$  kuchga teng masofada tanlanadi va  $S$  kuchlarning qutb (polyar) diagrammasi quriladi. Buning uchun  $T$  va  $K$  kuchlarning tirsakli valning har xil burchaklariga mos qiymatlari  $O$  qutbga qo'yiladi va  $S$


vektorlarning uchlari hosil qilinadi (13.4-rasm). Hosil bo'lgan  $S$  kuchlarning uchlari  $\varphi_1, \varphi_2, \varphi_3$  va h.k. deb belgilanadi va ular ketma-ket (burchakni hisobga olgan holda) egri chiziq bilan birlashtiriladi. Bu  $S$  kuchlarning qutbi  $O$  nuqtada bo'lgan qutbiy diagrammasidir (13.4-rasm, b). Shatun bo'yniga ta'sir qiluvchi kuchlarning qutbiy diagrammasini olish uchun  $O$  qutbi  $O_{sh}$  nuqtasiغا ko'chirilishi va bu nuqta bilan  $\varphi_1, \varphi_2, \varphi_3$  va h.k. nuqtalar birlashtirilishi lozim.  $O_{sh}$  masofa  $P_{Rsh}$  kuchga tengdir. Karbyuratorli, to'rt taktili tezyurar dvigatel uchun shatun bo'ynining tirsakli valning har  $30^\circ$  dan burilgan burchagiga mos kelgan qutbiy diagrammasi 13.4-rasm, b da tasvirlangan.



13.4-rasm. a-shatun bo'yniga ta'sir qiluvchi kuchlarning qutbiy diagrammasini qurish uchun sxema; b-shatun bo'yniga ta'sir etuvchi kuchlarning qutbiy diagrammasi

Shatun bo'yniga ta'sir etuvchi o'rtacha va eng katta bosimni oson aniqlash uchun qutbiy diagrammani to'g'ri burchakli koordinatalarda qayta yasash kerak bo'ladi. Buning uchun qutbiy diagrammaga tegishli shatun bo'yniga ta'sir qiluvchi  $R_{sh,b}$  kuchlarining vertikal proyeksiyalari aniqlanadi va ular krivoship radiusi bo'ylab yo'nalgan bo'ladi

(13.5-rasm). Ushbu diagrammaning o'rta ordinatasи  $R_{shb,ort}$  shatun bo'yniga ta'sir qiluvchi o'rtacha bosim  $P_{shb,ort}$  ni



*13.5-rasm. Shatun bo'yniga ta'sir etuvchi kuchning egri chizigi*

Hozirgi zamon karbyuratorli dvigatellar uchun  $P_{shb,max} = 10-15$  MPa, V-simon dvigatellar uchun 18-28 MPa oralig'ida; dizellar uchun 20-35 MPa oralig'ida bo'ladi.

Qutb diagrammasidan foydalanib shatun bo'ynining yeyilish diagrammasini qurish mumkin (13.6-rasm). Bu holda yeyilish xususiyati ta'sir etuvchi kuchlarga mutanosib deb qabul qilinadi. Buning uchun bo'yinga kuch ta'sir nuqtasidan ikki tomonga qarab  $60^\circ$  burchak ostida (kuchning qiymati hisobga olingan holda) yeyilish halqalari chiziladi. Halqa yuzasining katta shib borishiga qarab, shatun bo'ynining yeyilishi haqida xulosa chiqarish mumkin (13.6-rasm, a va b).

Bu diagrammadan shatun bo'ynining qaysi yeri kamroq yeyilishi ko'rinish turibdi. Demak, shu joydan moy berish teshigi qo'yilishi kerak.


**Tirsakli val (tub) bo'yni.** Tirsakli valning bo'yinlari uchun qutbiy diagrammalar xuddi shatun bo'ynidagidek yasaladi, ammo dvigatelning ishlash tartibi va valning krivoship sxemasi e'tiborga olinishi lozim. To'la tayanchli tirsakli vallarda tub bo'yinlarga ta'sir qiluvchi umumiy

aniqlashga imkon beradi:

$$P_{shb,ort} = \frac{R_{shb,ort} \cdot F_p}{d_{shb} \cdot l_{shb}};$$

bu yerda  $F_p$ -porshennenning yuzi,  $\text{sm}^2$ ;  $d_{shb}$  va  $l_{shb}$  - shatun bo'ynining diametri va uzunligi, sm.

Shatun bo'yniga ta'sir etuvchi eng katta bosim kuchi  $P_{shb,max}$  yuqoridagidek, lekin  $R_{shb,max}$  orqali hisoblanadi.



**13.6-rasm. Shatun bo'yning yeyilish sxemasi va moy kanali**

kuchni  $R_{sh}$  uning ikki yonidagi shatun bo'yinlariga ta'sir etuvchi kuchlarning vektor yig'indisidan topiladi (13.7-rasm). Har bir tirsakdan shatun bo'yniga ta'sir etuvchi kuch  $R_{shb}$  ning yarmi hamda markazdan qochma kuch  $R_{RK}$  ning yarmi tub bo'yniga ta'sir qiladi:


$$R_{sh} = 0,5R_{shb} + 0,5R_{RK} + 0,5P_{shb} + 0,5R_{RK}.$$

Ushbu  $R_{sh}$  kuchning polar diagrammasi grafik usulda shatun bo'yinlariga ta'sir qiluvchi kuchlarning polar diagrammalaridan foydalaniib tuziladi (13.8-rasm, a).

Bu diagramma to'g'ri burchakli koordinatalarda qayta tuziladi va u orqali tirsakli val bo'yning yeyilish xususiyati hamda moy beriladigan teshikning holati aniqlanadi. Bu diagrammadan foydalaniib, tanlangan posangining tub bo'yinga tushadigan yuk lamaning taqsimlanishiga ta'siri ham o'rganiladi.

**Tub va shatun bo'yinlari orqali uzatiladigan burovchi moment ( $M_{bur} = T_{\Sigma} \cdot R$ ). Ko'p silindrli dvigatelning yig'indi burovchi momentining grafigi  $M_{bur\Sigma} = M_{bur} f(\phi)$  bi silindr dan olingan burovchi momentlarni grafik usulda qo'shish orqali topiladi. Buning uchun har bir silindrning grafigi bir-biriga nisbatan dvigatelning ish taktiga mos burchak**

oraliq  $\theta$  ga siljigan bo‘lishi shart. Bu burchak quyidagiicha aniqlanadi: to‘rt taktli va ish taktlari orasidagi burchak bir-biriga teng dvigatellar uchun  $\theta = \frac{720}{i}$  (bu yerda  $i$  - silindrlar soni);




**13.7-rasm.** Bir qatorli, olti silindrlti, to‘rt taktli, silindrlarining ish tartibi 1-5-3-6-2-4 bo‘lgan karbyuratorli dvigatelning oltinchi tub bo‘ynining tayanchiga ta’sir etuvchi kuchlarning qutb diagrammasini qurish sxemasi

Yig‘indi burovchi moment davri  $\theta$  ga teng bo‘lgan burchakda o‘zgarib turadi.  $\theta$  burchakka mos keladigan yig‘indi momentning grafigi to‘rt taktli dvigatel uchun 13.9- rasmda tasvirlangan. Dvigatelning yig‘indi burovchi

momentining o'rtacha qiymati quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$(M_{bur})_{o'rt} = \frac{1}{\theta} \int_{\varphi_1}^{\varphi_2} M_{bur} d\varphi = \frac{F_2 - F_1}{\theta};$$



*13.8-rasm. Tub bo'yingga ta'sir etuvchi kuchlarning grafigi (a) va uning yeyilish xususiyati (b)*

bu yerda  $F_1$  va  $F_2$  - diagrammaning manfiy va musbat yuzalari,  $\text{mm}^2$ ;  $\theta$  - burchak oralig'i,  $\text{mm}$ . Bu holda o'rtacha burovchi momentning qiymati grafikdan  $\text{mm}$  hisobida olinadi va masshtab orqali uning haqiqiy qiymati hisoblab chiqariladi.


Shuni ta'kidlash lozimki, dvigatelning burovchi momenti diagrammasi qurilayotganda ishqalanishga va yordamchi mexanizmlarni harakatlantirishga sarf bo'layotgan yo'qotishlar hisobga olinmagan edi. Shuning uchun dvigatel validan olinayotgan xaqiqiy effektiv burovchi moment o'rtacha yig'indi burovchi momentdan kichik bo'ladi, ya'ni:

$$M_e = (M_{bur})_{o'rt} \cdot \eta_m;$$

bu yerda  $\eta_m$  mexanik F.I.K.

$(M_{bur})_{o'rt}$  momenti - o'rtacha indikatorli burovchi moment deb ataladi va u gazlarning bajargan ishiga mutanosib o'zgaradi, chunki inersiya kuchlarining siklda bajargan ishi nolga tengdir. Tirsakli valning tub bo'yinini chidamlilikka tekshirish zarur bo'lib qolganda, tekshirilayotgan tub bo'yningacha bo'lgan va har bir silindr orqali ta'sir qilayotgan momentlarning yig'indisini aniqlash lozim.

$$M_{bur} = \sum_{i=1}^n M_{bur,i}, \text{ bu yerda } \sum_{i=1}^n M_{bur,i} - \text{valning}$$



old tarafidan boshlab,  
barcha tirsaklarga ta'sir  
etuvchi burovchi moment-  
larning yig'indisi.

*13.9-rasm. To'rt silindrli  
dvigatelei uchun umumiyl  
burovchi momentning  
grafigini qurish usuli*

## XIV BOB. DVIGATELLARNI MUVOZANATLASH VA ULARNING RAVON ISHLASHINI TA'MINLASH

Dvigatelning turg'unlashgan rejimda ishslash davrida uning tayanchlariga qiymati va yo'nalishi o'zgarmas kuchlar ta'sir qilsa, u holda dvigatel muvozanatlashgan, deb hisoblanadi. Dvigatelga ichki va tashqi kuchlar ta'sir qiladi. Ular o'z navbatida muvozanatlangan va muvozanatlanmagan bo'lishi mumkin. Odatda, tashqi kuchlar e'tiborga olinmaydi. Ularga dvigatelning og'irligi, chiqariladigan gazlardan paydo bo'ladigan reaktiv kuchlar, tashqi mexanizmlarning harakatiga qarshilik qiluvchi kuchlarning momenti kiradi.

Ichki kuchlar esa borib-keladigan massalarning inersiya kuchlari  $P_j$  dan, aylanuvchi massalarning marказдан qochma kuchi  $K_R$  dan, burovchi va to'ntaruvchi ( $M_{bur}$ ,  $M_{tar}$ ) momentlardan iboratdir. Bu kuchlar va momentlar dvigatel tirsakli valining burilish burchagi bo'ylab davriy o'zgarishi sababli dvigatelning muvozanatiga ta'sir qiladi.

Ko'p silindrli dvigatellarning ayrim silindrlerida muvozanatlashmagan  $P_j$  va  $K_R$  kuchlar birgalikda muvozanatlanmagan erkin inersiya kuchlari va momentlarini hosil qilishi mumkin. Ushbu kuchlar birgalikda erkin momentni hosil qilmasa va ularning teng ta'sir etuvchisi nolga teng bo'lsa, bunday kuchlar muvozanatlashgan, deyiladi. Odatda, reaktiv (to'ntaruvchi) burovchi momentni muvozanatlab bo'lmaydi va u avtomobilning ramasiga uzatiladi.

Burovchi moment ham  $\varphi$  burchakka nisbatan o'zgarganligi sababli uning kam o'zgarishini ta'minlash maqsadida silindrler soni ko'proq va ularda ish taklarining kechishi ma'lum burchak oralig'ida tanlanadi.

Odatda, katta qiymatga ega bo'lgan kuch va momentlar muvozanatlashtiriladi. Bularga inersiya kuchlari ( $P_H$ ;  $P_M$  va

$K_R$ ) dan tashqari ulardan hosil bo‘ladigan erkin momentlar kiradi ( $M_I; M_{II}; M_R$ ).


Quyida hozirgi zamon dvigatellarini muvozanatlash masalalarini ko‘rib chiqamiz.

#### 14.1. BIR SILINDRLI DVIGATEL

Odatda, ilmiy tekshirish ishlari olib borish uchun bir silindrli dvigatel yasaladi va birinchi darajali inersiya kuchi  $P_{II}$  maxsus mexanizm yordamida (14.1-rasm) muvozanatlanadi. Buning uchun dvigatelga ikkita qo‘srimcha val o‘matiladi va uning oxiriga  $m'$  massaga ega bo‘lgan posangi  $\rho$  ‘masofada o‘matiladi. Bu vallar  $\omega$  burchak tezlik bilan aylanadi va ikkita markazdan qochma kuch hosil bo‘lib, uning qiymati  $m' \cdot \rho$   $\omega^2 = 0,5 \cdot m \cdot R \cdot \omega^2$  ga teng bo‘ladi. Ulaming teng ta’sir etuvchisi  $R_I = P_{II}$  teskari tomonga yo‘nalgani uchun birinchi darajali inersiya kuchini muvozanatlaydi. Gorizontal kuchlar ham o‘zaro muvozanatlashgan bo‘ladi.

Birinchi darajali inersiya kuchi  $P_{II}$  ni posangilarga qo‘srimcha massa qo‘yish orqali muvozanatlash ham mumkin. Bu holda  $P_{II}$  ning korpusga ta’sirini 50% ga kamaytirish mumkin. Lekin gorizontal inersiya kuchi hosil bo‘ladi.

Ikkinci darajali inersiya kuchi  $P_{III}$  ni muvozanatlash uchun yana qo‘srimcha vallar tizimidan foydalanamiz. Bu vallar tirsakli valga nisbatan qarama-qarshi tomonga  $2\omega$  burchak tezlik bilan aylanishi va silindr o‘qiga nisbatan  $\rho''$  masofada joylashib,  $m''$  massaga (posangiga) ega bo‘lishi lozim. ya’ni  $m' \cdot \rho'' = \frac{\lambda}{8} mR$  shart bajarilishi kerak. Undan tashqari  $\varphi = 0^\circ$  bo‘lsa,  $\gamma = 2\varphi = 0^\circ$  bo‘lishi kerak.



*14.1-rasm. Bir silindrli dvigatelda inersiya kuchlarini muvozanatlash sxemasi*

Markazdan qochma kuch  $R_R$  ning yo'nalishi va miqdori o'zgarmas bo'lganligi uchun u krivoshiplarning so'ngiga qoshimcha posangi qo'yish bilan oddiygina muvozanatlanadi. Buning uchun posangilarning massasi quyidagiicha tanlanishi lozim:

$$m_{pos} = \frac{m_R \cdot R}{2\rho}$$

Bu vallarning aylanishi natijasida silindr o'qi bo'ylab yo'nalgan teng ta'sir etuvchi  $R_{II}$  kuchi hosil bo'ladi va u miqdori jihatidan  $P_{JII}$  ga teng hamda qarama-qarshi yo'nalgani uchun uni to'la muvozanatlaydi. Inersiya kuchlarini bu usulda muvozanatlashni konstruktiv jihatdan amalga oshirish mumkin. Odatda, bu usul universal karter deb ataluvchi ilmiy tekshirish uskunalarida qo'llaniladi va ularga bir silindrli dvigatel sinash uchun o'matiladi.

Oddiy bir silindrli dvigatellarda (mototsikllarga o'matiladigan, suv chiqaradigan nasosga ularadigan va h.k.) esa  $P_{JII}$  kuchi muvozanatlanmaydi.

Bu yerda  $\rho$ - tirsakli val o'qidan posangi o'qigacha bo'lgan masofa. Posangilarning aylanishidan teng ta'sir etuvchi  $R_R$  kuchi hosil bo'ladi va u  $P_R$  kuchga teng hamda teskari yo'nalgandir, ya'ni  $2m_{\text{pos}} \cdot \rho \cdot \omega^2 = m_R \cdot R \cdot \omega^2$  yoki  $R_R = -P_R$ .

## 14.2. SILINDRLARI BIR TEKISLIKDA JOYLAshGAN DVIGATELLARNI MUVOZANATLASH

Odatda bunday dvigatellar ikki, uch, to'rt va olti silindrli bo'ladi. Silindrlari soni bir xil bo'lsada, krivoshiplari orasidagi burchak farq qilishi mumkin.

Quyida dvigatellarning sxemalari va ularni muvozanatlash keltirilgan. Dvigatel to'la muvozanatlanishi uchun birinchi va ikkinchi darajali inersiya kuchlari va ularning momentlari, markazdan qochma kuchlarning momenti nolga teng bo'lishi kerak.

*14.1-jadval*

Silind- lar soni	Tirsakli val krivoshiplari orasidagi burchak	Krivoship-shatunli mexanizmga ta'sir qiluvchi inersiya kuchlari va momentlarining qiymati
2	$180^\circ$ 14.2-rasm	$\sum_{j=1}^{l=2} P_j' = 0; \sum P_j'' = 2mR\omega^2 \lambda \cos 2\varphi; \sum P_R = 0;$ $M_1 = mR\omega^2 \cos \varphi \cdot \alpha; M_H = 0; M_R = m_R \cdot \omega^2 R \cdot \alpha$
3	$120^\circ$ 14.3-rasm	$\sum_{j=1}^{l=3} P_j' = 0; \sum P_j'' = 0; \sum P_R = 0; \sum M_1 = m \cdot R \cdot \omega^2 \cdot \alpha \cdot (1.5 \cos \varphi - 0.866 \sin \varphi)$ $\sum M_H = mR\omega^2 \alpha (1.5 \cos \varphi + 0.866 \sin \varphi);$ $\sum M_R = 1,732 P_R \cdot \alpha$
4	$120^\circ$ 14.4-rasm	$\sum_{j=1}^{l=4} P_j' = 0; \sum P_j'' = 4mR\omega^2 \lambda \cos 2\varphi; \sum P_R = 0;$ $\sum M_1 = 0; \sum M_H = 0; \sum M_R = 0$


4	$90^0$ 14.5-rasm	$\sum P'_j = 0; \sum P''_j = 0; \sum P_R = 0; \sum M_1 = \alpha \cdot mR\omega^2 \cdot (3\cos\varphi - \sin\varphi); \sum M_H = 0; \sum M_R = \sqrt{10} P_R \cdot \alpha.$
6	$120^0$ 14.6-rasm	$\sum_{i=1}^{i=6} P_i = 0; \sum P''_j = 0; \sum P_R = 0; \sum M_1 = 0; \sum M_H = 0; \sum M_R = 0$
6	$60^0$ 14.7-rasm	$\sum P'_j = 0; \sum P''_j = 0; \sum P_R = 0; \sum M_1 = \alpha \cdot mR\omega^2 \cdot (3\cos\varphi - \sin\varphi); \sum M_H = 0; \sum M_R = \sqrt{10} P_R \cdot \alpha.$

14.1 jadvalni va 14.2-14.7-rasmlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu dvigatellarda ayrim kuch va momentlari muvozanatlanmay qolar ekan. Lekin ularning yo'nalishini (ta'sir tekisligini) qo'shimcha posangilar yordamida o'zgartirish mumkin.


### 14.3. SILINDRLARI V-SIMON JOYLAGHGAN DVIGATELLARNI MUVOZANATLASH

Odatda,  $V$ -simon dvigatellarni muvozanatlashda ular ikkita bir qatorli dvigatellardan tashkil topgan, deb qaraladi. Agar qatorli dvigateldagi (silindrlar soni va tirsakli valning tuzilishi o'xhash bo'lsa) inersiya kuchlari muvozanatlashgan bo'lsa, ikki qatorli ( $V$ -simon) dvigatelda ham shu tartibdagi inersiya kuchlari muvozanatlashgan bo'ladi.


$V$ -simon dvigatellarda muvozanatlashmagan kuchlarning qiymati har bir qatorning silindrlaridagi muvozanatlashmagan inersiya kuchlari vektorlarining geometrik yig'indisi orqali aniqlanadi. Bu holda qatorlar orasidagi burchak hisobga olinishi zarur.




14.2-rasm. Ikki silindrli dvigatellarni muvozanatlash




14.3-rasm. Uch silindrli dvigateli muvozanatlash



14.4-rasm. To'rt silindrli dvigateli muvozanatlash  
(tirsakli val krivoshiplari orasidagi burchak 180°)




14.5-rasm. To'rt silindrli dvigateli muvozanatlash  
(krivoshiplari orasidagi burchak  $90^\circ$ )



14.6-rasm. Olti silindrli dvigateli muvozanatlash  
(krivoshiplari orasidagi burchak  $120^\circ$ )

$P_{WII1}$     $P_{WII2}$     $P_{WII3}$     $P_{WII4}$     $P_{WII5}$     $P_{WII6}$   
 $P_{WIII1}$     $P_{WIII2}$     $P_{WIII3}$     $P_{WIII4}$     $P_{WIII5}$     $P_{WIII6}$



14.7-rasm. Olti silindrli dvigateli muvozanatlash  
(krivoshiplari orasidagi burchak  $60^\circ$ )

V-simon dvigatellar qatorlari orasidagi burchak  $60^\circ$  va  $90^\circ$  li qilib tayyorlanadi. Umumiy holda qatorlar orasidagi burchak  $\gamma$  deb qabul qilinadi va inersiya kuchlari quyidagicha hisoblanadi.

Birinchi darajali inersiya kuchi:

$$\sum_{i=1}^{i=2} P'_i = \sqrt{P_{jlk}^2 + P_{jlo'}^2 + 2P_{jlk} \cdot P_{jlo'} \cdot \cos\gamma}.$$

Chap silindrning birinchi tartibli inersiya kuchi:

$$P_{jlk} = mR\omega^2 \cos\varphi; \quad \text{o'ng silindrni} \quad \text{esa}$$

$$P_{jlo'} = mR\omega^2 \cos\varphi(\gamma - \varphi) \text{ bo'ladi.}$$

Ikkinci tartibli inersiya kuchi:

$$\sum_{j=1}^{j=2} P''_j = \sqrt{P_{jlk}^2 + P_{jlo'}^2 + 2P_{jlk} \cdot P_{jlo'} \cdot \cos\gamma},$$

bunda:

$$P_{jlk} = m \cdot R \cdot \omega^2 \lambda \cos 2\varphi$$

bo'ladi.

$$P_{jlo'} = m \cdot R \cdot \omega^2 \lambda \cos 2(\gamma - \varphi) \text{ bo'ladi.}$$

Markazdan qochma inersiya kuchi:

$$\sum P_R = m_R \cdot R \cdot \omega^2,$$

bu yerda

$$m_R = m_{hrak} + \frac{2}{3}(m_{shch} + m_{sho}).$$

Inersiya kuchlarining momentlari esa muvozanatlashgandir, ya'ni

$$\sum M_1 = 0; \sum M_2 = 0; \sum M_R = 0.$$


Quyida ikki, to'rt, olti va sakkiz silindrli V-simon dvigatellarda hosil bo'ladigan inersiya kuchlari va momentlarining qiymatlari va muvozanatlanshi keltirilgan (14.2-jadval).

#### 14.2-jadval

Silindr-lar soni	Tirsaklı val krivoshiplari orasidagi burchak	Krivoship-shatunli mexanizmga ta'sir qiluvchi inersiya kuchlari va momentlarining qiymati
2	90° 14.8-rasm	$\sum P'_i = m_R \omega^2; \sum P''_j = \sqrt{2}m_R \omega^2 \lambda \cos 2\varphi;$ $\sum P_R = m_R \cdot R \cdot \omega^2; \sum M_1 = 0; \sum M_2 = 0; \sum M_R = 0;$

4	$90^\circ$ 14.9-rasm	$\sum P'_j = 0; \sum P''_j = 2\sqrt{2}m_R R\omega^2 \cos 2\varphi; \sum P_R = 0;$ $\sum M_1 = \sqrt{2}m_R R\omega^2 \cdot \cos \varphi \cdot \alpha; \sum M_H = \sqrt{2}m_R R\omega^2 b\lambda \cos 2\varphi;$ $\sum M_R = \sqrt{2}m_R \cdot R \cdot \omega^2 \cdot \alpha$
6	$90^\circ$ Krivoshiplar orasidagi burchak $120^\circ$ 14.10-rasm	$\sum P'_j = 0; \sum P''_j = 0; \sum P_R = 0; \sum M_1 = 1.732m_R \cdot R\omega^2 \cdot \alpha;$ $\sum M_H = \sqrt{2}m_R R\omega^2 \lambda \cdot \alpha (1.5 \cos 2\varphi + 0.866 \sin 2\varphi)$ $\sum M_R = 1.732 \cdot m_R \cdot R \cdot \omega^2 \cdot \alpha$
6	$60^\circ$ Krivoshiplar orasidagi burchak $60^\circ$ 14.11-rasm	$\sum P'_j = 0; \sum P''_j = 0; \sum P_R = 0; \sum M_1 = 1.5m_R R\omega^2 \alpha;$ $\sum M_H = 1.5m_R R\omega^2 \alpha \cdot \lambda;$ $\sum M_R = m_R \cdot R\omega^2 (2a + b) + 1.732m_R R\omega^2 (a + b)$
8	$90^\circ$ 14.12-rasm	$\sum P'_j = 0; \sum P''_j = 0; \sum P_R = 0; \sum M_1 = \sqrt{10}m_R R\omega^2 \alpha;$ $\sum M_H = 0; \sum M_R = \sqrt{10}m_R R\omega^2 \alpha$

Shuni aytib o'tish lozimki, V-simon ikki silindrli dvigatelda  $\sum P''_j$  kuchi muvozanatlanmaydi, qolgan kuchlar esa posangilar yordamida osongina muvozanatlanadi. To'rt silindrli dvigatelda  $\sum P''_j$ ,  $\sum M_1$  va  $\sum P_H$  lar muvozanatlanmaydi;  $\sum M_R$  momenti muvozanatlanadi.




14.8-rasm. Ikki silindrli V-simon ( $\gamma = 90^\circ$ ) dvigatelin muvozanatlash

Oti va sakkiz silindrli V-simon dvigatellarda esa  $\sum M_1$  va  $\sum M_H$  momentlar muvozanatlanmaydi;  $\sum M_R$  momentlar esa posangilar yordamida to'la muvozanatlanadi (14.8-14.12-rasmilar).

#### 14.4. TIRSAKLI VALLARNI MUVOZANATLASH


Dvigatelning muvozanatlanganligini oshirish uchun barcha silindrлardagi krivoship-shatunli mexanizmlarning massalari bir xil, krivoshiplarning radiuslari va shatunlarning uzunliklari teng qilib tanlanishi hamda tirsakli val muvozanatlangan bo'lishi zarur.

Odatda porshen komplekti massalarining farqi 2-30 g, shatunlarniki esa 2-60 g oralig'iда bo'ladi va ular massalari bo'yicha guruhlanadi. Dvigatel silindrлaridagi porshen va shatun massalarining farqi juda oz bo'lishi kerak. Dvigatel yig'ilayotganda krivoship-shatunli mexanizmning detallari o'zaro mos qilib tanlanishi lozim hamda tirsakli val va gaz taqsimlash vali dinamik muvozanatlangan bo'lishi shart, aks holda turli krivoshiplarning burchak tezliklari bir-biridan jiddiy farq qilishi mumkin. Bu esa dvigatelning ishdan chiqishiga olib keladi.




*14.9-rasm. To'rt silindrli V-simon dvigateli muvozanatlash*

Agar tirsakli valning aylanish o'qi uning bosh markaziy inersiya o'qiga mos kelsa, u muvozanatlangan hisoblanadi. Lekin tirsakli vallarni tayyorlash jarayonida texnologik xatolar muqarrar yuz berishi va materialning bir jinsli bo'lmasligi tufayli yuqoridagi shart bajarilmaydi va ular ma'lum darajada muvozanatlanmagan bo'ladi.



**14.10-rasm. Olti silindrlili  
V-simon dvigatelni  
muvozanatlash  
(krivoshiplari orasidagi  
burchak  $120^\circ$ )**




**14.11-rasm. Olti silindrlili  
V-simon dvigatelni  
muvozanatlash  
(krivoshiplari orasidagi  
burchak  $60^\circ$ )**

Odatda, tirsakli valni muvozanatlash uchun uning krivoshiplaridagi ortiqcha massalar (metall) qirqib olinadi. Bu metall yuk posangi joylashishi lozim bo'lgan tekislikda, lekin qarama-qarshi tomondan olinadi. Umuman detallar statik va dinamik usullarda muvozanatlanadi. Agar muvozanatlanuvchi detal disk shaklida bo'lsa (masalan, maxovik) hamda uning diametri uzunligidan katta bo'lsa, u statik usulda muvozanatlanadi. Murakkab shaklga ega bo'lgan detallar esa (tirsakli val, gaz taqsimlash vali va h.k.) dinamik usulda muvozanatlanadi.

Odatda, ko'plab ishlab chiqariladigan aniq detallarni muvozanatlash uchun (masalan, maxovikli tirsakli val, avtomobil g'ildiraklari va h.k.) moslangan stanoklar tayyorlanadi. Bu stanokka o'rnatilgan o'lhash asbobining shkalasini belgilash uchun maxsus tarirovka grafiklari tuziladi va bu asbobning ko'rsatishiga qarab, muvozanatlovchi yuklarning yoki olinishi kerak bo'lgan metallning massasi topiladi. Hozirgi zamon muvozanatlash stanoklari o'lhash-hisoblash moslamalari bilan jahozlangan bo'lib, ular muvozanatlovchi yukning holati va massasini aniq hisobiab beradi (masalan, «Shenk» firmasining stanogi).

Dvigatellarning disbalansi katta bo'lsa, uning ishlash muddati (resursi) kamayadi, tub podshipniklarning yeyilishi tezlashadi va h.k. Umumiy holda tirsakli val maxovik bilan birgalikda ikki tekislikda (I maxovik; II shkiv tekisliklari) muvozanatlanadi. Masalan, ZMZ-53 va ZMZ-24 dvigatellarining disbalansi 150-110 g. mm va 150-100 g. mm oralig'ida bo'lishi lozim. Afsuski, dvigatellar kapital remont qilingandan so'ng o'lchangan disbalans yangi dviga-tellarnikiga qaraganda 1,2-3,1 marta ortiqdir. Bu esa ta'mir vaqtida ham tirsakli vallarni muvozanatlashni taqozo etadi.




14.12-rasm. Sakkiz silindrli V-simon dvigateli muvozanatlash

14.13-rasmda rama turidagi muvozanatlash stanogining principial sxemasi ko'rsatilgan. Muvozanatlanuvchi detal 1 stanok ramasi 2 ning ustunlari 3 ga o'rnatiladi. Rama stanicaga qo'zgalmas sharnir 4 va elastik tayanchi 5 orqali birlashtilirgan. Stanok erkinlik darajasi birga teng bo'lgan tizimdan iborat bo'lganligi uchun rama qo'zg'almas sharnir atrofida burila oladi.

Tirsakli valni to'la muvozanatlash uchun muvozanatlovchi yuklarning massasi va ularning I-I va II-II tekisliklaridagi (14.13-rasm) holati tajriba yo'li bilan aniqlanadi.

## 14.5. DVIGATELNING ISHLASH TARTIBI VA RAVONLIGI

Dvigatelning ravon (tekis) ishlashi asosan silindrilar soniga, ishlash tartibiga va burovchi momentning o'zgarish grafigiga bog'liqdir.



*14.13-rasm. Sakkiz silindrli  
V-simon dvigateli  
muvozanatlash*

Yuqorida aytib o'tganimizdek, burovchi momentning o'zgarishi tangensial kuchga bog'liqdir. Ko'p silindrli dvigatellar uchun umumlashgan burovchi momentlar diagrammasi har bir silindr dan olingan (har bir krivoship-


da hosil bo'lgan) burovchi momentlarning diagrammalarini (dvigatelning ishlash tartibini hisobga olgan holda) ketma-ket qo'shishdan hosil bo'ladi. Dvigatelning ravon ishlashi uning har bir silindrda hosil bo'luchchi kuch va momentlarning fazalariga bog'liq bo'lgani uchun, quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- yonish jarayoni teng vaqt oralig'ida qaytarilishi;
- yonuvchi aralashma silindrлarga bir tekis taqsimlanishi;
- navbat bilan ishlovchi silindrлar bir-biridan mumkin qadar uzoqroq joylashishi;
- dvigatel mumkin qadar yaxshiroq muvozanatlangan bo'lishi;
- tirsakli valning buralma tebranishlari mumkin qadar kam bo'lishi lozim.

Ushbu shartlar bajarilganda dvigatelning ravon ishlashi ta'minlanadi.

Dvigatelning ishlash tartibi taqsimlash validagi kulachoklarning va tirsakli val tirsaklarining o'zaro joylashishiga bog'liqdir. Dvigatelning ravon ishlashini

ta'minlashda silindrлarda bir xil nomli jarayonlar tirsakli val doim teng burchakka burilganda takrorlanishi kerak. Bu jarayonlar to'rt taktli dvigatellar uchun  $\frac{720''}{i}$  burchakda sodir bo'ladi. V-simon dvigatellarda yonish jarayonining bir tekis takrorlanishi tirsakli valning sxemasiga handa silindrлar orasidagi og'ish burchagiga bog'liqdir.



14.14-rasm. Har xil dvigatellarning ishlash tartibi

14.15-rasm. Silindrлar soni har xil bo'lgan dvigatellarning burovchi momentlari egri chiziqlari:  
a-bir; b-to'rt; v-olti; g-sakkiz va d-o'n ikki silindrli dvigatel uchun

14.14-rasmida har xil dvigatellar uchun silindrлarning ishlash tartibi keltirilgan.

Dvigatelning ravon ishlashini tahlil qilish uchun bir va ko'p silindrli dvigatellarning bir sikli davomida burovchi momentlarning tirsakli valning burilish burchagiga qarab o'zgarish grafigini ko'rib chiqamiz (14.15-rasm).

14.15-rasmdan ko‘rinib turibdiki, burovchi momentning o‘zgarishi  $[M_{bur} = f(\phi)]$  silindrlar soniga bog’liq bo‘lib,  $i$  ortishi bilan  $M_{bur}$  ravonlashadi. Masalan, bir silindrli dvigateл uchun burovchi moment bajargan ish  $F$  quyidagicha hisoblanadi:

$$F = (F_2 + F_4 + F_6 + F_8) - (F_1 + F_3 + F_5 + F_7)$$

bu yerda  $F_2 \dots F_8$  - musbat ishlar;  $F_1 \dots F_7$  - manfiy ishlar

$F$  - burovchi momentning o‘zgarish egri chizig‘i va diagrammaning o‘q chizig‘i  $00'$  bilan chegaralangan yuza bo‘lib, u burovchi momentning bajargan ishini belgilaydi. Burovchi momentning o‘rtacha qiymatini topish uchun egri chiziq hosil qilgan  $F$  yuzani unga teng to‘rtburchakning yuzasi bilan almashtiramiz. To‘rtburchakning balandligi esa o‘rtacha burovchi momentni beradi.

$$M_{o'n} = \frac{F}{00'} \cdot m_m;$$

$$\text{bu yerda: } 00' = \frac{720^{\circ}}{i} \cdot m_{\phi};$$

$i$  - silindrler soni,  $m_{\phi} \left( \frac{\text{zpa} \cdot \text{deg}}{\text{MM}} \right)$  - tirsakli val burilish burchagini masshtabi;  $m_m \left( \frac{n \cdot m}{mm} \right)$  - burovchi momentning masshtabi;  $F$  - musbat va manfiy yuzalarning algebraik yig‘indisi,  $\text{mm}^2$ .

Burovchi momentning o‘rtacha qiymatini, agar dvigateлning indikator quvvati  $N_i$  va bosim  $P$ , lari ma’lum bo‘lsa, quyidagicha hisoblash mumkin.

$$M_{o'n} = \frac{N_i}{\omega};$$

$$M_{o'n} = P_i \frac{\pi}{8} \cdot i \cdot P$$

bu yerda  $\omega$  tirsakli valning burchak tezligi, sek<sup>-1</sup>;  $n$  - tirsakli valning aylanishlar chastotasi, min<sup>-1</sup>;  $D_s$  - silindr diametri, mm;  $R$  - tirsak radiusi, mm.

Dvigatelning ravon ishlashi burovchi momentning notekislik darajasi bilan belgilanadi va u quyidagicha topiladi:

$$K = \frac{M_{\max}}{M_{o'n}};$$

bu yerda  $M_{\max}$  - burovchi momentning maksimal qiymati.  $K$  ning qiymati qancha kichik bo'lsa, dvigatel shuncha tekis (ravon) ishlaydi. Ideal dvigatel uchun  $K=1$ . Uning qiymati silindrler soni va dvigatelning ish rejimiga bog'liq. Bu koeffitsiyent dvigatelning ish rejimi o'zgarishi bilan o'zgaradi, chunki inersiya kuchlari burovchi momentning o'rtacha qiymatiga ta'sir qilmaydi, ammo  $M_{\max}$  va  $M_{\min}$  ga katta ta'sir etadi. Odatda, turli dvigatellar uchun ularning burovchi momentlarining notekislik darajasi bir xil rejimda taqqoslanadi.

### 14.3-jadval

#### *Har xil dvigatellar uchun to'la yuklamada olingan burovchi momentning notekislik darajasi*

Silindrler soni	Silindrлarning joylashishi	K	Silindrler soni	Silindrлarning joylashishi	K
1	vertikal.....	7,74	6	qatorli...	2,28
2	qarama-qarshi yotuvchi	5,52	6	V-simon, $\gamma = 90^\circ$	2,88
3	yulduzsimon.....	2,74	8	qatorli	1,36
4	qatorli.....	3,35	8	V-simon, $\gamma = 90^\circ$	1,36
5	yulduzsimon.....	1,64	12	V-simon	1,16

14.3-jadvalda to'rt taktli karbyuratorli dvigatellarning to'la yuklamada olingan burovchi momentning notekistik darajasi -  $K$  ning qiymatlari keltirilgan.

Tirsakli val tirsagiga ta'sir qiluvchi tangensial kuchlar davriy o'zgarganligi tufayli (shuningdek burovchi moment ham) burchak tezlik  $\omega$  ham sikl davomida davriy o'zgarib turadi. Buning natijasida dvigatelning detallarida qo'shimcha dinamik kuchlanishlar hosil bo'ladi. Tirsakli vallar aylanishining notejislik darajasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\delta = \frac{\omega_{\max} - \omega_{\min}}{\omega_{\text{on}}} ;$$

bu yerda  $\omega_{\max}$ ,  $\omega_{\min}$  va  $\omega_{\text{on}}$  sikl davomida davriy o'zgarib turadigan burchak tezlikning qiymatlari. Bu koefitsiyent hozirgi zamон dvigatellari uchun  $\delta = \frac{1}{30} \dots \frac{1}{50}$  oralig'ida o'zgaradi. Bunga maxovikni to'g'ri tanlash orqali erishiladi.

Dvigatel turg'unlashgan rejimda ishlaganda burovchi va qarshilik momentlarining o'rtacha qiymati o'zaro teng bo'ladi, ya'ni  $M_{\text{on}} = M_R$  (14.16-rasm). Bu holda burchak tezlikning tebranishlari burovchi momentning oniy qiymatlarining  $M_{\text{on}}$  dan farqi bilan belgilanadi. Dvigatelning maxovigi tangensial kuchlar bajargan ish qarshilik (normal) kuchlari ishidan katta bo'lganda (14.16-rasm A B uchastkada) kinetik energiya toplash va tangensial kuchlar ishi kamayganda (BS uchastka) toplashan energiyani qaytarish vazifasini bajaradi. Maxoviklar disk shaklida yasaladi va ularning massasi quyidagi ifoda orqali hisoblanadi.


$$m_M = 4 \frac{\Delta A_{\text{on}}}{\delta \cdot \omega^2 \Delta_{\text{on}}^2} ;$$

bu yerda  $\Delta A_{\text{on}}$  - AB uchastkadagi ortiqcha musbat ish, j;

$D_{\text{on}} = 2 \cdot r_{\text{on}}$  - maxovikning o'rtacha diametri, m. Maxovikning inersiya momenti quyidagi ifoda

$$I_M = m_M \cdot r_{\text{on}}^2 = \\ = \frac{1}{4} m_M \cdot \Delta_{\text{on}}^2 \frac{\Delta A_{\text{on}}}{\delta \cdot \omega^2}$$

orqali hisoblanadi va u dvigatearning minimal salt ishlash rejimidagi turg'unlikni ta'min-laydi.



**14.16-rasm. Dvigatelet turg'unlashgan rejunda ishlaganda burovchi momentning o'zgarish grafigi**

Hisoblashlar shuni ko'rsatadiki, bir xil turdag'i dvigatellar uchun  $\psi$  ning qiymati juda kichik oraliqda o'zgarar ekan. Shuni hisobga olgan holda hozirgi zamон dvigatellari uchun maxovikning inersiya momentini quyidagi ifoda orqali topish maqsadga muvofiqdir:

$$I_M = \psi \frac{M_{en}}{\omega_{nom}^2};$$

bu yerda  $\psi = 200...350$ ;  $M_{en}$  - nominal quvvatga mos burovchi moment.

#### **14.6. TIRSAKLI VALNING BURAMA TEBRANISHLARI**

Shatun bo'yinlariga tangensial kuchlar (yoki momentlar), tirsak bo'ylab esa normal kuchlar ( $K_z$ ) ta'sir qilishi natijasida tirsakli valning har bir tirsagida uzlusiz o'zgaruvchi davriy buralish va egilish tebranishlari hosil bo'ladi.


Ichki yonuv dvigatellari uchun burama tebranishlar xavfli hisoblanadi. Bu tebranishlar faqat krivoship-shatunli mexanizm detallari uchun xavfli bo'lib qolmasdan, balki tirsakli val bilan bog'lanishda bo'lgan barcha

Ko'pgina

hollarda o'lchamsiz moment inersiyasi  $\psi$  ishlatiladi va uning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$\psi = \frac{J_M \cdot \omega_{nom}^2}{M_{en}}.$$

mexanizmlar uchun ham xavflidir. Eguvchi tebranishlar amplitudasi nisbatan kichik bo'lgani uchun hisoblashlarda e'tiborga olinmaydi. Odatda, barcha loyihalanayotgan dvigatellar burama tebranishlarga hisoblanadi va ularning tirsakli vallariga so'ndirgich o'rnatiladi (14.17-rasm). Har bir dvigatel uchun rezonansli aylanishlar chastotasi mavjud bo'lib, bu rejimda ishlash man qilinadi, chunki bu holda quyidagilar kuzatiladi:



**4.17-rasm. Burama tebranishni so'ndirgich**

maxsus moslamalar (so'ndirgichlar yoki dempfer) o'matib, dvigatelning ishlash tartibini to'g'ri tanlab, burovchi momentlarning ishini o'zgartirib, dvigatel tirsakli valining konstruksiyasini o'zgartirib yo'qotiladi.

Ko'pgina hollarda birinchi usulni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tebranishni so'ndirgichlar uch guruhga bo'linadi:

- uyg'otuvchi moment hosil qiladigan energiyani yutuvchi tuzilmalar; bu holda tebranishlar amplitudasi kamayadi;

- uyg'otuvchi momentni muvozanatlovchi moslamalar;

- tizimning bikrligini qisman o'zgartirishga yoki uyg'otuvchi momentni muvozanatlashga yoki hosil bo'lgan energiyani yutishga asoslanib ishlaydigan moslamalar.

Dvigatel ishlayotganda taqillash ovozi kuchayadi; fundamentning titrashi zo'rayadi (agar sinash stendda olib borilayotgan bo'lsa); avtomobilning kuzovi ham sezilarli titraydi. Bundan qutulish uchun tirsakli valning aylanishlar chastotasini oshirish yoki kamaytirish lozim.

Bu tebranishlar tirsakli valga

Bularga rezinali va ressora-prujinali dinamik so‘ndirgichlar kiradi.

Rezinali so‘ndirgichlar asosan avtomobil dvigatellarida burama tebranishlarni so‘ndirish uchun ishlataladi. So‘ndirgich - massa 1, kojux 3 va rezina disk 2 dan iborat bo‘lib, tirsakli valning old qismiga o‘matiladi. Rezina disk tirsakli val aylanganda, bir vaqtning o‘zida uyg‘otuvchi moment hosil qiladigan energiyani yutuvchi element va siltanuvchi massani tizimga biriktiruvchi prujina vazifasini bajaradi.

## XV BOB. DVIGATELNING ASOSIY KONSTRUKTIV PARAMETRLARINI TANLASH

Dvigatelning konstruktiv sxemasi undagi ish siklini tashkil qilishga va unga qo'yiladigan talab - vazifaga muvofiq tanlanadi. Dvigatelga qo'yilgan talabga muvofiq, uning effektiv quvvati, taktlari soni, silindrлari soni, tirsakli valning aylanishlari chastotasi ma'lum bo'ladi. Dvigatelni issiqlikka hisoblash yo'li bilan uning o'rtacha effektiv bosimi  $P_e$  aniqlanadi va silindrning ish hajmini topishga imkoniyat tug'iladi:

$$V_h = \frac{N_c \cdot 30 \cdot \tau}{P_e \cdot i \cdot n},$$

bu esa o'z navbatida silindr diametri  $D$  va porshen yo'li  $S$  ni topishga imkoniyat beradi. Buning uchun albatta  $S/D$  nisbat ma'lum bo'lishi zarur.

### 15.1. DVIGATEL TURINI, SILINDRLARI SONI VA JOYLANISHINI TANLASH

Avtomobil, traktor, qishloq xo'jalik va yo'l qurish mashinalariga, ularning vazifasiga qarab, karbyuratorli dvigatellar, gaz bilan ishlaydigan dvigatellar yoki dizel dvigatellari o'matiladi. Dvigatelning turini tanlashda uning ish sharoitini, vazifasini, tavsiflarini va ekspluatatsion ko'rsatkichlarini hisobga olish zarur. Zamonaviy yengil avtomobilarga hamda yuk avtomobillariga (7 tonnagacha) asosan karbyuratorli dvigatellar o'matiladi. Lekin keyingi davrda yuk avtomobillari ko'pchilik hollarda dizel dvigatellari bilan jihozlanyapti. Demak, qolgan barcha turdagи mashinalar dizel dvigatellari bilan harakatga keltiriladi. Bunga asosiy sabab ularning kam yonilg'i sarflashi, ishlatadigan yonilg'isining arzonligi hamda ishslash muddatining kattaligidir.

Avtomobilgarga o'matiladigan ichki yonuv dvigatellarining asosiy ko'rsatkichlari 15.1-jadvalda keltirilgan.

### 15.1-jadval

Ko'rsatkichlar	Karbyuratorli dvigatellar		Dizellar
	yengil avtomobillar	yuk avtomobillar	
Tirsakli valning aylanishlar chastotasi, $\text{min}^{-1}$ .....	3800 – 6000	2800 - 4200	1700 - 4400
Siqish darajasi ... $\varepsilon$ .....	6,6 – 9,5	6,2 - 7,8	15 - 18
O'rtacha effektiv bosim $P_e, \text{ MPa}$ .....	0,8 - 1,0	0,7 - 0,88	0,63 - 0,8
Litrli quvvat $N_1, kVt/L$ .....	20 – 39	13 - 27	10 - 17
Dvigatelning solishtirma massasi, $\text{kg}/kVt$ .....	1,0 – 1,9	1,5 - 3,1	2,9 - 5,0

Silindrlar soni -  $i$  ning ortishi (yuqorida ko'rib o'tganimizdek) dvigatehning muvozanatlanshi va ravon ishlashini yaxshilaydi. Agar dvigateining quvvati o'zgarmas ( $N_e = \text{const}$ ) saqlanib qolsa, silindrlar sonining oshishi uning diametrini kichiklashtiradi. Bu holda karbyuratorli dvigatellarning siqish darajasi ortadi va dvigateining tejamliligi yaxshilanadi. Natijada krivoship-shatunli mexanizmning massasini kamaytirishga va tirsakli valning aylanishlar sonini oshirishga imkoniyat yaratiladi, chunki  $P_j$  kamayadi. Demak, dvigateining litrli quvvati ortadi, solishtirma massasi esa kamayadi. Ammo dvigatejni tayyorlash qimmatlashadi, ta'miri esa qiyinlashadi.

Silindrlarning soni va joylashishini shunday tanlash kerakki, bunda dvigateining solishtirma massasi munkin qadar kam, silindrlar bloki va blokning tirsakli val o'rnatiladigan qismi yetarli darajada (bikr) mustahkam bo'lsin. Bu dvigateining puxta ishlashini ta'minlaydi.

Silindrlar soni va joylashuvi sovitish usuliga; dvigateining loyihada ko'rsatilgan (tashqi) o'lchamlariga; dvigatel qismalarining materialiga; zavod imkoniyatlariga (detallarni quyib tayyorlash va mexanik ishslash); dvigatelga xizmat ko'rsatishni osonlashtirish kabi omillarga bog'liq. Qatorli va  $V$ -simon dvigatellar o'zaro solishtirilganda ( $N_e$ ,  $n$ ,  $i$ ,  $V_h$  lar bir

xil) V- simon dvigatelning afzalliklari yaqqol ko'zga tashlanadi, chunki uning uzunligi 20%; massasi esa 25% ga kam bo'ladi. Odatda, barcha motor zavodlarida dvigatellarning turkumi yaratiladi. Masalan, 4, 6, 8, 12 silindrli dvigatellar. Ular faqat quvvatlari bilan farqlanadi. Natijada asosiy mexanizm va tizimlarning detallarini ko'proq bir xillashtirishga imkoniyat tug'iladi.

## 15.2. KONSTRUKTIV PARAMETRLAR

$$\left( S/D \text{ sa } \lambda = \frac{R}{L_{sh}} \right) \text{NI TANLASH}$$

Ichki yonuv dvigatellarining rivojlanishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki,  $S/D$  nisbat davr o'tishi bilan kichrayit borgan va hozirda taxminan 0,75-1,2 ga tengdir.

Porshen yo'li  $S$  ning silindr diametri  $D$  ga nisbatli dvigatelning asosiy parametrlaridan biri hisoblanadi. Dvigatelning gabarit o'lchamlari va massasi ana shu parametrga bog'liqdir. Bu parametr porshen tezligiga dvigatel tirsakli vali aylanishlar soni orqali uning quvvatiga bevosita ta'sir etadi.

$S/D$  nisbatlar har xil ( $n = const$ ) bo'lgan dvigatellarning afzallik va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

1.  $S/D > 1$  bo'lsa:

- dvigatelning massasi va balandligi ortadi;
- tirsakli valning mustahkamligi kamayadi;
- burama tebranishlarning kuchayishi kuzatiladi;
- porshen yo'li kattalashadi, tezligi ortadi;
- detallarning inersiyali yuklamasi ortadi;
- silindrlni to'ldirish koeffitsiyenti pasayadi;
- ishqalanish ortadi.

2.  $S/D \leq 1$  bo'lsa, yuqorida sanab o'tilgan kamchiliklardan holi bo'linadi va undan tashqari quyidagi afzalliklar kuzatiladi:

- aylanishlar sonini oshirib ( $V_h = const$ ) dvigatelning quvvati orttiriladi;
- silindrning hajmi o'zgarmagan ( $V_h = const$ ) holda, silindrлами to'ldirish koeffitsiyenti yaxshilanadi, chunki kallakka katta diametrali klapanlarni o'rnatish mumkin bo'ladi;
- sovituvchi muhitga issiqlik kam sarflanadi;
- dvigatelning balandligi kichik, tirsakli vali esa bikr bo'ladi va hokazo.

S/D nisbatning kichik qiymatlari  $V$ -simon dvigatellarda, aylanishlar soni katta dvigatellarda qo'llanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, KamAZ-740 ga o'rnatilgan  $V$ -simon dvigatelda S/D=1,0; tezyurar VAZ-2101 da S/D=1,0; D-144 da esa ( $n = 2000 \text{ min}^{-1}$ ) - 1,14 ga tengdir.

Shuni aytish lozimki, S/D kamayishi bilan ( $V_h = const$ ) dvigatelning uzunligi va massasi ortadi. Natijada p.ch.n.da posangilar bilan porshen oralig'idagi masofa kichiklashadi.

Shatun uzunligi  $L_{sh}$  quyidagi nisbat  $L_{sh} = \frac{R}{\lambda}$  orqali hisoblanadi va hozirgi zamon dvigatellari uchun  $\lambda$  quyidagicha (15.2-jadval) o'zgaradi.

*15.2-jadval*

Dvigatel markasi (avtomobil)	$\lambda$ ning qiymati	Dvigatel markasi (traktor)	$\lambda$ ning qiymati
MeMZ-965	0,237	D-37E, D-144	0,279
MZMA-412	0,265	SMD-14, SMD-60	0,280
VAZ-2106	0,295	SMD-62	0,274
ZIL-130, ZIL-131 ZIL-357	0,257	D-240	0,272
ZMZ-66	0,295	A-41, A-01M	0,264
YAMZ-236, YAMZ-238	0,264		
YAMZ-240			
YAMZ-740, YAMZ-743	0,267		

15.2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, zamonaviy avtomobil va traktor dvigatellarida  $\lambda$  ning qiymati 0,237-0,295 oralig'ida bo'lar ekan.

Dvigatellarni loyihalashda shuni e'tiborga olish kerakki, shatun sterjenlari silindrilar o'qidan maksimal og'ganda va shatunlarning pastki kallagi yu.ch.n. yaqinida aylanganda, silindrilar devoriga tegmasligi shart. Aks holda shatunlar uzunroq tanlanadi yoki ular uchun silindrarda kesiklar yasaladi.

## XVI BOB. BLOKLAR, KARTERLAR, SILINDRLAR KALLAGI

Suyuqlik bilan sovitiladigan qatorli va *V*-simon dvigatellarning silindrlari va karterining yuqori qismi yaxlit qilib quyiladi. Odatda, u blok-karter deb ataladi. Havo bilan sovitiladigan dvigatellarda esa silindr va kallaklar alohida-alohida quyiladi. Silindrlar karterga shpilkalar yordamida qotiriladi.

Dvigatelning shakli silindrlarning soni va joylashishiga, sovitish usuliga, gaz taqsimlash mexanizmining va moy poddonining konstruksiyasiga bog'liq. Shuni aytish lozimki, keyingi paytlarda suyuqlik bilan sovitiladigan dvigatellarda ham silindrlar kallagi alohida-alohida holda yasalyapti (KamAZ-740; VT-90K). Bu esa ekspluatatsiya sharoitlarida anchagina qulayliklarni tug'diradi.

### 16.1. BLOK-KARTER

1. Konstruksiyasi. Blok-karterga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

- yasashga, ya'ni quyishga qulay bo'lishi;
- yetarli darajada mustahkam va bikr bo'lishi;
- issiqlikni yaxshi uzatishi;
- ichiga o'rnatilgan mexanizmlarni rostlash va almashtirish oson bo'lishi;
- massasi va gabarit o'lchamlari kichik bo'lishi lozim.

Ushbu talablarni qondirish uchun silindrlar va blok-karterning yuqori qismi yaxlit qilib quyiladi.

Odatda, blok-karterning mustahkamligini oshirish uchun quyidagi usullardan foydalaniлади:

1. Karterda to'siqlar yasaladi, tashqi devorlari qovurg'ali qilib tayyorlanadi, moy kanallari teshiladigan joylari qalinroq qilib yasaladi;

2. Karterning tekisligi tirsakli valning o'qiga nisbatan pastroqda joy lashtiriladi (ZIL-130 dvigateli);

3. To'la tayanchli tirsakli vallar ishlatiladi (GAZ-24);

4. Karter tunnel tipida yasaladi (DB-67 dvigateli) - bu holda tirsakli val ajraladigan qilib tayyorlanadi, tub podshipniklar sifatida sharikli yoki rolikli podshipniklar ishlatiladi.

Blok-karterning bikrliги silindrлarning gilzalari hamda kallagida, tub podshipniklarda va poddon bilan burilish tekisliklarida deformatsiyaning kam bo'lishini ta'minlaydi.

Hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan qatorli dvigatellar massasining 23-37% ini blok-karter tashkil etadi. V-simon dvigatellarda bu ko'rsatkich bir oz yaxshi (22-25%). Blok karterning massasini kamaytirish maqsadida uning devorlari va to'siqlari yupqa qilib yasaladi (3-5 mm).

Dvigatelni sovitish usuli blok-karterning massasiga ta'sir ko'rsatadi. Suyuqlik bilan sovitiladigan blok-karterlar nisbatan katta massaga ega, chunki ular suyuqlik oqishi uchun qo'sh devorli qilib yasaladi. Bu bo'shiq suyuqlik g'ilofi bo'lib, u silindrлarni qizib ketishdan saqlaydi.

Odatda, silindrлar blokinining notejis qizishini kamaytirish maqsadida suyuqlik g'ilofga ayrim-ayrim beriladi. Buning uchun g'ilofga maxsus yassi quvur o'rnatiladi. Sovituvchi suyuqlik g'ilofga va quvurga nasos yordamida alohida-alohida beriladi. Silindrлar kallagi har bir silindr bilan bog'langanligi uchun suyuqlikning tekis aylanib oqishi ta'minlanadi.

Dvigatelning massasini kamaytirish maqsadida silindrning suv g'ilofi porshenning pastki chekka nuqtadagi holatida tugatiladi. Ayrim hollarda suv g'ilofi kartergacha boradi. Bu esa blokning mustahkamligini oshiradi, moy sovitishni yaxshilaydi.

Silindrlarning barcha sirtini suyuqlik bilan sovitish maqsadga muvofiq bo'lib, uning deformatsiyasini kamaytiradi va bir tekis yeyilishini ta'minlaydi.

Havo bilan sovitiladigan dvigatellarning silindrlari alohida-alohida quyiladi va ular karterga shpilkalar yordamida qotiriladi. Ular ikki usulda mahkamlanadi:

1) silindrlar uzun shpilkani ham kallak, ham silindr orqali o'tkazib karterga qotiriladi (siqilgan silindrlar, ularda yuklanish shpilkalarga tushadi);

2) silindrlar karterga shpilkalar orqali qotiriladi (yuklanish silindrga tushadi), kallaklar esa silindrlarga boltlar yordamida mahkamlanadi. Bunday dvigatellarning silindrlari asosan cho'yandan (*D-37E, D-144* dvigatellari) yoki alyuminiydan (*ZAZ-698* dvigateli) qovurg'ali qilib yasaladi.

Silindrlar alyuminiydan yasalganda ichki sirti qattiq, g'ovak xrom bilan qoplanadi.

Sovituvchi yuzalar maydoni qovurg'arning balandligi va qalinligiga bog'liq bo'ladi va ular tajriba yo'li bilan tanlanadi. Sovitish tizimi dvigatelning barcha ish rejimlarida detallarning harorati maqbul bo'lishini ta'minlab turishi lozim.

**Materiallar.** Blok-karterlar odatda СЧ 24-44, СЧ 21-40, СЧ 15-32, СЧ 32-52 markali kulrang cho'yanlardan legirlovchi elementlar (xrom, nikel, marganets va boshqalar) qo'shib yasaladi. Legirlovchi elementlar materialning mexanik xossalarini yaxshilaydi. Ayrim hollarda blok-

*-Darslikda materiallar markasi o'zgartirilmadi*  
karterlar alyuminiy qotishmalari (ACЛЧ; С-326) dan yasaladi. Bu holda uning massasi cho'yanga qaraganda 4 marta yengillashadi. Dvigatelning umumiyligi massasi esa 60% ga kamayadi.

Blok-karterlarga quyidagi texnologik talablar qo'yiladi:

- qattiqligi HB 170-240 oralig'ida bo'lishi;

- egilishdagi mustahkamlik chegarasi  $360 \text{ Mn/m}^2$  dan kam bo'lmasligi;
- bo'shliqlar va yoriqlar bo'lmasligi;
- qoldiq kuchlanishlar bo'lmasligi;
- ularni korroziyadan saqlash mumkin bo'lishi kerak.

**Konstruktiv o'chamlar.** Silindrning ichki sirti ko'zgu deb ataladi va u ma'lum darajada mustahkam va tekis-silliq qilib ishlangan bo'lishi shart. Uning uzunligi porshen yo'li  $S$  va balandligi  $H$  ga bog'liq bo'lib, odatda  $S/H$  dan kichikroq bo'ladi. Porshen yubkasi (p.ch.n.da) silindr dan (10-15 mm) chiqib turishi mumkin. Eng pastki halqa (dizellarda) esa silindr asosidan 2-3 mm yuqorida qolishi kerak. Posangilar aylanganda gilzalarga tegmasligi shart. Silindr devorining qalinligi  $\delta$  mustahkamlik shartini hisobga olgan holda quyidagicha tanlanadi:

- karbyuratorli dvigatellar uchun -  $\delta = (0,04 \div 0,05) D_s$ ;
- dizellar uchun  $\delta = (0,065 \div 0,075) D_s$ .

Shuni aytish lozimki, kerakli mustahkamlikka ega bo'lgan quyma olish uchun silindr devorining qalinligi 4 mm dan kam bo'lmasligi kerak. Cho'yandan ishlanadigan blok-karterlar uchun suv g'ilofi devorlari va blok to'siqlarning qalinligi  $4 \div 8$  mm oralig'ida; alyuminiy blok-karterlar uchun esa  $4 \div 10$  mm oralig'ida tanlanadi. Yondosh silindrler orasidagi bo'shliq (suv o'tishi uchun)  $4 \div 5$  mm oralig'ida tanlanadi. Konstruktiv-parametrlardan asosiysi yondosh silindrler orasidagi  $L_0$  masofadir.  $L_0$  ning  $D_s$  ga nisbati ( $L_0/D_s$ ) dvigatearning ixchamligini xarakterlaydi. Turli dvigatellar uchun bu nisbat 16.1-jadvalda keltirilgan.

Kallak mahkamlanadigan tayanch devorning qalinligi kamida 8-14 mm bo'lishi kerak, aks holda shpilkalar tortilganda katta deformatsiya kuchlari paydo bo'lishi mumkin. Shpilkalar uchun maxsus qavariqlar qilinadi. Karter yuqori qismining kengligi tirsakli val aylanganda shatun pastki kallagi eng chekka nuqtasining trayektoriyasi

bilan aniqlanadi. Karterning ichki devori bilan bu nuqta orasidagi masofa 10-15 mm bo'lishi kerak.

### 16.1-jadval

#### *Turli dvigatellar uchun L/D<sub>s</sub> nisbatining qiymatlari*

Dvigatel konstruksiyasi	Karbyuratorli dvigatel	Dizel
Bir qatorli, quruq gilzali, tub sirpanish podshipniklari ikki silindr dan keyin joylashgan (ikki proletli val o'rnatilgan) dvigatel .....	1,20-1,24	-
Bir qatorli, bir proletli tirsakli val o'rnatilgan, sirpanish podshipnikli dvigatel .....	1,20-1,28	1,25-1,30
V-simon, shatunli val bo'ynda ketma-ket joylashgan va sirpanish podshipniklari bilan jihozlangan dvigatel	1,33	1,47-1,55
Tub tayanchlar sifatida rolikli podshipniklar o'rnatilgan dvigatel .....	1,30	1,30
Havo bilan sovitiladigan dvigatellar .....	1,15-1,36	-

Havo bilan sovitiladigan dvigatellarda silindrlar mahkamlanadigan karterdagi tayanch devorning qalnligi (0,05-0,06)  $D_s$  ni tashkil etadi. Sovitish tizimidagi qovurg'alarining ko'ndalang kesimi uchburchak yoki trapetsiya shaklida yasaladi, balandligi 14-18 mm oralig'ida bo'ladi.

### 16.2. GILZALAR

Gilzalarga quyidagi talablar qo'yiladi:


- devorlari gazlar kuchiga bardosh bera o'tadigan darajada mustahkam;
- ko'zgusi yeyilishga chidamli;
- antifriksion va korroziyaga bardoshlilik xususiyatiga ega;
- yaxshi zichlanish va o'q bo'ylab erkin kengayish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

1. Konstruksiysi. Gilzalar ikki turga bo'linadi: ho'l va quruq. Karbyuratorli dvigatellarning ayrimlarida

(Moskvich, Jiguli avtomobillarining dvigatellari) gilza blok-karterning o'zida yasaladi. Suyuqlik bilan sovitiladigan dizellarda va ba'zi karbyuratorli dvigatellarda ho'l gilzalar qo'llaniladi. Silindrlar blokining bikriliq ularga o'matiladigan gilzalarning turiga va qanday o'matilishiga bog'liq.

Sovituvchi suyuqlik bilan bevosita yuvilib turadigan gil'zalar ho'l, tashqi sirti silindrning ichki devorlariga tegib turadigan yupqa (2-4 mm) gilzalar esa quruq gilzalar deyiladi.


Quruq gilzalar silindrning butun uzunligi bo'ylab (16.1-rasm, a) yoki uning faqat yuqori qismiga (16.1-rasm, b), ya'ni eng tez yeyiladigan qismiga o'matiladi. Kiygiziladigan quruq gilzalar ishlatalganda kam miqdorda legirlangan material ishlatisib, arzon hamda yeyilishga chidamli sirtlar hosil qilish mumkin. Quruq gilzalarning ko'zgusi ular silindrغا presslab kirdgizilgandan so'ng ishlanadi. Bu esa ekspluatatsiya sharoitlarida bir oz qiyinchilikni vujudga keltiradi.



*16.1-rasm. Quruq gilzalar:*  
*a-silindrning butun uzunligi bo'ylab;*  
*b-silindrning yuqori qismiga o'matilgan*

Ho'l gilzalar (16.2-rasm) yeyilib ketganida yoki ishdan chiqqanida ekspluatatsiya sharoitlarida dvigateli shassidan yechmasdan turib almashtrish mumkin. Ular katta quvvatli dvigatellarda ko'proq ishlataladi. Ho'l gilzali blok-

karterlarning bikrligi nisbatan kamroq bo'ladi. Bunday gilzalarning bikrligini oshirish uchun ba'zan tashqi sirtlari qovurg'ali qilib yasaladi.




*16.2-rasm. Ho'l gilzalar. Tayanch yuzalari yuqorida (a), o'rtaida (b) va pastda (v) joylashgan*

Ho'l gilzalar issiqlikni yaxshi o'tkazadi va yaxshi soviydi. Gilza kamroq deformatsiyalanishi uchun uning ikkita (yuqorida va pastda) yo'naltiruvchi belbog'lari bo'ladi. Pastki belbog'i yuqorigi belbog'idan bir oz kichikroq diametr bilan yasaladi. Gilzaning tayanch yuzalari blokning halqasimon chiqqlarida joylashadi. Bu yuzalar blokning yuqori qismidagi, o'rta yoki pastki qismidagi chiqqlarda ham joylashishi mumkin.

Tayanch yuza gilzaning o'rta qismida joylashganda uning yuqori qismi yaxshi soviydi, porshen halqalarining harorati pasayadi, ya'ni «porshen-gilza» guruhining ish sharoiti yaxshilanadi. Gilza-ning yuqori qismi kallakdag'i doira halqa *I* yordamida zichlanadi. Shpilkalar qotirladigan tayanch chiqqlar har xil shakkarda bo'llishi mumkin (16.3-rasm).

**2. Materiallar.** Gilzalar odatda СЧ 28-48 va СЧ 35-36 markali legirlangan cho'yandan, ba'zan esa 38ХМЮА markali po'latdan yasaladi.



**16.3-rasm. Shpilkalar qotiriladigan tayanch chiqiqlarning turlari**

Afsuski, bu usul qimmatga tushganligi uchun avtomobil va traktor dvigatellarida (ko‘zguni xromlash) qo‘llanilmaydi. Masalan, D-12 dvigateliga po‘lat gilzalar o‘matilgan bo‘lib, ularning ko‘zgusini azotlab, yeyilishga chidamli qilinadi. Chunki azotlangan qatlam ishqalanishga yaxshi chidaydi va yuqori haroratda korroziyabardosh bo‘ladi. Ayrim hollarda ko‘zgu xrom bilan  $0,05\div0,08$  mm qalinlikda qoplanadi. Dvigatel changsiz sharoitda ishlaganida, silindr ko‘zgusining qattiqligi kam bo‘lsa (HB- $140\div160$ ), halqaning qattiqligi esa HB  $230\div260$  oraliqda bo‘ladi, natijada silindr ko‘proq yeyiladi. Yeyilishni kamaytirish maqsadida ko‘zguning qattiqligi HB  $220\div250$  oralig‘ida olinadi.

Ma’lumki, O’rta Osiyo regioni ham issiq, ham changli zonaga kiradi. Bu esa silindr ko‘zgusi va halqalaming qattiqligini juda ham oshirishni talab etadi. Aks holda porshen komplektini tez-tez almashtirib turish lozim. Shuni ta’kidlash lozimki, chang zarralari asosan kvars elementidan tashkil topgani uchun uning qattiqligi HB  $1100\div1200$  atrofida bo‘ladi. Shu sababli, xattoki, xrom qatlam ham yeyilib ketadi. Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki,

Silindr - porshen guruhining tez yeyilishida silindr ko‘zgusi va porshen halqalarining qattiqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni aytish lozimki, bu sirtlarning yuzalari xromlangan taqdirda ular chidamli bo‘ladi va ko‘p muddat ishlaydi (hatto changli sharoitda ham).

halqalarning xrom qatlami yeyilgandan so‘ng ularning yeyilish tezligi 3-4 marta ortib ketar ekan. Shuning uchun xrom qatlami qancha qalin bo‘lsa, halqalar shuncha chidamli bo‘ladi. Gilza va porshen halqalarining yeyilishini kamaytirish maqsadida ularning yuzalari silliq ( $0,35 \div 0,45$  mkm) qilib ishlanadi.

Gilzalarning ishlash muddati quyidagi usullar bilan oshiriladi:

1. Havo, moy va yonilg‘ini maxsus qog‘oz tozalagichlar yordamida mayin tozalash (3 mkm);

2. Traktor dvigatellari uchun havoni ikki-uch pog‘onali tozalash usulini qo‘llash hamda uni chang kam zonadan dvigatelga kiritish;

Sovitish tizimiga termostat o‘rnatish (aks holda gilzalar tez yeyiladi);

Suv g‘ilofida hosil bo‘ladigan qurumlarni vaqtı-vaqtı bilan tozalab turish;


Moy haroratini maqbul ushlab turish va moylash tizimini ifoslardan tozalash.

**3. Konstruktiv o‘lchamlar.** Quruq gilzalarning devorlari qalinligi odatda 3-5 mm, ho‘l gilzalarmiki esa ( $0,06 \div 0,01$ )  $D_s$  oralig‘ida tanlanadi. Ekspluatatsiya sharoitlarida dvigatellarni ta‘mir qilishga to‘g‘ri keladi. Bu holda yeyilgan gilzalar I, II- ta‘mir o‘lchamlarida qayta ishlanadi va ularga mos porshen kompleksi qo‘yiladi.


### 16.3. TUB PODSHIPNIKLAR

Ichki yonuv dvigatellarida tub podshipniklar asosiy yuk lamani qabul qiladi va ularning puxtaligini, ishslash muddatini belgilaydigan asosiy detallardan hisoblanadi. Ular blok-karterning oldingi va keyingi devorlarining hamda ichki qovurg‘alarning pastki qismida joylashadi (16.4-rasm). Tub podshipniklar sifatida ko‘pincha sirpanish podshipniklari ishlatiladi. Ular ikki bo‘lakdan iborat bo‘lib, qopqoqli qilib yasaladi. Bunday podshipniklar o‘ta bikr, vazmin va

qovurg'ali bo'ladi. Ular karterga boltlar yoki shpilkalar yordamida qotiriladi. Qopqoqlarni to'g'ri o'matish va qotirish lozim. Bu maqsadda boltlar, vtulkalar aniq qilib ishlanadi hamda yo'naltiruvchi shtiftlar qo'yiladi. Ko'pgina hollarda (traktor dvigatellarida) tirsakli val tub podshipnigining ajralish tekisligi val o'qidan pastda joylashtiriladi. Bu esa podshipniklarga tushayotgan yuklamani kamaytiradi. Bu holda qopqoqning yon yuzalari blok karterning yuzalariga aniq moslanib, ma'lum vaziyatda mahkamlanadi. Bolt yoki shpilkak rezbasining uzunligi  $l_r$ , karter materialini hisobga olgan holda tanlanadi. Cho'yan karterlar uchun  $l_r = (1,5 \div 2,0) d_r$ , alyuminiy karterlar uchun esa  $l_r = (2,0 \div 2,5) d_r$  ( $d_r$  - bolt rezbasining diametri). Bolt yoki shpilkalar mumkin qadar tirsakli valga yaqin joylashtirilishi kerak, chunki bu gazlarning bosim kuchidan hosil bo'ladigan eguvchi momentni kamaytiradi.



16.4-rasm. Tub podshipnik va uni qotirish usuli



16.5-rasm. V-simon dizel dvigatellarda tub podshipnikni qo'shimcha qotirish usuli

Tub podshipniklarning mustahkamligini oshirish maqsadida V-simon dizel dvigatellarida qopqoqlar gorizontal boltlar (16.5-rasm) yordamida qo'shimcha ravishda mahkamlanadi.


Tub podshipniklar bosim ostida moylanadi. Buning uchun karterning yuqori qismida tirsakli val o'qi bo'ylab

$10 \div 14$  mm li maxsus magistral moy kanali parmalab teshilgan bo'ladi.


Qopqoqni karterga o'rnatishdan hosil bo'lgan uyaga ichqo'ymalar o'matiladi. Ular ma'lum darajadagi taranglik bilan qotiriladi. Masalan, ichqo'ymaning tashqi diametri  $60-110$  mm bo'lganda taranglik  $0,006 \div 0,08$  mm oralig'iida bo'lishi lozim. Ichqo'ymalar ikki bo'lakdan iborat bo'lib, konstruksiyasi bo'yicha yupqa devorli ( $1,5 \div 3$  mm) va qalin devorli ( $4 \div 6$  mm) bo'ladi.

Ichki yonuv dvigatellari tub podshipniklarining ichqo'ymalari asosan kam uglerodli po'latdan tayyorlanadi.

Antifriksion material sifatida karbyuratorli dvigatellarda babbittlar (Б-83, Б-89) yoki maxsus antifriksion qotishma (COC-6-6) ishlataladi. Dizellarda esa antifriksion qatlam sifatida bronza ishlataladi. Uning qalinligi  $0,3-0,7$  mm bo'ladi. Ichqo'yma asosining qalinligi ( $0,04-0,05$ )  $d_{tb}$  ( $d_{tb}$ -tirsakli valning tub bo'yini diametri). Karbyuratorli dvigatellarda ichqo'ymaning qalinligi ( $0,03-0,04$ )  $d_{tb}$ , antifriksion materialning qalinligi esa  $0,2-0,5$  mm atrofida bo'ladi.



*16.6-rasm. Tub podshipniklar  
ichqo'ymalari va ularni  
mahkamlash usullari:*  
*a-shtift; b-chiqiqilar yordamida*



*16.7-rasm. Tayanch-tirkak  
podshipniklar*

COC-6-6 qotishmasi (6% surma, 6% rux, qolgani - qo'rg'oshin) babbittga qaraganda yaxshi antifriksion

xususiyatlarga ega. Masalan, unda abraziv zarralar yutiladi, ya’ni botib qoladi va xususiyatini yo‘qotadi. Shu sababli val bo‘ynining yeyilishi 15-20%ga kamayadi. 16.6-rasmida tub podshipniklar ichqo‘ymalarining tuzilishi tasvirlangan. Ichqo‘ymalar o‘q bo‘ylab siljimasligi uchun chiqiqlar A qilinadi yoki stopor vintlar I ishlataladi. Tirsakli valning tayanch-tirgak podshipniklari yelkali qilib (antifriksion qoplamlalii) yasaladi (16.7-rasm).

#### 16.4. SILINDRLAR KALLAGI

**1. Konstruksiysi.** Siliindrler kallagi asosan barcha siliindrler qatori uchun yaxlit qilib yasaladi. Havo bilan sovitiladigan dvigatellarga esa siliindr kallagi har bir siliindr uchun alohida qo‘yiladi. Shuni aytish lozimki, keyingi paytda ayrim zamонавиу dizellarda ham (masalan, KamAZ-740 dvigateli va boshqalar) kallaklar alohida-alohida yasalyapti. Bu holda dvigatelga texnik xizmat ko‘rsatish keskin osonlashadi va ekspluatatsiya arzonga tushadi. Kallaklarni har bir siliindr uchun alohida yasash talaygina afzallik larga olib keladi:

- quyish osonlashadi va quymaning sifati yaxshilanadi;
- dvigatelning porshen guruhi ishdan chiqqanini tekshirish va almashtirish osonlashadi;
- klapanlar ishdan chiqqanda ularni almashtirish va sozlash osonlashadi.

Siliindrler kallagi murakkab shaklga ega bo‘lib, uning tuzilishi (dizellarda) kiritish va chiqarish kanallarining va klapanlarining soniga, joylashuviga, sovitish tizimiga va forsunkalarning joylashuviga bog‘liq. Ajratilgan kamerali dizellarda esa kameraning shakliga ham bog‘liq bo‘ladi.

Karbyuratorli dvigatellarning kallagida yonish kamerasi va yondirish chaqmog‘i o‘matilganligi uchun ularning tuzilishi bir oz murakkabroq bo‘ladi.

Kallaklar yetarli darajada bikr va mustahkam bo‘lishi, konstruksiysi oddiy, uni tayyorlash arzon bo‘lishi hamda


un ga klapanli mexanizmni, chaqmoq va forsunkalarni o'rnatish qulay bo'lishi kerak. Kiritish va chiqarish kanallarining o'tish kesimlari havoni ravon o'tkazishi, uzunligi bo'yicha keskin o'zgarmasligi kerak. Sovitish kanallari shunday tanlanishi lozimki, ular kallakni tekis sovitsinlar. Buning uchun suyuqlik keltiriladigan teshiklar kuchli qiziydigan zonalarga va shpilkalarga yaqin joylashtiriladi. Suyuqliknini chiqaruvchi teshiklar kallakning yuqori qismida joylashishi kerak (ana shunda bug' to'planib qolnaydi).

Havo bilan sovitiladigan dvigatellar kallagi qovurg'ali qili b yasaladi. Havo oqimi ventilyator orqali kerakli tomonga yo'naltiriladi.


Kallaklarda chaqmoqlarning joylashishi alohida ahamiyat kasb etadi. Ular kallak va silindr devorlarining eng kuchli qiziydigan zonalariga joylashtiriladi. Buning uchun maxsus o'rindiqlar yasaladi, chaqmoqlar rezbasining diometri 14 va 18 mm bo'ladi. Yengil avtomobilarning dvigatelia M 14×1,5 rezbali chaqmoqlar o'rnataladi. Odatda (chaqmoqlar qizib ketmasligi uchun), chaqmoqlar o'rnataladigan o'rindiq har tomondan sovituvchi suyuqlik bila n yuvilib turadigan qilib yasaladi. Bu esa chaqmoqni termik zo'riqishlardan saqlaydi.

Issiqlik yonish kamerasidan kamroq yo'qolishi uchun  $S_{yo.k} / V_{yo.k}$  nisbat iloji boricha kichik bo'lishi kerak. ( $S_{yo.k}$  - yonish kamerasining yuzi,  $V_{yo.k}$  - hajmi). Bu holda yonish kamerasi ixcham bo'ladi. Klapanlari yuqorida joylashgan dvigatellar uchun  $S_{yo.k} / V_{yo.k}$  - nisbat 1,05-1,65; klapanlari blokda joylashganida esa 2,15÷2,4 oralig'ida o'zgaradi.

Yonish kamerasi ixcham bo'lsa, yonish jarayoni tez rivojlanadi, issiqlik kamroq yo'qotiladi va detonatsiyali yonish uchun sharoit bo'lmaydi. Bu esa dvigateling tejamllilagini oshiradi.



*16.8-rasm. Ponasimon yonish kamerali silindr kallagi*




*16.9-rasm. G-simon yonish kamerali silindr kallagi*

Klapanlar yuqorida joylashganda siqish darajasini kattaroq tanlash mumkin ( $\epsilon = 8-9$ ). To'ldirish koefitsiyenti, qarshiliklar kamaygani tufayli, nisbatan katta bo'ladi; issiqlikning sovituvchi muhitga o'tish darjasasi pasayadi. Natijada dvigatelning litrli quvvati va tejamliligi ortadi. Demak, klapanlari yuqorida joylashgan dvigatellarning ko'rsatkichlari klapanlari blokda joylashgan dvigatellarga nisbatan yaxshi bo'ladi.

Hozirgi zamон karbyuratorli dvigatellarda yarim sferik, chodirsimon, ponasimon (16.8-rasm), yarim ponasimon va klapanlari pastda joylashgan G-simon (16.9-rasm) yonish kameralarini keng tarqalgан.

Dizellarda silindrlar kallagining tuzilishi ularda qo'llaniladigan yonuvchi aralashmani hosil qilish usuli bilan belgilanadi. Ularning tuzilishi nisbatan murakkab bo'ladi. 16.10-rasm, a va b larda ajratilmagan va ajratilgan yonish kamerali dvigatelning kallagi ko'rsatilgan. Ajratilmagan kamerali dizelning kallagi, bir oz oddiyroq konstruksiyaga ega. Ajratilgan kameraning yuqori qismi esa (uyurma yoki old kameralar) kallak bilan yaxlit quyiladi. Pastki qismi esa issiqqa bardoshli po'latdan tayyorlanadi va kallakning pastki tekisligi tomonidan o'rnatiladi.




**16.10-rasm. Dizellarda qo'llaniladigan kallaklarning turlari:**  
**a-ajratilmagan va b-ajratilgan yonish kamerali**

Kallakka bo'lgan boshqa talablar karbyuratorli dvigatelniki kabidir.

Havo bilan sovitiladigan dvigatellarda silindrlar kallagiga qo'yiladigan talablardan biri - uning harorati (klapan o'rindiqlari zonasida)  $215\text{--}230^{\circ}\text{S}$  dan yuqori bo'lnasligi kerak. Shuning uchun silindrlar kallagi asosan alyuminiy qotishmasidan tayyorlanadi, chunki u qizib ketmaydi.

Shuni aytish lozimki, sovitish qovurg'alarining shakli va o'lchamlari tajriba yo'li bilan tanlanadi. Kallakda issiqlik oqimi tekis tarqalishi uchun qovurg'alar silindr o'qiga nisbatan eksentrik joylashtiriladi.

16.11-rasmida klapanlari yuqorida joylashgan yarim



*16.11-rasm. Havo bilan sovitiladigan dvigatelning kallagi*

sferik kamerali karbyuratorli dvigatelning silindr kallagi tasvirlangan. Bu sxemada havo oqimi klapanlar o'qlarining tekisligiga tik holda yo'naltiriladi. Kallak esa silindr bilan birga karterga to'rtta shpilka yordamida mahkamlanadi.

**2. Materiallar.** Suyuqlik bilan sovitiladigan dizel va ba'zi karbyuratorli dvigatellarning kallagi СЧ 15-32 markali legirlangan cho'yandan quyiladi. Havo bilan sovitiladigan barcha dvigatellar hamda ko'pgina karbyuratorli dvigatellarning kallagi esa yuqori haroratda yuksak mexanik mustahkamlikka ega bo'lgan АЛ 5, АС 9 va АК 4 markali alyuminiy qotishmasidan quyiladi.

Cho'yan kallaklarining qattiqligi HB 180-240 oralig'ida bo'lishi kerak. Ulardagi qoldiq kuchlanishlarni yo'qotish uchun 400-500°С gacha 10-15 soat davomida qizdirilib, so'ng asta-sekin sovitiladi.

Alyuminiy qotishmasidan yasalgan kallaklar esa 6-8 soat davomida 200°С gacha qizdiriladi. Suv bo'shliqlarining jipsligini sinash uchun kallaklar 0,4 MPa bosim ostida hidravlik usulda tekshiriladi. Bunda, hatto devor sirtlari namlanmasligi lozim, aks holda kallak brak qilinadi.

**3. Konstruktiv o'lchamlar.** Silindrlar kallagi ixcham va massasi kichik bo'lishi lozim. Bu esa dvigateli sovitish usuliga, yonish kameralarining turiga, klapanlarning joylashishiga, uning materialiga va h.k.larga bog'liqidir.

Klapanlari blokda joylashgan dvigatellarning kallagi ixcham va kichik massali bo'ladi. Uning massasi dvigatel massasining 8-9 % ini tashkil etadi. Klapanlar yuqorida joylashganda esa kallakning shakli murakkablashadi va vazni og'irlashadi. Uning massasi dvigatel massasining 12-13% iga yetadi. Masalan, yarim sfera shaklli yonish kamerasiga ega bo'lgan dvigatel kallagining balandligi  $H_k=(1,6-2,0) D_s$  oralig'ida tanlanadi.

Havo bilan sovitiladigan karbyuratorli dvigatellar kallagining balandligi esa  $H_k=(1,25...1,80) D_s$  oralig'ida olinadi.

Dizellarda suyuqlik bilan sovitiladigan kallakning balandligi  $H_k=(0,8...1,2) D_s$ ; havo bilan sovitilganda esa  $H_k=(1,0...1,7) D_s$  oralig'ida tanlanadi.

Odatda alyuminiy qotishmasidan tayyorlangan kallaklarning devorlari cho'yan kallaklarnikiga nisbatan 2 mm qalin bo'ladi.

Yonish kameralarining atrofidagi va pastki tayanch devorlarning qalinligi 9-10 mm oralig'ida quyiladi. Sovituvchi qovurg'alaming uzunligi 50-60 mm qalinligi 1,5 mm, qadami esa 4 mm gacha qilib quyiladi. Suv o'tadigan bo'shliqning kengligi 10-15 mm, kanal devorlarning qalinligi esa 5 mm bo'ladi.

Keyingi paytlarda ichki yonuv dvigatellarida yupqa devorli cho'yan quymalar ishlatalmoqda. Bu usul bilan ko'pgina miqdorda metall tejaladi, chunki devorlarning qalinligi 3,2-4,0 mm dan oshmaydi.

**4 Boltlar va shpilkalar.** Dizel dvigatellarining kuch shpilkalari va boltlari 18 XHBA, 18 XHMA; 20 XHBA, 40 XHBA, 38 XA markali legirlangan po'latlardan, karbyuratorli dvigatellamiki esa 40, 20, 40X, 20X markali po'latlardan tayyorlanadi.


Boltlar yoki shpilkalar soni har bir silindrga 4-6 donadan (klapanlar yuqorida joylanganda) yoki 5-8 donadan

(klapanlar blokda joylanganda) te'g'i keladigan qilib tanlanadi.

Shpilkalar yoki boltlar tortilganda, silindrлar blokining devorida eguvchi momentlar hosil bo'лади. Shpilkalar va silindr bloki devorining o'qlari bir-biriga qanchalik yaqin joylashsa, gilzaning deformatsiyasi shunchalik kam bo'лади va kam yeyiladi.

**5. Gaz sizadigan choklarni zinchlash uchun qistirmalar.** Siqish va yonish jarayonlarida yonish kamerasidagi bosim 1,2-8,0 MPa oralig'ida o'zgaradi. Bu bosimga ega bo'lgan gazlar tashqariga chiqib ketmasligi kerak. Ushbu maqsadda silindrler bloki va kallakk oralig'iga ularni zinch birlashtirish uchun qistirma qo'yiladi. Qistirmaning tuzilishi blok va kallakka mos bo'lib, 1,5-2,5 mm qalinlikda yasaladi. Qistirmalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- nisbatan yumshoq mis-asbest, temir-asbest qistirmalar (16.12-rasm, *b*);
  - alyuminiy yoki misdan yasalgan qistirmalar;
  - yupqa mis listlar yig‘imidan iborat qistirmalar;
  - yupqa po‘lat list shaklidagi qistirmalar (16.12-rasm, *a*).



*16.12-rasm. Gaz sizadigan choklarni z'ichlash uchun  
qo'shiladigan qistirmalarning turlari va ularni o'rnatish usullari*

Qistirmalar yetarli darajada elastik, yuqori bosim va haroratga chidamli bo'lishi, zichlanganda esa blok va kallakning tayanch sirtlarida mexanik ishlovdan so'ng qolgan barcha notekisliklarni to'ldirishi kerak.

Mis-asbest, temir-asbest qistirmalar varaqas asbestdan tayyorlanib, uning silindr tushadigan teshigi qaliligi 0,1-0,3 mm li mis yoki latun folga bilan qoplanadi.


Karbyuratorli dvigatellarning qistirmalarida yonish kamerasi uchun qoldirilgan teshik atrofida jo‘valangan aylana chiqiq bor. Shuni ta’kidlash lozimki, kallakning shpilkalari blokka ma’lum moment ostida mahkamlanadi, bu esa gaz sizadigan choklami yaxshi zichlashga imkon beradi.

Ba’zi dvigatellarda (masalan D-144) har bir silindr uchun alohida mis yoki alyuminiydan tayyorlangan zichlovchi halqalar ishlataladi.


16.12-rasm, v va g larda qistirmalarni o‘rnatish usullari keltirilgan. Odatda, gilza blok sirtidan 0,05-0,3 mm baland joy lashtiriladi. Bu esa blok va kallakning yaxshi zichlashishini ta’minlaydi, chunki kontakt yuzalar kamayadi. Qistirmalardagi silindr va kameralarning qirralarigacha bo‘lgan oraliq 1,0-1,5 mm bo‘lishi lozim, aks holda ular tez ishdan chiqishi (kuyishi) mumkin.

### **16.5. KARTERNING PASTKI QISMI (TAGLIK)**

Ichki yonuv dvigatellarida blok-karterning pastki qismi 1-2 mm qalilikdagi po‘lat listdan oson chiqarib olinadigan qilib shtamplab tayyorlanadi va u moy rezervuari vazifasini o‘taydi. Taglik blok karterga boltlar yoki vintlar yordamida mahkamlanadi va ular orasiga, moy sizib ketmasligi uchun, po‘kak yoki qog‘oz qistirmalar qo‘yiladi. Taglikning bikrligini oshirish maqsadida har xil usullar (16.13-rasm) qo‘llaniladi (po‘lat plastina / payvandlanadi va h.k.). Taglikka hech qanday yuklama ta’sir qilmaydi. Uning oldingi qismi tirsakli valning birinchi tub podshipnigi qopqog‘ining silindrik yuzasiga yoki unga o‘rnatilgan flanetsga biriktiriladi. Maxovik tomondan esa tub podshipnik qopqog‘ining sirti bo‘ylab qistirmalar qo‘yib qotiriladi (16.14-rasm).



*16.13-rasm. Taglikning bikrligini oshirish usullari*



*16.14-rasm. Taglikni maxovik tomondan qotirish*

## XVII BOB. PORSHEN GURUHI

Porshen guruhi ichki yonuv dvigatelining asosiy elementi bo'lib, dvigatelning ishlash muddati va ko'rsatkichlari shu guruhning texnik holati bilan belgilanadi. Bu guruhning ishlash jarayoni gilzaning ishi bilan birgalikda tahlil qilinishi lozim.

Karbyuratorli dvigatellarda yo'qotiladigan jami mexanik quvvatning 60-70% i silindr-porshen guruhi orqali yo'qotiladi. Dizellarda esa bu qiymat 75% gacha yetadi. Bu esa ularga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Silindr-porshen guruhi siqish va yonish jarayonlarida gazlarning halqalar orqali yo'qolishiga va karter moyini yonish kamerasiga kirishiga katta to'sqinlik qilishi kerak. Porshen guruhi porshen, halqalar, barnoq va uni mahkamlovchi detallardan tashkil topgan bo'lib, yonish kamerasining hajmi uning yuqori chekka nuqtadagi holati bilan belgilanadi. Yonish jarayonidagi barcha issiqlik yo'qotishlar shu yuza va hajm orqali bo'ladi. Katta miqdordagi bosim kuchi porshen guruhi orqali shatun va tirsakli valga beriladi.


### 17.1. PORSHENLAR

Porshenlarga qo'yiladigan asosiy talablar:

- massasi kichik, mustahkam va bikr bo'lishi;
- ish muddati dvigatelnikiga mutanosib;
- ishlab chiqarish (quyish) oson bo'lishi kerak.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, silindr ichida yonish jarayoni tufayli ajralib chiqadigan issiqlikning bir qismi porshen orqali yo'qotiladi (3-4%-karbyuratorli dvigatellarda; 5-8% dizellarda). Bu issiqlikning asosiy qismi porshen halqalari orqali (65-74%), qolgan qismi esa (20-30%) yubka orqali sovituvchi muhitga o'tkaziladi.

Porshenlar yuqori bosim (5,5-12 MPa) va haroratlari (475-525 K) ta'sirida ishlaydi. Natijada uning o'lchamlari o'zgarib, porshen-silindr, porshen-porshen barmog'i hamda




*17.1-rasm. ZIL-130 dvigateli porshenining shakli*

porshen-porshen halqalari oralig‘idagi tirkishlarning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Ular katta oniy tezlikda (15-25 m/s) harakat qilganligi sababli, ularni moy bilan ta’minlash qiyinlashadi. Bu esa ishqalanishni kuchaytirib, silindr-porshen guruhining tez yejilishiga olib keladi.

**1. Konstruksiyasi.** Porshenlar tuzilishi jihatidan anchagina murakkab bo‘lib, ularning tubi dizellarda yonish kamerasi vazifasini, karbyuratorli dvigatellarda esa yonish kamerasining (porshen yu.ch.n.da bo‘lganda) pastki chegarasini belgilaydi. U tub, zichlovchi halqalar o‘rnataladigan qism va yubkadan iborat. Porshen tubining shakli xilmoxil bo‘lib, karbyuratorli dvigatellarda asosan tekis bo‘ladi (17.1-rasm, a, b). Dizellarda esa yonish kameralarining turiga bog‘liq bo‘lib, massasi nisbatan katta va binobarin, inersiya kuchlarining oshishiga sabab bo‘ladi (17.2-rasm).

Porshen tubi devorining qalinligi karbyuratorli dvigatellarda 5-6 mm, dizellarda esa 8-10 mm qilib (unga ta’sir etuvchi bosim kuchini hisobga olib) tanlanadi. Odatda porshen tubining ichki tomoni qovurg‘ali qilib yasaladi, bu esa uning bikrligini oshiradi. Ko‘pgina hollarda porshen tubining ichki tomoni moy vositasida majburan sovitiladi. Porshenning zichlovchi qismi porshen halqalari va kashak (peremichka)larni o‘z ichiga oladi va porshen tubiga berilgan issiqlikning 80% i u orqali silindrga uzatiladi. Porshen halqalari va silindr ko‘zgusi orasidagi tirkish juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, u moyni yonish kamerasiga

o'tkazib yubormaslik hamda gazlarning karterga o'tib ketmaslik shartlarini hisobga olgan holda tanlanadi.



17.2-rasm. YAMZ-236  
dvigateli porshenining  
shakli

Odatda, bu tirqish bir necha mikron ( $0\text{--}5 \text{ mkm}$ ) oralig'ida bo'ladi. Kashaklar gazlar kuchi, halqalarning inersiya kuchi va ishqalanish kuchlari ta'sirida ishlaydi. Dizellarda uning balandligi  $0,065 D_s$ , karbyuratorli dvigatellarda esa  $0,05 D_s$  oralig'ida tanlanadi.


Kompression halqlar soni dvigatellarning tezyurarligi va turiga qarab 1-3 ta, moy sidiruvchi halqlar esa 1-2 ta qilib tanlanadi.

Ularning soni qanchalik kam bo'lsa, ishqalanishga sarf bo'ladigan quvvat shunchalik kam bo'ladi va aksincha. Odatda, karbyuratorli dvigatellarda halqlar soni 3 ta, dizellarda esa 3-5 ta bo'ladi.

Birinchi kompression halqagacha bo'lgan 1 masofa (17.3-rasm, a) porshenning termik zo'rqiishini belgilaydi. Shuning uchun u dizellarda nisbatan katta tanlanadi (16-20 mm). Bu esa porshen massasini va inersiya kuchini oshiradi. Ichki yonuv dvigatellarida tez yeyiluvchan deta llardan biri birinchi kompression halqa hisoblanadi. Shu sababdan ko'pgina dvigatellar porshenining yuqori halqa o'rnatiladigan o'rindig'iga olovbardosh qistirmalar qo'yiladi (ZIL-130, A-O1M va boshqa dvigatellarda). Bu qistirmalar porshenning ishlash muddatini 2-2,5 barobar oshirishi mumkin.


Moy sidiruvchi halqalarning tuzilishi murakkab bo'lib, ular moyni porshen ichiga haydashi kerak. Bu vazifa halqa ariqchalaridagi va uning tagidagi maxsus teshiklar orqali amalga oshiriladi (17.3-rasm, v). Shuni ta'kidlash kerakki, kiritish (so'rish) taktida silindr ichidagi bosim karterdag'i bosimdan past bo'lganligi sababli moy yonish kamerasiga

o'tishi va yonishi mumkin. Shuning uchun halqalarga qo'yiladigan talablardan asosiysi moyni yonish karmerasiga keragidan ortiq (0,05%) o'tkazmaslikdir. Afsuski, porshen halqalari yeyilishi natijasida moy sarfi ortib boradi, dvigatelning quvvati esa pasayadi.



17.3-rasm. Porshen halqalari va ularning ishlash sxemasi

Porshen yubkasi porshenni silindr o'qi bo'ylab yo'naltirish uchun xizmat qiladi va normal kuch  $N_{\Sigma}$  ni silindri ko'zgusi bo'ylab tekis taqsimlaydi. Yubkaning uzunligi  $N_{\Sigma}$  kuchining miqdoriga bog'liq bo'lib,  $N_{\Sigma}$  kuchi qancha katta bo'lsa, yubka shuncha uzun bo'lishi lozim. Normal kuch musbat va manfiy bo'lishi mumkin. U yubka yon sirtining ma'lum burchagida silindrga ta'sir qiladi (17.4-rasm). Bu burchak 80-100° oralig'ida bo'ladi. Ko'pgina porshenlarda bo'rtma (bobishka) atrofi ( $\gamma$  burchakda) kichikroq diametrda yasaladi. Natijada ishqalanish kamayadi (masalan, GAZ-21, MZMA-408 va boshqa dvigatellarda).




17.4-rasm. Porshen yubkasining sirtida bosimning taqsimlanish sxemasi

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, porshen yubkasi oval shaklida bo'lishi kerak. Ovallik 0,1-0,3 mm atrofida tanlanadi. Bu esa termik deformatsiya larning notejisligi bilan tushuntiriladi. Oval yubka esa dvigatel ishlaganda (termik deformatsiya ta'sirida) silindrik shaklga keladi.

Porshenning yuqori qismidan yubkasiga issiqlikni kamroq berish maqsadida har xil T va P shaklida kesiklar yasaladi. Natijada kesikli yubkaning harorati kesiksiz yubkanikiga nisbatan  $10-20^{\circ}\text{S}$  ga past bo'ladi. Odatda, bu kesiklar normal kuch  $N_{\Sigma}$  kam bo'lgan tomonda yasaladi. Kesiklar porshenning tifilib qolishini va taqillab ishlashini kamaytiradi. Ba'zan bu maqsadda porshen barmog'ining o'qi porshen o'qiga nisbatan, uning ko'p yuklangan tomoniga qarab,  $\varepsilon$ -masofaga siljitaladi. Hozirgi vaqtida ko'pgina porshenlarga invar yoki po'latdan yasalgan maxsus qistirmalar I qo'yiladi (17.5-rasm). Bu esa porshenning shovqinsiz ishlashini ta'minlaydi, montaj tirkishlarini kamaytiradi. Ular bo'rtma atrofiga o'rnatiladi.

Shuni aytish lozimki, chet el avtomobil dvigatellari porshenining yubkasida kesiklar bo'lmaydi, uning devorlariga esa kengayishni rostlovchi po'lat yoki invar qistirmalar o'matiladi. Natijada porshenning mustahkamligi ortadi, yubkaning sirti kattalashadi; yubka va gilza orasidagi tirkish minimal bo'ladi. Dvigatelning barcha ish rejimlarida

porshen bir xil tirkishda ishlaydi. Misol tariqa-sida, 17.1-rasmda ZIL-130 dvigatelining porsheni tasvirlangan. Ko'rinish turibdiki, porshen tubi tekis, ichki tomoni qobirg'asiz, yubkasi kesilmagan, porshen tubiga issiqlikni rostlovchi halqasimon qistirma o'matilgan; yubkaning kesimi oval shaklida, bo'yiga konussimon yoki bochkasiimon qilib yasalgan, issiqlik halqaning ichida joylashgan; porshen barmog'ining har bir bo'rtmasi porshenning tubi



*17.5-rasm. Gazlar bosini va qizish ta'sirida porshenning deformatsiyalanishi:*

*I-invar qistirma*

kesiklari moy sidiruvchi halqaning ichida joylashgan; porshen barmog'ining har bir bo'rtmasi porshenning tubi

bilan ikki qobirg'a orqali tutashgan (bu uning bikrligini ta'minlaydi).

Izlanishlar va yuqoridagi tadbirlar natijasida porshen tubining harorati  $10-30^{\circ}\text{S}$  pasaytirildi va yaxshi ishlashi ta'minlandi.

**2. Materiallar.** Hozirgi zamon karbyuratorli dvigatellaring porsheni uchun material sifatida asosan АЛ 10 В ва АЛ 30 (kokilga quyiladi) markali qotishmalar ishlataladi (chiziqli kengayish koeffitsiyenti  $\alpha = 16 - 21 \cdot 10^6 \frac{1}{grad}$ ).

Dizel dvigatellari uchun АК 4, АК 2, ЖЛС, АЛ 1 qotishmali va СЧ 24-44, СЧ 28-48, СЧ 32-52 markali kulrang va bolg'alanuvchan cho'yanlar ishlataladi. Birinchi kompression halqaning tagiga qo'yiladigan qistirmaning materiali sifatida cho'yan yoki kam uglerodli po'lat ishlataladi.

### 17.1-jadval

Porshenning nisbiy konstruktiv o'lchamlari

O'lchamlar	Karbyuratorli dvigatellar	Dizellar
H/D	0.90 - 1,30	1,16-1,6
l/D	0,42-0,65	0,60-1,0
L <sub>ш</sub> /D	0,70-0,8	0,80-1,25
l/D	0,06-0,09	0,10-0,20
b/D	0,05-0,08	0,12-0,2
v/D	0,30-0,50	0,32-0,34
d <sub>ш</sub> /D	0,25-0,30	0,30-0,38
d <sub>ш</sub> /D	1,30-1,60	1,30-1,60
S/D	0,05-0,10	0,05-0,10
S <sub>1</sub> , mm	2,0-5,0	2,0-5,0
l <sub>2</sub> /D	0,50-1,20	0,50-1,25


Alyuminiy qotishmalaridan yasalgan porshenlarning qattiqligi HB 90-120 oralig'ida bo'ladi. Yubkaning sirti 0,005-0,02 mm qalinlikda qalay bilan ishlanadi. Natijada yubka bilan gilza sirtining bir-biriga moslashish davri kamayadi.

Porshenlar tayyorlanadigan material arzon va yaxshi (oson) ishlaniishi, yuqori antisriksion xususiyatlari, kengayish koeffitsiyenti nisbatan kichik bo'lishi va issiqlikni yaxshi o'tkazishi lozim.

**3. Konstruktiv o'lchamlar.** Hozirgi zamон ichki yonuv dvigatellari porshenlarining konstruktiv o'lchamlari 17.1-jadvalda keltirilgan.

### 17.2. PORSHEN BARMOQLARI

Ko'pgina dvigatellarda asosan erkin o'rnatilgan (suzib yuradigan) porshen barmoqlari, ayrimlarida esa bolt orqali qotiriladigan barmoqlar ishlataladi. Porshen barmog'ining diametri porshenning balandligiga va massasiga ta'sir qiladi. Porshen barmog'ining tashqi va ichki diametrлari hosil bo'ladigan egiluvchan va qirqishga ishlaydigan kuchlanishlarni hamda uning ish vaqtidagi ovallanishidan hosil bo'ladigan kuchlanishlarni hisobga olgan holda tanlanadi.



17.6-rasm. Porshen barmoqlarini qotirish usullari

Porshen barmog'i bo'rtmaga, shatunga kichik tirqish (3-5 mkm) bilan o'matiladi (qiziganda hosil bo'ladi). Shuning uchun bunday barmoqlar bo'rtmada va shatun vtulkasida erkin harakat qilishi mumkin. Shatun barmoq atrofida tebranma harakatda bo'ladi. Porshen barmog'i o'zgaruvchan termik yuklamalar va kuchlanishlar ta'sirida ishlaydi. Natijada barmoqning ishlash sharoiti yomonlashti. Yarim suyuqli ishqalanish vujudga keladi va ishqalanish juftlari (vtulka, bo'rtma va barmoq) tez yeyiladi.

**1. Konstruksiyasi.** Porshen barmog'i silindrik shaklda, ichi esa teshik qilib (har xil shaklda) yasaladi.


Porshen barmog'i yengil, yeyilishga chidamli, bikr va mustahkam bo'lishi kerak. Qotirish usullari bo'yicha ular quyidagi turlarga bo'linadi (17.6-rasm):

- a) shatun vtulkasida ham, porshen bo'rtmalarida ham aylanadigan, erkin o'matilgan barmoqlar;
- b) shatun vtulkasida mahkamlangan va porshen bo'rtmalarida erkin harakat qiladigan barmoqlar;
- v) porshen bo'rtmalarida mahkamlangan va shatun vtulkasida erkin harakat qiladigan barmoqlar.

1-usul eng ko'p tarqalgan; 2-usul cho'yan porshenlarga xosdir; 3-usul esa ilgari eski konstruksiyali dvigatellarda qo'llanilgan edi. Hozirda esa qo'llanilmaydi.

Porshen barmog'inining o'q bo'ylab siljishiga qarshi halqlar yoki alyuminiy yoxud latun tinqinlar ishlatiladi. Porshen barmoqlarining konstruktiv shakllari 17.7-rasmda tasvirlangan. Quvursimon barmoqlar eng oddiy hisoblanadi. Ichi konus sirtli qilib yasalgan barmoqlarning massasi kichik bo'ladi, egilishga teng qarshilik ko'rsatuvchi brus shaklidagi bo'ladi.

Porshen barmoqlari bo'rtmadagi va shatun kallagidagi teshiklar orqali beriladigan moy bilan moylanadi.



*17.7-rasm. Porshen barmoqlarining konstruktiv shakllari*

esa 0,5-1,5 mm qalilikda sementatsiya qilinadi va toblanadi.

Termik ishlangan porshen barmoqlari ish sirtining qattiqligi HRC  $58 \div 65$  va o'zak qismining qattiqligi kamida HRC  $32 \div 40$  bo'lishi kerak.

Porshen barmog'ining sirti o'ta tekis va silindrik shaklga ega bo'lishi hamda termoximik usulda ishlangan bo'lishi kerak. Masalan, sirtni azotlash uning mustahkamligini 35-45% ga, sementatsiya qilish esa 15-20% oshiradi.

**3. Konstruktiv o'lchamlar.** 17.2-jadvalda porshen barmoqlarining nisbiy o'lchamlari keltirilgan. Odatda, yangi dvigatel loyihalanayotganida uning detallarining konstruktiv o'lchamlari statistik ma'lumotlar asosida (prototip dvigatelnikiga mos holda) tanlanadi. Mustahkamligi esa hisoblab tekshiriladi. Agar

**2. Materiallar.** Karbyuratorli dvigatellarning porshen barmoqlari selektiv tozałangan 45 po'lati (Stal 45), 45 XA po'lati, 15 va 15X po'latlaridan tayyorlanadi.

Dizellarning porshen barmoqlari esa katta yuklamada ishlaganligi tufayli 12X2H4A, 12XH3A va 15XMA markali chidamli po'latlardan tayyorlanadi.

45 XA va 45 po'latlaridan tayyorlangan porshen barmoqlari yuqori chastotali tok ta'sirida 1-1,5 mm gacha qalilikda toblanib, mustahkamligi oshiriladi.

15X va 15 markali po'latlardan tayyorlangan barmoqlar

esa 0,5-1,5 mm qalilikda sementatsiya qilinadi va

toblanadi.

Termik ishlangan porshen barmoqlari ish sirtining

qattiqligi HRC  $58 \div 65$  va o'zak qismining qattiqligi kamida

HRC  $32 \div 40$  bo'lishi kerak.

Porshen barmog'ining sirti o'ta tekis va silindrik

shaklga ega bo'lishi hamda termoximik usulda ishlangan

bo'lishi kerak. Masalan, sirtni azotlash uning

mustahkamligini 35-45% ga, sementatsiya qilish esa 15-20%

oshiradi.

**3. Konstruktiv o'lchamlar.** 17.2-jadvalda porshen

barmoqlarining nisbiy o'lchamlari keltirilgan. Odatda,

yangi dvigatel loyihalanayotganida uning detallarini-

ning konstruktiv o'lchamlari statistik ma'lumotlar

asosida (prototip dvigateelnikiga mos holda)

tanlanadi. Mustahkamligi esa hisoblab tekshiriladi. Agar

mustahkamligi talabga javob bersa, uning o'lcamlariga o'zgartirish kiritilmaydi.

### 17.2-jadval

#### *Porshen barmoqlarining nisbiy konstruktiv o'lcamlari*

O'lcamlar	Karbura-torli dvigatellar	Dizellar
$d / d_b$	0.65-0.75	0.60-0.75
$d_b / D$	0.22-0.30	0.30-0.40
$d_{hor} / D$		
Mahkamlangan barmoq uchun	0.88-0.93	0.88-0.93
Erkin o'matilgan barmoq uchun	0.8-0.87	0.8-0.87
$l_{bar} / D$		
Mahkamlangan barmoq uchun	0.28-0.32	0.28-0.32
Erkin o'matilgan barmoq uchun	1.33-0.45	0.33-0.45

### 17.3. PORSHEN HALQALARI

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ichki yonuv dvigatellarida kompression (zichlovchi) va moy sidiruvchi halqalar ishlataladi. Ular quyidagi vazifalarni bajaradi:

- porshen usti bo'shlig'idagi gazlarni karterga o'tkazib yubormaydi;
- issiqlikni porshendan gilzaga uzatib beradi;
- gilza devorlarida moy pardasini hosil qiladi, ortiqchasi ni sidirib, uni yonish kamerasiga o'tkazmaydi.


Porshen halqalari juda og'ir sharoitda ishlaydi. Ularga o'zgaruvchan bosim kuchi, gazlar harorati va sirpanish tezligi ta'sir qiladi. Shu sababdan silindr-porshen guruhining

ishlash muddati asosan porshen halqalarining chidamliligi bilan belgilanadi. Issiq gazlar ta'siri natijasida yuqorigi (birinchi), kompression halqalarining harorati sikl davomida  $200-250^{\circ}\text{S}$  gacha (alyuminiy porshenlarda) va  $350-400^{\circ}\text{S}$  gacha (cho'yan porshenlarda) ko'tariladi. Natijada uning bikrligi (tarangligi) yomonlashadi, qattiqligi pasayadi. Bu esa gazlarning karterga o'tishiga va ularning tez yeyilishiga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, birinchi halqani moy qatlami bilan ta'minlash qiyin bo'lgani uchun, u yarim quruq ishqalanish sharoitida ishlaydi va yonish davridagi katta bosim kuchi ta'sirida yu.ch.n. atrosida gilzaga ishqalanishi kuchayadi va tez yeyiladi (ham halqa, ham gilza).

Shu narsani ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyo zonasida ichki yonuv dvigatellari katta harorat va changli sharoit ta'sirida ishlaydi. Havo tozalagichlar qanchalik yaxshi ishlamasinlar, baribir silindr ichiga havo bilan mayda chang zarralari ham o'tadi. Ular silindr devorlariga o'tirib qolib, halqalar bilan birga ishqalanish jarayonida qatnashadi, natijada silindr-porshen guruhi tez ishdan chiqadi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, porshen halqalarining radius bo'yicha yeyilishi  $0,8-1$  mm ni tashkil qilar ekan. Bu esa halqalarining elastikligini yo'qotganidan darak beradi. Natijada dvigatel karteriga ko'plab ish aralashmasi o'tib ketadi va dvigatelning quvvati, tejamkorligi yomonlashadi. Bundan tashqari, moy sarfi ortadi.

Kompression halqalar zinchlash vazifasini bajaradi (17.8-rasm). Buning uchun ular porshendagi ariqchalarga ma'lum tirqish ( $0,05-0,10$  mm) bilan o'matiladi. Natijada labirintli zinchlagichlar hosil bo'ladi. Dvigatel maqbul sharoitda ishlaganda gazlar bu bo'shliqlar (labirintlar) orqali karterga past tezlikda o'tishi mumkin. Natijada ish aralashmasi bir oz yo'qotiladi. Bu sharoitda gazlar bosimining pasayishi sxemasi 17.8-rasmida tasvirlangan.



**17.8-rasm. Komprission halqalarning zinchlashishi sxemasi**


Porshen halqalari turli bosimda gilza devorlariga siqiladi. Masalan, yonish kamerasidagi bosimni 100% deb olsak, birinchi halqa bo'shilig' idagi bosim 75% ga, ikkinchi halqa bo'shilig'ida esa 20% va uchinchi halqada - 3% ga teng bo'ladi.

Odatda, gilzaning balandligi bo'yicha notejis yeyilishi ushbu sxema orqali tushuntiriladi. Hozirgi zamон ichki yonuv dvigatelli halqalarining kuchlanish epyurasi notejis qilib yasaladi. Bu esa porshen halqalarining silindrik ko'zgusiga zinch yopishib turishini ta'minlaydi.

Buning uchun halqalar maxsus texnologiya asosida tayyorланади. Ma'lumki, halqalar erkin holatda nodoira shaklda bo'ladi.

Halqaning uchlari (qulfi) oldidagi bosim katta bo'lishi kerak (17.9-rasm). Natijada halqaning chidamliligi 1,5-2 marta (bosimi tekis halqalarga nisbatan) ortadi. Yeyilganda esa elastikligi birmuncha saqlanib qoladi, moy sarfi kamayadi va tebranishlarga chidamliligi nisbatan ortadi.


**1. Konstruksiyasi.** Hozirgi zamон ichki yonuv dvigateл larida turli kesimga ega bo'lgan halqalar ishlataladi. Ularning konstruktiv shakllari 17.10-rasmда keltirilgan. Konstruktiv o'Ichamlar tarzida quyidagilar qabul qilingan:



**17.9-rasm. Porshen halqalarining bosimlar epyurasi**

$D_s/t$  - silindr diametrining halqaning radial qalinligiga nisbati.  $b$  - halqaning balandligi.  $A_o/t$  - nisbat ( $A_o$  - halqaning egilishi yoki halqaning erkin va ish holatlariidagi quflning o'lchami, mm).


Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, porshen halqalari ning radial qalinligi qancha katta va balandligi esa kichik bo'lsa, ular silindrga shunchalik yaxshi zichlanar ekan.



**17.10-rasm. Ichki yonuv dvigatellarida ishlatiladigan halqalarning turlari**


Natijada ishqalanish ishi kamroq bo'ladi. Hozirda kompression halqalarning balandligi 2-3 mm, moy sidiruvchi halqalarniki esa 4-5 mm oralig'ida, radial qalinligi esa 4-6 mm qilib yasaladi. Shuni aytish lozimki, dvigate l tirsakli valining aylanishlar soni qancha yuqori bo'lsa, halqalarning balandligi shunchalik kichik bo'lishi kerak.

Ko'pgina hollarda porshen halqalari kesimi to'rtburchak, trapetsiya, konus sirtli va x.k. shakkarda yasaladi. Gazlarning halqalar orqali yo'qotilishi uning



*17.11-rasm. Porshen halqalari qulflarining shakllari*

gatellarda porshen halqalarining ishlash muddatini oshirish maqsadida kengaytirgichlar ishlatilmoqda. Ular yeyilishi oqibatida elastikligi kamaygan porshen halqalarida qo'shimcha radial bosim hosil qiladi va zinchlikni ta'minlaydi. Kengaytirgichlar (17.13-rasm) plastina prujinalardan iborat bo'lib, asosan moy sidiruvchi halqalarda ishlatilmoqda.



*17.12-rasm. Moy sidiruvchi halqalarning shakllari*

Halqalar odatda cho'yandan, ba'zi hollarda esa po'latdan yasaladi.

Tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, po'lat halqalar cho'yan halqalarga nisbatan yeyilishga chidamli (40-60% ortiq ishlaydi) bo'ladi. Natijada silindr-porshen guruhining ish muddati ikki barobar ortadi.

Moy sidiruvchi halqalar (17.12-rasm) ning silindrga ishqalanuvchi yuzalari kichik bo'ladi. Shuning uchun silindrغا katta bosim ta'sirida siqiladi (0,4 MPa). Odatda moy sidiruvchi halqalarning balandligi kompression halqalarning balandligidan katta bo'ladi.


qulflari shakliga bog'liq emas (17.11-rasm). Hozirda to'g'ri qulqli halqalar ko'proq ishlatiladi, chunki ularni tayyorlash oson. Hozirgi paytda ko'pgina dvi-

Silindr devoridan olinadigan ortiqcha moylar halqadagi bo'shliqlar va porshen orqali karterga tushirib yuboriladi. Masalan, ZIL-130, D-144 dvigatellarida porshenning bir ariqchasiga ikitadan moy sidirovchi yupqa halqalar o'rnatilmoqda (17.12-rasm, v). Bunday halqalarning ish va ko'ndalang yuzalari xromlangan bo'lib, ishlash muddati yuqori. Ular gilzani yaxshi zichlaydi va moyni yaxshi sidirib oladi.

**2. Materiallar.** Porshen halqalarining materiali sifatida СЧ 18-36, СЧ 21-40; СЧ 24-44; СЧ 28-48 markali kulrang cho'yanlar ishlatiladi. Odatda, cho'yanlarga legirlovchi elementlar (xrom, nikel, molibden, mis, volfram) qo'shiladi. Natijada kulrang cho'yanning issiqlikka chidamliligi  $350\text{--}400^{\circ}\text{S}$  gacha ortadi. Po'lat halqalarning materiali sifatida Y8A markali po'lat ishlatiladi.

Halqalarning kengaytirgichlari uchun 65Г ва Y10A markali po'latlar ishlatiladi.

Porshen halqalarining yeyilishga chidamliligini oshirishning samarali usullaridan biri, ularning ish sirtini



*17.13-rasm. ZIL-130 dvigatelinining kengaytirgichli moy sidirish halqasi:*

*1-po'lat halqa; 2-o'qi bo'ylab va 3-radial kengaytirgichlar*

yupqa g'ovakli xrom yoki molibden bilan ( $0,1\text{--}0,2$  mm qalinlikda) qoplash hisoblanadi. Bunday halqalarning korroziyaga chidamliligini oshirish uchun va obkatka davrini kamaytirish uchun, ular fosfatlanadi, oksidlanadi va oqartiriladi ( $0,005\text{--}0,01$  mm qalinlikda).

Keyingi davrda

halqalarning materiali sifatida kukun metallurgiyasi usuli bilan tayyorlangan metall-keramika qotishmasi ishlatalmoqda. Bunda quyidagi afzalliklar ta'minlanadi;

- halqalarning sirti g'ovak bo'lganligi uchun o'zida moyni yaxshi saqlaydi va moyli ishqalanishni vujudga keltiradi;

- halqaning materiali tarkibiga har xil elementlar qo'shib uni o'tga, korroziyaga chidamliligini oshirish mumkin;

- ishslash muddati ortadi.

**3. Konstruktiv o'lchamlar.** Yuqorida porshen halqalarining konstruksiyasi ko'rilinganda uning o'lchamlari ham tahlil qilingan edi. Quyida 17.3-jadvalda shular keltirilgan.

### 17.3-jadval

#### *Porshen halqalarining konstruktiv o'lchamlari*

Halqalar	$D_s/t$	$b, mm$	$A_o/t$
Kompression	20-25	2,5-5,0	3,2-4,0
Moy sidiruvchi	23-26	2,5-5,0	3,2-4,0

Eslatma:  $D_s$ -silindr diametri,  $b$ -porshen halqasining balandligi,  $A_o$ -halqaning prujinalanishi, ya'ni halqaning erkin holatdagi tirkishi bilan harorat tirkishi orasidagi farq,  $t$ -porshen halqasining radial qalinligi.

## XVIII BOB. SHATUN GURUHI


Shatun guruhi murakkab harakat qilib, porshenning borib-keladigan harakatini tirsakli valning aylanma harakatiga aylantirib beradi. Shatunga gazlarning bosim kuchi va massalarning inersiya kuchlari ta'sir qiladi.

Shatun guruhiiga: shatun, shatunning (krivoship) pastki kallagi, ichqo'ymlar, vtulka, boltlar (yoki shpilka va gaykalar) kiradi.

U bikr, mustahkam va kichik massali bo'lishi kerak.

### 18.1. SHATUNLAR

Shatun shartli ravishda uch qismdan tashkil topgan, deb qabul qilingan: porshen kallagi, sterjen va krivoship kallagi. Kuchlar porshen barmog'i orqali shatun sterjeniga, so'ngra tirsakli valga uzatiladi. Bu kuchlarning yo'naliishi va qiymati davriy o'zgaruvchan bo'lib, zarbli xususiyatga ega.



. 18.1-rasm. Shatunning yuqori kallagi shakllari

lib, uning porshen kallagi barmoqni o'matish uchun xizmat qiladi. 18.1-rasmda shatun porshen kallagining shakllari tasvirlangan. Bu to'g'rida qisqacha ma'lumotlar barmoqni mahkamlash usullarini tahlil qilinganda berilgan edi.


18.1-rasm, a da barmoq shatunga mahkamlanadigan konstruksiya, boshqalarida esa barmoq erkin o'rnatiladigan konstruksiyalar tasvirlangan. Shuningdek, kallakka

o'matiladigan bronza vtulkalarining shakllari va ularni moylash usullari keltirilgan.

Odatda, shatunning porshen kallagi bilan bo'rtmalar orasidagi tirkish 1-1,5 mm oralig'ida tanlanadi. Bu esa blokni va tirsakli valni tayyorlashdagi noaniqliklarni bartaraf qiladi. Ba'zi shatunlarda kallak teshigining markazi kallakning tashqi yuzasiga nisbatan  $\varepsilon$  masofaga suriladi, natijada shatunning deformatsiyasi kamayadi.

Shatunning massasi muvozanatlanayotganda yoki har bir dvigatel uchun moslanayotganda kallakning yuqori qismi (4) dan ortiqcha massalar olib tashlanadi. Ko'pgina dizel dvigatellari yuqori termik zo'riqishlar ta'sirida ishlaganligi sababli, ularning porsheni moy orqali sovitiladi.


Buning uchun shatun kallagiga maxsus moy sachratgich o'matiladi.



18.2-rasm Shatun sterjoni kesimining shakllari

Shatun sterjoni turli shakllarda yasalishi mumkin va odatda kallaklarning o'qiga nisbatan simmetrik joylashadi. Shatun sterjoni kesimining shakllari 18.2-rasmida keltirilgan. Masalan, dastlabki uch xil kesimli shatunlar avtomobil va traktor dvigatellarida juda kam

qo'llaniladi. Shatun sterjenini qo'shtavr shaklida yasash maqsadga muvofiq bo'lib, ular nisbatan kichik massali, lekin o'ta mustahkam bo'ladi. Tezyurar dvigatellarning shatunlaridagi kuchlanish konsentratsiyasini va deformatsiyalarni kamaytirish maqsadida, ularning yuzalari silliqlanadi yoki mayda po'lat sharchalar bilan «bombardimon» qilinadi. 18.2-rasm, *a* da moy kanali ko'rsatilgan.



18.3-rasm. Shatun pastki kallagining tuzilishi

18.3-rasmida shatun pastki (krivoship) kallagining tuzilishi keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, pastki kallak ajraladigan qilib yasalgan. U o'ta mustahkam, ixcham va kichik massaga ega bo'lishi lozim. Sterjen kabi kallaklar ham katta radiusda silliqlangan bo'lishi shart.

Pastki kallakning qopqog'i bolt yoki shpilka yordamida qotirilib, yetarlicha (taranglikka) zichlikka erishiladi. Pastki kallakning gabarit o'lchamlari silindr diametri bilan belgilanadi. Uning eng katta o'lchami  $D_s$

dan 1-2 mm kichik bo'lishi lozim. Boltlar (yoki shpilkalar) mumkin qadar ichqo'ymalarga yaqin joylashtirilishi kerak. Bu holda shatun kallagining o'lchami hamda boltlarga tushadigan kuchlanishlar kamayadi. Odatda, qopqoqlar maxsus qovurg'ali qilib ishlanadi.

Ba'zi dvigatellarda silindr ko'zgusi 18.3-rasm,  $\alpha$  da ko'rsatilgan teshik ( $\varnothing$  1,0-1,5 mm) orqali moyланади.

**2. Materiallar.** Avtomobil va traktor dizellarining shatunlari 18XHMA, 18XHBA va 40XHMA markali legirlangan po'latlardan tayyorланади.

Karbyuratorli dvigatellarning shatunlari esa 40, 45, 40X, 40XH va 45F2 markali po'latlardan tayyorланади. Ba'zi karbyuratorli dvigatellarda, tarkibida 0.85% gacha perlit bo'lgan bolg'alanuvchi cho'yan ham ishlatiladi.


**3. Konstruktiv o'lchamlar.** Shatunning o'lchami  $l_{sh}$  krivoship radiusi bilan belgilanadi, ya'ni  $l_{sh} = (3,2-4,2) \cdot R$ . Bu yerda  $l_{sh}$  - shatun kallaklarining o'qlari orasidagi (ya'ni barmoq o'qi bilan shatun bo'yni o'qi orasidagi) masofa. Porshen kallagining tashqi diametri  $d_k = (1,2-1,45) d_{ba}$ , orqali topiladi. Kallak devorining qalinligi esa 5-10 mm oralig'ida tanланади.

Bu kallakning mustahkamligi sirt radiuslarini kattalashtirish hamda barmoq uchun ochilgan teshikni ekssentrik joy lashtirish orqali amalga oshiriladi.

Shatun sterjenining o'lchamlari 18.2-rasmda keltirilgan. Pastki (krivoship) kallagining o'lchamlari tirsaklı valning shatun bo'yni diametri va silindr diametriga bog'liq. Uning qalinligi  $(0,12-0,25)d_{sh,b}$  oralig'ida tanланади. Ko'pgina dizel dvigatellarida (YAMZ-236, KamAZ-740 va h.k.) bu kallak qiya kesikli shaklga ega bo'lib (18.3-rasm, v),  $\varphi_0 = 30-60^\circ$  oralig'ida bo'ladi. Natijada shatun bo'yni diametri  $d_{sh,b}$  kattalashadi, mustahkamligi esa ortadi, ya'ni  $d_{sh,b} = (0,66-0,86) D_s$  bo'ladi.

## 18.2. SHATUN VTULKALARI VA ICHQO'YMALARI

**1. Konstruksiyasi.** Hozirgi zamон ichki yonuv dvigatellarida shatunningyuqori kallagi vtulkasining materiali sifatida bronza yoki bimetall (yupqa bronza qatlami bilan qoplangan po'lat vtulka) ishlatiladi. Vtulkalar 1,5-2 mm qalinlikda tayyorlanadi va kallakka presslab kirgiziladi.



18.4-rasm. Shatun  
ichqo'ymalarining  
shakllari

Ichqo'ymalar ikki bo'lakdan iborat bo'lib, odatda, yupqa devorli qilib yasaladi. Ular 1-2 mm li po'lat lentadan yasalib, sirtiga antifriksion qotishma qatlami (0,2-0,5 mm) qoplanadi (18.4-rasm).

Shuni aytish lozimki, havosi

changli zonalarda ichqo'ymalar tezroq yeyiladi. Shu sababdan ular vaqtı-vaqtı bilan almashtirib turilishi lozim. Ichqo'ymalarning yeyilganligini bildiradigan asosiy ko'rsatkichlardan biri asosiy moy magistralidagi moyning bosimi pasayib ketishidir. Ichqo'ymalar har xil remont o'lchamli qilib ham tayyorlanadi. Bu holda ularning o'lchami tirsakli val bo'yinlarining o'lchamiga mos kelishi shart.

Ichqo'ymalar aylanib ketmasligi va o'q bo'y lab siljimasligi uchun chiqiqlar qilinadi va ular shatundagi o'yiplarga kirgiziladi. Ba'zi ichqo'ymalarning ikki yoni qavariq qilinadi, bu esa uni o'q bo'y lab siljishdan saqlaydi. Bunday ichqo'ymanning yumaloqlanish radiusi galteining radiusidan kattaroq qilib yasalishi lozim.

**2. Materiallar.** Shatun vtulkalari uchun БрАЖЭ-4 markali alyuminiy-temirli bronza; БрОЦ10-2, БрОЦС-4-4-25 markali qalay-ruxli bronzalar ishlatiladi. Ularning Brinell hisobidagi qattiqligi HB-65-110 oralig'ida bo'ladi.

Dizel dvigatellarida ichqo'ymaning asosi sifatida po'lat lentalar: antifriksion (yeyilishga qarshi) qotishma sifatida esa BpC30 (30% qo'rg'oshin) markali bronza ishlataladi (HB-30).

Bu qoplamaning qalinligi 0,3-0,7 mm dan ortib ketmasligi lozim.


Karbyuratorli dvigatellarda ichqo'ymlarning antifriksion qoplamasi sifatida БН,БТ markali (qo'rg'oshinli) va Б-83, Б-89 markali (qalayli) babbitlar, hamda COC-6-6 markali maxsus qotishma ishlataladi.

Qo'rg'oshinli bronza kamchiliklardan holi bo'limganligi uchun (korroziyaga chidamsiz) undan tayyorlangan ichqo'ymlarning sirti elektrolitik usulda serqo'rg'oshinli babbitt bilan 25-40 mkm qalinlikda qoplanadi, so'ngra bu qatlam yana 2-3 mkm qalinlikda indiy qatlami bilan qoplanadi.

**3. Konstruktiv o'lchamlar.** Shatunning pastki kallagi yoki shatun ichqo'ymasi bilan tirsakli val bo'yinlari orasidagi tirqish 0,10-0,15 mm dan oshmasligi kerak. Shatun bo'yni bilan ichqo'ymalar orasidagi tirqish 50-80 mkm oralig'ida tanlanadi.

### 18.3 SHATUN BOLTLARI

**1. Konstruksiysi.** 18.5-rasmda shatun boltlarining tuzilishi keltirilgan. Ularga juda katta inersiya kuchlari ta'sir qiladi va shu sababli ularning rezbali qismi o'ta mustahkam bo'lishi kerak. Buning uchun rezbaning qadami iloji boricha kichik tanlanadi, rezba chuqurchasidagi yumaloqlash radiuslari kattalashtiriladi, po'lat sharchalar yordamida mustahkamligi oshiriladi. Boltning silliq qismidan rezba ochilgan qismiga o'tish joyi radiusli qilinadi. Boltning kallagi o'zi o'rashadigan va buralib ketmaydigan qilib tayyorlanadi. Gaykalar tortilgandan so'ng (ma'lum moment bilan) albatta, shplintlar yoki plastinalar yordamida mahkamlanadi.



**18.5-rasm. Shatun boltlarining tuzilishi**

katta bo'lgan po'latlardan tayyorlanadi.

Boltlar, odatda, termik ishlanadi va qattiqligi HRC=27-41 oralig'ida bo'ladi.

**3. Konstruktiv o'lchamlar.** Boltlar M8×1; M10×1; M14×1,25 o'lchamli qilib tayyorlanadi. Boltning kallagidagi o'tish radiusi (0,1-0,25)  $d$  ga markazlovchi belbog'larga o'tish radiuslari esa belbog' diametrining 0,2-0,3 qismiga teng qilib olinadi. Boltlar dinamometrik buragich (kalit) yordamida 50-120 N·m moment bilan tortiladi.

## 2. Materiallar.

Karbyuratorli dvigatel-larning shatun boltlari va gaykalari 35X, 40X, 35XMA va 37XH3A markali legirlangan po'latlardan; dizel dvigatellariniki esa 18XHBA, 20XHBA va 40XHMA markali mustahkamlik va oquv chanlik chegaralari

## XIX. BOB

### 19.1 TIRSAKLI VAL

Tirsakli val ichki yonuv dvigatellarining asosiy kuch va momentni qabul qiluvchi detallaridan biri bo'lib, murakkab shaklga ega. U bosim va inersiya kuchlari ta'sirida hosil bo'ladigan burovchi momentni avtomobil va traktor transmissiyalariga uzatib beradi hamda barcha mexanizmlarni (gaz taqsimlash mexanizmi, suv va moy nasosi, yonilg'i berish apparaturasi va h.k.) harakatga keltiradi.

Tirsakli valga qo'yiladigan talablar:

- yuqori darajada mustahkam va bikr bo'lishi;
- tuzilishi jihatidan oddiy ishlanadigan va massasi kichik bo'lishi;
- shatun va o'zak bo'yinlari juda katta aniqlik bilan tayyorlanishi;
- tub podshipniklar iloji boricha kuchlar va momentlar ta'siridan ozod bo'lishi;
- statik va dinamik muvozanatlangan bo'lishi;
- davriy ta'sir etuvchi kuchlar buralma va egilma tebranishlarni hosil qilmasligi kerak.

Tirsakli valning konstruksiyasi dvigateldan olinadigan quvvat va momentga, silindrlar soni va joylanishiga, porshen yo'liga va h.k. omillarga bog'liq.


**1. Konstruksiyasi.** Hozirgi zamon tezyurar dvigatellarda tirsakli vallar yaxlit yasaladi yoki quyiladi. Ayrim dvigatellarda (masalan, DB-69, DB-67) tirsakli val tarkibli yasalgan bo'lib, ularda sharikli yoki rolikli podshipniklar ishlaitilgan edi.

Tirsakli val, shartli ravishda, quyidagi elementlarga ajratiladi: oldingi uchi, shatun va o'zak bo'yinlari, krivoship va posangilar, valning keyingi uchi (quyrug'i).

Tirsakli valda odatda maxovik, yetakchi shesternya, ventilator shkivi, buralma tebranishlarni so'ndirgich, moy qaytargichlar joylashadi.

Odatda, barcha dizellarda tub podshipniklar soni tirsaklar sonidan bitta ortiq, karbyuratorli dvigatellarda esa teng bo‘ladi, ya’ni ikki tub podshipnik orasida ikkitadan tirsak joylashadi. Bu holda tirsakli valning uzunligi va dvigatelning gabarit o‘lchamlari qisqaradi.

O‘zak podshipniklar soni tirsaklar sonidan ortiq bo‘lsa - to‘la tayanchli tirsakli vallar, teng bo‘lsa - chala tayanchli tirsakli vallar deyiladi. Dizellar va V-simon dvigatellarda to‘la tayanchli vallar ishlataladi.



*19.1-rasm. Tirsakli valning old uchi va unga o‘rnataligan detallar:*

*1 va 4-tirak shaybalar; 2-shtift; 3-tirak disk; 5-chiqiq*

To‘rt taktli bir qatorli dvigateldagi tirsakli val krivoshiplari orasidagi burchak  $720^\circ/i$  ifoda orqali belgilanadi (*i*-silindrlar soni).

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, dvigatelning ish tartibini to‘g‘ri tanlash tub podshipniklarning ish sharoitini ancha yaxshilaydi.


19.1-rasmida tirsakli valning old uchi va unga o‘rnatalgan detallar (shkivlar, moy qaytargichlar, shesternya va burama tebranishlarni so‘ndirgich) keltirilgan.

Odatda, so‘ndirgich ventilyatorning shkivi bilan umumiy uzel tarzida yasaladi.

Bu detallar tirsakli valning uchiga qotiriladigan maxsus shaklli bolt yordamida tortib mahkamlanadi.

Tirsakli valning tub (o‘zak) bo‘yinlari bir xil diametrda yasalib, valning o‘q bo‘ylab siljimasligi shu

bo'yinlardan biriga o'rnatiladigan tirak podshipnik orqali amalga oshiriladi. Ko'pehilik dvigatellarda tirak podshipnik maxovik tomonidan qoyiladi. Gaz taqsimlash mexanizmi zanjir yordamida harakatga keltiriladigan dvigatellarda tirak podshipnikni valning oldingi tomonidan joylashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.



*19.2-rasm. Tirsaklı vallar:*

*a-ZIL-130 avtomobili dvigateli; b-YAMZ-236 dizeli;*  
*v-KamAZ-5320 avtomobil dizeli*

Tirsaklı valning jag'lari (19.2-rasm) to'g'ri to'rtburchak, oval, doira va h.k. shakkarda yasalishi mumkin. Jag'larning bikr va mustahkamligi krivoshipning radiusi bilan belgilanadi. Radius qancha kichik bo'lsa, shuncha yaxshi. Shatun va tub bo'yinlar bir-birini qancha ko'p qoplasa, val shuncha bikr va mustahkam bo'ladi. Chala tayanchli vallarda ikki tub podshipnik orasiga ikki tirsak joylashtirilishi kerak. Bu holda jag'lar uzunligi ortadi, shakli esa murakkablashadi va massasi ortadi.

Tub bo'yinlarning mustahkamligi galtellarning yaxshi silliqlanishiga (har xil radiuslarda) bog'liq. Bu esa

kuchlanishlar konsentratsiyasini kamaytiradi, galtellarni bo'yin bo'ylab chuqurlashdirish ham yaxshi natijalarga olib keladi.


Shatun bo'yni ichidagi teshikni krivoship radiusiga teskari tomonga ye ekssentritet bilan joylashtirish ham galteldagi egiluvchan kuchlanishlarni kamaytiradi. Galtel sirtlari roliklar yordamida zichlanadi va moy teshiklari va qirralari zo'ldirlar yordamida silliqlanadi. Bu holda chidamlilik chegarasi 40% ortadi.

Jag'larning davomiga posangilar o'matiladi, ular tub podshipniklarni markazdan qochma kuchlar va momentlardan ozod qilish uchun xizmat qiladi. 19.3-rasmida posangilarning konstruksiyasi keltirilgan. Ular aylanuvchi qismlar umumiy massasining 70-80% ini tashkil qiladi, og'irlik markazi esa tirsakli val o'qidan mumkin qadar uzoqroqda joylashishi kerak. Posangilar odatda jag'lar bilan yaxlit tayyorlanadi. Ba'zi hollarda ular alohida tayyorlanib, jag'larga qotiriladi. Ularning massasi krivoship-shatunli mexanizmni dinamik hisoblash orqali topiladi.

Shatun bo'yinlatiga qo'yiladigan talablarga muvofiq, ular katta diametrga, kichik massaga ega, hamda mustaxkam bo'lishi kerak. Lekin uning diametri katta bo'lsa, shatuning pastki kallagining massasi ortib ketadi. Uzunligi qisqartirilsa, unga tushadigan solishtirma yuklama ortib ketadi, moy qatlamlarining ish sharoiti yomonlashadi, bo'yin tezroq yeyiladi. Shuning uchun bo'yin massasini kamaytirish uchun ichi g'ovak qilinadi. Diametri va uzunligi esa statistik ma'lumotlar asosida tanlanadi.

Tirsakli valning keyingi uchida (quyrug'ida) moy qaytargich halqlar bor, ular rezina yoki fetr halqlar yordamida zichlanadi. Maxovik esa flanetsga boltlar bilan mahkamlanadi. Boltlar nosimmetrik joylashganligi uchun maxovik doim bir vaziyatda qotiriladi (ya'ni maxovikni boshqacha qilib qo'yib bo'lmaydi). Dvigatellarda


gidravlik ilashish mustasi qo'llanilganda uning korpusi maxovik vazifasini bajaradi.



*19.3-rasm. Posangilarning tuzilishi*

Tirsakli valning flanetsida uzatmalar qutisining birlamchi vali podshipnigi uchun o'rindiq bo'ladi.

**2. Materiallar.** Ichki yonuv dvigatellarining tirsakli vallari odatda, 40, 45A, 40X, 20Г2, 50Г markali po'latlardan bolg'alash usuli bilan tayyorlanadi. Nadduvli dizellarda esa 18XHMA; 18XHBA va 40XHMA markali legirlangan, yuqori mustahkamlikka ega po'latlar ishlatiladi.



*19.4-rasm. Quyma tirsakli val*

Oxirgi paytlarda cho'yan vallar quy'ilmoqda va ular uchun o'ta mustahkam ВЧ 50-1,5 markali (HB 187-255) va perlitli, nikel-molibdenli cho'yanlar ishlatilmoqda (19.4-rasm).

Bu holda quyidagi afzallikkarga erishiladi: metall kam sarflanadi, mexanik operatsiyalar kamayadi; valga optimal shakl berish osonlashadi; valning mustahkamligi ortadi; burama tebranishlar yaxshiroq so'nadi. Lekin bu vallarning egilishga chidamliligi bir oz kamroq bo'ladi. Bu kamchilikni yo'qotish maqsadida shatun va o'zak bo'yinlarining diametri, jag'larning qalinligi va galtellarning radiuslari kattalashtiriladi hamda ular to'liq tayanchli qilib yasaladi.

Bunday vallarning shatun va o'zak bo'yinlari yeyilishga o'ta chidamli bo'lganligi sababli, ularda qo'rgoshinli bronzadan yasalgan chidamli ichqo'ymalar qo'llashga imkoniyat yaratiladi.

Quyma tirsakli valning massasi nisbatan 10-15 % kam bo'ladi.

Tirsakli vallarning bo'yinlari mexanik ishlovdan so'ng (jilvirlashdan oldin) toblanadi va bo'shatiladi. Natijada bo'yinlarning mexanik xossalari yaxshilanadi. Sirtining qattiqligi oshadi. Odatda, toplash (yoqori chastotali tok) bilan qizdirish usulida olib boriladi va toblangan qatlarning qalinligi 3-4 mm oralig'ida bo'ladi. Dvigatelga o'rnatiladigan tirsakli val bo'yinlarining qattiqligi HRC 52-62 (50 $\Gamma$  markali po'lat uchun); HRC 48-50 (45 $\Gamma$ 2 markali po'lat uchun) oralig'ida bo'lib, toblangan qatlam qalinligi 1 mm dan kam bo'lmasligi kerak.

### **3.Tirsakli vallarning ishlash muddatini oshirish usullari.** Konstruktiv usullar:

- valning shakli shunday tanlanadiki, natijada barcha kuchlanishlar valning hajmi bo'yicha bir xilda, tekis taqsimlanadigan bo'lsin;

- galtellarning radiusi kattalashtiriladi;

- shatun va o'zak bo'yinlarning diametri imkon boricha kattalashtiriladi; natijada ularning o'zaro qoplanishi ortadi; (masalan, qoplanish 20 mm bo'lsa, mustahkamlik 29% ga; 30 mm bo'lsa - 79% ga ortadi);

- shatun bo'yni ichidagi teshik ekssentrik joy lashtiriladi. Natijada galtelning toliqishga qarshi mustahkamligi 10-15% ga ortadi.

Texnologik usullar:

- galtellar roliklar yordamida zichlanadi;
- moy teshiklari silliqlanadi;
- galtellarni po'lat sharchalar bilan «bombardimon» qilinadi; (Bular valning egilishdagi mustahkamlik chegarasini 40% ga oshiradi).

- azotlash - bunda egilishdagi mustahkamlik chegarasi (xrom molibdenli po'lat uchun) 25-60% ga, buralishdagi mustahkamlik chegarasi esa 30-40% ga ortadi. Azotlashdan so'ng mexanik ishlov berish tavsiya etilmaydi, chunki bo'yinlarning toliqishga mustahkamligi ancha pasay adi.


**4. Konstruktiv o'lchamlari.** Tirsakli val elementlarining o'lchamlari 19.1-jadvalda keltirilgan. Maxovik o'rnatiladigan flanetsning diametri  $d_f$  va  $\delta_f$  qalinligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\delta_f \approx S; \quad \delta_f \approx 0,06 D_s \sqrt{i}$$

bu yerda  $S$ -porshen yo'li;  $D_s$ -silindr diametri;  $i$ -silindrler soni.

## Tirsakli val elementlarining o'chamlari

O'chamlar	Dizellar	Karbinyatorli dvigatellar
To'liq tavanchi vallar podshipniklar markazlari masofa (tavanchilar oraliqi) / Shatun bo'yinkani diametri $d_{sh}$ .	$(1.10 \div 1.40)D$ $(0.57 \div 0.85)D$	$(1.10 \div 1.25)D$ $(0.50 \div 0.70)D$
Shatun bo'yinkani uzunligi, $l_{sh}$ . bir qatorli dvigatellar uchun	$(0.7 \div 1.0)d_{sh}$	$(0.45 \div 0.65)d_{sh}$
Shatunkari bir bo'yinda ketma-ket joylashgan F'simon dvigatellar uchun	$(0.95 \div 1.00)d_{sh}$ $(0.65 \div 0.90)d_{sh}$	$(0.80 \div 1.0)d_{sh}$ $(0.60 \div 0.80)d_{sh}$
Tub bo'yinklar diametri $d_t$ .	$(0.45 + 0.60)d_{sh}$	$(0.50 \div 0.60)d_{sh}$
Tub bo'yinklar uzunligi $l_t$ , oraliq bo'yinklarini chekka yoki o'tradagi bo'yinklarini Ichki reshik diametri $d_o$ .	$(0.70 \div 0.85)d_{sh}$ $(0.60 \div 0.75)d_{sh}$	$(0.74 \div 0.82)d_{sh}$ $(0.60 \div 0.80)d_{sh}$
Jag'lар qalinligi, $l_o$ .	$(0.24 \div 0.28)D$	$(0.20 \div 0.25)D$
Jag'lар eni, $b$	$(1.10 \div 1.3)D$	$(0.1 \div 1.25)D$
Gatellar radiusi (kamida 2-3 mm)	$(0.045 \div 0.08)d_{sh}$	$(0.045 \div 0.08)d_{sh}$



## XX BOB. GAZ TAQSIMLASH MEXANIZMI

Ma'lumki, to'rt taktli siklning ma'lum taktlarida silindrغا yonilg'i aralashmasi yoki havo (dizellarda) kiritilishi va ishlatilgan gazlar tashqariga chiqarib tashlanishi kerak. Bu vazifalar dvigatelning gaz taqsimlash mexanizmi yordamida amalga oshiriladi. Bu mexanizmga qo'yiladigan asosiy talablar:

- silindrarni imkoniyati boricha havo yoki ish aralashmasi bilan ko'proq to'ldirish (kiritish klapanining ochilib-yopilish davrini to'g'ri tanlash orqali amalga oshiriladi);

- silindrarni ishlatilgan gazzardan tozalash (chiqarish klapanining ochilib-yopilish davrini to'g'ri tanlash orqali amalga oshiriladi);

- mustahkam bo'lish va ishonchli ishslash. Hozirgi zamon porshenli ichki yonuv dvigatellarida asosan klapanli gaz taqsimlash mexanizmi ishlatiladi va ular quyidagi turlarga bo'linadi:

- klapanlari silindrilar kallagida joylashgan mexanizm;

- klapanlari silindrilar blokida joylashgan mexanizm.

Klapanlar yuqorida joylashganda yonish kamerasi ixcham va sovitilish sirti nisbatan kichik bo'ladi. Natijada issiqlikdan foydalanish yaxshilanadi (indikator F.I.K. ortadi, sovitish tizimiga sarflanadigan issiqlik kamayadi va h.k.).

Bundan tashqari, silindrni yonuvechi aralashma yoki havo bilan to'ldirish koeffitsiyenti klapanlar pastda joylashgandagiga nisbatan 5-7% ga ortadi. Natijada dvigatelning quvvati ko'payib, tejamliligi yaxshilanadi. Klapanlar yuqorida joylashganda quvurlardagi gidravlik qarshiliklar nisbatan kam bo'ladi, havoning yo'nalishi yuqoridan pastga bo'ladi va tezligi katta bo'ladi. Natijada siqish jarayoni oxirida havoning tezligi katta bo'ladi va ish aralashmasini yonishga tayyorlash yaxshilanadi.

Bunday mexanizmlar eng ko'p tarqalgan bo'lib, quyidagi kamchiliklardan holi emas:

- klapanlarni harakatga keltirish murakkab;
- silindrlar kallagi murakkab, massasi esa katta bo'ladi.


Gaz taqsimlash mexanizmi quyidagi detallardan iborat: chiqarish va kiritish klapanlari, yo'naltiruvchi vtulkalar, turtkichlar, klapan prujinalari, tarelkalar, suxariklar, kulachokli taqsimlash vali, shayinlar, shtangalar va boshqalar.

### 20.1. KLAPANLARNING JOYLASHISHI

Hozirgi zamon dvigatellarida ikki va to'rt klapanli kallaklar qo'llaniladi. 20.1-rasm, *a* va *b* da kiritish va chiqarish klapanlarining hamda quvurlarining sxemalari keltirilgan. Klapanlar silindrlar bloki o'qi bo'ylab bir qator va ikki qator joylashtirilishi mumkin. Bir nomli klapanlarning yonma-yon joylashishi, quvurlar shaklini soddalashtirishga imkon beradi. Bu holda silindrlar (aylanasi bo'ylab) notejis yeylimadi. Odatda, qo'shni kiritish klapanlarining kanallari o'zaro birlashtiriladi. Chiqarish klapanlarining kanallari esa alohida yasaladi. To'rt klapanli dvigatellarda juft klapanlarning kanallari o'zaro birlashtiriladi.

Karbyuratorli dvigatellarda kiritish va chiqarish quvurlari bir tomonda joylashtiriladi. Natijada kiritish quvuridan o'tayotgan yonilg'i (benzin) yaxshi bug'lanadi va bir tarkibli ish aralashmasi tayyorlanadi.

Dizel dvigatellarida kiritish va chiqarish quvurlari blokning ikki tarafiga joylashtiriladi va bu holda silindrga kirayotgan havoning qizishi kamroq bo'ladi va to'ldirish koeffitsiyenti ortadi.



*20.1-rasm. Ichki yonuv dvigatellarining kallaklarida qo'llaniladigan kiritish va chiqarish kanallarining shakli*


Klapanlar turli usullarda harakatga keltiriladi:

- bevosita turtkichlar yordamida (klapanlar blokda joylashganda);
- taqsimlash valining kulachoklari yordamida;
- shayinlar yordamida.

To'rt klapanli tizim esa quyidagi usulda harakatga keltiriladi:

- 1) ikkita taqsimlash vali orqali (kallakda joylashadi);
- 2)bitta taqsimlash vali va richaglar yordamida;
- 3)blokda joylashgan ikki taqsimlash vali va shtangalar tizimi yordamida;
- 4)V-simon dvigatellarda esa uchta taqsimlash vali orqali harakatga keltiriladi.

Dvigatellarda har bir silindr uchun to'rttadan klapan o'rnatilganda, ularning havo o'tish teshiklarining umumiy yuzasi ortadi. Klapanlarning mustahkamligi ortadi va yaxshi sovitiladi. Lekin forsunkalarni kallakka o'rnatish va ekspluatatsiya sharoitlarida unga qarash bir oz qiyinlashadi.



**20.2-rasm. Klapanlari  
blokda joylashgan  
dvigatelning sxemasi**

-siqish darajasi chegaralangan bo'la di ( $\varepsilon \leq 7,5$ ).

Chet elda ishlab chiqariladigan ayrim dvigatellarda kiritish klapanlari kallakka, chiqarish klapanlari esa blokka o'rnatiladi. Bu usul ijobjiy natijalar beradi, lekin klapanlarni harakatga keltirish tizimi ancha murakkablashadi.

## 20.2 GAZ TAQSIMLASH MEXANIZMLARINING KONSTRUKSIYALARI

20.3-rasmda ichki yonuv dvigatellarida ishlatiladigan gaz taqsimlash mexanizmlarining asosiy konstruksiyalari keltirilgan. Ular dvigatelning turi va ish rejimlarini hisobga olgan holda tanlanadi. Taqsimlash vali harakatni tirsaklı valdan shesternyalar, zanjirli yoki qayishli uzatmalar va oraliq torsion valli konus shesternyalar yordamida (20.3-rasm) oladi. O'z navbatida, harakat, klapanlarga bevosita (val orqali) yoki bilvosita (shtangalar orqali) uzatiladi.

**20.2-rasm, v da klapanlari blokda (pastda) joylashgan dvigatelning sxemasi keltirilgan.** Bu sxema faqat karbyuratorli yoki gaz bilan ishlaydigan dvigatellarda qo'llaniladi.

Bu sxemaning afzalliklari:


-dvigatel va uning kallagining balandligi va massasi kichiklashadi;

-klapanlarni harakatga keltirish soddalashadi.

Kamchiliklari:

-dvigatelning texnik-iqtisodiy ko'satkichlari yomonlashadi, chunki to'ldirish koeffitsiyenti kichik bo'ladi;

-siqish darajasi chegaralangan bo'la di ( $\varepsilon \leq 7,5$ ).



*20.3-rasm. Gaz taqsimlash mexanizmlarining ba'zi bir konstruksiyalari (a, b, v). Taqsimlash valini harakatga keltirish usullari (g, d, ye)*


Gaz taqsimlash mexanizmini loyihalashda borib-kelib harakatlanuvchi detallarning massalarini kamaytirishga imkoniyat boricha intilish zarur.

Masalan, keyingi yillarda taqsimlash vali silindrler kallagiga o'matilmoxda va ular zanjirli uzatmalar yordamida harakatga keltirilayapti. Odadta, bunday uzatmalar shovqinsiz ishlaydi, lekin tezroq yeyiladi. Shuning uchun zanjirni taranglovchi moslamalar qo'llaniladi.

### **1. Taqsimlash vali**

Taqsimlash vali kulachoklar bilan yaxlit yoki ayrim-ayrim holda yasaadi. Kulachoklarning shakli gaz taqsimlash fazalarining davomiyligiga, joylashishi esa dvigateining ish tartibiga va klapanlarning joylashishiga qarab tanlanadi.

Odatda taqsimlash vali podshipniklarning soni (u blokda joy lashsa) tirsakli val tub podshipniklarning soni bilan belgilanadi. Taqsimlash vali kallakda joy lashganda esa farq qilishi mumkin.



*20.4-rasm. Taqsimlash valining o'q bo'ylab siljishini cheklash usullari*

Taqsimlash valiga kulachoklardan tashqari moy nasosini harakatga keltiradigan shesternya, yonilg'i nasosini (benzonasosni) harakatga keltiradigan ekssentrik va elektrik taqsimlagichni harakatlantiradigan detal o'matiladi. Blokkarterga o'matiladigan taqsimlash vallari yaxlit qilib yasaladi, podshipniklari esa ajralmaydigan bo'lib, o'z o'rniغا dvigateining old qismidan kiritiladi. Bu holda podshipniklarning diametri valning uchidan boshlab bir oz kichiklashib boradi. 20.4-rasmda taqsimlash valini o'q bo'ylab siljishini cheklagichlar tasvirlangan. Buning uchun bronza yoki po'latdan yasalgan tirkak flanetslar 2 o'rnatiladi. Cheklashlar har xil usulda amalga oshirilishi mumkin. Flanetslar blokka boltlar yordamida qotiriladi. Ayrim hollarda rostlash boltlari 5 yoki prujinali sirg'algich o'rnatiladi.

Odatda, taqsimlash valining diametri  $d=(0,15-0,20)\cdot D_s$  oraliq'ida tanlanadi.

Taqsimlash vali kallakda joylashganda ajraladigan podshipniklar qo'llaniladi. Alyuminiy qotishmasidan tayyorlangan tayanch devorlarida yasalgan o'rindiq (teshik) podshipnik vazifasini bajaradi. Ba'zi hollarda podshipnik sifatida bimetall (babbit va po'lat) ichqo'ymlar ishlataladi.

Val bu usulda o'matilganda uning ichi kavak qilib yasaladi va bu teshik orqali kulachoklar, podshipniklar va turkichlar moylanadi.

Taqsimlash vali blokda o'matilganda uning podshipniklari maxsus kanallar orqali keladigan moy bilan bosim ostida moylanadi. Shuni aytish lozimki, barcha taqsimlash vallarining podshipniklari, odatda, bosim ostida moylanadi.


## **2.Turkichlar**

Ichki yonuv dvigatellarida ishlataladigan turkich (tolkatellar) turli xil konstruksiyada bo'ladi (20.5-rasm). Klapanlar kulachoklardan bevosita harakatga keltiriladigan mexanizmlarda turkichlar ishlatalmaydi.

Turkichlar harakatni kulachoklardan bevosita klapanlarga uzatishi mumkin. Bu holda klapanlar pastda (blokda) joylashadi. Klapanlar kallakda (yuqorida) joylashganida harakat shtangalar va richaglar (shayinlar) yordamida uzatiladi.

Turkichlarning ishlash sharoiti og'ir bo'lib, kulachoklardan beriladigan yon kuchlarni o'ziga qabul qiladi (shuning uchun tekis yeyilmaydi). Turkichlar qo'ziqorinsimon, silindrik shaklda, rolikli va gidravlik bo'lishi mumkin.

Yuqorida aytganimizdek, harakatlanadigan detallarning massalari imkoniyati boricha kamaytiirladi. Odatda, turkichning kulachokka ishqalanib ishlovchi sirti sferik shaklda bo'ladi, natijada uning ishlash sharoiti yaxshilanadi.



**20.5-rasm. Turkich turlari:**

*a-qo'ziqorinsimon; b-silindrik; v-rolikli; g-gidravlik*

Qo'ziqorinsimon va silindrik turkichlar tekis yejilishi uchun dvigatel ishlayotganda ular o'z o'qi atrofida biroz aylanishi lozim. Buning uchun turkichning o'qi kulachokning o'qiga nisbatan  $e=1,5-3,0$  mm masofaga suriladi yoki kulachok konusli qilib yasaladi.

Rolikli turkichlar ishqalanish yuzalarining yejilishini kamaytiradi. Rolikning o'qiga ignasimon podshipniklar ham o'rmatilishi mumkin. Uning kamchiligi - massasi katta, rolik o'qi nisbatan tez yejiladi. Bunday turkichlar, odatda, dizel dvigatellarida ishlatiladi. Ko'pgina hollarda inersiya kuchlarni qabul qilish uchun turkichga qo'shimcha prujina o'rnatiladi.

Yengil avtomobilarga o'rnatiladigan, vali katta tezlikda aylanadigan ba'zi dvigatellarda gidravlik turkichlar ishlatilmoqda. Gidravlik turkichlarda zarbli kuchlanishlar hosil bo'lmaydi va klaparlarning tirqishlarini sozlash tabab qilinmaydi. Lekin turkichning konstruksiyasi anchagina murakkablashadi.

Turkichlar, odatda, sachratish usuli bilan yoki shtangalardan oqib tushayotgan moy yordamida moylanadi.

Turkichlarning yo‘naltiruvchisi bevosita blokning o‘zida yasaladi.

### **3. Shtangalar va shayinlar (koromislo)**

Dvigatelning klapanlari yuqorida (kallakda), taqsimlash vali esa blokda joylashganda, klapanlarni harakatga keltirish uchun shtangalar va shayinlar ishlataladi (20.6-rasm).


Shtangalar, odatda, naycha shaklida yasaladi va bo‘ylama egilishga qarshi chidamli bo‘lishi lozim. Shtanganing yuqori uchi shayin bilan rostlash vinti orqali juflashgan, pastki uchi esa sferik bo‘lib, turkich bilan bog‘langan.

Klapan bilan shayin oralig‘idagi tirqish ma’lum qiymatga ega (0,15-0,25 mm) bo‘lib, uni rostlash vinti shayinda joylashgan. Rostlash vinti zarur holatda kontrgayka bilan qotiriladi.

Koromislolar ikki yelkali bo‘lib, yelkalarining nisbati klapanning ochilish balandligi va kulachoklarning balandligi bilan belgilanadi. Ular shtangadagi kuchni klapan sterjeniga uzatish uchun xizmat qiladi. Shayinlar qo‘zg‘almas o‘qqa bronzali vtulka yoki ignali podshipnik yordamida o‘matiladi. O‘qning ichi teshik bo‘lib, u orqali mexanizmlarni moylash uchun moy keltiriladi. Shayinlarni ayrim-ayrim o‘qlarga joylashtirish ularga texnik xizmatni osonlashtiradi. Odatda, yelkalar nisbati  $l_k/l_r=1,2-1,8$  oralig‘ida tanlanadi.

Klapanlar taqsimlash vali yoki richaglar orqali bevosita harakatga keltiriladigan mexanizmlarda shtanga va shayinlarga ehtiyoj qolmaydi.

Klapan va shayin orasidagi tirqish dvigate l sovuq bo‘lgan holda o‘rnatilishi lozim.




**20.6-rasm. Klapanlarni harakatga keltirish  
mexanizmlarining tuzilishi**

#### 4. Klapanlar

Klapan kallaklari va sterjenlarining tuzilishi

20.7-rasmda keltirilgan bo'lib, kallaklar likopchasimon, lolasimoi, qavariq shaklli bo'lishi mumkin. Klapanlarning ish sharoiti juda og'ir bo'lib, ular gazlarning  $900-1100^{\circ}\text{S}$  gacha bo'lgan harorati, 8-10 MPa bosimi, prujinalaming elastik kuchlari va gaz taqsimlash mexanizmining inersiya kuchlari ta'sirida ishlaydi. Chiqarish klapanlarining ish sharoiti kiritish klapanlarinikiga nisbatan og'iroq bo'lib, ularning kallagi  $800-850^{\circ}\text{S}$  gacha (karbyuratorli dvigatellar) va  $500-600^{\circ}\text{S}$  gacha (dizellar) qiziydi. Natijada klapan deformatsiyalanishi (qiyshayishi), ish yuzasi esa kuyishi mumkin.

Kallakdan sterjenga o'tish joyi imkoniyati boricha katta radiusli qilib yasalishi lozim. Bu esa kallakning mustahkamligini oshiradi, ish yuzasi qiyshaymaydi va ish aralashmasi (zaryad) kamroq qarshilikka uchraydi.




Ayrim dvigatellarning klapanlari ichi bo'sh qilib yasaladi va uning 50-60% i natriy metalli (erish harorati  $98^{\circ}\text{S}$ ) eritma bilan to'ldiriladi. Ish jarayonida

**20.7-rasm. Klapan turlari**  
klapanning qizishi natijasida natriy eriydi va bug'lanadi, natijada ko'p miqdorda issiqlik yutiladi, klapanning ish sharoiti esa yaxshilanadi. Bundan tashqari klapan sterjenining diametrini kattalashtirish, yo'naltiruvchi vtulkani uzaytirish maqsadga muvofiqdir.

Odatda, chiqarish klapanlaridagi rax (faska)  $45^{\circ}$ , kiritish klapanlarida esa  $30^{\circ}$  qilib yasaladi. Bu esa silindrلarga ko'proq ish zaryadini kiritishni ta'minlaydi.


Klapanlar o'z o'rindig'iga zich o'tirishi lozim, aks holda ish zaryadi yo'qotiladi yoki kiritish quvuriga ishlatalgan gazlar o'tishi mumkin. Ushbu vazifa prujinalar va ularning tarelkasini klapan sterjeniga o'rnatish orqali amalga oshiriladi. Prujina tarelkalarini mahkamlash usullari 20.8-rasmda keltirilgan.



**20.8-rasm. Prujina tarelkalarini mahkamlash usullari**

Ba'zi dvigatellarda (ZIL-111, ZIL-130 va boshqalar) klapanlarning raxlarida qurum hosil bo'lmasligi uchun ular maxsus mexanizm yordamida majburan aylantiriladi. Klapanning aylanish chastotasi tirsakli valnikiga nisbatan

100 marta kam. Bu usul asosan chiqarish klapanlarida qo'llaniladi (20.9-rasm, a).



**20.9-rasm. Chiqarish klapanlari:**

*a-ZIL-130 dvigatelinining aylantirish mexanizmli chiqarish klapani; b-GAZ-53 dvigatelinining chiqarish klapani:*

*1-aylantirish moslamasi; 2-sharik; 3-aylantirish mexanizmining diskli prujinasi; 4-mexanizmining qaytarish prujinasi;*  
*5-po'lat vtulka*


GAZ-53 dvigatelida klapanni aylantirishning boshqacha usuli qo'llanadi (20.9-rasm, b). Buning uchun prujinaning tarelkasi bilan konussimon suxariklar orasiga po'lat vtulka qo'yiladi. Bu holda klapan-prujina tugunida hosil bo'ladigan tebranishlar ta'sirida klapan o'rindiqda aylanadi.

#### **5.Klapan prujinalari, vtulkasi va o'rindiqlari**

Prujinalar klapan bilan taqsimlash vali kulachogini kinematik bog'lash uchun xizmat qiladi va inersiya kuchlarini qabul qiladi. Ular yetarli darajada plastik, diametri esa kattaroq bo'lishi kerak.

Ichki yonuv dvigatellarida qo'llaniladigan prujinalar turlicha bo'lib, ular 20.10-rasmda keltirilgan. Prujina o'rammlarining qadamlari o'zgarmas va o'zgaruvchan bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda konus shaklli prujinalar ishlataladi.

Prujinaning ikki tomonida halqasimon tayanch yuza hosil qilinadi va u jilvirlanadi.



20.10-rasm. Klapan prujinalari

Konus shaklli prujinalar rezonansli tebranishlarni yo'qotadi.

O'zgaruvchan qadamli prujinalarning xususiy tebranishlar chastotasi va qattiqligi yuqori bo'ladi. Klapanlarga, odatda, bitta prujina o'matiladi, ba'zi hollarda ikkita yoki uchta prujina ham o'matiladi. Bundan maqsad - rezonansli tebranishlarni kamaytirishdir. Har bir prujina o'zining xususiy tebranish chastotasiga ega va bir prujina rezonansga kirganda, boshqasi so'ndiruvchi bo'lib xizmat qiladi. Ichki va tashqi prujinalarning o'ramlari har xil yo'nalishga ega bo'lishi lozim.

Ta'mir ishlarini soddalashtirish maqsadida klapanning yo'naltiruvchi vtulkalari olib qo'yiladigan qilinadi. Ular tuzilishi jihatidan turlicha bo'lib, kallak yoki blokka presslab kirgiziladi. Odatda, ular o'q bo'ylab siljishdan tayanch belbog'lar yoki halqalar yordamida saqlanadi. Yo'naltiruvchi vtulka bilan klapan orasida ma'lum tirqish bo'ladi va unga moy tushmasligi zarur.

Odatda, vtulkaning tashqi diametri  $d_V = (1,4-1,6) d_s$  oraliq'ida, uzunligi esa  $l_V = (8-10) d_s$  oraliq'ida tanlanadi ( $d_s$  - klapan sterjenining diametri).

Klapan o'rindiqlari qattiq metallardan (oqlangan cho'yan) tayyorlanadi va klapanning uzoq muddat ishlashini ta'minlaydi. Ular kirgizib qo'yiladigan qilib

tayyorlanadi. Ular kallakka presslab kirgiziladi. Ba'zi cho'yandan yasalgan kallak yoki bloklarda o'rindiqlar o'rnatilmaydi.


## 6. Gaz taqsimlash mexanizmining asosiy o'lchamlari

Yuqorida aytib o'tganimizdek, gaz taqsimlash mexanizmining asosiy vazifasi silindrлarni imkoniyati boricha ko'p miqdorda ish aralashma bilan to'ldirishdan iborat. Bu esa kiritish va chiqarish klapanlarining havo o'tish yuzalarining kattaligi bilan aniqlanadi.

Havo (yoki gaz) o'tish yuzalari quyidagi omillarga, ya'ni:

- quvurlarning diametri va uzunligiga;
- bo'g'iz va klapanning geometrik o'lchamlariga;
- klapanlar soni va gaz taqsimlash fazalariga bog'liq.

Bu yuzaning kattaligi hosil bo'ladiqan dinamik kuchlanishlar bilan chegaralanadi. Hisoblashlarda havo (yoki gaz) siqilmaydigan jism, uning tezligi (shu kesimda) esa o'zgarmas hamda klapanning ko'tarilish tezligi porshennenning tezligiga mutanosib deb qabul qilinadi.



20.11-rasm. Klapan kesim yuzasining asosiy o'lchamlari

Hozirgi zamон ichki yonuv dvigatellarida zaryad silindrлarga klapan teshiklaridan katta tezlikda ( $v_{kr} = 60 \div 140$  m/s) kiradi. Chiqarish klapanlaridan esa gazlar chiqarishning boshlanish davrida tovush tezligida chiqib ketadi (600-700 m/s). 20.11-rasmda klapan to'liq ochilgan holat uchun asosiy

o'lchamlar keltirilgan. Bu holat uchun havo o'tish kesimining yuzasi  $f_k$  quyidagicha aniqlanadi:

$$f_k = \pi \frac{d + d_2}{2} AB ;$$

bu yerda  $AB = h \cdot \cos \alpha$ ;

$$d = d_2 + h \cdot \sin 2\alpha .$$

Demak,  $f_k = \pi h \cos \alpha \left( d_2 + \frac{h}{2} \sin 2\alpha \right)$  bo'ldi;

bu yerda  $h$  - klapanning ko'tarilishi, mm;  $\alpha$  - rax burchagi, grad;  $d_2$  - klapan tayanch yuzasining kichik diametri, mm.

Ko'pgina hollarda rax (faska)  $30-45^\circ$  oralig'ida tanlanadi.

U holda

$$f_{k30^\circ} = \pi h (0.866 d_2 + 0.375 h); h = 0.26 d_2 \text{ va}$$

$$f_{k45^\circ} = \pi h (0.707 d_2 + 0.353 h);$$

$h = 0.30 d_2$  ifoda orqali hisoblanadi.

Shu narsani e'tiborga olish lozimki,  $f_k = f_{ch} = \frac{\pi d^2}{2}$

tenglik saqlanib qolinishi kerak, aks holda to'ldirish koeffitsiyenti kichiklashadi.

20.1-jadvalda ichki yonuv dvigatelli uchun kiritish va chiqarish klapanlarining hamda prujinaning asosiy o'lchamlari keltirilgan.

**20. 1-jadval**  
*Ichki yonuv dvigatelli kiritish va chiqarish klapanlarining asosiy o'lchamlari*

O'lchamlar	Formula
Klapan diametri:	
ikkita klapan bo'lganda	$d_2 = (0.35 + 0.45) D$
to'rtta klapan bo'lganda	$d_2 = (0.30 + 0.34) D$
Klapanning ko'tarilish balandligi	$h = (0.22 + 0.33) d_2$
Klapan kallagi diametri	$d_1 = (1.06 + 1.12) d_2$
Klapan sterjeni diametri	$d_c = (0.2 + 0.28) d_2$
Klapan kallagi tayanch yuzasining kengligi	$e = (0.08 + 0.12) d_2$

Prujina diametri:	$D_i = (0,72 + 0,9) d_2$
tashqi ichki	$D_i = (0,50 + 0,75) d_2$

## 7. Kulachoklar

Yuqorida biz taqsimlash vallarini ko'rib chiqqan edik. Kulachoklar esa valga o'rnatilgan bo'lib, dvigateining ishlash tartibiga mos holda har xil burchak ostida qotiriladi, chunki ular kiritish va chiqarish klapanlarini mos jarayonlarda ochib - yopishga xizmat qiladi. Kulachoklarning shakli quyidagilarni e'tiborga olib tanlanadi:

1. Klapanning ko'tarilish va tushish vaqtini mumkin qadar qisqartirish kerak. Bu holda klapandan havo o'tish yuzasi katta bo'ladi va silindr zaryadga ko'proq to'ladi. Lekin klapanning tezlanishi va inersiya kuchlari kattalashadi.

2. Taqsimlash mexanizmining mustahkamligini ta'minlash uchun klapanning ochilish va yopilish davri yetarli darajada kattaroq bo'lishi kerak.


3. Klapan o'rindiqqa imkoniyati boricha kichik tezlikda (zarbsiz) o'tirishi kerak.

20. 12-rasmda klapan uchun kinematik diagrammalar ( $h$ ,  $v$ ,  $W$ ) va inersiya kuchlari keltirilgan. Klapanning harakatini shartli ravishda to'rt davrga bo'lish mumkin. Birinchi davrda klapanning tezligi  $v_1$ , tezlanishi  $W_1$  bir xil yo'nalishda bo'ladi. Inersiya kuchi  $P_{w1}$ , teskari tomoniga yo'nalgan bo'lib, prujinani qo'shimcha yuklaydi. Bu davrda  $v_1$ ,  $W_1$  va  $P_{w1}$  lar maksimal qiymatga ega bo'ladi. Ikkinci va uchinchi davrlarda klapan sekin harakatlanadi. Tezlik va tezlanishlar o'z ishorasini o'zgartiradi.

Inersiya kuchi va klapan yo'nalishi bir-biriga (II davr) mos kelgan paytda, u klapanni kulachokdan ajratishga intiladi. Shu sababdan prujinaning elastiklik kuchi

inersiya kuchlaridan katta bo'lishi kerak. To'rtinchidavrda tezlik maksimumidan nolgacha pasayadi, tezlanish esa o'z yo'nalishini o'zgartirib, klapanni kulachokka qisuvchi inersiya kuchini hosil qiladi.

Ushbu tahlil shuni ko'rsatadiki, prujinaning o'lchamlari klapanning inersiya kuchlarini hisobga olgan holda tanlanishi lozim.



*20.12-rasm. Klapan uchun kinematik bog'lanishlar va inersiya kuchlarining diagrammasi*

Ichki yonuv dvigatellarida qo'llaniladigan kulachoklarning shakli 20.13-rasmida keltiriylgan bo'lib, ular qavariq, botiq va tangensial shaklga ega. Mamlakatimizda chiqariladigan ko'pgina dvigatellarda asosan tangensial kulachoklar ishlatiladi. Ularga qo'yildigan talablar quyidagicha:

1. Klapanning o'z o'rindig'iga zarbsiz o'tirishini ta'minlashi; buning uchun klapan bilan turtkich bir-biriga uringan vaqtida (tirqish yo'qolgandan keyin) tezlik minimal qiymatga ega bo'lishi lozim.

2. Klapanning tezlanishi tekis o'zgarishi, ayniqsa, manfiy qiymatlari kam bo'lishi kerak.

## 8. Gaz taqsimlash mexanizmining detallari uchun ishlataladigan materiallar

Bu ma'lumotlar 20.2-jadvalda keltirilgan


**20.2-jadval**

Detallar	Materiallar	Termik ishlov
Taqsimlash vali	Legirlangan po'latlar 15X; 15HM, 12XH3A yoki uglerodli po'latlar 40, 45 markali yoki cho'yan	Kulachoklar va bo'yinlar semen Tatsiya qilinadi
Taqsimlash shesternyasi	Uglerodli 20, 45 markali po'lat yoki kulrang cho'yan	
Turtkichilar	Legirlangan 15 X, 20X, 12ЧНЗА, 18XH3A po'latdan yoki 45 markali po'lat	toblanadi (HRC 54-56)
Chiqarish klapanlari	X9C2, X10CM, K12H7C, ЭН107 va ЭЯ2 markali legirlangan po'latlar. Ayrim hollarda kallak va sterjen (40X yoki 40XH po'latidan) alohida tayyorlanadi.	Sterjen B3K (kobalt asosli qattiq qotishma), temir asosli yoki satellit (60% N, va 15% Cr bilan 1,5-2,5 mm. da qoplanadi)
Kiritish klapanlari	Legirlangan 40X, 40XH, 50XH, 37C va 40XHMA markali po'latlar	zarb tushadigan qismi toplanadi HRC 45-50
Klapanlar o'rindig'i	СЧ-24-48 markali cho'yan; 45 markali po'lat; oqartirilgan cho'yan	
Yo'naltiruvchi vtulkalar	cho'yan; alyuminiyli bronza yoki metallokeramika	
Prujinalar	60Г, 65Г, 50ХФХ markali po'latlar	
Tarelkalar	40, 45 12H3A po'latlari;	
Shayinlar	СП-ЧФ cho'yan; 20 va 30 markali uglerodli po'lat yoki 20XH3A, 12 X3X; ЭН274 markali legirlangan po'latlar	zarb tushadigan qismi toplanadi HRC 48-52

3. Harakatlanuvchi detallar orasidagi kinematik bog'lanish buzilmasligi kerak.

4. Gaz taqsimlash fazalarini o'zgartirib yubormasligi kerak.

Qavariq profilli kulachoklar klapanlari pastda joylashgan karbyuratorli dvigatellarda va sekinyurar dizellarda keng tarqalgan edi. Ularning kamchiligi - klapanning o'rindiqqa zarb bilan o'tirishidir (bu davrda klapanning tezlik va tezlanishlari juda katta bo'ladi).



*20.13-rasm. Kulachoklar shakli:  
a-qavariq; b-botiq; v-tangensial*

Natijada o'rindiq yuzalari tez yeyiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tezlik ikki baravar ortganda, o'rindiq yuzalarining yeyilishi 8 marta gacha ortib ketadi. Shu sababdan zarbsiz (tangensial) kulachoklarni qo'llash maqsadga muvo fiq hisoblanadi.

## **XXI BOB. HAVO, MOY VA YONILG‘I TOZALAGICHALAR**

Ichki yonuv dvigatellari silindrlariga kiritiladigan havo, moylash tizimidagi moy hamda yonilg‘i uzatish apparaturasi orqali beriladigan benzin yoki dizel yonilg‘isi chang zarralaridan yaxshilab (mayin) tozalangan bo‘lishi zarur. Aks holda chang zarralari dvigatel detallarini tez yeyilishga olib keladi.

Shu maqsadda dvigatelga turli xildagi tozalagichlar o‘rnataladi.

### **21.1. HAVO TOZALAGICHALAR**

Avtomobil va traktor dvigatellari ko‘pincha changli sharoitda ishlaydi. Bu esa o‘z navbatida dvigatel silindrlariga kiritiladigan havoni chang va to‘zondan tozalashni talab qiladi. Bu jarayon havo tozalagich orqali amalga oshiriladi. Dvigatel silindrlariga kirgan chang zarrachalari porshen halqalari, gilza va boshqa detallarning tez yeyilishiga sabab bo‘ladi.


Ichki yonuv dvigatellariga, ularning ishslash sharoitiga qarab, har xil turdag'i havo tozalagichlar o‘rnataladi. Silindrarga kiritiladigan havo ikki-uch sidra tozalanadi.

Havo tozalagichlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- siklonli havo tozalagich;
- moy poddonli va sim to‘rli havo tozalagich;
- quruq (qog‘ozli, kaptonli) havo tozalagichlar.

Traktor dvigatellarida ishlatiladigan havo tozalagich 21.1-rasmda tasvirlangan, kallak 8, korpus 2, markaziy quvur 4, markazdan qochirish usulda ishlaydigan quruq chang ajratgich 6, olinmaydigan 9 va olinadigan sim to‘r kassetalar 10 va poddon (tub) 1 dan iborat. Tub korpusga kirgizilib, bolt va qalpoqli gaykalar bilan mahkamlanadi, unga halqa sathigacha karter moyi quyiladi. Havo yuqorigi chang ajratkichning teshiklaridan kirib, yo‘naltiruvchi

kurakcha 7 larga urilib, vint chizig'i yo'nalishida tez aylana boshlaydi. Yirik zarralar markazdan qochirma kuch ta'sirida chang ajratkichning devorlariga urilib, pastga tushadi va tirqish 5 orqali tashqariga chiqarib yuboriladi. Bu usulda changning 60-70% i tutib qolinadi.




### *21.1-rasm. Traktorlarda ishlataladigan havo tozalagichlar:*

- 1-havo tozalagichning tubi;*
- 2-korpus;*
- 3-qisqa truba;*
- 4-markaziy quvur;*
- 5-pastki tirqish;*
- 6-chang ajratkich;*
- 7-yo'naltiruvchi kurakchalar;*
- 8-kallak;*
- 9-olinmaydigan sim to'r;*
- 10-olinadigan sim to'r*

Chang ajratkichda havo bir sidra tozalanadi va uyurna harakatga keladi. So'ngra markaziy quvur orqali havo tozalagich tubiga tushib, undagi moyga uriladi. Natijada havodagi changning bir qismi inersiya bo'yicha harakat etib, moy vannasi tagiga cho'kadi. Ana shu tariqa havo ikkinchi marta tozalanadi.

Havo moyga urilib, uni ko'prtiradi va moy tomchilari bilan birga sim to'r kassetalardan o'tib, yana (uchinchi marta) tozalanadi hamda quvur 3 orqali dvigatearning silindriga tushadi. Ko'pchilik traktor dvigatellarining (A-41, A-01M, D-37E, D-144) havo tozalagichlari aynan shunday prinsipda tuzilgan bo'lib, ba'zan kassetalarga tukli gazmol yoki paralon lentalar sirilgan bo'ladi. Bu holda havo yana ham yaxshiroq tozalanadi. Ko'pgina avtomobil dvigatellariga (GAZ-24, ZIL-130, YAMZ-236) ham shu


prinsipda ishlaydigan havo tozalagichlar (21.2-rasm) o'inaliladi. Havo korpus 6 bilan qopqoq 9 orasida hosil bo'lgan tirkishdan kiradi. Katta tezlikda kirgan havo korpusdag'i moy vannasi 2 ga urilib, undagi yirik zarrachalar moyda qoladi va birinchi marta tozalanadi. Yo'naltiruvchi halqa 1 ga urilib, yo'nalishini o'zgartiradi. So'ng moy tomchilarini o'ziga ilashtiradi va yuqoriga ko'tarilib, kapron tolasidan iborat filtr 7 dan o'tib, ikkinchi marta tozalanadi.



*21.2-rasm. Avtomobilarda ishlatiladigan havo tozalagichlar:*  
1-yo'naltiruvchi halqa; 2-moy vannasi; 3-halqasimon bo'shliq; 4-markaziy quvur; 5 va 8-dvigatel karterini shamollatuvchi quvurlar; 6-korpus; 7-havo tozalovchi element; 9-qopqoq

Tozalangan havo markaziy quvur 4, karbyurator yoki kiritish kollektorlari orqali silindrلarga kiradi. Dvigatel karterini toza havo shamollatib turishi uchun 5 va 8 quvurlar qo'yilgan. Halqasimon bo'shliq 3 havo so'rishda hosil bo'ladigan shovqinni kamaytiradi.

KamAZ-5320 avtomobilini havo bilan ta'minlash va havo tozalash tizimi 21.3-rasmda ko'rsatilgan.



**21.3-rasm. KaMAZ-5320 avtomobilini havo bilan ta'minlash va havo tozalash tizimi:**

a-havo bilan ta'minlash tizimi; b-havo tozalagich; 1-qalpoq; 2-indikator; 3-kiritish quvurlari; 4 va 7-quvurlar; 5-havo tozalagich; 6-chang so'rib oluvchi patrubok; 8-kuzov borti; 9-kabina; 10-havo tozalagich korpusi; 11-havo tozalovchi element; 12 va 23-tashqi va ichki qobigi; 13-kiritish patrubogi; 14-zichlagich halqasi; 15-qopqoqni gotirish mexanizmi; 16-richag; 17-qopqoq; 18 va 22-tozalovchi elementning asosi; 19-quloqchali guyka; 20-shpilka; 21-kronshteyn; 24-chiqarish patrubogi


Keyingi vaqtida ba'zi traktorlarga siklonli havo tozalagichlar o'rnatilmoqda. Bu holda havo ikki marta tozalanadi.

Siklonli havo tozalagichning (21.4-rasm) ichiga to'qqizta siklon 11 joy lashtirilgan bo'lib, u kallak 6 va tub 12 bilan berkitilgan g'ilof 4, kallak ichiga joy lashtirilgan ikkita sim to'r kasseta 9 va 10 dan iborat.

Oddiy moy vannali havo tozalagichlarda havo changdan 97-97,5% gacha tozalansa, siklonli havo tozalagichda esa 99% gacha tozalanadi.

Havo tozalagich quyidagi tartibda ishlaydi: sim to'r qalpoq 7 orqali kirgan changli havo g'ilof 4 ga urinma yo'nali shida kirgani uchun uyurma harakatga keladi. Havo g'ilofda bir marta changdan tozalanadi, so'ngra changli

havo to'qqizta siklonning tangensial joylashtirilgan qisqa quvuridan kirib, uyurma harakatni davom ettiradi. Havo oqimining markazdan qochirma harakati tufayli chang zarrachalari havodan ajralib, bunker 13 ga tushadi va ikkinchi bor tozalanadi. Dvigateldan chiqayotgan gazlar ejektor 2 o'rnatilgan quvurdan katta tezlikda o'tib, unda siyraklanish hosil qiladi. Natijada chang zarralari atmosferaga chiqarib tashlanadi.



*21.4-rasm. Siklonli havo tozalagich:*

1-so'rib oluvchi quvur; 2-ejektor; 3-uchqun o'chirgich; 4-kojux; 5-qisqa quvur; 6-kallak; 7-sim to'rli qalpoq; 8-havo kiradigan quvur; 9,10-sim to'rli kassetalar; 11-siklon; 12-tub; 13-bunker

Kirgan havoning 12-15%si chang bilan chiqib ketadi. Tozalangan havo siklonlar ichidagi ingichka qisqa quvurdan kirib sim to'r kassetalar orqali o'tib, uchinchi marta tozalanadi va dvigatelning silindrulariga kiradi.

## 21.2. YONILG'I TOZALAGICHALAR

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, dvigatelning silindr-porshen guruhi yonilg'i bilan kiradigan chang zarralari ta'sirida ham yeyilar ekan. Karbyurator va dizellarda

yonilg'i uzatish apparatlarining ish muddati yonilg'idagi chang zarralarining miqdoriga bog'liqdir.

Dvigatel va yonilg'i uzatish apparatlari detallarining yeyilishini kamaytirish maqsadida yonilg'ini tindirish va tozalash talab etiladi.


Karbyuratorli dvigatellarda yonilg'i birinchi marta bakda tinib tozalanadi, so'ngra tindirgich filtrda tozalanadi. Tindirgichda mexanik aralashmalar va suv cho'kadi. Yonilg'i esa sim to'r yordamida chang zarralaridan tozalanib karbyuratorga uzatiladi.

Dizellarning yuqori bosimli yonilg'i berish apparatlarining detallari katta aniqlik bilan yasalgan bo'ladi. Chunonchi, nasosdagi «gilza-plunjer», «uya-klapan» va «forsunka ninas-i-to'zitgich» tirkishlari 1-5 mkm oralig'ida bo'ladi. Bu justlar (detallar) yeyilmasligi uchun yonilg'i nihoyatda toza bo'lmg'i lozim. Shuning uchun yonilg'i bakka quyilishidan oldin, albatta (10-15 kun) tindirilishi shart. Dvigatelning o'ziga esa dag'al va mayin filtrlari o'rnatilgan bo'lib, ular 3 mkm gacha bo'lgan chang zarralarini ushlab qolishi va o'ta aniq juftlarga toza yonilg'i berilishini ta'minlashlari kerak.

Dag'al filtrlari-yonilg'ini yirik mexanik zarralardan (40 mkm va undan yuqori) tozalaydi. Dizellarda metall lentali va metall plastinali tirkishli handa boshqa materiallardan tayyorlangan dag'al filtrlari qo'llaniladi.

21.5-va 21.6-rasmlarda dag'al va mayin yonilg'i filtrlari (YAMZ va KamAZ dvigatellari uchun) keltirilgan.

Mayin filtr dag'al filtrdan o'tib ketgan mayda chang zarralarni tutib, yonilg'ini uzil-kesil tozalaydi. Mayin va dag'al filtrlari orasiga nasos o'matiladi. U haydagani yonilg'i mayin filtrda tozalanib, yuqori bosimli yonilg'i nasosiga, ya'ni plunjer justiga boradi. Yonilg'inining ozroq qismi plunjer va klapan orqali forsunkaga yuboriladi, qolgani esa haydovchi nasos (pompa)ga qaytariladi.




**21.5-rasm. Yonilg'i ni dag'al tozalash filtrlari:**

a-YAMZ-236 dizeli; b-KamAZ-740 dizeli: 1 va 16-to'kish tigini, 2-tozalash elementi; 3 va 15-korpuslar; 4, 7 va 17-teshiklar; 8 va 10-qistirmalar; 11-chunglatgich; 12-qaytargich; 23-tozalovchi sim to'r; 14-tindirgich

Ba'zan dag'al va mayin tozalagichlar bir korpusga yonma-yon o'matiladi. Bu holda yonilg'i bakdan avval pompaga so'rildi, undan keyin filtrlar orqali tozalanib, yonilg'i nasosiga yuboriladi. Bu esa nasosning tez ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.


Mayin filtrning elementi sifatida bir necha qavat zinchlab o'ralgan paxta ip yoki maxsus qog'oz ishlataladi. Yonilg'i mayin filtridan 0,2-0,4 MPa bosim ostida o'tkazilganda zarrachalar shu ip yoki qog'ozda tutilib qoladi. Keyingi vaqtida dizel dvigatellarida ip element o'rniga buklama qog'oz element (2-TF2) qo'llanilmoqda.

Tozalash elementi taxlam-taxlam qilib buklangan pishiq qog'oz silindr dan iborat. Silindrning usti va osti metall plastina bilan berkitilib, sterjenga o'matilgan. 21.7-rasmdagi I sxemada filtrlarning parallel ishlashi, II



**21.6-rasm. Yonilg'iini mayin tozalagichlar:**

a-YAMZ-236 dizeli uchun: 1-to'kish tigini; 2, 15-qistirmalar; 3-prujina; 4-shoyba; 5-karkas flanetsi qistirmasi; 6-tozalovchi element; 7-tozalagich korpusi; 8-sterjen; 10-tozalagich qopqog'i; 11-konussimon tigini; 12-jiklyor shaybasi; 13-jiklyor; 14-korpusni gotirish bolti; 16-qisitirma; b-KamAZ-740 dizeli uchun



**21.7-rasm. Buklama qog'oz elementli yonilg'i tozalagich:**  
1-uch yo'lli kran

sxemada esa o'ng tomondagi seksiyani ifoslardan tozalash usuli ko'rsatilgan; buning uchun 3 yo'lli kran 90° ga buriladi.

### 21.3. MOY TOZALAGICHALAR


Dvigatel detallarining yejilishini kamaytirish uchun moy tozalagich ishlataladi. Moy tozalagichlar ish vaqtida va ishqalanish natijasida hosil bo'ladigan metall qirindi, qurum, smola, chang va boshqalarni muttasil tutib qolib, moyning sifatini ma'lum vaqt saqlaydi. Moy dvigatelnинг asosiy magistraliga yetib borguncha bir necha marta tozalanadi:

I-moy qabul qilgichdan o'tishda sim to'r orqali suzib o'tkaziladi;

II-karter tubida joylashgan tiqindagi magnit orqali ikkinchi marta tozalanadi. Bundan tashqari zamonaviy dvigatellarga dag'al va mayin moy filtrlari o'rnatiladi, Dag'al tozalagich moyning hammasini o'zidan o'tkazib, uni asosan yirik mexanik zarralardan tozalaydi va lentali yoki plastinali bo'ladi. Bu tozalagichlarning ishlash prinsipi yuqorida ko'rib o'tilgan yonilg'i filtrlariga (dag'al) juda o'xshaydi. Nasosdan kelgan moy jiklyor orqali o'tib, bosimi birmuncha pasayadi va taxlam-taxlam (gofrli) silindrlerga o'ralgan lentalarni tirqishidan tozalanib, silindr bo'shilg'iga yig'iladi. So'ngra moy radiatoriga yoki kran yopiq bo'lsa, moy magistraliga boradi. Tozalagichda tutilib qolgan ifoslardan korpusga yig'iladi va uni vaqt-i-vaqt bilan tozalab turish lozim. Elementlar ifolshanib qolganda ulardan moy o'ta olmaydi, natijada moy bosimi oshib, saqlagich klapan ochiladi va u magistralga tozalanmasdan o'tadi. Moy magistralidagi moyning bosimi cheklagich klapan bilan rostlanadi, bosim ortganda (moy sovib, podshipniklar tirqishi kattalashmagan bo'lsa) klapan ochilib, moyning bir qismini karterga qaytaradi.

Plastinali tozalovchi element valik 12 ga yig'ilgan plastina 8 va yulduzcha 9 lardan iborat. Yuqorida

ko'rganimizdek, plastinalar orasida yulduzcha shaklida qalnligi (0,07-0,09 mm) ga teng tirkish hosil bo'ladi (21.8-rasm). Moy nasosdan tindirgichga keladi, halqa plastinalar orasidagi tirkishdan o'tib tozalanadi, vertikal kanal orqali halqasimon bo'shliqqa yig'iladi va undan mayin tozalagichga yoki asosiy moylash tizimiga o'tadi. Elementlarni ifoslardan tozalash uchun valik 12, dasta 7 bilan burab aylantiriladi. Bunda tozalagich plastinalar kirlarini sidirib tindirgichga tushiradi. Tiqin 13 orqali quyqa bo'shatiladi. Saqlagich klapan 6 moy bosimi mo'ljaldan oshganda moy kiradigan va chiqadigan kanallarni o'zaro tutashtiradi.




21.8-rasm. Plastinali filtr:

1-tindirgich; 2-sterjen; 3 va 5-kanal; 4-korpus; 6-saqlagich klapan; 7-dasta; 8-filtrlovchi plastina; 9-yulduzcha; 10-tozalagich; 11-plastinalar teshigi; 12-valik; 13-tiqin

**Mayin filtrlari.** Deyarli barcha traktor va ba'zi avtomobil dvigatellarida mayin filtr sifatida reaktiv sentrifuga o'matiladi. Ba'zi traktorlarga dag'al filtr qo'yilmasdani, faqat sentrifuganing o'zигина qo'yiladi. Bu holda sentrifuga moy magistraliga ketma-ket ulanadi. Dag'al

tozalash filtrlari parallel ulanadi. Sentrifuga moyni markazdan qochirma kuch ta'sirida solishtirma og'irligi moynikidan katta bo'lgan oksidlanish mahsulotlari, smolalar va metall qirindilardan tozalaydi. Agar sentrifuga moy magistraliga parallel uלangan bo'lsa (21.9-rasm), moyning bir qismini tozalaydi. Rotor 17 vertikal o'q 18 da ravon aylana oladi. Korpusga esa ikkita po'lat naycha 5 presslab o'rnatilgan. Ularning pastki uchlari rotor korpusiga (urinma yo'nalishida parmalangan kanallarga) tutashtirilgan. Bu kanallar kalibrlangan teshikli forsunkalar 24 ga ega.




*21.9-rasm. Moy tozalagichlar:*

*a-to'liq oqimli; b-sentrifuga; k-aks ta'sir kuchi; 1-to'kish teshigining tigini; 2-to'kish naychasi; 3-filtr korpusi; 4-moy bosimi datchigi; 5-qayta haydash klapani prujinasi; 6-qayta haydash klapani; 7-prujina; 8-to'kish trubkasi bolti; 9-filtrlovchi elementning zichlagichi; 10-qopqoq; 11-moy o'tkazgich; 12-filtrlovchi element; 13-moy bosimining avariya holatini ko'rsatuvchi lampa datchigi; 14-korpusni qotirish yuzasi; 15-qulogchali gayka; 16-qopqoq; 17-rotor; 18-rotor o'qi; 19-rotor gopqog'i; 20 va 21-qistirmalar; 22-rotor korpusi; 23-sentrifuga korpusi; 24-forsunka; 25-podshipnik; 26-po'lat qaytargich*

Sentrifuga quyidagicha ishlaydi: nasosdan kelgan moyning ozroq qismi kanallar orqali rotor korpusi ichiga o'tadi, keyin trubkalarga va undan forsunkalar 24 ga o'tib, ularning teshigidan shiddat bilan oqib chiqadi. Natijada moyning bosim kuchi (reaktiv kuch) rotorni moy chiqayotgan tomonga teskari yo'nalishda aylanishga majbur etadi.

Nasos moyni 0,4-0,6 MPa bosimda haydaganda va moyning harorati 80-85°С bo'lganda, sentrifuganing rotori minutiga 5000-7000 marta aylanadi. Natijada moyning ichidagi, solishtirma og'irligi undan og'ir zarrachalar rotoring aylanishidan hosil bo'lgan markazdan qochirma kuch tufayli rotor korpusining devoriga urilib, unga yopishadi. Toza moy kanallar orqali dvigatel karteriga oqib tushadi.




**21.10-rasm. Dvigatel moy magistraliga ketma-ket ulangan sentrifuganing sxemasi:**

1-moy nasosi; 2-moy radiatori; 3-vint; 4-stakan; 5-ichki stakan; 6-maycha; 7-o'q; 8-reduksion klapan; 9-cheklagich klapan; 10-termostat klapan

Shuni aytish lozimki, sentrifugalarni qo'llash moyni haqiqatan ham yaxshi tozalashga va eskirish muddatini uzaytirishga imkon berdi. Hozirgi vaqtda dvigateldagi moy 120 motor-soat o'rniغا 240 motor-soatda almashtirilyapti. Sentrifuganing afzalliklari ma'lum bo'lgandan so'ng, ular moylash tizimiga ketma-ket ulana boshlandi. Bu holda nasos bilan haydalgan moyning hammasi sentrifugadan o'tib tozalanadi (21.10-rasm). Unda tozalangan moyning bir qismi rotoring aylanishini ta'minlab, dvigatel karteriga oqib tushadi, qolgan qismi esa asosiy moy magistraliga borib, dvigatel detallarini moylaydi.

Agar moy sovuq bo'lsa, termostat klapan 10 ochilib, moy rotorga bormasdan, magistralga o'tadi. Reduksion klapan 8 bosim 0,6-0,7 MPa dan oshganda ochiladigan qilib rostlanadi. Cheklagich klapan 9 moy magistralidagi bosimni 0,1-0,2 MPa chamasida saqlab, foydalanilmagan moyni karterga o'tkazib yuboradi. Sentrifuga ishlaganda rotoring ko'tarilishi vint 3 bilan chegaralanadi. Ko'pchilik avtomobil va ba'zi traktor dvigatellarida mayin filtr sifatida DASFO (dvuxseksionniy avtomobilniy super filtr - otstoynik - avtomobilning ikki seksiyali super filtr tindirgichlari), DASFO EFA va «R» («Regotmass») markali tozalagichlar qo'llaniladi. Bu elementlar moyni mayda zarrachalardan tozalaydi. Filtr yangiligidagi o'zidan moyning 10-15% ini o'tkazadi, element ifloslangan sari kamroq o'tkaza boradi, ma'lum muddat ishlagandan keyin esa yangisiga almashtiriladi. Bu filtrlarda tozalangan moy magistralga yuborilmasdan, dvigatel karteriga oqib tushadi. DASFO elementli mayin filtr (21.11-rasm) korpus 6 ichidagi sterjen 9 ga kiritilib, tepasidan qopqoq 4 bilan berkitiladigan, almashinadigan filtrllovchi element 2 dan iborat.

Sterjenga prujina kirgizilib, ustidan bolt 5 bilan qopqoq siqb qo'yiladi. Moy tozalagich karton plastina va qistirnadan iborat. Moy plastina bilan qistirmalar orasidagi tirkish va karton plastina ham qistirma materiallarining juda mayda g'ovaklaridan sizilib, qistirma kesigiga va undan markaziy kanal teshigi 13 ga o'tadi va dvigateл karteriga oqib tushadi. Moydagи ifloslar plastina va qistirma oralqlariga to'planib, materialiga singib hamda quyqasi filtr korpusi tubiga cho'kib qoladi. Vaqt-i vaqt bilan tiqin burab ochilib, to'plangan quyqa bo'shatiladi.



### *21.11-rasmi. Mayin filtr va uning elementlari:*

*a-DASFO; b-DASFO-EFA; 1-tiqin;*

*2-filtrlovchi element; 3 va 11-trubka; 4-qopqoq; 5-bolt; 6-korpus; 7-karton plastina; 8 va 14-qistirmalar; 9-sterjen; 10-teshiklar; 12-plastina; 13-kanal teshigi*

Moy - sovuq yoki filtrlovchi element ifloslangan bolsa, moy filtrda tozalanmasdan, element tubidagi oltita teshik 10 orqali sterjenning kalibr langan teshigiga o'tib, aylanib yurib isiydi. Boshqa filtrlovchi elementlar ham deyarli shu prinsipda ishlaydi, ammo ularning shakli boshqacharoq.

## **XXII BOB. MOYLASH TIZIMLARI**

### **22.1. UMUMIY TUSHUNCHALAR**

Ichki yonuv dvigatellarining ishlash muddati ko‘p jihatdan moylash tizimiga bog‘liq bo‘lib, uni uzaytirish uchun ishqalanuvchi juftlar orasida suyuq ishqalanish hosil qilish kerak.

Dvigatellarning eng zaif qismlariga silindr-porshen guruhi, tirsakli val podshipniklari, taqsimlash vali podshipniklari kiradi.

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, bu juftlar issiq va changli sharoitda (O‘rta Osiyo zonasasi) mo‘tadil sharoitga qaraganda nisbatan tez (6-8 marta) yeyilar ekan. Bu esa mutaxassislardan katta e’tiborni, ya’ni dvigatel tizimlariga texnik xizmatni yaxshi yo‘lgan qo‘yishni talab qiladi.

Moylash tizimiga qo‘yiladigan talablar:

- ishqalanuvchi sirtlarning ortiqcha yeyilishi, qizishi va qadalib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik;
- ishqalanish ishiga indikator quvvatni kam sarflash;
- ishqalanuvchi sirtlarda hosil bo‘ladigan issiqlikni kaimaytirish;
- ishqalanish sirtlariga yetarli miqdorda moy yetkazib berish;
- kerak bo‘lganda o‘ta qiziydigan detallarni (porshen va boshqalarni) majburan sovitish.


Dvigatelning yuklangan qismlariga (tub va shatun podshipniklari, taqsimlash vali podshipniklari va h.k.) moy bosim ostida berilishi zarur.

Dvigatellarda tirsakli valning tub podshipniklari eng ko‘p yuklangan bo‘lib, uzlusiz o‘zgaruvchan tezlik va yuklama ta’sirida ishlaydi. Natijada ularga kirayotgan moyning bosimi, harorati va qovushoqligi ham o‘zgarib turadi.

## PODSHIPNIKLARNING ISHLASH MUDDATI

Ularning ish sharoitlari dvigatel turi (nadduvli, nadduvsiz, dizel yoki karbyuratorli dvigatel) hamda moyning sifati va uni podshipniklarga keltirish usuliga bog'liqdir.

Podshipnikning moy qatlamidagi gidrodinamik bosimlar epyurasi 22.1-rasmda keltirilgan. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, podshipniklarga moy past bosimli joydan kiritilishi lozim. Moyning ko'p qismi podshipnikning yuklanmagan zonasidan oqib chiqadi va aksincha.



22.1-rasm. Podshipnikning moy qatlamidagi gidrodinamik bosimlar

Bu holda val bilan ichqo'yma bir-biriga ishqalanib ishlashi mumkin. Bu esa maqsadga muvofiq emas. Podshipniklar uzoq va puxta ishlashi uchun val va ichqo'ymlarning sirtlarida eng kamida 8 mkm qalinlikda moy pardasini hosil qilish kerak.

Dvigatelning boshqa qismlari ham murakkab (yuqori harorat va bosim) sharoitda ishlaydi. Masalan, silindr-porshen guruhidagi birinchi halqa bilan gilza ko'zgusi orasida suyuq ishqalanishni hosil qilib bo'lmaydi. Natijada gilzaning yuqori qismi ko'p yeyildi. Yeyilishni kamaytirish maqsadida birinchi halqa xrom bilan qoplanadi, gilza esa toplanadi va h.k.

Natijada podshipniklar (ichqo'ymlar) notejis sovitiladi. Bosim ko'p zonada moyning harorati ortadi, moy pardasi yupqalashadi, qovushoqligi esa kamayadi.

## **22.2. MOYLASH TIZIMINING VAZIFASI VA TURI**

Dvigatel detallari o'zaro harakat qilganda sirtidagi g'adir-budurliklari bir-biriga ishqalanib, ishqalanish kuchi hosil bo'ladi, natijada detallar qiziydi va yeylimadi, hatto qadalib qolib, ishdan chiqishi mumkin. Detallar qancha tez harakat qilsa, ishqalanuvchi sirtlar bir-biriga qancha kuchliroq siqilsa, ishqalanish kuchini yengish uchun shuncha ko'p quvvat sarf bo'ladi. Detallarning ishqalanishini kamaytirish uchun ularning sirti mumkin qadar silliq qilinadi, termik usulda ishlanadi, yeylimishga chidamli metallar bilan qoplanadi. Podshipniklarda esa antifriksion qotishmalar qo'llaniladi. Ayrim hollarda sirpanib ishlaydigan podshipniklar o'miga yuma'anib ishlaydigan (sharikli, rolikli) podshipniklar o'matiladi. Yeyilishni kamaytirishning asosiy omillaridan biri ishqalanadigan sirtlar orasida moy pardasi hosil qilishdir. Bunda sirtlar bir-biridan moy pardasi bilan ajratilib. qattiq sirtlar o'zaro ishqalanishi o'miga suyuq moy qatlami zarrachalari bilan ishqalanadi.

Ishqalanish quyidagi turlarga bo'linadi.

- suyuq ishqalanish (moy pardali);
- chala suyuq ishqalanish;
- chekli ishqalanish;
- quruq ishqalanish.

Ishqalanuvchi sirtlar bir-biridan moy qatlami bilan ajratilgan bo'lsa, bunday ishqalanish suyuq ishqalanish deyiladi. Bunday holda moy qancha qovushoq bo'lsa va detallar qancha tez harakat qilsa, moy pardasi shuncha qalin bo'ladi, ta'sir etuvchi yuklama ortsa, moy qatlami yupqalashadi.

Moy sifati harakat tezligiga va yuklamaga munosib bo'lmasa, detallar sirti qisman bir-biriga bevosita tegishiga sabab bo'ladi. Bunday ishqalanish chala suyuq ishqalanish deyiladi. Agar detallar orasidagi tirqishdan moy qatlami

siqib chiqarilib, faqat sirtlarning molekulyar kuchi ta'siri bilangina juda yupqa moy qavati qolsa, bunday ishqalanish chekli ishqalanish deyiladi.

Agar chekli ishqalanishning yupqa moy pardasi yirtilsa va detallar sirti bevosita bir-biriga tegib ishlasa, quruq ishqalanish hosil bo'ladi. Moy pardasi ishqalanishni kamaytirishdan tashqari, detallarni birmuncha sovitadi, sirtlar yeyilishidan hosil bo'lgan metall zarrachalarini olib ketadi, detallar orasidagi tirqishlarni to'ldirib, ularning jipsroq tegishini ta'minlaydi (masalan, silindrdragi kompressiya ortadi) hamda ularni zanglashdan saqlaydi. Xullas, moy ishqalanish kuchini, detallarning yeyilishi va qizishini kamaytiradi, demak, shularni yengish uchun sarflanadigan qvvat tejaladi.

Dvigatelning moylash tizimi ishqalanadigan detallarga ma'lum harorat va bosimda hamda yetarli miqdorda moy yetkazib berishi kerak. Dvigatel detallari, odatda, kombinatsiyalashgan usulda moylanadi, ya'ni moy sachratib yoki bosim bilan majburan yuborilishi mumkin. Masalan, gilzalarning ko'zgusi sachratib moylanadi. Bunda karterdagi moy harakatlanuvchi detallar bilan sachratilib, mayda tomchilardan iborat moy tumanlari hosil bo'ladi va ishqalanuvchi detallarga o'tirib, ularni moylaydi.

Detallarga moy majburan yuborilsa, bosim bilan moylash deyiladi, ya'ni zo'riqib ishlaydigan mexanizmlar (tirsakli valning tub va shatun podshipniklari, taqsimlash valining podshipniklari, koromislolar o'qi va boshqalar) bosim ostida moylanadi.

### **22.3. ICHKI YONUV DVIGATELLARIDA ISHLATILADIGAN MOYLAR VA ULARNING XOSSALARINI**

Dvigatel moyi ishqalanish juftlarining sirtlarida yupqa moy pardasi hosil qiladi. Ular detallarga tushadigan kuchli bosim va yuqori haroratga bardosh berishi, yonish

jarayonida issiq gazlar bilan aralashib alangalanmasligi va yonganda esa qurum hosil qilmamasligi kerak. Moylarning qovushoqligiga haroratning o'zgarishi kam ta'sir qilishi, detallami zanglatmasligi va uzoq vaqt saqlaganda esa buzilmasligi kerak. Odatta, moylar dvigatel mexanizmlarining ish sharoitlarini hisobga olgan holda tanlanadi. Masalan, karbyuratorli va dizel dvigatellarida yilning fasllariga mos moylar qo'llash tavsija etiladi.

Suv nasosi podshipnigi uchun suv yuvib ketmaydigan, elektr asbob-uskunalarini moylash uchun esa maxsus suyuq moylar ishlatalidi.

Dvigatel uchun qo'llaniladigan moylar neftdan yonilg'ilar (benzin, kerosin, dizel yonilg'isi) olingandan keyin qolgan qoldiq mazutni qayta haydash yo'li bilan olinib, ular distillash moylari deb ataladi. Dvigatelda moyning eskirmasdan ishlash muddati moylash tizimining tuzilishiga, texnik qarov qoidalarining to'g'ri bajarilishiga, moyning sifatiga, ishlash rejimi va sharoitlariga (issiq yoki changli) bog'liq. Moyning asosiy ko'rsatkichlariga uning qovushoqligi, qotish harorati, ishqor va kislota sonlari va boshqalar kiradi.

Moyning qovushoqligi ishqalanish kuchiga va moy pardasi qalinligiga ta'sir etadi. Masalan, qish paytida moyning qovushqoqligi ortadi, natijada qalin moy pardasi hosil bo'ladi, kichik tirqishlarga kira olmaydi, mexanizmlarning harakati qiyinlashadi va dvigatel qiyin ishga tushadi. Moyning qovushoqligi nisbatan kichik bolsa, tirqishlardan siqilib chiqib, sirtlarni qanoatlanarli darajada moylamaydi. Shuning uchun moylarning bosimini nazorat qilib turish kerak. U ma'lum miqdordan ( $0,2\text{-}0,4$  MPa) past bo'lmasisligi lozim. Aks holda detallarning yejilishi tezlashadi.

Moyning qotish harorati  $-20^{\circ}\text{---}40^{\circ}\text{S}$  oralig'ida tanlanadi. Moyning stabilligi deb, ishqalanish sirtlariga yopishgan yupqa moy qatlamining yuqori harorat va

havodagi kislorod ta'siridan oksidlanishga va turli zararli moddalar hosil etishga qarshilik ko'rsatishiga aytildi.

Moyning tarkibi shunday tanlanishi kerakki, u suv bilan aralashganda ham kislotalar hosil qilmasligi kerak, chunki ular detallarning yeyilishiga va yemirilishiga sabab bo'ladi. Hozirgi zamon dvigatellarida moylarga oz miqdorda (1-5%) maxsus ko'p funksiyali qo'shilmalar (prisadka) qo'shiladi. Ba'zi qo'shilmalar moyni quyuqlashtiradi, yuqori haroratda moyning qovushoqligini oshiradi, qotish haroratini esa pasaytiradi, ishqalanishga chidamliligini oshiradi va h.k. Bundan tashqari moyning oksidlanishiga, korroziyaga qarshi, quyqa va cho'kindilarni eritib yuvadigan qo'shilmalar ham qo'shiladi. Detallarning sirtida mustahkam moy pardasi hosil etish uchun esa maxsus qo'shilmalar ishlataladi.

Hozirgi paytda asosan kompleks qo'shilmalar qo'llaniladi. Ular yeyilishni kamaytiradi, porshen halqalarining kuyib yopishishiga yo'l qo'ymaydi va moyning qotish haroratini pasaytiradi.

Karbyuratorli dvigatellarni moylash uchun M6<sub>3</sub>/10Г<sub>1</sub>; M12Г<sub>1</sub>; M8Г<sub>1</sub> (GAZ-24); M8Б<sub>1</sub> (ZIL-130); dizellar uchun esa ДС-11; М10В<sub>2</sub>; ДС-8 va M8B (YAMZ-236, YAMZ-238); M10ГФ; M10В<sub>1</sub>; M8ГФ<sub>3</sub> va M8B (KamAZ-740) markali moylar qo'llaniladi. Bunda; D - dizel moyi, C - selektiv erikichlar bitan tozalangan, 3 - sovuqda maqbul qovushoqligini saqlaydigan modda qo'shilganligini, M - motor moyi ekanligini, raqamlar esa moyning 100°S dagi qovushoqligini (sSt) bildiradi. Г-tezyurar karbyuratorli dvigatellar uchun, Г<sub>2</sub>-tezyurar dizellar uchun, Б<sub>1</sub>-aylanishlar soni 4000 min<sup>-1</sup> gacha bo'lган karbyuratorli dvigatellar uchun, B-o'rtacha tezlikda ishlaydigan dvigatellar uchun mo'ljallangan moylar. Masalan, M6<sub>3</sub>/10Г<sub>1</sub> moyining ta'rifi: motor moyi, 18°S da qovushoqligi 2600-


10400 sSt, quyiltirilgan, 100°S da esa qovushoqligi -10 sSt hamda tezyurar dvigatellar uchun mo'ljallangan. Turli moylarni bir-biriga aralashtirish va belgilangan markalari o'rniga boshqasini ishlatish yaramaydi.

## 22.4. MOYLASH TIZIMINING UMUMIY SXEMASI

Dvigatel ishlaganda detallarning yejilishidan hosil bo'lgan metall zarrachalari, havo orqali kirgan chang, qisman yonishdan hosil bo'lgan malhsulotlar karterdagi moyni ifloslaydi. Dvigatel zo'riqib ishlaganda esa moy qiziydi, smola hosil bo'ladi. Shuning uchun moylash tizimi ishqalanuvchi detallarga kerakli miqdorda moy yuborishi, uni mexanik zarralardan puxta tozalashi va lozim bo'lsa, sovitib turishi zarur. Bu talablarni qanoatlantirish uchun ichki yonuv dvigatellarida asosan kombinatsiyalangan moylash tizimi qo'llaniladi. 22.2-22.3-rasmarda karbyuratorli (GAZ-24) va dizel (KamAZ-740) dvigatellarining moylash tizimi keltirilgan.

Dvigatelning moy zaxirasi karterda turadi. Moy nasosi moyni so'rib, dag'al filtrga bosim bilan yuboradi. Bu filtdan tozalanib o'tgan moyning bir qismi mayin filtrga yo'naltirilib, undan tozalanib o'tgan moy karterga oqib tushadi. Moyning boshqa qismi moy radiatoriga yo'naltiriladi. Radiatorda sovgan moy esa magistral kanal orqali dvigatel qismlarini moylashga yuboriladi. Moy kanallar orqali tirsakli valning tub va shatun podshipniklariga boraadi. Shatun tanasidagi parmalangan teshik orqali esa porshen barmog'iga boradi. Magistral kanal bilan tutashtirilgan alohida teshik va naychalar orqali taqsimlash valining podshipniklariga, koromislotlar o'qiga va zo'riqib ishlaydigan boshqa detallarga yuboriladi. Podshipniklardan oqib chiqqan moyni tirsakli val sachratadi, hosil bo'lgan moy zarrachalari silindrilar ko'zgusini,

porshenlarni, taqsimlash valining kulachoklarini va boshqa detallarni moyladi.



**22.2-rasm. GAZ-24 «Volga» avtomobili dvigateli moylash tizimining sxemasi:**

- 1 va 18-moy to'kish teshigining tiqini;
- 2-moy qabul qilgich;
- 3-moy nasosi;
- 4-sozlash klapani;
- 5-tirsakli val;
- 6-moy magistrali;
- 7-taqsimlash vali;
- 8-moy radiatori;
- 9-quyish bo'g'izi qopqog'i;
- 10-koromislo;
- 11-blok kallagi qopqog'i;
- 12-blok kallagi;
- 13-klapan;
- 14-shtanga;
- 15-turtkich;
- 16-moy bosimini ko'rsatish datchigi;
- 17-to'la oqimli moy filtri;
- 19-moy bosimining avariya holatini ko'rsatuvchi lampa datchigi;
- 20-suqlagich klapani;
- 21-moy radiatori kranii;
- 22-poddon;
- 23-shatun teshigi;
- 24 va 25-silindrlar bloki va blok kallagi moy kanallari,
- 26-moy sathi ko'rsatgichi;
- 27-vintli ariqcha;
- 29-tiqin;
- 30-tirsakli val moy kanali;
- 31-kir yig'uychi bo'shliq;
- 32-moy to'kish teshigi;
- 33-shesternyalarni moylash naychasi;
- 34-taqsimlash vali bo'yinlari ariqchalari;
- 35-taqsimlash vali shesternyasi;
- 36- tirsakli val shesternyasi

Dvigatellar qish kunlari ekspluatatsiya qilinganda moy radiatorga yuborilmaydi. Bu holda moy sovitilmasdan, filtrdan magistral kanalga o'ta beradi.

## 22.5. MOYLASH TIZIMINING ASBOB VA MEXANIZMLARI

1. Moy nasosi dvigatel detallarining ishqalanadigan sirtlariga bosim ostida moy yuboradi. Dvigatellarda asosan shesternyali moy nasosi qo'llaniladi. Nasos (22.4-rasm) cho'yan korpus, uning ichiga joylashtirilgan yetakchi va yetaklanuvchi shesternyadan iborat. Nasosning yetakchi shesternyasi taqsimlash shesternyalarini orqali tirsakli valdan yoki taqsimlash valining vintsimon shesternyasidan harakatga keltiriladigan valikka o'rnatilgan. Yetaklanuvchi shesternya korpusga o'matilgan o'qda aylanadi. Nasos quyidagicha ishlaydi:

Shesternyalar (turli tomonga) aylanganda, moy kirish kanalidan o'tib tishlar orasini o'ldiradi, tishlar harakati davomida korpus devori bilan tishlar orasidagi moy siqilib, haydash kanaliga bosim bilan chiqadi.


Moy nasosga qabul qilgichning sim to'ridan tozalanib kiradi.

Moy qabul qilgichlar suzuvchi (qalqovuchli) va qo'zg'almas bo'ladi.

Suzuvchi moy qabul qilgich moy betida qalqib toza moy oladi. Ba'zi moy qabul qilgichlarning sim to'ri ifloslansa, nasosning so'rish kuchi bilan sim to'r yuqoriga ko'tariladi va o'rtasidagi teshigidan moy tozalanmasdan so'riladi.

Moy bosimi belgilangandan ortmasligi uchun moy nasosiga reduksion klapan o'rnatiladi. Klapanning prujinasi ma'lum bosimga mo'ljallab rostlanadi.


Ko'pchilik dvigatellarda bir seksiyali (bir juft shesternyali) moy nasosi, ba'zan esa ikki yoki uch seksiyali nasoslar qo'llaniladi.



**22.3-rasm. KamAZ-740 dvigateli moylash tizimining sxemasi:**

1-moy radiatori; 2,3,18,19,21,23 va 24-moy o'tkazgichlar; 4-sentrifuganing moy to'kish klapani; 5-sentrifuganing cheklagich klapani; 6-moy radiatorini ulash krani; 7-sentrifuga; 8-kiritib berish bo'lagining saqlagich klapani; 9-moy nasosining radiator bo'linmasi; 10-moy nasosining kiritib berish bo'lagi; 11-differensial klapani; 12-moyni mayin tozalash filtri; 13-asosiy moy magistrali; 14-mayin tozalash filtri cheklagich klapani; 15-manometr; 16-moy sathi ko'rsatkichi; 17-sapun; 20-kompressor; 22-yuqori bosimli yonilg'i nasosi; 25-gidromustani ulash krani; 26-harorat datchigi; 27-ventilyator uzatmasining gidromustusi; 28-poddon; 29-radiator seksiyasini saqlagich klapani

**2 Moy radiatorlari.** Dvigatel zo'riqib ishlaganda yoki issiq sharoitda moy harorati mo'ljaldaqidan ko'tarilib suyuladi (qovushoqligi pasayadi), detallar sirtidagi moy qatlami (pardasi) yupqalashadi. Bu holda juftlarda ishqalanish natijasida moy pardasi yirtiladi va detallar tez yeyiladi.



**b 22.4-rasm. Moy qabul qilgich va moy nasosi:**

a-tuzilishi; b-ish sxemasi; v-sim to'r toza holda bo'lganda moyning kelishi; g-sim to'r to'lib qolgan holda moyning kelishi:  
 1-quyi qismi korpusi; 2-moy nasosining yuqori va quyi qismini birlashtiruvchi bolt; 3-yuqori qismi ikkilamchi shesternyasi; 5-nasos vali; 6-yuqori qismi korpusi; 7-yuqori qismi birlamchi shesternyasi; 8-stoporlash (qotirish) halqasi; 9-moy nasosi qopqog'i; 10-shtift; 11-pastki seksiyaning yetaklovchi shesternyasi; 12-pastki seksiyaning yetaklanuvchi shesternyasi; 13 va 15-o'tkazish klapani; 14-moy radiatorini ulash kranini o'rnatish joyi; 16-korpus; 17-naycha; 18-prujina; 19-to'r; 20-yuqori seksiya; 21-pastki seksiya

Moylash tizimiga o'rnatilgan moy radiatori moyning haroratini maqbul holda ( $85\text{-}90^{\circ}\text{S}$ ) ushlab turadi. Moy radiatori suv radiatori oldiga o'rnatiladi va ventilyator hosil etadigan havo oqimi yordamida moy sovitiladi. Natijada moyning harorati  $10\text{-}12^{\circ}$  pasayadi. Ba'zan sovitish tizimidagi suv oqimi bilan sovitiladigan moy radiatorlari ham qo'llaniladi.

Havo bilan sovitiladigan dvigatellarda moy radiatori ventilyator g'ilofining ichiga o'rnatiladi. Sovuq kunlarda radiatorga moy yubormaslik uchun maxsus kran qilinib, u yopib qo'yiladi yoki o'z-o'zicha ishlaydigan avtomat klapan (termostat klapan) o'rnatiladi. Havo bilan sovitiladigan dvigatellarda moy radiatori ventilyatorning havo oqimi bilan sovitiladi.


**3. Nazorat asboblari.** Moyning sathi, bosimi va harorati turli asboblar (moy o'lchanish sterjeni, manometr va termometr) yordamida o'lchanadi. Manometr va termometrlar mashina yoki traktor kabinasiga, datchiklari esa dvigatelga o'rnatiladi.

Odatda, manometrlar  $0 \div 0,6$  MPa gacha bo'lgan bosimni ko'rsatadigan qilib darajalanadi, chunki maqbul moy bosimi turli dvigatellarda  $0,15 \div 0,4$  MPa bo'ladi. Moy haroratini ko'rsatadigan distansion termometr moy filtridagi yoki dvigatel karteridagi moyning haroratini o'lchaydi.

Moyning harorati  $70\text{-}80^{\circ}$  chamasida bo'lib,  $90^{\circ}\text{S}$  dan ortib ketmasligi lozim. Havo bilan sovitiladigan dvigatelning karteridagi moyning harorati  $100^{\circ}\text{S}$  gacha bo'lishi mumkin. Bundan yuqori haroratda ishslash qat'yan man etiladi.

**4. Karterni shamollatish.** Dvigatel ishlaganda, porshen halqlari bilan silindr ko'zgusi orasidan karterga ishlatalgan gazlar o'tadi, haroratning o'zgarishi natijasida karterda suv tomchilari, ishlaganda esa suv bug'lari hosil bo'lib, karterdagi bosimni oshiradi. Natijada moytutqich va qistirmalar orasidan moy sizishi kuzatiladi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun traktor dvigatellariga sapun o'rnatiladi,

avtomobil dvigatellarining karteri esa majburiy ravishda shamollatiladi. Karter berk usulda shamollatilganda, undagi gazlar dvigatel silindriga so'rib olinadi, ochiq shamollatilganda esa atmosferaga chiqariladi. Karterni ochiq va berk usulda shamollatish sxemasi 22.5-22.6-rasmlarda keltirilgan. Bunda karter havo filtrining yuqorigi va pastki qismidagi bosimlar farqi hisobiga shamollatiladi.




*22.5-rasm. GAZ-53A dvigateli karterini shamollatish sxemasi:*  
1-sentrifuga korpusi; 2-moy quyish quvuri; 3-filtr  
quvuri; 5-havo quvuri; 6-poddon

## **22.6. MOYLAsh TIZIMIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH**

Moylash tizimi yaxshi ishlashi uchun har bir dvigatelda yil fasliga qarab tavsiya etilgan moylarnigina ishlatish zarur. Texnik qarov quyidagilardan iborat: karterdag'i moyning sathini tekshirish, tizimdag'i moy

bosimini va haroratini kuzatish, sentrifugalarni va dag‘al filtr elementlarini yuvish, mayin filtr elementlarini almashtirish hamda dvigatel moyini yangilash. Moyning bosimini dvigatel ishlab qizigandan keyin tekshirish lozim. Moy yo‘llari ifloslansa, reduksion klapan qadalib qolsa yoki tavsija etilgandan qovushoqroq moy ishlatsila, moy bosimi ortadi va aksincha, moy sathi kam yoki tirsakli val podshipniklari yeyilgan bo‘lsa moy bosimi pasayadi.



*22.6-rasm. ZIL-130 dvigatelinining karterini shamollatish sxemasi va uni havo bilan ta’minalash;*

*1-karterni shamollatuvchi havo filtri; 2-moy tutkich;*

*3-karterni shamollatish klapani; 4-korpus; 5-shtutser*

Dag‘al filtr ifloslansa, moy tozalanmasdan va sovitilmasdan magistralga o‘taveradi, shu sababli moyning harorati ortadi. Har smenadagi texnik qarova da nazorat asboblarning ko‘rsatishi, moyning sizmasligi aniqlanadi va nazorat tiqinlar ko‘zdan kechiriladi. Dvigatel to‘xtagan

zahoti sentrifuganing inersiya bo'yicha kamida 1 minut shuvullab aylanishiga qulq solinadi va plastinkali dag'al filtrning dastasini 2-3 marta burab valigi aylantirib qo'yiladi. Yo'riqnomalarda ko'rsatilgan muddatlarda dag'al filtr va sentrifuga tozalanadi va yuviladi. Dvigatel karteridagi moy bo'shatilib, o'miga yangisi quyiladi. Mayin filtrning filtrlovchi elementlari almashtiriladi. Sapunning tiqmasi kerosin yoki dizel yonilg'isida yuvilib, moy bilan namlanib, joyiga qo'yiladi hamda karterni shamollatish tizimining jipsligi tekshiriladi.

O'rta Osiyo iqlim sharoitlarida moylash tizimining ishiga e'tiborni juda kuchaytirish talab qilinadi, chunki bu tizimning yaxshi ishlashi dvigatellarning ishlash muddatini oshiradi.

## 22.7. MOYLASH TIZIMINING ELEMENTLARINI HISOBBLASH

Moylash tizimi elementlarini hisoblash uchun vaqt birligida tizimdan o'tadigan moyning miqdori ma'lum bo'lishi kerak.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, moy orqali beriladigan issiqlikning umumiyligi miqdori  $Q_m$ , porsheni moy bilan sovitilmaydigan dvigatellarda 1,5-2,0% ni, moy bilan sovitiladigan dvigatellarda esa 4,0-5,0% ni tashkil etadi.

Bir sekundda dvigatelga yonilg'i bilan beriladigan issiqlik miqdori,  $Q_{vo}$ :

$$Q_{vo} = N_e / \eta_e ;$$

bu yerda  $Q_{vo}$  - J/s;  $N_e$  - dvigateling effektiv quvvati, Vt;  $\eta_e$  - effektiv F.I.K. (dizellar uchun 0,27-0,42, karbyuratorli dvigatellar uchun 0,22-0,30). Dvigateldan moy orqali yo'qotiladigan issiqlikning miqdori  $Q_m = (0,015-0,02)Q_{yc}$  (porsheni sovitilmaydigan dvigatellar);

$$Q_m = (0,04-0,05) Q_{vo} \text{ (porsheni sovitiladigan dvigatellar).}$$

Dvigatel detallaridan issiqlikni olib ketadigan moyning miqdori:

$$V_s = 10^3 \cdot Q_m \cdot /(\rho_m \cdot C_m \Delta T_m);$$

bu yerda  $\rho_m \approx 900 \text{ kg/m}^3$  - moyning zichligi;  $C_m = 1600 \div 2000$  - moyning o'rtacha issiqlik sig'imi,  $\text{J}/(\text{kg}\cdot\text{K})$ ;  $\Delta T_m = 10 \div 15$  - dvigatela qizigan moyning harorati,  $K$ .

Dvigatel tizimlarida moy bosimini ekspluatatsiya sharoitlariga moslash uchun moyning hajmi ikki barobari ko'p, ya'nî  $V_m = 2V_s$  qilib olinadi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, moylash tizimi orqali sirkulyatsiya qiladigan moyning solishtirma miqdori [ $\text{l}/\text{kVt} \cdot \text{soat}$ ] quyidagicha o'zgaradi:

porsheni moy bilan sovitilmaydigan karbyuratorli dvigatellarda  $7-15 \text{ l}/(\text{kVt}\cdot\text{s})$ ; tezyurar dizel dvigatellarda  $9-22 \text{ l}/(\text{kVt}\cdot\text{s})$ ; porsheni moy bilan sovitiladigan dizel dvigatellarda  $15-37 \text{ l}/(\text{kVt}\cdot\text{s})$  ni tashkil etadi.

Ma'lumki, ekspluatatsiya davrida moyning bir qismi yonish kamerasiga o'tadi va yonadi. Bu yonilg'i miqdorining  $0,2-3\%$  ini tashkil etadi. Dvigatel karteriga quyiladigan moyning hajmi uning quvvatiga bog'liq bo'lib, ( $\text{l}/\text{kVt}$ ), karbyuratorli dvigatellarda  $0,037-0,11 \text{ l}/\text{kVt}$ ; dizellarda esa  $0,147-0,33 \text{ l}/\text{kVt}$  oralig'ida bo'ladi.

### Moy nasosini hisoblash

Moy nasosini ishga tushirish uchun sarf bo'lgan quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$N_n = V_{his} (p_{chiq} - p_{kir}) \cdot \eta_{m,n};$$

bu yerda  $V_{his}$  - moy nasosining hisoblangan ish unumi,  $\text{l/s}$ :

$$V_{his} = \frac{\pi}{30} m^2 \cdot z \cdot b \cdot n_n \cdot 10^{-6};$$

bu yerda  $m=36$  shesternya tishlarining moduli, mm;  $b$ -tishning uzunligi, mm;  $z=6 \div 12$  tishlar soni;  $n_n$ -nasos yetakchi shesternyasining aylanishlar soni,  $\text{min}^{-1}$ ;  $p_{chiq}$  -  $p_{kir}$

tizimdagি bosimlar farqi, Pa;  $\eta_{m,n} = 0,85 \div 0,9$ -moy nasosining mexanik F.I.K.. Moyning bosimi karbyuratorli dvigatellarda 0,3-0,5 MPa, dizellarda esa 0,3-0,7 MPa bo'ladi.

### Moy radiatorini hisoblash

Buning uchun issiqlik almashadigan yuzalar, sovitgichning miqdori va kerakli haroratlarning farqi (radiatorgacha va undan keyin) aniqlanishi lozim.

Sovitgich orqali yuviladigan sirtning yuzasi

$$F_{m,r} = Q_m / [K_m \cdot (T_{m,ort} - T_{s,ort})];$$

bu yerda  $Q_m$  - radiatordagi moydan olib ketiladigan issiqlik miqdori, J/s;  $K_m$  - moydan sovitgich muhitga uzatiladigan issiqlik koeffitsiyenti,  $Vt/m^2 \cdot K$ ;  $T_{m,ort}$  - radiatordagi moyning o'rtacha harorati  $K$ ;  $T_{s,ort}$  - radiator orqali o'tayotgan sovituvchi muhitning o'rtacha harorati,  $K$ .

Moy-suvli radiatorlar uchun  $T_{s,ort} = 340-360 K$ .

Moy-havoli radiatorlar uchun  $T_{s,ort}=300-315 K$ .

Taxminiy hisoblashlarda:


$$Q_m = q_m \cdot N_{en};$$

deb olinadi.

### 22.1-jadval

*Moydan sovitgich muhitga uzatiladigan issiqlikning radiator turiga qarab o'zgarishi*

Radiator turi	Moyning aylanish tezligi, m/s	$K_m, Vt/(m^2, K)$
Moy - suvli (silliq naychali)	0,1 - 1,2	116 - 465
Moy - suvli (tashqi qovurg'ali)	0,1 - 0,3	580 - 1220
Moy - suvli (moy naychalarida uyurma harakat hosil qilinadi)	0,2 - 3,0	520 - 1220
Moy - havoli	1,0 - 6,0	23 - 72



*22.7- rasm. Tiko dvigatelning moylash tizimi*

1-moy quyish bo'g'izining qopqog'i; 2-moy quyish bo'g'izi; 3-himoyalovchi qobiq; 4-taqsimlash vali yuritmasining tishli tasmasi; 5-taqsimlash vali yuritmasining tishli shkivi; 6-porshen; 7-porshen barmogi; 8-suv nasosi yuritmasining tishli shkivi; 9-chechklovchi halqa; 10-shatun; P-tishli tasmani taranglovchi qurilma; 12-moy nasosi; 13-generatorni harakatga keltiruvchi shkiv; 14-tirsakli val; 15-moy so'rgich; 16-moyni o'zak podshipnikdan shatun podshipnikiga o'tkazish kanali; 17-maxovik; 18-blok kallagi magistraliga moy o'tkazish kanali; 19-taqsimlash valining kulachogi; 20-koromislolar o'qi; 21-karter gazlari o'tkazish kanali; 22-koromislolar o'qlari tayanchining qopqogi; 23-koromislo o'qidagi moy kanali; 24-taqsimlash validagi moy kanali; 25-koromislo; 26-karter tagligi

Bu yerda  $N_{en}$  - dvigatelning nominal effektiv quvvati, kW;  $q_m$  - moy orqali yo'qotiladigan issiklikning solishtirma miqdori, J/(kVt·s); ( $q_m = 47,4-158$ ).

Radiatordagi moyning o'rtacha harorati:

$$T_{m.o'rt} = \frac{T_{m.kir} + T_{m.chiq}}{2} = \frac{2 \cdot T_{m.chiq} + \Delta T_m}{2};$$

bu yerda  $T_{m.chiq}=340-360\text{ K}$ ;

$$\Delta T_m = \frac{Q_m}{G_m \cdot C_m}.$$

Odatda  $Q_m=(0,5 \div 0,7) \cdot G_m$  deb olinadi ( $Q_m$  - moy radiatori orqali sirkulyatsiya qiladigan (aylanadigan) moyning miqdori, kg/s). Nasos orqali beriladigan moyning miqdori:

$$G_m = V_{his} \cdot \rho_m \cdot 10^{-3};$$

bu yerda  $\rho_m$  - moyning zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $C_m$  - 1600-2000 - moyning issiqlik sig'imi, J/(kg·K).

## **XXIII BOB. SOVITISH TIZIMLARI**

### **23.1. SOVITISH TIZIMINING VAZIFASI VA TURLARI**

Ichki yonuv dvigatellarida foydali ish koeffitsiyentining eng katta qiyatiga erishish uchun uning silindrlari, yonish kamerasi, porshenlari va boshqa detallari optimal haroratga ega bo'lishi lozim. Ushbu vazifani sovitish tizimi bajaradi. Aks holda dvigatel ortiqcha qizib ketadi, silindrlarga yonuvchi aralashma yoki havo kam kiradi va quvvat pasayadi, yonilg'ining sarfi ortadi, moy suyulib, qovushoqligi kamayadi va porshen ortiqcha kengayib, qadalib qolishi mumkin.

Dvigatel ortiqcha sovitilsa, moyning qovushoqligi ortadi, silindr ko'zgusida yonilg'i qisman tomchiga aylanib, karterga oqib tushib, moyni suyultiradi. Natijada sifatli yonuvchi aralashma hosil bo'lmaydi va aralashma to'la yonmaydi. Har ikkala holda ham dvigatel detallarining tez yeyilishi kuzatiladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, zamонавији dvigatellar havo yoki suyuqlik bilan sovitiladi. Dvigatel havo bilan sovitilganda silindrlar mashinaning harakati vaqtida hosil bo'ladi gan havo oqimi bilan (mototsikllar) yoki ko'pincha, ventilyator hosil qiladigan havo oqimi bilan sovitiladi (avtomobil va traktor dvigatellari). Bunday dvigatel quyidagi afzallikkarga ega; radiatori, suv g'iloflari, suv naychalari bo'lmaydi, ixcham va oddiy tuzilgan, unga qarash, yurgizib yuborish osон, shu sababli nisbatan kam yeyiladi, havoning issiq-sovuqligi dvigatel ishiga kam ta'sir etadi.

Kamchiligi: ventilyatorni harakatga keltirish uchun ko'proq quvvat sarf bo'ladi.

Ko'pchilik avtomobil va traktor dvigatellari suyuqlik yordamida sovitiladi. Natijada silindr va kallaklarning tuzilishi murakkablashadi, chunki ularni sovitish uchun maxsus suv g'iloflari yasash lozim. Bu holda dvigatel

detallari ortiqcha qizimaydi. Silindr bilan porshen orasidagi tirkishni kamroq qilish mumkin, bu esa moy sarfini kamaytiradi. Suv g'ilofi bo'lgani sababli bunday dvigatel kamroq shovqin bilan ishlaydi. Ushbu tizim suyuqlikning aylanish usuliga qarab, termosifon va suvi majburan aylantiriladigan qilib yasaladi.

### **23.2. SOVITISH TIZIMLARINING TUZILISHI VA ISHLASH SXEMASI**


**1. Havo bilan sovitish tizimi.** Ventilyator harakatni tirsakli valning shkividan oladi. Ventilyator ( $n_c=4700-5100 \text{ min}^{-1}$ ) taqsimlovchi g'ilofga 18-24 m/s tezlikda havo oqimini yo'naltiradi. Yo'naltiruvchi to'siqlar havo oqimini silindr qovurg'alarini ichiga xaydab, ularning yaxshiroq sovishini ta'minlaydi, ya'ni issiqlikning ma'lum qismi olib ketiladi. Ma'lumki, sovituvchi havoning chiqib ketadigan tomoniga har bir silindrga alohida chiypardalar o'rnatilgan. Ular havo sovuq vaqtida issiqlikni kamroq tarqatishga mo'ljallangan. Ventilyator yo'naltiradigan havo oqimi moyni sovitishga ham xizmat qiladi.

Dvigatelning qizib ketishi ventilyator tasmasining tarangligiga, ventilyatorga havo kiradigan sim to'ming iflosligiga, silindr va kallak qovurg'alarini orasini chang bosganligiga bog'liq. Odatta kallak harorati  $160^\circ-170^\circ\text{S}$  dan, moy harorati esa  $100-105^\circ$  dan yuqori bo'lmasligi lozim. Harorat oshib ketsa, dvigateli to'xtatib qo'yish kerak.

Dvigateli havo bilan sovitish talaygina qulayliklarni ta'minlaydi:

- dvigateli ishga tushirish davri kam;
- dvigatel tez qiziydi va bu davrda kamroq yeyiladi;
- yonish issiqligidan foydalanish yaxshi;
- texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash oson;
- radiator yo'q.

Silindr va kallaklarning qovurg' alari sovitish tizimining ishini bajaradi. Buning uchun ventilyator yordamida silindr va kallaklarga ma'lum yo'nalishda havo haydaladi. Bu maqsadda havo yo'naltiruvchi moslamalar o'matiladi (23.1-rasm). Bu esa silindrلarning bir xil harorat rejimida ishlashini ta'minlaydi. Ushbu tizimning kamchiligi ventilyatorni harakatlantirish uchun nisbatan ko'p quvvat sarflanishidir.



*23.1-rasm. Silindrлари бир qator joylashган dvigatellarni havo bilan sovitish sxemasi*

bu yerda  $z$ -parakkalar soni;  $R$ ,  $r$ ,  $b$  - tashqi, ichki radiuslar va kengligi, m;  $\theta$  - havo haydash burchagi, grad.

Hozirgi paytda ba'zi bir avtomobil va traktor dvigatellari  $V$ -simon shaklda, havo bilan sovitiladigan qilib yasalmoqda. Bu holda ventilyator silindrлар qatori orasiga yoki har bir qatorga alohida qо'yilishi mumkin.

**2. Termosifonli sovitish tizimida suyuqlik sovuq va issiq suvlarning solishtirma og'irligi farqi hisobiga aylanib yuradi.**


Bunday tizim avtomobil dvigatellarida umuman qo'llanilmaydi. Faqat traktoring yurgizib yuborish dvigatellarida qo'llaniladi.

**3. Suyuqlik bilan majburan sovitish tizimi.** Hozirgi zamон ichki yonuv dvigatellarida suyuqlik majburan markazdan qochirma nasos bilan haydaladi (23.2-rasm). Suv nasosi radiatorda sovigan suyuqliknи so'rib olib, silindrлarning suv g'ilofiga haydaydi, g'ilofda isigan suv esa bosim ostida radiatorga qaytadi.

$$N_v = An^3;$$

bu yerda  $N_v$ -ventilyatorni harakatlantirish uchun sarf bo'lgan quvvat, kVt;  $n$ -ventilyator valining aylanishlari soni,  $\text{min}^{-1}$ .

$$A = \frac{z(R^4 - r^4)b \cdot \sin \theta}{284000}.$$



**23.2-rasm. Suyuqlik bilan sovitish tizimining sxemasi:**

1-radiator; 2-yuqori bachel; 3-radiator qopqog'i; 4-nazorat quvuri; 5-radiatordaning yuqori patrubogi; 5 va 39-rezina naychalar; 7-cheklagich klapani; 8 va 18-suyuqlik keladigan va chiqib ketadigan patruboklar; 9-termostat; 10-teshikcha; 11-blok kallagi; 12-suv taqsimlash quvuri; 13-suyuqlik haroratini ko'rsatuvchi datchik; 14-silindrler bloki; 15 va 21-to'kib yuborish kranlari; 16-suv g'ilofi; 17-markazdan qochirma suv nasosi kurakchalari; 20-radiatordaning quyi patrubogi; 22-radiatordaning quyi bachel; 23-radiator uzatmasi tasmasi; 24-ventilyator

Blokning g'ilofidagi issiq suv bilan radiatordagi sovitilgan suv haroratlarining farqi  $5-10^{\circ}$  ni tashkil qiladi. Dvigatelning tirsakli vali qancha tez aylansa, nasos bilan ventilyator ham shuncha tez harakatlanib, dvigatel jadal sovitiladi. Ayrim dvigatellarda ventilyator suvning harorati ma'lum darajaga yetgandan so'ng ishga tushadi (Jiguli va KamAZ avtomobillarida). Dvigatel ortiqcha sovib ketmasligi uchun radiatordaning old tomoni chiyparda bilan to'siladi va yuqorigi qisqa quvurga esa termostat o'rnatiladi. Dvigatel yetarli qiziguncha termostat suvni radiatorga o'tkazmasdan quvur orqali nasosga qaytaradi.

Dvigatellarda ochiq va yopiq sovitish tizimi qo'llaniladi. Agar radiatorning tepasiga uchi doim ochiq turadigan naycha o'matilib, undan suv bug'lari atmosferaga chiqsa bersa, ochiq sovitish tizimi deyiladi. Agar sovitish tizimi maxsus bug'-havo klapani bilan atmosferadan ajratib qo'yilsa, yopiq sovitish tizimi deyiladi. Yopiq sovitish tizimida bosim atmosfera bosimidan ortganda bug' klapani ochilib, qisman bug'ni tashqariga chiqaradi, kamayganda esa, havo klapani ochilib, tizimga tashqaridan havo kiradi. Yopiq tizimda suvning bug'lanishi, demak, sarfi ham kam bo'ladi, tizimda quyqa oz hosil bo'ladi, shu sababli hozirgi zamon dvigatellarida yopiq tizim qo'llaniladi.


Sovitish tizimidagi suvning harorati termometr orqali o'lchanadi, datchik esa suv g'ilofiga o'matiladi.

Dvigatel uzoq muddat ishlashi uchun sovitish tizimidagi suvning harorati  $80\text{-}90^{\circ}\text{S}$  oralig'ida ushlab turilishi lozim. Aks holda dvigatel detallarining tez yeyilishi kuzatiladi. Hozirgi zamon dvigatellarida (23.3-rasm) suyuqlik sifatida suv va antifriz ishlataladi. Suvning kamchiligi: u past haroratda qaynaydi ( $100^{\circ}\text{S}$ ) va qaynaganda nasosning ish unumi pasayadi, muzlash harorati esa past ( $0^{\circ}\text{S}$ ). Antifriz bunday kamchiliklardan holi, lekin u zaharli va choklardan sizuvchan bo'ladi. Bu xususda ma'lum izlanishlar va tadqiqotlar olib borilmoqda. Antifrizning tarkibi etilenglikol va distillangan suvdan iborat bo'lib, O'rta Osiyo iqlim sharoitlarida uning «Tosol - A-40» markasi qo'llaniladi. Buning uchun 53% etilenglikol va 47% distillangan suvdan iborat aralashma tayyorlanadi. Uning muzlash harorati -  $40^{\circ}\text{S}$  atrofida bo'ladi.

### **23.3. SOVITISH TIZIMI ELEMENTLARINING TUZILISHI**


Majburiy sovitish tizimi quyidagi elementlardan iborat: sovitish g'ilofi (blok va kallakda), radiator, ventilyator, termostat, chiyparda va nazorat o'lhash asboblari.

I.Sovitish g'ilofi murakkab konstruksiyaga ega bo'lib, har bir silindr uchun alohida, kallak uchun esa umumiy qilib yasaladi. Gilofda suvning tezligi 0,5-1 m/s bo'ladi.



*23.3-rasm. KamAZ-740 dizelining sovitish tizimi:*


1-tirsakli val shkivi; 2-quyi bachok; 3-radiator qopqog'i; 4-radiator; 5-ventilyator uzatmasi gidromuftasi; 6-cheklagich patrubogi; 7-uzatish patrubogi; 8-yuqori bachok; 9-yuqori patrubok; 10-termostat; 11-suv taqsimlash uzatmasi; 12-birlashtiruvchi quvur; 13-suv keladigan quvur; 14-o'ng tomon suv quvuri; 15-suv qaytadigan trubka; 16-kiritish kollektori; 17-suv qizib ketishini ko'rsatuvchi lampochka datchigi; 18-kengayish bachogi; 19-germetik tiqinli bo'g'iz; 20-klapanlar bor qopqoq; 21-kompressordan uzatib beruvchi naycha; 22-chap tomon suv quvuridan suv haydovchi naycha; 23-kompressor; 24-chap tomon suv quvuri; 25-blok kallagi qopqog'i; 26-silindr kallagi; 27-suv nasosi; 28-suv to'kish krani; 29-suv nasosi shkivi; 30-ventilyator; 31-quyi patrubok



**23.4-rasm. Tiko dvigatelining sovitish tizimi:**

1-gaz taqsimlash valimmiq tishli shkivi; 2-suv nasosining tishli shkivi g'ildiragi; 3-taranglovchi qurilma; 4-tishli tasma; 5-yetakchi tishli shkiv; 6-qabul qilgich; 7-radiatorning yugori shlangi; 8-radiatorning pastki bachogi; 9-isitgichning o'zagi; 10-radiatorning yugori bachogi; 11-radiatorning lastki shlangi; 12-isitgichning kiritish shlangi; 13-isitgichning chiqarish shlangi; 14-tesrmostat; 15-kengaytirish bachogi; 16-kengaytirish bachogining qopqog'i; 17-shamollatish shlangi; 18-radiator bilan to'ldiruvchi burchokni tutashtruvchi shlang; 19-qopqoqning chiqaruvchi (bug') klapani; 20-qopqoqning havo klapani; 21-radiator qopqog'i

Odatda, suv oldin blokka, so'ngra kallakka haydaladi. Isigan suv esa maxsus kanallar orqali radiatorga qaytariladi. Kanallar silindrlar kallagining kuchli qiziydigan zonalariga joylashtiriladi. Suv g'iloqlari shunday konstruksiyaga ega bo'lishi kerakki, ularda suv bug'larining tinqinlari hosil bo'lmasligi hamda suv jo'mragi ochilganda sovitish tizimida suv qolmasligi zarur.



**23.5 -rasm. Radiator o'zaklarining turlari:**  
a-quvursimon; b-plastinkasimon; v-ari inisimon


2.Radiator suvning issig'ini jezdan ishlangan maxsus naychalar devori orqali havoga tarqatib suvni sovitadi. Radiatorning sovitish samarasini oshirish uchun u ko'p va mayda naychalardan yig'iladi. Ularning shakllari 23.4-rasmida keltirilgan. Natijada dvigateldan kelayotgan issiq suv oqimi qator mayda oqimlarga bo'linadi, bu oqimlarning har biri esa ventilyator yordamida havo bilan sovitiladi.

Radiatorlarga qo'yiladigan asosiy talab: uning sovitish sirti katta, lekin front yuzasi kichik bo'lishi kerak. Bu esa naychalarning optimal variantini tanlashni taqozo etadi. Naychalarning kesimi yumaloq yoki cho'ziqroq (23.4-rasm, b) shaklda bo'ladi. Sovish sirtini oshirish va naychalar mustahkamroq bo'lishi uchun ularga yupqa jez plastinkalar kirgizilib, kavsharlab qo'yiladi. Lenta naychali radiatorning (23.4-rasm, v) sovituvchi sirti ortiqroq bo'ladi. Radiator o'zagi yuqori va pastki baklarga kavsharlanadi. Naychali radiatorlar eng ko'p tarqalgan. Plastinali radiatorlarni tayyorlash birmuncha qiyin. Ari inisimon radiatorlar nisbatan samarali bo'ladi, chunki sovitish sirtlari katta, lekin ularni tayyorlash ancha murakkab. Odatda, radiatorning qalinligi 75-150 mm oralig'iда (75 mm -

yengil avtomobilarda, 150 mm - yuk tashiydigan avtomobilarda, traktorlarda va h.k.) bo'ladi.

Yopiq sovitish tizimi radiatorining tiqinida (23.5-rasm) bug' - havo klapani bo'ladi.

Bunday tiqin jips yopilib turgani uchun suvning qaynash harorati 106-108°gacha oshadi. Radiatorda ortiqcha bosim 0,02-0,03 MPa ga yetganda, bosim kuchi prujinaning kuchini yengib, bug' klapani 2 ochiladi va ortiqcha bug' naycha 3 orqali atmosferaga chiqadi.



**23.6-rasm. Bug'-havo klapani**

Radiator naychalarining yuzasi va suv nasosi shunday tanlanishi lozimki, naychalardagi suyuqlikning oqish tezligi 0,7-0,9 m/s bo'lishi kerak. Radiatorning old qismidagi havoning tezligi esa 7-12 m/s bo'lishi kerak.

Radiator loyihalanayotganda uning ishiga ta'sir qiluvchi ko'p omillar hisobga olinishi kerak. Eng asosiy ta'lablardan biri barcha iqlim sharoitlarida radiator dvigatelning qizib ketmasligini ta'minlashi kerak. Ventilyatorni harakatga keltirishga esa kam quvvat sarf bo'lmoq'i lozim.

Hozirgi zamon yengil avtomobilari radiatorlarining umumiyligi sovitish yuzasi  $F_u = (0,7-0,11) N_e$ ; yuk avtomobilari va traktorlar uchun esa  $F_u = (0,11-0,22) N_e$  oralig'ida o'zgaradi (bu yerda  $F_u$ -m<sup>2</sup> da;  $N_e$  - kVt da).

Radiator orqali haydaladigan havoning miqdori  $Q_h = (100-160) \times N_e$  oralig'ida bo'ladi (bu yerda  $Q_h$ -kg/soatda,  $N_e$  - kVt da).

**3. Suv nasosining tuzilishi** 23.6-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, avtomobil va traktor dvigatellarida markazdan qochma turi qo'llaniladi. Ko'pgina hollarda nasosning vali ventilyatorning vali bilan yaxlit yasaladi va harakatni tirsakli

valdan (shkiv yoki tasma orqali) oladi. Keyingi paytda chiqarilayotgan dvigatellarda ventilyator ayrim harakatga keltirilmoqda va suvning harorati  $90^{\circ}\text{S}$  ga yetganda ishga tushiriladi. Bu holda ventilyatorni harakatga keltirish uchun isrof bo‘ladigan quvvat foydali ish bajarishga sarflanadi VAZ-2103, 2106, GAZ-53, YAMZ-740 va boshqalar.


Ma’lumki, suv nasosini harakatga keltirish uchun sarflanadigan quvvat dvigatel effektiv quvvatining 2-5% ini tashkil qiladi. Suv nasosi va tirsakli val shkivlari diametrlarining nisbati 0,98-1,95 oralig‘ida bo‘ladi. Ventilyator parragi bilan suv nasosi korpusining oralig‘idagi tirqish 1 mm, o‘q bo‘ylab siljishi esa 0,2 mm bo‘lishi kerak.

Suv nasosi sovitish tizimining qarshiligini hisobga olgan holda tanlanadi. Tizimning maqbul ishlashi uchun suyuqlik oqadigan yo‘lning istalgan nuqtasidagi bosim suyuqlikning bug‘ hosil qilish bosimidan kichik bo‘lmasligi kerak. Odatda, bir pog‘onali nasoslar ishlatiladi. Bu holda so‘rish patruboklaridagi suyuqlikning tezligi 2,5-3 m/s, hosil qilinadigan bosim esa 0,035-0,15 MPa oralig‘ida bo‘ladi.

**4.Ventilyator** (23.6-rasm) radiator naychalari orasida havo oqimi hosil qiladi. Uning diametri dvigatellarning turiga qarab 30-70 sm bo‘ladi. Parraklar, odatda, yupqa po‘latdan yoki plastmassadan tayyorlanadi va ikki xil (tekis, qavariq) bo‘ladi. Tekis parraklarda havoni qamrash burchagi  $40\text{-}45^{\circ}$ , qavariq parraklarda esa  $35^{\circ}$  atrofida bo‘ladi. Ularning soni 4-6 ta bo‘ladi,  $70^{\circ}$  va  $110^{\circ}$  burchak ostida just-just qilib joylashtiriladi. Ko‘pgina hollarda parraklar orasidagi burchaklar o‘zaro teng qilib olinadi. Parrak odatda g‘ilof ichida aylanadi. Bu holda radiator bilan ventilyator oralig‘i 8-10 sm bo‘ladi. Gilof bo‘lmasa, bu masofa kichik (1-1,5 sm) bo‘ladi.

Sovitish tizimining samarasini oshirish uchun yuritmali (ishga tushib to‘xtaydigan) ventilyatorlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu holda ventilyatorning

shkivi elektromagnitli mufta bilan podshipniklarga erkin o'matiladi. Ventilyatorni ishga tushirish harorat datchigi orqali amalga oshiriladi.




**23.7-rasm. ZIL-130 dvigatelining suv nasosi va ventilyatori:**

1-maxsus gayka; 2-shponka; 3-ventilyator shkivining to'g'ini; 4-ventilyator; 5-shkiv; 6-generatormi harakatlantiruvchi tasma; 7-gidrokuchaytirgich nasosini harakatlantiradigan tasma; 9-cho'yan korpus; 10-tiqin; 11-moydon; 12-kurakchalar korpusi; 13-nasos kurakchalari; 14-o'zi siqiladigan moytutqich; 15-val; 16-grafitlangan tekstolit shayba; 17-kulakchalar oboymasi; 18-qaytargich; 19 va 21-podshipniklar; 20-vtulka; 22-konus vtulka

23.7-rasmda KamAZ-740 dvigatelining gidromuftasi keltirilgan. Bu mufta avtomatik tarzda ishlaydi. Dvigateldagi suyuqlikning haroratiga mos holda mufta orqali moyning sarfi o'zgaradi, natijada ventilyatorning aylanish tezligi haroratga munosib o'zgaradi, ya'ni


harorat qancha yuqori bolsa, shuncha tez va aksinchal, harorat qancha past bolsa, shuncha sekin aylanadi.



**23.8-rasm. Ventilyatorni harakatlantiradigan gidromufsta:**

(KamAZ-740 dvigateli) 1-oldingi qopqoq; 2-korpus; 3-kojux, 4, 7, 12 va 20-zo'ladirli podshipnikdar; 5-moy keltirish quvuri; 6-yetakchi val; 8-zichlagich halqalar; 9-yetaklanuvchi g'ildirak; 10-yetakchi g'ildirak; 11-shkiv; 12-shkiv vali; 14-tirak vtulka; 15-ventilyator to'g'ini; 16-yetaklanuvchi val; 17 va 21-o'zi siqiluvchik moytutqichlar; 18-qistirma; 19, 22-boltlar

**5.Termostat** (23.8-rasm) sovitish tizimidagi suyuqlikning haroratini ma'lum chegarada saqlaydi va uning isishini tezlashtiradi. Termostat korpus, gofrlangan latun (jez) silindr, shtokka mahkamlangan asosiy va yordamchi klapanlardan iborat. Termostat silindrining bir qismiga oson bug'lanadigan suyuqlik - etil spirtining suvdagi eritmasi quyiladi. Ba'zi dvigatellarda (ZIL-130) qattiq modda



**23.9-rasm. Termostatlar sxemalari:**

a-suyuqlikli (GAZ-24 avtomobili dvigateli); b-qattiq holatdagi to'ldiruvchi bilan (ZIL-130 avtomobil dvigateli); I va IV-termostatlar ochiq; II va III termostatlar yopiq; 1-suv nasosi korpusi; 2-gofrlangan ballon; 3 va 13-shtoklar; 4-qistirma; 5 va 15-termostat klapanlari; 6 va 16-patruboklar; 7 va 18-termostatlar korpusi; 8-kronshteyn; 9-termostat balloni; 10-qattiq holatdagi to'lirgich; 11-rezinali membrana; 12-yo'naltiruvchi vtulka; 14-prujina qaytargich; 17-klapan koromislosi; 19-bufer; 20-kiritish quvuri

to'ldirilgan termostatlar qo'llanildi. Tizimdag'i suv sovuq bo'lganda termostatning silindri siqilgan holatda bo'lib, asosiy klapan berk bo'ladi va yuqorigi qisqa quvurga suv o'tkazmaydi. Bunday holda yordamchi klapan ochiq bo'lib, suv termostat korpusidagi teshiklar orqali kanalga kirib, undan suv nasosiga qaytadi, ya'ni kichik doira orqali harakat qiladi. Tizinga suv quyishda suv g'iloflaridagi havoni chiqarib yuborish uchun asosiy klapanda kichkina teshik qilingan. Suyuqlik radiatorda sovitilmaganligi uchun tez isiydi va termostat silindri ichidagi suyuqlik bug'ga aylana boshlaydi.

Harorat  $70^{\circ}\text{S}$  ga yetganda, asosiy klapan ochila boshlaydi. Suyuqliknинг harorati  $85^{\circ}\text{S}$  ga yetganda asosiy klapan batamom ochilib, yordamchi klapan berkiladi. Natijada suyuqliknинг hammasi radiator orqali o'tib, katta doira orqali harakat qiladi va soviydi.

Suyuqlik soviganda silindr siqiladi va shtok klapanini pastga tushiradi. Shunday qilib, termostat suvning haroratini avtomat ravishida  $70\text{-}85^{\circ}$  oralig'ida saqlaydi.

Biz ko'rigan termostat ikki klapanli bo'lib uning kamchiligi shundaki, klapanining ochilish harorati tashqi bosimga bog'liq bo'lib, katta chegarada o'zgaradi (GOST bo'yicha klapanning to'liq ochilish harorati  $83\text{-}90^{\circ}$  ga teng). Shu sababdan bu kamchiliklardan holi bo'lgan termostatlar qo'llash maqsadga muvofiqdir. Misol tariqasida 23.8-rasm, b da ZIL-130 dvigateining termostati (qattiq to'ldirgichli) keltirilgan. Bunday termostat qopqoq 10 bilan zikh yopilgan ballon 13 dan iborat. U quyidagicha ishlaydi: ballonning ichi faol modda (neftli kristall mum) bilan to'ldirilgan bo'lib, uning hajmiy kengayish koefitsiyentiga tashqi bosim ta'sir qilmaydi. U  $75\text{-}80^{\circ}\text{S}$  da eng ko'p kengayadi. Kengayishi natijasida klapan 7 ko'tarilib, suv radiator orqali harakat qila boshlaydi.

**6. Jalyuzalar** plastina shaklida bo'lib radiator oldiga o'rnatiladi. Ularni richaglar tizimi orqali haydovchi boshqaradi. Plastinalar burliganda radiator batamom to'silib, undan havo o'tmaydi va dvigateldagi suyuqlik tez isiydi.

### 23.4. SOVITISH TIZIMINING ELEMENTLARINI HISOBBLASH

Sovitish tizimining elementlarini hisoblash uchun dvigateldan sovitish tizimiga o'tadigan issiqlik miqdori ( $J/s$ ) ni aniqlash kerak, ya'ni:

$$Q_s = q_s \cdot N_e;$$

bu yerda,  $q_s$  - issiqliknинг solishtirma miqdori,  $J/(kVt \cdot s)$ . Statistik ma'lumotlarga ko'ra karbyuratorli dvigatellarda  $q_s = 800...1200 \text{ J/kVt \cdot s}$ ; dizellarda esa  $q_s = 630...1000 \text{ J/kVt \cdot s}$  oralig'iда o'zgaradi.

Taxminiy hisoblashlarda quyidagi formuladan foydalanan mumkin:

$$Q_s = C \cdot i \cdot D_s^{1+2m} \cdot n^m \cdot \left( \frac{1}{\alpha} \right);$$

bu yerda  $C = 0.41 \div 0.47$  - koefitsiyent;  $i$ -silindrlar soni;  $D_s$ -silindr diametri, sm;  $n$ -tirsakli valning aylanishlari soni,  $\text{min}^{-1}$ ;  $\alpha$  - havoning ortiqlik koefitsiyenti;  $m = 0.6 \div 0.7$  - koefitsiyent.

**Radiater yuzasini hisoblash.** Sovitish tizimida vaqt birligida sirkulyatsiya qiladigan suyuqlikning miqdori:

$$G_s = Q_s / C_s \cdot \Delta T_s;$$

bu yerda  $C_s = 4,178 \text{ J/(kg \cdot K)}$ -suvning issiqlik sig'imi;  $\Delta T_s = 5 \div 10 \text{ } \Delta T_s = T_{s,kir} - T_{s,chiq}$  - radiatorga kirayotgan va chiqayotgan suyuqlik haroratlarining farqi.

Radiatorning sovitish yuzasi  $F_r (\text{m}^2)$ :

$$F_r = \frac{Q_s}{K \cdot (T_{s,ori} - T_{h,ori})}$$

bu yerda  $K$  - issiqlik uzatish koeffitsiyenti,  $\text{Vt}/(\text{m}^2 \cdot \text{grad})$ ;  $T_{s.o.n} = 353 - 368 \cdot K$  - radiatordagi suyuqlikning o'rtacha harorati;  $T_{h.o.rn} = 323 - 328 \cdot K$  - radiator orqali o'tayotgan havoning o'rtacha harorati; Karbyuratorli dvigatellar uchun  $K = 140 \div 180$ , dizellar uchun esa  $K = 80 - 100$  oralig'ida tanlanadi.

Hozirgi zamон ichki yonuv dvigatellari uchun radiatorning solishtirma sovitish yuzasi  $f_r = \frac{F_r}{N_c}$  va sovitish tizimining solishtirma hajmi  $V_s = V_r / N_c$  quyidagi qiymatlarga ega ( $V_s$ -sovitish tizimining to'la hajmi, l). Yengil avtomobillarda  $f_r = 0.136 - 0.313 \text{ m}^2/\text{kVt}$ ;  $V_s = 0.613 - 0.354 \text{ l/kVt}$ .

Yuk avtomobilari dvigatellarida

$$f_r = 0.204 - 0.408 \text{ m}^2/\text{kVt}; V_s = 0.272 - 0.816 \text{ l/kVt}.$$

Traktor dvigatellarida

$$f_r = 0.408 - 0.543 \text{ m}^2/\text{kVt}; V_s = 0.816 - 2.04 \text{ l/kVt}.$$

Radiator orqali haydalayotgan havening sarfi ( $\text{m}^3/\text{s}$ ) quyidagicha aniqlanadi:

$$G_h = Q_h / (\rho_h \cdot C_h \cdot \Delta T_h);$$

bu yerda  $Q_h$ -radiatordan havo orqali olib ketiladigan issiqlik miqdori:

$$Q_h = Q_s, \text{ J/s};$$

$C_h \approx 1000$ . havoning issiqlik sig'imi,  $\text{J}/(\text{kg} \cdot \text{K})$ ;  $\Delta T = 20 \div 30$  - radiatorga kirish va chiqishda havo haroratining farqi,  $K$ ;  $\rho_h$  - havoning o'rtacha zichligi,  $\text{kg}/\text{m}^3$ .

$$\rho_h = \frac{p_o \cdot 10^6}{R_h \cdot T_{h.o.rn}};$$

bu yerda  $p_o$ -atmosfera bosimi, MPa;  $R_h$ -287 havoning solishtirma gaz doimiysi,  $\text{J}/\text{kg} \cdot \text{K}$ . Radiator tizimining frontal yuzasi:

$$F_{r,f} = \frac{G_h}{v_h};$$

bu yerda  $v_h = 6 \div 24 \text{ m/s}$ , radiator fronti oldidagi havoning tezligi (mashinaning harakat tezligi hisobga olinmaydi). Radiatorning eni:

$$l = \frac{F_r}{F_{r,f}}, \text{ m}.$$

Kompaktlik koeffitsiyenti ( $\text{m}^2/\text{m}^3$ ):

$$\varphi = \frac{F_r}{F_{r,f} \cdot l}.$$

**Ventilyatorni tanlash.** Ventilyatorni harakatga keltirish uchun sarf bo'ladigan quvvat:

$$N_{ren} = \frac{G_h \cdot H_h}{\eta_{ren} \cdot 10^3};$$

bu yerda  $G_h$ -radiator orqali haydaladigan havoning miqdori,  $\text{m}^3/\text{s}$ ;  $N_h=600 \div 1000 \text{ Pa}$ , havo traktining umumiyligini qarshiligi;

$\eta_{ren}$  -ventilyatorming foydali ish koeffitsiyenti ( $0,32 \div 0,40$  - yig'ma va  $0,55 \div 0,65$  - quyma ventilyator uchun).

Ventilyatorming diametri:

$$D_{ren} = 2 \sqrt{\frac{F_{r,f}}{\pi}}.$$

**Havo bilan sovitish sistemasi.** Bu sistemani hicoblashda qovurg'alarning o'lchamlari, ventilyatorming o'lchami va quvvati hamda ventilyatorni harakatga keltirish uchun sarf bo'ladigan quvvat aniqlanadi. Silindr va kallak qovurg'alarini orqali olib ketiladigan issiqlikning umumiyligini miqdori ( $\text{J/s}$ ):

$$Q_{umum} = B \cdot N_e \cdot g_e \cdot H_u;$$

bu yerda  $B=0,28-0,33$ -karbyuratorli dvigatellar uchun;  $B=0,25-0,30$  dizellar uchun.

Dizellar uchun kallak va silindr orqali uzatiladigan issiqlik miqdori quyidagicha taqsimlanadi:

$$Q_{kal} = (0,45 \div 0,60) \cdot Q_{umum},$$

$$Q_{sil} = (0,55 \div 0,40) \cdot Q_{umum}.$$

23.1-jadvalda havo bilan sovitiladigan dvigateler uchun qovurg'alarining o'lchamlari keltirilgan.

Karbyuratorli dvigatellar uchun:

$$Q_{kal} = (0,60 \div 0,75) \cdot Q_{umum} \text{ va } Q_{sil} = (0,4 \div 0,25) \cdot Q_{umum}.$$

Ventilyator yordamida haydalishi kerak bo'lgan havoning miqdori (kg/s):

$$G_v = Q_{umum} / [C_{ph}(T_{h.chiq.} - T_{h.kir.})];$$

bu yerda:  $C_{ph}$ -havoning o'rtacha issiqlik sig'imi, J/(kg·K);

$$T_{h.kir.} = 313 \text{ K}; T_{h.chiq.} = 353 \div 373 \text{ K}.$$

### 23. I-jadval

Qovurg'alar o'lchamlari, mm*	Cho'y'an		Alyuminiy qotishmasi	
$h$	14-30	15-50	15-35	15-75
$S$	6-12	6-12	3,5-8	3,5-8
$e$	4-8	4-8	2-6	2-6
$\delta$	2-4	2-4	1,5-2,5	1,5-2,5
	Silindr	Kallak	Silindr	Kallak

$h$ -qovurg'alar balandligi:  $S$ -qovurg'alar qadami;  $e$ -qovurg'alar orasining kengligi;

$\delta$ -qovurg'alarining o'rtacha qalinligi.

Silindr va kallak qovurg'alarining umumiyligi yuzasi

$$\Gamma_{sil} = \frac{Q_{sil}}{K_h \cdot (T_{sil} - T_{h.kir.})};$$

$$\Gamma_{kal} = \frac{Q_{kal}}{K_h \cdot (T_{kal} - T_{h.kir.})};$$

bu yerda  $T_{sil}$ ,  $T_{kal}$  - silindr va kallak qovurg'alarini tagining harorati:  $K_h$ -issiqlik berish koefitsiyenti,  $\text{W}/(\text{m}^2 \cdot \text{K})$ .

Statistik ma'lumotlarga asoslanib:

$$T_{sil} = 403 \div 423 \text{ K}; T_{kal} = 423 \div 473 \text{ K} \text{ (alyuminiy qotishma)}$$

$T_{vt} = 403 \div 453\text{ K}$ ;  $T_{kt} = 433 \div 503\text{ K}$  (cho'yan) oralig'ida tanlanadi.

$$K_h = 1,37(1 - 0,0075T_{o'ret}) \left( \frac{v_h}{0,278} \right)^{0,73};$$

bu yerda  $v_h$  - qovurg'alar orasidan o'tadigan havoning tezligi,  $v_h = 20 \div 50\text{ m/s}$  oralig'ida tarilanadi ( $D_s = 75 \div 125\text{ mm}$ ).  $T_{o'ret}$  -qovurg'alar va ular orasidagi havo haroratining o'rtacha qiymati.

### 23.5. SOVITISH TIZIMIGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, sovitish tizi mining buzilishi dvigatel barcha tizimlari buzilishining 7-8% ini tashkil qilar ekan. Bu esa sovitish tizimiga texnik qarovni yaxshi yo'lda qo'yishni taqozo etadi.

Ma'lumki, keyingi paytlarda ichki yonuv dvigatellarida suyuqlik sifatida antifriz (quyqa hosil qilmaydigan suyuqlik) ishlatilmoqda. Afsuski, uning miqdori chegaralangan bo'lgani uchun ko'pgina hollarda yana suv ishlatilmoqda. Suv qaynaganida esa radiatorda va suv g'iloflarida quyqa hosil qiladi. Natijada dvigatelning quvvati va samaradorligi pasayadi. Bu esa o'z navbatida vaqt-vaqt bilan sovitish tizimini quyqadan tozalab turishni taqozo etadi. Uni ketkazish uchun ko'pgina kimyoviy usullar qo'llaniladi. Lekin ularning barchasi sovitish tizimining korroziyalishini kuchaytiradi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, tizimni yuvish uchun lignosulfon kislotasining 3-5% li eritmasi ishlatilganda, detallarning korroziyalanishi 20 marta kam bo'lar ekan.

Ko'pgina hollarda antinakip (quyqaga qarshi modda) ishlatish maqsadga muvofiq bo'lmoqda. Masalan, AH-2 moddasini ishlatganda, dvigatel va radiatorda hosil bo'lgan quyqa eritib yuboriladi.

Ba'zan sovitish tizimini quyqadan tozalash uchun 1 litr suvga 100 gr kir sodasi, 50 gr kerosindan iborat aralashma tizimga quyiladi. Odatda, bu aralashma kechqurun quyiladi va ertalab dvigatel 10-15 minut o'rtacha tezlikda ishlataladi. So'ngra suv to'kib tashlanadi. Tizim toza suv bilan yuviladi va yangi qaynatilgan suv quyiladi.

Bularning barchasi dvigateli qizib ketishdan saqlaydi, quvvati va tejamkorligini yaxshilaydi. Bundan tashqari, vaqt-i-vaqt bilan suv nasosi va ventilator tasmalarining tarangligi, termostatning ishlashi tekshiriladi, nasos moylanadi va h.k.

Tasmalarning tarangligi avtomobil dvigatellarida 3-4 kg, traktorlarda 5-7 kg kuch bilan tekshiriladi. Ularning egilishi 1,5-2 sm oraliq'ida bo'lishi kerak. Tafovut bo'lsa, ularning tarangligi rostlanadi.

Termostat esa issiq suvga solib tekshiriladi. Buning uchun termometr kerak. Suv isitiladi va uning harorati 68-72°S ga yetganda termostatning asosiy klapani ochila boshlashi kerak. Harorat 82-85°S ga yetganda esa klapan to'liq ochilishi lozim. Bu talabga javob bermaydigan termostat almashtirilishi lozim.

Havo bilan sovitiladigan dvigatellarda (D-37E, D-144) texnik xizmat birmuncha oson. Buning uchun ventilator sim to'rlarini va sovitish qovurg'alarini vaqt-i-vaqt bilan qurumdan tozalab turish lozim. Qovurg'alarda kattiq qurumning hosil bo'lishi dvigateling qizib ketishiga, quvvatining esa pasayishiga olib keladi.

## АДАБИЙОТЛАР

1. Arhangelskiy V.M. va boshqalar. «Автомобильные двигатели». M.S.Xovaxning umumiy tahriri ostida. M., «Mashinostroyeniye», 1977.
2. Xovax M.S., Maslov G.S. «Avtomobil dvigatellari» (S.M.Qodirov tarjimasi) T., «O'qituvchi», 1977.
3. Qodirov S.M., Qodirxonov M.A. «Dvigatel va avtomobillar nazariyasi», T., «O'qituvchi», 1981.
4. Solihov I. «Traktorlar, avtomobillar va qishloq xo'jalik dvigatellari». T., «O'qituvchi», 1969.
5. Xachiyan A.S. va boshqalar. «Двигатели внутреннего сгорания». М., «Высшая школа», 1978.
6. Mixaylovskiy Ye.V. va boshqalar. «Устройство автомобилей». М., «Mashinostroyeniye», 1981.
7. Chernishev G.D. va boshqalar. «Двигатель ЯМЗ-236 и 238». М., «Mashinostroyeniye», 1968.
8. Kadirov S.M., Nikitin S.Ye. «Rabochiy protsess i ekspluatatsiya dizeley v usloviyakh Sredney Azii». T., «Uzbekistan», 1976.
9. Kadirov S.M. «Dolgovechnost avtotraktornix dizeley v usloviyakh Sredney Azii». T., «O'qituvchi», 1982.

# M U N D A R I J A

<b>So'z boshi .....</b>	<b>3</b>
<b>Kirish .....</b>	<b>4</b>
<b>Birinchi qism</b>	
<b>Ichki yonuv dvigatellari nazariyasি .....</b>	<b>6</b>
I bob. <b>Texnik termodinamikadan qisqacha ma'lumotlar</b>	
1.1.Ish jismining holatini belgilovchi ko'rsatkichlar ..	6
1.2.Termodinamikaning birinchi qonuni .....	9
1.2.1.Termodinamika birinchi qonunining tenglamasi	10
1.3.Termodinamikaning ikkinchi qonuni.....	13
II bob. <b>Ichki yonuv dvigatellarining nazariy siklari .....</b>	17
2.1.Umumiylar ma'lumot .....	17
2.2.Issiqlik o'zgarmas hajmda ( $V=const$ ) beriladigan sikl .....	18
2.3.Issiqlik o'zgarmas bosimda ( $p=const$ ) beriladigan sikl .....	22
2.4.Issiqlik aralash usulda beriladigan sikl .....	25
III bob. <b>Yonilg'i va uning yonish kimyoiy reaksiyalari .....</b>	28
3.1.Yonilg'i .....	28
3.2.Yonilg'inining yonish reaksiyalari .....	34
3.3.Yonish mahsulotlarini zararsizlantirish .....	43
IV bob. <b>Ichki yonuv dvigatellarining haqiqiy siklari .....</b>	45
4.1.Umumiylar ma'lumot .....	45
4.2.To'rt taktli dvigatelning ish sikli .....	48
V bob. <b>Ichki yonuv dvigatellarida sodir bo'ladigan jarayonlar .....</b>	53
5.1.Gaz almashinish jarayoni .....	53
5.2.Siqish jarayoni .....	72
5.3.Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellarda yonish jarayoni. Umumiylar ma'lumotlar .....	75
5.3.1.Yonish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar .....	80
5.3.2.Detonatsiyali yonish .....	87
5.3.3.Barvaqt o'z-o'zidan alanganish .....	91
5.3.4.Yonish davrida o'z-o'zidan alanganish .....	92
5.4.Dizellarda yonish jarayoni .....	93
5.4.1.Umumiylar ma'lumot .....	93
5.4.2.Dizellarda yonish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar .....	96
5.5.Siklning maksimal harorati va bosimini aniqlash ..	101
5.6.Kengayish jarayoni .....	105

<b>VI bob.</b>	<b>Siklning o'rtacha bosimi, dvigatelning quvvati va tejamiligi .....</b>	<b>108</b>
	6.1.Siklning o'rtacha indikator bosimi .....	108
	6.2.Dvigatelning indikator quvvati .....	113
	6.3.Dvigatelda mexanik yo'qotishlar .....	113
	6.4.Effektiv quvvat va mexanik F.I.K. ....	116
	6.5.Yonilg'i sarfi va F.I.K. ....	117
	6.6.Yonilg'inинг solishtirma sarfi va dvigatel quvvatiga ta'sir qiluvchi omillar .....	121
	6.7.Dvigatelning issiqlik balansi .....	130
<b>VII bob.</b>	<b>Uchqun bilan o't oldiriladigan dvigatellarda aratashma hosil qilish .....</b>	<b>134</b>
	7.1.Gidrodinamikadan qisqacha ma'lumot .....	134
	7.2.Yonilg'inинг karbyuratsiyalanish xossalari .....	140
	7.3.Oddiy karbyurator .....	141
	7.4.Ideal karbyurator .....	146
	7.5.Karbyuratorning asosiy dozallash tizimi .....	148
	7.6.Karbyuratorning yordamchi tuzilmalari .....	155
	7.7.K-88 A karbyuratorining tuzilishi va ishlashi .....	159
	7.8.Karbyuratorli dvigatelning eng katta tezlik rejimi rostlash .....	162
	7.9.Yonilg'i purkab aratalashma hosil qilish .....	165
<b>VIII bob.</b>	<b>Dizellarning yonilg'i berish apparaturasi .....</b>	<b>184</b>
	8.1.Umumiy ma'lumotlar .....	184
	8.2.Yuqori bosimli yonilg'i nasosi .....	185
	8.3.Forsunkalar .....	194
	8.4.Yuqori bosimli yonilg'i nasosi va forsunkaning birga ishlashi .....	198
	8.5.Aylanishlar chastotasi regulyatorlari .....	203
	8.6.Korrektorlar .....	208
<b>IX bob.</b>	<b>Dizellarda yonuvchi aratalashma hosil qilish .....</b>	<b>211</b>
	9.1.Yonish kameralari .....	211
	9.2.Yonilg'i purkash .....	222
	9.3.Purkash tavsifi (xarakteristikalari) .....	226
<b>X bob.</b>	<b>Dvigatellarni sinash .....</b>	<b>229</b>
	10.1.Umumiy ma'lumotlar .....	229
	10.2.Dvigatellarning quvvatini aniqlash .....	230
	10.3.Yonilg'i va havo sarfini o'lchash .....	233
	10.4.Dvigatelning indikator diagrammasini olish .....	237
	10.5.Dvigatelning tavsiflari (xarakteristikalari) .....	241
	10.6.Dvigatel ish rejimining turg'unligi .....	251

<b>XI bob.</b>	<b>Dvigelarning ko'rsatkichlarini oshirish usullari va ularni rivojlantirish istiqbollarri</b> .....	255
	11.1.Umumiy ma'lumot .....	255
	11.2.Dvigatelning quvvatini oshirish usullari .....	256
	11.3.Ishlatilgan gazlarning zaharligini kamaytirish ...	261
	11.4.Yonilg'ini tejash usullari .....	262
	11.5.Boshqa turdag'i dvigatellami rivojlantirish istiqbollarri .....	263
<b>Ikkinci qism</b>		
<b>Ichki yonuv dvigateli kinematikasi, dinamikasi va konstruksiyasi</b> .....		271
<b>XII bob.</b>	<b>Krivoship-shatunli mexanizm kinematikasi</b> .....	271
	12.1.Aсоси tushunchalar .....	271
	12.2.Krivoship-shatunli mexanizmdagi kinematik bog'lanishlar .....	273
<b>XIII bob.</b>	<b>Krivoship-shatunli mexanizm dinamikasi</b> .....	277
	13.1.Krivoship-shatunli mexanizmnинг massalarini keltirish .....	277
	13.2.Krivoship-shatunli mexanizmga ta'sir etuvchi kuchlar .....	281
<b>XIV bob.</b>	<b>Dvigateltarni muvozanatlash va ularning ravon ishlashini ta'minlash</b> .....	294
	14.1.Bir silindrli dvigatel .....	295
	14.2.Silindrlari bir tekislikda joylashgan dvigateltarni muvozanatlash .....	297
	14.3.Silindrlar V-simon joylashgan dvigatellami muvozanatlash .....	298
	14.4.Tirsakli vallarni muvozanatlash .....	303
	14.5.Dvigatelning ishlash tartibi va ravonligi .....	306
	14.6.Tirsakli valning burama tebranishlari .....	311
<b>XV bob.</b>	<b>Dvigatelning asosiy konstruktiv parametrlarini tanlash</b> .....	314
	15.1.Dvigatel turini, silindrlari soni va joy lashishini tanlash .....	314
	15.2.Konstruktiv parametrlar $\left( s / D \text{ ea } \lambda = \frac{R}{L_{sh}} \right)$ ni tanlash .....	316
<b>XVI bob.</b>	<b>Bloklar, karterlar, silindrlar kallagi</b> .....	319
	16.1.Blok-karter .....	319

	16.2.Gilqzalar .....	323
	16.3.Tub podshipniklar .....	327
	16.4.Silindrlar kallagi (golovkasi) .....	330
	16.5.Kart rning pastki qismi (taglik) .....	337
<b>XVII bob.</b>	<b>Porshen guruthi .....</b>	<b>339</b>
	17.1.Porshenlar .....	339
	17.2.Porshen barmoqlari .....	345
	17.3.Porshen halqlari .....	348
<b>XVIII bob.</b>	<b>Shatun guruthi .....</b>	<b>355</b>
	18.1.Shatunlar .....	355
	18.2.Shatun vtulkalari va ichqo'ymalari (vkladishlari). ....	359
	18.3.Shatun boltlari .....	360
<b>XIX bob.</b>	<b>19.1.Tirsakdi val .....</b>	<b>362</b>
<b>XX bob.</b>	<b>Gaz taqsimlash mexanizmi .....</b>	<b>370</b>
	20.1.Klapani lamining joy lashishi .....	371
	20.2.Gaz taqsimlash mexanizmlarining konstruksiyalari .....	373
<b>XXI bob.</b>	<b>Havo, moy va yonilg'i tozalagichlar .....</b>	<b>389</b>
	21.1.Havo tozaligichlar .....	389
	21.2.Yonilg'i tozalagichlar .....	393
	21.3.Moy tozalagichlar .....	397
<b>XXII bob.</b>	<b>Moylash tizimlari .....</b>	<b>403</b>
	22.1.Umumiy tushunchalar .....	403
	22.2.Moylash tizimining vazifasi va turi .....	405
	22.3.Ichki yonuv dvigatellarida ishlataladagan moylar va ularning xossalari .....	406
	22.4.Moylash tizimining umumiy sxemasi .....	409
	22.5.Moylash tizimining asbob va mexanizmlari .....	411
	22.6.Moylash tizimiga texnik xizmat ko'rsatish .....	415
	22.7.Moylash tizimining elementlarini hisoblash .....	417
<b>XXIII bob.</b>	<b>Sovitish tizimlari .....</b>	<b>422</b>
	23.1.Sovitish tizimining vazifasi va turari .....	422
	23.2.Sovitish tizimlarining tuzilishi va ishlash sxemasi .....	423
	23.3.Sovitish tizimi elementlarining tuzilishi .....	426
	23.4.Sovitish tizimining elementlarini hisoblash .....	436
	23.5.Sovitish tizimiga texnik xizmat ko'rsatish .....	440
<b>Adabiyotlar .....</b>		<b>442</b>
<b>Mundarija .....</b>		<b>443</b>

SARVAR MUQADDIROVICH QODIROV

**ICHKI YONUV DVIGATELLARI**  
*(nazariya, konstruksiya)*

**Toshkent – 2006**  
**«Yangi asr avlodi»**

Mas'ul muharrir Sh.Shomansurov  
Korrektor N.Qodirova  
Texnik muharrir: I.Habibullayev

Terishga berildi 30.10.2006 y. Bosishga ruxsat etildi 30.11.2006 y.  
Бичими 60x84 1/16. Bosma tabog'i 18,3. Ofset usulida bosildi.  
TimesRoman garniturası. Adadi 1000. Buyurtma № 49  
Bahosi shartnoma asosida.

«Yangi asr avlodi» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.  
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

Izoxlar uchun